Ö76.2
39
S-23.

T. O‘. Salimov

JAHON XALQLARI ETNOLOGIYASI



O'26.2
39
S-23

Salimov Tursun O'sarovich

JAHON XALQLARI ETNOLOGIYASI

o'quv qo'llanma

Toshkent
«VNESHINVESTPROM»
2019

UO'K 985.215.2
KBK 251.6

Salimov Tursun Usarovich. Jahon xalqlari etnologiyasi[matn] / T.U.Salimov. –Toshkent: «VNESHINVESTPROM», 2019. -344 b.

Ma'sul muharrir:
R.H.Sulaymonov – tarix fanlar doktori, professor.

Taqrizchilar:
B.M.Ubaydullayeva – tarix fanlari doktori,
A.D.Bababekov – tarix fakulteti o'qituvchisi

Mazkur o'quv qo'llanma "Jahon xalqlari etnologiyasi" fanini o'rganuvchi mutaxassis, talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda jahon xalqlarining etnologik klassifikatsiyasi, an'anaviy xo'jaligi, turar-joylari, kiyim-kechaklari, taqinchoq va bezaklari, uy-ro'zg'or buyumlari, taomlari, ichimliklari, diniy e'tiqodlari, xalq og'zaki ijodi, san'ati haqida so'z yuritiladi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 14-iyundagi 531-son buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-4888-3-0
©VNESHINVESTPROM, 2019

SO'Z BOSHI

"Barchamizga ma'lumki, hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko'tarmoqda... Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda"[1].

Mazkur o'quv qo'llanma "Jahon etnologiyasi" fanidan 5120400-Arxeologiya ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, tarix fakultetinining "Arxeologiya" kafedrasi prof. v/b T.U.Salimov tomonidan ishlab chiqilgan "Jahon etnologiyasi " fani o'quv qo'llanmasi fanini yaratishda etakchi xorijiy OTMlari o'quv dasturlariga asosiy adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan Hawaiki, Ancestral Polynesia an Essay in Historical Anthropology. Published in the United States of America by Cambridge University Press, New York. 2001, Barbara A. West. Encyclopedia of the Peoples of Asia and Oceania Copyright © 2009 adabiyotlardan foydalanildi.

"Jahon etnologiyasi" fani 5120400-Arxeologiya ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 2-3-4 semestrlarida mos ravishda 114 va 120 auditoriya soatlarda o'qitiladi. I – semestrda 24 soat ma'ruza, 32 soat seminar mashg'ulotlari o'tiladi. Mazkur semestrda fanning predmeti, maqsadi va vazifalari, etnologiya fanining shakllanishi, jahon xalqlarining etnologik klassifikatsiyasi, Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining etnologik klassifikatsiyasi, an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlari, moddiy va ma'naviy madaniyati, Okeaniya xalqlari: Melaneziya, Mikroneziya va Polineziya, G'arbiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Markaziy va Sharqiy Osiyo, Shimoliy Osiyo,

[1] Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. t.1. –Toshkent, "O'zbekiston", 2017.

Afrika va Amerika hamda yevropa xalqlarining geografik, antropologik, lingvistik, xo'jalik-madaniy klassifikatsiyasi, kelib chiqishi, an'anaviy turar-joy, kiyim-kechak, taqinchoq va zeb-u ziynat buyumlari, an'anaviy ma'naviy madaniyati: dinlari, ijtimoiy tuzumi, folklori va xalq og'zaki ijodi, tasviriy va haykaltaroshlik san'ati to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

"Jahon xalqlari etnologiyasi" fanini o'zlashtirish jarayonida baklavr, etnologiya faning ahamiyati va ijtimoiy fanlar sohasida tutgan o'rni to'g'risida, jahon xalqlari etnogenezi va etnik tarixi, etnologik klassifikatsiyasi, moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid materiallardan foydalanish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning 2017 yil 17-fevralda qabul qilgan farmonida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm fanni o'rnini mustahkamlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag'batlantirish kabi chora-tadbirlar belgilangan[1].

Ushbu o'quv qo'llanma 20 bobdan iborat bo'lib, ular o'quv reja, namunaviy va ishchi o'quv dastur, fanni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari, ma'ruza materiallari (ma'ruza matni, adabiyotlar ro'yxati, mustaqil ta'lim mavzulari, glossariy, nazorat savollari) dan tashkil topgan.

[1] 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola –T., "Ma'naviyat", 2017. 200-bet.

KIRISH

Etnologiyaning predmeti

Etnologiya (xalqlarning o'rganuvchi fan) er yuzida yashaydigan barcha xalqlarni o'rganadi. Ma'lumki bugungi kunda dunyo aholisi 7 mlrd. kishidan oshdi. Insonlar jitimoiy (jamoaviy) jonzot sifatida turli jamoalarga birlashadilar.

Tarixan eng erta vujudga kelgan odamlar jamoalari aynan etnik asosda birlashgan. Etnik jamoalar yoki etnoslar (sinonim tarzida – xalqlar ham deyish mumkin) tarixan ma'lum hududda shakllanib, o'z ko'rinishi bo'yicha odamlarning ko'psonli birlashmasi, ularni umumiy til va madaniyat, ongi (o'zligi) birlashtirib, bunday jamoalar o'zlarini o'zgalardan farqlaydilar. Etnoslarning xarakterli xususiyatlari tili, madaniyati va h.k.lar avloddan avlodga o'tadi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar uch mingdan to'rt minggacha xalq borligini ta'kidlaydilar. Bundan aniqroq raqamni aytish murakkab sababi, aholi ro'yhati barcha hududlarda o'tkazilmagan, qolaversa qanday etnik birlikni xalq, qaysisini elat yoki qabila deb atash masalasi ham oxirigacha hal etilmagan masaladir. Xususan xitoyliklar 1 mlrd.dan ortiq bo'lsalar, Braziliyadagi botokuda yoki Argentinadagi yamanalar atigi bir necha yuz, hatto bir necha o'n kishidan iborat bo'lishi mumkin. Ayni paytda yirik xalqlar yer kurrasining ko'pchilik aholisini tashkil etadi. Jumladan 10 mln.dan ko'p bo'lgan 70 ta xalq, jami aholisining 80 % ni tashkil qiladi. Yirik xalqlar qatorida xitoyliklardan tashqari hindistonliklar, AQSh amerikaliklari, bengallar, ruslar, yaponlar va h.k. lar. Bu xalqlar insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar va qo'shmoqdalar. Qolgan etnoslar jumladan eng kam sonlilari ham dunyo madaniyati fondini boyitishga o'z hissalarini qo'shdilar. Agar tibetliklar baland tog'larda yashash va xo'jalik yuritish ko'nikmalarini namoyon etishsa, eskimoslar, chukchalar, saamlar Arktikaning qahraton sovuqlarida qanday hayot kechirish mumkinligini ko'rsatmoqdalar.

Bugunga qadar etnologiya haqida XIX asrda shakllangan faqat antiqa xalqlar, qadimgi, arxaik jamiyatlar, taraqqiyoti jihatidan orqada qolgan etnik jamoalarni o'rganuvchi fan degan eski tasavvur-

lar saqlangan. Lekin ushbu fikr butunlay noo'rin bo'lib, endilikda etnologiyada yuksak rivojlangan millatlar bilan bir qatorda Tinch okeanining uzoq orollarida yashayotgan ko'p sonli bo'lmagan etnik jamoalari ham tanqid qilinmoqda.

Bugungi etnologiyani dolzarb masalalari:

- Xalqlarni kelib chiqish yoki ularni etnogenezi;
- Xalqlarni taraqqiyoti tarixi yoki etnik tarix;
- Etnoslar moddiy va ma'naviy madaniyatining (qishloqlar, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, taomlar, xalq og'zaki ijodi yoki folklor, xalq san'ati) o'ziga xos xususiyatlari;
- Dunyo dinlari va diniy tasavvurlar, udumlar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar va h.k. lardir.

Etnolog olimlar odatda, an'anaviy, o'tgan ajdodlardan merosga qolgan, madaniyatning xalq, eng avvalo dehqonlar (qishloqliklar)da saqlangan elementlarini o'rganishga alohida e'tibor qilishadi. Hatto zamonaviy shahar aholisini o'rganganda ham etnolog an'anaviy udumlar, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatning qanday jihatlari saqlanganligini aniqlashga urinadi.

Ayni paytda etnologiya faqat etnik jamiyatlarning o'tmishi, uning bugungi kunga qadar saqlangan unsurlarigina o'rganmaydi. Uni xalqlarning zamonaviy hayoti ham qiziqtiradi. Zamonaviy etnoslarning hayot faoliyati so'nggi asrda vujudga kelgan qator yordamchi fanlar yordamida tadqiq qilinadi. Xususan etnik sotsiologiya turli etnoslarning ijtimoiy toifalarini, sinflar, tabaqalar, ijtimoiy birlashmalarni o'rganadi. Etnik ekologiya etnik jamiyatlarning tabiiy-geografik muhit bilan qanchalik o'zaro ta'sirini tadqiq etadi.

Bugungi dunyoda u yoki bu etnosning istiqboldagi taraqqiyoti, etnoslararo munosabatlarni qanday rivojlanishi haqida prognozlarning ahamiyati oshib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki etnologiya fani xalqlar-etnoslar haqida qayg'uruvchi fandir. Etnologlar zamonaviy insoniyatning asrlar davomida to'plagan etnik va madaniy xilma-xilligini imkon darajasida saqashlari tarafdolaridir.

Etnologlar doimo ishlatadigan tushunchalardan biri – madaniyatdir. Bugungi kunda madaniyatning barchani qoniqtiradigan qoidasi (aniqlovchisi) mavjud emas. Zamonaviy etnologlar madaniyat

deganda insonlar aqli va qo'li bilan yaratilgan, ularni hayot faoliyatlari uchun zarur vositalar va usullar deb tushunadilar. Madaniyat – bu insonlarni hayot kechirishi uchun yaratilgan sun'iy muhitdir.

Bir xil ehtiyojlarni (mehnatda, taomda, uyquda, muloqotda, kiyimda va h.k.) qoniqtirish uchun harakatlar turli xalqlarda turlicha bo'ladi. Masalan, zamonaviy o'zbeklarda ayrim toifa kishilari stol-stullarda o'tirib, qoshiq, vilka, pichoqlardan foydalanib taom esa, boshqalari xontaxta atrofida o'tirib nonushta, tushlik, kechki ovqat tanavvul qiladilar. O'zbeklar yostiqda yotishsa, Sharqiy Osiyo xalqlari uyquga, yog'ochdan kichikkina moslamaga bosh qo'yib yotadilar. Etnik va hududiy tafovutlar odamlarni qanday qurollar vositasida mehnat qilishlari, qanday uy-joylarni, kiyimlarni, taomlarni ma'qul ko'rishlarida ham namoyon bo'ladi.

Xalqshunoslik ijtimoiy, shuningdek tarix fani qatoriga kirib bir qancha ilmiy sohalar geografiya, lingvistika, folklorshunoslik, arxeologiya, san'atshunoslik va boshqalar bilan uzviy bog'liqdir.

2. Etnologiya tarixidan. Ilk davr. Ilk etnografik ma'lumotlar bizga Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari yodgorliklari orqali etib kelgan. Bobilliklar, ossurlar, misrliklar o'zlaridan toshlarga bitilgan odamlarning tashqi qiyofalari, kiyimlari ko'plab tasvirlarni qoldirganlar.

Yunon-rim dunyosi ham o'zidan keng miqyosdagi haqiqat tavsiflangan etnografik ma'lumotlar bilan birgalikda, ayrim xayoliy buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni ham qoldirganlar. Gerodot va Korneliy Tatsitlar o'z asarlarida xalqlarni kelib chiqishi ularni qarindoshligi masalalarini qo'yishgan. Dunyo xaqlari haqidagi tasavvurlar Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin yanada kengayadi. X.Kolumb (1492 y) Amerikani kashf etishi, Vasko de Gama (1497-1499 yy) yevropadan Afrikaning janubi orqali Hindistonga dengiz yo'lini ochishi, F.Magellan (1519-1522 yy) dunyo aylana ilk sayohatlari insoniyatni yangi xalqlar, madaniyatlar bilan tanishtirdi. Ayni paytda yevropaliklarning mustamlakachilik siyosati boshlanib, aynan shu jarayon etnologiyani fan sifatida shakllanishiga zamin tayyorlaydi.

Etnologiyani yuksalishi. Etnologiya fani ilmning mustaqil soha sifatida XIX asrning o'rtalarida vujudga keladi. Bu davrda qator davlatlar (Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya, Ispaniya, Portugaliya, Rossiya) yirik mustamlakachi davlatlarga aylanadilar.

Turli xarakterlarni, tili, madaniyatini o'rganish ko'pincha mustamlaka ma'murlarini amaliy ehtiyojlari, boshqaruv va xo'jalik faoliyati, shuningdek savdo-iqtisodiy munosabatlarga kirishilgan etnoslarni tili, urf-odatlarini bilish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Ilk etnologlar yuksaltirgan muhim g'oyalardan biri madaniyat evolyusiyasi, oila, din va ijtimoiy hayotning boshqa jihatlarini tadqiq etish bo'lgan. Etnolog-olimlar er yuzidagi madaniyat va jamiyat taraqqiyoti, umumiy ichki qonunlarga bo'ysunib soddalikdan murakkablikka tomon yuksala boradi. Evolyusionizm g'oyasi jamiyat va uning tarixiga oid ilmiy tasavvurlarni tarqalishiga xizmat qiladi.

Evolyusiya nazariyasining yirik vakillari qatorida: ingliz E.Taylor (1832-1917 yy), amerikalik L.T.Morgan (1818-1881 yy), N.N.Mikluxo-Maklay (1846-1888 yy) va boshqalar bo'lgan. E.Taylorning asosiy asari "Ibtidoiy madaniyat" insoniyatning ma'naviy majaniyati, ayniqsa diniy tasavvurlarining taraqqiyotiga bag'ishlangan. Morganning butun ilmiy hayoti amerika hindu qabilalarini o'rganish bilan o'tgan. Uning asosiy asarlari "Qadimgi jamiyat" va "Irokezlar (xodenasauni) ligasi"da olim urug'chilik jamoasi va davlat vujudga kelishi orasidagi bosqichni o'rganib, fanning eng mashhur kishilaridan biriga aylandi. N.N.Mikluxo-Maklay o'zining fidoyiligi bilan nom chiqarib Yangi Gvineya papuaslari haqida ajoyib asarlar yozib qoldirgan.

Etnologik bilimlarning qo'llanilishi. O'tgan bir yarim asrlik davrda etnologiya fani murakkab, ayni paytda yuksalish bosqichini bosib o'tdi. G'arbiy yevropaning qator mamlakatlarida va AQShda fan ijtimoiy yoki madaniy antripologiya nomini oldi. Uning tarixi faqat yangi etnologiya ma'lumotlarini to'plash bo'lmasdan, qizg'in bahslar, turli manbaalar va yo'nalishlar orasidagi kurash ham bo'lgan. Dunyoga yangi tadqiqotchilar – qator ilmiy yo'nalishlarni yaratgan olimlar nomlari keng jamoatchilikka ma'lum bo'ldi. Ulardan B.K.Malinovskiy asli polshalik ingliz olimi, ingliz A.R.Radklif-Braun, amerikalik F.Boas, fransuz K.Levi Stros, rossiyalik S.P.Tolstov va boshqalar o'zlaridan ajoyib asarlar qoldirganlar.

O'zining faoliyati davrida etnologiya insoniyatni dunyoning rang-barang madaniyati haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi. Xususan tropik yoki Qora Afrika uzoq payt geografik va etnografik

jihatdan o'rganilmay kelgan. Lekin turli sayohatchilar va olimlar ekspeditsiyalari: ingliz D.Levingston (1840), amerikalik G.Stenli (1871), nemis L.Frabenius (1903), ingliz B.Devidson (1940) va boshqalar afrikaning qadimgi va zamonaviy madaniyatlarini ochishdi.

Ekspeditsiya ishlari, ilmiy munozaralar hozirgi kunda ham davom etmoqda, ular har qanday fan taraqqiyotida zarur shartlardan biridir. Bu jarayon yangi nazariyalarning yaratilishi, ularni esa insoniyatni o'z tarixini va zamonaviy hayotini yaxshiroq anglashiga imkon beradi.

Etnoslar klassifikatsiyasi turlari

Dunyo xalqlari bir necha ming bo'lgani sababli ular haqidagi nisbatan aniq va to'liq manzarani faqat ma'lum jihatdan guruhlashtirilgan va tizimlashtirilgan ma'lumotlar bera oladi, xalos. Etnologiyada qator klassifikatsiyalardan foydalanib, ularning yig'indisi murakkab hodisa etnosni tavsiflash, yer yuzidagi har bir etnosni o'z o'rnini ko'rsatib berishga imkoniyat yaratadi.

Bu borada shuni alohida ta'kidlash lozimki, ilmiy etnologik tavsif – xalqlar hayotidan turli qiziqarli va g'ayriodatiy ma'lumotlarni tartibsiz keltirish emas. Har qanday fan, jumladan etnologiya ham o'zining ilmiy tili – maxsus atama va tushunchalarning butun bir tizimini yaratib, ularning yordamida turli hodisa va jarayonlarni tavsifi, tahlilini hamda klassifikatsiyasini beradi. Ayrim atama va tushunchalar ushbu qo'llanmada keltiriladi.

Assiy klassifikatsiya turlariga: geografik, antropologik, til, tarixiy - etnografik xo'jalik, diniy (etnokonfessional) guruhlashtirishlar kiradi.

Geografik klassifikatsiya. Qit'alar va regionlar bo'yicha xalqlar yoki ularning guruhlari yashaydigan joylarni aniqlaydi. Qo'llanma va darsliklarda Avstraliya va Okeaniya, Osiyo, Afrika, Amerika va yevropa xalqlari qit'alar kesimida o'rganiladi. Ayni paytda qit'alar tarixiy-etnologik viloyatlarga bo'linadi. Jumladan yevropa qit'asi: G'arbiy, Sharqiy yevropa, Rossiya xalqlariga bo'lib o'rganiladi.

Antropologik klassifikatsiya insonlarning biologik (jismoniy) xususiyatlarini e'tiborga oladi. Yer yuzidagi barcha aholi bitta bi-

ologik tur – Homo Sapiens (idrokli kishi) bo'lib, uning alohida guruhlari alohida jismoniy (biologik) belgilari kelib chiqishi, birligi ma'lum hududda tarqalishi bo'yicha farqlanadilar. Jismoniy belgilari bo'yicha tarixan shakllangan odamlar guruhi rasalar deyiladi. Bunday belgilar merosiy hisoblanadi. Bugungi kunda to'rtta rasa: negroid (afrika), evropoid (evrosiyo), mongoloid (osiyo-amerika) va avstraloid (okeaniya) lar mavjud. Rasa tavofutlari badan rangi, ko'z qorachig'i rangi, sochi va bosh chanog'i va ularning shakli, tanasining uzunligi, nisbatan murakkab genetik xususiyatlar qon guruhi ,barmoq va kaft izlari va hakozalar o'rganiladi. Bu xususiyatlar uzoq davr 40-20 ming yilliklarda shakllangan. Shu tariqa insonlar barcha tirik jonzotlar singari tabiiy – geografik muhitga tanalari bilan moslasha borganlar.

Insonlar rasa xususiyatari xalqlarni shakllanishi tarixi qanday bo'lganini aniqlashga yordam beradi. Jumladan biologik antropologiya va yer yuzidagi barcha aholini rasa bo'yicha aralash ekanligi aniqlagan.

Barcha rasa vakillari madaniyat va ijtimoiy hayotni rivojlantirish uchun bir xil biologik imkoniyatlarga egadir. Rasalarni jismoniy, psixologik va aqliy jihatdan noteng ekanligi haqidagi tasavvurlar noilmiy va gumanizmga qarshidir. Shu sababdan rasizm fan tomonidan, dunyo demokratik jamoatchiligi tomonidan doimo qoralanib keladi.

Til klassifikatsiyasi xalqlarni kelib chiqishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U yoki bu xalqlar tillarini til oilalariga bo'lishda ularning qardoshligini qiyoslash orqali aniqlanib guruhlashtiriladi. Tillarni o'xshashligi ushbu xalqlarni yaqin qardoshligi yoki uzoq madaniy aloqada bo'lganligidan dalolat beradi. Eng yirik til oilasi – hind-evropaga bir-biridan ancha farqlanadigan ingliz, rus, eron, arman va boshqa tillar kiradi. Hind-evropa tillarida yer yuzining 45% aholisi so'zlashib, u yirik 5 ta guruhga bo'linadi. German, roman, slavyan, eron, hindoriy. Ulardan tashqari letto-litiv, kartvel, arman, yunon tillari ham ushbu til oilasiga kiritiladi. Ayni paytda hech qanday til oilasiga kirmaydigan: qadimgi shumer, nivx yoki bask tillari turli sabablarga ko'ra izolyat (boshqa tillardan ajralgan) tillar hisoblanadi.

Ayrim tillarda bitta emas, bir necha o'nlab xalqlar so'zlashishi mumkin. Aksari bunday vaziyat mustamlakachilik siyosati tufayli vujudga kelgan. Ispan, ingliz, fransuz tillari keng yoyilishi aynan shu jarayon natijasidir.

Yer yuzida qancha til mavjudligi noma'lum. Mutaxassislarning fikricha, turli etnoslar tillarini 4 mingdan 6,5 mingtagacha ekanligi ehtimol qilinmoqda. Ayni paytda o'n ikki tilda: xitoy, ingliz, hind, urdu, ispan, rus, arab, portugal, yapon, nemis va fransuz tillarida yer yuzining 60% dan ortiq aholisi so'zlashadi.

Odatda ko'pchilik xalqlar bitta tilda so'zlashadilar. Mo'g'ullar mo'g'ul tilida, vengrlar venger tilida, xitoyliklar xitoy tilida va hokazolar. Lekin asrlar davomida aholisi aralash yashagan mamlakatlarda ikki tillik, ayrim holatlarda uch tillik etnoslar ham mavjud. Ikki tillik aholi Belgiya va Shveysariyada, ayrim Afrika mamlakatlari, Hindiston, Indoneziya va boshqa davlatlarda tarqalgan. Rossiya imperiyasi va sobiq Sovet davlati doirasida ham ikki tillik (bilingvizm) keng tarqalgan edi.

Ko'plab xalqlar, etnoslar bugungi kunga qadar yozuvsiz qolib kelishmoqda. Ular qatorida Janubiy Amerikaning ko'plab hindu qabilalari, Afrikaning bushmen, pigmey va gottentot qabilalari va hokazolar.

Tarixiy-etnografik (tarixiy-madaniy) oblastlar. Tillardagi qardoshlikdan tashqari xalqlar orasida tarixiy-etnografik yoki tarixiy-madaniy yaqinlik ham kuzatiladi. Bu xildagi jarayon ma'lum hududda qo'shni xalqlarda, uzoq davom etgan xo'jalik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi o'zaro aloqalar tufayli qator umumiy xususiyatlarni shakllantirgan. Odatda bunday hududlarni tarixiy-etnografik, yoki tarixiy-madaniy oblastlar va hatto regional sivilizatsiyalar deb nomlashadi. Bunga misol tariqasida Old (G'arbiy) Osiyo, Kavkazoldi, O'rta Osiyo hamda Qozog'istonni va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Bu xildagi viloyatlar va regional sivilizatsiyalarni er yuzasining oykumenasining (inson yashaydigan hududlarida) barchasida ko'rsatish mumkin.

Xo'jalik klassifikatsiyasi. Turli tillarda so'zlashuvchi va bir-biridan uzoqda yashovchi ko'pchilik xalqlar madaniyatida qator umumiylikka ega bo'lishi mumkin. Etnologiyada bunday etno-

slarni madaniyat tiplari yoki xo'jalik-madaniy tiplarga bo'lish, o'xshash tabiiy iqlim sharoitlarda bir xil xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanganlik asosida vujudga keladi. Xo'jalik - madaniy tiplar ilk taraqqiyot davridagi etnoslarni xususiyatlarini yorqin ifodalaydi. Xo'jalik - madaniy tiplari orasidagi tafovutlar eng avvalo asosiy mashg'ulotlari va hayot kechirish usullari – qishloq xo'jaligi, mashg'ulotlari, hunarmandchiligi, ular bilan birga mehnat qurollari, uy-joylar, taomlar va hokazolar, ba'zida folklor va diniy e'tiqodlarda kuzatiladi.

Odatda uchta xo'jalik - madaniy tiplarni farqlashadi:

1. O'zlashtirish xo'jaligidagi etnik guruhlar. Ular qatorida ovchilar, terimchilar va baliqchilar bo'lib, ular uchun yovvo yi o'simliklar, mevalar, yovvoyi hayvonlarga ov aksari hayot manbai edi. Tarixan bu xo'jalik - madaniy tiplari eng qadimgisi bo'lib ilk paleolitdan vujudga kelgan. Hozirda ovchi va termchilar safida Shri-Lanka – veddalari, Malakka oroli-semanglari, Filippindagi-aetalar, Kongodagi-pigmeylar va boshqa qabilalar kiradi.

2. Ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tgan xalqlar va etnik guruhlar. Ularga qo'l dehqonchiligi va chorvachilik xosdir. Bu xildagi xo'jalikda hayot manbai madaniy o'simliklarni yetishtirish va uy hayvonlarini boqish bilan xususiyatlanadi. Ushbu xo'jalik - madaniy tiplarning shakllanishi neolitdan boshlangan. Bizning kunlarimizda qo'l dehqonchiligi Hindiston, Janubiy Xitoy, Indoneziya, tropik Afrika, Amazonka havzasi va Janubiy Amerikadagi kam sonli xalqlarda mavjud.

3. Rivojlangan ishlab chiqarish xo'jaligiga - plug (omoch) dehqonchiligi buyuk daryolar – Dajla, Frot, Nil, Hind, Gang, Amudaryo, Xuanxe vohalarida jez va temir asridan boshlangan. Amerika, Avstraliya, Okeaniya, Afrika (Sahrodan janubda) bu xo'jalik - madaniy tiplar bo'lmagan va aksincha O'rta yer, Old va O'rta Osiyo, Shimoliy Hindiston, Shimoliy Xitoyda deyarli barcha xalqlarda ustunlik qilgan.

Dunyo xalqlari dinlari. Xalqlarni etnologik tavsiflashda ushbu etnoslarning e'tiqod qiluvchi qismini qanday dinga mansubligi muhim ahamiyat kasb etadi. Din o'tgan tarixiy bosqichlarda turli jamiyatlar hayotida katta o'rin tutib moddiy va ma'naviy madaniyatlariga, ijtimoiy hamda oilaviy munosabatlariga sezilarli ta'sir etgan.

Dinning qadimgi turlari ilk urug'chilik davrida paydo bo'lib, hozirga qadar saqlangan. Ularga:

- "totemizm" – ma'lum guruh odamlarini (odatda urug'chilik jamoasini) va totemlar – ma'lum hayvon turlari, o'simliklar, ba'zida buyumlar orasida qarindoshlik mavjudligiga ishonch. Hozirda totemizm Avstraliya aborigenlarida nisbatan to'liq saqlangan.
- "animizm" – ruh va hayvonlarga e'tiqod – deyarli barcha dinlarni tarkibiy elementi.
- "shamanizm" – ayrim kishilarga (shomon, kohinga) marosimlar paytida ruhlar bilan muloqot qilishiga ishonch. Shomonlik Shimoliy va Sharqiy Osiyoning ko'plab xalqlari, Amerika hindularida keng tarqalgan.
- "fetishizm" – jonsiy buyumlarni g'ayritabiiy xususiyatlariga ishonish, jumladan daraxtlar, g'orlar, mehnat qurollari (masalan cho'ponning tayog'i) va maxsus tayyorlangan kult buyumlari (niqoblar, but va sanamlar).
- "afsungarlik" – odamni sehrgarlik xususiyatlariga ishonch, (g'ayritabiiy usulda boshqa kishilarga, hayvonlarga) tabiatga ta'siriga e'tiqod ko'plab dinlarga singib ketgan.

Urug'chilik jamiyatidan davlatga o'tish bosqichida dinlarning nisbatan murakkab ko'p tarmoqli turlari vujudga kela boshlaydi. Ulardan uchtasi – buddaviylik, xristianlik va islom – keng tarqalib, keyinchalik dunyo dinlari deb atala boshlandi.

Eng erta m. av. VI-V asrlarda vujudga kelgan buddaviylik, Hindistonda paydo bo'lib, Janubiy Sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyo, qisman Sibirda tarqalgan. Dunyoda 350 million buddaviylik diniga e'tiqod qiluvchilar mavjud.

Xristianlik – milodiy I asrda Falastinda vujudga kelib, IV asrdan Rim imperiyasida hukmron dinga aylandi. XI asrdan xristianlik rasman katolik va pravoslav mazhablariga bo'lingan. XVI asrdan katolik mazhabidan protestanizm cherkovi ajralib chiqqan.

Xristianlik dunyo dinlari ichida eng keng tarqalgani bo'lib, hozirda 2 milliard kishi yevropa, Amerika, Avstraliya va Okeaniyada ushbu dinga e'tiqod qiladi.

Islom –eng yosh dunyo dini VII asrda Arabistonda vujudga kelgan. Uning asoschisi Muhammad payg'ambarga "Qur'oni Karim"

nozil bo'lgan. Arablar istilosi orqali Janubiy-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Afrikada, O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va boshqa hududlarda tarqalgan. Ural – Volgabo'yi – Sibir Janubiy va Janubiy - Sharqiy Osiyoda, Afrikaning g'arbida islom dini targ'ibot orqali qabul qilingan. Bugungi kunda er yuzida 1 milliarddan ortiq musulmonlar mavjud.

Yana bir yirik din – hinduylik bo'lib, uning vakillari 800 millionga yaqin. Bu din dunyo dinlari qatoriga kirmaydi, sababi u faqat Hindiston va Nepalda tarqalgan.

Dunyo dinlaridan tashqari ko'rlab boshqa dinlar, diniy oqimlar, sektalar, regional va mahalliy va hatto qabilaviy e'tiqodlar mavjud. Masalan konfutsianlik va daosizm asosan Xitoyda tarqalgan.Sintoizm- sof yapon dini, iudaizm – yahudiylar dini va hokazolar. Afrikada va Okeaniyaning ayrim orollarida qabilaviy e'tiqodlar, kam sonli xalqlar orasida kichik hududlarda saqlanib kelmoqda.

Etnologiyada qator boshqa klassifikatsiyalar: uy-joylar, kiyimlar, taomlar, mehnat qurollari va hokazolarda ham mavjud.

Yer yuzasining o'zlashtirilishi tarixidan. Madaniy tafovutlarning vujudga kelishi va evolyusiyasi.

Etnologiya fanining ma'lumotlariga qaraganda, zamonaviy biologik (jismoniy tip) turdagi odamlar so'nggi paleolitda bundan 50-40 ming yilliklarda shakllangan. Ushbu davrda ajdodlarimiz Osiyo, Afrika, yevropaning katta qismini (muzlik qoplamagan hududlarni) o'zlashtirganlar. Aynan o'sha kezlarda Amerikaga ilk odamlar guruhlari shimoldan hozirgi Bering bo'g'ozidan o'ta boshlaganlar. So'nggi paleolitda insonlar Avstraliyaga ham o'tganlar.

So'nggi paleolit davri odamlarini etnik mansubligi haqida aniq fikr aytish mushkul, tadqiqotchilar ularni urug'-qabilalarga bo'linganligini ehtimol qilishadi.

Yuqori paleolitda bir-biridan farq qiluvchi bir necha yirik madaniy viloyatlar shakllana boshlagan. Ulardan biri evropa muzligidan keyingi viloyati bo'lib – u murakkab iqlimi bilan xususiyatlangan, unda odamlar yirik hayvonlarni (jumladan mamontlarni) ovlab, hayvon suyaklari va terilaridan turar-joylar qurishgan. Deyarli shu xildagi

sharoitlarda Sibir – Xitoy viloyati aholisi ham yashagan. Afrika – O'rta yer dengizi oblasti iqlimi mayin bo'lib, unda yashovchilar kiyik, yirik yirtqichlarga ov qilganlar, terimchilikda turli o'simliklar va mevalarni terish taomlarida go'shtli hamda o'simliklardan tashkil topgan. Janubiy-Sharqiy Osiyo neolit madaniyati ham ayrim xususiyatlarga ega, undagi aholi asosan termachilik bilan shug'ullanib, vaqtinchalik turar-joylarda yashagan.

Neolit davrida (VIII-III m.y.) insoniyatning madaniy tafovutlari bir necha baravar yuksaladi. O'zlashtirish xo'jaligidan (termachilik, ovchilik) ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish (dehqonchilik, chorvachilik) ro'y beradi. To'qimachilik, toshni silliqlash-teshish, sopol yasash o'zlashtiriladi. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish aholi sonini tez sur'atlarda o'sishiga imkon beradi. Dehqonchilik va chorvachilik xalqlari ovchi va termachilarning aholi kam yashaydigan hududlariga ko'chib joylasha boshlaydilar. Olimlarning farazicha ushbu paytda ayrim til oilalari: jumladan hind-evropa tillari va oltoy tillarining turkiy til guruhi – yevropa va Osiyoda, bantu va afroosiyo tillari – Afrikada keng tarqalgan.

M. av. IV-I ming yilliklarda eng qulay janubiy hududlarda dehqonchilik xo'jaligi asosida yirik daryolar havzalarida dastlab Misr va Messopotamiyada, so'ngra Hind vohasi va Sharqiy Xitoyda, keyinchalik Meksika va Peruda ilk davlatlar vujudga kelgan. Yirik sivilizatsiya markazlari: Bobil va Ossuriya, Urartu, Qadimgi Gretsiya, keyinchalik Qadimgi Rimlar shakllangan.

Ushbu davlatlarning qo'shnilari ko'psonli dehqonchilik va ko'chmanchilik hamda yarim ko'chmanchilik hamda yarim ko'chmanchi chorvachilik qabilalari, ularning hududlariga hujumlar qilib turgan. Bu esa turli xalqlarni aralashuvi va ba'zida yangi etnoslarni vujudga kelishiga asos bo'ladi.

Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrika etnik tarixiga xalqlarning buyuk ko'chishlari ham (III-IX asrlar) katta ta'sir etadi. Bu davrda slavyanlar Sharqiy yevropa va Bolqon yarim orolida, germanlar – Markaziy va Shimoliy yevropada sobiq Rim imperiyasining lotinlashgan aholisi bilan aralashib, roman tilli xalqlarga asos bo'lgan. Janubiy Sibir va Markaziy Osiyodan turkiy xalqlarning ommaviy ko'chishlari boshlanib, ular Sharqiy yevropagacha hududlarga tarqaladi.

XIII asrdan Osiyo va yevropa hududlari mo'g'ul, turk va boshqa qabilalarni kelib chiqishi turli qabilalar bilan aralashuvi ro'y beradi. Taxminan shu paytda Afrikada bantu tilli aholini Sharqiy va Markaziy rayonlardan qit'aning janubidagi ulkan hududlarga tarqalishi hozirgi kunda yevropa, Osiyo va Afrikada yashayotgan xalqlar XV asrning oxirida shakllangan.

Yangi va eng yangi davrlarda migratsiya jarayonlari. Dunyo xalqlari etnik tarixida XVI-XIX asrlarda evropaliklarni Amerika, Janubiy Afrika, Avstraliya va Okeaniyaga ommaviy ko'chishlari bo'lgan. Ushbu migratsiyalar dunyoning xaritasini butunlay o'zgartirib yubordi. Bir tomondan bu jarayonlar yangi afrikanerlar, angloavstraliyaliklar, anglokanadaliklar va hokazolarni shakllantirgan bo'lsa, boshqa jihatdan migratsiyalar tufayli mahalliy aborigen aholini ommaviy qirilishiga olib keladi.

Urushlar, ommaviy qul savdosi, yangi hududlarni o'zlashtirish, iqtisodiy taraqqiyot ko'plab etnoslar va xalqlar hayotini keskin o'zgartiradi. yevropada ko'plab ekinlar xususan makkajo'xori, kartofel, tamatlar, tamaki, ziravorlar, choy va kofelar tarqaladi.

Amerika, Afrika, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyolarda evropaliklar ta'sirida yangi dinlar, xo'jalik faoliyati turlari vujudga keladi. Bu jarayonlar butun er yuzi aholisini savdo, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari jarayonlariga tortib, ularni mustahkam iplar bilan bog'lagan.

XX asr boshlarida dunyo xalqlarini joylashuvi barqarorlashib, ular orasidagi o'zaro hamkorlik, poroxod, paravoz, telegraf va radiolar ixtiro qilinishi tufayli birmuncha faollashadi. XX asr so'ngida xalqlarni o'zaro aloqalari umumsayyoraviy xususiyat oldi. Zamonaviy kompyuter tizimlarini joriy etilishi yer yuzasining eng uzoq nuqtalari bilan tezkor aloqaga kirishish imkonini beradi. Jahonda ro'y berayotgan voqealarni o'zaro bog'liqligi, madaniy almashinuvlar faolligini keskin o'sishi, global hamjamiyatni shakllanganidan darak bermoqda.

Etnologiya tadqiqot metodlari. Tadqiqotchi etnologlar qiziquvchan turistlardan farqliroq, ularni tanlagan aholisi haqida aniq va mukammal ma'lumotlarni olishga intilishadi. Dala tadqiqotlariga chiqishdan oldin har tomonlama tayyorgarlik ko'rish etnologning

muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu borada tadqiqotchi uni qiziqtirgan xalq yoki aholi guruhiga oid hujjatlar, ilmiy ishlar, muzey kolleksiyalari va boshqalarni o'rganishlari lozim. So'ngra tadqiqotchi savolnoma tuzib axborotchi bilan bo'lajak suhbatini ma'lum yo'nalishga tushirib olishga tayyorlanadi. Ekspeditsiya paytida o'rganiladigan mavzular, tadqiqot o'tkazish uchun turli texnik vositalar – foto, kino, audio, video apparatlar va boshqalar tayyorlanadi. Eng muhim bosqich etnolog o'rganilayotgan aholi bilan bevosita muloqot uchun qisqa yoki uzoq muddatli ekspeditsiyalarga chiqishidir.

Dala tadqiqotlari aholi vakillarini kuzatish, ularni qanday ishlashi, dam olishi yoki faoliyatning yana qanday turlari bilan shug'ullanishini biror joyda (statsionar) yoki yo'nalishli ekspeditsiyalarda o'rganadi. Klassik statsionar kuzatuvlar qatorida N.N.Mikluxo – Maklayning Yangi Gveniya papuaslari orasida ingliz antropologi B.K.Malinovskiyni Okeaniyaning Trobrian orollaridagi, E.Evans – Prichardni Markaziy Afrikadagi va h.k. tadqiqotlarni ko'rsatish mumkin.

Etnologni aholini uzoq payt kuzatishi, ushbu xalqni tilini bilishi, uning madaniyatini chuqur va keng o'rganishiga imkoniyat yaratgan. Tadqiqot qilinayotgan aholini kengroq qamrab olish uchun so'rovnoma yoki anketa o'tkazish (bir necha o'ntadan bir necha mingtagacha) usuli qo'llaniladi. Olingan ma'lumotlar keyinchalik kompyuterlarda statistik ishlov orqali umumlashtiriladi.

Etnologlar tadqiqotning kartografik usulidan ham foydalaniladi. Kartografiyada moddiy va ma'naviy madaniyatlar (uy-joylari turlari, mehnat qurollari, urf-odat va marosimlar), til, din va boshqa jihatlari xaritaga tushiriladi. Bunday xaritalar tahlili, ularni boshqa ma'lumotlar bilan qiyoslash, boshqa usul bilan aniqlash mumkin bo'lmagan etnoslar tarixining talay qonuniyatlarini aniqlashda yordam beradi.

Turli xalqlar vakillari suhbatlarni yozib olish (intervyu) ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Bu axborotchilar turli kasb egalari, odatda keksa yoshdagi kishilar bo'lgan. Etnologiyada etnik ongni o'rganish uchun turli testlar ham qo'llaniladi.

Savol va topshiriqlar

1. Etnologiya nimani o'rganadi, uning predmeti nimadan iborat?
2. Bugungi kunda etnologiyaning dolzarb vazifalarini nimadan iboratligini so'zlab bering?
3. Antropologik (rasa) klassifikatsiyasi nimalarga asoslanib tuziladi?
4. Lingvistik klassifikatsiyaning fanni o'rganishdagi ahamiyati nimada? Yirik til oilalaridan o'ntasini yodda tuting!
5. Xo'jalik – madaniy tiplar va ularning transformatsiyasi.
6. Afsungarlikdan – dunyo dinlarigacha qisqacha tavsif.
7. Oykumenaning (erning quruqlik qismi) inson tomonidan o'zlashtirilishi tarixidan gapirib bering!
8. Etnologiya tadqiqot metodlaridan nimalarni eslab qoldingiz?

1-BOB. AVSTRALIYA XALQLARI ETNOLOGIYASI.

Avstraliyaliklar. Bugungi Avstraliya aholisining 95% i (19 mln. kishi) evropadan ko'chib kelganlar (angloavstraliyaliklar) avlodlari va 2% qit'aning tub aholi vakillari aborigenlar tashkil qiladi. Bu aholi guruhlari madaniyatilari ham keskin farqlanib, angloavstraliyaliklar G'arbiy yevropa sivilizatsiyasiga mansub bo'lsalar, aborigenlar so'nggi paleolitdan mustaqil va hatto tashqi madaniy ta'sirsiz shakllangan madaniyat egalaridirlar.



1. Aborigenlar. Buyuk Britaniya qit'ani 1788 yili o'zlashtira boshlagan. Dastlabki evropaliklar kelganida tub aholi 300 mingdan ko'proq bo'lib, 500 ga yaqin tillar (filya)da so'zlashganlar. Avstraliyaliklar tillari aborigenlar – ovchi va terimchilik bilan shug'ullanuvchi aholi madaniy xususiyatlarini o'zida mujassamlagan. Ularda bilvosita tushunchalar haqidagi so'zlar nisbatan kam bo'lsa, tabiatda mavjud narsalarni izohlash uchun ishlatiladigan so'z hamda tushunchalar juda ham ko'p. Xususan etnolog G. Shtrelovning kitobida ma'lum bir fe'lning jadvali va izohi 45 betdan ziyod o'rin egallagan.


Avstraliya qit'asi minglab yillar davomida notekis o'zlashtirilgan va ushbu holat tabiiy sharoitlar bilan izohlanadi. Xususan yog'ingarchilik mo'l, hayvonot va o'simlik dunyosi boy, Yangi Janubiy Uels shtatida uzunasiga 450, kengligi 100-150 km.li sohilbo'yi hududida 12 ta qabila joylashgan. Boshqa hududlarda cho'l-yarim dasht, yoki nam tropik o'rmon zonalarida aholi siyrak bo'lgan. Xususan aranda qabilasi qit'a markazida kengligi 650 km.li hududda yashagan.



Avstraliya aborigenlari alohida avstraloveddoid rasasiga mansub bo'lib qoramtir-ko'ng'ir terisi, qora to'lqinsimon sochi, erkaklari qalin soqoli, keng yuzi (keng burni, qalin labi, qosh usti bo'rtig'ining turtib chiqqani) bo'yining o'rta yoki balandligi bilan xususiyatlanadi.

Avstraliya aborigenlarining kelib chiqishi muammosi uzoq davrlar hal etilmagan edi. Faqat XX asrning o'rtalariga kelib fan, aborigenlar etnogenezi xaqida etarlicha ma'lumot to'pladi. Qit'ada 30-40 ming yil avval yashagan odamlar suyaklari, toshdan mehnat qurollari topildi. Qolaversa, Janubiy- Sharqiy Osiyodan Malay arxipelagi orollaridan ham shunga o'xshash odamlar qoldiqlari chiqqan. Demak aholi Avstraliyaga Janubiy-Sharqiy Osiyodan kelgani shubhasiz. Yer yuzida buyuk muzlik davri bo'lganidan o'sha zamonlarda okean suvlari sathi nisbatan past bo'lishi aborigenlarni qit'aga o'tishiga imkon yaratgan.

Aborigenlarga qit'ada katta miqdorda xaltali xayvonlarni bo'lishi, yirik yirtqich xayvonlarni yo'qligi qo'l keladi. Yarim-yovvoyi itlar-dingo Avstraliyaga odamlar bilan kelgani ehtimol. Tadqiqotchilar Avstraliyadan dehqonchilik yoki chorvachilik izlarini topmaganlar. Demak barcha qabilalar a'zolarining asosiy hayot vositasi ov, termachilik bo'lgan.



Mehnat qurollari sodda va kam xilli edi. Erkaklarda yog'ochdan uchi toshdan paykonlari bilan nayza, toshdan pichoq, tosh bolta, yog'ochdan kaltak hamda (bumerang), aksari otganda qaytmaydiganlari bo'lgan. Ayollarda o'simlik tolasi yoki daraxt po'stlog'idan turli meva va donlarni terish uchun xaltacha, ildizlarni kovlabolish uchun uchi o'tkir tayoqlar edi xalos.

Avstraliya aborigenlari yashaydigan aksari hududlarda uy- joylar tushunchasi umuman bo'lmagan, faqat ayrim qabilalar shox-shabbalar, daraxt po'stoqlaridan chaylalar, shamoldan panamalar qurishgan. Odatda aborigenlar manzili ochiq osmon ostida gulxan atrofida bo'lgan. Kiyim bizning tushunchamizdagi ko'rinishda umuman bo'lmagan. Ba'zi qabilalarda o'simlik tolalaridan belbog'cha yasashgan. Qit'a janubi va Tasmaniyada iqlim sovuqligidan kenguru terisidan yopinchiq plashlar qilishgan.



Aborigenlar an'anaviy turmushi doimiy harakatdadaydichilik ko'rinishida bo'lgan. Odatda bir joyda 1-2 haftadan ortiq yashashmagan. Bu ovchilik, terimchilik bilan izohlanib, ko'chishlar tartibsiz ko'rinishda emas, balki asrlar davomida saqlangan yo'nalishlar bo'yicha harakatlanganlar. Bu tadbirlar mavjud hududdagi flora va fauna imkoniyatlari bilan izohlangan. Xar qanday aborigen erkak, xar qanday vaqtda qabilasi erlarining qaysi joyida ov uchun qushlar borligi, yaqin va ma'lum vaqtdan so'ng ular qaerga ko'chishini yaxshi bilgan. Ayollar qayerda va qachon ozuqaga yaroqli o'simlik, ildiz yoki yovvoyi mevalar pishib etilishini bilishgan. Aynan ana shu bilimlar aborigenlarni qaysi tomonga xarakatlanishini belgilagan.

Etnologlar tadqiqotlari aborigenlar zarur ozuqa to'plashlari uchun kuniga 2-3 soat vaqtlarini sarflaganlarini aniqlashi aynan shu ratsional bilimlar tufayli ekanligini tasdiqlaydi. Ozuqa doirasiga kaltakesak, hasharotlar, kenguru, opossum, o'simlik zahiralaridan: yovvoyiboshoqli donlar, ildizlar va mevalar kirgan.

Aborigenlar jamoa tashkilotlari: qabila, lokal guruh (jamoa) va oiladan tashkil topgan. Avstraliyada qabila o'rtacha 500 kishidan iborat guruh bo'lgan qabila ma'lum hudud, o'z nomi etnonimiga, tiliga ega bo'lib, o'zlarini alohida madaniy birlik deb hisoblashadi. Lekin umumiy boshliq, hokimiyat tashkilotlari bo'lmay, qabilaning barcha a'zolari xarbiy yoki ov xarakatlarida to'planmaydilar ham. Nisbatan yaqin aloqa lokal guruhlarda kuzatilib ularning a'zolari soni 50 kishi atrofida bo'ladi. Bu xildagi guruh negizini katta yoshdagi erkaklar tashkil qilgan, ular mazkur hudud "merosxo'rlari" zi-

yorat joylari ko'riqchilari sanalgan. Ularning ayollari odatda boshqa guruhlarga mansub bo'lib diniy marosimlarda ishtirok etishmagan.

Avstraliya aborigenlari oilalari poligam (ko'p nikohli) ya'ni erkaklarning bir necha xotini bo'lishi mumkin edi. Nikoh erkaklarning o'zaro kelishuvi orqali tuzilib: erkak qizi, singlisini boshqa erkakka xotinlikka berishi mumkin bo'lgan. Ba'zida yosh qizini yoki tug'ilmagan qizini berish va'dasiga ko'ra "bo'lajak kuyov" 12-15 yil bo'lajak qaynotasi guruhida yashab, ovlarda ishtirok etgan. Avstraliya tub aholisida nikoh ekzogam, ya'ni o'z guruhidan chetdan uylanish shaklida edi. Xususan kamelaroy qabilasi urug'lari misolida quyidagi shaklda bo'lgan.

Kambu = Mari

Ipai = Kubi

Ikki chiziq shaklidagi belgi nikoh aloqasini, ko'rsatgichlar ona va bola seksiyalarini birlashtiradi. Nikohga kirishda Kambu guruhiga mansub erkak Mariga kiruvchi ayolga uylanishi mumkin. Bu juftlikdan tug'ilajak farzandlar Kubi guruhiga kiradi. Kubi guruhi erkaklari faqat Ipailik ayollarga uylanib ularning farzandlari Kambu seksiyasiga kiradi va h.k.o.



Aborigenlar uchun qarindoshlik munosobatlari muhim o'rin tutgan. Jumladan aborigen "ona " deb faqat uni tuqqan ayolni emas butun bir guruh ayollarini ota, ona, opa deb ham shu tarzda ko'pchilikni atashi lozim bo'lgan. Hurmat ko'rsatish, o'z ovi bilan bo'lishishda yigit faqat o'z otasi emas, ota hisoblanuvchi butun bir guruh erkaklari bilan baham ko'rishi lozim bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan udum- marosim, urf- odatlar odamlar orasidagi o'zaro munosobatlarni batartibligini, jamoachilik tartib- qoidalariga rioya qilishini ta'minlagan.

Aborigenlar an'anaviy diniy tasavvurlari nihoyatda murakkab, tusda bo'lgan. Avstraliya "totemizm vatani" deb bejiz atalmaydi. Har bir lokal guruh, nikoh seksiyasi yoki urug' o'z "totem"iga ega, "totem" hayvon yoki o'simlik, guruh a'zolari uchun muqaddas, birodar



ularning yaxlitligi ramzi deb bilganlar. Maxsus alohida joylardagi totem markazlarida guruh a'zolari har- har zamonda "afsungarlik"(sehrgarlik) udumlarini o'tkazib, maqsad- totem hayvon yoki o'simlikni muvaffaqiyatini ta'minlash va bu orqali o'zining kelajagini barqarorlashga ishonch, e'tiqod bo'lgan. O'z totemiga hurmat, eqtirom barcha qabilalarda kuzatilib, totem- hayvonni ovlashga ta'qiq "tabu" qo'yilgan. Erkaklar totemi, ayollar totemi, urug' totemi va shaxsiy totem va h.k. lar aborigenlarda keng tarqalgan.


Aborigenlar tassavuriga ko'ra bolalar, erkaklar totem markazlarida o'tkazgan afsungarlik udumlari tufayli tug'iladi. O'smirlar (12-15 yoshida) initsiatsiya marosimlarini to'la bajarganlaridan so'ng erkaklar safiga qo'shilganlar. Sinovlar jismoniy qiyinchiliklarga chidamlilik, o'z urug'-qabilasi hayoti bilan bog'liq afsona, rivoyatlarni tinglab, esda saqlash va h.k. lardan iborat edi. Aholi tasavvurida insonning o'limi ham o'z-o'zidan bo'lmay yovuz afsungarlik udumlari orqali qo'shni qabilalar folbinlari orqali amalga oshiriladi.

Aborigenlar taqdiri. Aborigenlarni inglizlar bilan to'qnashuvlari ko'pchilik qabilalar uchun fojiali tugaydi. Dastlabki surgun qilinganlar uchun qo'rg'on 1788 yili bunyod etilishi bilan aborigenlar madaniyati parokandalikka uchraydi. Skvatterlik – XIX asrning 20-yillaridan qo'ychilikni kengayishi, mahalliy faunani qisqarishiga, qo'ylarni ovlash ko'plab mojaro va to'qnashuvlarga olib keladi. Oqibatda aborigenlar soni bir yarim asrda 300 mingdan 60 mingga qisqaradi XX asr o'rtalarida ular evropaliklar yashay olmaydigan qit'aning markazi va g'arbidagi cho'llarda, shimoldagi namlik tropik o'rmonlarda saqlanib qolganlar xalos. Yashash uchun qulay Avstraliyaning janubi va sharqida: Yangi Janubiy Uels, Viktoriya, Janubiy Avstraliyada, qisman Kvinslendda aborigenlar rezervatsiyalarda, shaharlar chetidagi sharoiti noqulay joylarda yashamoqdalar. Tasmaniyadagi so'nggi aborigen XIX asrning 70 yillarida vafot etgan.

Aborigenlar hayot sharoiti ikkinchi jahon urushidan keyin yahshilana boshladi J. Mak-Ginnes, K. Mensor kabi jamoat arboblari etishib chiqib aholi manfaatlarini himoya qilish harakatini boshqardilar. Bu jamoatchilik harakatlarida etnologlar: A. Elkin, T.Shtrelov, P.Morsli va h.k. lar ham qatnashib, 1967 yili o'tkazilgan referendum aborigenlarni rasman mamlakat aholisi deb tan olinishi bilan yakun topdi. XX asrning 70-80 yillarida tub aholiga saylov huquqi, erga egalik qilish huquqi, va h.k.o. qonunlar qabul qilindi.

Aborigenlarda ko'p bo'lmasada ziyolilar guruhi shakllandi. Albert Namatjiri XX asrning 30 yillarida rassomchilik maktabiga asos soldi. Ket Uoker 1964 yili "Biz ketmoqdamiz" deb nomlangan she'rlar to'plamini chop etdi. K.Jons 1965 yili ilk aborigenlar hayotiga oid romanni "Yovvoyi mushukning qulashi" ni nashrdan chiqardi.

3. Angloavstraliyaliklar millatining shakllanishi. Yangi millatning shakllanishi boshlanish sanasi 26 yanvar 1788 yil hisoblanadi. Unda britaniyaning o'n bir kemasi 736 ta surg'un qilinganlar, hamda 194 ta harbiyni keltiradi. Qit'adan 1851 yili oltin topilishi natijasida o'n yilda Avstraliya aholisi 438 ming kishidan 1mln. 168 ming kishiga etadi. Bugungi kunda inglizlar aholining 3/5 qismini, irlandiyaliklar 1/4 qismini, shotlandiyaliklar 1/8 va Uelsliklar 1.5% ni tashkil etadilar. Qit'adagi italiyaliklar 2%, nemislar 1%, gollandlar 1%, greklar 1.5%, dan iborat.



Avstraliya aholisi diniy mansubligi ham anglikanlar, katoliklar, presvitarian cherkovlari shaklida ko'pdan kamayib boradi XX asrning boshlariga qadar mamlakatning ingliz tilli aholisi milliy ongi Britaniya fuqarosi ekanligi bilan belgilangan. Hududlarni yaxlitligi uchun kurash 1901 yili Avstraliya ittifoqini tuzilishi va Britaniya dominioni deb e'lon qilinishi bilan yakun topdi.

Avstraliya milliy o'zligini sinovlaridan biri I-jahon urushi davrida ro'y berdi. Avstraliya qo'shinlari Britaniya qo'mondonligi tomonidan 1915 yil 25 aprelda Dardanell bo'g'ozidagi Gallipol yarim oroli sohiliga turklar pulemyotlari o'qlariga qarshi tashlandi. Minglab avstraliyalik askarlar halok bo'lgan ushbu kun hozirga qadar milliy motam kuni sifatida nishonlanib kelmoqda.

Avstraliyaliklar milliy ongi 20-30 yillarda iqtisodiy inqiroz tufayli yana katta sinovlardan o'tdi. 1949 yildan "britaniya fuqarosi" o'rniga "avstraliyalik" atamasi rasman kiritildi. 1972 yilda Avstraliya pasporti, 1970- yillar oxiridan metr tizimi joriy etildi. 1984 yildan milliy gimn "Olg'a sohibjamol Avstraliya" ijro etilmoqda. Qirolicha Elizaveta II 1986 yili Avstraliyaga qonun, ijroiya va sud hokimiyatlarida mustaqillik berdi.

O'tgan davr mobaynida avstraliyaliklar yuksak rivojlangan iqtisodiyotni, dunyoda eng yuqori hayot ko'rsatgichlaridan birini, milliy madaniyatlarini yaratdilar. Avstraliyalik yozuvchi Patrik Uayot Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Bugungi kunda Avstraliyada 140 dan ortiq etnoslar vakillari yashab ular aborigenlarsiz 90 ta tilda so'zlashadi.

Nisbatan qisqa davr mobaynida anglo-avstraliyaliklarning kundalik maishiy turmushida ko'plab o'ziga xos avstraliyalik xususiyatlar shakllandi. Jumladan, qishloq uy-joylari an'anaviy asosida vujudga keldi. Farqli xususiyati avstraliyada g'isht emas, yog'ochdan qurilish, katta ayvon, uydan alohida oshxona va nihoyat suv uchun katta sisterna, hozirgi kunda basseyn (hovuz) bo'lishidadir. Farqli jihatlar tabiiy iqlim sharoitlari bilan izohlanadi.

Astraliyaliklar ingliz tilida deyarli beshmingdan ortiq "yashil qit'a", uning aholisi tili bilan bog'liq so'zlar mujassamlangan. Avstraliyaning sobiq Bosh vaziri R.Menzis XX asrning o'rtalarida nafaqaga ketguniga qadar qirolicha Elizaveta II dan lord unvonini olishdan bosh tortishi ham millatning o'z g'ururi, ongining shakllanishi yuqori darajaga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Savol va topshiriqlar.

1. Avstraliya aborigenlari: shakllanishi, tiplari, rasalari haqida gapirib bering.
2. Avstraliya va Tasmaniya xo'jaligi, jamoa tashkilotlari, dinlari.
3. Initsiatsiya nima?
4. Avstraliya aholisi bugungi kunda.

2-BOB. OKEANIYA OROLLARI: MIKRONEZIYA, MELANEZIYA VA YANGI GVINEYA ETNOLOGIYASI

1. Umumiy ma'lumotlar. Melaneziya ("qora orollar"). Yangi Gvineya va Mikroneziya ("Mayda orollar") Okeaniyaning tarkibiy qismi hisoblanib, bu son-sanoqsiz orollar Tinch okeanida joylashgan. Mikroneziyaga: Karolin, Marian va Marshall orollari kirib umumiy maydoni 2,6 ming km², aholisi yarim million atrofida. Melaneziyaga: Yangi Gvineya, Bismark arxipelagi, D.Antrokasto, Solomon orollari, Luiziada arxipelagi, Santa Krus, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya, Luayote, Fidji va yana qator orollar kiradi. Maydoni 980 ming km², aholisi 8 mln kishini tashkil qiladi.

Melaneziya yaxlit birlikni tashkil etmay, iqtisodiy taraqqiyoti darajasi, turar-joylari turlari, diniy mansubligi xususiyatlari va h.k. lar bo'yicha tafovutlanadi. Xususan Papuasiya deb nomlanuvchi Yangi Gvineya aholisi Melaneziyada alohida o'rin tutadi. Okeaniya, xususan Melaneziya turmush va madaniyatning arxaik ko'rinishlarini saqlab qolganligi sababli etnologlarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Aholining shakllanishi. Olimlarning fikricha Okeaniya aholisi hozirgi orollarga bundan 30 ming yil avval kela boshlab, dastlab Yangi Gvineyaga Janubiy - Sharqiy Osiyodan aholi guruhlari kelib joylashgan. Ular avstraloid irqiga mansub bo'lib hozirgi papuas tillariga yaqin tillarda so'zlashganlar. Ilk aholi xo'jaligi ov va terimchilik bo'lgan.

M. av. VIII ming yillikda Janubiy- Sharqiy Osiyodan yangi aholi to'lqini boshlanib, ushbu papuas tilli aholi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti buyicha nisbatan yuqori pog'onada turgan. Aynan shu guruhdan ko'plab papuas xalqlari shakllangan.

Bundan 5 ming yil avval Yangi Gvineyaga migrantlarning yangi guruhi kela boshlab ular mongoloid irqiga mansub, avstroneziya tillarida so'zlashganlar.

Yangi aholining avvalgilari bilan aralashishi orqali Melaneziya orollarida yashaydigan melaneziyaliklar vujudga keladi. Ularda mongoloidlik xususiyatlari yo'qolib avstraloidlik ustun keladi, lekin avstroneziya tillari o'z ustunligini saqlab qoladi.

Mikroneziya 4 ming yil avval Indoneziya yoki Filippindan chiqqan aholi tomonidan o'zlashtirilgan.

Okeaniyaning ushbu qismi aholisi tillari, madaniyatlari, antropologik tiplari murakkab etnik jarayonlar, rasa, tillar aralashuvi, assimilyasiyalar tufayli o'ziga xos rang- baranglikni tashkil etadi.

Okeaniyani evropaliklar tomonidan kashf etilishi. Dastlab portugaliyaliklar 1511-1512 yillari Okeaniyaga kelganlar, lekin bu kashfiyot e'lon qilinmagan. Bu erlarga evropaliklar qadami o'nlab yillardan so'ng tegadi.

Tinch okeani orollarida XVI asrda ispan dengizchilari, keyingi asrda gollandlar, XVIII asrning ikkinchi yarimidan inglizlar faol harakat olib borganlar. XIXasrda Angliya va Fransiya, asr so'ngida Germaniya va AQSh faol mustamlaka siyosati olib borgan. XXasr boshlarida Okeaniyaning barcha orollari yirik davlatlar tomonidan egallangan.



Mustamlakachilarni iqlimi mo'tadil tabiiy boyliklari mo'l bo'lgan orollar xususan Fidji va Yangi Kaledoniya o'ziga jalb etgan. Murakkab iqlimi Yangi Gvineyaga o'xshash orollarni o'zlashtirish nisbatan qiyin kechgan. Ushbu jarayonda ibtidoiy qabilalar yuksak texnologiyalarga ega aholi bilan aloqaga kirishgan. Yevropa madaniyati bilan birgalikda kelgan o'tochar qurollar, spirtli ichimliklar, turli kasalliklar mahalliy aholi orasida o'lim holatlarini kuchaytiradi.

Albatta evropaliklar orollarga faqat arzon zeb-ziynatlar, matolar, oynalar olib kelmagan. Temirdan mehnat qurollari yangi ekin turlari, uy hayvonlarini ham olib kelishgan. Bu foydali yangiliklar Okeaniya bo'ylab tez tarqaladi. Lekin evropaliklar kuch va aldash orqali berganlariga qaraganda ko'proq narsani undirib olishga intilganlar.

Xristian dinining turli mazhablariga mansub missionerlar aholiga o'z dinlarini o'tkazishga intilganlar. Bu jarayonlar mahalliy aholining an'anaviy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada

ko'pchilik orollar aholisi ikki: an'anaviy va evropa madaniyatini o'zlashtirganlar.


N.N. Mikluxo-Maklay Yangi Gvineyada. Rossiyalik N.N.Mikluxo-Maklay (1846-1888) ixtisosi bo'yicha zoolog, ilk bor orol sohiliga 20 sentyabr 1871 yili qadam qo'ygan. Olim Yangi Gvineyada muhim ilmiy muammolar insoniyatning kelib chiqishi, rasalarni shakllanishi, bu borada papuaslarning o'rnini o'rganishni o'zining asosiy maqsadi etib qo'ygan. U insoniyat vakillari rasa jihatidan bir-birlaridan farq qilsalar-da, yagona biologik tur ekanliklariga to'la ishongan.

Maklay papuaslar orolida deyarlik to'rt yil yashab ularning tilini o'rganishga, shu orqali ularning udum- marosimlari, hayot tarzini o'rganishga intilgan. Olim papuaslarni turmush va mehnat faoliyatini o'rgangan, ularni turar-joylari, kiyimlari, taqinchoqlarini rasmini chizgan. Papuaslarning taom tayyorlash jarayonini ikir- chikirlarigacha tavsiflagan. Ularning marosimlari, ziyofatlari, jamoaviy ovlarida bevosita ishtirok etgan. Mikluxo-Maklay fan uchun Yangi Gvineya papuaslarini kashf etgan deb e'tirof etish joizdir.



3. Mikroneziyaliklar. Irqiy tip va tillari. Mayda orollar aholisi rasalari bo'yicha avstraloidlar hamda mongoloidlarning aralashuvidan shakllangan. Mikroneziyaliklar o'rta bo'y, och-qo'ng'ir terili, qora (jingalak yoki tekis) sochli kishilardir. Orollarda yashovchi o'ngdan ortiq xalqlar avstroneziya til oilasining turli tillarida so'zlashadilar. Mahalliy tillardan to'qqiztasi yozuvga ega bo'lsada badiiy jihatdan yuksalmagan. Etnoslararo munosobatlarda ingliz tili ishlatiladi.

Aholining turmush va mashg'ulotlari. Orollar aholisi baliqchilik va tropik deqqonchiligi bilan shug'ullanadilar. Asosiy sotishga mo'ljallangan ekin - kokos palmasi, uning mevasidan kopra (mevaning quritilgani) tayyorlanadi, kakao, ayrim sabzavot va mevalar, murch ham bozor uchun etishtiriladi.



Chorvachilik nisbatan zaif rivojlangan, baliqchilik mahalliy eqtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan. Mustamlakachilik turli orollarda turlicha davrlarda boshlangani Marian orollari va Palauda an'anaviy madaniyati yo'qotilishiga olib kelsa, Mikroneziya arxipelagining boshqa orollarida u birmuncha yaxshi saqlangan. Bu moddiy madaniyatda (uy-joylar, kiyimlar, taomlarda) shuningdek ma'naviy madaniyatda (folklor, ashula, raqslarda) ham kuzatiladi. Jumladan uylarni an'anaviy tarzda toshlardan poydevor ustida, devorlarni yog'och va palma barglaridan qurishadi. Erkaklarning belbog'chalari, ayollarning yubkalari o'simlik tolalari va barglardan yasaladi. Yap orolida aholi o'tmishda ulkan o'rtasi teshilgan toshlarni pul sifatida ishlatgan.

Mikroneziyaning boshqa qismlarida hozirga qadar ustunlar ustiga o'rnatilgan ikki yoqli tom palma yaproqlari bilan yopilgan, devorsiz uylarni uchratish mumkin.

Ayni paytda Palau orollari aholisi kiyimlari, idishlar evropa tipida, uylarining tomlari tunuka bilan yopiladi.

Ijtimoiy hayot va diniy tasavvurlar. Ayrim orollarda ijtimoiy tartiblar butunlay o'zgargan bo'lsa, boshqalarida yaxshi saqlangan xususan qabila boshliqlari hokimiyati, aholining boy qatlamlari mavqeining balandligi saqlanib kelmoqda.

Ayrim orollar aholisi xristianlikni qabul qilgan, boshqalarida an'anaviy diniy tasavvurlar ruhlarga, arvohlarga e'tiqod saqlangan.

4. Melaneziyaliklar: antropologik tip va tillari. Yangi Gvineya orolidan boshqa hududlarda Melaneziyaning tub aholisi melaneziyaliklardan iborat. Irqiy jihatdan melaneziyaliklar qora rangli badan, lablarining qalinligi, keng burun, mo'tadil jingalak soch, yuzining



o‘rtacha kengligi bilan xususiyatlanadi. Melaneziyaliklardan farqli rasa belgilari Yangi Kaledoniyaliklarda bo‘lib, sochlari qisqa to‘lqinsimon, uchinchi darajali badan tuklari qalin, nisbatan baland bo‘ylari bilan xususiyatlanadilar.

Melaneziyada yashovchi uch yuzdan ortiq etnoslar ikki til: avstroneziya va papuas tillarida so‘zlashadilar. Melaneziyaliklar (0,7 mln. kishi) orasida eng yirik xalq Yangi Britaniya orolidagi tolailar – 100 ming kishidan ortiqroq.

Maishiy turmush va xo‘jalik mashg‘ulotlari. Melaneziyaliklarning an’anaviy mashg‘ulotlari - qo‘l dehqonchiligi bo‘lgan. Asosiy ekinlari - kokos palmasi. Kokos yong‘og‘ining ma’lum qismi sotuvga chiqarilsa, qolgani ichki iste’mol uchun qoldiriladi. Yams, taro, banan, batat, araxis(eryong‘oq), saga palmasi, tamaki ham ekiladi. Qisman evropaliklar keltirgan kakao, soya, sholi, zanjabil(imbir), nilufar daraxti yetishtiriladi. Melaneziya orollarida dehqonchilikning daraxtlarni kesib, shox-shabbalarini yondirib ekin ekish usuli saqlanib qolgan.

O‘z ahamiyati bo‘yicha ikkinchi xo‘jalik turi dengiz baliqchiligidir. Kichik orollarda bu aksari yagona mashg‘ulot hisoblanadi. Ov qurollari turli to‘rlar, qarmoq, sanchqilar, kamon, o‘simliklardan olingan zaharlardan iborat. Yovvoyi hayvonlar bo‘lmaganidan ovning ahamiyati past. Solomon orollarida timsohlarni ov qilish kuzatiladi.

Melaneziyaliklar to‘ng‘iz, parranda boqishadi. Yirik shoxli mol faqat plantatsiya tipidagi xo‘jaliklarda mavjud. Hunarmandchilikda bo‘yralar, xaltalar, to‘qishda o‘simlik tolalari ishlatiladi. Yog‘och o‘ymakorligi qayiqlar yasash (daraxt tanasini o‘yib) yaxshi rivojlangan. Melaneziyaliklar an’anaviy turar-joylari, rejada to‘g‘ri burchakli, ikki yoqlama tomi bilan xususiyatlanadi. Asosiy ashyo palma, banan, pandanus-yaproqlari, yog‘ochi hisoblanadi.

Melaneziyaliklar kiyimlar belbog‘cha, yubkalar tapa- daraxti po‘stlog‘i, o‘simlik tolalaridan tayyorlanadi.

Melaneziyalik aksari o‘z tomorqasi hisobidan yashaydi. To‘ng‘iz



go‘shti va boshqa go‘sht mahsulotlarini ham ist’emol qilishadi. Baliq aksincha ko‘proq eyiladi. Taomni er o‘chog‘ida tayyorlashadi. Yevropaliklar kelguniga qadar olovni yog‘ochlar yordamida olishgan.

Ijtimoiy tuzum va diniy tasavvurlar. Ijtimoiy tuzum taraqqiyoti darajasi bo‘yicha melaneziyaliklar papuaslardan yuqori turadi. An’anaviy ijtimoiy tashkilotlari – qishloq jamoasi, bir necha yirik oilalardan tashkil topgan. Yer butun qishloqniki hisoblansada, har bir oila o‘z maydoniga ishlov berib, unga nisbatan egalik huquqini saqlagan.

Urug‘ ona tomonidan hisoblanadi. Yevropaliklar kelguniga qadar mulkiy va ijtimoiy tengsizlik shakllanib bo‘lgan.

Hozirgi kunda Melaneziya aholisining ko‘pchiligi xristianlik diniga mansub hisoblansada, amalda ushbu dinga e’tiqod yuzaki bo‘lib, **mana** - sirli kuchga, qudratli ruhga e’tiqod saqlanib qolgan.

5. Papuaslar. Antropologik tip va tillari. O‘zlarining tashqi jismoniy belgilariga ko‘ra papuaslar veddo-avstraloid rasasiga mansub, ularning badan terilari qoramtir, sochlari qora jingalak, ko‘zlari jigarrang, iyaklari oldinga chiqqan keng burun va qalin lablari, erkaklarida uchinchi darajali badan tuklari qalinligi bilan xususiyatlanadilar.

Yangi Gvineya orolining 85% aholisi papuas tillarida so‘zlashadilar. Ularning umumiy soni 4,3 mln. kishidan iborat. Orolda yashovchi papuaslar 600 ta alohida xalqlarga bo‘linadi. Ulardan to‘rttasi: dani, enga, chimbu va xagenlar har birida 100 mingdan ortiq kishini birlashtirgan.

Lingvist olimlar papuas tillarini odatda bir necha til oilalariga bo‘lishadi. Ulardan eng yirigi – transyangigvineyada – 2,8 mln. kishi so‘zlashadi.

Maishiy turmush va xo‘jalik mashg‘ulotlari. Papuaslarning asosiy mashg‘ulotlari dehqonchilikdir. Eng ko‘p etishtiradigan mahsulotlari: yams, taro, batat (er ildizli), banan, shakarqamish, kokos va saga palmalari, non daraxti. Xo‘jalik natural shaklda bo‘lib

ahyon-ahyonda tovar mahsuloti- kokos yong'og'i, kofe, kakao yetishtirilgan. An'anaviy mehnat quroli – toshdan bolta, uchi o'tkir tayoq va ensiz belcha (lopata) bo'lgan. Tosh va yog'ochdan qurollar hozirda temir qurollar tomonidan surib chiqarilgan. Ayni paytda xo'jalik o'z an'analarini saqlagan, papuas qishloqlaridagi kun tartibi ham evropaliklar kelguniga qadargisidan juda kam farq qiladi.

Erta tongda katta yoshdagilar o'z ishlariga yo'l oladilar. Ayollar daladagi ekinlar bilan shug'ullanadilar. Daladan bir kecha-kunduzga etadigan batat keltiriladi. Erkaklar o'rmondagi daraxt-butalarni tozalab yangi ekin maydonlari tayyorlaydilar. Kunduzi qishloqda faqat qariyalar va bolalar qolishadi. Kechqurun avval ayollar qaytadi. Ular keltirgan o'tinlardan gulxan yondirib, pechkada taom tayyorlaydilar. So'ng erkaklar qaytadilar, kechki taomdan keyin qayiqlarni tuzatish, bo'yra to'qish va h.k. ishlar davom etadi. Har bir papuas oilasining 5-6 ta eri bo'lib undagi hosil yil davomida navbatma- navbat pishib etiladi. Ekin ekilmay qo'yilgan maydonga 10-15 yildan so'ng qaytiladi. Chorvachilik yaxshi rivojlanmagan. Yevropaliklar kelguniga qadar it, to'ng'iz va tovuqlar bo'lgan. Tuxumni taom tarzida kam ishlatishgan. So'nggi yillarda yirik shoxli mollarni boqish kuzatilmoqda. Baliqchilik bilan dengiz sohilida yashovchi qabilalar shug'ullanadi xalos.

Papuaslarning uylari to'g'ri burchakli, uzun, ba'zida tuxumsimon yoki yumoloq ko'rinishda bo'ladi. Uning asosini erga ko'milgan ustunlar tashkil etib, devoriga shoxlar, po'stloq, o'simliklar poyasi va bargi, ba'zida to'qilgan bo'yralar ishlatiladi. Kulbalar ichida pol tuproqdan, ayrim qishloqlarda ustunlar ustiga qurilgan poli bambukdan uylar uchraydi.



Melaneziya aholisi sovuqdan asranish uchun umuman kiyimga eqtiyoji yo'q. Belbog'cha etaklaritapadan daraxt po'stlog'i tolalaridan qilingan. Taqinchoqlar: sirg'a, bilakuzuk, burunga sirg'alarni asosan erkaklar taqishadi. Tatuirovka va badanni bo'yash ham bezaklar turiga kiradi.

Taomlar asosan o'simlik, sabzavot mahsulotlaridan bo'lgan. Go'sht kam iste'mol qilinadi. Taomni ochiq olovda er o'choqlarida tayyorlanadi.

Ijtimoiy tuzum va diniy tasavvurlar. Papuaslar qabilalarga bo'linadi, lekin ular mustahkam tashkilotlar emas, sababi qabilani til va madaniyat umumiyligi birlashtirsada, unda qabila boshliqlari instituti shakllanmagan.


Papuas jamiyati asosini qarindoshlar guruhi tashkil etib, u uch-to'rt avlod vakillaridan iborat. Urug' patriarxal ko'rinishida. Urug'lar ittifoqi- evropaliklar kelguniga qadar eng yirik ijtimoiy tashkilot bo'lgan.

Hozirgi paytda Yangi Gvineya aholisining ko'pchiligi xristianlikni protestant va katolik mazhablariga mansub. Lekin xristianlikka e'tiqod kuchli asosga ega emas.

Okeaniya xalqlari XX asrda va hozirgi kunda. Siyosiy holat. XX asrning 60-yillariga qadar butun Okeaniyada birgina mustaqil davlat Yangi Zellandiya bo'lgan. Keyinchalik birgina Melaneziyada: Fidji (1970), Papua-Yangi Gvineya (1975), Solomon orollari (1978), Vanuatu (1980) mustaqilikka erishdilar. Fransiyaning dengiz orti hududi – Yangi Kaledoniya tub aholisi va yana boshqa orollarda mustaqillik uchun kurash davom etmoqda.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Mikroneziyaning asosiy qismi BMT tomonidan AQSh boshqaruviga berilgan. Ularning ayrimlari 1987 yili (Mikroneziya Federativ Shtatlari, Belau Respublikasiga) AQSh ga assotsiyalangan davlatlar maqomi berildi. Butunlay mustaqillikka Nauru oroli (1968 y.) erishgan. Yangi Gvineya hamda orolida Papua- Yangi Gvineyasi hamda uning g'arbiy hududi Irian- Jaylar mavjud.

An'anaviy va zamonaviy madaniyat. Melaneziya xalqlari zamonaviy madaniyatiga an'anaviy madaniyatning evropa madaniyati bilan mujassamlashuvi xususiyatlidir. O'zaro munosabatlar sust hududlarda jumladan Yangi Gvineyaning markaziy hududlarida tub aholi madaniyati deyarlik o'zgarishsiz qolgan. Yevropaliklar, amerikaliklar bilan bevosita aloqada bo'lgan orollarda (jumladan Yangi Kaledoniyada) an'anaviy madaniyatni ayrim elementlari qolgan xalos. Fidji va yana bir qator orollarda nisbat teng yarim an'anaviy, yarmi zamonaviy madaniyat qismlaridan iborat.



Okeaniya hududlari ijtimoiy jihatidan keskin farqlanadi. Xususan Mikroneziyada bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosobatlar hukm sursa, boshqalarida urug'chilik munosobatlari belgilarini ham uchratish mumkin. Papua - Yangi Gvineyada arxaik urug'chilik ijtimoiy tuzumi mustahkam saqlanmoqda.

Moddiy madaniyatda (uy- joylar, kiyimlar, zeb- ziynatlar, idishlarda) ijtimoiy hayotda (jamoaviy mehnat, umumiy bayram va marosimlar), san'atda (yog'och o'ymakorligi, musiqa, qo'shiqlar, raqslar, afsonalar) an'analar qat'iy saqlanmoqda. Mavjud sharoitda mahalliy xalqlar madaniyatining eng yaxshi namunalarini saqlanib kelishi muhim vazifalardan desak xato bo'lmaydi.

Savollar va topshiriqlar

1. Mikroneziya, Melaneziya va Yangi Gvineya aholisini shakllanishi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar topib gapirib bering!
2. Mikroneziyaliklar rasalari va tillari haqida nimalarni bilasiz?
3. Melaneziyaliklar: klassifikatsiya, xo'jaliklari, moddiy madaniyatlari.
4. Papuaslar haqida ma'lumotlar to'plab so'zlab bering!
5. Okeaniya XX asrda: etnik jarayonlar ta'sirida.

3-BOB. POLINEZIYALIKLAR

Taniqli yangi zelandiyalik etnolog Te Rangi Xiroa polineziyaliklarni "tonggi shafaq dengizchilari" deb bergan nomi bu xalqlarni hayot tarzi va tarixini o'zida ajoyib tarzda mujassamlagan. Polineziya – shimolda Gavayya, janubiy- sharqda Yangi Zelandiya va janubiy- g'arbda Pasxa (Rapanui) orollari orasida joylashgan uchburchakdagi minglab orollarni birlashtirgan tarixiy etnografik hududdir. Nomi keltirilgan orollardan tashqari Polineziyaga: Tonga, Samoa, Taiti, Markiz, Kuk, Tuamotu, Tubuai, Layn, Gambe va boshqa arxipelag hamda orollar kiradi.

1.Polineziya madaniyatining o'ziga xosligi. Okeaniya xalqlari an'anaviy madaniyatlarida ko'plab umumiylik mavjud. Asosiy xo'jalik faoliyati – tropik qo'l dehqonchiligi barcha orollarda bir xil bo'lib, erga uchi o'tkirlangan tayoq (so'qa) bilan ishlov berishadi. Deyarlik barcha joylarda uy xo'jalik ekinlari tropik er ildizli (yams, taro, batat), kokos palmasi, non daraxti, banan ekiladi. Uy hayvonlaridan to'ng'iz, tovuq va hurmaydigan it zotini boqishadi.

Okeaniya aholisining kiyimlarida ham ko'plab o'xshashliklar bo'lib, ular aksari daraxt po'stlog'i tolalaridan qilingan, tapadan tayyorlangan. Uylari ham tomi ikki tomonlama yopilgan, devori kunduzi olib qo'yiladigan bo'yralardan iborat, tomi palma yaproqlari bilan yopiladigan kulbalar ko'rinishidadir. Okeaniyaliklar qayiqlari ham asosan daraxt tanalaridan o'yib yasalib, balansirli kemalar yoki ikki qayiqni o'rtasini birlashtirib katamaran shaklidagi kema yasaladimi barcha- barchasi- tosh boltalar, pichoq va toshdan qirg'ichlar yordamida biror- bir metall qism ishlatilmasdan yasalgan. Qolaversa Yangi Gvineya aholisidan boshqa barcha orollar aholisi til jihatidan bir- avstroneziya (malayya- polineziya) tillarida so'zlashadilar.

Okeyaniyaning boshqa hududlaridagi aholisidan madaniy belgilari bo'yicha keskin farq qilmaydigan polineziyaliklar, ko'p jihatlariga ko'ra okeyaniyaliklar orasida alohida o'rin tutadilar. Jismoniy belgilari bo'yicha polineziyaliklar badan rangi och- qo'ng'ir, sochlari to'lqinsimon, yuz tuzilishlari mongoloidlik xususiyatlariga ega. Ayrim tadqiqotchilar polineziyaliklarda evropeoidlik belgilari ham borligini ta'qidlashadi.

Til birligidan tashqari, moddiy madaniyat, udum-marosimlar, din va afsonalarda ham polineziyaliklar dunyosi yaxlitdir.

Yana bir jihati ularda evropaliklar kelguniga qadar davlatchilik, toifaviy- kasta tizimi, taraqqiy etgan kohinlar va e'tiqod- ibodat markazlari va hatto o'ziga xos yozuvi (Pasxa oroli) bilan xususiyatlangan. Ayni paytda savdo, natural almashuv bo'lmagani ham ajablanarli.

1. "Tonggi shafaq dengizchilari". Polineziyada sohillar bo'ylab suzish uchun qo'llaniladigan balansirli qayiqlar va sollardan tashqari uch machtali to'g'ri va bugri o'rnatiladigan (paxi) elkanli yirik kemalar qurilgan, ularning uzunligi 40 m. gacha eniga 10 m. kengligida bo'lib, 300 ga yaqin kishi siqqan. Bu kemalar tezligi 10 uzel (soatiga 20 km.), elkanli kemalar uchun yaxshi ko'rsatkich bo'lgan.

Ushbu turdagi kema 50-60 kishi, zarur oziq va ichimlik suvi olib uzoq sayohatlarga chiqqan. Xususan Taitidan Gavayyaga qadar 4 ming km. masofani 21 kunda bosib o'tgan.

Dengiz kemalarida darg'achilik Polineziyada eng e'zozli hisoblanib, eng yuqori kastaga mansub oilalarda avloddan - avlodga o'tgan. Unda kema darg'alari osmon yoritgichlari bo'yicha dengizda yo'l topa olishdan tashqari shamollarni farqlay bilganlar. Xususan Tokelau orolida har bir dengizchi o'ttiz ikki shamolni bilib, ularning har birini o'z nomi, o'z xususiyati bo'lgan.

Polineziya navigatorlari suzish yo'nalishini ko'rinishidan arzimagan belgilar: suvning harorati, sho'rligi, rangiga, qushlarning uchish yo'nalishiga, bulutlarning ko'rinishiga qarab belgilashgan. Polineziyaliklarning navigatsiyaga oid bilimlari evropaliklarni lol qoldirgan. Tupia ismli polineziyalik zodagon 1777 yili J. Kukga Polineziyaning ko'plab arxipelaglari haqida axborot bergan, ularni xaritaga tushirgan ingliz kapitani keyinchalik keksa oqsoqol ma'lumotlari aniq ekanligiga ishonch hosil qiladi.

1. Polineziyaliklar vatanini izlab. Til va madaniyat borasidagi polineziyaliklar yaqinligini turli arxipelaglar orasida doimiy aloqalarni ta'minlagan dengizchilik san'ati yuksakligi bilan izohlash mumkin. Ularning madaniyatidagi, ijtimoiy tashkilotlaridagi va jismoniy tiplaridagi tafovutlar alohida tadqiqotlarga eqtiyoj tug'diradi.

Ushbu muammoni o'rganish XVI asrda evropaliklar kelganidan keyin boshlangan. Polineziyaliklarni kelib chiqishi borasida: avtoxton (mahalliy), osiyoliklar va Amerikadan kelganlar kabi nazariyalar o'z tarafdorlariga ega. Dastlabki nazariya vakillari I.Forster, J. Dyumon-Dyurvil, M. Braun, L. Jakolio va boshqalar bo'lgan.

Osiyo polineziyaliklar vatani bo'lganligi g'oyasi V. Gumboldt, A. Shamisso va boshqalar til, madaniy o'simliklar hamda hayvonlarning birligi, g'arbiy shamollar hukmronligi va h.k. larga asoslangan.

Polineziyaliklar vatani janubiy Amerika g'oyasini eng taniqli vakili Tur Xayerdal 1947 yili balsa daraxtidan yasalgan solida Perudan Tuamotu orollariga qadar masofani suzib o'tgan. Olimning "Amerikalik hindular Tinch okeanida" asarida batat (kumar), qamishdan qayiq yasash va h.k. birligiga asoslangan.

So'nggi o'n yilliklar davomida etnologiya fani katta hajmdagi arxeologik, lingvistik va antropologik ma'lumotlarga asoslanib polineziyaliklarning kelib chiqishi muammosini asosan echdi. Uning asosini Osiyo nazariyasi tashkil etsada, qolgan g'oyalar ham inkor etilmasdan, polineziyaliklar madaniyati mazkur hududda yaratilgani, ular ulkan masofalardagi orollarni o'zlashtirishlari davomida Janubiy Amerikagacha suzib borib, ayrim hindu madaniyati elementlarini o'zlashtirganlari ta'qidlanmoqda. Xususan, mongoloidlik belgilariga ega aholi guruhlari Polineziyaga bundan 5 ming yil avval Janubiy- Sharqiy Osiyodan kirib kelganlar. M. av. II ming yillik o'rtalaridan Tonga va Samoa orollaridagi aholining yangidan ko'chishlari migratsiyasi to'lqini hozirgi aholi guruhlariga asos bo'lgani tasdiqlandi. Eng muhimi, polineziya madaniyati Polineziyada shakllangani, uni Osiyodan ham Amerikadan ham tayyor holatda keltirilmaganidir.

1. Polineziya davlatlari: kastalari, dinlari va afsonalari. Tonga, Taiti va Gavayyadagi davlatlarning murakkab tuzumlari Polineziyaga ilk kelgan evropaliklarni xayratga solgan. Polineziyaliklar jamiyati kastalarga bo'lingan. Taitida oliy kasta- ariklar bo'lgan. Ularning safidan qabila boshliqlari va hatto arxipelag hukmdorlari chiqqan. Ariklardan pastroqda er egalari- raatiralar, ulardan ham pastda oddiy xalq – manaxune joylashgan. Eng quyida qullar va qaram xizmatkorlar bo'lgan.

Yuqori darajadagi boshliqlar hokimiyati kuchli bo'lib, oddiy kishilarning bo'ysinmasligi odatda o'lim bilan yakunlanib, qarorni uning tan soqchilari amalga oshirgan. Hukmdor shaxsi ilohiylashtirilib, uning sharafiga diniy markazlarda marosimlar o'tkazilgan. U paydo bo'lishi bilan oddiy xalq kiyimini echib erga yotgan. Qirolga maxsus ramziy so'zlar bilan saroyini "havo buluti", kemasini - "kamalak" va h.k. muroojat qilish lozim bo'lgan. Qirol xalqqa to'g'ridan- to'g'ri muroojat qila olmas, uning uchun maxsus amaldor- notiqlar bo'lgan. Taomni ham maxsus kishi edirib qo'ygan. Qirolni saroydan chiqishi bilan maxsus yigitlar taxti - ravonda erga qo'ymay ko'tarib yurishgan.

Yuqorida keltirilgan udumlar polineziyaliklarda "tabu" va "mana" bilan izohlangan. "Mana" – muqaddas ko'rinmas kuch turli darajada buyum va insonlarda mujassamlashadi. Tabiiy qirolda eng kuchli mana bo'ladi. Agar inson bilib- bilmay jinoyat qilsa, kurashda mag'lub bo'lsa va h.k. holatlarda uning manasi pasayib, odamlar undan chetlashadi. Muqaddas hokim, hukmdorlarga ham tabu qo'yilib ular bilan muloqot cheklangan.

Polineziyada toifaviy kastalar biqiqbo'lib unga mansublik otadan bolaga o'tib bir kastadan boshqasiga o'tish mumkin emasdi. Faoliyatning barcha turlari kastalar orasida taqsimlangan. Xususan yuqori kasta vakillari shug'ullanadigan: xalqni boshqarishdan tashqari, kemalar qurilishini, dengiz ekspeditsiyalarini, uylar qurilishini, badanga tatuirovka solish, ibodatxonalarda diniy xizmatni boshqarish qabilar mavjud. Quyi pog'onadagi kasta vakillari cho'chqa boqish, farroshlik, idish-tovoq yasash va h.k. larni bajarganlar.

Polineziyaliklar dinlari. Politeizm – ko'pxudoilik bilan belgilanadi. Sig'iniladigan yuzlab xudolar orasida eng muhimlari: Tane-Quyosh xudosi, yaratuvchi iloh; Tu- urush xudosi; Rongo – dehqonchilik homiysi; Tangaroa – yer va insonlarni yaratgan iloh. Barcha oliy ilohlarga atab ibodathonalar qurilib, ularda ruhoniy- kohinlar hizmat qilishgan.

Polineziyada barcha orollar aholisi e'tiqod qiladigan ibodathonalar majmualari bo'lgan. Xususan Taiti arxipelagidagi Raitea orolida Opoa ibodatxonasi anashu xildagi muassasa bo'lgan. Unda kohinlar maktabi bo'lib, uzoq orollardan zodagonlar o'z farzandlarini

o'qishga keltirishgan. Opoadadiniy marosimlarni o'tkazish uchun butun Polineziyadan kohinlar va zodagonlar to'planganlar.


Polineziyada Pasxa orolidan topilgan taxtachalarga bitilgan **Koxau rongo- rongo** piktografik rasmlarni hisobga olmaganda yozuv bo'lmagan. Undagi ayrim belgilarni Moxinjo – Daro va Xarappadan topilgan ierogliflar bilan o'xshashligi aniqlangan. Ayrim olimlar ularni yozuv emas, kohinlar eslab qolishi uchun zarur bo'lgan uzundan- uzun duolar belgilari deb hisoblashadi.

1. Polineziyaliklar yevropa sivilizatsiyasi tasirida. Polineziya orollari evropaliklarga XVI asr oxiridan tanish bo'lsada, asosiy arxipelaglar: ispan, golland, ingliz, fransuz dengizchilari tomonidan XVII-XX asrlarda kashf qilingan. Ularning Polineziya orollari va ularning aholisi haqidagi tavsiflari yer yuzidagi jannat iqlimi mo'tadil, mevalari yil davomida pishadigan, odamlari xushfe'l va ochiq ko'ngilli ekanligi hakidagi rivoyatlarni yaratilishiga sabab bo'lgan. Ushbu afsonalar ma'rifatparvarlar J.J. Russo, D. Didro, yozuvchi va rassomlar – R.L. Stivenson, J. London, P. Gogen va h.k. lar tomonidan "oltin asr", "xayrli yovvoyi" kabi rivoyatlar bilan boyitilgan. XX asrning 30 – yillarida yosh qaylig'i bilan Markiz orollarida yashash uchun kelgan Tur Xayerdal evropadagi polineziyaliklar hayoti xaqidagi tasavvurlari qanchalik noto'g'ri ekanligini avtobiografik asari "Yo'qotilgan jannatni izlab" da tavsiflab bergan.

Polineziya sivilizatsiyasiga dastlabki zarbani 1797 yili Taitiga inglizlarning "Daff" kemasida kelgan protestant missionerlari bergan. Yangi din kuch bilan joriy etilib, oldingi dinlardan voz kechmaganlar qirg'in qilinib, ibodatxonalar vayron etilgan. XIX asrda Polineziyaning deyarlik barcha orollari evropaliklar tomonidan egallangan. Xristianlikni tarqatish davomida avvalgi dinlar ular bilan bog'liq, afsona, rivoyatlar, marosim va raqslar yo'qotiladi. Yevropaliklar bilan birgalikda spirtli ichimliklar, ilgari bo'lmagan infeksion kasalliklar tarqaladi. Natijada kanakalar soni (mahalliy aholi) bir necha baravar qisqaradi. Faqat O'rta Polineziyada XX asrning boshlarida ushbu jarayonlar to'xtatilib, an'anaviy madaniyat o'zgargan holda bo'lsada saqlanib qoladi. Bu Polineziyaga evropaliklar (Gavayya va Yangi Zelandiyadan tashqari) ko'p ko'chib kelib joylashmagani tufayli ro'y berdi.

Gavayya orollari XVIII-XIX asrlar chegarasida qirol Kameamea I tomonidan birlashtiriladi. Lekin XIX asr oxirida AQSh tomonidan anneksiya qilingan. Erksevar, mag'rur va jangari polineziyaliklar plantatsiyalarda ishlashdan o'limni afzal ko'rishlari Amerika plantatorlarini Gavayyaga xitoy va yapon qullarini (huquqsiz ishchilarni), shuningdek portugal, filippin va boshqa immigrantlarni keltira boshlashiga sabab bo'ldi. Natijada Gavayya AQSh ning aholisi turli etnik birliklardan iborat o'ziga xos shtatiga aylandi. Hozirda sof gavayyaliklar 1 mln. atrofida, o'zlarini "gavayyaliklar" deb atagan 160 ming kishi aslida assimilyasiyalashgan: yaponlar, amerikaliklar, fillipinlar bilan aralashgan aholi vakillaridir. Gavayyaliklar an'anaviy madaniyati, saqlangan lekin yuksak rivojlangan turizm industriyasi ta'sirida turistlarga xizmat ko'rsatish soxasiga aylangan. Turistlar uchun turli amaliy san'at buyumlari yasalib, restoranlarda, ochiq osmon ostida professional raqqosalar, qo'shiqlar konsertlari keng tarqalgan.





Yangi Zelandiya tub aholisi maorilar taqdiri o'zgacha tus olgan. Iqlimi sub-tropik va mo'tadil bo'lgan bu orollarga XIX asrning 40- yillaridan minglab ingliz fermerlari kelib hosildor erlardan maorilarni surib chiqaradi. Natijada 1843-1872 yillari maori urushlari bo'lib uning davomida tub aholi soni 200 mingdan 40 mingga tushgan. Shimoliy orolda maorilar erlarini 40%, janubda 10% qoladi xalos. Xristianlik dini joriy etiladi. Inglizlar keltirgan: bug'doy, kartofel, makkajo'xori, uy xayvonlaridan: qoramol, qo'y, cho'chqalar ko'paytirilib, maorilar xo'jaligini tubdan o'zgartiradi.

O'nlab yil davomida umumiy dushmanga qarshi kurash, o'nlab tarqoq maori qabilalarini mustahkam birligiga olib keladi. "Nui tireni" – Qirol mamlakati avtonom hududi 1837 yili tuzilib uni inglizlar tan oladilar. Maorilar evropa madaniyatining ijobiy jihatlarini o'zlashtirib

boradilar. Maori yo'lboshchilari 1872 yili Yangi Zelandiya parlamentida ularga ikki o'rin berilishiga erishadi. XIX asr o'rtalarida maori tilida bir necha kollej ochilishiga erishiladi. Mashhur etnolog Te Rangi Xiroa, vazir Apirana Ngata Te Aute universitetini tugatganlar XX asr boshidan maorilar soni ko'payib 300 mingdan oshdi.


Ikkinchi jahon urushidan keyin polineziyaliklar hayotida milliy madaniyatlar yuksalishining yangi bosqichi boshlanadi. G'arbiy Samoa (1962), Tonga (1970), Tuvalu (1978), Kiribati (1979) mustaqilikka erishdilar. O'z- o'zini boshqaradigan hudud maqomini Kuk orollar, Fransiya Polineziyasi oladi.

Yangi mustaqil davlatlar an'anaviy madaniyatini tiklash, ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirish siyosatini olib bormoqdalar. Bu borada yosh polineziya adabiyotining o'rni beqiyosdir. Maori yozuvchilari Viti Iximaera, Xone Tuvare, Patritsiya Grays, samoalik Albert Vendt, tongalik Konan Xelu Tamoi va h.k. lar. Tinch okeani havzasida keng tanildilar. Ushbu yozuvchilar an'analarni tiklashdan tashqari "zamonaviy jarayonlarni anglash, istiqbollarni aniqlashga intilmoqdalar".

Savol va topshiriqlar.

1. Polineziya xalqlari madaniyatining o'ziga xosligi haqida so'zlab bering?
2. "Tonggi shafaq dengizchilari"ga oid internet ma'lumotlarini o'rganib gapirib bering?
3. Polineziyaliklarning kelib chiqishi haqida qanday nazariyalar mavjud?
4. "Tonggi shafaq dengizchilari" kastalari, dinlari va an'analarini qiyosiy tahlil qiling?
5. Vesterinizatsiya ta'siri: ijobiy va salbiy oqibatlari qanday izohlaysiz?

4-BOB. SHIMOLIY VA SHIMOLIY- G'ARBIY AFRIKA ETNOLOGIYASI.




Yer kurrasining 20% ni tashkil etadigan Afrika qit'asi deyarlik 30 mln. km². hududni tashkil etadi. Madaniy belgilariga ko'ra, Afrika ikki qismga bo'linadi. O'rta yer dengizidan savanna zonasigacha – Shimoliy Afrika. Uning madaniyati arab musulmon dunyosinikiga yaqin. Sahroi Kabirdan janubda Tropik va Janubiy Afrika joylashgan. Bu hududlarni Qora Afrika ham deyishadi.

Shimoliy Afrika- Jazoir (28 mln.), Misr (65 mln.), Liviya (6 mln.), Mavritaniya (2,5 mln.), Marokko (26 mln.), Sudan (28 mln.), Tunis (9mln.) tashkil topgan. Ushbu tarixiy- etnologik viloyatga Shimoliy- Sharqiy Afrika: Jibuti (0,5 mln.), Somali (9 mln.), Eritreya (3,5 mln.), Efiopiya (54 mln.) kiradi. Ikki hududning umumiy aholisi 224 mln. dan ortiq.

Shimoliy Afrikada ko'plab xalqlar yashab ularni umumiy dinislom birlashtiradi. Uzoq davrlar davomida qo'shnichilik, o'xshash tabiiy iqlim sharoiti, umumiy xo'jalik, hayot tarzi va madaniyatni shakllanishiga olib kelgan.

Efiopiyaning janubidan XX asrning 70- yillarida topilgan avstrolopiteklar qoldiqlari ushbu hududni antropogenez zamonaviy qiyofadagi – Homo Sapiens shakllangan hududga kirishini tasdiqlaydi. Uzoq o'tmishda Saxro hududi ko'm- ko'k vodiy bo'lib unda aholi zich yashagan. Jazoirning Janubidagi Tassili i Amyerdagi qoyatosh suratlari m.av. VIII- VI ming yilliklarga, eng keyingilari m. av. II ming yillikka mansubligi aniqlangan.

Xozirda ushbu hudud qumli (erg) yoki toshli (xamada) maydonlardir. Sahroi Kabirda o'rtacha harorat soyada +35°. Yog'ingarchilik kam, ba'zida yillar davomida yomg'ir bo'lmaydi. Birgina Nil (6670 km.) janubdan shimolga oqib, doim sersuvligini saqlab qelmoqda. Agar Saxroda 1 km². ga bittadan odam to'g'ri kelsa, Nil vohasida 1000 tadan ortiq kishi yashaydi.



1. Antropologik va lingvistik tasnif. Shimoliy Afrikaning asosiy aholisi katta evropeoid irqining o'rta er dengizi tipiga kiradi. Ushbu rasa vakillari bo'ylari baland, badan ranglari oq, to'g'ri burun, qo'ng'ir ko'zli, qora sochlari bilan xususiyatlanadilar. Hududning eng janubida Sahroda Sudanning janubi va Efiopiyaning negr irqiga mansub- xaratin, shilluk, nuer, semer va boshqalar yashaydilar. Ular qora badani, keng burni va qalin labi, jingalak sochlari, progmatizm- iyaklarining oldinga chiqqanligi bilan xususiyatlanadilar. Hududdagi efiop rasasi evropeoid va negroidlar qo'shni yashagan hududlarda shakllangan.

Aholining tillari bir necha til oilasiga mansub. Afroosiyo til oilasi: semit, kushit, barbar guruhlaridan iborat. Semit tillarida barcha arablar, Misr koptlari (xristianlari), Mavritaniya mavrlari, Efiopiyaning amxara, gurage va boshqa xalqlari so'zlashadi. Barbar guruhida hududning g'arbiy qismidagi ko'plab etnik guruhlar, qabilalar shimoldagi va janubdagi tuareglar ulardan eng yiriklaridir. Tarixiy – madaniy viloyatning janubida niger- kordofan til oilasiga mansub: ozande, dinka, nuer, shilluklar Sudanning janubiy Efiopiya bilan chegarada nil – sahro til oilasining shari- nil guruhiga kiruvchi etnoslar yashaydilar.

Hozirgi kunda o'rganilayotgan hududda murakkab til vaziyati vujudga kelgan. Mustamlakachilik tizimi tugatilgach, yangi mustaqil davlatlarda, adabiy arab tili davlat tili deb e'lon qilinib, so'nggi yillarda evropa tillari: fransuz, ingliz, italyan tillarini tobora surib chiqarmoqda. Ayni paytda ayrim barbar tillarini tan olinishi uchun kurash ketmoqda. Xususan ayrim qabilalar bu borada o'z yozuvlarini, o'z tillaridagi adabiyotni yaratib ancha muvafoqiyatga erishdilar. Efiopiyada davlat tili amxara bo'lib, bu esa boshqa xalqlar xususan oromolar vakillari tomonidan noroziliklarni keltirib chiqarmoqda. Somali sobiq Italiya va Britaniya mustamlakalari asosida vujudga kelib unda davlat tili somalidir.

Etnik tarix. Shimoliy Afrika eng qadimgi madaniyat o'lkalaridan biridir. O'zining ko'p ming yillik tarixi davomida o'lka aholisi turli madaniyatlar ta'siriga uchragan. Shimoliy Afrikada dunyoning eng qadimgi madaniyatlaridan biri – Qadimgi Misr sivilizatsiyasi shakllangan. Misr haqida "Misr bu pergament: unda "Qur'on" ". Injil ustiga, Injil Gerodot asarlari ustida yozilgan, lekin ularning ostidan Qadimgi Misr ierogliflari nur- sochib turadi " – deyishadi. Misrdan g'arbroqda finikiya koloniyasi Karfagen joylashgan. Puni urushlarida mag'lubiyatga uchragan Karfagen o'rnida Rim o'zining "Afrika" viloyatini tuzadi. Keyinchalik ushbu nom butun qit'a nomiga aylanadi. Misrni giksoslar, ossurlar, forslar istilo qilgan va nihoyat Sharqiy Rim imperiyasi tarkibiga kirgan. Uzoq o'tmishdan qolgan yodgorliklar orasida " Dunyoning 7 mo'jizasi"dan Misr ehromlari, Iskandar mayog'i ushbu hudud bilan bevosita bog'liq. Shimoliy Afrikaning murakkab tarixiga qaramasdan asosiy aholisi barbarlar – tili, xo'jaligi, dinlari va qadimda shakllangan urf- odatlarini saqlab kelmoqdalar.

Sudan hududida Ko'k va Oq Nil qo'shilgan hududda m. av. II va I ming yilliklar chegarasida Meroe davlati shakllangan. U Misr bilan yaqin aloqada bo'lib, uning ta'siriga uchragan. Meroe hududi ba'zida Misr tomonidan egallangan, ahyon- ahyonda aksincha uning qo'shinlari shimoldagi qo'shnilari ustiga yurish qilib turgan. M. av. X asrda ular hatto Efiopiya sulolasi nomi bilan Misrni bir asrcha boshqarganlar. M. IV asrdan XI- XII asrlarga qadar Meroe o'rnida Alva, Mukurra nomli kichik davlatlar tashkil topadi. Aholi xristianlikni qabul qiladi.

Shimoliy Afrikadagi keskin o'zgarishlar 641 yildan arablar Misrni istilo qilib islom dinini o'tkazishlaridan boshlanadi. Qisqa muddat ichida arablar butun Shimoliy Afrika va Sudanni bosib oladilar. Asta- sekin aholi arab tili va madaniyatini o'zlashtiradi. Misrdagi koptlargina monofisit oqimidagi xristianlik dinini saqlab qoladilar. O'rta asrlar arab musulmon madaniyati namunalari Tunisdan Qayruvon machiti, Jazoirdagi Tlemsan saroy- qal'asi, Qohirada qal'alar hozirga qadar ko'rganlarni hayratga solib kelmoqda.

Sudan Misr va Mag'rib mamlakatlaridan farqliroq xalifalik tarkibiga kirmagan. Uning hududida arab savdogarlari va Arabiston yarim orolida yashagan ko'chmanchi -- chorvadorlar bo'lgan.

Hududdagi xristian davlatlari parchalanib XV- XVIasrlarda ikki musulmon davlati – Sennar va Darfur vujudga keladi. Aynan shu paytdan Sudan shimoldagi arab tili musulmon hamda janubdagi negroid irqiga mansub ma'jusiy dinli aholiga bo'linib, ichki mojaro vujudga keladi.

Shimoliy – Sharqiy Afrikada: Efiopiya, Eritreya, Jibuti va Somali joylashgan bo'lib, ularning davlatchilik tarixi ham minglab yillarni tashkil etadi. M. av. I ming yillikda hududda o'ziga xos sivilizatsiya hukm surgan. Keyinchalik Aksum davlati vujudga kelib u Sharqiy O'rta yer dengizi va Yaqin Sharq bilan qizg'in aloqada bo'lgan. M. IV asr dan Aksumda ham monofisit mazhabidagi xristianlik qabul qilingan. Efiopiyada ikki ming yildan buyon o'z alfaviti hali mavjud. M. VII asrdan hududda musulmonlar paydo bo'lib, XIV- XV asrlardan Eritreya va Qizil dengiz sohillarida musulmon sultonliklari shakllanadi. Mustamlakachilik davrida hududda Ispaniya, Angliya, Fransiya hukmronlik qilgan.

Jazoir tuareglarida tifinag nomli qadimgi yozuv saqlanib, uni asrovchilari ayollar hisoblanadi. Shimoliy Afrikaning (Efiopiya va Somalidan boshqa) barcha aholisi arab alfaviti, arab adabiyotida faoliyat yuritadi.

Qit'aning ko'pchilik hududlarida davlat chegaralari etnik chegaralar bilan mos kelmaydi. Xususan tuareglar Jazoirdan tashqari Mavritaniya, Mali, Nigyerda; somalilar- Somali, Efiopiya, Keniyada va h.k. yashaydilar.

1. **Xo'jalik mashg'ulotlari, ijtimoiy tashkilotlarva Madaniyat.** Shimoliy Afrika xalqlarining madaniy, maishiy turmushidagi boshqa jihatlardagi o'ziga xosligi yashash sharoitlari hamda xo'jalik faoliyatlari bilan belgilanadi. Shaharlar talaygina bo'lsada ko'pchilik aholi qishloqlarda yashaganlar. O'rganilayotgan hudud geografik jihatdan: 1) sohil bo'yidagi yumshoq iqlimli viloyatlar; 2) shimol va g'arbda-kontinental subtropiklar; 3) tog'li hududlar va vodiylar; 4) janubdagi yarim cho'l va cho'llar.

Shimol va g'arbda sohil bo'yi aholisi baliq ovlashda uzunligi 7,5 m. gacha qayiqlardan foydalanadilar. Undan tashqari dehqonlar donli(arpa, bug'doy, makka) yetishtiradilar. Uzum, sitrus, sabzavot ekib yirik shoxli mollarni saqlaydilar.

Tog‘ aholisi- chorvador ular yaylov chorvachiligi yoki dehqonchilik bilan shug‘ullanadilar tog‘ etaklarida terassa shaklidagi kichik- kichik maydonlarda suli, makka, sabzavotlar va mevalar yetishtiradilar.

Tog‘oldi hududlari va vohalarda sug‘orma dehqonchilik bilan mashg‘uldirlar. Suv mabalari atrofida zaytunzorlar, bog‘lar barpo etadilar. Yerlar oriq, toshli bo‘lganidan yilaro ularga dam berilib, ekin ekilmagan yili yaylov sifatida qo‘y, echki, qoramollarni boqishadi.

Janubga tomon yarim cho‘l hududlarda aholi dehqonchilik bilan suv bor erlardagina shug‘ullanadi. Asosiy ekin xurmo, yana sabzavot, donli ekinlar ekishadi. Ko‘pchilik aholi- chorvador aksari ko‘chmanchi chorvachilikda tuya, qo‘y va echki boqishadi.

Dehqonlar. Berber halqlari (riflar Marokkoda, Jazoirdagi qabilalar, shuningdek kelgindi arablar) ilgaridan dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Eng qadimgi dehqonchilik madaniyati Misrda, uni bejizdan “Nil tuhfasi” deb atashmaydi.

Fallohlar (arabcha “erni haydash” – falyaxa so‘zidan) murakkab sug‘orish inshootlari yordamida, ariq va shaduflarni qo‘llab hosil yetishtiradilar. Donli ekinlar: makka, bug‘doy, turli sabzavotlar, shakarqamish, zaytun, sitrus ekinlaridan mo‘l hosil olinadi. Xurmo daraxti ayniqsa cho‘l hududlarida muhim o‘rin tutadi. Uning yog‘ochi, bargi mevali hammasi xo‘jalikda ishlatiladi. Inglizlar mustamlakachiligidan so‘ng paxta yetishtira boshlanib, u hozirga qadar asosiy texnik ekin hisoblanadi.

Dalada ishlash erkaklar vazifasi hisoblanadi. Yerni haydashda plugdan foydalanishadi. Yerni yumshatishda ketmon, bug‘doyni o‘rishda o‘roq ishlatiladi.

Fallohlar qishloqlari yirik bo‘lib, ba’zida 15- 20 ming kishi yashaydi. Markazda machit, yonida bozor, kofe tayyorlaydigan kafelar. Uylar somonli loydan bir xonali qilib quriladi. Tekis tomlarida o‘tin, uy jixozlarini saqlashadi. Issiq paytlarda tomda oila a’zolari dam oladilar. Uyning sahni bo‘yra, boyroq oilalarda gilam bilan yopilgan. Hozirgi kunda dehqonlarning uylari maishiy texniki; sovutgich, televizorlar bilan ta’minlanmoqda. O‘ziga to‘q xonadonlar zamonaviy mebel olishmoqda. Taom hovlida o‘choqda tayyorlanadi. Ovqatni xontaxtaga qo‘yib iste’mol qilishadi. Asosiy taomlari- sabzavot,

bo‘tqa, xurmo, non, baliq. Go‘shtni odatda haftada bir marta yoki bayramlarda iste’mol qilishadi.

Erkaklar uzun ko‘ylak, keng ishton, galabi deb nomlangan oq yoki ko‘k rangli tovongacha tushadigan uzun ko‘ylak kiyadilar. Boshlariga yupqa qalpoqcha kiyganlar. Misrda qishloq ayollari yuzlarini yopmaydilar. Boy dehqonlar evropacha, ularning xizmatchilari an’anaviy kiyimlarda yuradilar.

Qishloqlarda qarindosh va jamoa munosobatlari mustahkam o‘ranatilgan. Ushbu hayot tarzi o‘zaro e’tiborli bo‘lish, kelishuvchanlik, mehmondo‘stlik, hurmat qilishni taqozo etadi. Ahloq me’yori asabiya - qonli xun olish, o‘zidan kattalarga bo‘ysunish, yigitni oilasi oldida mas’uliyati singari qadriyatlarni tarbiyalaydi. Kuzen nikoh – bir qorin naridagi amakivachchalar, xolavachchalar orasida nikohni yoqlaydilar. Mahrga katta e’tibor berilib, ajrashishlar qishloq joylarida juda kam uchraydi. Monogam nikoh hukmron ikki xotinli erkaklar ko‘p emas.

Misr qishloqlariga bozor munosobatlari tobora keng joriy etilmoqda. Natijada mulkiy tabaqalanish kuchli bo‘lib, ko‘plab fallohlar shaharlarga ishlagani ketmoqdalar.

Shimoliy – Sharqiy Afrika aholisining ham ko‘pchiligi dehqonchilik bilan shug‘ullanadilar. Amxaralar (Efiopiya) bug‘doy, dukkakli ekinlar, arpa ekadilar. Efiopiyaning Kaffe viloyatida tog‘da kofe daraxti o‘sadi, bu joy kofening vatani bo‘lib; ushbu eng yirik kofe plantatsiyasidan mahsulot eksportga jo‘natiladi. Texnik ekinlardan paxta yetishtirish, so‘nggi yillarda choy yetishtirish tobora kengayib bormoqda. Efiopiyada bananning boshqa hech joyda uchramaydigan navi tanasi va ildizidan olingan mahsulotni quritib tuyib undan non, bo‘tqa qilishadi. Suvsizlikka chidamli bu ekin qurg‘oqchilik yillarida aholini ocharchilikdan asraydi. Efiop dehqonlari sabzavotlardan karam, piyoz, qovoq, bodring, mevalardan – ananas, banan, o‘rik va boshqalarni yetishtiradilar.

Somali va afarlar Efiopiyaning sharqida Keniyaning shimolida yashab ularning bir qismi mavjud soy hamda jilg‘alar bo‘ylarida daraxtlarni kesib shox- shabbalarini kunda- kov qilib yondirib dehqonchilik, ko‘pchiligi ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanadilar. Somali va afarlar: makka, suli, shirin kartofel, maniok, dukkakli ek-

inlar, papaya, banan, sezam va paxta ekib, yilda 2 marta (avgust va yanvarda) hosil oladilar. Dehqonchilik ov, terimchilik va baliqchilik bilan qo'shib olib boriladi. O'troq dehqon somalilar turar- joylari, chorvador- somaliliklarnikidan farq qiladi. Dehqon somalilar uylari rejada aylana doirasimon derazasiz, konussimon somonli tomli- **mandullo** deb nomlanadi. Bu uylarning devorlari to'qilgan sinch, ustidan loy bilan suvalgan.

Efiopiya – amxaralari odatda yog'ingarchilik mavsumida iyun-sentyabr ekin ekishadi. Noyabrdan- fevralgacha hosilni yig'ib- terib olishadi. Amxara dehqonlari yo'qsilligi 20- 25 oilaga 1- 2 ta xo'kizni bo'lishi, ularni an'anaviy qishloq xo'jalik qurollaridan foydalanishga majbur etadi. Yerni haydashda- **marasha** omoch, hosilni o'rishda o'roq, donni shamolda tozalashda belkurak va boshqalardan foydalanishadi. Efiopiyada kommunistik hokimiyat paytida (XX asrning 70 – yillarida) dehqon xo'jaliklarini jamoatlashtirish yaxshi natija bermadi.

Efiopiya xalqlarida to'qimachilik, ip yigirish, kashtachilik, kulolchilik, bo'yra, savatlar to'qish, temirchilik hunarlari yuksak rivojlangan. Ayrim hunarlar, xususan ip yigirish xotin- qizlar ishi hisoblanib, e'zozli kasb sanalgan. Ko'pgina hunar turlari erkinkishilar ayniqsa zodagonlar uchun past kasblar sanalgan. Xususan g'isht teruvchilar, kulollar, zargarlar falasha xalqi vakillaridan bo'lgan. Ularni aholi olov va madanlar bilan shu ko'radigan afsungarlar deb hisoblangan. Shunga o'xshash yana bir etnik guruh- **azmarilar** – daydi qo'shiqchi va musiqachilar ularni mamlakat yo'llarida hozir ham uchratish mumkin.

Efiopiya xalqlari taomlari asosini o'simlik va sut mahsulotlari tashkil etadi. Dondan non hamda yirik diametri 60 -70 sm. li ынjera deb nomlanuvchi chavati, go'sht va tuxumdan turli qaylalar tayyorlashib, sabzavot va ziravorlar bilan is'temol qilishadi. Bayram taomi- brьndo qo'yni osib qo'yib undan kesilgan go'sht bo'laklarini achchiq qaylaga botirib eyishadi. Kofe ilgari marosim taomi bo'lgan. Uni qovurilgan donini chaynashgan hozirda kofe eng sevimli ichimlik hisoblanadi.

Uylari shimolda xidmo, janubda – pikul. Bir xonali to'g'ri burchakli xidmoning devorlari mayda toshlardan bunyod etiladi. Tomi ikki yoki to'rt qator ustunlarga tayanadi. Ichki xona ikkiga bo'linadi.

Bittasi yashash, va mehmonlar uchun hizmat qilsa, ikkinchisi ombor, molxona vazifasini bajargan.

Tukul – bir xonali turar – joy ichida o'choq bo'lgan.

Mebel an'anaviy uylarda krovat va mesoba – past to'qilgan, qopqog'i bo'lgan stolchadan iborat. Buyumlar oziq zahiralari uzun qayishli yumaloq korzinkalarga solib osib qo'yiladi.

Yo'llar bo'ylab an'anaviy uylarni zamonaviy to'g'ri to'rtburchakli, ayvonli qurilish binolari suribchiqargan. Bir necha qishloq aholisi uchun cherkov yoki machit qurilgan, odatda u aylana shakldagi engil bino ko'rinishida bo'ladi.

Xabashlarning an'anaviy kiyimlari rang – barang. Amxara va oromo Efiopiyaning eng yirik ikki xalqi oq rangli kiyim kiyishni afzal ko'radilar. Erkaklar shim- suri, uzun ko'ylak; ayollar – yupqa matodan kashtalar bilan bezatilgan keng ko'ylaklarni, ilgari, ishton, 6- 10 m. li maxorat kashtalangan bel bog'ichi o'ralgan. Kiyim majmuasi engil oq yopinchiq- shamma yoki natela bilan yakunlangan. Uni boshga, tana atrofiga yoki elkaga tashlab yurishgan. Bu kiyim hozirda butun afrika va bayram kiyimiga aylanib bormoqda. Efiopiyada 1974 yili imperator hokimiyati tugatilgach, kiyimlardagi tifovutlar ham bekor qilindi. Sher terisidan **lemd**- saroy ayonlari, xarbiylar kiyimida emas, ruhoniylar kiyimi qismiga aylandi.

Efiopiya aholisida kichik oilalar keng tarqalgan. Nikohning turli ko'rinishlari bo'lib, ularni barchasini oila kodeksi tan oladi.

Ko'chmanchi chorvadorlar. Cho'l ko'chmanchilari tuya, ko'y va echki boqadilar. Xususan Jazoirning janubidagi tuareglar manzillari katta bo'lmay, odatda 5- 6 ta chodirdan iborat. Qabila sardori manzili aksincha katta va aholisi ko'p bo'ladi. Yaylov imkoniyatlariga qarab bir joyda 10- 30 kun bo'lishadi. Exan (chodir) balandligi 1,5- 1,8 m. yaxshi ishlov berilgan teri bilan yopiladi. Asosini yog'och sinch tashkil etadi. Eshik o'rniga bo'yra yoki kigiz osib qo'yiladi.

Chodirda bitta oila yashab, erkaklar qismida (sharq) egar, qurol-aslaha, ayollar tomonida- uy- ro'zg'or buyumlari, oziq zahiralari kiyim saqlanadi. Oila hayoti chodirda emas uning oldida uchta toshdan qilingan o'choq atrofida kechadi.

Chorvadorlarda oziqning asosiy turi- sut mahsulotlaridir. Undan qatiq qilishadi. Sariyog' olinadi, pishloq, qurut, tayyorlanadi. Donni

chorva mahsulotlariga almashlab, undan non, kuskus (bo'tqa) qilishadi.

Asosiy oziqlardan biri – xurmodir. Uni xo'l meva yoki quritilgan holda eyishgan. Xurmoni yo'lovchilar uzoq safarga olishadi. Uni tuya sutiga qo'shib ham eyishadi. Go'sht asosan bayramlarda iste'mol qilinadi.

Kechqurunlari manzil aholisi gulxan atrofida to'planib, turli hikoyalar, qo'shiqlar tinglashadi. Ayollar amzada deb nomlanuvchi qovoqdan yasalgan torli asbobda musiqani chalishadi. Umuman tuareglarda ayollar: shoira, qo'shiqchi, musiqachi, hikoyachi tarzida jamiyatning faol a'zolaridir.

Uylanmagan yoshlar- ahal deb nomlangan gashtakka to'planganlar. Odatda bunday uchrashuvlar o'nlab kilometr masofadan kelgan yigitlar yig'ini bo'lib, uylanish, turmushga chiqishni aksari yoshlarning o'zlari hal etishadi.

Tuareglar kiyimi Afrikadagi eng murakkab desak xato bo'lmaydi. Shalvorlari keng, ot va tuya minishga qulay, ganduru- keng kashtali ko'ylak, shuningdek yuzni yopish uchun yopinchiqdan iborat. Bu dunyoda yagona erkaklari yuzini yopadigan xalqdir. Sevimli, ranglari oq va ko'k. Sovuq paytlarda burnus (plash- yopinchiq); jundan salla kiyishadi. Oyoqlarida teridan poyafzal. Endilikda ko'pchilik evropacha ko'ylaklar kiymoqdalar.

Ayollar oyoqlarini oq mato bilan o'raydilar gandura kiyishadi. Xotin- qizlar zeb- ziynatlarni xush ko'radilar kumushdan uzuklar, bilakuzuklar munchoqlar taqishadi.

Tuareglar hayotida ilgari tashqi savdo muhim o'rin tutgan. Vohalardan Shimolga xurmo, u yerdan – qand choy sanoat mahsulotlari tashilgan trans sahro yo'li bo'ylab Marokashdan Senegalga, Mali va Nigyerdan xurmo, jun, qurol-yarog', ulardan: tuz, oltin, negr qullarni olib qaytganlar. Karvon savdosi inqirozga uchrashi tuareglar hayotiga salbiy ta'sir etadi. Endilikda ko'plab yoshlar janubi Jazoirning neft konlarida ishlamoqdalar.

Tuareglar uy hunarmandchiligida gilamlar, jan matolar, xurjun, chaylalarni ustiga yopish uchun qalin matolarni toqishadi. Tuareglarning pichoq va qilichlari, yog'ochdan chiroyli egarlari, kumush va mis simlar bilan bezalib, uzoq-uzoqlarda mashhur.Mahalliy ustalari yupqa, sifatli terilari bilan nom chiqarganlar.

Jazoir tuareglari qabilalar konfuduratsiyasini tuzib, uning sardori – **amenokom** deb nomlangan. Jangchilar ichida alohida **imhar** deb atalgan toifa shakllanib,ularga karam-**imrad** toifali chorvani, tug'illagan qo'zi, bo'taloqlarning yarmi hisobiga boqishgan. Hunarmandlar (inad), erga ishlov beradigan (haratinlar) negr qullar va uy xizmatchilari (iklan) hech qanday huquqqa ega bo'lishmagan. Qulchilik bekor qilingandan keyin ushbu aholi vakillari neft sanoati korxonalarida ishlay boshlagan. Avvalgi harbiylar toifasi endilikda yuk mashinalari haydabdovchisiga aylanganlar.

Amhara bilan aralash yashayotgan XVI asrdan ko'chib kelib o'zlariga ma'qul ekologik imkoniyat – chorvachilik bilan shug'ullani boshladilar. Hozirda qo'shni amharalardan dehqonchilikni o'zlashtirib, qoramolchilik bilan ham mashg'ul bo'lmoqdalar.

Oromola urug'-qabila tizimi saqlangan, ayrim aholi guruhlari ko'chmanchi chorvachilik bilan yashab kelmoqda. Ularning moddiy madaniyati ko'chmanchi hayot va xo'jalik bilan bog'liq., an'anaviy diniy tasavvurlar saqlangan, mahalliy taqvim yaratilgan, yosh guruhlari, toifalar saqlangan. Erkaklarni an'anaviy kiyimi ikki bo'lak matodan tashqi l topib, birin yupka singari tana atrofiga o'rashgan, ikknchisi ko'krak va elkani yopishga mo'ljallangan. Ayollar kiyimi – yo'l-yo'l yorqin ranglardagi mato bilan tanalarini o'raydilar. Erkaklar ham ayollar ham ishlov berilgan teridan yopinchiqqa ega bo'lib, u qauri chig'anoqlari bilan bezatilgan.

Somali xalqining ko'pchiligi ham ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanadi. Shimol va Janubdagi cho'l hududlarida tuya, qo'y va echki boqishadi. Iqlimi murakkab bo'lmagan o't-o'lanlar etarli joylarda qoramol ham boqilgan. Bolalar mayda shoxli mollarni, erkaklar tuyalar va qoramolni boqadilar. Tuyani erkaklar, sigirlarni o'smirlar, qo'y-echkilarni ayollar sog'adi. Ko'chmanchilarni mol – kiyim, turar-joy, poyafzal bilan ta'minlaydi. Ko'chmanchilar oziqlarini asosini sut mahsulotlari tashqi l etadi. Ahyon-ahyonda qo'y-echki so'yishadi. Yirik shoxli molni bayramlarda so'yadilar. Don va sabzavotlarni ko'chmanchilar dehqonchilik aholisi bilan ayirboshlash orqali oladilar.

Somalilar faqat qishloqlarda emas, aksari shaharlarda ham an'anaviy kiyimlarni saqlaganlar. Ayollar uzun keng yubka, tepa-

sida chiroyli gulli mato bo'laklarini o'rab o'ng elkalarida qistirib qo'yadilar. Erkaklar kiyimi tikilmagan, ikki bo'lak matodan birini beligacha, ikkinchisini elkaga tashlab yuradilar. Oyoqlarida teridan engil payafzal, boshlarida qalpoqcha kafil, u ba'zida salla bilan to'latilgan.

Nikoh yoshi qzlar uchun 15-17, yigitlar uchun 20 yosh. Islom aqidalari an'anaviy dinlar bilan mujassamlashgan. Boy xalq og'zaki ijodi bosh qaxramoni mol, sevgi sheriyatida qizlarni go'zalligini tuyalarga qiyoslashgan.

Shahar madaniyati. Afrikada qator qadimgi, o'rta asrlar madaniyat markazlari – shahar sivilizatsiyalari shakllangan. Shimolda barchaga tanish Karfagen, Memfis, Aleksandriya, zamonaviy Sudan hududida – Meroe, Napata; Efiopiyada – Adulis va Aksum. O'rta asrlarda Fes, Marokash, Qohira, Kastruvan; Shimoliy-sharqiy Afrikada Sennir, Shendi (Sudan), Maris, Farae, Gander, Ankobor (Efiopiya), Mogadiko va Brava (Somalida) bo'lgan. Shaharlar qadimdan etnik aralashuv o'choqlari bo'lgan.ularda arablar, barbarlar, yahudiylar, turiylar, armanlar yashab assimilyasiyalashganlar.

Shimoliy Afrika aholisi XIXasrdan evropa sivilizatsiyasi ta'siriga uchray boshladi. Yevropaliklar aksari shaharlarda yashaganlar. Ammo Jazoirda 1 mln fransuzlar bo'lib, ulardan talay qismi plantatsiya xo'jaligi yuritgan. Yevropa madaniyati me'morchilik, kiyim-bosh, xulq-atvorga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Musulmon oliy o'quv yurtlarida texnika, meditsina, agronomiya faqultetlari tashqi l etilgan. Qohiradagi Al-Azhar universitetida ilk xotin-qizlar faqulteti ochilgan.

Hozirgi kunda hududda ko'plab zamonaviy yirik shaharlar mavjud. Jazoirda 3 mln, Kasablanka (Marokash) va Tunisda 2 mln kishi yashaydi. Shimoliy Afrikaning eng yirik shahri Qohirada 12 mln aholi aholi istiqomat qiladi. Misrda qishloq aholisining shaharlarga intilishi tufayli 51 % aholi shaharlarda yashamoqda.

Bugungi shaharlar – zamonaviy sanoat, ilm-fan, boshqaruv, madaniyat markazlaridir. Shaharlarning evropacha qismi XX asrning boshlaridan qurila boshlangan. Ayni paytda har bir shaharning – madina eski shahar qismida, bozor, masjit va jamoat binolari saqlanmoqda.

Savdogarlar, amaldorlar, musulmon ulamolari keng oq jundan kiyimlar, hunarmandlar keng ishton, kalta kurtka kiyishadi. Barchalar orqali ochiq naqshli teridan babushi – payafzal kiyganlar. Shahar ayollari engil sharovar (lozim), keng ko'ylak oq, och qizil, nimyashil matolardan yuzlarini yumshoq yopinchiq bilan bekitadilar. Ziyolilar orasida evropacha kiyimlar keng tarqalgan. Islom ulamolari an'anaviy qora rangdagi paranji kiyimlarni yoqtirishadi.

Shaharning oddiy aholisi yashaydigan qismida uylari loydan qurilgan, ko'cha tomonga deraza butunlay qo'yilmagan yoki tom tagida kichik derazachalari bilan xususiyatlanadi. Ko'chalari ilon izi tor. Devorlarda pastqam eshiklar, ularga osib qo'yilgan mis bolg'achalari bilan ba'zida o'ymakor yog'ochdan eshiklar, bolg'a ba'zida temirchilik san'ati namunasi tarzida namoyon bo'ladi.

Shaharlarning yangi qismida sanoat yoki bandargoh zonalari, ma'muriy markaz, villar mavzelari ajralib turadi. Shaharlar aholisi etnik rang-barang, tub aholidan tashqari evropaliklar, yahudiylar, armanlar, yunonlar jamoalari deyarlik har bir shaharda mavjud. Ularda an'anviy hayot tarzi o'zgarib tobora evropacha tus olib bormoqda.

Dinlari va xalq madaniyati. Shimoliy Afrika – qadimgi madaniyat hududi. Minglab yillik tarixda aholi ko'plab madaniyatlar ta'siriga uchragan.

Islom dinida tirik jonzotlarni tasvirini tushirish tavsiya etilmagani sababli Shimoliy Afrikada rassomchilik va haykaltaroshlik yuksak rivojlanmagan. Norasmiy ta'qiqqa qaramasdan XX asrda san'atning bu sohalari ham rivojlanib misrlik Mahmud Muxtorning "Misrning tiklanishi" xaykallar majmuidasfinks va uning yonida yuzi ochiq qizni tasvirlagan.

Xalq madaniyati yorqin rangli gilamlar, misdan o'ymakor naqshli ko'zalarda, yoritgichlarda o'z aksini topgan. Arab afrikasi musika va qo'shiqchilik san'ati ham o'zining uzoq tarixiga ega. Xalq orkestrlarida urib chaladigan, puflab chaladigan, torli – noxunmi musiqa asboblari yaratilgan. Shimoliy Afrika eng qadimgi yozuvlardan biri – Misr ierogliflari vatani hamdir.

Diniy tasavvurlari ham qadimgi ildizlarga ega. Xususan misrliklar hozirga qadar – **"Ko'z yoshi tuni"** Isidaga bag'iishlab bayram o'tkazadilar. Xalig bayrami Nil suvi eng yuqori darajaga

ko'tarilganida unga kelinchak tanlash marosimi ham saqlangan. Hududning barcha xalqlarida daraxtlar, tog'lar ruhlariga, afsungarlikka ishonch mavjud. Xususan, xurmo daraxtiga alohida afsungarlik kuchi ato etishadi. Ayrim mamlakatlarda bu e'tiqodlar islom hamda xristianlik bilan birgalikda yashab kelayotgan bo'lsa, Jazoirning janubida, Marvitaniya va Sudanda ular asosiy dinlar hisoblanadi.

Misrda aholining 6% ilk xristianlar avlodlari – koptlaridir. Ushbu diniy mazhab monofisitlik, ya'ni Isoni iloh sifatidagina tan olishga asoslangan. Koptlar diniga yaqin xristianlik Efiopiya aholisi orasida ham tarqalgan. Ulardan tashqari Xabashistonda – falashlar iudaizm diniga e'tiqod qiladilar. Ularning katta qismi Isroil mustaqillikka erishgach unga ko'chib o'tganlar.

Shunga qaramasdan Shimoliy Afrikada hukmron din Islomdir. Mavritaniyada 100%, ko'pchilik mamlakatlarda 90 % ko'proq, Sudanda 70% aholi musulmon. Islomning sunna mazhabi asosiy e'tiqod yo'nalishidir.

Afsuski XXI asrning boshlarida qator arab davlatlaridagi rangli inqiloblar faqat ijobiy emas, salbiy oqibatlarga ham olib keldi. Jazoirdagi islom fundamentalizmi, Liviyadagi IShID harakatlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Savol va topshiriqlar

1. Shimoliy va Shimoliy-Sharqiy Afrika aholisi til va rasa?
2. Aholining shakllanishi haqida internet ma'lumotlari topib gapirib bering?
3. Aholining an'anaviy va zamonaviy xo'jaliklari, ijtimoiy tashkilotlari haqida nimalarni eslab qoldingiz?
4. Arablar madaniyatidagi transformatsiyalar nimalardan iborat?
5. O'rganilayotgan hududlar aholisi dinlari haqida gapirib bering?
6. Efiopiya va Somali aholisi, rasalari, tillari.
7. Aholining xo'jaligi va moddiy madaniyatlaridagi o'ziga xosliklar.
8. Tuareglar kimlar? Qo'shimcha ma'lumotlar to'plab so'zlab bering?
9. Sharqiy Afrika aholisi dinlari haqida nimalarni bilasiz?

5-BOB. TROPIK VA JANUBIY AFRIKA XALQLARI.

1. Qora Afrika xalqlari.

Afrikaning Saxroi Kabirdan janubida 242 mln kishi yashaydi. G'arbiy Afrikada Benin (5,5 mln), Burlina Falo (10mln), Gambiya (1mln), Gani (18mln), Gvineya (7,5mln), Gvineya-Bussau (1mln), Kabo-Verde (0,5mln), Kot d Ivuar (15mln), Liberiya (2,5mln), Mali (10mln), Niger (9mln), Nigeriya (115mln), Senegal (8,5mln), Serro-Leone (4mln), Togo (4mln), Gabon (1mln), San Tome va Prinsipi (150mln), Kamerun (13mln) aholi yashaydi.

Markaziy Afrikada 5 ta mamlakat: Angola (13mln), Kongo Xalq Respublikasi (3mln), Kongo Demokratik Respublikasi (45mln), Markaziy Afrika Respublikasi (3,5mln), Chad (6,5mln) joylashgan.

Sharqiy Afrikada 12 ta davlat: Burundi (6mln), Zambiya (9,5mln),Zimbabve (11,5mln), Keniya (32mln), Komor orollari (880 m), Marvikiy (1mln), Madagaskar (12mln), Malavi (10mln), Mozambik (17mln), Seyshel orollari (700 m), Tanzaniya (30mln), Ugandi (32mln), Ruanda.

Nihoyat 5ta mamlakat janubiy Afrikani tashqi l etadi. Botsvana (1,5mln), Lioto (2mln), Namibiya (1,6mln), Svazilend (1mln), JAR (42mln). Afrika mamlakatlarida aholi ro'yxatlari doimiy asosda o'tkazilmagani, demografik ma'lumotlarda katta tafovutlar bo'lishi ulardagi aholi soni bo'yicha aniq ma'lumotlar keltirishga imkon bermaydi.

Antropologik va etnolingvistik tavsif. Qitaning bu qismi unda yashaydigan xalqlarni rang-barangligi, xo'jalik faoliyatlari xilmaxiligi, diniy tasavvurlarini o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Hudud ikki irk evropeoidlarning o'rtaer dengizi tipi (mali va niger tuareglari) hamda janubdagi negroid irqi vakillarining to'qnashgan royonlaridan boshlanadi. Lekin Saxrodan janubdagi aholining hamma qismi negroid rasasiga mansubdir. Olimlar negroid rasasini Niger va Kongo daryolari havzasida shakillanib, V-XIX asrlardagi migrassiyalar orqali qitaning keng hududlariga tarqalgan deb hisoblashadi. Negroidlar qora rangli badani (janubda och- ko'ng'irgacha) qora jingalak sochlari, keng burni, qalin labi, progmatizm (iyagining turtib chiqqani) bilan xususiyatlanadi. Ruanda va Burundida ikki

metrgacha baland bo'yli aholi yashasa Gvineya sohilida insonlarning bo'yi 170 smdan o'tmaydi.

Baland bo'yli negroidlardan farqi pigmeylar va bushmenlar (saanlar), past bo'yli kishilardir. Xususan pigmeylarning erkaklari o'rtacha bo'yli 150 sm, badanlari qoramtir, lablari ingichka, infantilizm (kallasi katta qo'l, oyoklari tanasiga nisbatan kichkina) bilan xususiyatlanadilar.

Saanlar badanlari "quriyotgan barg" rangida, kuchli elitatusli (ko'zning ustki qovog'i mavjudligi), steotipigiya dumbasida yog' to'planishi bilan ajralib turadi. Olimlar pigmeylar va saanlarni uzoq payt mustaqil rasa deb hisoblaganlar. Lekin zamonaviy antropologlar ularga xos tashqi xususiyatlar suvsiz cho'l-sahro va ekvatorial o'rmonlarning doimiy qorong'iligi adaptatsiya (maolashuv) deb ta'kidlamoqdalar. Mongoloidlik belgilari Madagaskar malgashlariga ham xosdir. Malgashlar bir necha ming yil avval Janubiy Sharqiy Osiyodan qayiqlarda to'lqinsimon migratsiya orqali Madagaskar oroliga kelib xayot kechirganlar. Endilikda ularning badanlari, sochlari qora jingalak, ayni payda yuzlari yumalok, burunlari kichik, lablari ingichka, iyaklari ko'tarilgan, enikantuelari mavjud. Qora Afrikani etnik va til haritasi ham murakkab va rang-barang. Bu holat uzoq davrlar davomida ko'chishlar, tabiat va tarixiy sharoitlarni ta'siridir. Qadim zamonlar Sahroi Kabir sersuv voha bo'lib unda aholi zich yashagan. Sahroni kengayishi, arablar istilosi, ko'p asrlik qul savdosi aynan qitaning Tropik va Janubiy qismlariga aloqadordir.

Migratsiya asosida etnik jarayonlar Qora Afrikada XIX-XX asrlarda ham davom etdi. Ushbu jarayonlar bugungi kunda ham turlicha qo'lamda goh "ebola" epidemiyasi, goh "OITS" , goh etnik mojarolar, o'zaro urushlar shaklida bugungi kunda ham davom etib kelmokda. Bugungi kunda ham Afrika aholisi etnik jihatdan urug'-qabilachilik tuzumidan tortib, xalq millat darajasigacha bo'lgan etnosların tashqil topgan. Taniqli amerikalik antropolog J. Merdokning yozishicha, qit'ada bugungi kunda 7 mingta etnos yashaydi. Afrika etnik haritasida 500 ta atrofida xalq borligi ta'kidlanadi.

Aholining ko'pchiligi to'rtta til oilasi: afroosiyo, niger-kordofan, nil-sahro va koysanlarda so'zlashadi. Madagaskar malgashlari

avstroneziya til oilasini, malayya-polineziya guruhida gaplashadi. Afrikanerlar (burlar) hind-evropa til oilasiga kirsalar, Hindistondan kontrakt bo'yicha ishlashga ko'chirib kelingan aholi guruhi hind-oriy tillariga mansubdir.

Hozirgi Afrika mamlakatlari chegaralari mustakamchilik davridanqolgan meros bo'lganidan ko'plab xalqlar turli davlatlar tarkibida bo'lib qolgan. Xususan Eve-Togo va Ganada yashasa, xausa-Niger, Nigeriya va boshqa mamlakatlarda, tuareglar- Mali, Mavritaniya va Jazoirda, bakongo har ikki Kongoda, Angolada: senufo Kotd'Ivuar va yashaydilar.

Ayrim tillar uni yaratgan xalqlardan ancha yirokdagi etnoslar uchun hammuloqot tiliga aylanadi. Jumladan G'arbiy Afrikalik xausalar tili Markaziy Afrikadagi lingala tili, Sharqiy Afrikadagi suaxila tillari etnoslararo muloqot tillaridir. O'tmishda ma'lum ma'lumot va xabarlarni etkazish uchun katta tabe (baraban) lardan foydalanganlar.

Qora Afrikaning ko'pchilik aholisi qishloqlarda yashaydilar. Shimoliy Afrika bilan kiyoslasa shahar aholisi ko'p emas. O'tmishdagi shaharlardan faqat Magodisho, Uagadugu, Mombasa, Malindilargina yangi shaharlarga asos bo'ldilar. Yangi yirik shaharlar asosan XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bunyod etilgan. Abidjon (Kotd'Ivuar), Dakar(Senegal). Buxildagi shaharlardan eng qadimgisi Luanda Angola poytaxti XV asrda bunyod etila boshlangan. Ko'p millionli aholiga ega shaharlarga Nigeriya poytaxti Lagos, Kongo Demokratik Respublikasi markazi Kinshasalar kiradi.

Hind okeanidagi orol davlatlar aholisi (Mavrikiy, Seyshel, Komorlar) murakkab etnik tarixga ega. Ularni "rasa va sivilizatsiyalar chorrahasi" deb bejis aytishmaydi. Qachonlardir bu orollar aholisiz bo'lib, ularda hindhamda arab dengizchilari suv, yokilg'i hamda oziq zahiralarini to'latish uchun vaqtincha to'xtab o'tishgan. XVI asr boshlaridan ilk evropaliklar avval portugallar so'ng gollandlar, fransuzlar, inglizlar kela boshlaydi. Ular dastlab shakarqamishni keyinchalik kofe, indigo, nilufar plantotsiyalariga asos soladilar. Qora daraxt va boshqa daraxtlarning kimmatli navlari kesila boshlanadi. Ishchi kuchiga ehtiyoj qora tanli qullarni keltirilishni boshlab beradi. XIX asrning boshlarida qul savdosi ta'qiqlangach Hindiston

va Xitoydan kontrakt bo'yicha ishchilar keltirila boshlanadi. Bugungi kunga ushbu orollarda barcha rasa vakillari va kreollar (irkiy aralash nikohdan tug'ilganlar) yashamokda. Aholining uchdan biri Hindiston yarim orolidan kelganlar. Ko'p sonli bo'lmagan Afrikaliklar qullar va ko'chib kelganlar avlodlari o'z tillarini unutganlar. Madaniyatning yangi turi shakllangan. Kasb mashg'ulotlari etnik kelib chikishiga mos: xitoyliklar savdo va tadbirkorlik; hindlar dehqon va qishloq xo'jalik ishlari; kreollar hunarmand va ishchi bo'lib kelmokdalar. Ishchi savdoda musulmon-hindlar band bo'lsalar, franko-mavrikiylar qand sanoatini egallashgan. Hind va Xitoy tillari saqlangan. Lekin hozirda kreol tili keng tarqalmoqda.

2.Qora Afrika xalqlari xo'jaligi va madaniyati. Qora Afrika xo'jalik madaniy tillari ikki yirik guruh bilan xususiyatlanadi. O'zlashtirish xo'jaligi saan (Janubiy Afrika bushmenlarida) va ekvatorial o'rmonlar pigmeylarida saqlangan. Ularda cho'l va quruq savannalar, shuningdek ekvatorial o'rmonlar daydi ovchiligi xo'jaligi mavjud. Ishlab chiqarish xo'jaligi turlari xilma-xil va aynan ular Afrika xo'jaligini barcha jihatlarini namoyon etadi. Hududi tabiatiga qarab chorvachilik yoki konchilik yuqori o'rin tutgan xo'jalik turlari shakllangan. XIX-XX asr chegaralaridayok "Yangi davr zonalari" yuksak rivojlangan tovar dehqonchiligi va chorvachiligi tropik plantatsiyalari bunyod etila boshlagan. Dastlab bu xo'jalik tiplari evropaliklar sektorida vujudga kelgan bo'lsa bugungi kunda afrikaliklar sektorida ham mavjud. Dehqonchilikda xo'jalik yuritish va yetishtiradigan ekiniga qarab quruq savanna zonalaridan xo'jaligi hamda ekvatorial zonaning erildizli ekinlari yetishtiradigan turlari keng tarqalgan. Birinchi tipning yorkin vakillari G'arbiy Afrikada (Nigeriya, Niger, Komerun va Chadda) yashovchi xausalar qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib keladi. So'ngi yillarda xausalar ko'plab uzoq yaqin mamlakatlarga o'tib savdo, zobitlik, advokat, vrach, rassom, davlat amaldorlari kasblarida ishlamoqdalar. Bu tipdagi asosiy ekinlar – don.

Afrikada aksari qizil tuproqli erlar ko'p bo'lib, ularning hosilqatlami (gumus) yupqa. Shuning uchun erni motiga-so'qa bilan yumshatib, hosilni o'roqlar bilan yig'ib olishgan.

Dehqonchilikning an'anaviy usuli daraxtlarni kesib, shox-

shabbalarini yondirib, yerdan bir necha yil foydalangach yaylovga aylantirilib mol boqilgan. yerni unumdorligini uzoqroq asrash uchun texnik ekinlarni, dukkakli sabzavotlar bilan almashlab ekishni qo'llashgan.

Yangi erlarni ochishdagi og'ir mehnatni erkaklar bajargan. Qolgan barcha ishlar ayollar zimmasida bo'lgan. Xotin-qizlar yovvoyi meva va o'simliklar barglarini terish, ulardan salqin ichimliklar, dori-darmonlar tayyorlash bilan ham shug'ullanganlar.

Ekvator tasmasida dehqonchilikning asosini er ildizlilar va yams, kassava (maniokaning bir turi) lar tashkil etadi. Xo'jalikda yog' palmasi alohida o'rin tutadi. Erkaklar daraxtlarni kesib, kundalarini qazib olish kabi yumushlarni bajaradilar. Bu zonada ham savannadagidek asosiy turmush og'irligi ayollar elkasida qolgan. Qizlar 7-8 yoshidan onasi va katta opalariga dala ishlarida yordam berishadi. Ekvatorial zonada odatda ikki hosil olinadi.

Quruq savanna zonasi aholisining kundalik taomlari asosini donli mahsulotlar tashkil etadi. Sulidan bo'tka-fura va undan ham quyuq sargo yoki guruchdan-tuvo tayorlanadi. Bo'tkaga achchik ziravorlar hamda kaylalar ko'shiladi: sarimsok, achchik kalampir (pili-pili), pomidor va ziravorlar ular qatorida makka, bug'doy, suli unidan non ham qilishadi.Ekvatorial tasma aholisida donlilar o'rnida yams, maniska ishlatiladi. Ularning ayrim navlarini suvga bo'ktirib, zaharli moddalardan tozalanib yanchib so'ng pishiradilar. Manakoada – topioka deb nomlangan non, bo'tqa kiladigan un olishadi. Go'shtli taomlarga tovuq, baliq, ovda qo'lga olingan yovvoyi parrandalardan iborat. Oksil yetishmasa: chigirtka, chumoli va boshqa hasharotlarni is'temol qilishadi.

Madagaskar malgashlarining asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilik, bosh ekini sholi yaqin-yaqingacha daraxtlar kesilib, shox-shabbalari yondirilib ekin maydonlari tayorlanar edi. Sholini o'rok bilan o'rib, mollar tuyoklari yordamida poyadan ajratganlar. Guruch asosiy taom uni go'sht, baliqdan achchik kaylalar bilan eyishadi.

Qora Afrikaning chorvador aholisi yirik shoxli mol, ko'y va echki boqadi. Ilgari ularning barchasi nomadlar-ko'chmanchilar bo'lgan. Ular G'arbiy Afrikada-fulbe, Janubda-tsvana, zulu, koy-

koin (gottentotlar), Sharqda-masai va x.klardan iborat. Ko'chishlar yaylovlarning mavsumiy davri, setse pashasining bo'lishi va boshqa omillarga bog'lik bo'lgan. Ko'chishlar yo'nalishlari asrlar davomida shakllangan shuning uchun bugungi chegaralar buzilishiga mahkum. Xususan fulbelar Nigeriya, Niger, Burkina faloda ko'chib o'z mollarini boqadilar. So'ngi yillarda ko'chmanchilik an'-analari tobora yo'kolib bormokda. Nomadizmni faqat ayrim saqlab qolganlari chorvachilikni dehqonchilik bilan ko'shib olib bormokdalar.

Ko'pchilik afrikaliklar ko'chmanchi chorvachilikdan haydab boqishga o'tishgan. Yog'ingarchilik mavsumi tugab, hosil yig'ilgandan so'ng mollarni janubga haydab va unda yilning quruq fasllarini o'tkazishadi. Yaylovda engil chaylalar quriladi. Doimiy yashash joylarida qariyalar, ayollar va bolalar qolishadi. Yog'ingarchilik mavsumi boshlanishiga erkak – cho'ponlar qaytib, yana dala ishlariga unnaydilar. Podaga bu paytda o'smirlar qaraydilar. Yil fasllari shu tariqa takrorlanib boradi.




Chorva juda katta ijtimoiy boylik, shuning uchun chorvadorlar uni asrashga intiladilar. Asosiy taomlari sut va undan olinadigan mahsulotlar, dehqonchilik oziqlari tashqil kiladi. O'tmishda chorvadorlar don va boshqa qishloq xo'jalik sabzavotlarini dehqonlar bilan ayirboshlaganlar. Bugungi kunda bu narsalarni o'zlari yetishtirmokdalar.

Dehqonlar va chorvadorlar ichida ko'plab mohir hunarmandlar mavjud. Ular to'qimachilik, temirchilik, yog'och o'ymakorligi, savatlar to'qish bilan shug'ullanadilar. G'arbiy Afrikani eng mohir to'kuvchilari xausalar hisoblanadi. Ilgari ular o'z matolarini faqat atrof hududlarga emas butun Shimoliy Afrikaga sotganlar. To'qimachilik – erkaklar hunarmandchiligi, kasbi hisoblangan. Iplarni bo'yash uchun o'simliklardan olinadigan tabiiy bo'yoklar: indigo, limon soki, qamishning ayrim turlari poyasi va h.k lar ishlatilgan. G'arbiy Afrikada gorizontal (yotik) dastgoh ishlatilgan. Markaziy Afrikada vertikal dastgoh qo'llanilgan. Ekvator zonasida rufiya palmasi bargi po'stlog'idan olinadigan iplardan foydalanilgan. Palma

yog'ochlaridan uy-joy qurilishida (bakuba, bokangolarda) mayda shoxlaridan savatlar, bo'yralar to'kishgan.

Chorvadorlar mohir terichilardir. Ular ko'pdan (oshlangan teridan) katta sumkalar, kitoblar uchun muqovalar (islom tarqalgan hududlarda), kayishlar, egarlar, poyafzal, soqqisi uchun chorvadorlar uchun etiklar kilingan. Xausalik ko'nchilar yupqa safyan tayorlashgan. Xo'qiz terisidan yupqa lekin mustahkam asal va yog' saklaydigan idishlar tandu, g'iloflar yasaganlar.

Afrikaliklar turar joylari xilma-xil bo'lib, ularning turlari aholining xo'jalik madaniy tiplari, etnik an'analari, qurilish ashyolarining mavjudligi bilan xususiyatlanadi. Ko'chmanchilar engil teri yoki bo'yralar bilan yopiladigan chaylalar qurgan. Yarim cho'l aholisi, dehqon va yarim o'trok chorvadorlar qurilishda loy, tosh, butalar shoxlari, savanna zonasida yog'ochlardan foydalanib tomini suli poyasi, g'o'zapoya va boshqa o'simliklar bilan yopadilar. O'rmon hududlarida asosiy qurilish ashyolari palma yog'ochi, bambuk, banan, fikus barglaridir. Uylar qurilishida og'ir ishlarni erkaklar, devor suvash, tom yopish, bezash ayollar yumushlari sanaladi. Oila bir necha qulbalar majmuada joylashadi. G'arbiy, Markaziy, Janubiy Afrikada ko'pchilik aholisi uylari doira shaklida bo'lsa, Gveniya sohili, Kongo daryosi vohasida to'g'ri burchaklidir. Ayrim xalqlar ashanti va xausa-Ganada, vagogo-Sharqiy Afrikada bir-biri bilan birlashib ketgan xonalar majmuini qurishadi. Barcha qulbalar eshigi xovli tomon chikariladi. Kirish maxsus joyda koldiriladi. Janub chorvadorlari doira shaklida- kraal qurib uning markazida mol ho'rasini joylashtiradilar. Oila odatda bir necha qulbani egallab ayollar yosh bolalari bilan alohida, o'smirlar jinsiga qarabalohida, xo'jalik extiyojlari uchun yana bir boshqa xonalar bo'ladi. Xonalar asosan uxlash uchun zarur bo'lib hayot ochiq xovlida o'choq atrofida o'tadi.



Afrikada bugungi kunda ham ovchi-terimchilik aholisi pigmeylar va saanlar (bushmenlar) saqlanib kolmokda. Pigmeylar Markaziy Afrikaning Ekvatorial o'rmonlarida yashaydilar. Ular quvib ov qilish san'atiga egalar. Hayvonni ovlashda

turli qopqonlardan ham foydalanishadi. Ov erkaklar yumushi, ayollar oziqning 70% ni beradigan termachilik bilan shug'ullanadilar. Ular turli meva, ildiz, qurt-qumurskalar, mayda hayvonlarni, yovvoyi asal, dorivor o'simliklarni terib, ayrimlarini dehqonchilik aholisi bilan don, mato, idishlarga ayrboshlaydilar.



Pigmeylar yarim ko'chmanchi hayot kechiradilar. Odatda ov imkoniyatlariga qarab qarindosh 6-7 ta oila birgalikda harakatlanadi.

Pigmeylar faqat jamoa mulki mavjud, manzilgoh topilgan mahsulot birgalikda baham ko'riladi. Ular tabiatga nisbatan juda extiyotkorlik munosabatida bo'lib, faqat zarur narsalarni olib unga zarar etkazmaslikka intiladilar. Bugungi kunda pigmeylar hayoti birmuncha mushkul kechmoqda. Sababi, ular aksariyati milliy parklar doirasida yashab, ularda hayvonlarni ovlash cheklangan. Nisbatan cheklangan hayot kechirayotganlar pigmeylar Ituri daryosi bo'ylab (Kongo demokratik Respublikasi) joylashganlar. Kamerun va Kongo hokimiyat pigmeylarni zamonaviy hayotga o'tishlarini harakatini kilishmokda.

Saan (bushmenlar) Janubiy Afrikaning yarim cho'l va cho'l hududlarida yashashga moslashganlar. Ular chidamli ovchilardir. Kamon, nayza bilan ov qiladilar. Ularni toshdan kamon o'klarini shisha va temir o'qqa almashtirganlariga ko'p bo'lganlari yo'q. Ayollar urug', meva , egulik ildizlar, yovvoyi qovunlarni terishadi. Saanlada turar-joylar bo'lmagan. Ular butazorlarda yashab shamoldan panalar yasaganlar xolos. Kalaxari cho'llarida ular 50-150 kishilardan iborat guruh bo'lib yashaydilar. Qurg'oqchilik ocharchilik paytlarida 10-12 kishidan iborat oilalarga bo'linib jon saqlashga urinadilar. Saanlar suvsiz cho'l sharoitida suv topa olishlari xususiyatlanadilar. Bugungi kunda saanlarning ko'pchiligi Namibiya, JAR ning fermalari, konlarida ishlamokdalar. Vatevona va Namibiyaning shamolida xali an'anaviy hayot tarzida yashovchi saanlar mavjud.

Qora Afrikaning ayrim xalqlari: makinke, songai, yorubo, ashanti G'arbiy Afrikada: bakongo, bakuba Markaziy Afrikada;

suaxili va shona- Sharqiy Afrikada o'tmishda siyosiy birlashmalar, ilk davlatlar yoki qabilalar ittifoqlari tuzganlar. Boshqa etnik guruhlar aksincha urug'chilik darajasida yashaganlar. Deyarlik barcha xalqlarda yirik oilalar – klanlar bo'lib, jamoa mulki saqlangan. Afrika jamoalari faqat tiriklarni emas, marhum a'zolarini ham "tiriklar" qatorida xisoblaydi. Hozirgi kunda yirik oila munosabatlari aksari jamoasi doirasida saqlanmoqda. Qon-qarindoshlik o'zaro yordam, yaqinlik alokalari Afrika aholisining asosiy qadriyatlari hisoblanadi.



Qarindoshlik asosan ota tomonidan belgilanadi. Lekin Gvineya sohilida va qit'a markazida qarindoshlikni ona urug'i tomonidan olib borishni saqlab qolganlar. Bu jamoalarda tog'a – onaning akasi yoki ukalari oila boshlig'i sanaladi. O'g'il va qiz bolalar o'n yoshidan tog'asinikida tarbiyalanib, bu oilada esa erning jiyanlari boqiladi. Bugungi kunda ona urug'i munosabatlari tobora yo'qolib bormoqda.

To'y – qarindoshlar kelishuvi natijasidir. Ota yoki tog'a kuyov hisobidan kelin tomonga qalin to'laydi. Chorvador aholi mol bilan, dehqonlar va shaharliklar – ko'pincha pul bilan to'laydilar. Ko'p mamlakatlarda poligamiya mavjud bo'lib, erkaklar bir necha xotin olish xuquqiga ega. Ayollarning har biri odatda alohida uy va xo'jalika ega. Qarindoshlar orasida nikoh tuzmaslik uchun qat'iy ta'qiqlar qo'yilgan.

3. Qora Afrikada diniy vaziyat. Afrikaliklarning an'anaviy dinlari. Qora Afrika aholisi dinlari xilma-xil. Bu hududda urug' qabilachilik e'tiqodlari bilan birgalikda, xristianlikning turli mazhablari va islom diniga mansub aholi guruhlarini uchratamiz. Ushbu dinlar asrlar davomida o'zaro tinch- totuv kelishib faoliyat ko'rsatib kelgan. Ko'plab afrikaliklar an'anaviy dinlarini saqlab qolmoqdalar. Jumladan Burkina–Fasoda 65% an'anaviy dinlarini saqlab kelmoqdalar. Afrikaliklar e'tiqodlariga tabiat kuchlari Quyosh, Oy , Yulduzlar er o'rmonlar daryolar va x.k. muhim o'rin tutadi. Yevropalik

tadqiqotchilardan biri raqsga tushayotgan pigmeydan ajablanib, nega bir o'zi o'ynayotganini so'raganida, u ham hayron qolib "Men bir o'zim raqsga tushayotganim yo'q, men o'rmon, ot bilan raqsga tushmokdaman" - deb javob beradi.

Afrikaliklar arxaik e'tiqodlari orasida animizm alohida o'rin tutadi. Fetishizmda tog', daryo, o'rmon, tabiat kuchlariga sig'inish muhimdir. Totemizm xalq afrikaliklar hayotida yaxshi saqlangan. Ko'plab chorvadorlar, xalqlar yangi tug'ilgan chakaloqqa (o'g'il bola) buqacha sovg'a kilishib, unda bolaning ruhi mujassamlangan sanaladi. Dehqonlar yangi tug'ilgan farzandlariga bananni bag'ishlaydilar. Bu daraxtdan mevasini uzish taqiqlanadi. Hayvonlar bilan qarindoshlikka ularni afsonalar va ertaklarda o'z aksini topgan. Ularda odamlarning hayvonlar bilan nikohlari haqida ham hikoya kilinadi. Ko'pgina Afrika xalqlari hayvonlarni kiyik, piton, antilopava h.k larni o'z ajdodlari deb bilganlar. Sher, fil, arelonlar qabila boshliklari va oliy xukumdorlar ajdodlari hisoblanadi. Afrikaliklar afsungarlikka ishonch saqlab, turli tumorlarni shifobaxsh xususiyatiga inonganlar. Qora afsungarlik bu yovuz maqsadlarda yuboriladigan narsalar bo'lsa, oq afsurgarlik (davolashni) yo'naltirilgan. Afrikaliklar e'tiqodiga ko'ra o'lim hayotning uzilishi emas, boshqa shaklga o'tishdir. Ularning fikricha marhumlar ma'lum vaqt o'tib yangi chaqaloqlarda o'z davomiyliklarini oladilar. Afrikaliklar uchun ajdodlar ruhiga sig'inish ham muhim. Ajdodlar o'limidan so'ng ruhga aylanib jamoada mavjud barcha narsalarga egalari sanalari. Har bir muhim tadbir ekin ishlarini boshlash, bayram, to'ylarni, boshlashdan oldin ajdodlar ruhlariga bag'ishlab duoyi fotixa kilidilar. Ruhlardan qo'rqishgan, ulardan yordam so'rashgan, ba'zida jazolashgan. Afrikaliklarda ruhlar aksari but va sanamlar shaklida uyda saqlanadi. Hozirgi kunda ajdodlar xulki nafaqat qabila dinlari balki modernizatsiyalashgan shaklda xristianlik va islomda ham uchraydi. Mustamlakachilik davridagi afrika davlatlarida oliy xukumdor xulki butun mamlakat darajasida nishonlangan. Mavjud e'tiqodlarga ko'ra uning ruhi turli buyumlarda tana ashantilarida, o'rindiqlarda. Kongo demokratik Respublikasi haykalchalarda, Ruandada nog'oralarda va x.k. mujassamlashgan. Ayrim xalqlarda politeizm ko'plab ilohlarga ega dinlar shakillangan. Xudolar panteoni

ularda juda katta jumladan yorubalarda 200 iloh nomi kayd etilgan. Asosiy ruhlar ichida oloruh osmon olixi, obotalo er ilohi, oloxun suv ilohi, odudua dunyoni yaratgan ilohi, Oloroza uy o'choq xomiysi, Ochun urush hamda temir xudolari mavjud. Ayrim G'arbiy Afrika mamlakatlarida bizga qadar yashirin diniy (ittifoklari) erkaklarning Loro va ayollarning bundi bunga misol bo'la oladi. Barcha diniy marosimlar ochiq maydonlarda, dalalarda o'tkaziladi. Zamonaviy Afrika davlatlarida an'anaviy e'tikodlarga kimmatli madaniy meros sifatida karashadi. Ularni asrab saklashga, unitilganlarini tiklashga intilmoqdalar. Xristianlik portugallar tomonidan Qora Afrika XV asr oxirida olib kelingan. Benim (Nigeriya) Kongo, Mono, Matajapa (Zimbabve) xukmdorlari cho'kintirishgan. Ulardan faqat Kongoda xristianlik uzoq muddatga saqlanib koldi XVII-XVII asrlar chegaralariga qadar xristianlik davlat dini bo'lgan. Xristianlik XIX asrdan mustamlachilik bilan birga keng tarkala boshladi. Missionerlar turli darajadagi shaxslar bo'lishgan, xususan D.Leveniston afrikaliklarga sidqidildan yordam berishga iltilgan. Ular ko'plab geagrafik kashfiyotlar qilganlar, ilk kasalxona, maktablar tashqi l etilgan. Qul savdosiga karshi kurashganlar. Lekin istamagan xolda mustamamlakachilikka yo'l ochib berdilar. Keniyadagi XIXuyyular Ilgari ok tanlilarda ingit er bizda bo'lgan endilikda bizda injiq ok tanlilarda er deyishgan. Afrikaliklar uchun xristianlik ma'lum darajada mustamlakachilik dini bo'lgan. Shuning uchun Gveniya sohilida, Kongo daryosi havzasida, Janubiy Afrikada rasmiy cherkovdan alohida afroxristianlik cherkovlari shakllangan. Tani qora tanli bo'lganligi, ok tanli ruhoniylarni inkor etilishi, yangi cherkov asoschilari o'zlarini payg'ambar deb hisoblashlari hatto mustamlakachilikka karshi ko'zg'olon raxbarlariga aylanganlarini ko'rish mumkin. Afrikaliklar orasida o'z mavqelarini saqlab kolish uchun xristian cherkovlari ayniqsa katoliklar afrikalashtirish siyosatini olib bormokdalar. Endilikda qora tanli episkoplar, katta kardikallar ham mavjud. Afrikaning xristian cherkovida ibodatlarni ochiq osmon ostida o'tkazishga ruhsat berilgan. Cherkov xizmatiga maxalliy tillardan, an'anaviy musiqa asboblari, qo'shiq raqslardan foydalanish mumkin. Xristoe, Marie va apostollar qora tanli bo'lganligi xakidagi rivoyatlar tobora keng tarqalmokda. Abidjon (Kotd"iuar) ibodatxonasida ular

aynan shu holda tasvirlanganlar. Qora Afrikada musulmonlar ham kam emas. Ularni deyarli barcha mamlakatlarda uchratish mumkin. Lekin islomga e'tiqod kiluvchilar G'arbiy va Sharqiy Afrikada ko'p yashaydilar. Qora Afrikada islom dini xristianlikdan oldin paydo bo'lib, anchadan buyon o'z dinlariga aylantirgan. Mustamlakachilarga karshi kurash aksari islomning yashil bayrog'ini oltida bo'lgan. Jumladan Somali va Malida aynan shu tarzdagi urushlar kechgan. Sahroi Kabirdan janubda islom savdogarlar, ulamolar targ'iboti tarzida yoyilgan. X asrdayoq G'arbiy Afrikaning savdo shaharlarida musulmon mavzelari bunyod etilgan. Yangi din dastlab yukori tabaqa vakillari orasida so'ng oddiy kishilarga tarkaladi. G'arbiy Afrika hukmdorlari Makkaga xaj safarlari uyushtirganlar. Tombuktu, Jennada musulmonlar kutubxonalari, madrasalari, ilohiyotchi ulamolar, fiqxshunoslar paydo bo'ladi. Islom o'ziga qadar diniy tasavvurlarni o'zlashtirgan . Gvineyalik olim Ampate Ba islom haqida "Islom bu suv u quyilgan idish ko'rinishini, erga quysangiz mavjud tuproq rangini oladi". Hozirgi kunda islom dunyoning boshqa hududlaridagi singari o'z safiga yangi musulmonlarni qabul qilib kengayib bormokda.

4. Ma'naviy madaniyatning an'anaviy va yangi ko'rinishlari.

Afrikaliklar dunyo madaniyati xazinasiga o'zlarining munosib hissalarini ko'shganlar. Xususan bunga cho'lu - biyobonlarda, ekvatorial o'rmonning g'ira shirasidagi doimiy hayot va xo'jalik yuritish tajribasi imkoniyat yaratgan. Bu xududlarda yashovchi aholi og'ir sharoitlarda yashab kolish ko'nikmasini yaratib, oziq uchun o'simliklar xususan Kalaxarada 300 dan ortik o'simliklar mevalari, ildizlari, barglarini iste'mol qilish mumkinligini tasdiqlashgan. Afrikaliklar ko'plab tropik kasalliklarni (malyariya va x.k.) davolash, ko'plab an'anaviy tabobat usullarini yaratganlar. Ularning bu boradagi tajribalarini evropalik vrachlar o'rganmokdalar. Afrikada ko'plab ekinlar (bug'doy, kofe va boshqalar) madaniylashtirilgan. Dehqonlar chorvadorlar va terimchilarning ekologik tajribalari muhimdir. Jumladan dehqonchilikda ananaviy usullardan voz kechish tuprok eroziyasiga, erlarni yaroksizlanishiga olib keldi. Bu esa nafaqat Afrika, balki butun yer kurrasiga zarar etkazadi. Afrika dehqonlari madanchilari, paxtakorlari tajribalari Amarikani o'zlashtirilishida

ko'maklashgan. Lotin Amerikasining qator rayonlarida (Vest Indiyada, Braziliyada) shakllangan diniy ta'limot va "vuduizm", "Shango kulti" va h.k lar). G'arbiy Afrikaning yoruba va boshqa xalqlari dinlari bilan bog'likdir.

Xalq og'zaki ijodi va Afrika adabiyoti bugungi dunyoda keng tarqalgan. Barchaga malum Quyonboy birodar sarguzashtlari yoki Anansi ismli o'rgimchakning sarguzashtlari ularni amerikaga olib kelgan qullardan adib R.Xarris yozib olgan. Afrikaning barcha xalqlari qadimda, o'rta asrlarda va bugungi kunda ham ajoyib afsonalar va ertaklar yaratganlar hamda yaratmoqdalar. Xususan Nigeriya yorubalarining ko'p sonli xudolari va ruhlari xaqidagi xikoyalari Qadimgi Yunoniston miflaridan qolishmaydi.

Afrikada og'zaki ijodning turli janrlari mifologik ertaklar, hayvonlar xaqida ertaklar, sexrli ertaklar, maishiy mavzudagi ertaklar mavjud. Ularda xudolar yoki ruhlar, insonlarmi yoki xayvonlar, ertaklar hamisha tinglovchilari va o'kuvchilariga o'z ijodkorlari xaqida, ular qanday yashayotganligi, nimalarni orzu qilishlari, qanday tashvishlari borligini bilib olamiz. Ertaklar faqat estetik zavq bag'ishlanmasdan, axborot etkazish va tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Ulardan odamlar kanday kilib temirni erita boshlaganlar, dalada kanday ishlaganlar, uylar kurib ovga chikkanlarini bilib olamiz. Ertaklar insonlarni yaxshilikka, ezgulikka etaklagan qo'rqoqlikdan nafratlanishga, do'stlikni qadrlashga o'rgatgan. Afrika ertaklarini o'rganishi nafaqat folklorchiga, etnologga ham boy ma'lumotlar beradi. Ayrim xalqlar Sharqiy Afrikadagi suaxili, G'arbiy Afrikadagi xausa va fulbelarning yozma adabiyotilari ham uzoq tarixga ega. Ular gimnlar, diniy asarlar, she'rlar, dostonlar tarixiy yilnomalar, hukmdorlar hayotiga oid ma'lumotlardan iborat. Boshqa yozuvsiz xalqlarda yozuvlar kiyosan yaqinda shakllangan, zamonaviy yozuvchilar ijodini folklor boyitadi. Xususan Amos Tutuola (Nigeriya) "Marhumlar shaxriga sayoxat" uning yurtdoshi Vole Shoinkaning "O'rmon raksi" va "Yo'l" Kot-d` Ivuardan Bernar Dadening "Afrika afsonalari" va boshqa asarlarda folklor syujetlari ustunlik kiladi. Boshqa yozuvchilar zamonaviy afrikaliklarning extiyojlari muammolari xaqida relistik asarlar yaratmoqdalar. Nigeriyalik Chinua Achabo va Kiprian Egzensilar, Senegaldan Semben Usman,

Leopold Sedara Sengora, Keniyalik Ngugi va Txio'ngo bur yozuvchisi O.Shnayderlar asarlari qit'adan chetda ham tanilgan. Qora Afrika yozuvchilari sobiq metropoliyalar: ingliz, fransuz, portugal tillarida yozadilar. Ayni paytda maxalliy tillarda jumladan xausa va suaxilida xam asarlar nashr qilina boshlandi.

Og'zaki va yozma ijodiyot shuningdek marosimiy go'zal udumlar asosida o'z dramaturgiyalari va teatrlari, keyinchalik kino san'ati vujudga keldi. Folklor an'analari va syujetlari turli "milliy baletlarga" asos bo'ldi. Afrika xalqlari xayotida bir-biri bilan bevosita bog'liq musiqa, qo'shiqlar va raqslar katta o'rin tutadi. Ular mexnat jarayonini bayramlarni to'y va marosimlarni o'tishida katta ahamiyatga ega. Qora Afrika musiqasi Shimoliy Afrikanikidan boy va rang-barangdir. Musiqa asboblari ko'p bo'lsada katta-kichik nog'oralar ritmlari beqiyos tovushlarga ega.

Afrika musiqasi dunyo musiqa madaniyatiga ulkan tasir etgan. Uning asosida jaz, spiri-chuele, samba ritmlari shakllangan. Ushbu fikrni lambada va makarene xususida ham aytish mumkin. Afrika hududida ham zamonaviy stillar- kongo, makossalar vujudga kelgan. Reggi musiqasi ham Afrikada paydo bo'lgan.

Tropik Afrikada uzoq o'tmishdan yog'och o'ymakorligi san'ati (Kamerun, Kongo) shakllangan. Toshtarashlik (Zimbabveda) jezdan badiiy quymakorlik (Benin va Nigeriyada) san'atlari yuksak rivojlangan. Ular zamonaviy xaykaltaroshlar Ganadan Kofi Antubam, Nigeriyadan Ben Envennular ijodiga ilhom bergan. Afrika yog'och haykaltaroshligi evropalik rassomlar, san'at ishtiyoqmandlariga katta tasir etib, yangi tasviriy san'at yo'nalishi- kubizmni yaratilishiga turtki beradi.

Rassomchilik aksincha afrika mamlakatlari uchun butunlay yangi san'at sohasidir. Shunga qaramasdan Kongo poytaxti Brazzavildagi Poto-poto rassomchilik maktabi, Sharqiy Afrikadagi makonde xaykaltaroshlarini dunyo tan olgan. Tropik Afrika me'morchilik sanati namunalari kam saqlangan. Bunga sabab bir tomondan qit'aning fojiali tarixi bo'lsa, ikkinchi tomondan afrikaning o'ziga xos iklimidir. Yog'ochdan memorchilik inshoatlari uzoq saklanmaydi. Mali, Senegalda loydan qurilgan masjid va uylar saqlangan. Zamonaviy Afrika memorchiligi, an'analarini- doirasimon rejani,

o'ymakor eshiklarni, Metalldan o'ymakor nakshli bezaklarni ishlatib yangi banklar, saroylar, mexmonxonalar qurmoqdalar.

5. Zamonaviy etnik jarayonlar.

Davlat milliy siyosati. XX asrning ikkinchi yarmida sobik Afrika mustamlakalari mustaqil davlatlarga aylandi. Agar ikkinchi jaxon urushi arafasida qit'aning 3 ta mustaqil davlat bo'lsa, hozirda 53 ta Afrika davlatlari BMT a'zolaridir. Qora Afrikada ilk mustaqillikka erishgan Gana (1957 yil) bo'lsa, so'ngisi Namibiya dir (1990 yil). Ko'p millatli, elatli davlatlarda daslabki davrlarda boshqaruv m'alum bir xalq vakillari qo'liga o'tib koladi. Jumladan Kongoda-kongo, Kot-d`Ivuarda- biule, Serre-Leoneda-temne, Nigeriyada – xausa va yoruba, fulbelar etakchi mavqeda bo'lganlar. Ko'plab davlatlar m'alum etnik belgisiga qarab ko'shin tuzish, m'alum tilni davlat tili sifatida o'tkazish etnoslararo mojarolarni boshlanishaga olib keladi. Natijada Nigeriya, Uganda va x.k. larda davlat to'ntarishlari, fukarolar urushlari avj oladi. 1963-yili tuzilgan Afrika birligi tashkiloti yangi majoralarga yo'l ko'ymaslik uchun davlat chegaralarini qaytadan ko'rmaslikka qaror qiladi. Deyarli barcha Afrika davlatlari mamlakatda o'z grajdanlaridan yagona millat yaratish maqsadini e'lon qilganlar. Xayotda bu shiorni amalga oshirish murakkabli- gi tez orada ma'lum bo'ldi. Sababi etnik jarayonlar bir xil yo'nalishda faqat assimilyasiya, konsolidatsiya, integratsiya shaklida namoyon bo'layotgani yo'q. Ayrim mamlakatlarda yuzlab etnoslarning bo'lishi mavjud xolatda, siyosiy va ijtimoiy barkarorlikning bo'lmasligi ham muammolarni kuchaytirmokda. Etnik yangilashuv odatda biror bir etakchi etnos atrofida sodir bo'lishi lozim. Kot-d`Ivuarda bu vazifani baule, Malida- bamana, Nigeriyada xausa, ibo va yoruba, Kongo demakratik respublikasida- kongo valuba va x.k. lar ushbu etnoslar qatoridadir. Konsolidatsiya va integratsiya jarayonlari etnoslararo munosabatlar uchun birorta tilni tanlashga, jumladan Tanzaniya va Keniyadagi suaxili singari qabul kilinishga erishiladi.

Etnik yaqinlashuvda polietnik muxitda birgalikda mehnat faoliyati olib borish muhim rol o'ynaydi. Aholini aralashuvi tobora faollasha boradi. Oldingi asrda boshlangan dastlab vaktinchalik, so'ng qishloq xo'jalik ishchilarini doimiy migratsiyasi qo'shni mamlakatlardan Ganaga, Gvineyaga, Kot-d`Ivuarga kofe va kakao plantatsi-

yalariga, Ugandaga banan plantatsiyalariga davom etmoqda. Mis tasmasi Kongo demokratik respublikasi, Zambiya, Zimbabve, JAR tog'-kon sanoati karxonalari ham migrant ishchilarni o'ziga jalb etib kelmokdalar. XX asrning so'nggi choragida boshlangan ko'p yillik qurg'oqchilik cho'l va dasht aholisini uzoq-uzoq hududlarga ko'chishga majbur etdi. Xususan tuareglarni gvineya soxili shaharlarida uchratish mumkinligi aynan qurg'oqchilik bilan izoxlanadi.

Afrikada boshqa qit'alarga nisbatan shahar aholisining o'sishi tez bormoqda. Qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tgan aholi vakillari dastlab o'zlarini begona his qilib turli hamkorlik tashkilotlarini tuzadilar. Lekin urbanizatsiya ularni yaqinlashuvi asosiy etnos milliy ongini o'zlashtirishga majbur etadi. Kolaversa shahar hayoti aralash nikoxlarga yo'l ochib, assimilyasiya jarayonlarini kuchaytiradi.

Bugungi xalq madaniyati. Afrika xalqlari an'anaviy madaniyatida ikki o'zaro qarama-qarshi jarayon bo'lmoqda. Avvalo xalq madaniyati o'zining etnik xususiyatlarini yo'qotib bormoqda. Madaniyatning ko'pgina turlari kiyimlar, uy-joylar, taomlar evropacha, anikrog'i baynalminal tus olmokda. Ayrim xolatlarda evropacha kiyimlar an'anaviy deb qabul qilinmoqda. Jumladan gererolar ayollar kiyimlari (Namibiya) bu evropaliklarning XVII asrdagi kiyimlarining anik nusxasi, Kongo demokratik respublikasida "Xalq libosi" deb uzun ayollar ko'ylagi va erkaklarning engil yarim harbiy namunadagi kostyumi, e'lon kilingan. Aksari mahalliy va evropa liboslarining aralash ko'rinishi kiyiladi. Xususan Somalida: erkaklarda evropacha ko'ylak va yubka, Zanzibarda uzun ko'ylak va pidjak, Ganada evropacha kostyum va yangil yopinchiq kente kiyilmokda. Ayni paytda qit'adagi turli xalqlar madaniyatlari o'zaro ta'siri ham davom etmoqda. Ulardan birining xalq libosi umummilliy, ba'zida umumafrika kiyimiga erkaklar bubusi va gvineya ayollar kostyum tantanali, qimmat va nufuzli tus oladi. Afrika mamlakatlarida o'z modelerlari maxalliy an'analarni e'tiborga olib ishlamoqdalar. Etnik o'ziga xosliklar taomlarda, taqiqlarda (tabu) hayot bilan bog'liq marosimlarda uzoq saqlanadi. Lekin udum -marosimlar ham o'zgaradi. Ularning ayrimlari unitilsa, boshqalari diniy xususiyatini yo'qotadi. Ba'zida ko'shni xalqlar udumlari qabul qilinadi. Konakri shaxrida

(Gananing poytaxti) asosiy aholi -baga, muomala tili- susu, moddiy madaniyatlarida fulbe va malinke xalqlari an'analariga taklid qilishadi. Odat xuquq qonunlari formalari o'zgarib bormoqda. Ona urug'i, ota urug'iga o'rin bo'shatmokda, oddiy xukuk kodekslari yozilib borilmokda. Bu odat xuquqlari, ularga ma'lum o'zgarishlar kiritilganidan so'ng davlat grajdanlik va jinoiy qonunlari singari albatta bajarilishi majburiy etib qo'yilgan. Afrika etnoslari bugungi kunda xalq va millatlarning shakllanishi turli bosqichlarida turibdilar. Etnik ong ko'p pog'onalidir. Ko'pchilik aholisi Shimoliy Afrika davlatlaridagidek Somali, Madagaskardagidek yaqin tillarda so'zlashsa jarayon tinch va osoyishta boradi. Etnik jihatdan rangbarang G'arbiy Afrika mamlakatlarida esa ma'lum muommolar vujudga kelmokda. Jarayonlar evropalik aholisi ko'p Janubiy Afrikada ayniqsa muammoli kechmoqda.

O'zga millatli jamoalar. Afrikadagi evropalik aholi taqdiri o'ziga xos tarzda kechmokda. Hozirda Angola va Mozambikda portugallar XV asr oxirlaridan paydo bo'lgan, gollandlar Janubiy Afrikaga 1652-yildan boshlab kela boshlaganlar. Hozirgi kunda JAR, Zimbabve, Keniyani yashash uchun qulay viloyatlariga inglizlar XVIII ayniksa XIX asrdan ko'chib kelganlar. Fransuzlar aksari G'arbiy Afrikada, nemislar Namibiyada (XIX asr oxirida Germaniya Janubiy-G'arbiy Afrikasida) joylashganlar. Ko'plab ko'chib kelganlar metropoliyaga qaytganlar. Namibiyada nemislar jamoalari, Keniya va Zimbabveda inglizlar yashaydi. Ular tarixiy vatanlari bilan aloqani uzmay, maishiy hayotda o'z odatlarini saqlab kelmokdalar.

JARda ushbu guruhlar taraqqiyoti o'zgacha kechgan. Uch yuz yillik hayotlari davomida gollandiyalik va fransiyalik gugenot kolonistlar avlodlari alohida etnosga aylandi. Ularni dastlab burlar (gollandchadan-dexqonlar) o'tgan asrdan esa afrikanerlar deb atay boshladilar. XIX asrning boshlarida ushbu koloniya Angliyaga berilgandan so'ng inglizlar kela boshlaydi. Ularning avlodlarini angloafrikaliklar deyishadi. Ushbu ikki guruh JAR ning ok aholisini tashkil etadi. 1948-yil hokimiyatga afrikanerlar kelganida hukumat aparteid (rasalarni alohida yashashi) siyosatini boshlaydi. Unga ko'ra ok tanlilar, ranglilar (metislar), osiyoliklar, qora tanlilar al-


oxida mavzelarda yashab " oq bo'lmaganlar " uchun ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faoliyat butunlay inkor etildi.

Ushbu noinsoniy siyosatga karshi qurolli kurashni Afrika Milliy Kongresi (AMK) boshqarib, u qora tanli aholini tashkiloti sifatida faoliyat olib bordi. 1956-yili qabul qilingan " Erkinlik xartiyasi" Janubiy Afrika unda yashovchi barcha xalqlarnikidir deb e'lon qilinadi. Kurash g'alaba va 1994-yil prezindent saylovlarini demokratik tamoyillarda o'tkazilishiga imkon yaratdi. Saylovda 26 yil qamoqda bo'lgan qora tanli aholi vakili Nelson Mandelaga g'alaba qozondi. Lekin Mandeladan keyingi saylovlarda hokimiyatga kelgan Dzuma paytida mamlakatda murakkab vaziyat vujudga keldi. Afrikalashtirish ko'rinishidagi siyosat faqat JAR da emas, 1980-yildan buyon Zimbabve prezidenti bo'lgan R.Mugabe tomonidan ham olib borilmokda. JAR da millatchilik kayfiyatlari faqat oq aholida emas, ayrim qora tanli xalqlarda (xususan zuluslarda kuchayib bormokda).

Savol va topshiriqlar

1. Tropik va Janubiy Afrika aholisining antropologik hamda lingvistik tavsifi haqida eslab qolganlariningizni so'zlab bering?
2. Hudud aholisining an'anaviy va zamonaviy xo'jaliklari qanday?
3. Pigmeylar va saanlar haqida internetdan qo'shimcha ma'lumotlarni topib gapirib bering?
4. Tropi va Janubiy afrikaliklar moddiy madaniyatlaridagi o'ziga xosliklar nimalardan iborat: turar-joylar, kiyimlar, taomlar.
5. "Qora Afrika"dagi ijtimoiy munosabatlar qanday?
6. Aholining an'anaviy va zamonaviy dinlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Ma'naviy madaniyatdagi an'anaviy va zamonaviylik nimalardan iborat?
8. Afrikaning tropik va janubiy qismi aholisidagi zamonaviy etnik jarayonlarni qanday ifodalaysiz?

6-BOB. OSIYO ETNOLOGIYASI. OLD OSIYO



G'arbiy yoki Old Osiyo Kichik Osiyo va Arabiston yarim orollari, O'rta er dengizining sharqiy soxili, Mesopotamiya va O'rta Sharqiy (Eron va Afg'oniston) hududlarini ham o'z ichiga oladi. Aholisi 170-milliondan ko'prok. Old Osiyo hududining talay qismi yarim cho'l, cho'l, tog'lar qisman vohalardan iborat. Faqat tog'li vohalar, shuningdek, O'rta er, Qora va Kaspiy dengizlari sohillarida nam subtropik iqlim. Sersuv daryolar faqat Frot va Dajlalardir. Bu regionda tabiiy sharoit qadim zamonlardan qulay bo'lib, aholi zich yashaydi. Cho'l va tog'li hududlarda aholi nisbatan siyrak joylashgan. Old Osiyo davlatlariga: Afg'oniston, Bahrayn, Isroil, Iordaniya, Iroq, Eron, Yaman, Qatar, Kipr, Livan, BAA, Oman, Saudiya Arabistoni, Suriya va Turkiyalar kiradi.

2. Old Osiyoning etnik tarixi.



Old Osiyoda odamlar o'nlab ming yilliklardan buyon yashab kelmokdalar. Bundan 40-50 ming yil ilgari hududda zamonaviy qiyofadagi odamlar yashay boshlaganlar. Taxminan 10 ming yil ilgari Mesopotamiyada, O'rta er dengizning sharqiy sohillarida, Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy rayonlarida ilk dehqonchilik va chorvachilik madaniyatlari shakllangan. Bu hududlarda odamlar sopol buyumlar yasashni, madanlarni eritish va ularga ishlov berishni o'zlashtirganlar, keyinchalik Shumer va Akkadda ilk shahar davlatlarga asos solishgan. Olimlar Old Osiyoning qadimgi aholisi etnik tarkibi haqida aniq ma'lumotlarni ham aynan m.av. IV-III ming yilliklarda yozuv paydo bo'lganidan so'ng qo'lga kiritishadi.

G'arbiy Osiyo aholisining bir qismi Shumer va Akkadlar kaspiy tillarida so'zlashgan. Ulardan tashqari bobilliklar, ossurlar, yahudiylar, arablar ajdodlari semit tillarida so'zlashsa, xettlar midiyaliklar, parfiyaliklar, skiflar hind-evropa tillariga mansub bo'lishgan. Asrlar davomida Old Osiyoliklar semit tillarida Eron va Afg'oniston hind-evropa tillarida gaplashadigan etnoslar tomonidan egallanadi. Arablar istilosi (VII-VIII asrlarda) Old Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatiga ulkan ta'sir o'tkazadi, Arablar bosib olgan xalqlarni islom diniga o'tkazib, ilm-fan davlat boshqaruvida o'z yozuvlari va tillarini joriy etdilar. Arablardan bir necha asr o'tib Old Osiyoga ilgari Orol dengizi bo'ylarida Sirdaryoning quyi oqimida yashagan o'g'izlar yurishlari boshlanadi. Ularning avlodlari zamonaviy turklar, ozarbayjonlar va yana qator etnoslardir. O'rta asrlar oxiridan Old Osiyo davlatlari inqiroz holatiga tushib, yevropa davlatlariga mustamlaka va yarim qaram o'lkalarga aylanadi.

Mahalliy madaniyatlarning qadimgi manbalari. Old Osiyoning qadimgi tosh davri aholisi ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan hayot kechirganlar. Odatda ahyon-ahyonda yirik hayvonlarni ovlash ibtidoiy jamoalarni to'liq to'yishga imkon bergan, G'arbiy Osiyo iqlimi nisbatan mo'tadil bo'lsada, odamlar kulbalarida doimo olovni saqlashga intilganlar. Olov yog'ochni yog'ochga ishqalash yoki chaqmoqtoshlar yordamida olingan. Taxminin 10-12 ming yil avval Old Osiyo iqlimini o'zgarib ko'plab suv havzalari qurib qoladi. Asta-sekin o'simliklar, ov qilinadigan hayvonlar kamayib, baliq ovlash ham murakkablashib boradi. Hayot uchun kurash odamlarga oziq topishning yangi usullarini izlashga majbur etgan. Tabiatni kuzatish, tajriba to'plash, O'rta er dengizining sharqiy sohili, shimoliy Mesopotomiya, Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy hududlarida mezolit davri odamlariga, hayvonlarni xonakilashtirish, ekinlarni madaniylashtirish imkonini beradi. Dastlabki domestikatsiya qilingan hayvonlar qo'y va echkilar bo'lgan. Keyinroq qoramol, cho'chqa, ot, tuya va eshaklar xonakilashtirilgan. Tovuq, o'rdak, g'ozlarni qo'lga o'rgatish yanada kechroq sodir etilgan. Bu ixtirolar qo'shni hududlar, eng avvalo, Qadimgi Misrga yoyiladi. Misrda mushuk xonakilashtirilib uy hayvoniga aylantiriladi. Odamzot madaniylashtirgan eng qadimgi o'simliklar bug'doy va

arpa bo'lgan, asta-sekin hozirda bizga ma'lum bo'lgan boshqa donli ekinlar sabzavot, mevalar o'zlashtirilgan. Bularning barchasi Old Osiyo mamlakatlari aholisini o'zlashtirish xo'jaligidan chorvachilik va dehqonchilikka, ishlab chikarish xo'jaligiga o'tishini ta'minlaydi. Ayni paytda tog' va cho'l aholisi o'zlashtirish xo'jaligi sharoitida yashashda davom etadi. Yangi xo'jalik turlari xalqlar hayoti tarzida katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Aholi guruhlarining bir qismi daryo vohalari bo'ylab joylashib dehqonlarga aylanadilar. Issiq iqlim sharoitida odamlar sun'iy sug'orish inshootlarini qurish, dalalarni sug'orib dehqonchilik qilishga o'tishadi. Dastlab o'trok manzilgohlar bunyod etilib ular asosida keyinchalik shaharlar, davlatlar, sivilizatsiyalar shakllanadi. Qurg'oqchil tog' oldi hududlarida suv manbalari va unumli erlar taqchil joylarda yashagan aholi qo'y va echkilik bilan shug'ullanib cho'pon-chorvadorlarga aylana boradi. Aholi va uning chorvasi ko'paygach o'z manzillaridan uzoqroqqa, yaylovlar hamda suv manbalari izlab ketishlariga to'g'ri kelgan. Bundan 3 ming yillar muqaddam ko'chmanchi chorvachilik – nomadizm vujudga keladi. Uning o'ziga xos xususiyati chorvadorlarda doimiy yashash joylarining bo'lmasligi hamda yil davomida mavsumga qarab bir yaylovdan boshqasiga ko'chib yashashga moslashganidir. Bu xildagi hayot tarzi ko'chmanchilarni o'troq dehqonchilik manzillariga talonchilik bosqinlari uyushtirish kayfiyatini yaratgan.

Qadimgi sivizatsiyalar. Xo'jalikning yangi turlari katta madaniy o'zgarishlar bilan xususiyatlanadi. Yirik qo'rg'onlar katta va aholisi ko'p shaharlarga aylanadi. Yashash joylari xo'jalik binolari yog'och, loy va toshlardan qurila boshlanadi. Ulkan podshohlar saroylari, mahobatli ibodatxonalar bunyod etilgan. Shaharlar mustahkam qalin devorli qal'alarga aylana borgan. Idishlarni loydan charxda yasash dastgohi ixtiro qilinadi. Shisha kashf qilinadi. Madanlarni eritish va ishlov berish tobora takomillashib dastlab mis, so'ng jez va temirdan mehnat qurollari yasash usullari kashf etiladi. Odamlar g'ildirak, arava, jang aravasi, to'quv dastgohini, omoch va boshqa qishloq xo'jalik qurollarini yaratdilar. Ko'pgina xalqlar tomonidan kemalar yasash, dengizchilik ishi yuksaltirilib uzoq Afrika, yevropa va Osiyo sohillariga sayohatlar uyushtirila boshlanadi. Dehqonchilik jamiyatlari paydo bo'lishi bilan mulkiy va toifaviy tabaqalanish kes-

kin kuchayadi. Harbiy boshliqlar, sarkardalar shuningdek, jamiyatda yuksak mavqeli kohinlar toifalari vujudga keladi. Savdogarlar paydo bo'lib uzoq yaqin mamlakatlar bilan xususan, ko'chmanchilar bilan mol ayirboshlashni boshlaganlar. Bu toifalarning barchasi oddiy grajdanlar dehqonlar va hunarmandlarni bo'ysundirib, ularning mehnatidan foydalana boshlaydilar. Podshohlarni ilohiylashtirish ro'y beradi. Ayni paytda ko'p sonli kambag'allar katlami ko'payib boradi. Nihoyat har bir davlatda qullar toifasi shakllanib, ular dastlab urushlarda asir olinganlar bo'lgan. Ulardan ibodatxonalar va saroylar, yo'llar qurilishida uy xizmatkorlari sifatida foydalanganlar. Dalalarda, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlagan, erkin kishilarning hayoti ham qullarnikidan kam farq qilgan. Madaniyat yuksak darajaga ko'tariladi. Old Osiyoning qadimgi davlatlarida turli hunarlar va san'at rivojlangan. Ko'plab shaharlarda vodoprovod bo'lgan, bundan 6 ming avval uch-to'rt qavatli uylar, mustahkam ko'priklar, yo'llar qurilgan. Oltindan, kumushdan, qimmatbaho, kamyob toshlardan ajoyib zeb-ziynatlar yasashgan. To'kuvchilar jundan , zig'irpoyadan matolar, qurollar idishlar , temirchilar qurol-aslahalar yasaganlar. Haykaltaroshlar loy va toshdan ajoyib xaykallar yasashsa, shoirlar dostonlar bitganlar, diniy bayramlarda afsona va rivoyatlar asosida sahna tomoshalari qo'yilgan.

Qadimgi ko'chmanchilar. Old Osiyoning cho'l, tog'lari aholisi ko'chmanchilar hayoti dehqonlarnikidan o'zgacha kechgan. Nomadlar shaharlar va konlar barpo etishmagan. Ular yaylovlarda vaqtinchalik chodirlardan manzilgohlar tiklaganlar. Ot va tuyalarni xonakilashtirilgandan so'ng, uzoq masofalarga ko'chish boshlanadi. Tuyalarda chodirlarni, ayollar va bolalarni olib yurishsa, erkaklar otlarni minib zarur paytlarda mudofaa, ehtiyoji tug'ilsa bosqinlar uyushtirganlar. Ko'chmanchilar hayoti murakkab kechib qishda sovuq va yog'ingarchiliklardan, yozda issiq va suvsizlikdan azob chekkanlar. Nomadlar chorvani asraganlari uchun oziq kam bo'lgan. Go'shtni faqat tantana va bayramlarda iste'mol qilishgan. Chorvadorlar oziqlarida dehqonlardan ayirboshlangan (teri, yog', sut mahsulotlariga) don, sabzavotlar, mevalar ham o'z o'rniga ega bo'lgan.

2. Old Osiyo xalqlari, ularning bugungi kundagi xo'jalik mashg'ulotlari.

Etnoslar. Arabiston yarim orolida asosan arablar yashaydi. O'rta er dengizining sharqiy sohillarida arablardan tashqari yahudiylar (Isroil) maronitlar (arab xristianlari) va druzlar (Livanda) mavjud. Turkiyaning asosiy aholisi turklar bo'lib, ulardan tashqari, turklarning subetnosi yuryuklar (janubda) markaziy va shimoliy hududlarda ayrim kavkazlik etnoslar va rus staroobryadlari, g'arbiy hududlarda yunonlar joylashgan. Eron aholisi ham ko'pmillatli. Asosiy aholi forslar bilan bir qatorda mamlakat shimolida turkman va ozarbayjonlar joylashgan. Eronning markaziy va g'arbiy hududlarida o'troq qurdlar va boshqa ko'chmanchi qabilalar yashaydi. Eronning janubiy-sharqiy belujiylar istiqomat qiladilar. Afg'oniston aholisi ham ko'pmillatli, xilma-xil. Uning janubiy va markaziy viloyatlarida mamlakatning eng yirik xalqi pushtunlar yashaydi. Shimolda tojiklar, o'zbeklar va boshqa elatlarga mansub aholi joylashgan. Old Osiyoning zamonaviy aholisi katta evropeoid irqining turli tiplariga mansub, tillari uch til oilasi: semit (arablar, yahudiylar, ossuriylar), turkiy (turklar, ozarbayjonlar, turkmanlar va h.k.) hind-evropa (fors, tojik, pushtun-afg'onlar va boshqalar) mavjud.

Dehqonlar. G'arbiy (Old) Osiyo dehqonchiligi aksari sun'iy sug'orishga asoslangan. Vohalarda to'g'on va kanallar, ekinzorlar suv manbalari balandda joylashgan holda suvni ko'tarish moslamalari, avvallari hayvonlar yordamida amalga oshirilgan. Bugungi kunda suvni ko'pincha elektr dvigatelli nasoslarda ko'tarilmoqda. Soy va jilg'alar, suvlarini to'sish usullari deyarli o'zgarmagan, ba'zida chig'irlardan hozirga qadar foydalanadilar. Sug'orish tizimini tartibda saqlash katta mehnatni talab qiladi. Lekin issiq iklim sharoitida sug'oriladigan maydonlar mo'l va sifatli mahsulot beradi. Sug'orma dehqonchilik O'rta er dengizi sharqiy sohilida, Suriya, Irok, Turkiya, Eron va Afg'onistonda daryo va soylar vohalarida tarqalgan.

Old Osiyoning ko'pgina mamlakatlarida tog' va tog'oldi hududlarida kichik suv manbalari bo'lib, ular unchalik katta bo'lmagan ekin maydonlarini namlash imkonini bergan. Tog'oldi adirlarni aynan suv yetishmasligi tufayli korizlar orqali er osti suvlarini yuzaga chiqarib dehqonchilik qilishgan. Bu xildagi sug'orish inshootlari Eron va Afg'onistonda keng tarqalgan. Respublikamizda ham XX asrning o'rtalariga qadar korizlardan Nurota va Sherobod

tog'oldi hududlarida foydalanilgan. Korizlarni qurish og'ir mehnat va yuksak tajribani taqozo etadi. O'tmishdagi miroblar hech qanday maxsus bilimsiz bu tajribani avloddan-avlodga o'tkazib kelganlar. Old Osiyo dehqonlari bug'doy, arpa, sholi, dukkakli ekinlar, yog'li o'simliklar, paxta, tamaki yetishtirganlar. Ko'pgina arab davlatlaridahozirda kofe ekilmokda. Mevalardan uzum, olma, nok, shaftoli va h.k.lar tarvuz va qovun barcha mamlakatlarda mo'l bo'ladi. Cho'lda yantoq tomiriga ekilgan tarvuz-qovunlar ayniqsa qand moddasi mo'l, shirin bo'ladi. Arabiston yarim orolida eng ko'p yetishtiriladigan meva – xurmodir.

Old Osiyoning ko'plab joylarida qishloq xo'jaligi ishlarida an'anaviy primitiv mehnat qurollari ishlatiladi. Ilgari yog'och omoch (tishi cho'yandan) hozirda temir plug, barona mola va h.k. lar qo'shga ho'kiz, ba'zida eshaklar qo'shiladi. Kichik tomorqalardagi erlarni bel (lopatalar) va og'ir motiga (so'qalar) bilan chopishadi. Donni o'rib olish ham an'anaviy tarzda o'roqlar ko'magida, yanchish zanjirlar va yirik shoxli mollar yordamida amalga oshiriladi. Qishloqlarda donni suv tegirmonlari yoki hayvon kuchi bilan yuritiladigan tegirmonlarda unga aylantiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizning tog'li hududlarida so'nggi o'n yilliklarda ko'plab suv tegirmonlari tiklandi hamda aholiga beminnat xizmat ko'rsatmoqda. Donni kelida tuyish ham saqlangan.

Dehqonlar molni transport vositasi yoki sut mahsulotlari manbai sifatida imkoniyat darajasida boqishadi. Molni qishloqlarga yaqin yaylovlarda yoki yozda tog' yaylovlarida boqish uchun jo'natishadi. Qo'rg'onlardan uzoqdagi yaylovlarda mollarni boqtirish faqat boy aholi qatlami imkoniyati darajasida bo'lgan. Otlardan transport vositasi sifatida foydalanish ham boy-badavlat dehqonlardagina mavjud edi.

Chorvadorlar. Old Osiyoda cho'l, dasht va tog'li viloyatlarda hozirga qadar ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik keng tarqalgan. Ko'chmanchi – nomadlar badaviylar Markaziy Arabiston, Suriya va Iroqning cho'l hududlari, Turkiya yuryuklarining bir qismi, qurdlar shug'ullanishadi. Eronda ko'chmanchi chorvachilik bilan turkmanlar, lurlar, baxtiyorlar, qurdlarning bir qismi, belujiylar mashg'uldir. Afg'onistonning janubida ko'p sonli nomad – pushtunlar yashaydilar.

Markaziy Arabiston badaviylaridan tashqari barcha ko'chmanchilar chorvachilikdan tashqari mayda er maydonlarida sabzavot, ba'zida arpa ekadilar. Lekin bu mahsulotlar etarli bo'lmagani uchun zarur miqdordagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini vohalardagi bozorlardan sotib olishadi. Chorvadorlar mollardan tashqari turli buyumlar gilam, kigiz, jun matolar, teri va h.k.larni bozorga chiqaradilar. Arab dunyosida XX asrning 70-yillaridan keskin industrlashtirish, neft qazib olish, undan kelgan daromadlarni bank-moliya tizimiga qo'yish orqali ulkan rivojlanishga erishildi. Ayni chog'da chorvachilik sohasida kasodga uchrash, o'z joylarini tashlab qishloq va shaharlarga ketish hollari ham keskin o'sdi. Natijada o'tmishda chorvador bo'lgan aholi yollanma mehnatga o'tishga yoki ishsizlar qatorini to'ldirishga majbur bo'lmoqda.

Ko'chmanchi chorvadorlar yil bo'yi yaylovdan-yaylovga ko'chib xo'jalik yuritadi. Tekisliklarda nomadlar odatda yozda shimolga, qishda janubga tomon yaylov izlashadi. Tog'li hududlarda ular qishni vohada em-hashak, yoqilg'i topiladigan joylarda, bahoryozni esa tog'lardagi alp o'tloqlarida o'tkazishga odatlanganlar. Shu tariqa mavsumlar almashadi. Ko'chish masofalari tabiiy sharoitga bog'liq bo'lib, Markaziy Arabiston badaviylari tuyalari bilan bir yilda 2-2,5 ming km masofani bosib o'tadilar. Ayni paytda Suriya va Iroq qo'ychi-cho'ponlari aksincha, vohalar atrofida harakatlanib ulardan uzoqqa ketishmaydi. Yozda badaviylar tuya uyurlarini suv serob vohalarga yaqin joylarga haydab kelishsa, qishda cho'lning ichki hududlariga ketishadi. Badaviylar tuyaning bir o'rkachlidramoderlar zotini boqishadi. Janubiy Afg'oniston pushtunlari ham uzoq masofalarga ko'chishadi. Turkiya va Eron nomadlari bosib o'tadigan masofalar esa aksincha nisbatan qisqa bo'lgan. Xususan, ayrim turkman-chorvadorlari quduqlari tevaragidan uzoqlashmasdan bir yilda atigi bir necha kilometrga siljiydilar. Tog'li chorvadorlar ko'chishlari ham qisqa muddatli va qisqa masofalarga bo'ladi.

Zamonaviy jarayonlarning turmushga ta'siri. Old Osiyodagi industrial ishlab chiqarish XX asrdan boshlandi. Boy neft konlarini ochilishi xorijiy investitsiyalarning ommaviy oqib kelishiga turtki berdi. Arab mamlakatlari va Eronda neftni qayta ishlash sanoat korxonalari bunyod etildi. Undan tashqari engil sanoat, teri-ko'nchilik,

qurilish ashyolari ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi. Ishchi, injenerlar, ishlab chiqarishdagi boshqa kasb-kor egalarining ko'payishi aholining turmush sharoitlariga ham keskin ta'sir etib, ayniqsa shaharlarda uy-joylar, kiyimlar, hayot tarzi o'zgarib bormoqda.

3. Old Osiyoliklar moddiy madaniyati. Old Osiyoning ko'pchilik aholisi qishloqlarda yashashda davom etmoqda. Ayni paytda so'nggi o'n yilliklarda shaharlar va ularning aholisining soni keskin o'smoqda. Poytaxtlar va yirik shaharlarda osmono'par binolar, banklar, turistlar uchun mehmonxonalar zamonaviy evropa me'morchiligi uslubida bunyod etilmoqda. Ayni paytda mayda va o'rta hajmdagi shaharlar qiyofasi ayniqsa ularning markazida o'tgan asrdagi vaziyatni ko'ramiz.Bunday shaharlar markazida masjid, jamoatchilik binolari, politsiya, qamoqxona, maydon atrofida savdo muassasalari, omborlar, boy hunarmandlarning do'konlari joylashgan. Sharq bozorlari har doimgidek shovqin-suronli. Markazga tutash mavzelarda boylarning, amaldorlarning hovli-joylari joylashgan. Markazdan qancha uzoqlashsa, ko'chalar torayib qing'ir-qiyshiq tusga kiradi. Kambag'al va o'rtahol aholi mavzelarida loydan, paxsadan devorlar, ularning ortida uy-joylar, xo'jalik binolari joylashgan. Vodoprovod, kanalizatsiya va elektr toki bo'lsa ham shaharlarning markaziy qismida bo'lishi mumkin. Suv etarli bo'lsa hovlilar daraxtlar soyasida, ular kichik ariqlardagi suv bilan ancha salqin havoni yaratadi.

Nomadlar muqim qo'rg'onlar yaratmaydilar, yaylovlarda ba'zida ko'p, ba'zida kam chodirlar yoki o'tovlardan iborat muvaqqat manzilgohlar barpo etiladi. Xususan, ayrim badaviylarda katta bir necha yuz chodirli manzilgohlar o'rnatilgan bo'lsa, boshqa nomadlar guruhlarida bir necha o'n o'tovlar bo'lgan.

Uy-joylar. An'anaviy turar-joylar dehqonchilik aholisida keng saqlangan bo'lib voha va adirlarda ular to'g'ri burchakli loy yoki toshdan qurilgan uylardir. Musulmon aholisida ichkari uyning ayollar uchun qismi va tashqari erkaklar tomoni an'anasi ham yaxshi saqlangan. Kambag'al dehqonlarda agar uy bir xonali bo'lsa, u ham o'rtadan shartli ravishda ayollar va erkak qismlariga bo'lingan.

Qishloq uylarida mebel ko'p emas. Turklarda u krovat, xontaxtadan sal balandroq stol va sandiqlardan iborat. Old Osiyoning

dehqonchilik aholisida mebel bundan ham kam. Pol oilaning imkoniyatlariga qarab kimda kigiz, gilamlar bilan to'shalib uning ustida o'tirishgan, ovqatlanishgan, uxlaganlar. Yirik shaharlarda boylarning uylarida sharq va g'arb an'analari mujassamlashgan.

Ko'chmanchilar uylari turli halqlarda turlicha. Jumladan, turkmanlar yig'ma o'tovlarda yashab, ularni yog'och sinch, kigiz bilan yopishgan. Polga kigiz, gilamlar to'shalgan. O'tovning o'rtasida taom tayyorlash uchun o'choq qurilgan. Yozda osh-ovqat tashqarida, usti yopiq joyda bo'lgan.

Old Osiyoning boshqa barcha ko'chmanchilari chodirlarda yashaydi. Yog'ochdan ustunlar usti jun mato yoki brizent bilan yopiladi. Polga kigiz va gilamlar to'shaladi. Chodirning egasi qancha boy bo'lsa u shuncha keng-mo'l bo'ladi. Uyning ichida qurol-aslaha, ot anjomlari va h.k.lar osib qo'yiladi.

Chorvadorlarning uy-ro'zg'or buyumlari dehqonlarnikidan deyarli farq qilmaydi. Sababi har ikkisi idishlarni bozorlardan harid qiladilar. Bu cho'yan qozon, sopol, misdan idishlar, quritilgan qovoqdan idishlar va h.k. lar. Chorvadorlar teridan meshlarda yog' va qatiq saqlashadi. Undan tashqari har bir uyda u chodir bo'ladimi yoki hovli-uy, uning ayollar qismida piyolalar, choynaklar yoki kofe damlash uchun idishlar, yog'ochdan kosalar bo'ladi.

Transport vositalari. An'anaviy transport vositalariga g'ildirakli aravalar va qayiqlar kiradi. Minish uchun ot, tuya hamda eshaklar qo'llaniladi. Aravalar og'ir to'rt g'ildirakli hamda engil ikki g'ildirakli bo'lib, suv to'siqlardan o'tishni engillashtirish uchun g'ildiraklari juda katta qilib yasalgan. Zamonaviy motorli dengiz va daryo kemalari bilan birgalikda elkanli qayiqlar Dajla va Frot daryolarida ilk sivilizatsiyalar davridan qolgan daraxt shoxlaridan yasalib tabiiy asfalt bilan suvalgan qayiqlar uchraydi. Old Osiyo mamlakatlarida XX asrdan temir yo'l va avtomobil transportlari keng tarqaldi. Aviayo'nalishlarning taraqqiy etgan tarmoqlari maqjud.

Taomlari. Old Osiyoliklar taomlari viloyatiga aholisining mashg'ulotiga qarab xilma-xildir. Uning asosini bug'doy, arpadan turli usullarda pishirilgan non, o'simlik sabzavotlar, dukkakli donlardan taomlar tashkil etadi. Go'sht kam iste'mol qilinadi. Faqat boylar, o'ziga to'q shaharliklarni hisobga olmaganda oddiy aholi dasturx-

onida go'shtli taomlar bayramlardagina eyiladi. Chorvadorlar ham dehqonlar ham har kuni non bilan qatiq ichishadi. Kambag'alning tushligi odatda non bilan tarvuz yoki qovun bo'ladi. Ichimlik sifatida Arabiston ya.o. va Turkiyada qora choy (yalpiz bilan) kofe, Eron va Afg'onistonda ko'k choy ichiladi.

Kiyimlar va taqinchoqlar. Old (G'arbiy) Osiyo xalqlari kiyimlari xilma-xil, lekin ularda ko'plab umumiylik ham mavjud. Ayni paytda kiyimiga qarab insonni shaharlikmi, dehqonmi yoki chorvador bilishingiz mumkin.

An'anaviy erkaklar libosi (uni ko'pgina joylarda hozir ham kiyishadi) keng belgacha ko'ylak va ishton, bu kiyimni qadimda dastlab chorvador-nomadlar ixtiro qilishgan. Ulardan ko'ylak-ishtonlarni dehqonlar o'zlashtirganlar. Ayrim xalqlar, jumladan turkmanlarda ishton tor, belujiylarda esa aksincha juda keng kiyiladi. O'zimizda keng fe'lli kishini afg'onning ishtoni deb qiyoslash ilgari ko'p ishlatilgan. Ulardan tashqari shoyidan, paxta gazlamadan yoki jundan chopon kiyiladi. Boy chorvadorlar chakmonlari tuya junidan tayyorlanib, umuman nam o'tkazmaydi. O'rta Osiyo xalqlarida, xususan o'zbek chorvadorlarida ham chakmon eng zarur kiyimlardan hisoblanadi. Bosh kiyimi ham libos majmuining eng zarur elementidir. Ular turlicha: oddiy matodan ro'mol, salla, qishki mo'ynali telpaklar, qalpoqlar mavsumga qarab kiyiladi. Dehqonlar poyafzali teridan engil, sandallar bo'lsa chorvadorlarda ot va tuyada yurishga mo'ljallangan teridan etiklar kiyishgan. Uy sharoitida jundan paypoqlarda, teridan (hozirda rezinadan) kovushlarda yurishgan. Ko'chmanchi chorvadorlar qurdlar va pushtunlar o'zlari bilan qurol olib yuradilar.

So'nggi o'n yilliklarda an'anaviy kiyimlar nafaqat dehqonlar balki chorvadorlarda ham evropacha yarim harbiycha tus olmoqda.

Ayollarda an'anaviy xalq kiyimlari yaxshi saqlangan. Ko'pchilik xalqlarda ayollar ko'ylaklari uzun to'pig'igacha tushib turadi. Engsiz nimcha va xalatlar ham keng tarqalgan. Issiq qishki kiyimlar odatda boy oilalardagina mavjud. Milliy va hududiy tafovutlar kiyimlar fasoni, matosining arzon-qimmatligi, rangida, gullarida, ayniqsa bosh kiyimlarida kuzatiladi.

Old Osiyodagi islom mamlakatlarida (Turkiyadan tashqari) ayollarni hijob kiyishlari, yuzlarini yopib yurishlari an'anasi mavjud. Ayni paytda o'troq dehqonchilik aholisiga oid bu qoida chorvadorlarda tarqalmagan. Begona erkaklar huzurida yoki qari kishilar bo'lsa ayollar ro'mollarining bir uchi bilan yuzlarini yopadilar. Ayollar kiyimi ayniqsa chorvadorlarda turli zeb-ziynatlar bilan, kumush va oltindan uzuk, bilakuzuklar, sirg'a, qimmatbaho toshli taqinchoqlar bilan to'latiladi. Ayollar xina bilan sochlari, tirnoqlarini bo'yaydilar. Qishloq xotin-qizlaridan farqliroq shaharlarda ziyoli oilalarda, xususan Turkiyada evropacha kiyinishadi.

4. Oila va ijtimoiy munosabatlari. Oilaviy hayot. Ommaviy hayotning barcha qoidalari va odatlari Old Osiyoda din me'yorlari hamda udumlar bilan belgilanadi. Yagona istisno Turkiyaning nisbatan o'qimishli aholisi diniy qoidalariga to'liq rioya qilmaydi. Islomga e'tiqod qiluvchi ahoil oialviy turmush xristian provoslav yunonlar, monofisit armanlarnikidan keskin farq qiladi.

Oila-nikoh munosabatlarida shariatga ko'ra, poligaliya-ko'p xotinlikka ijozat berilgan. Lekin amalda bu odatga munosabat bir xil emas. Xususan Turkiyada xotin-qizlar qonunga ko'ra erkaklar bilan bir xil huquqqa ega. Eron va arab mamlakatlarida ayollar mavqei past. Qishloq aholisida qalin ham saqlangan bo'lib, uni to'lagan oilalarda ayollar huquqi yana ham past. Ko'chmanchi chorvadorlar oilalarida ayollar mavqei (ayniqsa o'g'il farzandlari bo'lsa) birmuncha yuqori. Shariat ko'p xotinlikka ijozat bersada amalda bu qoidadan boy savdogarlar, hunarmandlar, ruhoniylar, boy dehqonlargina poligamiyadan qabila boshliqlari, ba'zida ayoli taklifi bilan uylanish xollari uchraydi.

Ijtimoiy munosabatlar. Nomadlarda an'anaviy va hatto arxaik jamoaviy munosabatlar yaxshi saqlangan, mollar har bir oilaning xususiy mulki ayni apytda yaylovlar, suv manbalari jamoat mulki sanaladi. Chorvadorlar orasida boy, o'rta hol kambag'allari ham bo'lib, ularning barchasi nisbatan erkin o'z qabila boshliqlariga ular odatda xilof ish qilmasalargina bo'ysunadilar. Chorvadorlarda davlat, sinfiy jamiyat hech qachon bo'lmagan, bosqinchilik urushlarida vujudga kelgan "ko'chmanchilar ittifoqlari", bosqinlar yakun topishi bilan aprchalanib ketgan ko'chmanchilarda hozir ham qo'shnichilik

o‘zaro yordami, jamoa-qabila demokratiyasi hukm surib barcha muammolar oilalar boshliqlari majlisida hal etiladi. Xun talab qilish, ko‘plab eski odatlar saqlangan.

Old Osiyo mamlakatlari aholisi jamoat hayotida qishloq jamoalarining ahamiyati saqlanib qolmoqda. Odatda bitta yoki bir nechta qishloqlar aholisini birlashtirgan jamoalar asrlar davomida mahalliy boshqaruv vaizfasini o‘tab kelgan. Qishloq jamoasi faoliyatiga masjid mullasining, oqsoqollar, sharita sudining ta’siri katta bo‘lib ularda oilaviy, oilalararo, jamoa hayotiga oid bahsli masalalar bamaslahat hal etiladi.

Ko‘chmanchi-chorvadorlarning bir qismini o‘troq hayotga o‘tishi bilan qabilaviy tashqi lotlar asta-sekin yo‘qolib, faqat hayotning ayrim jabhalari xususan oila-nikoh munosabatlarida saqlanmoqda. Jumladan nikohning endogam bo‘lishi nazorat qilinadi. Bu qoidani buzulishi qoralash va hatto jazolashgacha borib etishi mumkin.

Shu tariqa jamoat munosabatlari Old Osiyoning turli xalqlari va zamonaviy mamlakatlarida turlicha shaklda, ko‘rinishda faoliyat ko‘rsatmoqda. Turkiya va isroilda taraqqiy etgan kopitalistik munosabatlar shakllangan bo‘lsa, Eron va afg‘onistonda feodal-patriaxal munosabatlar ularni jamoa hayotida namoyon bo‘lishini kuzatishimiz mumkin. Eski odat, udumlarni saqlanishiga musulmon ulamolari va ular bilan aloqadagi fundamentalistlar o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Suriya va Iroqdagi fuqarolar urushlari IShJD ning 2014-2017 yillardagi faoliyati yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

5. Din va ma’naviy madaniyat. Din. Old Osiyo bir necha dinlarning vatanidir. Ulardan biri zoroastrizm qadimda va o‘rta asrlarda Eron, Afg‘oniston, O‘rta osiyo, Ozarbayjon va boshqa yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida tarqalgan. Hozirda otashparastlardan porslar Hindistonda, gerblar Eronda yashamoqda. Zoraastrlar muqaddas kitobi “Avesto”, bosh ilohi – Axuramazda. Dinning asosiy g‘oyasini dunyoda mavjud ikki kuch: ezgulik va yovuzlik orasidagi kurash tashqi l etib, unda ezgulik g‘alaba qilishi aytiladi. Zoraastrlarni otashaprastlar ham deyishadi, sababib ularning marosimlarida olovning o‘rni beqiyosdir.

Undan tashqari Old Osiyo ikki dunyo dinlari – xristianlik va islom vujudga kelgan joydir. Qolaversa ilk monoteizm – yakka xu-

dolikka asoslangan iudaizm uning muqaddas injil kitobi ham Old Osiyoda yaratilgan. M. VII asrning boshlarida Arabiston ya.o.da islom dini targ‘ibot qilina boshlandi. Olloh Muhammad Payg‘ambarga Qur’onni - islom dinining muqaddas kitobini nozil qildi. Arab xalifaligini tashqil etilishi bilan teokratik boshqaruv diniy va dunyoviy hokimiyatlarni qo‘shilishi sodir bo‘ldi.

Old Osiyoning ko‘pchilik aholisi bugungi kunda islomning turli mazhablariga e’tiqod qilishadi. Musulmonlar qator qoida va ta’qiqlarga rioya qilishlari lozim. Besh vaqt namoz, ro‘za tutish, faqat halol taomlar va oziqlarni iste’mol qilish va h.k lar talablar qatorida. Musulmon har yili diniy soliq zakot to‘lashlari, musallash ichmasliklari, imkon topilsa Makkaga Haj safariga borishlari lozim.

Musulmonlarning ko‘pchiligi islomning ikki mazhabi sunna va shialarga mansubdir. Sunna yo‘nalishiga arablar, turkmanlar, qurdlarning bir qismi va beluxiylar, pushtunlar va yana qator xalqlar kiradi. Shialar – forslar, ozarbayjonlar, qurdlarning bir qismi, Suriya va Iroq arablaridan iborat. Saudiya Arabistoni va yana qator mamlakatlarda vaxobiylar – islom qoidalarini yanada qat’iy bajarish tarafdorlari sektasi tarafdorlari yashaydilar. Diniy ulamolar boshqarishi kerak bo‘lgan davlat tuzish g‘oyasi zamoniviy musulmon diniy fundamentalizmi aynan Old Osiyoda aniqsa shialar ichida keng tarqalgan.

Old Osiyoda din madaniyat, maorifga, oilaviy turmushga, so‘nggi o‘n yilliklarda fundamentalizmning tarqalishi bilan siyosatga ham katta ta’sir etmoqda. Bu borada Turkiya alohida o‘rin tutadi, sababi unda din davlatdan rasman ajratilib diniy partiyalarni hokimiyatga kelishi Otaturk konstitutsiyasi bo‘yicha ta’qiqlangan.

Old Osiyoda islomdan tashqari xristianlik, iudaizmga e’tiqod qiluvchilar ham mavjud. Isroilda iudaizm bo‘lsa qurdlar orasida yezidlar dini o‘zida: zoraastrizm, xristianlik va islom dinlari xususiyatlarini jamlagan. Dehqonchilik va chorvachilik aholisida ayrim qadimgi ibtidoiy tasavvurlar va e’tiqodlar: arvohlar, tosh, daraxtlar, ruhlarga ishonch saqlangan.

Yaqin o‘tmishda ham professional meditsina bo‘lmasdan “xalq tabobati”, folbinlar va tabiblar aholini davolaganlar.

Old Osiyoda diniy ta’lim juda ommalashgan. Ko‘plab oliy diniy muassasalar ochilgan. Dunyoviy ta’lim faqat Turkiyada ustivor.

Shuning uchun o'g'il bolalar ayniqsa boy xlonadonlar farzandalri yevropa va Amerika universitetlarida tahsil olishga intilishadi.Isroilda ta'lim yuqori darajaga etkazilgan. Ayni paytda juda ko'p qishloq aholisi hozirga qadar savodsiz.

Umuman olganda Old Osiyo xalqlari hayoti katta o'ziga xosliklarga ega. Yevropaliklar va Shimoliy Amerikaliklar hayotidan sezilarli farq qiladi.

Ma'naviy badiiy madaniyat. Old Osiyo xalqlari jahon sivilizatsiyasiga bebaho madaniyo hissa qo'shib u yozma, og'zaki xalq ijodiyoti, musiqa, qo'shiqlar, raqslar, tasviriy san'at va h.k.lardan iborat.

Diniy ta'qiqlar tasviriy san'tani barcha usullarini (ayniqsa insonlar tasvirini chizishda)yuksalishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsada, Eron miniatyurasi (Hirotdagi Behzod maktabi), hattotlik, gilamdo'zlik, gulli mato to'qish va boshqalar yuksak cho'qqilarga erishgan.

Badiiy adabiyot qadimdan boyligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Ulardan Umar Xayyom ruboyilari (XI-XII asr) Abudqosim Firdavsiyning (X-XI asr) "Shoxnoma", Shamsiddin Xafizning (XIV asr) lirik she'rlarini eslatish kifoya. "Ming bir kecha" ertaklari faqat Sharq emas G'arb dunyosi ahlini ham lol qoldirib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Old (G'arbiy) Osiyo aholisining etnik tarixi qadimgi sivilizatsiyalar haqida nmalarni bilasiz?
2. G'arbiy osiyoliklar rasa va ttil tavsifini so'zlab bering?
3. Aholining an'anviy va zamonaviy o'jaliklari xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Old Osiyoliklar moddiy madaniyatlarga etnik jarayonlar ta'siri qanday ko'rinishlarda ro'y bermoqda?
5. G'arbiy osiyoliklarda oila, ijtimoiy munosabatlarning qanday xususiyatlarini bilasiz?
6. Din va ma'naviy madaniyat haqida so'zlab bering?

7-BOB. KAVKAZORTI ETNOLOGIYASI

Etnologik klassifikatsiyada Kavkazorti xalqlari doimo Rossiya imperiyasi, so'ng Sovet davlati, Mustaqillikdan keyin ham Rossiya Federatsiyasi tzimida o'rganilgan. Kavkazorti atamasi ham ilmiy adabiyotlarga rus olimlari kiritganligi geografik jihatdan noto'g'ri. Geografik klassifikatsiya bo'yicha ushbu hudud Old Osiyoga tutash va Kavkazoldi deb nomlanishi to'g'ri bo'ladi. Biz qo'lanmada ushbu xatoni to'g'rilashga qaror qildik.

Kavkazorti va unga tutash hududlar "Injil"dagi "Dunyoni suv bosishi(to'fon)" haqidagi rivoyat bilan bevosita bog'liq. Nux payg'ambar dunyoni suv bosganda o'simliklardan har bir jonivordan bir bir juftdan olib o'z kemasida Arofat tog'iga suzib kelib jon saqlaganligi yozilgan. Suv pasayib er ochilgandan keyin Nuxning avlodlari ko'plab xalqlar shu jumladan Kavkazoldi xalqlariga ham asos bo'lganlar. Yana bir yunonlar rivoyatiga ko'ra Zevs Prometeyni odamlarga uning ruhsatisizolov bergani uchun jazolashi Gefest tomonidan Kavkazga qoyaga zanjirband etilgani hikoya qilinadi. Yunonlarning "Argonavtlar" haqidagi afsonasida Yason va uning jangchilari Kavkazga oltin terini izlab kelishadi.

Kavkazning o'zida ham ko'plab afsona va rivoyatlar yaratilgan. Ulardan birida Elbursga Kavkaz tog'larining eng baland cho'qqisiga gruzinlar Prometeyi - Amirani zanjirband qilingan.

Afsonalar va rivoyatlar asosida hududdagi etnoslar va ularning madaniyatlarini shakllanishi murakkab tarixini kuzatish mumkin.

1. Kavkazoldi respublikalari aholisining etnik tarkibi. O'lkada uchta yirik xalq ozarbayjonlar, armanlar va gurzinlar yashab ularning etnonimlari uchta mustaqil davlat (sharqdan g'arbga tomon) Ozarbayjon respublikasi, Armaniston respublikasi va Gruziya respublikalaridan iborat. Yuridik jihatdan 1992 yili o'z mustaqilligani e'lon qilgan, lekin asosan Rossiya qo'llayotgan Abxaziya respublikasi Gruziya tarkibida bo'lishi kerak.

Ozarbayjon hududi Kaspiy dengiziga tutash. Aholisining asosiy qismi ozarbayjonlar (6 mln. kishi). Ozarbayjonlar Kavkazning boshqa shaharlari, Rossiya shaharlari va yana 10 mln. dan ko'prog'i Eronning shimoliy-g'arbida Eron Ozarbayjoni, qo'shni hududlarda

yashaydilar. Respublikada yashovchi ozarbayjonlardan 50% dan ko'prog'i shaharlarda istiqomat qiladilar. Ozar tili oltoy til oilasi, turkiy tillar turkumigning o'g'uz guruhiga mansub. Yozuv 1991 yildan lotin grafikasida. Dinlari islom, ko'pchiligi shia mazhabiga e'tiqod qiladi.

Kavkazning janubiy-g'arbiy qismida armanlar (3 mln. dan ko'proq) yashaydi. Ular Armaniston respublikasining asosiy aholisini tashqi l etadi. Ular kavkaz, Rossiya, Old Osiyo, yevropa va Amerika va ko'plab mamlakatlarshaharlarida yashaydilar. Arman diasporasi dunyo mamlakatlaridagi eng ko'p sonli, yiriklaridan biridir. Rspublika armanlarini 66% shaharlarda yashaydi. Armantili hind-evropa til oilasiga kirib qator shevalarga bo'linadi. Yozuvda armanlar IV asr oxirida Mesrop Mashtou tomonidan yaratilgan alfavitdan foydalanishadi. Armanlar xristianlikning monofistlik mazhabini IV asrdan qabul qilishgan.

Kavkazning g'arbiy qismida Qora dengizga chegara hududda Gruziya respublikasi joylashgan. Respublikaning 4 mln aholisi gruzinlardan iborat. Gruzinlarning ma'lum qismi Kavkazning qo'shni respublikalarida, Turkiyada va Eronda yashaydi. Gruzinlarning 50 % ortig'i shaharliklar. Gruzin tili kavkaz tillarining kartvel guruhiga kiradi. Gruzinlar tarkibida sub etnik guruhlar:kartvellar, kartliyslar, aksarlar (gruzinmusulmonlar), megrellar, svanlar mavjud. Yozuvi gruzin alifbosi asosida (uni oromiy yozuvidan shakllangani ehtimol qlinadi) yaratilgan. Ko'pchilik gruzinlar provoslav xristianlanma'lum qismi musulmon-sunnalar.

Eng g'arbiy hududda abxazlar yashab ularning soni 100 ming kishi atrofida, yarmidan ko'prog'i qishloqlarda yashaydi. Abxazlar ikki subetnikguruhga: bzablar va abjuylarga bo'linadi. Tillari kavkaz tillarining abxaz-adыg guruhiga kiradi. Ushbu til unli tovushning ko'pligi bilan xususiyatlanadi. Diniy e'tiqodlari bo'yicha provalav xristian va musulmon sunnalardir.

2. Etnik tarix. Ozarbayjonlar. O'zlarining ozarbayjonlilar deb atashadi. Ozarbayjon tilini turkiy guruhga kirishi uning turk tiliga yaqinligi mazkur etnosni kelib chiqishi nisbatan sodda ekanligi tasavvurini tug'diradi. Aslida hudud uzoq o'tmishda ikki qismga bo'lingan. Nura daryosidan shimoldagi o'lka Albaniya deb nomlan-

gan. U etnik jihatdan rang-barang bo'lib aholisi: alban, utiy-udin, leg-lezgin (jami 26 ta qabila) tillarida so'zlashganlar. Qadimgi qabilalardan biri kaspiylar keyinchalik boshqa xalq bilan aralashib ketadi, o'zlaridan dengiz nomini qoldirganlar. M. av. I asrlarda hudud Parfiya bosqiniga uchragan. Keyinchalik Albaniyada mahalliy davlat vujudga keladi. Uning g'arbiy qismida IV asrdan xristianlik tarqaladi. Yozuv V asr boshida paydo bo'ladi.

Kuradan janubdagi viloyatlar Atropaten deb nomlangan. M III asrda Eron dastlab Atropotenani, so'ng Albaniyani bo'ysundirdi. O'lkada o'z mavqesini kuchaytirish maqsadida forslar talaygtna Eron tilli aholini ko'chirib keltiradi. Ushbu aholi tatlar deb (turkiylar tomonidan turk bo'lmagan aholiga nisbatan qo'llangan atama) nomlangan. Qadimgi forslar ushbu mamlakatni Ader-badagan, armanlar – Atrxotakan, arablar-Aderbayjon yoki Ozarbayjon, "Olov mamlakati" deb nomlaganlar. Ushbu hududda qadimdan yashab, qadimgi ozarbayjon etnosiga asos bo'lgan aholi hind-evropa til oilasining Eron guruhiga mansub bo'lib, ularning tili hozirgi talish tiliga yaqin edi.

Arab halifaligi istilosi VII asrning boshidan islom dini, arab yozuvini joriy etilishiga olib keldi. Qarshiliklarga qaramasdan islom dini mustahkam o'rin oladi. Kavkazda XI-XII asrlarda saljuqiy turklar o'z xokimiyatini o'rnatadilar. Turklar xukmronligi davrida turkiy til mahalliy aholi hayotiga singadi. Natijada XIII asrda o'g'uz qabilalarining yangi to'lqinlari bilan birlikda hududda turkiy tilli ozarbayjonjamiyati uzil-kesil shakllanadi. Ozarbayjonlar tarkibida afsharlar, qorapapaxilar, shaxssevanlar va h.k. subetnoslar mavjud.

Respublika hududida o'zga etnoslar: talishlar, qurdlar, kavkaz tilli-udinlar, buduglar, xinalugilar va boshqalar ham yashaydilar. Diniy jihatdan aholi : musulmon, arman-grigorian va yahudiy (tog'li yahudiylar) diniy konfessiyalariga mansubdir.

Armanlar.(o'zlarini "xay" deb ataydilar) dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biridir. Arman tog'lari qabilalarini birlashuvida armanlarning hind-evropalik ajdodlari Gomer dostonidagi arimilar muhim rol o'ynagan bo'lishlari ehtimol. Ular yashaydigan hududlar Xett podsholigiga kirgan. Xettlar fraxiylar zarbalaridan (m. av XIII asr boshlari) parchalangach, armanlarning qadimgi hind evropalik

ajdodlari xettlar va boshqa qabilalar bilan aralashib yangi qadimgi arman tilida so'zlashuvchi etnosga asos soladi. O'sha asrda ular Ossuriya viloyati Shupriyaga bostirib kiradi. Bu hududda Armina nomi bilan qadimga arman qabilalarini ikkinchi ittifoqi vujudga keladi. U Arman tog'laridagi qabilalarni qadimgi arman elatiga birlashishiga asos bo'ladi.

Ossuriya bilan urushlarda birlashgan qabilalar m. av. IX asrda kuchli Urartu podsholari xalqlarini zo'ravonlik bilan ko'chirish siyosatini olib borganlar. Xususan Arik-Shupriya viloyati arman qabilalari Ararat vodiysiga ko'chiriladi. Bu xildagi siyosat armanlar yashaydigan hududlarni kengaytiradi. Poytaxti Tushna shahri bo'lgan (Van qo'li bo'yida) Urartu davlatini m. av. VIII asrda Ossuriya istilo qiladi. Urartuning butunlay tugatilishi m. av. 590 yili Eron Midiyasi bosqini bilan bog'liqdir. M. av. IIm. IVasrlarda Artashesidlar sulolasi boshchiligida Buyuk Armanichton davlati qayta tiklanadi. Lekin 387 yili bu davlatni qo'shni Sosoniylar Eroni va Vizantiya bo'lib oladi. Arab xalifaligi VIII asr boshida armanlar yashaydigan hududlarda noiblik tuzadilar. Keyinchalik Armaniston Vizantiya, Saljuqiy turklari so'ng mo'g'ullar XVI-XIX asrlarda turk-eron hukmi ostida bo'ladi. Aynan ushbu davrda armanlarga qarshi siyosat ularni qochib butun dunyoga tarqalishiga olib keladi. Shunga qaramasdan armanlar o'z tili, madaniyati va yozuvini saqlab qoladilar.

Sharqiy Armaniston (Erevan shahri bilan) 1801-1828 yillari Rossiyaga qo'shib olinadi. G'arbiy Armaniston Turkiya tarkibida qolib, Birinchi jahon urushi paytida qirg'in uyushtirilgani sababli yana qochib jon saqlashga majbur bo'ladilar. Turkiya 600 ming armanni uning tarkibida bo'lgan Iroq va Suriyaga ko'chirganyu Bir necha yuz ming arman turkiylashtirilib islomga o'tkazilgan. Uch yuz ettik ming arman Sharqiy Armaniston va Rossiyaning boshqa joylaridan boshpana topishgan.

Aynan tarixiy-siyosiy taqdir tufayli armanlarning cherkesogan (tog'li armanlar yoki cherkes armanlari) subetnos guruhlari paydo bo'lib, ularga eron tilli arman tatlar franglar (arman katoliklar) arman yunonlar (satlar yoki xalnidonitlar) yangi naxichevan (don) armanlari, tumbulliklar (arman darveshlar) va boshqalar kiradi.

Abxazlar. (o'zlarini opsua deyishadi) Kavkaz o'lkasining had-

imiy aholilaridanbiridir. Ular haqidagi ilk ma'lumotlar Pliniy Kichik asarida apsillar qabilasi tarzida uchraydi. M. av. V asrda qadimgi abxaz qabilalari Kolxida podsholigi tarkibiga kirgan. Ular yashaydigan hududlarda m. av. III-II ming yilliklarda toshlardan qurilgan – dolmenlar sodda inshootlar bo'lib, ularni qanday maqsadda qurganlari hali-hanuz o'z echimini topmagan.

Milodiy asr boshlarida Abxaziya Vizantiyaning vassal davlati Lazika tarkibiga kirgan. Bu mahalliy aholi orasida xristianlikni tarqalishiga olib kelgan. Antik davrda hozir Abxaziya joylashgan Qora dengiz sohilida yunonlarning Dios-Kuriya manzilgohi bo'lib, bugungi Suxumi shahri uning o'rnida joylashgan. Yana bir qadimiy shahar Pitiunt ham m. av. VI-V asrlarda yunonlar tomonidan asos solingan. Pitsunda yunoncha "pitius"-qarag'ay daraxti nomidan olingan.

Qadimgi aholi manzilgohi Anakoniya (hozirgi Yangi Afon) – abxaz hukmdorlarining ilk o'rta asrlardagi poytaxti bo'lgan. Abxaziya keyinchalik Vizantiya, Ero ntarkibida bo'lgan. XV asr oxiridan Usmoniylar davlatining uch yuz yillik hukmronligi boshlanadi. Islom dini aynan shu davrda tarqalgan.

Abxaziyadagi etnik jarayonlar va demografik vaziyatga qul savdosi katta ta'sir etgan. Bu jarayon antik davrda boshlanib turklar hukmronligi paytida keng tus olgan. Qulchilik faqat abxazlar emas, ularga qardosh bo'lgan abazin, cherkes, adыg, shimoliy-g'arbiy dengiz sohilida yashagan ubыxlarga ham ta'sir etgan. Bosqinlarda chiroyli bolalar va qizlar asirga olinib, o'g'il bolalar yonicharlar, qizlar esa turk zodagonlari haramlariga olingan.

Kavkaz urushlaridan so'ng Abxazlar va boshqa mahalliy xalqlardan islomni qabul qilganlar ommaviy ravishda Turkiya sultonligi ichki viloyatlariga emmigratsiyaga-muhojirlikka ko'chganlar. Natijada Abxaziya o'z aholisining talay qismidan ajraladi. Bugungi kunda muhojir kavkazlik xalqlar avlodlari Turkiya, Iroq, Suriya, Iordaniya davlatlarida yashamoqdalar. Rossiya imperiyasi Abxaziyani 1877 yildagi Turkiya bilan urushdan keyin egallaydi. Abxaz yozuvi rus olimi P.Uslar tomonidan XIX asr oxirida yaratilgan. XXasrda sovet tuzumi davrida Abxaziya shaharlari butunittifoq kurortlariga aylantiriladi.

Gruzinlar. O'zlarini kartvellar, vatanlarini Sakartvelo deb atashadi. Hadimda gruzinlar-iberlar, mamlakatlari Iberiya deb atalgan. Qo'shnilar ularni turlicha armanlar-vratsi, eronliklar-vrnai (hadimgi forschada), arablar-xurz, suriyaliklar-xurzan, chechenlar-guriya, turklar-gurj, osetinlar-gurziag, adыglar-kurj, ruslar gruzin deb atashadi. Bir qancha adыg xalqlari megrellarni-tuballar deyishib ushbu qadimgi gruzin etnonimi Choroxi, Qizil Irmoq, Frotning yuqori oqimi, Araks va Kura daryolari havzasidagi keng hududlarda yashagan, gruzinlarning tubak, musk, taok, kolx va boshqalar qadimgi madaniyati o'chog'i joylashgan o'lka bilan bog'liqdir. Undagi ilk davlat Kolxida podsholigi m. av. VI asrda vujudga kelgan. Argonavtlar yunonlar afsonasida oltin mo'yna (teri) ortidan aynan Kolxidaga safar qilganlar. M. VIasrda Sharqiy Gruziyada Iberiya (Hartliy) podsholigi barpo etiladi. Uning rasmiy dini IV asrdan xristianlik bo'ladi. G'arbiy Gruziyadagi Laz podsholigida (Egrisi) xristianlik VI asrdan qabul qilingan. Gruzinlarda qadimgi cherkov yozuvi va fuqarolik nisbatan keyingi cherkov yozuvi asosida vujudga kelgan alfavitlar mavjud. Xristianlik dini va yozuv gruzin etnosini konsolidatsiya etuvchi omil bo'lgan.

Gruzinlar ularni tarixiy taraqqiyoti xususiyatlarini aks ettiruvchi bir necha etnografik guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlarning ayrimlari tili, madaniyati, o'z nomining o'ziga xosliklarini saqlab kelmoqdalar. Kartvellar megrellar, shonlar (Svanetiya) shular qatorida Kartvellar yana qator lokal guruhlarga: Kaxetiya, Kartli, Mesxet-Javakati Imreti, Lechxuma, Ajariya, Guriya, Tushetiya, Pshavi, Mtiuleti, Xeni, Rachi aholisi tarzida bo'linadi. Bu xildagi ichki tarqoqlik Gruziyaning siyosiy va etnik tarixida birlashish va bo'linish jarayonlari tez-tez sodir bo'lib turganidan dalolat beradi.

Yuqorida aytilgan nisbatan yirik xalqlardan tashqari Kavkaz oldida asosiy yashash joyi o'rganilayotgan tarixiy-etnografik o'lkadan boshqa hududlarda bo'lgan etnoslar ham bor. Ulardan biri nononlar ular o'zlarini ellinlar yoki rometlar deb atashadi. Kurdlar diasporalari Turkiya, Eron, Iroq, Suriya, ossuriyaliklar Yaqin Sharq mamlakatlarida, shuningdek Kavkazda ham yashaydilar.

Kavkazoldidagi etnoslar muloqotda yashovchi hududlarda ikki va ko'p tillilik odatiy holdir. Jumladan Ingushetiyadan Gruziyaga ko'chirilgan batsbiyslar (sova tushinlar) bir necha asr davomida as-

similyasiyalashgan bo'lsalarda, o'zlarining kelib chiqishlarini qisman saqlab oilada o'z tillarini ishlatadilar. Salka daryosi rayonida yashovchi nonon-urumlar turk tilida so'zlashadilar, nonon-romeylar ham turkiy tilga o'tishmoqda.

3. An'anaviy va zamonaviy moddiy madaniyat. Xo'jalik mashg'ulotlari. Kavkazoldi xalqlarida ko'plab umumiylikka ega. Bu yerda yashovchi barcha xalqlar – dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Dehqonchilik shudgorlash orqali ho'qizlar yordamida amalga oshiriladi. Dehqonchilikning asosi donli ekinlar: arpa, suli, bug'doy, ba'zi joylarda sholidan iborat. Kavkaz bug'doyning o'nlab navlari vatanidir. Dukkakli ekinlar, xususan lobio ekiladi. Sabzavotlardan: pomidor, qalampir, baqlajon, piyoz, sarimsoqpiyoz, ko'katlar va o'okazolar yetishtiriladi. Lekin mahalliy dehqonchilikning asosiy xususiyatli jihatlari bog'dorchilikva uzumchilikdir. Subtropik rayonlarda sitrus, shaftoli, tut, yong'oq va boshqa daraxtlar parvarishlanadi. Uzumchilik iqlim imkon beradigan barcha hududlarda mavjud. Lekin eng hosildor hudud Kaxetiya (Gruziya) da joylashgan. Abxaziya, Ajariyalarda choy ekiladi.

Chorvachilik ham yuksak rivojlangan. Vohalarda molni bog'lab og'ilxonada boqish, adir, tog'oldi va tog'li hududlarda cho'ponlar yordamida yaylovga haydabdab boqish usuli qo'llaniladi. Yirik shoxli mol, otlar, qo'y-echki, eshaklar boqiladi. Xristian aholi to'ng'iz ham parvarishlaydi. Uy parrandalari qishloq sharoitida barcha aholi tomonidan saqlanadi.

Kavkazda qadim davrlardan hunarmandlikning yuzlab sohalari: qulolchilik, temirchilik, to'quvchilik va hokazolar rivojlanib kelgan. Gilam to'qish barcha hududlarda bo'lsada, Ozarbayjonda ayniqsa rivojlangan.

Barcha respublikalarda zamonaviy sanoat, jumladan qayta ishlash sanoati barpo etilgan. Ozarbayjonda neft va uni qayta ishlash, Gruziyada mineral qazilmalar olinadi. Armanistonda qurilish toshi tayyorlanadi. Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston iqtisodiyotiga Qora va Kaspiy dengizi sohilidagi kurortlar va sog'lomlashtirish muassasalari katta daromad keltiradi.

Qishloq xo'jaligi. Kavkaz xalqlarida ko'plab umumiylikka ega. Tog'larda joylashgan aholi manzillari odatda yirik bo'lmasdan,

rejali qurilmagan. Uylar bir-biriga jips qurilishi mumkin, xususan tog'li Tushetiyada yoki siyrak (Abxaziyadagi singari) joylashishi mumkin. Uylar o'z tarxi bo'yicha ham ishlatiladigan qurilish ashyolariga qarab ham (tosh, bo'yra, turluq, yog'och)farqlanadi. Svanetiya va Tushetiyada o'tmishda toshdan mudofaa minoralari qurilgan. Kavkazoldi xalqlari majmuining o'ziga xosligi ularni yashash va xo'jalik xonalarini ko'pligidir. Ozarbayjonda turar-joylar atrofi baland loydan devor bilan o'ralib, bu oilaviy hayotni begona ko'zlardan saqlashga mo'ljallangan. Kavkazoldi shaharlar mamlakatidir. Mamlakatlar poytaxtlari – Boku, Erevan, Tbilisi qadimgi shaharlar, ular hozirgi millatlarni shakllantirishda katta rol o'ynagan. Misol tariqasida Gruziya poytaxti Tbilisini tavsiflash mumkin. Tbilisi m. IV asrda issiq suvli oltingugurtli buloq yaqinida (tpili-gruzincha "issiq") qurilib, undan shahar hammomlarida foydalanilgan. Ko'p o'tmay shahar hunarmandchilik markaziga, XIX-XX asrlarda sanoat, oliy ta'lim, ilm-fan va madaniyat shahriga aylanadi. Tbilisi gruzinlar shahri bo'lishiga qaramasdan unda armanlar, ozarbayjonlar, yunonlar, yahudiylar va boshqa millat vakillari yashaydi. U XX-asrda hunarmand - ustalar ish topadigan joyga aylanib, ular turli millat vakillari bo'lganlar. Yunon sangtarosh ustalari, eronlik g'isht teruvchi va suvoqchilar, armani hunarmandlar, meshkopchilar-suv tashuvchilar va hokazolar bo'lgan.

Aholining ijtimoiy tarkibi tarixan o'zgarib borgan. Knyazlar, ruhoniylar, boy savdogarlar shahardagi eng yaxshi hovlilar, bog'lar, ekin maydonlariga egalik qilganlar. Hunarmandlar shahar chekkalarida joylashganlar. Ular sexlarga birlashganlar. Shaharlar hayotida suv tashuvchilar katta o'rin tutganlar. Aholining o'ziga xos guruhi kinto-sayyor savdogarlar kiyimlari, jargonlari bilan ajralib turganlar.

Zamonaviy Tbilisi aholisi 1 milliondan ko'p yevropa hamjamiyatiga intilayotgan respublika poytaxti. Unda ko'plab sanoat korxonalari, ilmiy muassasalar, universitet, Fanlar Akademiyasi, o'nlab oliygohlar, ko'plab kutubxona va muzeylar, ular qatorida ikkita etnografiya muzeyi mavjud.

An'anaviy kiyimlari. Ranglar jilosi, matolari, bichimlari, tarxi bo'yicha xilma-xildir. Liboslarda xalqning axloqiy me'yorlari, jinsiy va yosh tavofutlari o'z aksini topadi.

Ranglari xilma-xilligi, naqshlarining o'ziga xosligi bilan ham erkaklar, ham ayollar xevsurlar (Gruziya) kiyimlari o'ziga tortadi. Erkaklar ko'ylagi dag'al jun gazlama yoki qizil-qo'ng'ir rangli bo'zdan tikilgan bo'lib, uni tugmalar, gazlamadan uchburchak but aksi (krestik), sariq, qizil, oq va qora rangli jiyak bilan bezatilgan. Ustki kiyim choxani uyda to'qilgan jun gazlamadan tikib, qizil, ko'k, nimqizil rangli jiyaklar bilan hoshiyalaganlar.

Ayollar choxasi elka tomonida bir bo'lak jun matoga qadalgan tangalar va munchoqlar bilan bezalgan. Ayollar quloqlariga juda katta sirg'a taqishgan. Xevsur ayollarini bosh kiyimlari, uni kiyishlari ham o'ziga xos. Uning asosini satiuri deb nomlangan jun yoki zig'irpoyadan gazlama, aylanasiga kashta va munchoqlar bilan bezalgan. Uning ustidan qora jun kashtalangan ro'molni shunday bog'lashganki, uning oxiri o'ng quloq ortida osilib turgan.

Erkaklar kiyimlari majmuasida bizning kunlarimizda cherkes engil kamzoli, chakmon engsiz yupqa kigizdan, boshlik, telpak, oyoqlarida yumshoq yoki qattiq qo'njli etiklar. Albatta bu an'anaviy kiyim bugungi kunda folklor ansambllarida bayramlarda milliy kiyim tarzida kiyiladi.

Zamonaviy kiyimlar umumevropanikidan deyarli farq qilmaydi. Ayrim an'anaviy kiyimlar eleientlari uzoq tog'li hududlarda saqlangan xolos. Gruzinlarni barcha an'anaviy kiyimlarini bugun faqat har yili o'tkaziladigan Tbilosobo-shaharga asos solingan sanani bayram qilganlarida kuzatish mumkin.

Taomlari. Moddiy madaniyatning boshqa sohalariga qaraganda taomlar milliy va xalq an'analarini yaxshi saqlagan. Kavkazoldi xalqlarida XIX asr oxiri XX asr boshlarida taomlari asosini o'simlik oziqlari, non va uni o'rnini bosuvchi don mahsulotlaridan bo'tqalar, tashqi l qilgan. Xususan abxazlarda tuz solmasdan pishirilgan quyuq bo'tqa – abьsta bo'lib, unga qo'shimcha lobiodan go'shtdan, achchiq qaylalar tortilgan. Armanlarda bug'doyni chala yanchib, undan kashil deb nomlangan marosim taomi tayyorlangan. Ko'pgina Kavkaz xalqlari an'anaviy taomlari qatorida sulidan tayyorlangan bo'tqa bo'lgan. Lekin asosiy oziq mahsuloti non-lavash bo'lib ,uni maxsus tandirlarda pishiradilar. Arman lavashi eniga 50 sm, uzunligi 1 metr, qalinligi bir necha millimetr bo'ladi. Lavashni bittasi

dasturxon o'rnini bosib, uni tarelka o'rnida ishlatish ham mumkin. Lavashni qo'l bilan to'g'rab, qaylani suyuq-quyuq taomlarni eyishda qo'llash mumkin. Odatda uning ustiga pishloq, ko'kat va sariyog' qo'yib o'rab eyishadi.

Bu xilda taom eyish arman, janubiy ozarbayjonlar, eronliklarga xosdir. Gruzinlar tandir noni-shoti ko'rinishi bo'yicha uzuncharoq, oy shaklidabo'ladi. Armanistonnig shimolida, Gruziyaning qator rayonlarida nonni pechkalarda pishirganlar.

Kavkaz nonlarida hamir achitiladi. Hamirturush solinmagan nonlarni maxsus marosimlar uchun pishiradilar. Tandirda nonni orasiga biror narsa qo'shib ham (ozarbayjonchada-gutab, armanchada-kotan) yashiriladi. Gruziyaning g'arbida va tog' qismida tvorog yoki pishloqni nonni orasiga qo'yib pishirib uni xachapuri (puri-non, xacha-tvorog) deb atashadi. Kavkazoldi xalqlari pishloqni bir necha turini tayyorlashadi. Mehmonga eng avvalo pishloq, sir, asal va vino (Gruziya, Armaniston, Abxaziya) qo'yishadi. Sababi an'anaga ko'ra mehmonga go'shtli taomlarni uning huzurida qilishadi. Bu paytda mehmon ochlik sezmasligi uchun dasturxonga qo'yigan oziqlardan tamaddi qilib oladi.

Qovurilgan go'sht, kabob-ozarbayjonchada, gruzinchada-mivadi, arman tilida-harovits hozirga hdar Kavkazda mehmonga qo'yiladigan va marosim taomi hisoblanadi. Qaynatilgan go'shtni, go'shtli taomlarni ziravorlar, achchiq qaylalar bilan eyish ham umumiy taomga aylanadi. Mehmonlarga qaynatilgan go'shtni tortilganda an'anaga ko'ra uning qaysi qismlari e'zozli bo'lsa oqsoqollarga yoki ijtimoiy toifasiga, yoshiga qarab tortish odati saqlanmoqda. Qaynatmaning suvidan turli taomlar-sho'rvalar qilinadi.

4. Ijtimoiy munosabatlar. Kavkazoldi xalqlari ajdodlari uzoq tarixiy yo'lni –ibtidoiy jamiyat, qulchilik (bu haqda ayrim olimlar o'z shubhalarini bildirmoqdalar), feodalizm (barcha etnoslar emas) va kapitalizm bosqichlarini boshdan o'tkazdilar. Mahalliy xalqlarda XIX asrda feodal, hatto patrialxal munosabatlarunsurlari saqlanib qolgan. Xususan Gruziyada krepostnoy qaramlik davom etgan. Kavkazoldida-podshilik, xonlik va knyazliklar tarzidagi davlat tashqi lotlari mavjud edi. Qishloqlarda feodal er egaligi munosabatlari saqlangan. Ilgaridan ta'sirli savdogarlar toifasi (ayniqsa armanlarda)

shakllangan.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishi ko'p sonli hunarmandlar toifasiga ehtiyoj tug'dirgan, ular sexlarga birlashganlar (Gruziyada), bir qismi esa qishloq dehqonlari jamoasiga kirgan.

Kavkaz xalqlarining barchasi uchun dehqonchilik jamoalari xususiyatli bo'lgan. Ayni paytdi jamoa tizimiga ko'pganli qarindoshlar jamoasi birlashtirgan murakkab tarzdagi oilaviy munosabatlar (patronimiya) chirmashib ketgan. Yirik patriarxal oilalar katta yoshdagi erkaklar xukmronligi tasavvurlari ruhida tarbiya, qarindoshlik o'zaro yordam muqaddas prinsiplari va majburiyatlari, qon uchun xun olish (o'ch olish)ning majburiy odatligi (masalan abxazlarda) haqidagi an'analarni saqlab kelishgan. Shimoliy Kavkazdagi singari Kavkazda ham otaliqlar odati tarqalgan. Bu odat bilan megrellar va abxazlar oilalari bog'langan edi. XIX asrdan otaliqlikningyangi turi yuksalib 9-10 yoshli bolalarni 1-2 yilga boshqa millat vakili oilasiga berishgan. Bola ushbu davrda oila a'zolariga yordam berish barobarida ularning tillarini ham o'rgangan. XIXasr oxirida megrellar o'g'illarinirus oilalariga til o'rganishga berishgan. Qo'noqlik (birodarlik) va milliy aralash nikohlar orqali XIX-XX asrlarda o'lkada madaniyatlar integratsiyasi jarayoni kechgan. Bunga deyarli ikki asr davomida davlatlar orasida chegaralarning bo'lmasligi ham ko'mak bergan. XX asrning 80-yillaridan boshlab tog'li Qorabog' aftonom viloyatdagi etnik mojarolar kuchayib Armaniston va Ozarbayjon orasidagi ochiq urushga aylandi. Tog'li Qorabog' o'zini Armaniston tarkibiga o'tganligin e'lon qiladi. Ushbu muammo xaligacha o'z echimini topgani yo'q. Yuz minglab Qorabog'li ozarbayjonlar qochoq sifatida yashashga majbur bo'lib kelmoqdalar.

Oila yoshlarda o'zini qanday tutish qoidalarini tarbiyalagan, erkak va ayollar turli ijtimoiy rollarni bajarishlari prinsiplarini singdirgan. Urf-odat, udumlarga qat'iyan rioya qilish lozimligini uqtirgan.

To'y va dafn marosimlari tug'ilish va unga ism qo'yish bilan bog'liq udumlarga ham rioya qilingan. Odatda nikoh to'ylari sovchilik orqali amalga oshirilgan. Lekin to'ydagi katta harajatlarga qurbi etmaydigan oilalarda kelinni olib qochish hollari ham uchragan. Ozarbayjonlarda chaqaloqligida unashtirish hollari ham bo'lgan.

Ozarbayjonlarda yigitlar nikoh yoshi 18-20, qizlarniki 17-18 yosh bo'lgan. Gruzinlarda har ikki jins vakillari uchun nikoh 19-25 yosh bo'lgan. Armanlarning ko'pchiligida nikoh yoshi ham deyarli shu tarzda bo'lsada erta nikohlar ham uchrab turgan. Xristianlikka mansub aholida oilalar monogam ko'rinishda bo'lgan. Musulmonlarda ko'p xotinlikka ruhsat bo'lsada amalda faqat boylar, savdogarlarda poligamiya holatlari uchragan.

Nikoh marosimi ko'p vaqt davom etaidgan tizimi va ishtirokchilari murakkab tarkibli marosimdir. Gruzinlarda to'y rahbari-ejibi tayinlangan. Ozarbayjonlarda kuyov tomon kelin uchun boshliq deb nomlangan qalin puli to'lagan. Bu haqda nikoh shartnomasida-kebin kelishib olingan.

To'y va boshqa diniy marosimlar, bayramlar odatda jamoatchilik uchun muhim voqea hisoblangan. Ularda faqatqarindoshlar, qo'shnilar emas, jamoaning talay qismi, butun qishloq aholisi yoki mahalla ahli ishtirok etgan.

5. Dinlari, folklor, professional badiiy madaniyat. E'tiqodlari va udumlari. Kavkazoldi xalqlarining rasmiy dinlari xristianlikning turli mahzablari va islomdir. Ayni paytda aholisining ma'naviy madaniyatida xo'jalik faoliyati bilan bog'liq arxait diniy tasavvurlarva udumlar ham saqlangan. Xususan armanlarda yil davomidagi 79 ta bayram kunlaridan oltitasi dehqonchilik ilohlari bilan bog'liq bo'lib, ular orasida Vardavar qadimgi ma'jusiylik suv xudosi Vardga bag'ishlangan. Abxazlar, gruzinlar (svanlar, xevsurlar) hozirga qadar ov va baliqchilik hamet ilohlari nomlarini biladilar. O'rmon ilohi yoki ilohasi, o'rmon kishisi haqidagi xalq ertaklari o'tmish va hozirgi turmushning uzviy qismidir. Muqaddas o'rmonlar yoki alohida daraxtlar, toshlar, buloqlar bugungi kunda ham dunyo dinlaridan kam e'zozlanmaydi. Ularning yonida, shoxlarida bog'langan tasmachalar, ro'mollar va boshqa narsalarni ko'ramiz. Insonlar ushbu joylarda o'z ehtiyojlariga chora so'rab qurbonliklar qilishadi. G'arbiy Gruziyada yaqin-yaqinlargacha qishloqlardan birining yaqinida aholining ma'jusiy diniy bayramlari o'tkazilgan. An'anaviy arxaik dinlar bilan bog'liq muqaddas joylarni tartibda saqlanishi uning atrofidagi maydonga ishlov berish jamoaning vazifasi hisoblanadi.

Ozarbayjonlarda ma'jusiy diniy tasavvurlar islom bilan chirmashib ketgan. Xalq e'tiqodiga ko'ra 21 fevraldan 21 martga qadar tabiatdagi barcha tirik va o'lik narsalar qishki uyqudan uyg'onadi. Avval havo uyg'onib iliq shamol esadi, u daraxtlarni kurtaklarini uyg'otadi. Undan keyin suv uyg'onib, uchinchi haftada er, to'rtinchi haftada- havo iliydi. Ushbu oy davomida chorshanba arafasidagi barcha kunlar bayram hisoblangan. Aholi gulxanlar yoqib yoshlar uning ustidan sakrab o'tganlar. So'nggi chorshanba Yangi yil-Navro'z bayramining xabarchisi sanalgan Ozarbayjonlar olovni tabiatning eng toza va muqaddas hodisasi deb hisoblanganlar. Toshlarga davolash xususiyatini berib, suvni o'z ajdodlari hisoblashgan. XX asr boshlariga qadar su jedim (suv mening ajdodim) nomli bayram bo'lib, shu kuni bir-birlariga suv sepishgan.

Folklor. Kavkazoldi xalqlari og'zaki ijodi ildizlari qadim zamonlarga ketadi. Gruziyada uning tarqalishiga mestvire-qo'shiqchi xalq qo'shiqlarini stviri musiqa asbobi jo'rligida ijro etuvchilar xizmat qilishgan. Ozarbayjonda xalq an'analarini asrovchilarni ashuchi, sazandari deb atashgan. Ularning ijodlari repertuari turli mavzularni natil (ertaklar) va qo'shiqlardan: lirik, guzelleme (maqtov), ustadname deb nomlangan o'git, nasihat qo'shiqlarini ijro etishgan.

Gruzin folklorining eng qadimgi namunaliridan biri-Amirani haqidagi doston. Unda bosh qahramon ovchilik ilohasining oddiy ovichdan tug'ilgan o'g'li haqida kuylanadi.Armnalar o'rta asr dostoni "Sosun bahodirlari" ko'proq "Dovud Sosuniy" nomi mashhur. Unda Arman tog'lari aholisining ossuriyaliklar va rablarga qarshi o'z erki va ona tuprog'ida, vatanida egalik qilish uchun uzoq davom etgan kurashi tavsiflanadi. Kavkaz xalqlarining tarixiy taqdiri umumiyligi monumental doston "Kyor ogli" ("Go'r o'g'li") turli variantlari ozarbayjonlarda, arman, gurzin, qurdlarda, o'rta osiyoliklarda ham mavjud.

Ziyofatlardagi tostlarni ham folklorga kiritish mumkin. Madaniyatning ushbu sohasi Abxaziya va Gruziyada ayniqsa rivojlangan. Yana bir ajoyib san'at turi gruzinlardagi ertaklarning jo'r bo'lib qo'shiq aytishlaridir. Xalq san'atiga armanlarningpeylevani – ko'chma sirklari faoliyati (dorbozlar, gimnastlar, masharabozlari)ni ham kiritish mumkin. Bu sohaning kichik guruhlari bugungi kunda

ham badiiy havaskorlik sifatida saqlanib kelmoqda. Shunga o'xshash sirk guruhlari Gruziya va ozarbayjonda ham uchraydi.

Professional badiiy madaniyat. Kavkaz xalqlarida ko'p asrlik tarixga ega. Dunyo madaniyati durdonalari qatorida: XII asrda yashagan gruzin shoiri Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostoni, Ozarbayjon xalqning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviyning (1141-1209) "Hamsa"sini ko'rsatish mumkin. Arman she'riyatining buyuk asarlariqatorida Xachatur Abovyanning (1805-1848) "Armaniston jarohatlari" romanini ko'rsatish mumkin. Unda 1826-1828 yilgi rus-eron urushlari voqealari hikoya qilinadi.

Yozuvchi, rassomlar, musiqachilar va madaniyatning sohalari vakillarining ilgarigi va zamonaviy asarlari milliy ongning shakllanishi jarayonlarini o'zida mujassamlagan. Jumladan arman rassomi Martiros Saryak (1880-1935), ozarbayjon bastakori Uzsir Gadjibekov (1885-1948) yoki gruzin shoiri Galaktion Gabidzelar asarlari o'z xalqlari, etnoslari, ularning madaniyatlari ramzi sifatida qabul qilinadi.

6. Etnoslararo munosabatlarni murakkablashuvi. O'lkadagi etnoslararo munosabatlarni murakkablashuviga, undagi aholi etnik tarkibining murakkabligi, aholini ko'payib borishi tufayli yuzaga kelgan demografik muammolar hamda ekin uchun yaroqli erlarning tanqisligi asosiy sabablardir. Etnoslararo mojarolarning asosiy sababi deb iqtisodiy-demografik omil ko'rsatilmoqda. Aholining tez o'sishi hech qaysi respublikada oldindan hisob-kitob qilinmaganligiga yangi ishchi o'rinlari yaratilmagani aholi orasida yashirin ishsizlik, norozilik juda tez millatchilik tusini oldi. Xokimityadagi korrupsiya, uni xalqni keskin qashshoqlashuvini milliy muammolarni echilmaganiga yuklashi, siyosiy mahoratning yetishmasligi va siyosiy irodaning bo'lmasligi mojarolarni to'xtatishga emas, ularni kuchayishiga olib keladi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki etnoslararo mojarolar, murakkab etnik tarkibli Kavkaz uchun ham chorasiz voqealar emas, siyosiy iroda, iqtisodiy yuksalish shuningdek muammolarni hal etishga barcha aholini jalb etish orqali muammolar echimini topish mumkin. Mojarolar o'rniga konstruktiv xalqlararo hamkorlik boshlanishi


lozim, axir Kavkaz bu borada yaqin-yaqinlargacha shuhrat qozongan edi.

Savol va topshiriqlar.

1. Kavkazoldi aholisining etnik tarkibi va etnik tarixida qanday o'ziga xosliklar mavjud? Internet ma'lumotlarini jalb eting.
2. Ozarbayjonlar, armanlar, abxazlar, gruzinlar irqiy tiplari va tillari haqida nimalarni eslab qoldingiz?
3. Kavkazoldi aholisi xo'jaligidagi o'ziga xosliklar nimadan iborat?
4. Aholining an'anaviy kiyimlari qanday bo'lgan?
5. Kavkazoldiliklar taomlari, mehmonnavozligi haqida nimalarni bilasiz?
6. Kavkaz oldi aholisida ijtimoiy munosabatlar, o'tmishda va hozir.
7. Dinlari, folklor, badiiy madaniyatlari qanday?
8. Etnoslararo munosabatlardagi muammolarni internet m'lumotlari asosida so'zlab bering?

8-BOB.O‘RTA OSIYO VA QOZOG‘ISTON XALQLARI.

1. Hududi va mamlakatlari. Yevroosiyoning ulkan hududlari sharqda Pomir G‘rabda Kaspiy dengizi, shimolda Orol-Irtish suv ayirg‘ichi va janubda Eron va afg‘oniston bilan chegaradosh o‘lkalar O‘rta Osiyo deb nomlanadi. Uning talay qismini Qoraqum va Qizilqum cho‘llari egallaydi. O‘lkaning shimol va sharqiy qismida ham cho‘llar mavjud.



Janub va janubiy-sharqda cho‘l va dashtlar Tyan-Shan, Pomir va Kapetdog‘larning tog‘il massivlariga ulanadi. Tog‘ vohalari iqlimi cho‘l va dashtlarga nisbatan mo‘tadil bo‘lgshanidan ular qadim zamonlardan odamlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Vohalarda subtropik o‘simliklar ham o‘stirilmoqda. O‘rta Osiyo Jahon okeaniga chiqish yo‘liga ega emas. Kaspiy va Orol dengizlari amalda yirik qo‘llar xolos. Daryolar ko‘p emas. Etarlicha suv manbalari Qozog‘istonning shimoliy-sharqidagina mavjud. O‘rta Osiyoning asosiy daryolari: Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonlardir. Amudaryo va Sirdaryo o‘lkani janubiy-sharqdan shimoliy-g‘arb tomonga kesib o‘tadi. Il-

gari ular Orol dengiziga quyilgan. Bizning kunlarimizda Sirdaryo va Zarafshon suvlari deyarli to‘liq sug‘orishgataqsimlab olinadi. Daryolarning ko‘pchiligi o‘z suvini baland tog‘lardan va muzliklardan oladi. Cho‘llarda odamlar suvni quduqlardan olishib, ularning chuqurligi o‘nlab metrni tashqi l etadi. Daryolar bo‘ylab, tog‘oldi rayonlarida insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan eng unumdor vohalar joylashgan. Vohalar chegaralari doimiy bo‘lmay, tabiiy va ijtimoiy iqtisodiy omillar tufayli o‘zgarib turadi. Bugungi kunda O‘rta Osiyo hududi beshta davlat-O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonlarga bo‘lingan.

2. Etnik tarixi. O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi. Osiyo qit’asining bir qismi jahon sivilizatsiyasi shakllangan hudud bo‘lgani olimlar tomonidan tasdiqlangan Neolit davridan O‘rta Osiyo aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullana boshlagan. Bronza davridan shahar ko‘rinishidagi qo‘rg‘onlar, manzilgohlar vujudga kelgan. O‘lkaning dasht-cho‘l qismida ko‘chmanchi chorvachilik, vohalarda esa dehqonchilik tobora keng tus ola borgan.

Seleng‘urdan topilgan qadimgi odamlar manzilgohi o‘lkada ilk odamlar bundan 600-700 ming yil ilgari yashay boshlaganini tasdiqlaydi. Qo‘lbuloq yodgorligi ham bugungi kunda 300-400 ming yillik tarixga ega ekanligi aniqlangan. Ilk odamlarning qaysi o‘lkadan Sharqiy Osiyodanmi, Messipotamiyadan kelganligi xali fanda o‘z tasdig‘ini topganicha yo‘q. Arxeolog olimlar eneolit davri yodgorliklari Anov, Namozgoh, Oltintepaga Old Osiyodan kelgan olddavidlar asos solgan, ayni paytda shimolda Amudaryoning quyi oqimida urol tillarida so‘zlashuvchi aholi yashaganini faraz qiladilar. M.av. II ming yillik oxirlarida O‘rta Osiyoga kela boshlagan oriylar nim hind-evropa tillaridagi aholimi yoki oltoy-turk aholisi bo‘lganmi bu masadaso‘nggi o‘n yilliklarda tojik akademiklari da’vo qilib kelgan bo‘lsalar: bugungi kunda oriylar oldturkiylar (prototurklar) deb o‘zbek akademiyasi ham nazariya yaratish tashvishida. Professor S.P.Polyakov esa m.av. II ming yillikdan Yevroosiyo skifxorulari davri boshlanib, ular keyingi O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati, sivilizatsiyalarini yuksalishiga asos bo‘ldi deb hisoblaydi. Qanday bo‘lmasin m.av. IX-VIII asrlarda ilk davlatlar shakllanishi uchun sharoit etilib ulkadagi birinchi davlatlar Qadimgi Baqtriya va Katta

Xorazmlar bo‘lgan. Yozma mabaalarda aynan baqtriyaliklar, xorasmiylar, so‘g‘diylar haqida ilk eslatmalar uchraydi. Milodiy asr boshlaridan o‘lkaga kirib kelgan yuechxilar, xioniylar, kidariylar (toharlar), eftalitlar ham o‘z davlatlarini tuzib etnik jaryonlarga birmuncha ta’sir o‘tkazganlar.

O‘lka aholisi haqidagi ilk yozma manbalar xitoy yilnomalarida Eron ahamoniylari shoxlari bitiklaridar. Ularda o‘lkada yashagan etnoslar nomlari, ayrim tarixiy voqealar yozilgan. O‘rta Osiyoni m. av VI-IV asrlarda Ahamoniylar Eroni tarkibida bo‘lishi madaniyatda o‘z izini qoldirgani arxeologlarimiz tomonidan tasdiqlangan.

M.av. 329-327 yillari O‘rta Osiyoning janubiy hududlari yunon-makedon podshosi Aleksandr tomnidan bosib olinadi. Yunonlar istilosi va O‘rta Osiyoni Salavniylar, Yunon-Baqtriya tarkibida bo‘lishi mahalliy madaniyatiga ijobiy ta’sir etgan. M.av. I-IV asrlarda yuechxilar istilosi o‘lkani Kushon imperiyasi tarkibida bo‘lishi, buddaviylikning tarqalishi, hind madaniyatining me’morchilik va xaykaltaroshlikka ta’siri olimlar tomonidan e’tirof etilib, O‘rta Osiyo xalqlari tarixiga oid asarlarga kirgan. Ushbu davrda hukm surgan Qang‘ davlati (m.av. II – m.av. III asrlar) asosini turkiy qavmlar tashqi l etib undan mashhur “Qovunchi madaniyati” yodgorliklari saqlangan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki yurtimiz aholisi qadimdan turkiy va eroniyzabon elatlar hamda qabilalardan iborat bo‘lgan.

Turklar. O‘rta Osiyo aholisi etnik tarkibiniturkiylashida katta bosiqch Turk xoqonligi davri bo‘ladi. Milodiy VI asrning o‘rtalaridan VIII asrning boshiga qadar xoqonlik hukm surgan davrda o‘lkadagi aholi faqat qishloqlarda emas shaharlarda ham turkiy tilda so‘zlasha boradi. Turk xoqonligi dastlab g‘arbda Qora dengizdan sharqda Koreya ya.o. ga qadar ulkan hududlarni egallagan. O‘rta Osiyo VI asrning oxiridan G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. Ashina, dulu, mushibi , az, uz va h.k. elat va qabilalar tarixi aynan o‘sha davrlardan boshlangan.

Arablar. O‘rta Osiyo xalqlari etnik keyingi tarixining bosqichi VIII asrning boshida Arab xalifaligi istilosi bilan aloqador. Ushbu istiloning tarixga ta’siri masalasi hali oxirigacha tadqiq qilinmagan, lekin O‘rta Osiyoning xalqlari ma’naviy madaniyatida o‘lkada tarqalgan islom dinining ahamiyati beqiyosdir.Istilo oqibatida o‘lkaning

yirik shaharlariga Xurosondan o‘n minglab arablar va arablashgan xurosonliklar ko‘chirib kelindi. O‘tgan 13 asr davomida shbu aholi turkiylar va tojiklar bilan assimilyasiyalashib bugungi kunda O‘rta Osiyo arablari nomi bilan ayrim viloyatlarda kompakt boshqalarida mahalliy aholisiaralash yashamoqda. Milodiy I-II ming yillik chegaralarida O‘rta Osiyodagi ikki xo‘jalik-madaniy til o‘troq dehqonchilik aholisi va cho‘l-dasht ko‘chmanchilarining yaqinlashuvi kuchayadi. Til ularda muammo bo‘lmagan aholi aralash yashagan hududda ham turkiy forsiy-doriy tillarini bilishgan. Doriy tili aksari vohalarda va shahar aholisida kengroq tarqalgan.

Qoraxoniylar, saljuqiylar, mo‘g‘ullar. Arablar istilosidan ma’lum muddat o‘tib o‘lkada dastlab Somoniylar, so‘ng Qorluq-qoraxoniylar, Xorazm davlatlari shakllangan.Mamlakatda fan, san’at yuksalib xo‘jalik barqrorlashadi.

Milodiy I-II ming yilliklar chegarasida o‘lka aholisining etnik mansubligi oxirigacha aniqlanmagan, sababbi turli qabila, elatlardan iborat bo‘lgan. Aholi turkiy, so‘g‘d, doriy tillarida so‘zlashsa, ilm-fan tili arab tili hamda yozuvi bo‘ladi. X asrda O‘rta Osiyodan g‘arbga Kaspiy dengizining janubiy sohili bo‘ylab ko‘chmanchi o‘g‘uzlar haraati boshlanadi. Ular Saljuqiylar davlatiga asos solib (1038 y) ko‘p o‘tmay Eron, Iroq, Kavkazorti hozirgi Turkiya hududlarini bosib oladilar. Istilolar mahalliy aholini turkiylashtirish siyosatini yuritilishi bilan xususiyatlanadi.

XIII asrning boshlarida O‘rta Osiyo Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar istilosiga uchrab, shaharlar dehqonchilik vohalari vayronqilinadi. Ayni paytda o‘lkaga turk-mo‘g‘ul qabilalarining ko‘chib kelib joylashishi davom etadi.

Aynan XIII asrdan aholining irqiy jihatdan mo‘g‘ullashuvi haqida fikr mavjud. Bugungi kunda qozoqlar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar va qisman o‘zbeklarda mongoloidlik xususityalari mavjud.

Amir Temur va Temuriylar davri. Turkiy tilli qabila va elatlarning O‘rta Osiyoga kirishi asrlarda ham davom etadi. O‘lkaning o‘rta asrlardagi eng yuksalgan davri buyuk Amir Temur (1336-1405) faoliyati va u tuzgan ulkan davlat davri bo‘iadi. O‘lkamizdagi eng mahobatli madrasalar, saroylar, maqbaralar aynan Amir Temur va Temuriylar davrida bunyod etilgan. Fan va madaniyat yuksak

cho‘qqilarga erishgan xalqimizning etnik shakllanishida muhim bir bosqich asrlar davomida faxrlanadigan jarayonlar davri bo‘ldi.

O‘rta asrlarda o‘lkaning asosiy xalqlari- o‘zbek, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg‘izlar va uyg‘urlar shakllangan.

O‘zbeklar. O‘zbek xalqining shakllanishida ikki asosiy komponent vohalarining qadimga o‘troq dehqonchilik turkiy va eroniy tilli aholisi hamda chorvador turkiy tilli O‘rta Osiyoning cho‘l-dashtlari etnoslari qatnashgan. O‘zbek xalqining shakllanidagi xosligi bu jarayonlarni o‘zaro tutash hududlarda tojik xalqi bilan bir paytdasodir bo‘lganidadir. O‘rta Osiyo vohalarida o‘zbek etnonimi mustahkamlangan. Tarixda shayboniylar, ashtarxoniylar davlatlarini o‘zbek xonliklari deb atalishi ham shundan dalolat beradi. Demak etnonimning shakllanishi xalqimizning shakllanishidan bir necha asr keyin sodir bo‘lgan.

O‘zbeklar va tojiklar o‘z asosida qadimgi o‘troq dehqonchilik aholisini bo‘lishi tufayli o‘zaro yaqin madaniyat yaratganlar. Mavjud tafovutlar ko‘pincha milliy emas balki hududiy omillar tufaylidir. Ba’zida o‘zbek va tojiklar orasida madaniy o‘xshashliklar (masalan Farg‘ona vodiysida), o‘zbeklarning turli viloyatlari aholi guruhlarida (jumladan Xorazm yoki Janubiy viloyatlarda)giga nisbatan ko‘proq. XX asrda o‘zbek qishloqlarini tojik tiliga, tojik qishloqlarini o‘zbek tiliga o‘tganligihaqida tarixiy ma’lumotlar mavjud. O‘zbekistonning voha va vodiylari tog‘ va tog‘oldi hududlari aholisi bugungi kunda yagona millat vaikli deb hisoblar ekan ushbu etnonimning mustahkamlanishi XX asrning 20-yillaridan boshlangan edi.



Tojiklar. Tojiklarning shakllanishida ham O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ining –qadimgi o‘troq dehqonchiligi aholisi-so‘g‘diylar, baqtriyaliklar, farg‘onaliklar ishtirok etganlar. Bugungi kunda tojiklarning ikki katta guruhi ajralib turadi. Ulardan iri shaharlar va pasttekislikdagi vohalar aholisi bo‘lsa, ikkinchisi tog‘liklardir. Tojiklarda bir necha etnografik guruhlar bo‘lib ular xo‘jalik-madaniy tiplari va madaniy taraqqiyoti bo‘yicha farqlanadilar. Zamonaviy Tojikistonning eng katta muammolaridan

biri ekinga yaroqli erlarning cheklanganligidir. Demografik vaziyat tug‘ilishning yuqori ekanligi tufayli murakkab vaziyatni vujudga keltirmoqda. Xususan shimoliy Tojikistonda so‘nggi yuz yilda aholi soni 11 martaga ko‘paygani vaziyatga etarlicha izoh beradi.

Turkmanlar. O‘rta Osiyoning g‘arbiy hududlarida etnik jarayonlar turkman xalqining shakllanishiga olib keladi. Kaspiy bo‘yi cho‘llari ko‘chmanchi aholisi va Kopetdog‘ning adirlari o‘troq dehqonchilik aholisi, sharqdagi qo‘shnilariga nisbatan o‘zlariga turkiy tilli ko‘chmanchilar ta’siriga ko‘p uchramaydi. Zamonaviy Turkmaniston aholisi mo‘g‘ul irqi ta’siriga ham kam uchragan. Turk tili va mo‘g‘ul irqiy tili Turkmanistonga bilvosita turkiy til va mo‘g‘ul qiyofali, o‘tmishda eron tilli bo‘lgan evropeoid qiyofali ko‘chmanchi chorvadorlardan o‘tgan.

Qozoqlar. Etnik tarixi ham turli voqealar bilan boy, qozoqlarning shakllanishida ham O‘rta Osiyodagi xalqlarning vujudga kelishida qatnashgan etnik guruhlar, qabilalarning qipchoq, nayman, qo‘ng‘irot, toma va boshqa qabilalar qozoqlardan tashqari o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar tarkibiga ham kirgan. Qozoqlarning shakllanishi Kaspiy dengizidan Turkistonga qadar ulkan hududlarda bo‘lgan. Ushbu zona aholisi geografik joylashuviga ko‘ra sharqdan kelgan ko‘chmanchilarni birinchi bo‘lib uchratganlar. Turkiy tilli keiynroq mo‘g‘ul qiyofali aholining bosiqnchilari aynan qozoqlar antropologik xususiyatlarida mo‘g‘ullik belgilarini ko‘p bo‘lishiga olib keladi. Qolaversa qozoqlarda Qadimgi o‘troq evropeoid irqiga mansub dehqonchilik aholisi bilan aralashish imkoni bo‘lmagan.

Qirg‘izlar. Ularning etnik tarixi birmuncha kam o‘rganilgan va muammoli jihatlari ko‘pdir. O‘rta Osiyo xalqlari orasida mo‘g‘ullik xususiyatlari yaqqol ko‘rinadigan xalq aynan qirg‘izlardir. Qozoqlar va qirg‘izlar orasidairqiy tafovutlarni izohlash mushqul, sababib har ikki xalqni xo‘jaligi ham, moddiy madaniyati ham ko‘plab umumiylikka ega. Bu borada qirg‘io‘larni Osiyoning ushbu qismida m.av. II ming yillikda shakllangan yirik ko‘chmanchilar massivining bir bo‘lagi sifatida qarash mumkin. Unga qadar Qirg‘iziston hududidagi turkiylashgan qabilalar mo‘g‘ul tilli guruhlarni kuchli ta’siriga uchragan. Ushbu qabilalar Qozog‘istonning janubiy hududlarida ko‘chmanchilik xo‘jaligi yuritib, o‘z xususiyatlarini uzoqroq saql-

aganlar. Qrg'iziston hududida katta birlashtirish iqtisodiy markazi vazifasini bajaruvchi vohalar ham bo'lmagan.

Qoraqalpoqlar. Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi XVII-XVIII asrlarda hozirgi Orol dengizi va Amudaryoning quyi qismida turkiy qabilalar: qo'ng'irot, qipchoq, qang'li, nuxuz va boshqalarning birlashuvidan bo'lgan. Dastlab chorvachilik bilan shug'ullangan qoraqalpoqlar keyinchalik o'troq turmush tarziga o'tib dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlaydilar. XVI asrdan qoraqalpoqlar birlashmalari Sirdaryoning quyi oqimi tomon siljiy boshlaydi. Qoraqalpoqlarni shakllangan etnos deb XVIII asrdan hisoblash mumkin.

Uyg'urlar. Uyg'urlarni ham O'rta Osiyoning aborigen (mahalliy) guruhlari safiga kiritish mumkin. Ular Qozog'iston va O'rta Osiyo chegaralarida yashaydilar. Uyg'urlar qadimiy yozuv madaniyatiga ega bo'lgan, turkiy tilda so'zlashadigan xalqdir. Ularning xo'jaligi asosini yuqori unumli sug'orish dehqonchiligi tashqi l etadi. Uyg'ur etnonimi yig'ma nom bo'lib XX asrning 20-yillarida qoshg'arlik, turfonlik taronchilik, yorkendlik, kucha va bamilik tuokiyzabon aholiga nisbatan ishlatila boshlangan.

Boshqa etnik guruhlar. O'rta Osiyo va Qozog'iston aholisi etnik tarkibi o'lkani XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi istilo qilganidan so'ng katta o'zgarishlarga uchradi. Ruslar, ukrainlar, beloruslar, boshqirdlar, qozon tatarlari ko'chib kelibjoylasha boshlaydi. Sovet tuzumi davridao'lkani deportatsiya qilingan xalqlar: koreyslar, nemislar, chechenlar, qrim tatarlari, ingushlar, qalmiqlar, qorachoylar surgun o'lkasiga aylantirishgan.

Sovet davlati 1991 yili parchalangach rusiyzabon aholi Rossiyaga ko'cha boshlab, O'rta Osiyo va Qozog'istonda etakchi etnoslar foizi ancha ko'tarildi. Sovet tuzumi davrida o'lkada rus tili xalqlararo muloqot tiliga aylangan edi. Bugungi kunda etnik rus tilini yaxshi bilmaslik mehnat emmigarsiyasida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

2. An'anaviy va zamonaviy xo'jalik.

Etnolog olimlar O'rta Osiyoning XIX-XX asr boshlaridagi an'anaviy xo'jaliklarini uchta tipga bo'lib, ular etnik chegaralarga mos kelmaydi. Bu o'troq dehqonlar - o'zbeklarning katta qismi va

tojiklar, turkmanlar hamda uyg'urlar, qoraqalpoq va qirg'izlarning bir qismi; nihoyat yarim o'troq yaqin o'tmishda dehqon-chorvadorlar, vohalar chekkalarida yashovchi – qoraqalpoq, o'zbek va turkmanlarning bir qismi, qozoq va qirg'izlarning bir guruhidir.

Sug'orma dehqonchilik. O'rta Osiyo arid (quruq-qurg'oqchil) zonaga kiradi. Iqlim sharoiti hududning tekislik qismida sun'iy sug'orishsiz dehqonchilik qilish imkonini bermaydi. Natijada ekin maydonlariga suvni etkazish uchun turli xildagi irrigatsiya inshootlari qurish talab qilinadi. Osiyoning ushbu qismiga dehqonchilik m. av. V ming yillikdan buyon ma'lum. Milodiy I ming yillik o'rtalariga qadar ekin yetishtirish mumkin bo'lgan barcha maydonlar o'zlashtirilgan. Suv kanallar va ariqlar yordamida o'nlab kilometr masofalarga olib borilgan. Ko'plab yirik kanallar m. V asrda qurilgan. Eng yirik kanallar sho'rolar davrida bunyod etilgan Katta Farg'ona kanali 345 km., Qoraqum kanali (Turkmaniston) 500 km., o'nlab suv omborlarining bunyod etilishi "Orol fojeasi"ga sabab bo'ldi.

Mahalliy dehqonchilik asosi sug'orish tizimi doimo ko'p mehnat talab etadigan tizim bo'lgan. Tog'li va tog'oldi hududlarida sug'orish tizimi miqyoslari bo'yicha ancha kichik bo'lsada, to'g'onlar, korizlar, suv omborlari qurish ham og'ir mehnatni talab qilgan. Hozirga qadar o'lkada, xususan O'zbekistonda lalmi dehqonchilik bilan aynan tog'oldi adirlarida shug'ullanishadi.

O'rta Osiyo dehqonlari turli qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtiradilar. XX asrda asosiy ekin - paxta edi. Mustaqillik yillarida paxta maydonlari qisqartirilib, meva, sabzavotYu ayniqsa g'allachilik, sholikorlikka katta e'tibor qaratila boshlandi. O'lkaning mevalari uzum, olma, nok, gilos, anor, o'riklari uzoq-yaqin mamlakatlar aholisiga etkazib berilmoqda. O'rta asrlarda Xorazm qovunlarini Bag'dodga eltganlari manbaalarda yozilgan.

Rossiya istilosiga qadar O'rta Osiyoda asosiy ekinlar – boshoqli bug'doy, arpa, suli, makka va hokazolar bo'lib, natural xo'jalik sharoitida eng avvalo oilani asosiy oziq non bilan ta'minlash zarur edi. Paxta yakkahokimligi sovet tuzumi davrida shakllanib bu borada o'zbek xalqi ayniqsa qattiq aziyat chekdi. Bugungi kunda paxtaga ehtiyoj, bozor narxlari past-balandligi ta'sir etib, xususan O'zbekistonda 1 mln. tonna atrofida tola yetishtirilmoqda.

XX asrning boshlariga qadar qishloq xo'jalik mehnat qurollari sodda va unumdorligi past bo'lgan. Masalan omoch bilan erni haydabdash uchun bo'yiga va ko'ndalangiga bir necha marta yurilib, so'ng borona, mola bosilgan. Qo'shga, molaga ho'kiz, ot, eshak ayrim joylarda tuyalarni qo'shishgan. Don qo'l bilan sepilib, hosil o'roqlar bilan o'rilgan. Dehqonchilikdagi asosiy mehnat qurollari: bel (lopata) va ketmon hozirgi kunga qadar barcha er ishlarini bajarish imkonini beradi. Sug'orma dehqonchilikda kanallar va ariqlar qurish, ularni ta'mirlash va tozalash, dalalarni sho'rdan yuvish, ikki-uch marta omochlash, sug'orish lalmi dehqinchilikdagi mehnatdan olti marta ko'p kuch sarflashga to'g'ri kelgan.

Ko'chma chorvachilik. O'rta Osiyodagi ikkinchi xo'jalik faoliyati turi asr boshlariga qadar ko'chma chorvachilik bo'lgan. U xo'jalik sohasi sifatida cho'l-dasht zonalarida shakllangan. Ko'chma chorvachilik bilan qozoqlar, qirg'izlar, o'zbek va turkmanlarning bir qismi ulkan cho'l, dasht va tog'larda shug'ullanganlar. Ulardan ko'chmanchi chorvachilikda mavsumiy yaylovlar bo'ylab ko'chib yurish, butun yil davomida faqat yaylovdagi o't-o'lanlar bilan mollarni boqish nazarda tutiladi.

O'rta Osiyo va Qozog'istonda chorvachilikning uch turi: meridional, vertikal va statsionar chorvachiliklari bo'lgan. Chorvachilikning turi jamoalardagi ijtimoiy omillar (xo'jalikdagi chorva soni, tabiiy geografik sharoitlar) bilan belgilangan. Yashash sharoiti ba'zida ko'chma chorvachilik turini belgilovchi asosiy vosita bo'ladi. Ushbu nuqtai nazardan ko'chma chorvachilikni turlarga bo'lish shartli ravishda bo'lishi ravshan. Aksari tabiiy omillar ta'sirida chorvadorlar molni boqish tizimiga talay o'zgarishlar kiritishlari mumkin. Dala tadqiqotlari paytida axborotchilardan Xo'jamqul bobo Jo'liev 1917 yildagi qurg'oqchilik paytida otni jonini saqlab qolish uchun ajriqni tomirini kavlab berganlarini eslagan edilar.

Meridional ko'chmanchilikning mazmuni chorvadorlarnig qishki manzillari ular harakatlanadigan hududlarning eng janubida bo'lgan. Bahor kelishi bilan chorvadorlar mollarini shimol tomonga yaylovlarning o't-o'lanlari o'sishiga qarab siljiganlar. Yozni eng shimoldagi o'tloqlarda o'tkazganlar. Kuz yaqinlashishi bilan janubga yuzlanganlaryu Chorvadorlar uchun eng qadrli manzil mollarni

eson-omon sovuqdan asrab qolishi zarur bo'lgan qishlovlar edi. Ko'chish yo'nalishi suv manbaalari joylashishiga qarab aniqlangan. Eng uzun masofaga qozoqlar ko'chganlar. Ular qishni janubda o'tkazib, bahorda qo'zilatish kampaniyasi tugagandan so'ng shimol tomonga siljiganlar. Mollarning turi: ot, qo'y, tuyalar soni ko'p asrlik tajriba asosida belgilangan. Qishda er muzlaganida yaylovlarda dastlab otlar qo'yilgan. Ular muzni maydalaganlaridan so'ng qo'ylar haydabdalgan. Odatda bitta ot tuyog'i bilan ochgan maydon oltita qo'yga emish bergan.

Vertikal ko'chma chorvachilik tog'li hududlarda qo'llanilgan. Qishni chorvadorlar sovuq shamollardan pana chorva qorni ostidan emish topa oladigan tog' vodiylarida o'tkazganlar. Kunlar isishi bilan chorvadorlar alp o'tloqlariga ko'tarilib unda yozni o'tkazadilar. Sovuq tushishi bilan mollar vodiylardagi qishlovlarga haydabdab tushiriladi. Tog'li Pomir aholisi ushbu chorvachilik turini qo'toslarni boqishda qo'llashadi. Tog'da odatda tuyalar boqilmaydi.

Statsionar chorvachilik eng qurg'oqchil rayonlar – Turkmaniston, O'zbekistonning janubida, Mang'ishloq ya.o. da qo'llaniladi. Ushbu chorvachilik turida mollar eng kam harakatlanadi. Qishni chorvador qumliklar yoki tog' vodiylarida yerda qor turmaydigan chorva emish topa oladigan joylarda saqlanadi. Yozda chorvani qishlovdan bir kunlik masofada boqib 1-2 kunda sug'orish uchun haydabdab kelishgan. Turkman chorvadorlarining faxri va alohida munosabati yilqilarga qaratilgan. Axaltekin yilqilari eng mashhur ot zotlaridan biridir. Yana bir ot zoti – yomud axaltekinga nisbatan kam tarqalgan.

Kompleks xo'jalik. Kompleks yoki yarim o'troq xo'jalikni yirik vohalar atrofida, qo'l va dengizlar sohillarida olib borishadi. Bu joylarda ko'chma chorvachilik, dehqonchilik yoki baliqchilik bilan qo'shib yuritilgan.

O'rta Osiyo aholisiga yana bir unumdor kompleks xo'jalik turi – yaylov chorvachiligi ham ma'lum. Unda o'troq dehqonchilik aholisining bir qismi ixtisoslashgan chorvachilik, asosan qo'ychilik bilan shug'ullanadilar. Yozda aholining bir qismi chorva bilan tog' yaylovlariga jo'naydilar. Qolgan aholi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'ladi. Qishda chorva qaytib qishloqlar tevaragida boqiladi. Chor-

vachilikning bu turida chorvaga qishda edirish uchun em-xashak tayyorlash kerak bo'ladi.

Uy va ixtisoslashgan hunarmandchilik. O'rta Osiyo xalqlarining ishlab chiqarish faoliyatlarida dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda uy va ixtisoslashgan hunarmandchilik alohida o'rin tutgan. O'lkada ikkinchi muhim mehnat taqsimoti hunarmandchilikni dehqonchilikdan ajralishi jez hamda temir asrlarida sodir bo'lgan. Hunarmandchilik ishlab chiqarishivohalarda-shaharlar yirik qishloqlardajamlangan, sababi bu joylarda haftasigahech bo'lmaganda bir marta katta bozor o'tkazilgan. Shaharlarda har bir hunar ustalarialohida mavzelarda: to'quvchilar, temirchilar, ko'nchilar, etikdo'zlar, duradgorlar, misgarlar va boshqa kasb ustalari mahallalalari bo'lgan. Hozirda ekologik jihatdan zararli hisoblangan ko'nchilar, temirchilar, duradgorlar, qulollar ustaxonalari shahar chekkasida joylashtirilgan.

O'rta asrlar hunarmandchiligi sohani juda kichik sohachalarga ixtisoslanishi bilan xususiyatlangan, jumladan qulolchilikda xumlar, ko'zalar yasash alohida, uy-ro'zg'or buyumlari lagan, tovoq, choynak, piyolalar yasash boshqa ustalar tomonidan tayyorlangan. To'qimachilikda matoning ma'lum xilini tayyorlash yoki bo'yoqlarni ma'lum rangli iplarni tayyorlashga ixtisoslashuvi, temirchilikda taqachilar, o'roq yasovchilar, ketmon, omoch tishi tayyorlovchilar kasb-korlari shakllangan. Ustalar kasbiga qarab sexlarga birlashgan. Sex boshlig'i-oqsoqol barcha hayotiy masalalarni echishga mutasaddi bo'lgan. Sex faoliyati risola orqali olib borilgan. Odatda kasb otadan o'g'ilga o'tgan, farzand shogirdligi davomida o'z kasbini noziq jihatlarini egallagan. Bugungi kunda hunarmandlar birlashmalar o'z ahamiyatini yo'qotgan. Ayni paytda mustaqillikka erishilgandan so'ng xorijiy turizm bilan to'y-tantanalari bilan bog'liq hunarmandchilik turlari yangi yuksalishini boshdan kechirmoqda. Xususan O'zbekistonda zardo'zlik, pichoqchilik, qulolchilik sohalari yangi yuksalish davriga kirmoqda.

Ko'chma chorvachilik xo'jaliklarida alohida hunarmandchilik ishlab chiqarishi bo'lmagan. Har bir oilada zarur buyumlar-kigiz, jun matolar tayyorlangan. Kiyim-kechaklar tikilib, otlar uchun egar anjomlar qilingan. Turkmanlarda gilamdo'zlik alohida ahamiyatga

ega bo'lgan. Gilamdo'zlik tarixi hali yaxshi o'rganilmagan. Lekin gilamlar saklar, skiflar davrida ham bo'lgani tasdiqlangan. Bu uy hunarmandchiligi mahsuloti yuksak baholanadi. Ehtimol gilamdo'zlik tog'oldi mintaqasida vohalar va cho'llar chegarasida yashagan aholida vujudga kelgandir. Bu borada gilamdo'zlikni paydo bo'lishi va yuksalishi uchun ko'chishlar nisbatan kam, lekin jun mo'l bo'lishi uchun ko'p sonli qo'ylar otarlari bo'lishi talab etilgan. XIX asrda gilamlar qabilalar gerbi(tamg'asmi) edi. Gilam kashtasining asosiy elementi gyol-har bir qabilada o'ziniki bo'lgan. Agar qabilalar urushida g'olib chiqqan tomon mag'lub qabilaga o'z gyolini solishga majbur etgan.

Xo'jaliklararo munosabatlar. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari xo'jalik mashg'ulotlarini majmui o'lkani tabiiy sharoitlaridan to'liqroq foydalanish imkonini beradi. Chorvador-ko'chmanchi dehqonlar tetishtirgan don-unsiz yashay olmaydilar. Chorvadorlar oziqlari asosini ko'pchilik o'ylaganidek go'sht emas, sut-non mahsulotlari tashqi l qiladi. Cho'llardagi yaylovlar barcha aholiga etarli go'sht etkazib berishga imkon beradigan chorvani boqish uchun etarli emas.

O'z navbatida dehqonchilik vohalari chorva mahsulotlari, transport vositalir uchun ot, tuyalar, juni, terisi uchun qo'y va echkilarga doim ehtiyoj sezganlar. Chorva hisobiga ko'chmanchilar dondan tashqari metall buyumlar, paxta gazlama va boshqa hunarmandchilik buyumlari olganlar. XX sanoat asrida dehqonlar va chorvadorlar orasidagi munosabatlar keskin o'zgardi. Bugungi kunda oziq mahsulotlarining ko'pchiligi do'konlar, bozorlar orqali etkazib beriladi, lekin bu xo'jalik aloqalari butunlay yo'qoldi emas.

Etnodemografik muammolar. O'lkaning xo'jalik sohasidagi bir xilligi, hayotda ham o'xshash muammolarni tug'diradi. Bu eng avvalo aholi sonida kuzatiladi. Rossiya istilosidan so'ng o'zrao urushlarga barham berilishi, o'lkani bozor iqtisodiyotiga tortilishi xo'jalik faoliyatini jonlantirib, ocharchilik va epidemiyalar sonini kamayishi aholi sonini asta-sekin ko'payib borishiga olib keladi. Sovetlar tuzumi davrida turli yuqumli kasalliklarepidemiyalariga qarshi kurash, shaharlarda toza ichimlik suvi, kanalizatsiyalarni o'tkazilishi, meditsina xizmatini yaxshilanishi XX asrning ikkin-

chi yarimdan O'rta Osiyo respublikalarida "demografik portlash"ga olib keldi. Bugungi kunda Tojikiston va O'zbekistonda yosh avlod vakillarining ko'p bo'lishi mehnat resurslarini cheklanganligi yangi muammolarni vujudga keltirmoqda. Sug'oriladigan maydonlarni yetishmasligi, suv zahilarini kamayishi ham yaqin kelajakdagi echimini kutayotgankeskin muammolardan biridir.

Jamoa-tashkilotlari. Jamoa munosabatlarini notekis rivojlanishi asosiy sabablaridan biri O'rta Osiyo xalqlarida moddiy ehtiyojlarni qondirishning turli usullari mavjudligidadir. Dehqonlar jamoalarida sinfiy munosabatlar jez davridayoq paydo bo'ladi. Bu jarayon chorvadorlaga nisbatan dehqonlarda yaqqol ko'zga tashalanadi. Voha aholisi erga nisbatan xususiy mulkchilikni bilishgan. Ayni paytda cho'l-dashtlarda yaylov, suv manbalari o'sha joyda yashaydigan urug'-qabilalarniki bo'lgan. Dehqonlardagi sinfiy munosabatlarni murakkabligi er egasining dalalarni sug'orishga zarur bo'lgan suvga munosabati belgilanmagidan kelib chiqqan. Odatda suv u yoki bu qishloqning barcha aholisiniki hisoblanadi, amalda esa aksari suvga boylar xo'jayinlik qilishgan. Shaharlarda sinfiy munosabatlar shahardagilarga nisbatan aniqroq ifodalangan. Umumanolganda O'rta Osiyo va Qozog'iston aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi murakkab ko'rinishda bo'lib, ko'plab regional xususiyatlarga ega edi.

Davlat tuzumi. O'rta Osiyo va Qozog'iston Rossiya tomonidan istilo qilinganiga qadar mahalliy jamiyatlarning ko'plab arxaim xususiyatlari bo'lgan. O'lka uchta xonlik-Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tomonidan bo'lib olingan edi. Ushbu davlatlarda boshqa Sharq mamlakatlaridagi kabi barcha erlar xon yoki amir mulki hisoblangan. Oliy xukmdornafaqat dunyoviy balki mamlakatda yashovchi barcha musulmonlarning diniy etakchisi ham sanalgan edi. Boshqaruv ma'muriyati ko'plab amaldorlardan tashqi l topib ularga faqat maosh beribgina qolmasdan qo'shimcha oziq mahsulotlari bilan ham siylashgan.

O'rta Osiyo jamiyatidagi asosiy birlik bu qo'shnichilik jamoasi bo'lgan. Dehqonchilik vohalarida jamoalar er va suvning egasi hisoblangan. Jamoa ichida er va suv oilalar orasida taqsimlangan. O'lkada "Hosilni er emas, suv yaratadi" degan naql bejizdan vujudga kelmagan. Odat bo'yicha jamoaning har bir a'zosi o'z eri, suvga huquqini istagan odamiga sotishi mumkin bo'lgan. Lekin amalda sotib oluvchini jamoa a'zolari istamasa uning kelgusi hayotini osoyishta kechishiga hech kim kafolat bermagan.

Shariat bo'yicha jamoa eridan tashqari mulk erlari ham bo'lib, u dahlsiz sanalgan. Vohalarda ekin maydonlarining bir qismi vaqf sifatida diniy muassasalarga tegishli bo'lgan. Vaqf erlari ham dahlsiz bo'lgan.

Chorvadorlar jamiyati qabilaviy asosga tayangan. Ko'chmanchi jamoa asosiy yacheyka bo'lgan. U bir necha qarindosh oilalarni birlashtirgan. Jamoalar qabila urug'lariga birlashgan. Yaylov, suv manbalari qabilaga tegishli bo'lgan. Qabilalar muntazam, muhim ijtimoiy birlik bo'lmasdan, vaqt davomida ularda o'zgarishlar bo'lib turgan. Katta va kuchli qabilalar siyosiy yoki tabiiy ofatlar (masalan qurg'oqchilik, molga o'lat tegishi) tufayli kamsonli va zaif bo'lib qolsa, zaiflar aksincha ijobiy omillar ta'sirida kuchayishi hollari kuzatilgan.

Qozoqlar va qirg'izlar chorvachilik jamiyatlarida aholini oqsuyaklar va qorasuyaklarga bo'lish mavjud edi. Birinchisiga xon, sultonlar, xo'jalar, sayidlar kirsa, ikkinchisiga barcha chorvador aholi taalluqli bo'lgan. Turkmanlarda zodagonlar iglar, avom aholi qul deb atalgan. XX asr davomida sho'rolar davridagi qonunlar barchani teng deb e'lon qilishi ijtimoiy tengsizlikka barham berib, bu odatlar faqat oila-nikoh munosabatlaridagina saqlanib qolgan.

Bugungi kunda barcha O'rta Osiyo davlatlari prezidentlik respublikalaridir. Ulardan ayrimlari Rossiya bilan MDH va Yevroosiyo hamkorligi doirasida yaqin munosabatda bo'lsa qolganlari betaraflik siyosatini olib bormoqda.

5. Moddiy madaniyat: an'analar va transformatsiyalar.

Qo'rg'onlar va uy-joylar. O'rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyatida etnik o'ziga xoslikka nisbatan xo'jalik faoliyati va regional xususiyatlar ko'proq ta'sir etgan. Bu holat qo'rg'onlar va uy-joylarda ayniqsa yaxshi kuzatiladi. Qo'rg'onlar jez davridanoq shahar va qishloq turlariga bo'lingan. Shaharlar ko'pdan buyon mustaqil qo'rg'onlar kategoriyasiga kirsada shaharliklar qishloq xo'jaligidan butunlay ajralmaganlar.

O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda XX asrda aholining tez kupayishi ularni turli ko‘rinishdagi qo‘rg‘onlarga joylashtirishga majbur etdi. Yozma hujjatlardan ma’lumki bundan 150-200 yil avval o‘lkaning qadimgi shaharlari hududida ko‘plab mevali daraxtlar, polizlar va kichik –kichik dalalar bo‘lgan. Ko‘plab shaharlarni markazida qal’alar qurilib, ularda xukmdor yoki viloyat xokimlari saroylari joylashgan Qal’a yaqinida bozor, jome’ masjidi va boshqa ma’muriy binolar joylashgan. Aholi soni oshishi bilan shaharlardagi qurilishlar zichlasha boradi. XX asrning o‘rtalarida ko‘pchilik O‘rta Osiyo shaharlari o‘z bog‘laridan ajraladi. Shaharlarning yangi “rus” qismidagina yashil zonalar, parklar saqlangan. Bu Buxoro, Xo‘jand va boshqa shaharlar misolida o‘z tasdig‘ini topadi.

Qishloq qo‘rg‘onlarida ham keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ularning hajmi, rejasi ilgaridan mahalliy tabiiy iqlim sharoiti, xo‘jalik faoliyati suv bilan ta’minlangani: daryo, soy, quduqlarni mavjudligi bilan belgilangan. Xorazm vohasida suv manbalari yoqasida ir-biridan uzoqroqda uylar qurish odat bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning ko‘pchiligi viloyatlarida shaharlar va qishloqlar mahalla, mavzelarga bo‘linadi. Ulardagi aholi shaharlarda ma’lum kasb a’zolari bo‘lsa, qishloqlarda ma’lum urug‘ yoki to‘n vakillari bo‘lishgan. XIX asroxiri XX asr boshlarida mahalla qo‘shnichilik jamoasi sifatida: jamoa ishlari, suv taqsimoti tashqi lotchisi va nazoratchisi bo‘lgan. Qishloq qo‘rg‘onlarning kengayishi aholi sonining ko‘payib borishi bilan izohlanadi. Ularning atrofilari o‘zlashtirilib yangi turar-joylar quriladi. Yangi kanal, ariqlar bunyodetilib, yangidan-yangi mahallalar tashqi l qilinadi. Bugungi kunda Farg‘ona vodiysida xususan Namangan viloyatining “Olmos”, “Varduk” qishloqlarida 18-20 mingdan aholi yashaydi.

Aholini qishloqlarda ushlab turuvchi muhim (boshqa sabablar qatorida) jihat qishloqda qo‘lda bajaradigan mehnatning ko‘pligi, tomorqadagi yerdan olinadigan mahsulotlarni minimal yashash talablarini qondirishi, shaharda zarur kasb-korlarga ega bo‘lmaslik, ishga loyiq aholisini qishloqlarda qolishga yoki qo‘shni respublikalarga mehnat migratsiyasiga ketib yashashiga to‘g‘ri kelyapti. Bu borada mustaqillik yillarida rus tilidan bilim saviyasining pasayishi ham salbiy holatlarga sabab bo‘lmoqda.

O‘rta Osiyo vohalari aholisi mehnatkash har qanday vaziyatdan chiqish usulini topishga intiladi. Farg‘ona vodiysida aholi kichik korxonalar, artellar tuzib kiyim-kechak, paypoq, Rishton singari sopol idishlar, laganlar, choynak-piyolalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqdalar. Kichik biznes va tadbirkorlik hozirda 70 % mehnatda bandlikni ia’minlamoqda. So‘nggi yillarda xususan O‘zbekistonda bog‘lar yaratish, meva va sabzavotlarni qayta ishlash, mahsulotlarni xorijga chiqarishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Tog‘larda qishloqlar nisbatan yirik bo‘lmasada, ularda ham bir necha ming aholiliklari mavjud. Tog‘li qishloqlarda yer yetishmasligi ayniqsa seziladi. Bizning kunlarimizda tog‘li vohalarda bo‘sh erning o‘zi qolmaganidan aholi vohalarga ko‘chib tushishga majbur bo‘lmoqda. Tog‘liklar shaharlarga ham kelmoqdalar.

O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning cho‘l-dasht zonalrida ilgari doimiy turar-joylar bo‘lmagan. Lekin har yili bir yo‘ldan o‘tilishi ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha asta-sekin unchalik katta bo‘lmagan qo‘rg‘onlar paydo bo‘lgan. Ularning dastlabkilari XX asrning 50 yillarida vujudga kelgan. Qishlovlar quduqlar tevaragida paydo bo‘lgan. Sovet xokimiyati davrida chorvachilik rayonlaridan chiqqan migrantlar aksari shaharlarda joylashgan.

O‘rta Osiyoda uy-joylarning ikki turi o‘troq dehqonlarda loydan uy-joylar, ko‘chma chorvadorlarda – kigiz yopiladigan yig‘ma o‘tovlar tarqalgan.

Qishloqlarda uylar xom g‘isht, guvala va paxsadar tiklangan. Tog‘li tumanlarda uylarni devorini qurish uchun toshdan ham foydalanilgan. Ayrim viloyatlarda xususan Farg‘ona vodiysida yog‘ochlardan sinchli uylar qurilib, bu xildagi turar joylar zilzilaga chidamli bo‘ladi.

Uy-joylarning tarxi (rejasi) so‘nggi bir asrda katta o‘zgarishlarga uchradi. Agar XX asrning boshlarida ham uylar bir xona, oshxona va ayvondan iborat bo‘lsa, bundan 60-70 yillar avval uylarning hajmi, xonalari ko‘payib boradi. Deyarli barcha uylarda alohida mehmonxona qurila boshlanadi. Ilgari mehmonxonalar shaharliklarda, qishloq boylarida bo‘lgan xolos. Bizning kunlarimizda o‘lkadagi qishloq uylari 3-4 xonali qilib: yotoqxona, mehmonxona, qishki oshxona, ayrim oilalarda bolalar xonasi qurilmoqda. Uyning oldida ayvon qurilib,

oynavand bu xonada oila yozning iliq kunlarini o'tkazidi. Uy yumushlarini ko'pincha ayvonda bajarishadi. Shahar uylar qishloqnikidan, hajmining kattaligi va ichki-tashqi dekor (bezaklarining) boyligi bilan farlanadi. Xususan Shimoliy Tojikistonda uylarni naqshlar, ganch o'ymakorligi elementlari bilan bezatiladi. Boy oilalarda uy ichkari va tashqariga bo'linadi. Uy-joylar shahar va vohadagi qishloqlarda baland devor bilan o'rab olingan. XXI asrning boshlaridan Toshkentda hovlilar qurilishidagi transformatsion jarayonlar kuchayib hovliga kirish evropacha, hovli atrofi baland devorlarsiz, cho'yandan yasalgan panjaralar bilan o'ralmoqda. O'tmishda mahalalar yopiq mavzelar bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ko'chalar ravon, tungi yoritgichlar, hovli oldi chiroyli gullar ekilib bezalgan hovlilardan iborat.

Hozirda faqat cho'ponlar qo'llaydigan o'tovlar mo'g'ul va turkcha ko'chma uylardan iborat. Bu borada turkmanlar o'tovlari gilamlar (uning ko'rinishi yumaloq) va bezaklarining boyligi bilan ajralib turadi.

Kiyimlar. O'rta Osiyo aholisining kiymlari mazmun-mohiyatiga ko'raajoyib hodisadir. Moddiy madaniyatning ushbu sohasida xo'jalik, milliy jihatlarni umumiylashgan ko'rinishi ko'pmi yoki regional o'ziga xosliklar aytish mushqul. Tuzilishi, elementlari yig'masi jihatidan dehqonlar, chorvadorlar hamda erkaklar va ayollar kiymlari bir xil. Erkaklar kiyimi asosini keng ko'ylak va ishton tashqi l qiladi. Ayollar kiyimi erkaklarnikidan bichimini ayrim jihatlari, ko'ylagini uzunligi va rangi bilan farqlanadi. Erkaklar kiyimini oq matodan, ayollarnikini gulli matodan tikishgan. Milliy va regional o'ziga xosliklar ham bichimida uchragan.

Ustki kiyim o'lkaning barcha hududlarida oldi ochiq uzun engli bo'lgan. Choponlarning matosi va rangi etnik emas viloyatlar kesimida farqlangan. Xususan Farg'ona vodiysi, Xo'jand, Qashqadaryo va surxondaryo viloyatlari aholisi to'nlari bugungi kunda ham biribiridan ajralib turadi. Dehqonchilik hududlarida paxta solib qavilgan choponlar, chorvadorlarda jun matolardan tikilgan to'nlar kengroq tarqalgan. Yilning sovuq mavsumida erkaklar qo'y terisidan po'stin (aksari chorvadorlar) kiyishgan.

XX asrning 30 yillariga qadar milliy va regional farqlanadigan buyumlardan biri-bosh kiyimi bo'lgan. Turkmanlarni katta telpak-

laridan, qozoq va qirg'izlarni kigizdan tikilgan qalpoqlaridan tanish mumkin edi. O'zbeklar va tojiklar do'ppilari ham naqshi bilan farqlangan. XX asrning o'rtalarida matosi qora naqshi oq ipaklarda tikilgan qushning stilizatsiyalashgan tasviri tushirilgan chust do'ppilari keng tarqalib, Chust fabrikasida tikilgan do'ppilarni sobiq ittifoqning har qanday shahridagi do'konlan olish mumkin edi.

An'anaviy ayollar kiyimi ko'proq an'anaviy xususiyatga ega bo'lsada ularning bichimida evropacha elementlar uchraydi. Xotinqizlarning kiyimlaridagi zamonaviy evropacha xususiyatlar shaharlarda ko'proq uchraydi. Kiyimlar ichida yosh, to'y va ta'ziya bilan bog'liqlarida an'anaviylik nisbatan yaxshi saqlangan. Ayollarning bayram kiyimlarida zeb-ziynat buyumlarining o'rni ham muhim. Taqinchoqlar kumushdar tayyorlanib, o'z ko'rinishida arxaik elementlarni saqlagan. Zeb-ziynatlarda milliy xususiyatlar, ularning majmuida kuzatiladi.

6. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqldari ma'naviy madaniyatlari.

Din va diniy tasavvurlar. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari qadim zamonlardan tabiat kuchlari, muqaddas toshlar, tog'lar, daraxtlar va buloqlarga bizning kunlarimizgacha topinib kelishadi. Ajdolar qabrlari O'rta Osiyoning ko'plab hududlarida asosiy e'tiqod joylaridan sanaladi.

O'zbekistonda 2001 yili zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"ning 2700 yillik yubileyi nishonlandi. Otashparastlik an'analari O'rta Osiyo xalqlarida hali hanuz saqlanib kelmoqda. Bu eng avvalo olovga ehtirom nikoh va dafn marosimlari bilan bog'liq udumlardir.

Buddaviylikning aholiga ta'siri nisbatan kam bo'lgan. Kushon podsholigi davrida m.av. IV asrga qadar davlat dini bo'lgan buddaviylik ibodatxonalari qoldiqlari O'zbekiston va Tojikistonning janubida arxeologlar tomonidan qazib o'rganilgan.

Turkiy xalqlarning Ko'k Tangriga e'tiqodi m.av. I ming yillikka borib taqaladi. Ushbu diniy tlimot so'nggi yillarda tangrianlik deb nomlanmoqda. Ushbu dinni qam yoki shomonlik ham deyishadi.

Milodiy VII asr oxiri – VIII asr boshlaridan o'lkani Arab halifaligi tomonidan istilo qilinishi yangi islom dinini yoyilishiga olib

keldi. Islom dini bilan birlikda arab yozuvi va tili maorif, fan, boshqaruv muassasalari tomonidan qabul qilinib XX asrning boshlariga qadar o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Islom dini Yevroosiyoning ushbu qismi aholisi turmush tarzining asosiy mezoniga aylanadi. Bu eng avvalo vohalarning o‘troq aholisi va shaharlar aholisiga taaluqlidir. Chorvadorlar ichida islom mahalliy diniy tasavvurlar afsungarlik, shomonlik, ajdodlar ruhlariga e’tiqod bilan qorishib ketgan, udum marosimlarda o‘z aksini topgan.

Madaniy meros. Zamonaviy indusriya bosqichiga O‘rta osiyo va Qozog‘iston xalqlari boy madaniy merosga ega bo‘lgan holda kirdilar. Aynan ma’naviy madaniyatda etnik xususiyatlar va an’analar yorqinrq namoyon bo‘ladi. Lekin bu sohada ham umumiy manba va an’analar aniq seziladi. O‘zbeklarning “Alpomish” dostoni qozoq va qoraqalpoqlarga yaxshi ma’lum. Turkman hamda tojiklarda “Go‘ro‘g‘li” dostoni tarannum etilsa, uni boshqa qo‘shni xalqlar baxshilari ham sevib kuylashadi.

O‘rta Osiyo xalqlarining avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy an’analari haqida qadimgi qahramonlik dostonlari syujetlari guvohlik qiladi. Bu O‘rta Osiyo xalqlari etnogeneziumumiyligi, kelib chiqishi birligini ham tasdiqlaydi. Qolaversa bu zamonaviy xalqlarni ushbu hududda shakllangannini hamda o‘lkadagi qadimgi etnoslarni o‘z tarkibida singdirganini ko‘rsatadi. Mahalliy madaniy an’analarni qadimiyligiga qozoqlarning “Qablidos Botir” dostoni va qirg‘izlarning “Manas” dostonlari ham guvohlik beradi.

Madaniy yaqinlik faqat dostonlarda emas me’morchilik obidalarida ham kuzatiladi. Bugungi kunda Samarqand, Marv, Ko‘xna Urganch, Xiva, Buxoro, Turkiston shaharlaridagi madaniy obidalar dunyoga tanish ularni tomosha qilishga keluvchi xorijiy havasmandlar soni kundan kunga oshib bormoqda.

Turkman gilamlari, buxoro va samarqand zebu-ziynatlari, zardo‘zlik buyumlari, qozoq va qirg‘izlarning naqshli kigizlari, tojiklar sopol buyumlari, yog‘och o‘ymakorligi, kitob minatyurasi dunyo madaniyati xazinasini boyitib kelmoqda.

O‘rta Osiyo ilm fani o‘rta asrlardadunyo sivilizatsiyasiga Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Muhammad al Xoraxmiy (783-850), Umar

Xayyom (1048-1209), Firdavsiy (940-1020), Maxtumquli (1730-1780) va h.k larni berdi.

Yangi davrda ham O‘rta Osiyoda buyuk yozuvchilar, shoirlar, ma’rifatparvarlar va olimlar yashab o‘tgan. Qozoq etnologi va yozuvchisi U.Valixonov, tarixchi, ma’rafatsevar A.Donish (1827-1897), shoir Furqat (1858-1909), Muqimiy (1851-1903), S.Ayniy (1878-1954), Qoraqalpoq shoiri Byerdax (1827-1900), turkman shoiri Kamina (1770-1840), Mullonafas (1810-1862), Qirg‘iz shoiri To‘xtagul (1864-1933), qozoq yozuvchisi Oltinsari (1841-1889), Abay Qo‘nanboev (1840-1904) va h.k lar ajoyib asarlar yaratganlar.

Mustaqillik yillarida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari yangi bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlatlar tuzish yo‘lidan bormoqdalar.

Savol va topshiriqlar.

1. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston aholisining tarkibi va shakllanish tarixi haqida gapirib bering!
2. An’anaviy va zamonaviy dehqonchili va chorvachilik xo‘jaliklari qiyosiy tahlil etib bering!
3. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari professional va uy hunarmandchiligini internet ma’lumotlari asosida so‘zlab bering!
4. O‘rta Osiyodagi etnodemografik muammolar va jamoa tashkilotlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Qo‘rg‘onlar va uy joylardagi an’analar hamda zamonaviy jarayonlarni tahlil etib boring!
6. Aholining kiyimlaridagi transformatsion jarayonlar qanday kechmoqda?
7. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari borasidagi fikrlariningiz qanday?
8. Din va madaniy meros durdonalari haqida gapirib bering!

9-BOB. JANUBIY OSIYO ETNOLOGIYASI




Janubiy Osiyo afsonalarida eng ko'p eslanadigan G'arb va Sharq xalqlari diqqatini o'ziga qadim zamonlardan tortib keladigan mamlakat – Hindiston joylashgan. U dunyoga paxta, shakarqamish, ko'plab ziravorlarni, ayrim uy parrandalarini, shaxmat, matematikadagi o'nlik tizimini nol raqamini bergan.

M.av. IV asrda fotix Aleksandr Makedonskiyning istilolari tufayli Hindistonga ellin madaniyati ta'siri bo'ladi. Xindistondan O'rta yer dengizi shimoliga fil suyagi, qimmatbaho toshlar, marjon, ziravorlar, yog'ochning qattiq navlarini, ekzotik hayvonlar va qushlarni, muslin – "shamol tomonidan to'qilgan mato"ni (uni 20 m.li bo'lagi) tamaki qutisiga joylashgan. Hind zodagonlari saroylarida yunon san'ati buyumlari paydo bo'ladi.

Hind madaniyati ta'sirini Volter, Gyote, Nitsshe, Bayron, Tomas Mann va boshqalar o'zlarida kechganlar. Yevropa olimlarini qadimgi hind adabiyoti tili-sanskrit bilan tanishish ijtimoiy fanlarda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Sanskritni yunon, lotin va boshqa evropa tillari bilan qardosh ekanligini aniqlanishi yangi fan sohasi – qiyosiy tilshunoslikni vujudga keltiradi. Ushbu fan siganlar shimoliy hind etnik guruhlari bilan qardosh ekanligini ham ko'rsatdi.

Hindiston geografik nomi butun Janubiy Osiyoni egallagan yarim orolni va Himolay tog'lariga tutash hududlarni anglatadi. Ushbu hududda Hindiston – 1 mlrd aholisi bilan, Pokiston 200 mln.lan ortiq, Nepal 20 mln, Butan (2 mln.dan ko'proq), Bangladesh 120 mln.dan ortiq, Shri Lanka (20 mln.dan ko'p), orollardagi Maldiv Respublikasi (300 ming) joylashgan. Hududning Shimoliy chegarasi Himolay va Qoraqurum tog'laridir. Janubda Hindiston yarim oroli Arabiston dengizi Hind okeanining Bengal qo'ltig'i suvlari bilan tutashgan.

Janubiy Osiyo hududida qalin o'rmonlar serunum vohalar, dunyodagi eng baland cho'qqi Djomolungma, tropik cho'llar (Tar,



Txal. Rajaston) mavjud hududda yirik daryolar Gang, Hind, Braxmaputra oqadi. Janubiy Osiyoning tabiiy yaxlitligi unda subekvatorial mussonli iqlimga egaligidir. Unda aholi zich joylashgan, maydoni er yuzasining 3,3% ni tashkil qilgan holda dunyo aholisining 1/6 ga egalik qiladi.

2. Hindistonning avstroloid aholisi. Dravid xalqlari – Janubiy Osiyoning eng qadimgi aholisi avlodlaridir. Dravid tili ushbu aholi bugungi kunda Hindistonning (Andxra Pradesh, Tamiland, Kerala, Kariataka shtatlarida) Nepalning markazida, Bangladesh, Shri Lanka, Maldiv orollarida yashaydilar. Dravid tillariga: tamil, telugu, kannarra va malayali tillari kirib ularda 200 mln atrofida aholi gaplashadi. Ularning vakillarini o'ziga xos tashqi qiyofvsi bo'yining baland emasligi, qora badan rangi, boshining uzunchoqligi, keng burni, qalin lab, yirik tishlari ajratib turadi. Ular rasa jihatidan avstraloidlarga mansubdir. Aynan ushbu xususiyatlar arxeologlar tomonidan Moxinjo -Daroda (m.av. IV-II ming yilliklar) bronzadan yasalgan raqqosa haykalchasida ham uchraydi.

Hindiston junglisida dravidlar va keyinchalik mamlakatga shimoliy-g'arbiy tomondan kirgan oriylar, hind-evropa tillarida so'zlashuvchi aholi to'qnashgan. Oriylar dravidlarni yovuz ruhlar, iblislar, zulmat hosilasi deb tavsiflaganlar. Hind eposlari "Maxabxarata" va "Ramayana"lar ham ular haqida salbiy fikrlar bildiradi. Jumladan "Ramayana"da yarim iloh Rama rakshas (iblis) Ravan, dravid qabililaridan birining sardori bilan jang qiladi. Dostonda Ravan Ramaning rafiqasi Situni o'g'irlab uzoq Shri Lanka oroliga olib ketgani, shaxzoda uni qutqarish uchun qilgan qahramonliklari batafsil hikoya qilinadi.

Dravidlar – yirik xalqlar: tamillar, telugular malayali, kannara va kamsonli xalqlar (yanada, panya, toda va boshqalar) ham mavjud. Ular tosh davri maaniyati elementlarini saqlab Hindiston madaniyati rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular qatorida kamondan o'q otish san'ati, ichki hududlarda yashovchi qabilalarda puflab otuvchi

bambuk poyasidan yasalgan miltiq, eng qalimgi ov quroli sifatida va boshqalar mavjud. Bunday qurolni Amazoniya, Janubiy-Sharqiy Osiyo yoki Avstraliya aborigenlarida ham uchratish mumkin. Eng qadimgi turar joylardan biri – bambukdan uchli qilib qurilib, barglar bilan yopiladigan kulbalar aynan dravidlarda saqlangan.

Ularning hayotida nog'oralar katta rol o'ynagan. Ulardagi matallardan birida "Yanada uchun nog'ora, baliq uchun suv bilan barobar" deb bejiz aytilmaydi. Nog'oralardan raqsga tushishda, shuningdek zarur xabarlarni etkazishda foydalanishgan. Ilgarigi paytlar kabi dravidlar kiyimlari juda sodda – belbog'chalardan iborat, faqat qabila boshliqlari evropacha ko'ylak, shaharlardagi ishchilar ham evropacha kiyim kiyishadi.

Dravidlar uzoq o'tmishdan ilon ushlash bilan shug'ullanganlar. Hindistonga nisbatan kech ko'chgan aholi (aynan dravidlardan) ilonlarga sig'inishni qabul qilganlar. Endi bu xavfli kasbga aylandi. Katta bo'lmagan to'lovga ilon o'ynatuvchilar mangustlarni kobralar bilan jangini yoki kobralarni musiqaga raqsini turistlarga ko'rsatib berishadi.

Hozirgi kunda dravidlar o'z nonini og'ir mehnat bilan, o'tin tayyorlash bilan, ko'chalarni supirish, shahar boylari hovlilarini tozalash, bog'-parklardagi daraxt va gullarni parvarishlash, veloriksha haydash kabi yumushlarni bajarish bilan shug'ullanadilar. Ko'plari sholi, choy, jut plantatsiyalarida ishlab, xo'jayinlar ularga guruch yoki pul bilan xizmat haqi to'laydilar. Dravid xalqlari kofe, ziravorlar, kauchuk, tamaki va paxta yetishtiradilar. Janubiy Osiyo xalqlari taomlarida ham ular muhim o'rin tutadi. Xususan imbir sabzovotlar, go'shtni tayyorlashda shamollaganda, yo'tal, bronxit, bosh og'riganda qo'llaniladi. Koritsa yurakni davolaydi, siydik yo'llariga shifo, Koriandr. Xardaman. Imbir ildizi – kurxulma – taomlar tayyorlashda, marosimlarda, guruchdan taom pishirishda, hinduilar nikoh marosimida mayda talqon qilingan holatda kelinning yuziga surtiladi.

Dravidlar hayot tarzi o'zgarmagan holda faqat Hindistonning janubi. Shri Lankada, Maldiv orollaridagina saqlanib kelmoqda. Sababi bu hududlar xalqlarning keyingi migratsiyalariga uchramagan.

Hindiston qator mashhur raqslarga aynan dravidlar tufayli erish-

gan. Shahar sahnalaridagi "Patak xali", hinduylik ibodatxonalaridagi ajoyib raqslar, jungli va tog'larning qoratanli qabilalarining qadimgi raqslaridan olingan. Raqqosaning har bir harakati, boshini burilishi, mimikasi, tanasini holati – ma'lum ma'no-mazmun kasb etadi. Raqsda ishtirok raqqosning ijtimoiy va yosh ma'nosida bo'ysunish holatida ekanligini ko'rsatadi. Bu borada aktyor rolida faqat yosh, yoshi katta oldida ishtirok etishi mumkin.

Dravid xalqlari dinlari arxaik ko'rinishda. Ularning tasavvuri bo'yicha iloh va ruhlar barcha narsalarda: daraxtlarda, toshlarda, sopol tuvaklarda, yog'ochdan sanamlar, loy bo'laklarida, qoyalarda chizilgan rasmlarda mavjud. Ilohlar va arvohlar sharafiga shovqin suronli bayramlar, tungi raqslar, tantanali qurbonliklar, murakkab tantanalar o'tkazadilar. Xudolar panteonida eng yuqori pog'onani iloha-ona egallab, uning qudrati mehnatsevarligi bilan mujassamlashgan.

Dravidlarda o'ziga xos dafn marosimi hind oriylardagi marhumni gulxanda yondirish emas, erga ko'mish odati saqlangan. Mayit bilan birga "pana" barglari, kokos yong'og'i va mis tanga qo'yishib, undan maqsad iloh va ruhlar marhumni qiyin, murakkab sinovlarsiz qabul qilishlarini xohlaganlar.

3. Hindoriy xalqlari. Hindiston tarixi Hind vohasidagi qadimgi sivilizatsiyalar Xarappa va Moxinjo-Darolardan, m.av. IV-II ming yilliklardan boshlanadi. O'sha davrda ikki etnik oqim va madaniyat – O'rta yer dengizi va avtoxton avstraloid aholisining aralashuvi jarayoni boshlangan edi.

Navbatdagi yirik etnik oqim oriylar bo'lib, ular m.av.II ming yillikning o'rtalaridan Hindistonga shimoliy-g'arbiy tomondan bostirib kiradilar. Oriylar ("arya" – "oliyjanob" yoki "er haydovchi") hind-eron tillarida so'zlashganlar.

Oriylar tili hindevropa til oilasiga kirgan, lekin ular Hindistonga kelgan birinchi hindevropaliklar bo'lmagan. Olimlarning fikricha m.av. IV ming yillikda bu hududga ilk "o'rta er dengizi" aholisi guruhlari kelishgan. Hozirgi hind tillari o'zining kelib chiqishi bo'yicha veda shevalariga yaqin hamda hind-oriy tillari deb nomlanadi. Bu tillar: hind, urdu, bengali, maratxi, gujarati, ariya, assam, rojastoni, panjobi. sindxi va kashmir tillaridir.

Hindevropa xalqlari asta-sekin Hindistonning janubiy rayonlariga kirib bordi. Yangi braxmanizm dini shakllanib m.av IX asrdan ruhoniy braxmanlar avstroloid aholiga qarshi harakat boshlanadi. Kshatriy jangchilar oriylarning ikkinchi toifasi sifatida qilich bilan harakat qilib oddiy xalqni itoatda tutishga xizmat qiladi. Aholini oriylar va ariylar bo'lmaganlarga bo'lish kasta tizimini vujudga keltiradi.

Ijtimoiy hayotni xususiyatlari. M.av. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindistondagi jamiyatning ijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti aholini to'rt guruhga: ruhoniylar (kohinlar) harbiylar, dehqonlar va xunarmandlar, xizmatkorlarga bo'linishga olib keladi. Varnalar: braxmanlar, kshatriylar, vayshilar va shudralar deb nomlanadi. Har bir kastaning ijtimoiy mavqei merosiy bo'lib, uning bo'lajak faoliyatini ham belgilagan. Ibodat va maorif, ta'lim – braxmanlarda; jang qilish va boshqaruv – kshatriylarda; mehnat qilish vayshilarda; uchta yuqori varnaga xizmat qilish shudralarga taqsimlangan. Varnalar orasida nikoh ta'qiqlangan.

Varna tizimi asosida murakkabroq tizim – jati shakllangan. Ma'lum hududda bir xil mavqega ega oilalar yopiq jamiyatlar – jatilar tuzishgan. Jatining barcha a'zolari o'zaro qarindoshlik yoki birodarlik munosabatlarida bo'lishgan. Ularni iqtisodiy, diniy, urf-odatlar va marosimlar bog'lab turgan. Qishloq aholisi orasidagi an'anaviy munosabatlar kasta ierarxiyasi shaklida tuzilgan. Xunarmandlar dehqonlarga zarur buyumlarni yasab berishgan, lekin ular xunarmandlarga o'zlari yetishtirgan mahsulotlardan ma'lum qismini ajratishlari lozim bo'lgan. Har bir qishloq jamoasi o'zi uchun zarur narsalarni o'zi ta'minlagan va tashqi aloqalarga ehtiyoj sezmagan.

Mehnatkash aholining asosiy qismi – xunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar vayshilar kastasiga kirgan. Ulardan pastroqda shudralar xizmatkorlar, qullar bo'lsa, hindlar jamiyatida "xazar qilinganlar" guruhi ham bo'lib, "chandallar"ni shahar mavzelari va qishloqlarda yashashga qo'ymaganlar. Ular qishloqdan chetda, o'rmonlarda chodirlar qurib yashaganlar.

Kastalarni paydo bo'lishidagi muhim omil hindlar jamiyati ijtimoiy tizimiga yangi etnik birliklarni qo'shilishi bo'lgan. Ovchilar, termachilar va baliqchilar mashg'uloti oriylar tomonidan "toza

bo'lmagan" faoliyat hisoblangan. Aynan dravidlar qabilalari vakillaridan – adivasi ("ilk aholi") hazar qilinganlar kastasi shakllangan. Shudralarning past toifasi natlar – raqqoslar, akrobatlar, hayvonni qo'lga o'rgatuvchilar va tabiblar o'zlarining qora tanalari bilan farqlanadilar. Ular oriylar tomonidan kasta tizimiga kiritilgan dravid qabilalari avlodlaridir. Ular o'z birliklarini bir-birlariga uzatib bir idishdan ichish, umumiy trubkadan chekish orqali ko'rsatadilar. Bu xildagi ishlarni boshqa toifalarda butunlay ta'qiqlashgan.

Past kastalar yuqori kastalarga qarshi o'zlarining antietikalarini yaratganlar. Masalan past kastalar ayollari nisbatan ko'proq erkinlikka egalar – ular moddiy va ijtimoiy jihatdan mustaqillar. Eridan jahli chiqqanida ular haqorat qilishlari, urushishlari va hatto o'ldirishlari ham mumkin. O'rta va oliy kastalar ayollari erlariga sodiq va ularga so'zsiz bo'ysunadilar. Kinoteatrlar kassasida, vrachlar qabulida, avtobus bekatlarida yoki saylov uchastkalarida – ayollar hamisha erkaklardan alohida turib, ko'plari ro'mollarini yuzlariga tushirib, kamtarlik va itoatkorliklarini namoyish qiladilar.

Kshatriylar varnasida butun bir harbiylar toifasi vujudga kelgan. Hind harbiylarining faxri – rajputlar bo'lgan. Ushbu harbiy – feodal toifaning asosini ko'chmanchi xunnlar – eftaliylar va gurjarlar tashkil etgan. Ular milodning dastlabki asrlarida Hindistonga bostirib kirib keyinchalik mahalliy zodagonlar bilan aralashib ketganlar. Asta-sekin hind zodagonlarining ko'pchiligi o'zlarini rajputlar deb atashga intila boshlaydilar. Boburiy Akbarshoh davrida rajputlar qo'shinning asosi va toju-taxt tayanchiga aylanadi. Davrlar o'tib rajputlar shon-sharafi majmui shakllanib u "raso" – qahramonlik dostonlarida aksini topgan. Asarlardan eng mashhuri Chand Bardonning "Pritxvaraj - rasa"si (XII asr oxirida)dir. Rajastonda (Hindistonning g'arbiy provinsiyasi) hozirga qadar "Rajput o'lsa ham o'z nomini sharmanda qilmaydi", "Qo'rqoqning tanasiga hatto quzg'un ham o'tirmaydi" yoki aforizm "Vatan" tortib olindi, din toptaldi, ayol sharmanda qilindi – demak zodagonlar va oddiy kishilarni o'limi vaqti kelibdi, Rajputning tarbiyasida sanskrit va mahalliy tillarni bilish, muqaddas kitoblarni o'qish, siyosiy va she'riy asarlarni bilish talab qilingan. Rajput saxiy bo'lishi, pulni asrab harajat qilish esa savdogarlar, xunarmandlar va dehqonlar ishi deb hisoblangan.

Rajputlar xotinlari uchun yuksak sharaf sati, erining dafn gulxaniga o'zini tashlashi bo'lgan.

Rajputlar qo'shini og'ir qurollangan otliq bo'linmalar bo'lgan. Hindistonda XIV-XV asrlardan paydo bo'lgan o'tochar qurollarni rajputlar qo'rqoqlar quroli deb hisoblaganlar. Endilikda rajputlar shon-shuhrat xalq xotirasidagi tarixga aylandi. Davrlar o'tib kasta tuzumi jamiyat tarraqqiyotiga to'siq bo'la boshladi. Shoir Narosinkx Mexti (XV asr) gumanizm, turli kastalar orasida tenglikka, diniy jamoalarni yaqinlashishiga chaqirgan. Xarijan "xudo odamlari" Maxatma Gandi "xazar qilinganlarga" nisbatan keng qo'llagan atamani birinchi bo'lib Mexti aytgan deyishadi.

Hind qishlog'i ijtimoiy tashkiloti asosi – qo'shnichilik jamoasi bizning davrimizgacha saqlanib kelmoqda ekin maydonlari alohida oilalar orasida taqsimlanib, har bir xo'jalik faoliyati ularning kuchi bilan yuritilgan. Ayni paytda dehqonchilikka yaramaydigan yaylov, bo'shliqlardan barcha foydalangan. Uy va er sotib olgan kishi jamoa a'zosi hisoblangan. Jamoa o'z a'zolariga jamoaviy yordam berishdan tashqari o'z a'zolaridan yo'llar, suv inshootlari, ibodatxonalarni tartibda saqlashda ishtirok etishlari lozim. Qishloq jamoasi to'y, bayram va marosimlarni ham birgalikda o'tkazishadi. Qishloq jamoasi rahbari davlat hokimiyatining quyi bo'g'ini vazifasini bajaradi.

Jamiyatda, shuningdek, oilalarda an'anaviy braxmanlarga, ayollarga, yuqori kastalar a'zolariga, umuman katta yoshdagilarga hurmat munosabati saqlangan. Salomlashish, hayrlashish, braxmanga murojaat – pranamsiz – boshni egib ko'krakka keltirish, iyakka yoki peshonaga bir-biriga qo'yilgan kaftlarni qo'yishsiz tasavvur etish mumkin emas. Murojaat qilinayotgan shaxs qanchalik yuksak mavqeli bo'lsa qo'llar shunchalik yuqori ko'tariladi.

Muloqotda tabassum ham bo'lishi lozim. Hindistonda "tabassum qalbni tinchlantirib – muloqotda o'zaro yaqinlik munosabatlarini yaratadi" deyishadi. Shuning uchun muhim suhbat olib borilayotganda ham, vaqti-vaqti bilan tabassum qilish tavsiya etiladi.

Musulmonlar hindlar erida. VIII asr boshlarida Hindiston xalifalik qo'shinlari hujumiga uchraydi. Iroq va Suriyadagi olingan ko'pminglik qo'shin Hind daryosi etaklariga bostirib kiradi. Bosqin

hududdagi ko'plab qabilalar hayotiga ta'sir etib, ularni ko'chishga majbur etgan, qolganlari islomni qabul qiladi. Maxmud G'aznaviy istilolari so'ngra Dexli sultonligi hukmronligi o'rta asrlarda mamlakat shimolida musulmonchilik mavqeini yanada kuchaytiradi. Musulmonlar dastlabki paytlardanoq aralash nikohga kirishganlar. Bu esa ularni mahalliy aholi bilan yaqinlashtirib, o'z tillarini unutishlariga olib kelgan. Islomning ta'siri Boburiylar hukmronligi davrida (1526-1858) ayniqsa kuchaydi. Sulolaga Zaxiriddin Muxammad Bobur (1483-1530) ajoyib shoir, iqtidorli lashkarboshi va mohir diplomat asos solgan. Boburiy podshohlarning ko'pchiligi din masalasida bag'rikenglik siyosatini yuritib mamlakatda tinch-totuvlikni saqlashga intilganlar. Yillar o'tib ular ham hind knyazlari qizlariga uylana boshlaganlar. Imperiya zodagonlari ichida O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Turkiyadan, arab mamlakatlaridan chiqqan musulmonlar, rajput hinduylari bo'lgan.

Boburiylardan Aurangzebni (1658-1707) hindlarni islom diniga o'tkazishga harakati Panjob va Maxarashtra knyazliklarida unga qarshi konsolidatsiya jarayonlarini kuchayishiga olib keladi. Panjobda Dehlidan amalda mustaqil davlat tuzildi, den maratxlar – Maxarashtra aholisi harbiy toifaga aylandi.

Maratxlar etakchisi Shivoji 1674 yil mustaqil maratxlar davlatini tuzadi. Inglizlarga qarshi milliy ozodlik harakati rahbarlaridan biri B.Tilak (1856-1920) keyinchalik Shivoji xotirasiga bag'ishlab bayramlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, harbiy – sport musobaqalari o'tkazgan.

Musulmonlar ta'sirida hind tilining va qator shevalaridan (xususan kxori-boli-Shimoliy Hindistoni shahar sheg'asidan Eron va Turkiy elementlardan urdu tili) shakllanadi. Hind tili uchun xususiyatli narsa sanskrit leksikasini ko'pligi bo'lsa, urduda – arab-fors so'zlari mo'lligi, hindlar devonagiri alifbosidan foydalansa, urduda – arab grafikasi ishlatilishini ta'kidlash lozim. Urdu Pokistonning rasmiy davlat tili, unda Hindistonda yashovchi musulmonlar ham so'zlashadi.

Musulmon sulolalari xukmronligi davrida Janubiy Osiyoda yangi me'morchilik uslubi tarqalib, unda maschit, madrasalar, minoralar, maqbaralar, saroylar bunyod etilgan. Ulardan eng mashhuri Toj

– Mahal bo‘lib u Agrada boburiylar hukmdor Shoxjahon tomonidan (1592-1666) rafiqasi Arjumand bonu (Mumtoz Mahalga) bag‘ishlab qurilgan. Hukmdorning yana bir inshooti Dehlidagi Qizil Fort saroyi boburiylar rezidensiyasi bo‘lgan. Saroyning xususiy qabullar zali (Divonxona) arkasida “Yer yuzida jannat bo‘lsa, u shu yerda. shu yerda. shu yerda ...” so‘zlari bitilgan. Aynan shu fort ustida Javoharlal Neru 1947 yili mustaqil Hindiston bayrog‘ini ko‘targan.

Boburiylar imperiyasining behisob boyliklari zamondoshlarini hayratga solgan. Ulardan eng mashhuri “Koxi-Nur” olmosi bo‘lib unga birinchi ishlov berilganidan so‘ng 186,1 karat qolgan. Olmos Boburiylar taxtining tepasida porlab turgan. Bugungi kunda olmos malika qirol Georg VI ning rafiqasi Elizaveta tojini bezab Tauer saroyida saqlanmoqda. Hindiston 1933 yili Buyuk Britaniyadan brilliantni qaytarishni talab qilganida rad rad javobi beriladi.

Boburiylardan “muglai” nomi bilan san’at stili, musiqa, kiyim va taomlar majmui saqlangan. Islom dini Pokiston Islom respublikasida, Maldiv respublikasida, Bangladeshda (88,3% aholi) keng tarqalgan. Ularning an’analarida talaygina farqlar mavjud. Masalan haj safaridan keyin Bangladesh musulmonlari qo‘y kam bo‘lganidan qoramol yoki echkini qurbonlik qilishadi.

Sikxlar. Hindistonning shimolida tarixiy viloyatlaridan biri Panjobda – Sikx etnokonfessial jamoasi shakllanib uning markazi Amritsar shahridir. Sikxizmni diniy – ahloqiy ta’limotga aylanishi XVI asr boshlariga oid. Unda shoir va targ‘ibotchilar shahar maydonlari bozorlarida oddiy xalq tilida o‘z va’zlarini aytganlar. Ular “Agar daryodagi tahorat gunohlardan foriq etsa, eng muqaddas narsa bu qurbaqalardir. “Agar sochi olingan kalla insonni muqaddas qilsa, eng muqaddas Xudoga yaqin qo‘ylardir” singari qochiriqlarni tez-tez takrorlaganlar. Sikxlar kasta tuzumini va diniy tafovutlarni inkor etardilar.

Targ‘ibotchilarlan sikx (o‘quvchi) ta’limoti asoschisi Nanak (1464-1538) o‘zini guru (ustoz) deb e’lon qilgan. Nanak Z.M.Boburning zamondoshi bo‘lgan. Nanakning vatani Panjob hozirgi Hindistonning shimoliy-g‘arbi va zamonaviy Pokistonda bo‘lgan. Panjob hinduylar va musulmonlar yashaydigan viloyat aholisi dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Nanak ta’limoti kasta

tuzumini inkor etgan, shuningdek, xudoni tasviri, xudo sharafiga ibodat, rohiblik va qanday bo‘lmasin udumlar ta’qiqlangan. Xudoga yaqin bo‘lish uchun uni sevish etarli. Ibodatxonalarga borish, udumlarni bajarish muqaddas joylarni ziyorat qilish shart emas. O‘z tarafdorlarini birlashtirish uchun Nanak jamoa bilan birgalikda ziyofatlar o‘tkazgan. Hinduylarda boshqa kasta vakili huzurida yoki uning qo‘lidan taom iste’mol qilish qat’iyan man etilgan. Sikxlar jamoasidagi ziyofatlar hozirga qadar ularni tengligini ramzi bo‘lib kelmoqda. XVII asrning boshida sikxlar “Adi Grantx”, “Ilk kitob” tuzilib undan gimnlarni sikxlar hozirga qadar o‘zlarining ibodatlarida kuylaydilar. Gobinda va’zlaridagi aforizmlar: “barcha vositalar tugagan bo‘lsa, qo‘lga qilich olmoqqa izn beriladi”, “bir qo‘lingda kambag‘allar uchun taom, ikkinchisida zolimlarga qarshi qilich bo‘lsin” bugungi kunda ham ommalashgan.

Panjobda guru Gobinda Singx (XVII-XVIII asrlar chegarasida) boshqargan davrdan sikxlar jamoasi harbiy – teokratik tashkilot tizimiga ega. Uning barcha a’zolari erkaklar, jangchilar hisoblanib dastlabki chaqirishdayoq yurishga tayyor bo‘lishi kerak. Sikxlarda erkaklar ismiga “Singx” qo‘shimchasi qo‘yilib, u “sher”, ayollarda “xaur” qo‘shimchasi urg‘ochi sherni anglatadi. Erkak sikxlarning tashqi qiyofasi sochning oldirilmasligi (uni alohida ko‘rinishda turmaklashadi), soqol olinmaydi, o‘ziga xos pagri salla o‘rab yurish tavsiya etiladi. Sikxlar yonida doim xanjar bilan yurganlar. Ular 1799 yili o‘z davlatlarini tuzganlar. Sikxlar davlati XIX asrning 30 yillari oxirida inglizlarga qarshilik ko‘rsata boshlab Britaniya imperiyasi uni qarshiligini eng oxirida sindiradi.

Ingliz mustamlakachilari sikxlar jangari tashkilotini Hindistonda o‘z hukmronliklari tayanchi sifatida foydalanishga intilib ulardan, musulmonlardan, Nepal gurixlaridan ingliz-hind qo‘shinining alohida polklari tuzilgan. Bu sikxlarning ongini yuksalishiga xizmat qilib, 1919 yili sikxlarning ilk siyosiy tashkilotlari tuziladi. Bizning kunlarimizda sikxlarning yuqori toifalari Panjobni Hindistondan ajratib alohida mustaqil davlatga aylantirishga intilmoqdalar. Bu kurash fanatik tus olishini 1984 yili Indira Gandi, 1991 yili Radjiv Gandini o‘ldirilishida ko‘rishimiz mumkin. Panjob umumhind iqtisodiga integratsiyalashgan sikxlar esa boshqa shtatlarda ham yas-

haydilar. Shu sababdan sikxlar etakchilarining mustaqillikga intilishi Hindiston xalqlari va dunyo hamjamiyati tomonidan qo'llanmayapti.

Hinduylik – mutlaqlikka sayohat. Maxatma Gandi: "Hinduylik – bu haqiqat ortidan tinimsiz quvish" degan edi. Hindistonda hinduylik asosiy diniy – etika tizimiga aylandi. Bu braxmanizm yoki veda dinining yangi ko'rinishi edi. Vedalar oriylarning adabiy ijodlari bo'lib, ular hind erlariga m.av.XIV-XII asrlarda kirib kelgan. Veda dini haqida tasavvurni "Rigveda"dagi mingta gimnlar beradi. Veda dinidan farqliroq hinduylik qonli qurbonliklarni talab etmaydi, hatto ta'qiqlaydi ham (masalan sigirlarni so'yishni ta'qiqlanishi barchaga ma'lum).

Hinduylikka kirgan ayrim animistik tasavvurlar qadimgi dravid asosiga ega. Ularga daraxt, tog', suv havzalariga, hayvonlarga (ilon kulti, sigirlarga, maymunlarga, fillarga ehtirom) e'tiqodni ko'rsatish mumkin. Hinduylikka dravidlarning yozning kirishi bilan bog'liq udumi osongina kiritilgan. Unda ulkan teatrlashtirilgan tomosha taklif etilib, barcha rollarni marosim niqoblarini kiygan erkaklar o'ynaydi. Hinduylikdan iloha – ona siymosiga e'tiqod ham o'rin olgan.

Hinduylik uchun oliy yaratuvchi iloh g'oyasi ham xususiyatli bo'lib, u xilma-hil tarzda namoyon bo'ladi. Hinduilikning ko'plab a'zolari uchun bu xildagi oliy iloh – Vishnu – haqiqat, ezgulik va qonun ilohidir. Vishnu – hayvonlar: to'ng'iz, baliq, toshbaqa yoki inson (odatda qora tanli shoh va cho'pon Krishna) siymolarida namoyon bo'ladi. Vishnu Rama va Buddada namoyon bo'lishini tan olishni buddaviylikni assimilyasiyalashuviga turtki berdi. Odatda Vishnuni shoh tojini kiygan ilonni ustida yastanib yotgan holda tasvirlashadi.

Hinduylarning yana bir qismi Shivani oliy iloh hisoblashadi. Shiva yaratuvchilik va vayronagarchilik ilohi. Odatda bosh suyaklarini ilib olgan yoki raqsga tushayotgan holda tasvirlanadi. Shivani aksari muqaddas buqa kuzatib yuradi.

Hiinduylik kulti panteonida 13 ta asosiy va 12 ta ikkinchi darajali akxar – ko'pminglik birodarlik guruhlari mavjud. Akxarlar Shiva va Vishnaga e'tiqod qiluvchilarga bo'linadi. Vishnuitlar o'z navbatida ramaitlar va krishnaitlarga bo'linishadi. Akxar yo'lboshchilari

odatda xalq oldiga boy bezatilgan filda, otda yoki maxsus palankin elkada ko'tarrib yuriladigan moslamada chiqadilar. Hinduylikda ibodatxonalarda e'tiqod yig'inlari o'tkaziladi. Bayram marosimlarining muhim qismi tantanali yurish va oldinda xudoning haykalini, tasvirini ko'tarib olish tashkil etadi. Qonli qurbonliklar asta-sekin taomildan chiqdi. Uning o'rniga ilohning rasmi ustiga guldan chambar ilish, turli ufforli shamlarni yondirish, yoritgichlar va boshqalar namoyish qilinadi. Bu udumlar aksari raqslar, musiqa, dostonlardan qo'shiqlar ijro etish bilan kuzatib boriladi. Ibodatxonalarda kohinlardan tashqari raqqosa va musiqachilar ham yashaydilar.

Hinduylikning asosiy mafkurasi dxarma g'oyasida yorqin namoyon bo'ladi. Dxarma – har bir insonning jinsi, yoshi eng asosiysi tug'ilgandan qaysi kastaga mansubligiga qarab berilgan huquq va majburiyatlari yig'indisidir. Hinduylikning muhim qoidalari karma (faoliyat, harakat)da mujassamlashgan. Agar sen kamsitilgan, kambag'al, xo'rlangan bo'lsang demak sening karmang bunga sababchi. Demak, sen avvalgi hayotingda o'zingni yomon tutgansan, ilohlarni e'zozlamagansan, keksalarni hurmat qilmagansan va hokazolar.

Hinduylik diniy ta'limotida reinkarnatsiya qaytadan tirilish, ya'ni o'limdan so'ng insonning ruhi o'zga moddiy tanaga o'tishiga ishonch katta o'rin tutadi. Uni qanday jonlanishi insonning bu dunyodagi faoliyati, kasta qoidalariga rioya qilganligi va hokazolar asosida bo'ladi.

Hinduyning bosh hayotiy maqsadi – makshi, ya'ni qayta jonlanish zanjiridan xalos bo'lib, Oliy Ruh bilan qo'shilishib ketishidir. Bunga erishish uchun inson ko'p kuch sarflashi ma'lum harakatlar qilishi, kamsuqum, kamtarin bo'lishi qurbonliklar va homiyliklar qilishi lozim edi. Bu borada eng keng tarqalgan xizmat ko'rsatish usuli ziyoratlardir. Har yili muqaddas joylarga ziyoratga otlangan hindlarning aniq sonini hech kim hisoblay olmaydi. Tadqiqotchilar ziyoratchilarni 30-80 mln atrofida deb aytishadi.

Dxarmadan tashqari insonning hayoti maqsadlari qatorida artxa va kamalar ham bor. Artxaning mo'ljali bo'yicha inson o'zi, o'z oilasini moddiy jihatdan ta'minlashi, davlat qonunlariga bo'ysunishi, dunyoviy vazifalarni bajarishi lozim. Kama – xis-tuyg'ularidagi za-

vq-havasni qondirish, keng ma'noda adabiyotdan, san'atdan, insonlar bilan muloqotdan, tor ma'noda o'z sevgilisi bilan yaqin munosabatdan zavq-rohat olishi tavsiya qilinadi. Bu mavzuda Vatsyanna tomonidan m. III asrda "Kamasutra" traktati yozilgan.

Ijtimoiy munosabatlar masalasida hinduylik: insonlar orasida muloqotlar, ular mansub bo'lgan ijtimoiy doira bilan cheklangan. Turli kastalar orasida faqat nikoh emas, hatto birgalikda taom iste'mol qilish ham ta'qiqlanishi, kasta bo'yicha kasbni o'zgartirishni mumkin emasligi va hokazolar. Yosh bolalar orasida nikoh keng tarqalgan. Bevalarni qayta turmushga chiqishi yoqlanmagan. Bevalarga eng yaxshi narsa sati – o'zini olovga tashlashi hisoblangan.

Hinduylik tarafdorlari muqaddas hayvonlarga: sigirlar, buqalar, zebu, maymunlarga sig'inganlar. Hindiston shaharlari ko'chalarida yuz minglab sigirlar hech qanday nazoratsiz daydib yuradi. Sigirni o'ldirish yoki uni go'shtini iste'mol qilish katta gunoh sanaladi. Oliy kastalarga vegetarianlik (go'shtsiz taom iste'mol qilish) tavsiya qilingan. Ko'p joylarda kobralarga sig'inilib, ular koinotni tayanchi degan tasavvurlar mavjud.

Hind qishlog'ini pandita – hikoyachisiz tasavvur qilish mushkul, odatda bu vazifani mahalliy braxman bajaradi. U kuniga buloq boshida ikki marta tahorat, uch marta ibodat qilib, bo'sh vaqtlarini kitob mutolaa qilish bilan o'tkazadi. Dehqonlarni braxman bilan suhbati odatda uning uyi yaqinida, kundalik yumushlar bajarib bo'linganidan so'ng kechqurun o'tkaziladi. Tinglovchilar huzuriga chiqishdan avval braxman peshonasiga muqaddas kul sepib, uzun sharfga o'raladi. Pandit "Ramayananing barcha 24 ming misrasini", "Mahabhoratni" 100 ming misrasi va "Bxagavadgit"ni – 18 ming qator baytini yoddan bilishi talab etilgan.

Hindlarda Gang daryosi muqaddas sanaladi. Hindistonda ushbu daryoni Ganga deyishib. Bu qadimgi Ona iloh kulti bilan bog'liq. Bizning kunlarmizda ham Ganganing sohiliga yuz minglab kishi Kumbxmela uning suvlarida tozalanish uchun keladi. Ziyoratchilar faqat o'zlarining gunohlarini emas, o'tgan 80 avlodlarini turli mavjudodlar qiyofasida, keyingi qayta tug'ilishlardan xalos etadi. Tahorat turli shaharlarda amalga oshirilsada, eng muqaddas shahar shuhratini Uttar Pradesh shtatidagi Ollohobod shahri egallagan. Sa-

babi u hinduylar yuksak qadrlaydigan Ganga va Jamna daryolari qo'shilgan joyda joylashgan. Bizning kunlarimizda Kumbx – mela ulkan shou singari qabul qilinib Hindistondan boshqa mamlakatlarga ham televidenie orqali namoyish qilinmoqda. Zamonaviy Kumbx mela siyosiy kurash maydoniga ham aylangan. Xususan 1967 yili Ollohobod Kumbx melasida yangi jamoatchilik tashkiloti Vishva hindu parishad (VXP: "Hinduylarning butun jahon kengashi") tuzilgan. VXP 1989 yili "Xudo Ramaning tug'ilgan joyini" Ayox'a shahridagi Bobur maschiti o'rnini qaytarib olish haqida qaror qabul qiladi. 1992 yil 6 dekabrda bu qaror amalga oshiriladi. Machitni buzilishi musulmon va hinduylarning og'ir qarama-qarshiligini vujudga keltirdi. Asli italiyalik va katolik diniga mansub, Hindiston Milliy Kongressi partiyasi etakchisi, Radjiv Gandining bevasi. Indira Gandining kelini Soni Gandi 2002 yili Kumbx melu bayramiga tashrif buyurishi, uning siyosiy tus olganiga bir misoldir.

3. Himolayoldi hududlaridagi madaniyatlarning o'zaro ta'siri. Rasalar. Tillar tabiat. Hindiston yarim orolining shimoliy-sharqida Janubiy Osiyo. Sharqiy Osiyo va Janubiy-Sharqiy Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari to'qnashgan hududlarda faqat janubiy evropoidlar emas mangoloid irqiga mansub aholi ham yashaydi. Gap Nepal qirolligi va Butan aholisi haqida ketib, ular tibet – birma til oilasining qator (vadakxi, bxoti, nevari) tillarida so'zlashadilar. Mongoloidlar Bangladesh respublikasida, Hindistonning shimoliy-sharqiy shtati – Assamda ham bo'lib, ulardagi aholi tibet-birma va mon-kxmer (kxasi) tillariga mansub. Ular qatorida ushbu hududlarning tekislik qismida assamliklar va bengallar istiqomat qilib ularda evropoidlik xususiyatlari hukmron.

Ko'rsatilgan hududlarning tog' relefi mahalliy aholini rang-barangligi, ba'zida qo'shni vohalar aholisini tili, xo'jalik – madaniy tiplarini bir-biridan farqlanishiga olib keladi. Toqqa ko'tarilgan sari sun'iy terassalarda dehqonchilik (sholi, no'xot, makkajo'xori) chorvachilikka o'z o'rnini bo'shatadi. Voha qishloq aholisining an'anaviy kiyimlari dxoti (erkaklar kiyimi) va sari (ayollarni o'rama kiyimi) o'rnida jundan kiyimlar va etik, hinduylik dini o'rnida buddaviylik keng tarqalgani xususiyatlidir. Shimoliy tog'li vohalar erli ayollari peshanalariga tika qo'ymaydilar, Hindistonning voha ayollaridan

farqli sochlari o'rtasini o'simlik bo'yog'i bilan bo'yamaydilar, ayni paytda burunlariga katta tillo uzuk taqib, qo'l va oyoqlarini tatuirovka qiladilar. Qachonlardir vohalarni egallagan tog'li aholi jamoa urug'chilikka asoslangan turmush tarzini saqlab, kasta tizimi va hinduylikni qabul qilmasdan, qadimgi dinlari va buddaviylikka sig'inishsa, ma'lum qismi xristianlik diniga o'tgan. Ular qadim zamonlardan daraxtlarni kesib, kundakov qilib shox-shabbalarini yondirib dexqonchilik qilishadi. Natijada ilk tropik o'rmonlar deyarli yo'qotilib o'rnida butun dunyoga mashhur choy plantatsiyalari yaratilgan.

Xo'jalik. Issiq nam iqlim, daryolarning ko'pligi (Gang, Braxmaputra va h.k.), ko'llar va hovuzlar yil davomida uch marta – kuzgi, qishki va yozgi – sholi hosilini olish imkonini beradi. Gurunch hududda asosiy oziq mahsuloti qadimgi hind tillarida "taom" so'zi aniq – "qaynatilgan gurunch" ma'nosini bergan. Sharqiy Hindistonni yirik xalqlari shudgor dexqonchiligi bilan shug'ullanadilar. Lekin kichik xalqlar, munda va dravidlar qo'l dehqonchiligini saqlab daraxtlarni kesib yoki terassalar qilib xo'jalik yuritishda davom etishmoqda. Hudud tabiiy qazilmalar bilan boy, hozirda Sharqiy Hindiston sanoat borasida eng yuksak taraqqiy etgan hududlardan, endilikda mahalliy kasta tizimiga kirmagan qabilalarni xo'jalik va ijtimoiy hayotga jalb etish muhim vazifadir.

O'lka aholisi hayotida qadimdan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tranzit savdo katta ahamiyat kasb etgan. Uning shaharlari va vohalari orqali Buyuk Ipak yo'li karvonlari harakatlanib ushbu savdoda mahalliy aholi vositachi – savdogarlar, yo'l ko'rsatuvchilar va tuyachilar bo'lib xizmat qilingan.

Janubiy Osiyoda. Buddaviylik ("haqiqatning sof nilufari") Bu hududda buddaviylik hukmron dinga aylangan. Budda odamlarga m.av. 623 yili oddiy ayoldan – Janubiy Nepaldagi unchalik katta bo'lmagan davlat hukmdori rafiqasidan tug'iladi. Bu asr Xitoyda Lao Szi va Konfutsiy, O'rta Osiyo va Eronda – Zoroastr, Yunonistonda Pifagor davri edi. Shaxzodani Siddxartxa Gautama deb atashdi. Yoshi ulg'ayib Gautama odamlarni kasal bo'lishi,o'lishini ko'rib hayotning mazmuni haqida o'ylana boshlaydi. U insonlarga haqiqatni izlab topishda ko'maklashish uchun 29 yoshida Hindiston tomonga sayohatga chiqadi. U 6 yil davomida Ganga vohasida yurib, 35 yoshlarida ezgulikni yaqinlashganini sezib meditatsiyaga tushadi. Shu holatda u Budda – nirvanaga erishib, unga dunyo hayot qonunlari ayon bo'ladi. Hindistonda 45 yil yurgan Budda o'z ta'limotini ikki tilda – kali va sanskritda targ'ib qiladi. U sakson yoshida hayotdan ko'z yumadi. Buddaviylik Hindistonning hayot tizimiga moslasha olmay, amalda yo'qolib, mamlakatning shimoliy viloyatlari, Bangladeshni janubiy rayonlarida, Nepal, Butan, Shri-Lankada qisman saqlanib qoladi.

Buddaviylikning ayrim ramzlari va buyumlari uning o'zidan ancha qadimiyroq. Masalan, Siddxartxa meditatsiyada o'tirgan daraxt qadimgi daraxtlar kultiga mansub. G'ildirak quyoshning va podsho hokimiyatining qadimgi ramzlaridan – Buddaviylik ta'limoti "Dxarma g'ildiragini burilishi" deb nomlangan.

Asosiy ibodat markazi keliga o'xshash- sun'iy qo'ng'iroqsmon tepalik bo'lib uning tepasi zont bilan yopilgan. Unga namuna Hindistonning ayrim rayonlarida uchraydigan buddaviylikdan oldingi davrlarga oid qo'ng'iroqsimon tepaliklar bo'ladi. Ularda uzoq o'tmishda marhumlarni o'tirgan holda "yogi" tana holatida ko'mishgan. Buddaviylik me'morchiligida eng keng tarqalgan usullardan biri dzongi – ulkan hajmdagi monastir qal'alardir. O'tmishda xavf tug'ilsa atrofdagi barcha aholi dzongada yashiringan.

Buddaviylik ibodatxonalari devorlariga ko'plab yog'ochdan nog'oralar ularga bitilgan diniy matnlar mahkamlab qotirilgan. Bu dildorlarni ibodatga kelganlarida ularni qo'llari bilan aylantirsalar duolarni ko'p martalab o'qiganliklarini anglatgan. Buddaviylik monastirlari siyosiy hayotda muhim o'rin tutgan.

Hinduylikka e'tiqod qiluvchilar singari buddaviylikda ham mayitlarni gulxanlarda yondirishadi. Muqaddas daryolar ayniqsa Bagmati bo'yida krematsiya faxrli hisoblanadi. Marhumning qarindoshlari motam kiyimi oq rangli, marhumning o'g'illari soqollarini, mo'ylovlarini olishadi.

Buddaviylik uchun ruhoniylarning ko'pligi xususiyatli. Lam – ba'zi joylarda erkak aholining beshdan birini tashkil etadi. Bu faqat ma'naviy ehtiyojlarga bog'liq bo'lmay, qadimgi ijtimoiy institut poliandriya (ko'p erlilik) bilan ham izohlanadi. Bu hududda

tarqalgan yirik oilalarda katta o'g'il odatda o'z xotinini ukalari bilan bo'lishadi. Bunday jamoaviy nikohdan tug'ilgan farzandlar umumiy hisoblanadi. Olimlarning fikricha poliandriya qalin to'lash odati tufayli shakllangan. Odatda kichik o'g'illar oiladan voz kechib ibodatxona va monastirlarga lam – xizmatga ketishgan. Hozir ham to'yda kuyov yonida uning ukasi – yoki jiyani o'tirib, agar kuyov vafot etsa aynan shu shaxs uni almashtirgan.

Oilaviy hayotning xususiyatlari. Zamonaviy oilaviy turmush asosida qadimgi an'analar yotib ular jamoaning har qanday a'zosi hayotini tartiblashtiradi. Hali – hanuz ertalab va kechqurun, ota-onasining poyiga boshi tekkuncha egilib ta'zim – hurmat bajo etishadi. Nepal poytaxti Katmanduda hozirga qadar tirik iloha Kumari kulti saqlangan bo'lib, uni eng chiroyli va jasur 4-5 yoshli qizaloqlar ichidan saylashadi. Kumari alohida uyda tashqi dunyo bilan aloqasiz yashaydi. Yilda bir marta Kumari – jatra bayramida uni aravaga o'tkazib shahar ko'chalaridan olib o'tishadi. Qiz nikoh yoshiga etganida uning alohida uyda yashashi yakuniga etib yana yangi iloha Kumarini saylashadi.

1963 yili yangi qonunlar majmui qabul qilinib rasmiy tarzda kasta tizimi bekor qilindi. Nepal va Butanda braxmanlar va boshqa kastalar a'zolari orasida keskin professional tafovutlar bo'lmagan. Sababi bu mamlakatlarga Hindistondan immigratsiya qilgan braxmanlarning faqat ayrimlarigina yangi joyda kohinlik qilgan.

5. Hindistonda evropaliklar bosqinlari. "Norozilik yuksalishga omildir" (Maxabxarata). Yevropaliklardan Hindistonga dengiz orqali ilk bor portugaliyaliklarning Vasko de Gama boshchiligidagi ekspeditsiyasi arab lotsmani yordamida etib keladi. Bu evropaliklarning muhim yutug'i portugallarni noqulay holatga tushiradi. Afrikadagi aborigenlar bilan muloqotda arzimagan narsalarni sovg'a qilishga o'rgangan portugallar Kalikut hokimiga sovg'a tarzida o'z mollari namunalari, bir necha idishda asal, bir necha bo'lak dag'al mato va bir-ikki shoda marjon olib kelishgan. Hokimning taqinchoqlari portugallarni barcha kemalaridan qimmatroq turardi. Portugallarni arzimagan sovg'alarini ko'rib hokim kulib qo'yadi. Yevropaliklarni eng avvalo ziravorlar qiziqtirardi. Portugallar Hindistonga katolitsizmni keltirib, hindlarni inkvizitsiya bilan tanishtirdilar. Min-

glab kishilarni gulxanga tashladilar. Xolbuki Hindistonning janubida suriya xristianlari jamoalari milodning dastlabki asrlaridan yashab kelgan.

Portugallarning Hindiston bilan savdo aloqalari qaroqchilikdan boshlangan sababi ularda hind savdogarlarini qiziqtira oladigan darajadagi va hajmdagi buyumlarning o'zi yo'q edi. Aynan portugallar Hindistondagi evropa mustamlaka bosqinlarini boshlab berdilar. Endilikda bu o'tmish, lekin portugallarning Hindistondagi koloniyalari Goa, Diu va Damanlar XX asrning 60-yillaridagina ozod qilindi. Endilikda Goa butun dunyoda dong'i ketgan kurort. Hind tarixining ushbu davridan esdalik sifatida turli geografik nomlar qolgan. Masalan mamlakatning yirik port shahri Bombey, portugalcha "bom boie"ya'ni – "yaxshi qo'ltiq" so'zlarining buzib aytilishidan vujudga kelgan.

Portugallar ortidan, gollandlar, fransuzlar, kelib topivale – "bu shlyapadagilar" o'rta asrlar, yangi davrning boshlarida hindlar evropaliklarni shunday ataganlar.

Mahalliy aholiga nisbatan mensimaslik munosabati evropaliklarga o'z odatlarini o'zgartirish, iqlimga mos yashashlariga halaqit bergan. "Bu shlyapadagilar og'ir movut yoki barqutdan bo'lgan kiyimlarda yurishgan, ko'p ichganlar, rostbif va cho'chqa go'shtidan kolbasa eganlar. Uylar mavzelar qurilishida mahalliy me'morchilik an'analarini e'tiborga olmaganlar. Oqibatda Madrasdagi Sent Jorj fortidagi ingliz qabristoniga kirsangiz. ellik yoshini nishonlaganlar kam bo'lganiga ishonch hosil qilasiz". Hindistonga inglizlar bosqini ayniqsa og'ir oqibatlarga olib keldi. Hindiston deyarli ikki asrga "Britaniya imperiyasi tojining marvaridi"ga aylanadi. Hindiston inglizlarning agrar xom- ashyo ba'zasiga, o'z sanoati mollarini sotish bozoriga aylanadi. Angliya mamlakatining tabiiy boyliklari va tashqi savadosini qo'lga olib Hindistonni texnik qoloqligini umrboqiy qilishga intildi. Arzon ingliz mollarini sotilishi hind xunarmandchiligini inqirozga uchratib, shaharlarning mavqeini pasaytiradi. Mustamlakachilar muntazam yer solig'ini – zamindori, joriy etib minglab gektar yerlarni oziq mahsulotlari yetishtirishdan texnik o'simliklarga shakarqamish, jgut (poyasidan tola olinadigan o'simlik) ekishga o'tkazdilar. Natijada Hindistonda millionlab kishilar ocharchilik qurboni bo'la boshladilar.

Ingliz mustamlaka ma'muriyati Hindiston ustidan o'z hukmronligini umrboqiy qilish maqsadida unda yashayotgan xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirmaslik siyosatini olib borganlar. Xususan inglizhind qo'shiniga aksari sikhlarni va gurkxlarni jalb etilishi ham shu siyosat tufayli edi. Shu sabablarga ko'ra kasta tizimi mustahkamlangan, diniy jamoalar orasida mojarolar kuchaytirilgan, ko'p sonli mayda qabila guruhlari tarqoqligini saqlashga intilganlar. Ularning yerlarini ingliz ma'muriyati qo'llashida feodallar, boylar egallaganlar. Britaniya mustamlakachiligi yakuni o'ziga xos mashhur, inglizlar ketganidan so'ng mamlakat ikkiga bo'linib – Hindiston va Pokiston hinduylar va musulmonlar jamoalari orasida qonli to'qnashuvlar, urushlar bo'ldi.

Angliyaning Janubiy Osiyo xalqlariga madaniy ta'siri cheklangan va ziddiyatli tusda Britaniya hukmronligi hind madaniyatini taraqqiyotiga to'siq bo'lib, qator masalalarda uning yutuqlarini yo'qolishiga sababchi bo'ldi. Hindistonni inglizlar istilo qilishlari arafasida u bu borada yevropadan deyarli ortda emasdi. Mamlakatni mustamlaka etilishi savodxonlikni pasaytirib, hind jamiyatida mavjud qoloqlik unsurlarini saqlanishiga, maorifni mustamlakachilar manfaatlariga xizmat qilishiga va hokazo salbiy jihatlarni kuchaytirdi. Ko'plab milliy madaniyat yodgorliklari barbod qilindi. Osori-atiqalar talanib metropoliyaga olib chiqib ketildi. Ijobiy jihatlariga kelsak inglizlar Hindistonning tabiiy boyliklarini qayta ishlash sanoati barpo etdilar. Meditsina xizmati, maorif tizimi ingliz tajribalariga suyanib maktab ta'limi, kollejlar va universitetlar tarzida rivojlantirildi. Ingliz tili Hindistonda milllatlararo muloqot tili, ikkinchi davlat tiliga aylandi.

Janubiy Osiyo uchun evropalashish jarayoni xususiyatli bo'lib – u hind jamiyatining eng muqaddas narsasi – oilaga ta'siri ayniqsa aholining o'rta va yuqori toifalarida sezilmoqda. Yer va xotinlar bir-birlariga ismlarini aytib murojaat qila boshladilar.

Erlar ayollarini begona erkaklar oldiga olib chiqishi, er-xotin evropacha birgalashib, to'ylar va boshqa tadbirlarga borishlari. Qizlarga turmush o'rtog'ini tanlash imkoniyatini berilishi va hokazolar bu hind jamiyatidagi so'nggi o'zgarishlardir.

6. Yangi davr – yangi tamoyillar. Iqtisodiyot va etnik guruhlar. Zamonaviy Hindistonda milliy madaniyatlar insoniyatning

baynalminal madaniyati bilan chatishib ketmoqda. Hindiston va u bilan qo'shni mamlakatlar savdo va sanoati XX asr boshlariga qadar juda sekin yuksalgan. Xususiyatlisi ushbu xo'jalik sohalarida jamiyatning asrlar davomida merosiy kasb bo'lib kelgan, qatlamlari mashg'ul bo'ladi. Jumladan Axmadobod tekstil sanoatining yangi markazi Boburiylar davrida ham va hatto undan ham avval xunarmandchilik va savdo markazi bo'lgan. Gujoratlar orasida qadim paytlardan ko'plab savdogarlar, xunarmandlar, dengizchilar bo'lgan. Ulardan bugungi kunda ko'plab sanoat va savdoning taniqli rahbarlari yetishib chiqdi. Marvarilar (rajputanlar) ichki savdo va moliyani nazorat qilganlar. Ular bugungi kunda ham yirik pul kapitali vakillari ayni paytda sanoat bilan ham shug'ullanmoqdalar. Sikxlarda (Hindiston va Pokistondagi yirik etnos) ham eski savdo an'analari bo'lib, o'z markazlari shaharlar yoki Haydaroboddan faoliyatlarini Old Osiyo va boshqa mamlakatlarga yoymoqdalar. Kalkutta ingliz kapitali va sanoatini yirik markazi bo'lib qolmoqda, lekin so'nggi paytlarda inglizlarga marvari va gujoratlar raqobatchilik qilishmoqda. Mumbay (Bombey) hindlarga mansub sanoat, savdo, bank ishi, sug'urta va hokazo faoliyat turlari markazi hisoblanadi. Bu ishlarda forslar etakchi, gujarot, maratxlar ular qatorida. Maratxlar meditsina, advokatura, ilm-fanda muvaffaqiyat bilan ishtirok etmoqdalar. Ulardan yaxshi harbiylar. Tekstil sanoati ishchilari yetishib chiqmoqda. Panjobliklar mayda savdoda va kustar sanoatda faol qatnashmoqdalar. Hindistonning sanoati birinchi jahon urushi davrida ingliz tovarlari oqimi to'xtaganida rivojlana boshlaydi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng (1947 y.) mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohada sezilarli taraqqiyotga erishdi. Hindiston iqtisodiyotining bosh sohasi qishloq xo'jaligi 65% aholini hayotini ta'minlab, eksportning ham asosiy qismini tashkil etadi. Dehqonlar hali hanuz barcha dala ishlarini qo'lda bajarishadi. XX asrning ikkinchi yarmidan mamlakatda industrializatsiya sodir etildi. Uning bosh maqsadi ishlab chiqarishni yuksaltirish, milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish, bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini joriy etish, xorijiy kapitalni kirituvchilar bilan aloqalarni yuksaltirish, yangi texnologiyalarni kiritish bo'ldi. Hindistonning yirik savdo hamkorlari qatorida AQSh, Yaponiya. Yevropa hamjamiyati hisobla-

nadi. Xorijga eksportning asosiy mahsulotlari tekstil, kompyuterlar uchun dasturiy ta'minot, farmatsevtika mahsulotlari va hokazolardir.

Hindiston 1974 yili birinchi. 1998 yili ikkinchi yadro sinovini o'tkazdi. Yadro quvvati mamlakatga elektr quvvatini bermoqda. Ushbu hududda Pokiston ham yadro quroliga ega. Bu ikki mamlakat orasida uzoq davrlardan buyon Kashmir masalasida mojaro davom etmoqda.

Industrlashtirish yirik millatlarni shakllanishi borasidagi jarayonlarni tezlashtirdi. Bunga javoban mamlakat ma'muriy bo'linishini qaytadan ko'rib chiqish talab etildi. Ilgarigi o'ta mayda bo'linish (mustamlaka paytida Hindistonda 600 dan ortiq knyazliklar bo'lgan), maydon, aholisi orasidagi keskin tafovutli ma'muriy birliklar, lingvistik tizim asosidagi hind etnoslari joylashishiga nisbatan mos keladigan shtatlarga almashtirildi. Ularni barpo etishda mahalliy etakchilar, yirik milliy partiyalar katta rol o'ynadilar. Ular qatorida Assam xalq Kengashi. Manikur federal partiyasi. Kerala Kongressi, Jamnu va Kashmir milliy konfederatsiyasi va hokazolar bor. Hozirgi kunda shtat tili asosidagi: "bengallik", "assamlik", "gujarotlik" tushunchalari tarqalib bormoqda.

Tillar va etnik jarayonlar. Qadimgi Hind adabiyoti doirasida, ayrim lokal adabiyotlar, bo'lajak milliy adabiyotlar xabarchilari shakllana boshlaydi. Ayrim mahalliy tillar – hind, bengali, gujaroti, maratxi, urdu, tamil va telegu ancha oldindan adabiy tilga aylanib, ularda badiiy va boshqa (dostonlar, qo'shiqlar to'plamlari va h.k.) asarlar yozilgan. Ulardan maratxlar tili XIII-XVII asrlarda o'rta asr shoir din targ'ibotchilari Vitxoba (Krishnaning mahalliy siymosi) ning go'zalligi va rahmdilligini kuylagan qo'shiqlari orqali shakllangan. Ilmiy asarlarni odatda sanskrit yoki fors tilida bitishgan, har bir ma'lumotli kishi ulardan birini bilishi tabiiy hol hisoblangan. Bu ikki klassik tillar uzoq vaqt etakchi rol o'ynab, hind provinsiyalari xalq tillarini yuksalishiga yo'l qo'ymagan. Kitob va gazetalarni nashr qilinishi klassik tillarni ta'sirini pasaytirdi.

Har bir mamlakat uchun turli millatlararo muloqot tilining bo'lishi muhimdir. Hozirga qalar ushbu til hind tillaridan biri bo'lishi kerakligi fikri o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Umum hind tilini shakllanishida kinematografning roli katta. Aynan filmlarga hind tilida ovoz berilishi uning hatto Hindistonning janubida Tamilnadda tushunishlariga olib kelmoqda. Hind kinematografiyasi sanskrit va fors tillaridan olingan so'zlarni kam bo'lishiga intiladi. Ro'znomalar va badiiy adabiyotda ham hind tilini tozalashga harakat qilinmoqda. Birlashtirish vazifasini qisman ingliz tili bajarmoqda. Shu tariqa hozirgi kunda Hindiston uchun bilingvizm (ikki tillik) – maishiy turmushda va ishda mahalliy tillarni ishlatish boshqa elat va xalq vakillari bilan muloqotda ingliz yoki mamlakat aholisining ¼ ning tili hind tilini ishlatilishi kengayib bormoqda.

Etnoslararo mojarolar. Janubiy Osiyo mamlakatlari polietnosli ularning siyosiy hayotida hokimiyatni va turli ijtimoiy imkoniyatlarni alohida etnoslarga taqsimlashdan iborat. Milliy siyosat umummamlakat miqyosida mojarolarsiz ijtimoiy-siyosiy integratsiyani ta'minlab bera olmadi.

Bu borada Shri Lankadagi singal – tamil mojarosini ko'rsatish joiz. Bu mamlakat aholisining ¾ qismi singallar, tamillar 20% atrofida, mavr va maliylar 7%, byurgerlar (gollandlar avlodlari) – 0,3%. Millatlararo mojaro 1950-yillarda mustaqillikka erishilganligining dastlabki davrida boshlansada, uning ildizlari uzoq o'tmishga ketadi.

Etnosning o'z-o'zini anglashida aksari din muhim o'rin tutadi. Shri Lankada milliy jamoalarning qarama-qarshiligiga etnik va konfessional mansublik asos bo'lmoqda. Singallarning 95% buddaviylar, tamillarning 90% hinduylikka e'tiqod qilishadi.

Mamlakatda hokimiyatga millatchilik ruhidagi singal etakchilarini kelishi va singallashtirish siyosatini boshlashi, singallarga siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda afzal sharoitlarni yaratish mojaroni kuchayishiga olib keldi. Singal tili yagona davlat tili deb e'lon qilinib, davlat xizmatiga kirish uchun uni bilish majburiy etib qo'yilib, tamillarni ma'muriy sohadagi ishlardan chetlata boshlanadi.

Shri Lankadagi mojaroni bartaraf etish uchun Hindiston 1985 yildan vositachi bo'lib 1987 yili kelishuvga erishadi. Lekin keyiinchalik tamillarning "Tamil ilamni ozod etish yo'lbarslari" tashkiloti o'nlab yillar davomida singallarga qarshi qurolli kurash olib bordi.

Diniy mojarolar ham etnik tus olishi mumkin. Shimoliy Hindis-

tondagi Panjob shtatida yashayotgan sikxlar muammosi aynan etnokonfessional xususiyatga ega. Ayni paytda konfessional tafovutlarga iqtisodiy masalalar ham qo'shilgan. Hindiston mustaqillikka erishgach sikxlar shaharlarda tadbirkorlik faoliyatlarini olib borishlarida qattiq raqobatga uchramoqdalar.

Sikxlar etakchilari panjob tilli lingvistik shtat tuzish uchun kurash boshlaydilar. Panjob 1960 yili ikki tili shtat deb e'lon qilindi. Lekin bu sikxlar rahbarlarini qoniqtirmadi. Hukumat 1966 yili sikx aholili hududlarni Panjob, hindlar yashaydigan hududlarda Xaryana shtatini tuzdilar. Sikxlar bunga ham qoniqmasdan XX asrning 80-yillarida Xoliston nomli sikx davlatini tuzish harakatini boshladilar. Markaziy hukumatga qo'yilgan talablar: iqtisodiy, hududiy va diniy – ramziy masalalarga tegishli edi. Sikxlarni alohida millat deb tan olib, ularga keng avtonomiya berish talab qilindi.

Ekstremistik harakatlar kuchaya bordi. 80-yillarning o'rtalaridan har ikki tomon kuch ishlatishga o'tdi. Markaziy hukumat sikxlarga nisbatan qator harbiy choralarni qo'lladi. Amritsardagi sikxlarning "Oltin ibodatxona"sini ekstremistlardan tozalashda ko'plab sikxlar halok bo'ladi. Sikxlar bunga javoban Indira Gandiga suiqasd uyushtiradilar.


Panjobni Hindistondan ajralishi deyarli mumkin emas. Sikx etakchilarini o'z siyosiy maqsadlariga terror va harbiy harakatlar orqali erishish maqsadlari Hindiston ahli tomonidan qo'llanmaydi. Qolaversa sikxlarning talay qismi Panjobdan boshqa shtatlarda yashaydi. Shuning uchun toza sikxlardan iborat Xoliston davlatini tuzish shiori xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qo'llanilmayapti.

Savol va topshiriqlar.

1. Janubiy Osiyoning qadimgi avstroloid aholisi haqida nimalarni bilasiz?
2. Hindoriylar kim? Ularning ijtimoiy hayotining xususiyatlarini so'zlab bering.
3. Janubiy Osiyoda musulmonlar va sikxlarni shakllanishi qanday kechgan?
4. Hinduiylik haqida qo'shimcha ma'lumotlar topib mustaqil ish tayyorlang.

5. Hindiston yarim orolidagi rasalar, tillar va xo'jalikdagi xususiyatlar nimalardan iborat?
6. Himolayoldi hududlarda o'zaro madaniy aloqalar: rasalar, tillar, tabiati qanday?
7. Janubiy Osiyoliklar oilaviy hayotining xususiyatlari nimada?
8. Hindiston yarim oroli evropaliklar mustamlakasi davrida.
9. "Yangi davr – yangi tamoyillar " tushunchasini izohlab bering!
10. Janubiy Osiyodagi etnik mojarolar haqida nimalarni bilasiz, gapirib bering!

10-BOB. MARKAZIY VA SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARI



1. Geografik, lingvistik va antropologik tavsif. Markaziy va Sharqiy Osiyo ulkan hududlarni egallab, Yevroosiyo qit'asining to'rtdan birini (12 mln.km^2) tashkil etadi. Bu hududda Mo'g'uliston xalq respublikasi (2,3 mln. kishi), Xitoy xalq respublikasi (1.200 mln.), Koreya (ikki davlat KXDR) va Koreya respublikasi (68 mln.kishi) shuningdek Yaponiya (126 mln.dan ortiq) joylashgan. Yevroosiyoning bu katta qismi tog' tizmalari bilan qoplangan. Faqat dengiz bo'yi sharqiy tomonda tekisliklar xususan Buyuk Xitoy tekisligi joylashgan. Yapon orollari va Koreya yarim orolida tekisliklar yana ham kam. Sharqiy Osiyoning janubiy-g'arbiy qismini yer yuzidagi eng yirik yassi tog'lik- Tibet egallab turibdi. Bu joydan ko'plab yirik daryolar, ular qatorida ikki buyuk Xitoy daryolari Yanszi va Xuanxelar boshlanadi. O'lkaning g'arbiy qismida iqlim keskin-kontinental, yog'ingarchilik kam bo'ladi. Hududda Toklamakan eng kam suvli va Gobi cho'llari mavjud. Yog'ingarchilik miqdori okeanga yaqinlashgan sari ko'payib boradi. Xitoyning iqlimi shimoliy-sharqda mo'tadil, janub tomon subtropik va tropik iqlim kuchayib boradi.

Markaziy va Sharqiy Osiyoda odamlar juda qadimdan yashaganlar. Chjoukoudyan (Pekin yaqinida) g'oridan topilgan ibtidoiy odam suyaklari – sinantrop bundan 600-500 ming yil ilgari yashagan. M.av. III-II ming yilliklar chegarasida Xuanxe daryosi vohasida Osiyoning ushbu qismidagi ilk davlat Shan vujudga keladi. M.av. 221 yili Xitoy xukmdori o'ziga imperator unvonini oladi. Xitoy imperiyasi tarixida shimoldan ko'chmanchilar xususan xunnlar bilan doimiy urushlar bo'lgan. M. VI asr o'rtalarida Markaziy va Sharqiy Osiyoning shimoliy tomonida kuchli Turk xoqonligi tashkil topib, VII asrda Xitoy u bilan uzoq davom etgan urushlar olib boradi. Turklardan so'ng kidanlar bilan, XIII asrdan mo'g'ulllar bosqiniga

qarshi, XVII asrda manchjurlarga qarshi urushlar olib boriladi. Xitoy XIX-XX asrlarda evropa davlatlari va yaponiya ekspansiyasiga uchraydi. Bu voqealarning barchasi nafaqat Xitoyning balki Markaziy va Sharqiy Osiyo boshqa xalqlari siyosiy va madaniy taraqqiyotiga ta'sir etgan.

Antropologik jihatdan Markaziy va Sharqiy Osiyoning barcha xalqlari katta mongoloid irqini turli tiplariga mansubdir. Faqat uyg'urlar qisman mongoloidlik belgilari bo'lgan evropoidlardir.

Hudud aholisining tillari oltita yirik til oilasiga kiradi. Oltoy til oilasida uyg'urlar (7 mln.kishi), qozoq va qirg'izlar turkiy til guruhiga kiradilar. Mo'g'ul tillarida Xitoyda (4 mln.) MXRda (2,2 mln.) va oyratlar gaplashadi. Oltoy tillarining tungus-manjur turkumida manjurlar (10 mln.) ularning ko'pi hozirda Xitoy tilida so'zlashadi. So'nggi tadqiqotlar bo'yicha koreys va yapon tillari ham oltoy til oilasiga kiritildi.

Sino-tibet (xitoy-tibet) til oilasi ikki guruhga bo'linadi. Xitoy guruhiga deyarli 1 mlrd 200 mln.li xitoyliklar va dunganlar (8 mln.) mansub. Tibet-birma guruhiga tibetliklar (5 mln kishi) va itszular (6 mln.dan ortiq) kiradilar.

Tay til oilasiga chpsuanlar (15 mln). Bu xitoyliklardan keyingi eng katta guruhdir.

Bir necha tillar avstro-osiyo til oilasiga mansub, ulardan eng yirigi myao (6 mln.) va yao (2 mln.).

2. Markaziy Osiyodagi oltoy til oilasidagi xalqlar. Mo'g'ullar. Oltoy til oilasi mo'g'ul turkumida uchta o'zaro yaqin xalqlar: xolxo, mo'g'ul va oyratlar so'zlashadi. Mo'g'ullar XXR va Mo'g'ulistonda yashab ularning tili ham madaniyati ham yaqin. Mo'g'ullar haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlar IX asrga mansub. Ayni paytda ularning xo'jalik mashg'ulotlarida muhim o'zgarishlar bo'lib ovchilik va termachilikda ko'chmanchi chorvachilikka o'tganlar. Hozirgi mo'g'ul chorvadorlari mollari qo'y, yirik shoxli mol va yilqilardan iborat. Yuklarni tashishda ikki o'rkachli tuyalar ishlatiladi. Mo'g'uliston sharoitida chorva yil davomida yaylovda boqiladi. Hayvonlar asrlar davomida qorni tagidan ozuqa topib eyishga o'rgangan. Mo'g'ul-ko'chmanchi-chorvadorlari odatda qor qalin bo'lmagan yaylovlarda mollarini boqishga intiladilar.

Ko‘chmanchilar uylari – engil o‘rnatiladigan va yig‘iladigan o‘tov bo‘lib, u doira shaklida, ustiga jundan kigizlar, yomg‘ir qorlardan himoya uchun mato bilan ham yopilgan. O‘tov sinchida yog‘ochdan panjara devorlari, o‘qlari, keragali turkiy qabilalarnikiga o‘xshash, tafovuti mo‘g‘ul o‘tovlari uchi gumbazsimon emas, konussimon bo‘ladi. Poliga ham kigiz to‘shaladi. O‘tov o‘rtasida ikkita ustun o‘rnatilib sinch, yoki o‘tovning suyagi ana shu ustunlarga bog‘lab mahkamlanadi. Kirish doim janubga tomon qaratiladi. O‘tov ko‘chish uchun qulay, lekin Mo‘g‘ulistonning sovuq qishlarida unda ustki issiq kiyimdagina jon saqlash mumkin. O‘tovni ichidagi bo‘shliq qat’iy taqsimlangan. Chap tomon xotin-qizlarniki, o‘ngi erkaklarniki. Kirishga qarama-qarshi to‘rda eng hurmatli o‘rin hisoblangan. O‘tov markazidagi ochiq o‘choqda taom tayyorlanadi. Ko‘chmanchi hayotda mebel kam ishlatiladi. Sandiqlarda idishlar, zahira kiyimlar saqlanadi. Past stol ovqat eyish uchun, kichkinagina shkaf – idishni taxlab qo‘yish uchun ishlatilgan. Har bir oilada albatta qozon bo‘lib, unda ovqat va choy tayyorlashadi. O‘tmishda asosiy idishlar teri va yog‘ochdan qilingan. Sopol buyumlar ishlab chiqarish ko‘chmanchilarda bo‘lmagan. Hozirgi kunda chorvadorlar aksari zamonaviy idishlardan foydalanishadi.

Mo‘g‘ullarning kundalik kiyiimlari ko‘chmanchi turmushga moslashgan. Paxtadan yoki jun matodan uzun chopon, o‘ng tomonida tugmalari qadalgan. Boy chorvadorlar bayram choponlarini ipak matodan tiktirganlar. Keng ishtonni pasti etikka tiqiladi. Bichimi bo‘yicha erkaklar va ayollar kiyimlari farq qilmaydi. Cho‘ntakni mo‘g‘ullar bilmaganlar. Qishda po‘stin, qalin issiq etik kiyilgan. Har bir etik guruhning bosh kiyimlari o‘ziga xos bo‘lgan.

Mo‘g‘ullar taomlari chorvadorlar uchun xususiyatli. Sut mahsulotlari, go‘shtdan ko‘proq qo‘y go‘shti iste’mol qilingan. So‘nggi paytlarda mo‘g‘ullar ovqatlarida unli taomlar ko‘payib bormorqda. Mo‘g‘ullarda choyga alohida e’tibor qaratiladi. Uni qozonda qaynatishadi. Choyga sut va yog‘ qo‘shib, tuzlashadi. Mo‘g‘ullar oilaviy turmushida kattalarni hurmat qilishadi. Yoshi kichiklar ularga doimo diqqat va hurmat ko‘rsatishlari lozim. Mo‘g‘ullar dinida eski an’analar, shomonlik, XVI asrdan buddaviylik ham bo‘lib, aynan buddaviylik hukmron din hisoblanadi.

Mo‘g‘ullar hayotida bayramlar katta o‘rin egallaydi. Cho‘l-dasht aholisi uchun bayram bu qabiladoshlari, qarindoshlari, qo‘shnilari – do‘stlari bilan muloqot, tantana joylarida musiqa jaranglaydi, odamlar chiroyli kiyimlarda, bayram taomlari tayyorlanadi. Bayram kulminatsiyasida – an’anaviy sport musobaqalari, otda poyga, kurash, kamondan o‘q otish musobaqalari o‘tkaziladi. Pastqam, lekin o‘ta chidamli mo‘g‘ul otlarida egarsiz bitta yugan bilan poygada 12-14 yoshli o‘smirlar ishtirok etadilar. Kurashda o‘smirlar va yoshlar, yosh erkaklar qatnashadi. Kurashda tizzasi, tirsagi, elkasi erga tegsa yutkazgan hisoblanadi. Kamondan o‘q uzishda juda tarang mo‘g‘ul kamonidan o‘q uza oladigan barcha ishtirok etishi mumkin. Musobaqa g‘oliblari doimo hurmat, ehtiromga sazovor bo‘lganlar.

XX asrning boshlaridan Mo‘g‘ulistonda chorvachilik bilan birgalikda sanoat ham rivojlana boshlaydi. Mamlakatda shaharlar, temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari qurilgan. Bu ishlarda Mo‘g‘ulistonni Sovet davlati hamisha qo‘llagan. XX asrning 90-yillaridan Mo‘g‘uliston Xalq Respublikasi bozor munosabatlariga asoslangan iqtisod yaratish ishlarini olib bormoqda.

Uyg‘urlar. O‘lkaning turkiy xalqlaridan eng yirigi uyg‘urlardir. Ularni turk xoqonligi avlodlari deyish mumkin. Xoqonlik emirilgach Sharqiy Turkistonda Qarluqlar davlati, so‘ngra Qoraxoniylar davlatlari tuzilgan. Uyg‘urlarni ajdodlari ko‘chmanchi chorvador bo‘lganlar. Xoqonliklar davrida ular o‘troqlashib mahalliy aholiga o‘z tillarini o‘tkazganlar.

Uyg‘urlar asrlar davomida shakllangan madaniyat an’anasiga ega. Ular o‘z yozuvlariga ega bo‘lib, u yozuv qo‘shni mo‘g‘ul va manjurlar yoxuvlariga ham asos bo‘lgan. Hozirgi kunda Sinszyan Uyg‘ur avtonom rayoni aholisi sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanmoqda.

Manchjurlar. Tungus-manchjur tillarida so‘zlashuvchi xalqlar Xitoyning shimoliy-sharqida yashaydilar. Bu manchjurlar va yana kamsonli xalqlar (sibo va boshqalar), ularning ajdodlari Amur daryosi xavzasida yashab o‘troq baliqchilik bilan shug‘ullanganlar. Ushbu xo‘jalik faoliyati ularda hozirga qadar saqlangan.

Manchjurlar (10 mln atrofida) Xitoy tarixida katta rol o‘ynagan. Ular XVII asrda Xitoy qo‘shinini engib Pekinni egallaydilar va

so‘nggi imperiya Sin sulolasini tuzadilar. Istilochilar tezda xitoyliklar bilan aralashib ketganlar. Bugungi kunda manchjurlar madaniyati Xitoynikidan ko‘p farq qilmaydi.

3. Xitoy-tibet til oilasi xalqlari.

Xitoyliklar (Xan). Xitoy ulkan tarixiy – etnografik o‘lka. Xitoy – tibet til oilasiga mansub xalqlar bitta davlatda Xitoy Xalq respublikasida yashaydi. XXR – ko‘p millatli mamlakat. Olimlar unda 56 ta xalq mavjudligini ta’kidlashadi. Xitoyliklar (o‘zlarini xan deyishadi) aholining 93,5%-ini tashkil etadi. Bu xalq dunyodagi eng ko‘p sonli etnosdir. Xitoyda biror bir viloyat yoki avtonom rayon yo‘qki unda xanlar kamchilikni tashkil qilsa. Madaniyati bo‘yicha xanlarga yaqin xalq duganlar. Lekin ular islomni qabul qilganlari uchun konfessial tafovut mavjud. Etnologlar bir necha tarixiy-madaniy (yoki etnografik) regionlarni ko‘rsatishadiki ularda til-madaniy o‘ziga xosliklar mavjud. Bu xususiyatlar xanlarni XXRni turli hududlariga turli davrlarda ko‘chib borib joylashishiga qarab shakllangan.

Ikki ming yildan buyon Xitoy yer yuzining eng aholisi ko‘p mamlakat bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda xanlarning soni 1 mlrddan ko‘proq XXRda aholi notekis joylashgan hududning 1/10 da aholining 80% yashaydi. Ayrim joylarda masalan Buyuk Xitoy tekisligi va janubiy-sharqda aholi zichligi 1 km^{2}ga 700 kishidan to‘g‘ri keladi. Shaharlar yuksak sur’atlar bilan rivojlanayotgan bo‘lsada Xitoy hali qishloqlar mamlakatidir. Xitoydagi erlarning 1/10 ekinzorlar. 1/8 o‘rmonlar va 1/3 yaylovlardir. Eng ko‘p shudgor Buyuk Xitoy tekisligida, sharqda barcha ekinzorlarni 9/10 qismi joylashgan.

Xitoy dexqonchiligining asosiy xususiyati erga zimdan ishlov berib, seleksiya orqali eng serunum o‘simliklarni yetishtirishdir. Xitoy dehqoni yerdan maksimal hosil olishga intiladi.

Xitoy dehqonchiligida ilgaridan sof qo‘l mehhnati ko‘p ishlatilgan. Yerga ishlov berishda mehnat qurollari sodda, lekin qishloq xo‘jaligida omoch dehqonchiligi asos bo‘lgan. Dehqonchilik lalmi va sug‘orma shaklda yuritiladi. Sug‘orma dehqonchilik juda katta mehnatni talab qiladi. Xitoydagi eng katta Buyuk kanal mamlakatning sharqiy qismida qurilib uning uzunligi 1700 km. Kanalni deyarli 600 yil qurishgan. Kanallardan faqatgina dalalarni sug‘orish

uchungina foydalanilmasdan kemalarda yuklarni tashishda ham qo‘llanilgan.

Xitoydagi eng keng tarqalgan ekin sholidir. Xitoy dexqonlari sholining ko‘plab navlarini yaratganlar. U ikki, eng qulay iqlimli rayonlarda – yiliga uch marta hosil beradi. Sholini yetishtirish ko‘p mehnat va suvni talab qiladi. Yerni haydash, uni ekishga tayyorlash, sholi ko‘chatlarini suv ichida erga qadash, parvarishlash, sholi pishgach o‘rib yanchish barchasi mehnatni talab qiladi. Muhimi u juda serhosil ekinligidir.

Ahamiyati bo‘yicha ikkinchi ekin – kuzgi bug‘doy. U ham aholining ozuqa ratsionida muhim o‘rin tutadi. Xitoyliklar qishloq xo‘jaligida sabzovotchilik va bog‘dorchilikning o‘rni ham muhimdir.

Chorvachilik, ham xitoyliklar qishloq xo‘jaligida an’anaviy muhim o‘rin tutadi. Yirik shoxli moldan xo‘jalik yumushlarini bajarishda: omoch, mola, aravaga qo‘shishda foydalaniladi. Yirik shoxli mol asosan Xitoyning shimoliy rayonlaridan keltiriladi. Ularni mo‘g‘ullar, uyg‘urlar, qozoqlar va boshqa xalqlar yetishtiradi. Xanlar aksari cho‘chqachilik bilan shug‘ullanadilar. Xitoyliklar cho‘chqaning juda sermahsul zotlarini yaratganlar. Bu boradagi tajribalardan evropaliklar ham foydalanganlar.

Xanlar taomlarida muhim o‘rinni dengiz mahsulotlari ham tashkil etadi. Xitoyda ham dengiz, ham daryo baliqchiligi qadimdan rivojlangan. Baliqdan tashqari taomga mollyuskalar, dengiz tipratikanlari, trepanglarni ham ishlatishadi. XXRsi baliqchilik sanoati taraqqiyoti va yetishtirilgan mahsuloti bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Yaqin-yaqinlargacha baliqchilikda ichki suvlar (daryolar, kanallar, ko‘llar, suv omborlari) hissasi sezilarli edi. Endilikda suv havzalarini sanoat chiqindilari bilan bulg‘anishi, baliqchilikni qisqarishiga olib keldi. Xitoy dexqonlari evropa olimlaridan ancha avval yer yuzidagi o‘rmonlarni yo‘qotilishi ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunganlar. Ular qo‘lda o‘rmonlar yaratishga ancha avval kirishganlar. Ular zarur xususiyatga ega daraxt navlarini – massion qarag‘ayi, hamda keng maydonlarda ignabargli kuningamil darahtini ekkanlar. Bu daraht juda tez o‘sib 25-30 yilda qurilish va boshqa ehtiyojlar uchun qattiq va chirimaydigan yog‘och pishib etiladi. Un-

dan kemalar, temir yo'l shpallari, uy-joylar qurishda foydalaniladi. Shunga qaramasdan Xitoyda ham o'rmonlar kamayib bormoqda.

Xunarmandchilik. Xitoy xunarmandchiligi ham ko'p asrlik tarixga ega. Xitoyliklar mustaqil ravishda sopol yasash, mis eritish, jez va temir ishlab chiqarish sohalarini o'zlashtirganlar. Qolaversa butun insoniyat xitoylik xunarmandlardan qog'oz, ipak, farfor, kompas va porox (o'q dori) va hokazolarni yasashni o'rganganlar.

Qog'oz to'g'risidagi ilk ma'lumotlar m. II asrga oid. Xitoyliklarning yozishicha uni Chay Lun ismli kishi kashf etgan. Birinchi qog'oz bambuk tanasi va tut daraxtining po'stlog'i aralashmasidan yaratilgan.

Tut daraxti inson faoliyatining yana bir turi ipakchilikda muhim rol o'ynagan. Xitoyda ipak matosi haqidagi ma'lumotlar m.av. III ming yillikka borib taqaladi. Xitoyliklar ipak tayyorlash sirlarini uzoq asrlar saqlaganlar, buning uchun ipak qurtini mamlakatdan olib chiqishga yo'l qo'yilmagan. Ipak matolar tuya karvonlariga ortilib Buyuk Ipak yo'li orqali Osiyo va yevropa mamlakatlariga olib borilgan. Karvon yo'li o'z ahamiyatini XV asrda yevropadan Hindistonga dengiz yo'li ochilguncha saqlagan.

Xitoy insoniyatni farfor idishlari bilan ham boyitgan. Chinni haqidagi ishonchli ma'lumotlar m. VI-VII asrlarga oid. U ipak singari Xitoyning eksportga savdosida muhim o'rin tutgan. X-XIII asrlarda qizil rang bilan qoplangan xitoy chinnisi ayniqsa yuksak baholangan. XVII asrdan chinni idishlarni yarim xrom (ko'k rangli) naqshlar bilan bezatish keng tarqaladi.

Butun dunyoga xitoyliklar ixtiro qilgan turli buyumlarni lak bilan qoplash san'ati ham tarqalgan. Laklarni turli mineral bo'yoqlar – oltin poroshok bilan qoplash o'zlashtirilgan. Bir necha qatlam lak bilan qoplangan buyumlar suvga chidamli, mustahkam bo'lishidan tashqari juda chiroyli tus olgan. Xitoyda m.av.III asrda tayyorlangan, laklangan bumlar bizning kunlarimizgacha muzey va saroylarda tomoshabinlarning ko'zlarini quvontirmoqda.

Xitoyda porox ixtiro qilinib undan tinch maqsadlarda, mushakbozlik maqsadlarida foydalanilgan.

Xunarmandchilikni yuksak darajasi o'z ta'sirini qurilish sohasida ham namoyon etadi. Xanlarning klassik turar-joylari rang-barang va ratsional bunyod etilgan. Uylarning tarxi va konstruksiyasi tabiiy-iqlim sharoitiga bog'liq bo'lgan. Masalan shimoliy-g'arbda Sinszyan-Uyg'ur avtonom rayonida uylar sinchsiz, devorlari xom g'ishtdan ko'tarilgan. Xitoyning markaziy va sharqiy rayonlarida xanlar uylarini maxsus tuproqdan ko'tarilib mustahkamlangan maydonchalarda, yog'ochdan sinchli qilinib qurilgan. Sinch orasiga xom g'isht urilgan. Kirish odatda janub tomonga qaratilgan, tom aksari cheripitsa bilan yopilgan. Xitoy uylarining milliy xususiyati – kam. Uyning ichida uning 1/3 ni egallaydigan 60 sm.gacha baland supa ostida tutun o'tadiggan tuynuklar tizimi qilinib olovni uning kirishida yondirib tutunni trubasi oxirida qurilib. Oilani ana shu supada ishlashi, ovqatlanishi. Mehmonlarni qabul qilishi, uxlash imkonini beradi. Bu xonalarni pastdan isitish bugungi kunda dunyoda keng tarqalmoqda.

Xitoyda qurilish san'ati ajoyib yutuqlarga erishmoqda. Grajdan va diniy inshootlar ko'p sonli ibodatxona va buyuk saroylar ko'rkamligi, qiyofalari betakrorligi bilan insonni lol qoldiradi. Masalan Xuanxe daryosining o'rta oqimidagi qoyada qurilgan Lun-men ibodatxonasida toshda 100 ming barelef va haykallar o'yib ishlangan.

Dunyo mo'jizalaridan biri Buyuk Xitoy devoridir. Uning asosiy yo'nalishidagi uzunligi 4 ming km.dan ko'proq. Devorning qurilishi m.av. IV-III asrlarda boshlanib, m. III asrda yakunlangan. Devorning ustidan yo'lak kengligi urush paytlarida qo'shinni dushmanga qarshi jo'natishshga xizmat qilgan. U Xitoyni shimoldagi ko'chmanchilar bosqinidan ko'p marta qutqargan.

Xitoyliklar o'z qo'shnilarini yaxshi bilganlar. Geografik xaritalar haqidagi ma'lumotlar m. VII asrga oid. Xitoy va unga tutash hududlarning XI asrga oid xaritalari bizga qadar saqlanib qolgan. Xitoy matematiklari "Pi" – aylana uzunligini diametriga nisbati (3,14) ekanligini aniqlaganlar. An'anaviy Xitoy meditsinasini yutuqlari barchaga ma'lum. Xitoy tabiblari ko'plab infeksion va boshqa kasalliklarga qarshi kurash usullarini bilishgan.

Yozuv. Ieroglif yozuvi Xitoyda m.av. II ming yillikdan ma'lum. Ieroglif so'zni "chizib" uning ma'nosini taxminan berib, ovozini ham hamma vaqt bera olmaydi. Xitoy tilida ko'plab shevalar bo'lib,

dan kemalar, temir yo'l shpallari, uy-joylar qurishda foydalaniladi. Shunga qaramasdan Xitoyda ham o'rmonlar kamayib bormoqda.

Xunarmandchilik. Xitoy xunarmandchiligi ham ko'p asrlik tarixga ega. Xitoyliklar mustaqil ravishda sopol yasash, mis eritish, jez va temir ishlab chiqarish sohalarini o'zlashtirganlar. Qolaversa butun insoniyat xitoylik xunarmandlardan qog'oz, ipak, farfor, kompas va porox (o'q dori) va hokazolarni yasashni o'rganganlar.

Qog'oz to'g'risidagi ilk ma'lumotlar m. II asrga oid. Xitoyliklarning yozishicha uni Chay Lun ismli kishi kashf etgan. Birinchi qog'oz bambuk tanasi va tut daraxtining po'stlog'i aralashmasidan yaratilgan.

Tut daraxti inson faoliyatining yana bir turi ipakchilikda muhim rol o'ynagan. Xitoyda ipak matosi haqidagi ma'lumotlar m.av. III ming yillikka borib taqaladi. Xitoyliklar ipak tayyorlash sirlarini uzoq asrlar saqlaganlar, buning uchun ipak qurtini mamlakatdan olib chiqishga yo'l qo'yilmagan. Ipak matolar tuya karvonlariga ortilib Buyuk Ipak yo'li orqali Osiyo va yevropa mamlakatlariga olib borilgan. Karvon yo'li o'z ahamiyatini XV asrda yevropadan Hindistonga dengiz yo'li ochilguncha saqlagan.

Xitoy insoniyatni farfor idishlari bilan ham boyitgan. Chinni haqidagi ishonchli ma'lumotlar m. VI-VII asrlarga oid. U ipak singari Xitoyning eksportga savdosida muhim o'rin tutgan. X-XIII asrlarda qizil rang bilan qoplangan xitoy chinnisi ayniqsa yuksak baholangan. XVII asrdan chinni idishlarni yarim xrom (ko'k rangli) naqshlar bilan bezatish keng tarqaladi.

Butun dunyoga xitoyliklar ixtiro qilgan turli buyumlarni lak bilan qoplash san'ati ham tarqalgan. Laklarni turli mineral bo'yoqlar – oltin poroshok bilan qoplash o'zlashtirilgan. Bir necha qatlam lak bilan qoplangan buyumlar suvga chidamli, mustahkam bo'lishidan tashqari juda chiroyli tus olgan. Xitoyda m.av.III asrda tayyorlangan, laklangan bumlar bizning kunlarimizgacha muzey va saroylarda tomoshabinlarning ko'zlarini quvontirmoqda.

Xitoyda porox ixtiro qilinib undan tinch maqsadlarda, mushakbozlik maqsadlarida foydalanilgan.

Xunarmandchilikni yuksak darajasi o'z ta'sirini qurilish sohasida ham namoyon etadi. Xanlarning klassik turar-joylari rang-barang va ratsional bunyod etilgan. Uylarning tarxi va konstruksiyasi tabiiy-iqlim sharoitiga bog'liq bo'lgan. Masalan shimoliy-g'arbda Sinszyan-Uyg'ur avtonom rayonida uylar sinchsiz, devorlari xom g'ishtdan ko'tarilgan. Xitoyning markaziy va sharqiy rayonlarida xanlar uylarini maxsus tuproqdan ko'tarilib mustahkamlangan maydonchalarda, yog'ochdan sinchli qilinib qurilgan. Sinch orasiga xom g'isht urilgan. Kirish odatda janub tomonga qaratilgan, tom aksari cheripitsa bilan yopilgan. Xitoy uylarining milliy xususiyati – kam. Uyning ichida uning 1/3 ni egallaydigan 60 sm.gacha baland supa ostida tutun o'tadiggan tuynuklar tizimi qilinib olovni uning kirishida yondirib tutunni trubasi oxirida qurilib. Oilani ana shu supada ishlashi, ovqatlanishi. Mehmonlarni qabul qilishi, uxlash imkonini beradi. Bu xonalarni pastdan isitish bugungi kunda dunyoda keng tarqalmoqda.

Xitoyda qurilish san'ati ajoyib yutuqlarga erishmoqda. Grajdan va diniy inshootlar ko'p sonli ibodatxona va buyuk saroylar ko'rkamligi, qiyofalari betakrorligi bilan insonni lol qoldiradi. Masalan Xuanxe daryosining o'rta oqimidagi qoyada qurilgan Lun-men ibodatxonasida toshda 100 ming barelef va haykallar o'yib ishlangan.

Dunyo mo'jizalaridan biri Buyuk Xitoy devoridir. Uning asosiy yo'nalishidagi uzunligi 4 ming km.dan ko'proq. Devorning qurilishi m.av. IV-III asrlarda boshlanib, m. III asrda yakunlangan. Devorning ustidan yo'lak kengligi urush paytlarida qo'shinni dushmanga qarshi jo'natishshga xizmat qilgan. U Xitoyni shimoldagi ko'chmanchilar bosqinidan ko'p marta qutqargan.

Xitoyliklar o'z qo'shnilarini yaxshi bilganlar. Geografik xaritalar haqidagi ma'lumotlar m. VII asrga oid. Xitoy va unga tutash hududlarning XI asrga oid xaritalari bizga qadar saqlanib qolgan. Xitoy matematiklari "Pi" – aylana uzunligini diametriga nisbati (3,14) ekanligini aniqlaganlar. An'anaviy Xitoy meditsinasini yutuqlari barchaga ma'lum. Xitoy tabiblari ko'plab infeksion va boshqa kasalliklarga qarshi kurash usullarini bilishgan.

Yozuv. Ieroglif yozuvi Xitoyda m.av. II ming yillikdan ma'lum. Ieroglif so'zni "chizib" uning ma'nosini taxminan berib, ovozini ham hamma vaqt bera olmaydi. Xitoy tilida ko'plab shevalar bo'lib,

ular fonetika va grammatikasida farq qiladi. Shimoliy Xitoy xanlarining og'zaki tillari janub xanlariga tushunarli emas. Faqat ieroglif yozuvigina ma'lum til birligini saqlashga xizmat qiladi. Xitoy uchun umumiy til putunxua uning asosida poytaxt (Pekin) shevasi bo'lib bugungi kunda davlat hayotida keng qo'llanilmoqda. Putunxua yozuvi an'anaviy ieroglifga nisbatan ancha soddalashtirilgan. Ushbu rasmiy davlat tilida maorif, mamlakat qo'shini, murakkab ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Shunga qaramasdan Xitoydagi til birligi bugungi kunda ieroglif yozuvi tufayli saqlanmoqda.

Din. Xitoydagi diniy vaziyat ham o'ziga xos. Mamlakatda m.av. VI asrdan ikki falsafiy tizim shakllanib ular asta-sekin dinga aylangan. Deyarli bir paytda vujudga kelgan konfutsianlik va daosizm mana ikki yarim ming yildan buyon tinch faoliyat yuritib kelmoqda. Konfutsiylik (Kun Futszы m.av.551-449 yy.) asosan davlat tuzumidagi axloqiy etik tartiblarga bag'ishlangan. Konfutsiy ta'limoti uning shogirdlari tomonidan "Lun yuy" asarida yozilgan. Unga ko'ra davlatpanoh hokimiyati muqaddas. Adolatning umumiy qonuni – odamlarni oliy va past toifalarga bo'linishidir. Har bir inson jamiyatda egallagan lavozimiga qarab ish yuritishi lozim. Konfutsiy bo'yicha boshqaruv bu har bir kishini "o'z joyiga qo'yish", inson faqat o'zi uchun belgilangan ish bilan shug'ullanishi lozim. Jamoaviy hayotda insonni yangi o'rinlarga ko'tarilishi uni ma'naviy yuksalishi va ilmlarni egallashi orqali amalga oshmog'i zarur.

Ikkinchi ta'limot – daosizm. Uni yaratishgan. Lao Szы (asl ismi Li yer m.av. IV-III asrlar) bo'lgan. U aksari falsafa, oilaviy hayot me'yorlari va uni tashkil etish masalalariga to'xtalgan. Ushbu ta'limot tarafdorlari tabiat bilan yaqinlashishni targ'ibot qilishgan. Daosistlar keyinchalik – alohida oziqlanish tartiblariga rioya qilib, jismoniy mashqlar orqali uzoq umr ko'rish sirlarini ochishga intilganlar.

Lao Szы buqa ustida o'tirgan qariya sifatida tasvirlangan. Daosizm asoschisi haqidagi rivoyatlar Lao Szыni umrboqiylar etakchisi sifatida tasvirlaydi. Daosizm to'liq holda "Saxiylik yo'li haqida kitob"da tavsiflangan. Daosizm tarafdorlari orasida Lao Szы Buddaning otasi ekanligi haqida rivoyat ham mavjud.

Milodning ilk asrlarida Xitoyda buddaviylik, VIII asrdan islom dinlari tarqalgan. O'rta asrlardan Xitoyga xristian missionerlari kela boshlaydi. Yuqorida nomlari keltirilgan dinlar bugungi Xitoyda faoliyat yuritmoqda.

Konfutsianlik va daosizmni shakllanishiga xanlarning qadimgi dinlari katta ta'sir etgan. Masalan xalq udumlarining qadimgi qo'shiqlari to'plami – "Qo'shiqlar kitobi" (Shszin) muallifligini Konfutsiyga berishadi. Qishloq joylarida ajdodlar ruhiga e'tiqod keng saqlangan.

XXR ning tashkil topishiga qariyb 70 yil (1949) bo'lmoqda. Ushbu davr davomida Xitoy jamiyati an'analariga hayot ko'plab o'zgartirishlar kiritdi. Xitoyning iqtisodi o'zgarib, u tez sur'atlarda industrial mamlakatlar qatoriga qo'shilmoqda. Lekin ushbu sharoitlarda ham eng aholisi ko'p mamlakat o'z an'analariga hurmat bilan yondashadi.

Udumlar folklor qo'shiq-raqslar asta-sekin transformatsiyalashib – professional teatr sohalariga – musiqali drama teatrlariga aylandi. Bunday truppalar m. II-I ming yilliklar chegarasidan ma'lum. Xitoy musiqali dramalari klassik ko'rinishlari XIV asrdan shakllangan. Professional teatr XIX asrda uzil-kesil vujudga kelgan. Bugungi kunda u "Pekin operasi" nomi bilan mashhur. Badiiy adabiyot ham juda qadimiy tarixga ega. Unda badiyatlarga nisbatan she'riy janrlar faolroq rivojlangan. Xitoy professional she'riyatining otasi Syuy Yuan m.av. III asrda yashagan. Xitoy adabiyotining eng qadimgi yodgorliklaridan biri "Sakkiz umrboqiy donishmand"larga bag'ishlangan asar hisoblanadi. Ularning hayot faoliyati tavsifi faqat XIII-XIV asrlarda yakuniy ko'rinish oladi. Xitoy professional madaniyati hozirgi bosqichda yuksak taraqqiyotga erishdi.

Tibet-birma tillariga mansub xalqlar. Ushbu til guruhida XXR-ning janubiy-g'arbida yashaydigan bir necha xalqlar gaplashadi. Nisbatan yiriklari – tibetliklar (4,5 mln.) va itszu (5 mln.)lardir. Tibetliklar baland Tibet tog'li hududlarida yashaydilar. Ular asosan chorvachilik va tog' dehqonchiligi (vohalarda) bilan shug'ullanadi. Chorvadagi asosiy mollari qo'toslardir. Ular tibetliklarga sut, go'sht, jun, teri beradi. Juni va terisi kiyim, gilamlar, yozgi chaylalar ustini yopishga ishlatiladi. Unchalik ko'p bo'lmagan qoramol va otlar ham boqiladi.

XXRsi tuzilganiga qadar (1949) Tibet yarim qaram teokratik (sof diniy) davlat bo'lib uni Dalay lama boshqagan. Uning rezidensiyasi Lxasa shahrida bo'lgan. Dalay lama buddaviylik cherkovi hamda davlat rahbari sanalgan. Dalay lama XIV 1959 yili Hindistonga kelib, XXR rahbariyatiga qarshi muxolifatda hisoblanadi.

Xitoyning jjanubiy-g'arbi etnik rang-barangligi xususiyatlanadi. Hududda ko'plab taraqqiyotning turli pog'onalaridagi halqlar yashaydi. Ularning tillari turli lingvistik guruhlarga mansub. Ulardan eng yirigi – itszular Xitoy va Myanma chegarasida yashaydilar. Bu hududda yashovchi aholi sharoitiga qarab omoch va so'qa dehqonchiligini olib boradilar. Itszular qishloq xo'jaligidan tashqari xunarmandchilikning temirchilik sohasi bilan shug'ullanadilar. Itszular ayollari – malakali kashtado'zlardir.

Tay tilidagi xalqlar. Sharqiy itszular Vetnam bilan chegarada yashaydilar. Tay til oilasiga mansub. Tay tilli aholi 21 mln.kishi bo'lib, ulardan eng ko'p sonlisi chjuan (15 mln.dan ortiq)lardir. Chjuanlar mohir dehqonlar va hunarmandlar. Ular metallga ishlov berish, chinni yasash, ipak matolar tayyorlash bilan shug'ullanadilar. Janubiy-g'arbni boshqa xalqlari ham ko'psonli, ular etnologiya uchun maishiy turmushlarida ko'plab an'anaviy xususiyatlarni saqlab qolganlari bilan qiziqarlidirlar.

4. Yaponiya va yaponlar. Yaponiya – to'rtta – Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollarida va yana 40 ming mayda hamda aholisiz o'ta mayda orollardan tashkil topgan.

Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda Yaponiya orollariga odamlar nisbatan erta o'tganlar, lekin sopol buyumlar mavjud madaniy qatlamlar yoshi taxminan 10 ming yildan iborat. Ularni aynlarning ajdodlari qoldirgan bo'lishlari ham ehtimol. Aynlar bugungi kunda Xokkaydo orolining shimolida yashab (16 ming kishi atrofida) o'zlarining an'anaviy madaniyatlarini yo'qotganlar. Aynlar klassik madaniyatini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, ularning qadimgi ajdodlari Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoning janubiy hududlari bilan ko'proq muloqotda bo'lishgan. M.av.II ming yillikda Yaponiya orollarini avstroneziya tillarida so'zlashadigan aholi egallagan. Qadimgi yapon tili aholi orollarga m.av.V asrdagina Koreyadan o'tib joylasha boshlaganlar.

Zamonaviy Yaponiya – birmillatli mamlakatdir. Uning 99%ga yaqin aholisi yaponlardir. Ular orasida bir necha etnografik guruhlarni ajratishadi. Bu etnografik guruhlar qachonlardir madaniyatida o'ziga xosliklariga ega bo'lishgan. Hozirda Ryukyu orolidagi bir guruhgina aynan etnografik xususiyatlarini saqlagani bilan ajralib turadi. Yaponiyada til vaziyati juda murakkab, mamlakatda uchta yirik shevalar va yana ko'plab mayda shevalar mavjud. Har bir yapon odatda ikkita muloqot tilini (biri davlat tili, ikkinchisi mahalliy tilni) biladilar. Shevalarda fonetik jihatdan katta tafovutlar muloqotda qiyinchilik tug'diradi.

Yaponiya yozuvi Xitoy ieroglif yozuvi asosida yaratilgan. Yapon matnlarini o'qish ancha murakkab ishdir.

Yaponiyaliklarning an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlari dehqonchilikdir. O'rta asrlarda er maydonlarini haddan tashqari maydalashib ketishi so'qa dehqonchiligini vujudga keltiradi. Yaponiyada an'anaviy qishloq xo'jaligida hozirga qadar ko'pchilik ishlar qo'lda bajariladi. Yapon klassik jamiyati hayot faoliyatini ta'minlashda baliqchilikning o'rni muhimdir. Bu yerda hatto alohida xo'jalik madaniy til, sohil baliqchiligi va termachiligi shakllangan. Ayni paytda baliqchilar hamisha aholining eng kambag'al qismi bo'lgan. Koreyadagi singari Yaponiyada ham ayollarni chuqur joylarda yashaydigan molyuskalarni ovlash sohasi shakllangan.

Moddiy madaniyat. An'anaviy xususiyatlar taomlarda nisbatan yaxshi saqlangan. Unda 2 qismni: 1) syusyoku – "bosh taom" – guruch yoki boshqa donli oziq hamda kesilgan xamir; va 2) fukusyoku – "qo'shimcha taom" – unga turli baliqlar, sabzovotlar va go'shtli qaylalar kiradi. Yaponlar go'shtni kam iste'mol qilishadi. Ilgari ular ham xitoyliklar singari sigirni sog'maganlar va sutini ichmaganlar.

Yaponlarning an'anaviy qishloq uylari bir qavatli sinchli, devorlari suriladigan, poliga bo'yra to'shaladigan (tatami) – bizning kunimizda ham deyarli o'zgarishsiz qolgan.

Yaponlar kiyimlarida ham o'tmish madaniyatidan saqlangan jihatlar ko'p. Agar ish kiyimi sifatida zamonaviy maxsus kiyimlar yoki evropacha kostyum kiyilsa, uyda yaponlar kimano (to'g'ri bichilgan) engil xalatni kiyishadi. Bichimi bo'yicha erkaklar va ayollar kimanosi bir xil. Erkaklarda engi ancha kalta bo'ladi.

Ijtimoiy turmushdagi xususiyatlar. Yapon jamiyatining zamonaviy ijtimoiy tizimida o'tgan davrlardan ko'plab xususiyatlar saqlanib qolgan. Minomoto (XII asrda) o'zini syogun deb e'lon qilishidan boshlab, samuraylar Yaponiya siyosiy hayotida sezilarli mavqega erishadi. Ritsarlik shon-sharafi qoidalari "Busido" ("Jangchi yo'li") ishlab chiqilib unda samuraylar xulqi, xarakiri (o'z joniga qasd qilishi) tartiblari izohlangan.

Jamiyat xulqiy me'yorlari asosan yapon xarakteri an'analariga tayanadi. Patriarxal munosabatlar oila a'zolarini barchasi oila boshlig'iga bo'ysunishi saqlanib kelmoqda. Ayollarning nisbatan tengsizligi holati davlat darajasida ham saqlanib kelmoqda. Erkaklar bilan teng mehnatga xotin-qizlar kamroq maosh oladilar.

Amalda yapon jamiyatini kastaga bo'linishi saqlanib qolgan. Brakumin yoki eta kastasi jamiyatda kamsitish, tengsizlik holatidadir. Mamlakatda ularning soni 3 mln. kishi atrofida. Burakuminlarning har 600 ga yaqini alohida poselkalarda yashaydilar. Ular axlat yig'uvchilar, terichilar va hokazolar bilan shug'ullanadilar. Rasman ular boshqa yaponlar bilan teng, amalda esa ularni huquqdagi tengsizligi saqlanib kelmoqda. Burakuminlarni boshqalar bilan nikohlari jamiyat tomonidan qoralanadi. Ularga ma'lumot olish, yaxshi kasb egallashlarida norasmiy to'siqlar mavjud.

Zamonaviy xo'jalik talablari ta'lim tizimini shakllanishiga ta'sir etadi. Yaponiyada to'qqiz yillik majburiy ta'lim joriy etilgan.

Diniy e'tiqodlari. Ikki dinning bir paytda hukm surishi mamlakatdagi konfessional vaziyatni o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ulardan biri sintoizm (yapon tilida sento – "xudolar yo'li") quyosh ilohasi Amaterasuga va uning "avlodlari"- imperator xonadoniga e'tiqodga asoslanadi. Ikkinchi jahon urushi tugaguncha sintoizm davlat dini, to'g'rirog'i barcha uchun majburiy mafkura bo'lgan. Ikkinchi din ko'plab a'zolarga ega bo'lgan buddaviylikdir. Maishiy turmush sharoitida bu ikki din mojarolarsiz "sig'inuvchilarni bo'lib olishgan". Buddaviylik dafn marosimlarini boshqarsa, sintoizm – yaponlarning kundalik diniy amaliyoti bilan shug'ullanadi. Yapon jamiyatida ham kosmopolitlar – dinga e'tiqod qilmaydiganlar etarlicha.

Bizning davrimizda Yaponiyada zamonaviy texnologiyalar konservativ oilaviy turmush bilan murakkab tarzda chirmashib ketmoqda. Zamonaviy yapon ikki standartga ishlab chiqarishda u "zamonaviy", turmushda – "an'anaviy" inson ekanligini namoyon etmoqda. Bu faqat "Kunchiqar mamlakatda" yashovchi yaponlargagina xos bo'lmasdan tarixiy mamlakatlardagi yapon diasporalari vakillariga ham taalluqlidir. Faqat chetda an'anaviy xususiyatlar innovatsiyalarga ko'proq o'rin bo'shatmoqda.

5. Koreya va koreyslar.

Koreyslar. Yevroosiyo qit'asidagi eng qadimgi xalqlardan biri bo'lib (68 mln.) Koreya yarim orolida istiqomat qilishadi. Yarim orolda aholi zich o'rtacha 1 m^2da 250 kishi yashaydi. Ko'plab koreyslar arzigulik hayot kechirish maqsadida chetga emigratsiya qilgan. Hozir Koreyadan boshqa mamlakatlarda 4 mln. koreys yashaydi. Koreya yarim orolida odamlar juda erta ilk paleolitdan yashay boshlaganlar. Arxeologik qazishmalar koreyslarning ajdodlari dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligini, xususan yilqi boqqanligini ko'rsatadi. M.av. VII-II asrlarda Koreya hududida qulchilik davlatlari vujudga kelgan. Milodiy VII asrda qadimgi tarqoq koreys qabilalari birlashib elatning shakllanishi yakun topadi. Ehtimol o'sha davrdan yagona koreys tili to'g'risida gapirsa bo'ladi. Yaqin-yaqingacha koreys tili hech qaysi til oilasiga kirmaydigan izolyasiyadagi til hisoblanardi, lekin so'nggi lingvistik tadqiqotlar koreys tilini oltoy til oilasi bilan qarindosh ekanligini aniqlashdi. Koreys yozuv tizimi – idu m. VII asrda vujudga kelgan. Unda Xitoy ieroglifikasi ishlatilgan. XV asrda koreys fonetik xati yaratilgan. Dastlab unda yigirmata harf bo'lgan, hozirgi kunda ularning soni qirqtaga etgan. Koreys tilida bitilgan yozma meros juda ko'p. Koreyslar XI asrdayoq kitob bosishni (ksilografik usul bilan) yo'lga qo'yganlar.

Koreyslarning an'anaviy xo'jaliklari – sug'orma dehqonchilikdir. Yerni haydashda yirik shoxli moldan foydalanish, sholi ko'chatlarini jo'yaklarda o'tkazilishi Janubiy-Sharqiy Osiyo bilan uzviy aloqalar bo'lganidan darak beradi. Asosiy qishloq xo'jalik ekini sholi bo'lib qolmoqda yarim orolning shimolida havo salqin bo'lganidan aholi soya, bug'doy, makkajo'xori yetishtiradi.

Koreyslar qishloq xo'jaligida ham hali-hanuz qo'l mehnati ko'p ishlatiladi. Eng avvalo bu xususiyat sug'orish inshootlari bilan

bog‘liq. Suvni ko‘tarishda ishlatiladigan charxparraklar qo‘l bilan harakatlantiriladi. Dehqonchilikdan tashqari koreyslar xo‘jaligida ayniqsa sohil bo‘ylab daryolar bo‘yida baliqchilik katta o‘rin tutadi. Baliqni yakka holda yoki artel bo‘lib ham ovlashadi. Koreyada ham chuqur joylarda dengiz molyuskalarini ovlash bo‘yicha ayol sho‘ng‘uvchilar mavjud. Bu dengiz jonzotidan koreys oshxonasida kamyob taom tayyorlashadi.

Tog‘ aholisi yaqin davrlargacha ov va tog‘ o‘simliklari, mevalari, giyohlarini terish bilan shug‘ullanganlar. Umuman olganda koreyslar taomnomasida o‘simlik, sabzovot va dengiz maxsulotlari etakchilik qiladi. Koreyslar soyadan tayyorlangan turli qaylalar, achchiq qalampirli salatlarni sevib iste’mol qilishadi. Sut va sut mahsulotlarini umuman eyishmaydi, choyni ham kam ichishadi.

Koreys xunarmandlari buyumlari qadimdan shuhrat qozongan. Koreys temirchilari 770 yili buddaviylik ibodatxonasi uchun ulkan qo‘ng‘iroq quyishgan. U eniga 2,3 m. balandligi 3 m. Koreys ustalari metall buyumlarga, taqinchoqlarga inkrustatsiya usuli bilan turli toshlar va rangli emal bilan bezashni bilganlar. Koreyada XVI asrda harbiy kemalar qurishgan va ularning sirtini misdan tunuka bilan qoplashgan. To‘qimachilik, qog‘oz ishlab chiqarish, kulolchilik, chinni tayyorlash yuksak rivojlangan. Koreya chinisi bugungi kunda ham butun dunyoda yuksak qadrlanadi.

Koreyslar qadimdan daryolar bo‘yida yashashga intilganlar. Ko‘pchilik shaharlar daryolarning quyi oqimida qurilgan. O‘rta asrlarda vohalarga kiradigan joyda qurilgan harbiy qal’alar keyinchalik shaharlarga asos bo‘lgan. Koreys quruvchilarini yuqori san’atidan yarim orolga kirishga yo‘l qo‘ymaslik uchun X asrda bunyod etilgan 500 km.li mudofaa devorini ko‘rsatish mumkin. Devor kidanlar hujumiga qarshi qurilgan.

Koreyslar uy-joylar qurishda ham katta yutuqlarga erishganlar. Ularning sinchli uyi muhim xususiyatga pastdan isitiladigan pol (ondol)ga ega bo‘lgan. Ondol xitoyliklar kaniga o‘xshash asosga ega. Koreys oilasining butun hayoti – uyqu , ovqatlanish, turli mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish ana shu ondol ustidagi joyda o‘tadi. Ondolni oshxonadagi o‘chog‘i ustida taom tayyorlanadi. Koreyslar uyida mebel ko‘p emas. Ovqatlanish uchun pastroq stol, ular

ichida eng muhimidir.

Koreyslar buddaviylikka e’tiqod qilganlar. Bu din m. IV-VII asrlarda qo‘shni Xitoydan o‘tgan. An’anaviy diniy tasavvurlar ajdodlar ruhiga konfutsiylik odati bo‘yicha e’tiqod ham saqlangan. XX asrda xristianlar missionerlar faoliyati faollashib aholining bir qismi ushbu dinni qabul qilgan.

Markaziy va Sharqiy Osiyo xalqlarini jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissalari beqiyos. Ushbu hududda qadimdan o‘ziga xos madaniy areal shakllangan. XIX asrga qadar hududda Xitoy madaniyati ustunligi ta’sirida bo‘lgan. Bugungi kunda ham ushbu hududning aholisidan: xitoyliklar, yaponlar, koreyslardan xalq, millat an’analariga sodiqlik, ehtirom borasida ko‘plab narsalarni o‘rgansa arziydi.

Savol va topshiriqlar.

1. Markaziy va Sharqiy Osiyoning geografik, rasa hamda tillari tavsifini bering!
2. Markaziy Osiyoning Oltoy tilli xalq va elatlar haqida so’zlab bering. Savolga javobni internet saytlaridan to‘ldiring.
3. Xitoy-tibet til oilasiga mansub millatlar, xalqlar, elatlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Xitoyliklarning an’anaviy hunarmandchiligi va moddiy madaniyatlaridagi o‘ziga xosliklar nimada?
5. Xo‘jalik va moddiy madaniyatdagi transformatsion jarayonlar qanday kechmoqda?
6. Xitoyliklar dini: konfutsichanlik va daosizm xususiyatlarini so‘zlab bering.
7. Tebet-birma tillariga mansub xalqlar haqida nimalarni bilasiz?
8. Yaponiya va yaponlar etnologiyasi. Savolga javoblaringizni internet ma’lumotlari bilan boyiting!
9. Koreya va koreyslar etnologiyasi. Xo‘jaligi, hunarmandchiligi, moddiy va ma’naviy madaniyatlari haqida so‘zlab bering.

11-BOB. JANUBIY-SHARQIY OSIYO XALQLARI.

Janubiy-Sharqiy Osiyoga Hindixitoy yarim oroli uning davomi bo'lgan Malakka yarim oroli, Indoneziya (Malay) va Filippin arxipelaglari kiradi. Osiyoning ushbu qismi aholisi tarixiy taraqqiyotning turli yo'llarini o'tab bugungi kunda turli davlatlarda yashab, har xil antropologik qiyofaga ega bo'lib, ko'plab va xilma-xil tillarda so'zlashadilar. Janubiy dengizlar xalqlari tarixi va madaniyatini o'rganishning qiziqarli tomoni shundaki, ushbu hududda zamonaviy industrial taraqqiy etgan aholi bilan birlikda, o'tish murakkab bo'lgan o'rmon zonalarida hali sivilizatsiya darajasiga etmagan urug' va qabila jamoalarini uchratish mumkin.

Janubiy-Sharqiy Osiyoda: Myanma (Birma 45 mln.kishi), Tailand qirolligi (60 mln.), Laos Xalq Demokratik respublikasi (5 mln), Vetnam Sotsialistik respublikasi (72 mln.), Kombodja qirolligi (10 mln.), Malayziya Fetseratsiyasi (20 mln.), Singapur respublikasi (2,9 mln.), Indoneziya respublikasi (190 mln), Bruney sultonligi (0,3 mln.), Sharqiy Timor (0,8 mln.), Filippin respublikasi (66 mln) mavjud.

Hududning relefi ham xilma-xil unda keng daryo vohalari, baland tog'lar ko'plab vulqonlar, o'rmonlar, chakalakzorlarni uchratish mumkin. Iqlimi issiq tropik, subekvatorial va ekvatorial zonalarga bo'linadi. Yil davomida faqat ikki mavsum quruq va yog'inli davrlar bir-birini almashtiradi. Janubiy-Sharqiy Osiyoda daryolar serob, yiriklari: Mekong, Menam, Iravadi, Barito. Hududda botqoqlashgan erlar ham ancha. Qadimda butun Janubiy-Sharqiy Osiyo o'rmonlar bilan qoplangan, lekin asrlar davomida inson faoliyati o'rmondagi daraxtlarni kesib ekinzorlar barpo etishi hududning qiyofasiga o'zgarishlar kiritgan. Hayvonot va o'simliklar dunyosi boy. Hududda yirik yirtqichlar, fillar, nosoroglar, ilonlar, turli qushlar mavjud.

Janubiy-Sharqiy Osiyo tabiiy qazilmalarga boy. Qimmatli metallar va toshlar, rux, uran, neft va hakozalar qazib olinadi. Dengizlardan marjonlar va baliqlar ovlanadi.

1. Janubiy-Sharqiy Osiyoning orollardagi xalqlari. Dunyodagi va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi eng yirik orol davlati – Indoneziyadir. Undagi 14 mingga yaqin orollardan 6 mingtasida odam yas-

haydi. Eng yirik orollari: Sumatra, Yava, Kalimantan, Sulavesilardan tashqari ko'plab o'rtacha va mayda orollar Bali, Timor, Malakk va hokazolar joylashgan. Indoneziya tarkibiga Yangi Gvineya orolining g'arbiy qismi – Irian-jay ham kiradi.

Olimlarning fikricha qadimgi muzlik davrida arxipelag Osiyo va Avstraliya orasidagi ko'prik vazifasini o'tagan. Keyinchalik yer qa'ridagi siljishlar okeanlar suvining ko'tarilishi tufayli quruqlikning katta qismi suv ostida qoladi. Indoneziya aholisi uchun dengiz muhim rol o'ynaydi. Malay tilida "Vatan" so'zi ona zaminnigina emas "er va suv"ni anglatadi.

Indoneziya hududi – inson shakllangan uchta viloyatdan biridir. XIX asr oxirida gollandiyalik E.Dyubua Yava orolidan bundan 700-600 ming yil avval yashagan pitekantrop qoldiqlarini topgan. Keyingi tadqiqotlar davomida Indoneziyadan neandertal va kromanon davri odamlari manzilgohlari ham topilib, hududdagi antropogenez jarayoni to'liq ko'rinish oladi.

Indoneziya arxipelagi orollari inson madaniyati qanchalik notekis rivojlanishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan Yava va Sumatraning janubiy-g'arbida m.av. I ming yillikning ikkinchi yarmida davlatlar shakllana boshlagan va bunga Janubiy Hindistondan ko'chib kelgan aholi guruhlari ko'maklashgan. Kelganlar o'zlari bilan turli bilimlar, xo'jalik tajribasi, yozuv, buddaviylik va hinduylik dinlarini olib keladilar. Shu bilan birgalikda XIX asrda ham ayrim o'rmon zonalarida ibtidoiy jamoa tuzumi darajasidagi urug'-qabilalar yashaganlar.

Ilk o'rta asrlardan Janubiy-Sharqiy Osiyoga arab va fors savdogarlari va ko'chib keluvchilar joylasha boshlaydilar. Ular asosan Yava va Sumatra orolida joylashganlar. Aynan ularning ta'sirida orollarda islom dini tarqala boshlaydi.

Indoneziya arxipelagi XVI asrdan evropaliklar xususan portugallar va ispanlar, ulardan keyin gollandiyalik ziravorlar ishqibozlari ekspansiyasiga uchraydi. Oqibatda Indoneziya 350 yil, Niderlandiya Ost-Indiya kompaniyasi mulkiga aylanadi. Uzoq davom etgan mustaqillik uchun kurash 1949 yili Indoneziyani suveren davlat deb e'tirof etilishi bilan yakun topdi.

Antropologik, lingivistik tasnif, aholining etnik tarkibi. Jismoniy antropologik belgilariga ko'ra Indoneziya, Malay arxipelagi

aholisi – janubiy mongoloidlardir. Faqat Irian-Jayda papuas-avstroloidlar yashaydilar.

Orollarning yirik va mayda xalqlari hamda qabilalari ko'plab tillarda so'zlashadilar. Ko'pchiligi malay tillarida: xususan Indoneziyaning davlat tili – baxasa indonesia, Malayziyaning davlat tili –malay ushbu til guruhiga oiddir.

Eng ko'p sonli iqtisodiy va madaniy jixatdan taraqqiy etgan etnos yavaliklar va sundlar (Yava orolining garbida yashaydi). Ayni paytda Yava orolining tog'li hududlarida tenger va badui qabilalari ibtidoiy tuzum unsurlarini saqlab qolganlar.

Sumatra aholisi tarkibi bo'yicha murakkab sohil bo'yidagi hududlarni madaniyati va xo'jaligi yuqori rivojlangan minangkabay, bataklar egallaganlar. Ular qatorida orolning o'tish murakkab bo'lgan o'rmonlarida kam sonli (kubu va boshqa) ibtidoiy ovchilar va terimchilar guruhlarini uchratish mumkin.

Kalimantan sohillari: malay, banjara, xitoyliklar joylashgan hududlardir. O'rmonlar va botqoqlarda daryoning pastki qismlarida yuzlab xalqlar va qabilalar yashab ularni yig'ma nom bilan dayaklar deyishgan. Dayaklar o'zlarini nimaga bunday ataganliklarini bilishmagan ham, ular urug'-qabila nomlarini ishlatmaganlar. So'nggi o'n yilliklarda Dayak nomi tobora ommalashib bormoqda. Ichki Kalimantanning o'tish murakkab bo'lgan hududlarida punan va bukit qabilalari yashab ular ham urug'chilik tizimi bosqichida hayot kechirgan.

Sulavesi orollari aholisi etnik tarkibi ham murakkab uning shimolida minaxaslar yashasa janubda sohil bo'yida buglar va makkasarlar o'rta asrlardayoq mustaqil knyazliklar tuzishgan Sulavesining ichki hududlarida tarajlar guruhidagi xalqlar yashaydi. Sulavesining ichki rayonlaridagi aholi XIX asrda ham o'z taraqqiyoti bo'yicha qo'shnilaridan ancha orqada edi. Eng kam sonli qoloq qabila tololar g'orlarda yashab tosh asri darajasida bo'lganlar. Bugungi kunda bu xalqlarning turmushi va madaniyati qo'shni xalqlarnikiga yaqinlashib qoldi.

Yava orolidan sharq tamondagi Kichik Zond orollari (Nusa Tengerra)da baliliklar, sumbavanlar va boshqa o'ziga xos yorqin madaniyat yaratgan xalqlar yashashmoqdalar.

Yana ham sharqroqda Molukk orollari yastanib yotadi ularning ayrimlari tub aholisi o'rta asrlarda deyarli qirib bitirilgan yoki qullikga sotilgan. Ispan va portugal qul savdogarlari bu erlarga ziravorlar, ifforli o'simliklar izlab kelganlar. Shuning uchun Molukkning zamonaviy aholisining ko'pchiligi Indoneziyaning g'arbiy viloyatlaridan chiqqan aholidir.

Indoneziyaning eng sharqiy viloyati Irian-Jay Yangi Gvineya orollarining bir qismi o'tmishda aholisi papuaslar bo'lgan. So'ngi o'n yilliklarda Indoneziyaning aholisi zich g'arbiy qismidan aholi ko'chirib kelinib sohildagi erlarga joylatirilmoqda.

Indoneziyaning orollaridagi (Yava, Sumatra, Kalimantan) shaharlarda ko'plab xitoyliklar, hindistonliklar yashaydilar. Ular asosan savdo hunarmandchilik ishlab chiqarishda sudxo'rlik va xizmat ko'rsatish sohalarida mashg'ullar. Filipinning eng ko'p sonli aholisi Bisayya(yoki visayyalar) umumiy aholining deyarli yarmini tashkil qiladi. Bisayyalar Mindanao, Samara, Leyto, Luson va yana bir qator katta- kichik orollarda yashaydilar. Aholi soni bo'yicha ikkinchi tagallar (25%ga yaqin) Lusonning markaziy rayonlarida va yana arxepelagning boshqa katta orollarida yashaydilar. Bu xalqlarning barchasi indoneziyaliklar singari malay tillar guruhida so'zlashadilar. Filippinning ko'pchilik aholisi katolik xristianlar qatori unchalik katta bo'lmagan moro (Mavrlarning ispancha atamasi) lar islom diniga mansub. Filippinda ham yuksak taraqqiy etgan sivilizatsiyalashgan xalqlar qatorida aloxida guruh ancha qoloq va hatto ibtidoiy qabilalar ham saqlangan. Ulardan biri aeta, ichki o'tish qiyin bo'lgan tog'li hududlarda yashaydi. Filippinning davlat tili- tagil(pilipino ham deyishadi) va ingliz tillaridir .

Xo'jaligi tavsifi. Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari shu jumladan orollar aholisining xo'jalik mashxulotlari turli tuman zamonaviy yuksak agrar sanoat xo'jalik madaniy tiplaridan eng sodda tabiat inomlarini o'zlashtirishgacha xo'jalik turlari uchraydi.

O'rmonlar, shuningdek tog'larda xayot uchun zarur maxsulotlarni: Ov, baliqchilik va o'simlik hamda mayda jonzotlarni terib- termalashga asoslangan xayot kechiruvchi urug'- qabilalar ham uchraydi. Oziq izlash uchun kichik qabila guruhlari- kubu, akit, sakaya, (Sumatrada), punan va bukitlar (Kalimantanda), semanglar (Malak-

kida), aetalar (Filippinda) va xokazolar deyarli har kuni o‘z hududlarida yurishga yo‘l- yo‘lakay barcha eyishga yaraydigan qumursqa, chuvalchang, ilon, o‘simliklarning tomiri, poyasi va boshqalarni terganlar. Ovda bambukdan nayza ilgari tosh va suyaklardan, endi temirdan paykoni bilan tayoq bilan mayda va o‘rta xajimdagi qushlarni ovlaydilar. Yirik xayvonlar ular tomonidan kamdan kam hollarda ovlanadi. Bu qabilalar uzoq muddatli ocharchiliklarni ayniqsa qurg‘oqchilikni boshdan tez-tez kechirganlar. Xo‘jalikning soddaligi va oziqning tanqisligi ularni botqoqli o‘rmonlarda yashashlari ov va termachilik uchun keng hududlarni talab qiladi. Alohida qabilalar orasida hududning taqsimlanishi asrlar davomida shakillangan qoidalar asosida bo‘linadi. Ov va termachilik ba’zida baliqchilik bilan to‘ldiriladi Ushbu qabilalarda mehnat quroli oddiy tayoq . Bambuk va boshqa o‘simliklardan bo‘yra xo‘jalik uchun zarur to‘r va savatlarni to‘qishadi. So‘nggi paytlarda sotish uchun (turistlarga) suyak, yog‘och, tosh chig‘anoqlardan turli buyumlar yasashmoqda Kiyimga mato ham o‘simlik daraxt po‘stlog‘i tolasidan tayyorlanadi. Bu qabilalarda metallga sovuq ishlov berishib undan pichoqlar, kamon, o‘q paykonlari, nayza uchlari yasashgan .

Daydi ovchi va termachilik qabilalar qo‘shnilari bilan tovar almashinuvi cheklangan darajada bo‘lgan. Bu almashinuv “tilsiz almashinuv” deyilgan, unda belgilangan joyda almashishga mo‘ljallangan buyumlar qoldirilib o‘rmon qabilalari qo‘shnilari metall buyumlar, mato, shisha marjonlar, munchoqlar va boshqa taqinchoqlar qoldirishgan. Almashinadigan buyumlar tarkibi an’analar bo‘yicha belgilangan.

Bizning kunlarimizda daydi o‘rmon qabilalari coni tez kamayib bormoqda. Ular asta- sekin o‘rmonlarni tashlab o‘zlarining nisbatan taraqqiy topgan qo‘shnilari yaqinida joylashmoqdalar. Davlat baholi qudrat bu kamsonli xalqlarga yordam berishga, ularni dehqonchilik va boshqa mashg‘ulotlar bilan shug‘illanishlariga ko‘maklashmoqda. Ayni paytta bunday qabilalarda akkulturatsiya (o‘zga madanyat bilan yaqinlashish) ro‘y berib, malaylar bilan assimilyasiya boshlanadi. O‘rmonlarda qolgan qabilalar ham asta - sekin oddiy dehqonchilik sirlarini o‘zlashtirishga, erga uchi o‘tkir tayoq, suyaklar bilan ishlov berishni boshlaganlar. O‘z erlarida ular er ildizli ekinlar ye-

tishtirmoqdalar. Janubiy-Sharqiy Osiyoning orollari o‘rmon hududlari sug‘oriladigan qo‘l dehqonchiligining murakkab turi daraxtlarni kesib shox- shabbalarni yondirib er ochib xo‘jalik yuritishadi. Bu xildagi dehqonchilik Kalimantan oroli dayaklari Yangi Gvineya papuaslari va yana qator xalqlar uchun xususiyatli bo‘lgan Bu dehqonchilik jinslar o‘rtasidagi mehnat taqsimotini qattiy bo‘lishini taqazo etadi. Yog‘ingarchilik bo‘lmagan mavsumda erkaklar daraxt va butalarni kesib, quriganida yondiradilar. Kuli erga o‘g‘it bo‘ladi. Tayyorlangan dalada ayollar tayoq yoki so‘qa bilan chuqurchalar tayyorlab: sholi, makka, yams, sabzavot ekkanlar. Asta- sekin ekin maydonlarini begona o‘tlar bosib xosildorligi pasayib, bir necha yildan so‘ng bu maydoni tashlashga to‘g‘ri kelgan. Yana yangi erlar ochishga to‘g‘ri kelgan . Dalaga ishlov berish eng sodda ko‘rinishda bo‘lgan

Hosil juda past bo‘lib, tabiiy hayot uchun etmagan. Qo‘shimcha xo‘jalik tovuq boqish qisman ovchilik, o‘rmon maxsulotlari ilonni terisi, smola yoki dengiz bo‘yidagi qabilalarida marjon ovlash va ularni oziq maxsulotlariga almashtirish bo‘lgan. Qoloq qabilalarni o‘rmon mashg‘ulotlari maxsulotlariga jahon iqtisodida ehtiyoj o‘sgan. Yevropa va Amerkada ilon po‘stidan tayorlangan buyumlarga talab kuchayganida dayaklar ilonlarni ayovsiz qirganlar. Ilonlar o‘rmon botqoqlarida ko‘p bo‘lsada ,ularning soni kamayib kemiruvchilar ko‘payib daladagi hosilni eb qo‘yadi. Daladagi hosilni eyishi tufayli qator yillar ocharchiliklar bo‘lgan. Tabiatda ilonlar soni meyoriga etgach kemiruvchilar etkazadigan zarar keskin kamaygan .

Nisbatan yuqori bosqichdagi xo‘jalik Janubiy-sharqiy Osiyoda keng tarqalgan sug‘orma ko‘l (so‘qa)dehqonchiligi bo‘lgan. Ushbu xo‘jalik turida asosiy ekin sholidir. Qo‘l sug‘orma dehqonchiligi bilan shug‘ilanadigan xalqlar: Kalimantan dayaklari, Sumatraning tog‘li bataklari Sulavesi torijlarini ayrim guruhlari, Filippin ifugaolari, Yangi Gvineya papuaslarining ayrim guruhlaridir. Ushbu xalqlarda uy hunarmandchiligi keng tarqalgan. Buyumlar qisman o‘z ehtiyojlari asosan turistlar, muzeylar, kolleksionerlarga sotuvga chiqariladi. Asta- sekin bu hunarlar professional hunarmandchilikka aylanadi. Buyumlarni badiiy darajasi ba’zida juda yuqori, ayrimlari haqiqiy san’at asari darajasida tayyorlanadi.

Ming yildan ko‘proq vaqt davomida Janubiy-Sharqiy Osiyo aholisi uchun asosiy xo‘jalik –sug‘orma omoch dehqonchiligidir. Bu sohaga iqlim mos, daryolarning serobligi ham qo‘l keladi. Mahalliy tabiat sharoiti yiliga 3 martagacha hosil olish imkonini beradi. Bosh ekin sholi, uning qatorida dukkakli va tehnik o‘simliklar, er ildizli o‘simliklar, banan, ananas, mango, kofe daraxti, choy va yana ko‘plab ekinlar yetishtiriladi. Filippinda shakarqamish ekish keng tarqalgan. Texnik ekinlardan kauchukning geneya navi etakchi o‘rin tutadi.

Eng yuqori xo‘jalik va madaniyat omoch (plug) dehqonchiligi hamda industrial taraqiyotning qo‘shilishidir. Bu xo‘jalik madaniy tip Yava xalqlari; yavaliklar va sundlar, Sumatrada: minangkabau va bataklar; Kalimantan va S ulavesining ayrim xalqlari; Filippinning ko‘pchilik aholisiga xususiyatli. Madura oroli aholisi uchun Janubiy- Sharqiy Osiyoda yagona- yaylov va qo‘ra chorvachiligi xususiyatli bo‘lib, ular yirik va mayda shoxli mol boqishadi.

Moddiy madaniyat. Janubiy–Sharqiy Osiyoning orollardagi aholisi moddiy madaniyati ashyolari ba’zida chinakam san’at asarlari, kolleksioner va etnografik muzeylar uchun istagan buyumlar bo‘ladi. Ayrim xalqlar an’anaviy moddiy madaniyatlarini deyarlik o‘zgarishsiz holda saqlab qolganlar. O‘zga yirik xalqlarda evropa madaniyatini ta’siriga uchragan bo‘lsada uy hayotida o‘zining qat’iy jihatlarini saqlab kelmoqda. Xalq turmushini ko‘rsatuvchi ko‘plab muzeylar Indoneziya, Malayziya va Filippinda tashkil qilingan.

Sug‘orma plug dehqonchiligi bilan shug‘ullanayotgan xalqlar endilikda zavodlarda yasalgan mehnat qurollaridan foydalanadilar. Oddiy dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan qabilalar erga ishlov berishda, ekishda, hosilni yig‘ishda o‘zlari yasagan mehnat qurollaridan foydalanadilar. Xususan yog‘och tayoq, so‘qa va h.k lar uchlari faqat metalldan emas, shuningdek tosh va suyak(shox)lardan yasalgan.

Qurollar juda unumli va qiziqarli bo‘lib uni qabilalar o‘z taraqqiyotlari darajasiga qarab yaratganlar. O‘rmon aholisida nayza, kamon, sumpitan – puflab otuvchi miltiqlar(bambuk poyalari yoki parmalab teshik ochilgan yog‘ochlardan)dan foydalanadi. Sumpitandan kichik zaharlangan o‘qlar bilan qushlar va boshqa mayda hayvonlar-

ni ovlaganlar. Lekin zahardan o‘zaro mojoralar paytida raqiblariga qarshi foydalanmaganlar.

Yavaliklar xanjari o‘zining turli ko‘rinishda bo‘lishi bilan mashhur. Xanjar sopini o‘yma naqshlar bilan bezashsa, qiniga turli naqshlar tushirishgan. O‘tmishda krisilardan jangovor qurol sifatida foydalanishgan. Bugungi kunda esa ulardan marosim kiyimlari, bayramlarga milliy ruh bag‘ishlovchi buyum sifatida foydalanadilar. Barcha muzeylardagi etnografik kolleksiyalarda dayaklar qilichi – mandaular saqlanadi.

O‘rmonlarning daydi qabilari doimiy turar- joylar qurmay, to‘xtagan joylarida tunash uchun daraxtlar ustida shoxida joylar yoki shamol panalar chaylalar qurganlar. O‘troq dehqonlar qishloqlari o‘tmishda baland yog‘ochdan qoqilgan uchli xodalarda to‘sinlar bilan o‘rab olingan. O‘zaro mojoralarga barham berilganidan so‘ng bunday mudofaa inshootlar qurilmay qo‘yildi. Aholi qo‘rg‘onlari, ko‘chalari bilan bir-biriga parallel turar joylari shaklida yoki tartibsiz to‘p- to‘p shaklida bunyod etilgan.

Yava orolidagi uylardan tashqari barcha hududlarda ustunlar ustiga qurilib, mustahkam tomli qilib yopilgan, sababi ular qattiq shamollarga chidashi kerak bo‘lgan. Asosiy turar- joylar ham, xo‘jalik binolari ham ikki tomonlama o‘rtasi past ikki tomoni egarga o‘xshab ko‘tarilgan tomlar barcha orollar uchun xususiyatlidir. Uy devorlarini aksari o‘ymakor naqshlar bilan bezatish, uy egalarini yomon ko‘zlardan yovuz ruhlardan saqlashga mo‘ljallangan. Dayak qo‘rg‘onlari ham o‘ziga xos ularda ikki yoki uchta “uzun uylar” bo‘lib ularda bir nechtadan oila yashaydi. Bunday uylarni ham baland ustunlar ustiga qurishib, qishloq atrofini o‘tish murakkab bo‘lgan yog‘ochdan o‘tkir uchli devor bilan o‘ralgan.

Qishloq uylari ichki ko‘rinishi sodda polga bo‘yra solinib unda kunduzi o‘tirilib, tunda uxlashadi. Devorlarda qurol-aslaha, ovlangan noyob hayvonlar terilari, qushlar, uy jihozlari ilib qo‘yilgan.

Janubiy dengiz mamlakatlari aholisining moddiy madaniyatlaridagi yavaliklar, malay, sund va tigallarda saqlanib kelayotgan elementlar asosan kiyimlarida uchraydi. O‘rmon xalqlarida kiyimlar kam bo‘lib, erkaklar lubdan belbog‘cha, endilikda fabrika matolaridan ham, ayollar o‘simlik yoki matodan yubka kiyishadi. Botqoqli

o‘rmonlarda yashayotgan aholi poyafzal kiymaydi. Lekin, ularning liboslarida zeb-ziynatlar, qo‘l-oyoq bilakuzuklarini erkaklar ham ayollar ham taqishadi. Ko‘pgina qabilalarda marosim tatuirovkalari, jangchilarni jangovor bo‘yalishlari an’analari saqlangan. Ayrim xalqlarda tishlarni yo‘nish va qora rangga bo‘yash turli metallar bilan inkrustatsiya qilish tarqalgan.

Sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlar nisbatan murakkab kiyim-sorong kiyishadi. U teri mato bo‘lagi shaklida ayollar beldan yuqorisi, erkaklar aksincha beldan pastida uzun yubka sifatida o‘raganlar. So‘nggi o‘n yilliklarda odatiy matolar va milliy kiyimlar bilan birgalikda fabrika, matolari va kiyimlarini kiyish ham keng tus olib, bu jarayon faqat shaharlarda emas, qishloqlarda ham kuzatilmoqda. Shaharlarda an’anaviy va evropa kiyimlari aralash kiyilmoqda. Xizmatchilar, ziyolilar vakillari evropacha kiyinsa, ayrimlar tepa qismi evropacha, pasti sorong bilan ham ko‘chada yuradi. Sorong bugungi kunga qadar uy kiyimi bo‘lib kelmoqda. Uni maxsus mato batakdan tayyorlashadi. Batak XX asr so‘ngida yevropa va Shimoliy Amerikada ham keng tarqalgan. U yuqori sifatli paxta tolasidan gazlama bo‘lib, uni murakkab usulda qo‘lda bo‘yab, kashtalangan. Batak qimmat mato bo‘lganligidan uni yasama arzon turlari ko‘payib ketgan.

Ma’naviy madaniyat. O‘rmonlarda yashovchi aholi hozirga qadar animizm, totemizm, fetishizm, afsungarlik va shamanizm e’tiqodlariga sig‘inib kelishadi. Hozirda yuksak rivojlangan xalqlarda ham yaqin o‘tmishda yuqoridagi diniy e’tiqodlar mavjud edi. Masalan, Kalimantan orolllarida ham XX asr birinchi yarmida ham dayaklarda “bosh ovlash” udumi saqlangan. Bu boshlardan turli marosimlar o‘tkazishda foydalanganlar. Hozirga qadar davolash, taqdirni oldindan aytib berishda shomonlik udumlaridan foydalanishadi. O‘ziga xos udumlardan biri Bali orolida cho‘g‘langan ko‘mir ustida raqsga tushishi bo‘lib so‘nngi paytlarda uni turistlar uchun attraksion sifatida namoyish qilishmoqda.

Janubiy-Sharqiy Osiyo orollari mamlakatlaridagi ko‘pchilik zamonaviy aholi diniy e’tiqodlari bo‘yicha musulmonlar (Malayziya, Yava, Sumatra va qisman Sulavesida, Fillipin janubidagi ayrim orollarda) yoki xristianlar (Filipinlarning katta qismi Sulavesi oro-

lidagi ayrim guruhlar va boshqa orollarda). Bali orolida qadimgi Hindistondan keltirilgan din buddaviylik va xinduylik dinlarining chatishgan turi saqlangan. Bu joyda ko‘plab ibodatxonalar qurilgan bo‘lib, orolning har bir burchagida ko‘p kunlar davom etadigan ezgulik va yovuzlik ruhlariga bag‘ishlanadigan bayramlar o‘tkaziladi. Krematsiya- marhumlarni gulxanda ko‘ydirish marosimi tantanali o‘tkaziladi.

Orolliklar turli klassik xalq raqslari original xalq musiqasini saqlab kelmoqdalar. Indoneziya orkestri gamelan asosan nog‘aralardan tashkil topib ular o‘ziga xos ovoz chiqaradi.

Eng katta shuhratga soyalar teatri vayang kulit yoki qo‘g‘irchoq teatri vayang purvolar erishgan. Unda qadimgi hind dostonlari asosida bir necha kun ishtirok etiladigan pesalar ko‘rsatilib, ular kundalik hamda siyosiy hayotning dolzarb muommolariga bag‘ishlangan. Ushbu teatr qo‘g‘irchoqlari soni 200 ga yaqin bo‘lib qo‘toslar terisidan boshlari qo‘llari harakatlanadi. Ijobiy va salbiy qahramonlar rangi, kiyimlari va hokazolardan farqlanadi. Qo‘g‘irchoq o‘ynatuvchi (dilang) bir paytning o‘zida qo‘shiqchi, hikoyachi va ko‘plab matnlar muallifidir. Ayni paytda madaniyatning amerikalashgan turlari toboro keng tarqalmoqda.

Malayziya, Indoneziya va Filippin xalqlarining ma’naviy madaniyati ham yorqin sahifalariga ega. Xususan malay va boshqa xalqlar folklori pantuni – ko‘rinishi bo‘yicha nozik, mazmuni bo‘yicha 4 misrali sherlardan iboratdir. Ko‘pgina xalqlar qadimgi badiiy adabiyotga ega. Masalan malaylar adabiyotida musulmon diniy asarlarini tarjima qilishdan tashqari ilgaridan xikaiatlar - baddiy xikoyalarda turli uydurmalar sodir bo‘lgan tarixiy voqealar bilan qorishib ketgan minangkabau xalqi og‘zaki ijodi ko‘plab ertaklarda ayyor kichkina kiyik, og‘zaki improvizitsiyalar bilan mashxur. Kaba nomli yirik sarguzashtli qahramonlik va nasihat yo‘nalishidagi asarlari ritmik proza shaklida bitilgan. Ushbu orollar dunyosining barcha xalqlari zamonaviy adabiyot va nashrlari boshqa profesional madaniyat elementlariga egadirlar.

2. Janubiy-Sharqiy Osiyoning qit’adagi xalqlari.

Mamlakatlar va xalqlar. Janubiy-Sharqiy Osiyoning qit’a qismidagi mamlakatlariga Myanma (Birma), Tailand, Laos, Kom-

bodja, V'etnam va Malayziyaning bir qismi kiradi. Myanma aholisi ko'p millatli: birmaliklar, shanlar, karenlar va yana ko'plab o'rmon qabilalari shu qatorda naga – Hindiston bilan chegara viloyatlarida yashaydilar. Janubiy-Sharqiy Osiyo qit'a qismidagi asosiy aholi ham mo'g'ul irqining turli tipiga kiradi. Lekin til borasidagi tafovutlar turli til oilalari darajasida namoyon bo'ladi. Jumladan birmaliklar va nagalar uzoq davrlardan buyon tibetliklar bilan o'xshash bo'lgan tillarda gaplashishadi. Tailand aholisi tailandliklar va shimoliy qabilalar tay tillarida so'zlashadilar. Mamlakatda tay (siam) tili davlat tilidir. Laos aholisi ham ko'p millatli ular asosan tay tillariga mansub. Kombodja aholisi kxmerlar kxmer tilida gaplashadilar. Vetnamning asosiy aholisi v'etlar(yoki kin) mamlakatning tog'li va o'rmon viloyatlarida unchalik katta bo'lmagan xalqlar yashab turli tillarda so'zlashadilar. Malayziyaning qit'a qismida Malakka yarim orolida asosiy aholi malaylar: ular bilan birga xitoyliklar ham istiqomat qiladilar. Malakkaning markaziy o'rmonli hududlarida bu joylarning tub aholisi semang va senoilar yashaydilar. Singapurda aksariyat xitoyliklar va Hindistondan kelgan kishilar joylashgan. Xitoyliklar qo'shni mamlakatlarda ham ko'p sonlidir. Milodiy 1-ming yillikning oxiri- 2 ming yillik boshlarida janubiy –sharqiy Osiyoning ko'plab rayonlarida- Myanmadan V'etnamgacha shahar markazlari va davlatlari vujudga kelgan. Tog'li viloyatlarda elat va qabilalar ibtidoiy tuzum unsurlarini saqlaganlar.

Hindixitoyning dengizbo'yi viloyatlari va Malakkaga evropalik cavdogarlar va missionerlar XVIII asrdan kela boshlaydilar. XIX asrning ikkinchi yarmidan inglizlar o'zlarining Hindiston mustamlakalariga Birmani, M'yanma, Singapurni qo'shib oladilar. Kambodja, Laos va V'etnam Fransiyaning, Tailand (Siam) qirolligi formal tarzda o'z mustaqilligini saqlab qoladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Janubiy-Sharqiy Osiyoning qit'a qismidagi barcha mamlakatlar mustaqillikkka erishdilar. Ayrim mamlakatlarda (Indoneziya, V'etnam) mustaqillik uchun uzoq urushlar va ko'plab qurbonlar bo'ldi.

Xo'jalik hayoti. Janubiy-Sharqiy Osiyoning turli viloyatlarida ko'plab elatlar (orollardagiga nisbatan) erga qo'lda ishlov beradigan o'rmonlardagi daraxtlarni kesib yondirib- dehqonchilik qiladi.

Lekin ko'pchilik aholi daryo vohalarida plug dehqonchiligi bilan shug'ullanadi. Ekinlardan sholi, sabzavotlar, texnik ekinlar, banan va boshqalar yetishtiriladi. Yirik shoxli mol (ayniqsa xo'kiz) dan faqat go'sht uchun emas, transportga, omochga qo'shishda ham foydalanilgan. Aholining ko'pchilik qismi sut iste'mol qilmaydi.

Shahar aholisi soni nisbatan ko'p ayniqsa dengiz sohili bo'yidagi, daryo vohalaridagi shaharlar yirik savdo va sanoat markazlari Tailand, V'etnam, Malakka yarim oroli, Myanma, Laos va Kambodja bu borada ulardan zaifroq, ulardagi aholida qishloq xo'jaligi ustun. Malakka va Hindixitoyning barcha mamlakatlarida uy hunarmandchiligi: to'qimachilik rotana va bambuk shoxchalaridan savatlar turli va mebellar to'qish zargarlik va temirchilik yog'ochga ishlov berish keng tarqalgan.

Nagalar turmushi va madaniyati madaniylashgan kezlardan uzoqda tog'larda yashayotgan halqlar turmushida ko'plab arxaik unsurlar yoqlangan. Bu borada M'yanma nagalari ayniqsa mashhur. Ko'p sonli va jangari naga qabilalari ilgaridan o'z qo'shnilariga qo'rquv solib muntazam ravishda bosqinchilik yurishlari uyushtirganlar. Xo'jalik borasida nagalar qadimdan dexqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ular tor tog' vohalarida zinapoyali terassa ekinzorlari yaratishgan. Tog'larda unumdor erlar kam, shuning uchun nagalar qo'shnilari erlariga xujum uyushtirganda ularning erlaridan tuproq ham olganlar. Nagalar o'z dalalarini bambukdan yasalgan novli orqali sug'orishgan. Ular sholi, sabzavot eng baland erlarda makkajo'xori yetishtirganlar. Chorvachilikda yaylovlar bo'lmaganligidan asosan to'ng'iz va tovuqlar boqiladi.

Nagalar qo'rg'onlari erlari singari terassa usulida qurilgan. Har bir qishloq kuchli mudofaa vositasi sifatida devorlar bilan taminlangan. Uylar qalin yog'ochlardan, erga qoqilgan ustunlar ustida qurilgan. Uylar yirik oilalar uchun qurilib ular bir necha avlod qarindoshlardan tashkil topgan. O'zining jangariligi sababli turli qurollar: nayzalar, shamshirlar, hanjarlar, 20 asr boshlaridan o'tochar qurollarni to'plaganlar. Nagalar diniy tasavvurlari arxaik ko'rinishda. O'tmishda nagalar ham "bosh ovlaganlar", yigit dushman boshini keltirmaguncha uylanishga ruxsat berilmagan. Dushman boshini yangi qurilayotgan uyning birinchi ustuni tarzida erga ko'milgan.

Bugungi kunda zamonaviy nagalarning talay qismi xristian baptistlar, o'tmishda ular ruhlar va jonlarga e'tiqod qilishgan.

Hindi-Xitoy o'troq dehqonchilik xalqlari madaniyati.

Myanma xalqalari orasida shanlar va karenlar erkaklari sarong , engsiz kurtkalar, tor shimlar (ishtonlar) kiyganlar. Birmaliklarda erkaklar kiyimlari keng mato bo'lagini beldan pastiga o'rab yubkasimon kiyim yaratishgan. Boshga to'qilgan shlyapa, oyoqqa poyafzal kiyganlar. Ayollar kiyimlari erkaklarnikiga o'xshash faqat kengroq bo'ladi.

Tailand aholisi o'z qishloqlarini daryo sohillari, ba'zida daryoning o'zida qayiq va sollardagi "uylarda" yashaydilar. Ko'plab kambag'allar bu hildagi uylarda butun umrini o'tkazadilar. Mamlakatning qishloq aholisi ham shahar aholisi ham an'anaviy bel kiyimiga e'tiqodini saqlab kelmoqda. Unda mato bo'lagini tanasi va oyoqlari atrofiga o'rab, tepasida kurtka yoki ko'ylak kiyishadi. Tailand baleti dunyoga tanilgan Raqsga asosan ayollar tushadilar. Tomoshaga tayyorgarlik shunchalik murakkabki u bir necha soatni talab qiladi. Kolleksioner va turistlar tailand zargarlik buyumlarini yuksak baholaydilar.

Kambodjaning yirik xalqi kxmer qishloqlari daryolar va hovuzlar yaqinida joylashgan. Uylari ustunlar ustida bir- ikki xonali qilib qurilgan. An'anaviy kiymlari –sarong, erkaklar –kurtka, ayollar uzun sharflar kiyishadi.

Laosliklar (lao) Laosning asosiy etnonimi sanaladi. Ko'cha bo'ylab uzun masofada joylashgan ustunlar ustida bunyod etilgan uylarda yashaydilar. Uy hunarmanchiligi, umuman hunarmanchilik rivojlangan. Toshdan but va sanamlar yasash ko'p qatlamli lakdan buyumlar, daraxt o'ymakorligi, zargarlik rivojlangan. V'etnamning asosiy aholisi v'etlar mamlakat hududining asosiy qismini egallaganlar. Mamlakat shimolida o'rmonli hududlarda turli millat va kam sonli xalqlar yashab ularning tillari ham rang-barang, arxaik madaniyatlarini saqlaganlar. Lekin so'nggi yillarda bu aholi v'etnamliklardan ko'plab madaniy yutuqlarni o'zlashtirdilar. Zamonaviy V'etnamda yirik shahar markazlari mavjud ularda yuksak rivojlangan sanoat

tashkil etilgan. Ayni paytda turli an'anaviy hunarmandchilik ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan zargarlik buyumlari, rotan va bambuk poyasidan to'qilgan narsalar katta miqdorda eksportga yuboriladi. V'etnam patli gilamlari ham yuksak sifatli ekanligi bilan xususiyatlanadi. V'etnamliklar qishloqlari yirik ular tepalik yonbag'ri bo'ylab, daryo vohalari va yo'llar chekkalarida joylashgan. Har bir qishloqda jamoa uyi mavjud bo'lib unda yig'inlar o'tkaziladi. Uylari sinchli, loy bilan suvalgan devorlari to'g'ridan - to'g'ri er ustida bunyod etilgan.

V'etnamning qishloq joylarida an'anaviy kiyimlar saqlangan. Ularda erkaklar va ayollar kiyimlari o'xshash, kiyimlar paxtadan to'qilgan matodan kurtka qora yoki jigarrang ishtondan iborat. Palma barglaridan to'qilgan qalpoq (shlyapa), oyoqlarida sandal, barcha hududlar uchun xususiyatlidir. So'nggi o'n yilliklarda shaharlarda evropacha kiyimlar tarqalmoqda. O'tmishda vetnamliklarda tishlarini qoralash odati bo'lgan. Qishloqlarda betel chaynash tarqalgan. Unda betel bargi arek palmasi urug'ining bo'laklariga oxak qo'shib tayyorlanadi. V'etnamliklar boy ma'naviy madaniyatga egalar. Turli tuman folklor dostonlari (podsho - ajdarxo xaqida rivoyat, epik dostonlar va x.k lar) badiiy adabiyot rivojlangan. Teatr san'ati qadimgi teatr tea shaklida saqlangan. Qog'irchoq teatri suv ustida hovuzda tomosha ko'rsatiladi.

V'etnamda Fanlar akademiyasi, oliygohlar tashkil etilgan. Janubiy-Sharqiy Osiyoning aloxida xalqlari ongi,ularning taraqqiyotga intilishi qator omillar orqali: o'ziga xos tabiat, yorqin madaniyat, mehnatsevar aholi, shuxratli voqealarga boy tarixga milliy ozodlik urushlaridagi g'alabalar, yangi davrda ijtimoiy – iqtisodiy yuksalish tomon harakatlar orqali shakllangan. O'zining tarixiy taraqqiyotida yirik etnoslar o'z davlatlarini tuzdi, yozuvlarini yaratishdi, zamonaviy adabiyot va maorifni shakllantirish borasida muhum qadamlar qo'yishdi. Lekin bu regionda ham boshqa ko'pchilikda bo'lgan murakkab jarayonlar kechib ularni echimini toppish katta kuch va sabr- toqatni talab qiladi. Ulardan biri deyarli barcha mamlakatlarda xitoyliklarning qudratli diasporasi bo'lib ular mayda savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida etakchilik qilishi mahalliy aholini g'azablantirib etnoslararo dushmanlik kayfiyatini yaratmoqda.

Savol va topshiriqlar.

1. Janubiy-Sharqiy Osiyo orollaridagi aholisining antropologik va lingvistik tavsifini ifodalab bering.
2. Aholining etnik tarkibiga oid internet ma'lumotlarini to'plang.
3. Aholining xo'jalik faoliyatidagi transformatsiyalarni qanday ifodalaysiz?
4. Moddiy madaniyatdagi xususiyatlarni orolliklar turar joylari, kiyimlari haqida so'zlab bering.
5. Orolliklar ma'naviy madaniyatlari, dinlari haqida gapirib bering.
6. Janubiy-Sharqiy Osiyoning qit'adagi aholisi, tillari va antropologiyasi.
7. Hindi-Xitoyning o'troq dehqonchilik aholisi madaniyatini bilasizmi?
8. Etnoslar ma'naviy madaniyati va dinlari haqida so'zlab bering.

12-BOB SHIMOLIY OSIYO (SIBIR) XALQLARI

Ural tog'laridan sharqqa tomon minglab kilometrga cho'zilgan Sibir o'lkasi Tinch okeani sohiliga qadar davom etadigan hududni egallagan. Bugungi kunda ushbu Rossiya Federatsiyasiga kiradigan hududda asosiy aholini ruslar tashkil etib, mahalliy tub millatlar, xalqlar, elatlar qabilalar tarqoq, ko'p hollarda siyrak yashaydilar.

Aholining asosiy qismi va yirik shaharlar o'lkaning janubida, Sibirning o'rta qismi va Uzoq Sharqda joylashgan. Shimoliy hududlar Arktika va Subarktika zonasiga kirib oykumenaning aholisi eng siyrak hududlaridan biri hisoblanadi.Tundraning ushbu cheksiz mintaqasida yilda 10 oy qor qatlami saqlanadi. Faqat qisqa yoz mavsumida qor o'rnida baland bo'lmagan o't-o'lanlar o'sib, undan janubda qalin daraxtlar va butalar ko'karib arktikaning sovuq shamollariga qarshi turadi. Undan janubroqda ulkan hududlarni egallagan tayga, uning o'tish murakkab bo'lgan o'rmonlari boshlanadi. Shimoliy Osiyoning arktika va subarktika zonalarida hozirga qadar insonni muntazam yashashi uchun qulay sharoit yaratilmagan. Yashayotganlar esa Sibirning tub aholisi minglab yillar davomida ov va baliqchilik bilan tirikchilik qilib, transport,uy joy va uni isitish taom va uni iste'mol qilish usullari va x.k larda to'plagan tajribalaridan foydalanishini taqazo etadi. Bu bebaho tajriba Sibir aholisining dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasidir.

Bugungi kunda Sibirda yigirma beshta xalq o'z hayotini: tayga va tundra ovchiligi, dengiz xayvonlarini ovlash, baliqchilik va bug'uchilik bilan olib bormoqda. Ularni etnologiyada Shimol va Sibirning kam sonli ovchilik xalqlari deb atashib, ularga Xanti-Mansi va Yamal-Nenets avtonom okruglari, Chukotka va Koryak avtonom oblastlari, Krasnoyar o'lkasida evenk va Taymir avtonom oblastlari kiradi. Etnoslarning ayrimlari Saxa-Yoqutiston Respublikasida, Uzoq Sharqda, Saxalin orollarida yashaydi. Ularning ayrimlari 200 kishidan (depopulyasiya jarayonida) 34 ming kishigacha, barchasi 180 ming kishi. Faqat bitta Shimoliy Sibir xalqi - yoqutlar (400 ming atrofida) nisbatan yirik etnosdir. Janubiy Sibirda ham bir necha o'ndan yuzlab minglab aholiga ega etnoslar mavjud.

1. Sibir xalqlari va madaniyatlari.

Ruslar Sibirni egallay boshlar ekanlar birinchi bo'lib mansi, xantlar va nenetslar bilan uchrashganlar. Ular Rossiya davlatiga XVI asrda qo'shib olinganlar.

Komi, nenetslar, xantlar va mansilar tillari ural til oilasiga kiradi. Til oilasini fin, samodiy hamda ugor guruhlari mavjud. Lingvistika va arxeologiya tadqiqotlariga asoslanib, ural til oilasi qadimda Osiyo va yevropa chegaralarida Ural tog'larining har ikki tomonida shakllanganini extimol qiladilar. Hududda jez va temir asrlarida ugorlar ajdodlari ovchilik hamda baliqchilikdan ishlab chiqarish xo'jaligiga – chorvachilikka o'tganlar.

Janubiy Ural hududlarida m. av. III-I ming yilliklarda ko'p sonli migratsion jarayonlar bo'lib o'tgan. Ayni paytda ugor qabilalarining bir qismi Xitoygacha siljib mahalliy qabilalar bilan aralashib, ulardan baliqchilikni va ovchilikni o'zlashtirgan bo'lishlari extimol. Lekin ushbu jarayonda ugor tillari ustun kelgan, ayni paytda ugorlarga qadar yashagan aholidan baliqchilik va ovchilikni o'zlashtirganlar. Bugungi xantlarning kelib chiqishi tarixi shu tarzda xozirda ular 22,3 ming kishidan va mansilar 8.3 ming kishidan iborat. Mansilar oxirigacha o'rganilmagan kam sonli etnosdir.

Xant va mansilar XIX asrda Ob daryosi vodiysidagi o'rmonlarda yashab ozuqa topishda katta qiyinchiliklarga uchraganlar. Olimlarni ularning boy folklori, pahlavonlari, dushmanlar bilan urushlardagi qaxramonliklari xaqidagi dostonlar qanday vujudga kelgani hayron qoldiradi. Qolaversa ulardagi erkaklarning xanjar va nayzalar bilan raqsi, uning davomida tebranib, qurollarni siltab, jangari xayqiriqlarni aytib qichqirishlari xuddi yaqindagina urushga tayorgarlik ko'rgan qo'shinga o'xshaydi. Ushbu raqslar endilikda bayramlarda ajdodlar ruhlariga bag'ishlab o'tqaziladigan marosimlarda ijro etiladi.

O'rmon etnoslarida ruslar istilosiga qadar o'zlarining qaxramonona davri bo'lgan. Ob daryosi xavzasida qator knyazliklar o'z xukmdorlariga, yog'ochdan shaharcha-qal'alari, drujinalariga ega bo'lgan. Tayga o'lkasidagi urushlar aksari ov ko'rinishida bo'lib, dushmanga sezdirmasdan yaqinlashib, uni shoshirib qo'yishi lozim edi. Tadbir tunda qayiqlarda ham amalga oshirilgan. Dostonlarda

ko'ylanishicha ochiq urushlar ham bo'lib turgan. Kuchumning Sibir xonligiga kirgan xant va mansilarni ruslar o'tochar qurollar yordamida tezda bo'ysindirganlar.

Xantlar va mansilar qishloqlari daryolar Ob va Irtish oqimi bo'ylab joylashib, kichik aholisi kam, tarqoq xolda bo'lgan. Eng yirik uylar soni o'ntadan oshmagan. Daryolarning quyi oqimida baliqchilik, yuqori oqimida esa ovchilik asosiy mashg'ulot bo'lgan. Baliqlar urug' tashlagani sayoz suvlarga qarab suzganida xantlar va mansilar qayiqlarda ovga tushib, chayla qurib qishga baliqni quritib, dudlab zaxira tayorlaganlar. Baliqning ichidagi narsalaridan eritib yog' olishgan, uni taom tayorlashda turli o'rmon mevalarini aralashtirib saqlashgan. Baliqni suyaklaridan yanchib un qilib, qishda undan sho'rva tayyorlab eyishgan. Baliq ovlashda turli qurollar sanchqi, nayza, to'r va x.k.lardan foydalanishgan.

Xantlar va mansilar ovda ham yuksak mahoratga ega bo'lishgan. Ruslar kelguniga qadar asosiy ov quroli kamon edi. O'q-yoydan foydalanishga bolalarni yoshligidan o'rgatishgan. Ov aholini faqat oziq emas kiyim-kechak, mehnat qurollari idishlar yasash uchun, xo'jalik uchun zarur ashyolar berilgan. Xo'jalikda yog'ochdan ham keng foydalanilgan. Beresta (oq qayin po'stlog'idan va boshqalardan idishlar tayyorlangan. Yog'ochdan taygadagi hayotda juda zarur buyumlar chang'i, itlar uchun nartlar, ichi o'yib yasalgan qayiqlar tayyorlangan.

Qishda muzlab qolgan daryolar ustida it qo'shilgan chang'ilar asosiy transport vositasiga aylanadi. Itga chang'i qo'shish bu joylarda qadimgi ildizlarga ega. U neolitda paydo bo'lib, o'troq baliqchilik sharoitida faqat odamlarga emas, itlarga ham etarlicha oziq bo'lishi lozim edi. Faqat XVII-XVIII asrlardagina it chang'ilarini bug'u qo'shilgan chanalar almashtiriladi. Har bir hududiy qabila guruhida o'z muqaddas ziyoratgohi bo'lgan. Bosh iloh barcha narsalarni yaratgan Numi toruma, uning rafiqasi Kaltash-Enva er xudosi hisoblangan. Numi torumani etti o'g'li bo'lib ulardan odamlarga yordam bergan Mirsusnexum ayniqsa e'zozlangan.

Xalq tasavvuriga ko'ra insonni o'rab olgan tabiatda ko'plab ezgu va yovuz ruhlar mavjud ular bilan yaxshi munosabatda bo'lgan. Mazkur ruhlar barcha joyda mavjud o'rmonda paxlavon-

menkvalar va parilar-misnelar yashaydilar. Odamlar va ruhlar orasidagi vositachilikni shomonlar bajaradilar. Inson xayotida o'zi enga olmaydigan qiyinchiliklarga duch kelsa shomonga murojaat qilgan.

Selkuplar va ketlar. Xanti va mansilardan tashqari Ob daryosi vohasida tili bo'yicha nenetslarga, turmush tarzi va xo'jaligi bo'yicha ugorlarga yaqin selkuplar yashaydi. Hozirda ularning bir qismi Tomsk viloyati, qolganlari shimolga Taz daryosi bo'yiga ketib bug'uchilik xo'jaligini o'zlashtirganlar. Ularning umumiy soni 3.6 ming kishi.

Yana bir kam sonli ketlar (1.1 ming) tayga ovchi va baliqchilari. Bugungi kunda ketlar alohida til oilasi Eniseyning yagona vakilidir. Avvallari Enisey havzasida yashagan shu tilda gaplashadigan xalqlar XVII-XVIII asrlarda Janubiy Sibir turklari, ruslar, selkuplar bilan aralashib o'z tillarini yo'qotganlar. Faqat ketlarning taygada yashovchi ayrim guruhlari qolgan hamda ular baliqchilik va ovchilik bilan shug'ullanishda davom etmoqdalar.

Nenetslar. Arxangelsk oblastidan Taymir tundrasigacha 34 ming nenetslar yashab, o'z bug'u podalari bilan Arktikaning cheksiz tekisliklarida ko'chib yurishadi.

Bug'u ushbu aholi uchun eng katta boylik bo'lib tundradagi aholini barcha zarur narsa bilan taminlaydi. Bug'uni qo'lga o'rgatilishi tarixi (ayniqsa Eniseydan g'arbda) samodiy xalqlari ajdodlari nomi bilan bog'liq. Bu xalqlar ural til oilasiga kiradi. Ural til oilasiga selkuplardan tashqari enslar (200 kishi), Taymir nganasanlari (1.3 ming). Bug'u go'shti bu aholi ozuqasini asosiy qismini tashkil qiladi. Undan sho'rva, hamirli taomlar tayyorlashadi, lekin eng muhimi go'shtni o'zidir.

Endigina ushlangan baliqni aksari xom xolatda yoki tuz sepib eganlar. Qishda muzlatilgan baliq-stroganina sevimli taomlari bo'lgan. Baliqdan zahira ham tayyorlangan. Go'sht va baliqlarni bu xilda istemol qilinishi bu xalqlarni, qaloqligidan emas o'simlik sabzavotlarni etarli bo'lmasligi sabablidir.

Nenetslar manzilgoxlari qishda janubda, baxor kelishi bilan bug'ularni tundra va o'rmonga tomon xayday boshlaganlar. Tajribali cho'ponlar bug'ular qayerdan etarlicha ozuqa topa olishini yaxshi bilgan ularning eng yaxshi yordamchilari itlar bo'lgan.

Nenetslar turar joylari ko'chma uy-chum bo'lgan uning sinchida 25-40ta yog'och bo'lib, usti nyuk-bug'uni juni tepaga qaratib tikilgan terilaridan qilingan. Yozda chumni beresta (daraxt po'stlari) yoki eski bug'u terilari bilan yopishgan. Chumni ochiq o'g'ochdagi gulxan bilan isitishgan. Tutun chiqishi uchun tepada tuynuk qoldirilgan.

Kuz va qishda nenetslar yovvoyi bug'ularni mo'ynali xayvonlarni ovlash uchun yozda baliq ovlash maqsadida artenlarga birlashganlar. Bu paytda ularning bug'ulari va oila azolari manzilgoxlarda qolgan.

Nenetslar barcha tabiat kuchlari osmon, er olovni ilohlashtirganlar. Aholi ongida ruhlarga etiqod alohida o'rin egallagan. Nenetslar uchun oliy iloh osmon xudosi bo'lgan. Yovvoyi bug'ular egasi Illebembertini ezozlaganlar.

"Uy ruhlari" ham turli- tuman bo'lib ularning ayrimlarini inson qiyofasida tasvirlashsa boshqalarini qandaydir buyum yoki antiqa ko'rinishdagi tosh shaklida ifodalashgan. Nenetslar ovda omadlari kelmasa ilohning xaykalini ramzini jazolaganlar, aksincha ovlari baroridan kelsa qon yoki ovlangan qush yoki baliqning yog'i bilan siylaganlar. Nenetslarga qardosh tilli nganasanlar ular bilan Taymirda qo'shni yashab ulardan bug'uchilikni o'zlashtirib katta bug'u podalariga ega bo'lsalarda, taomga faqat yovvoyi xayvonlar go'shtini ishlatishadi. Bug'ular kuzda shimoldan janubga tomon siljiganida Nganasanlar go'sht tayyorlashni boshlaganlar . Buning uchun bug'ular suv xavzalarida suzib o'tayotganda qayiqdan turib elkasiga nayza sanchganlar. Omadli ov mavsumida tayyorlangan go'sht zaxirasi baxorga qadar yetgan.

Xo'jalikning ushbu yovvoyi bug'ularga ovi Yevroosiyoning shimolidan eng qadimgi turlaridan biri bo'lgan. U neolitda paydo bo'lgan nganasanlar diniy tasavvurlarida qadim udum va marosimlar unsurlari bo'lib, ulardan biri o'choq ilohasiga etiqod qilishgan. Bayramlari yanvarda tundra ustida quyosh ko'ringanida yozgi quyoshni chiqishi, ilk qor yog'ishi va hokazolarda shomon boshchiligida qamlash udumi o'tkazilgan. Shomon bo'lajak mavsumni omadli kelishi yoki boshqa istiqbollarni aholiga etkazgan.

Evenklar. Eniseydan sharqqa tomon Tinch okeani sohillariga qadar o'rmonli o'lkani qadim zamonlardan evenklar (30 ming)(ilgari

tunguslar deb atashgan) o'zlashtirganlar. Ularga tili va turmushi jixatidan o'xshash evenklar (17 ming kishi) ilgari ularni ham tungus deyishgan. Kam sonli bo'lishiga qaramasdan evenklar Rossiyada ruslardan keyin ikkinchi yirik hududni egallaganlar. Evenklar tayga ovchilari xayoti mazkur hududni xayvonlarni odatlarini yaxshi bilishdan tashqari yaxshi mergan abjir va chidamli bo'lishi lozim. Ovda omad ham muhimdir. Evenklardagi maqollardan birida "oson erishilgan narsa omad emas. Ovchilarni taygani bilishlari unda yul topib yurishlari hayratlanarli darajada. Ular uchun barcha narsalar daraxt butali er yoki relefli jilg'a, xayvon oyog'i yoki qushning ovozimi barchasi inson uchun muhim malumot berib barchasi uning xotirasida muxrlanadi. Evenklarning butun xayoti hayvon yoki baliq izlab bir joydan ikkinchisiga ko'chishi bilan o'tgan. Lekin bu ko'chishlar tartibsiz va o'z- o'zidan bo'lmasdan qishgi bahorgi va kuzgi manzilgoxlar asrlar davomida o'rganilgan joylarda bunyod etilgan. Ovchi yoki ovchilar guruhi bazida hayvonni bir necha ko'plab ta'qib etgan. Agar mavsum omadli kelsa go'shtni bir qismini zaxiraga qoldirishgan. Uni dudlashgan quritishgan yaqin orada eyiladigan gushtlarni qoplab bug'iga yuklab olib yurishgan. Ovchi ovlagan xayvonni xech qanday isrofsiz maydalagan. Kamus bug'uning yoki losning oyog'idagi terilar poyafzal uchun ishlatilgan. Xayvonning bo'yin terisidan bir necha metr uzunlikdagi mustaxkam arqonlar yasashgan. Paylaridan kiyim tikish uchun maxkam iplar qilingan. Bug'u yoki ayiq terisidan issiq kiyim chumlarni yopish, uxlash uchun qoplar, ko'rpa yasashgan. Bug'i terisidan zamsha ham tayyorlashgan. Evenklar o'zlariga zarur bo'lganidan ortiqcha xayvon ovlamaganlar. Evenk va evenlar xayotida baliq ham aloxida o'rin tutgan. Ilgari baliqni uchi uch nayzali qurolda tunda mash'ala qilib qishda muzni o'yib ovlashgan. Yozgi va kuzgi manzilgoxlarda kichik soylar o'zanini to'sib shox shabbalar bilan bir joyga surib kelib ovlashgan. Yaxshi ov tufayli ortiqcha baliq tutilsa uni saqlab qo'yishgan.

Evenk madaniyatining ajralmas qismi bug'uchilik bo'lgan. Ularning qo'shnilari (chukchalar va nenetslar bo'lgan) evenklarni bug'udagi chavondozlar deb bejizga aytishmagan. Aynan bug'ular evenklarga harakatchan xo'jalik yuritishi taygani o'zlashtirish imkonini bergan. Tungus bug'ichiligi transport ko'rinishida bo'lgan.

Bug'iga egar urib uy jixozlarni tashishgan. Har bir oilaga 40- 60 boshdan bug'u to'g'ri kelgan. Undan kam bo'lsa yo'lda transportsiz qolishi mumkin. Bug'ularni juda ehtiyot qilib faqat ocharchilik bo'lsagina so'yishgan. Qishda bug'ular qor tagidan tuyog'i bilan yagel-o'tini topib eganlar. Evenklarning an'anaviy uy joylari ko'chma chum asosi yog'ochlardan qilingan. Ularda bir nechta oilalardan iborat guruh chumlarni eg'ishga 2 soat yangi joyda o'rnatishiga ham shuncha vaqt sarflashgan.

An'anaviy kiyimlari ham ovchilik xayotiga moslashgan qishki po'stin bo'g'i terisidan oldi ochiq qilib tikilgan. Etaklari tizzasigacha bo'lib bug'ida o'tirishga yoki keng ovchi chanasida hayvonni taqib etishda qulay bo'lgan. O'tmishda ko'krakni issiq saqlash uchun maxsus kashtalangan yoping'ich bilan to'silgan. Yozda oldi ochiq kaftan kiyilgan ruslar kelmasdan oldin uni ravdugi bug'i zamshasidan tikishgan.

Evenk va evenlar tilida ushbu xalqlar xo'jaligida o'ziga xoslikni ifodalovchi ko'plab so'zlarni saqlagan. Bu tillarda ovlanadigan hayvonlarning xilma- xil nomlari berilgan. Lekin ayiqning nomi xech qachon ovoz chiqarib aytilmagan. Tayga egasini odatda bobo yoki buvi tog'a va hokazo ko'chma nomlar bilan atashgan. Evenklar ayiqni nomi bilan atashsa u albatta eshitib, gap nima haqida ketayotganini tushinadi deb bilishgan. O'rmon hayvonlari qushlar va baliqlar bilan bog'liq ko'plab ta'qiqlar va irimlar bo'lgan. Ularni ayrimlarini ma'lum mavsumlarda boshqalarini butunlay o'ldirish ta'qiqlangan.

Evenklar tasavvuricha koinot uchta: yuqori, o'rta va pastki dunyodan iborat. Eng oliy Eneke tayga odamlar va xayvonlar (xo'jayinini) ulug'lashgan. Uning yerdagi asosiy yordamchilari Eneke togo (buvi) va ezgulik ruhi Seveki bo'lgan. U doim odamlar haqida qayg'urib bug'ular podasini asrashga ko'maklashgan, kasalliklardan asragan, ovchilarga qushlarni yuborgan. Quyi dunyoda ajdodlar eri joylashgan marxumlar joni o'lgandan so'ng pastki dunyoga ketadi. Unda bir oyoqli yovuz ruh -Hargi o'z yordamchilar bilan insonni maxv etishi yoki unga turli ofatlar va kasalliklar yuborishi mumkin. Ushbu yovuz kuchlarga qarshi faqat kuchli shamanlar ruh ko'makchilari bilan yordam berishlari mumkin bo'lgan.

Yokutlar. Rus kolonistlari XVIII asrning birinchi yarmida taygadagi tungus ko'chuvlari orqali o'tib Lena daryosi Aldan va Vilyuy daryolari havzasida yashagan ajoyib xalqni uchratdilar. Yokutlarni xo'jaligi asosi ov va baliqchilik emas chorvachilik edi. Yirik shoxli mol otlarni boqishgan. Yoqutlar (o'zlarini "saxa" deyishadi) dunyoning eng shimoliy hududidagi chorvadorlardir. Olimlarning fikricha yokutlarning shimolga ko'chishlari m. II ming yillikning boshlaridan boshlanib, XIII-XIV asrlarda yakuniga etgan. Yokutlarning tarixiy xotirasida ularning ilk ajdodi Omogoy, Elley va Ulug' Xorolar xaqida rivoyatlar kolgan. Unga ko'ra ular xozirgi hududlarga sollarda Lena daryosi buylab suzib kelishgan. Yokutlar janubiy Sibirning ko'pchilik aholisi singari turkiy tillidir.

Yokutlar o'z hududlarida yashovchi ko'plab etnik guruh vakillarini tarkiblariga singdirib (assimilyasiyalashtirib) yuborganlar. Ular orasida mo'g'ul tilli (buryatlarning singari) etnoslardan tashkari tunguslar, yukagirlar ham bo'lgani ehtimol.

Yangi yurtga kuchib o'tgan aholini xuo'jaligi o'zgarmay qolishi mumkin emasdi. Arktika sovug'iga chiday olmaydigan xayvonlar: ko'y, echki, tuyalar shuningdek dexqonchilik yo'qotiladi. Murakkab sharoitlarda yokutlar shimol chorvachiligini yaratdilar. Uning asosini ikki-qishgi va yozgi kishloqlar tashkil etadi. Kishgi manzilgohlar ial, odatda bir-ikki yog'ochdan uylardan iborat bo'lib yozda xashak tayyorlaydigan o'tloqlar yaqinida bo'lgan. Qishki uyga – xoton (qo'ton) molxona taqab qurilgan. Yoqut xayotida qishga etarlicha xashak tayyorlash bu xayot-mamot masalasi bo'lgan. Xashak o'riladigan maydonlar eng qimmatli xo'jalik kadriyatlaridan bo'lib, ba'zida oddiy jamoa a'zolari va toyonlar (jamoa boshliqlari) orasida bahs va kelishmovchiliklarga sabab bo'lgan. Yozgi manzilgohlar – daryo vohalari, alaslarda joylashgan bo'lib, unda daraxtlardan bo'sh, o't-o'lanlar serob joylar tanlangan. Bu yaylovlarda mollar iyun-sentyabr oylarida boqilgan. Alasda odatda bir necha oila o'z chorvasi bilan to'plangan, unda yozgi uylar qurilgan.

Yokutlarning asosiy ozuklari sut va undan olinadigan maxsulotlar bo'lgan. Yoz va kuzda qishga etadigan sigirlar sog'ilganda, sut mo'l bo'lganida, asosiy oziqni tayorlab olish kerak edi. Qishning ikki-uch eng sovuk oylarida sigirlar sog'ilmagan. Yoz va

kuzda sutni qatiq qilib unga turli o'simliklarning iste'mol kilish mumkin bo'lgan ildizlari, mevalari, ziravorlar solinib katta daraxt po'stloqlaridan qilingan idishlarda muzlatilgan (tara) Kishda undan bo'laklarni sindirib olib eritib suv qo'shib, un solib, shurva- butugos tayorlangan. Ko'pincha qahraton qishda bu taom yokutlarni yagona ozig'i bo'lgan. Ba'zida u ham etmaganida sigirlarni sogishni boshlaganlar. O'tmishda qishni oxiri baxorni boshida ocharchiliklar tez-tez takrorlanib turgan va ko'plab kishilarni, ayniqsa bolalarni uz domiga tortgan.

Shuning uchun yoqutlar dalalardan qor ketib maysalar unib chiqishini sabrsizlik bilan kutganlar. Biyalar qulunlab, ularni sotib boshlashadi. Qimiz qishdan xolsizlanib ketgan insonlarni quvvatini kaytaradi. Iyunda yoqutlar kimiz bayramlari isiax o'tkazganlar. Uni uzoq o'tmishda urug'- qabilalar tashkil qilganlar, so'ng uyur-uyur yilqilari bo'lgan boy toyonlar o'tkazadigan bo'ladilar. Isiax butun jamoani iloxlarga – chorvachilik xomiylariga murojaati-yilni yaxshi kelishi chorvani unumdor bo'lishini so'rab qushiqlar, raqslar ijro etilgan qimiz ichilgan.

Tayga chorvadorlari xo'jaligida muhim yordamchi sohalar baliqchilik va ovchilik bo'lgan. Kambag'allashgan, chorvasidan ajralgan oilalar-baliqsitlarga-baliqchilarga aylangan. Boshqa xo'jaliklarda bu soha bilan oila a'zolaridan biri shug'ullangan. Baliqni odatda to'r yoki novdalardan yasalgan maxsus moslama bilan ovlashgan. Yoqutlar to'ri otni yolidan to'qilgan va yuksak baholangan. Tunguslar uni mo'ynalarga almashlab juda ehtiyot qilingan. Yoqutlar ko'pincha yovvoyi o'rdak va g'ozlar, kakliklar, quyonlar, bug'uga, ayiqqa ov qilganlar.

Yoqutlarda odatda turli xil badiiy hunarmandchilik: yoqoch va suyak o'ymakorligi, kumushdan, oltindan, misdan quyma va o'ymakorlik, mo'yna teri va matoga kashta va applikatsiyalar va yuksak san'at darajasiga etgan. Yoqut temirchilari botqoq va tog' rudasidan eritib temir olishni bilganlar.

Yoqutlar xalq ijodiyotida kaxramonlik dostonlari-olonxo alohida o'rin tutadi. Ularda booturlar qahramonliklari, ularning yovuz maxluqlar bilan kurashi tarannum etiladi. Dostonchi olon-xosutlarni xalq nixoyatda e'zozlagan. Ular ayrim dostonlarni bir necha kunlab ijro

etishgan. Afsonaviy ajdodlar qahramonliklari o'n minglab she'riy satrlarda mujassamlashgan bo'lib, baxshilar ularni yoddan aytganlar. Olonxosut chiroyli ovoz va musiqiy istedodga ega bo'lishi lozim edi.

Ruslar yokutlarni XVIII asrning 60-yillaridan xristian diniga o'tkaza boshlaganlar. Lekin aholi orasida an'anaviy diniy tasavvurlar o'z mavqeyini yo'qotgan. Xususan ular Yuryun Aar Toyon-"oppoq qariya-janob"ni ulug'lashgan. Yoqutlar tassavuricha bu iloh eng baland to'qqizinchi osmonda yashagan. Sakkizinchi osmonda Yuryun Ayi Toyon-"oq yaratuvchi janob insonlarning xayrli xomiysi bo'lgan. Ulu Toyon – "buyuk janob" daxshatli jazolovchi iloh shomonlar xomiysi bo'lgan. Iloha Iyeksit chorvaga baraka bergan. O'rmon oviga iloh Bayanay o'z birodarlari bilan xomiylik qilgan. Unga olovga go'sht bo'laklarini tashlab qurbonliklar keltirganlar hamda ovda omad so'raganlar.

Ayi-ezgulik ilohlarga "oq shamanlar" marosimlar o'tkazsalar, qora shamanlar-yovuz ruhlar va qora niyatli shomonlarning harakatidan turli kasalliklar va omadsizliklar bo'ladi. Ruslar kelguniga qadar yoqutlar jamiyatida ijtimoiy tengsizlik boshlangan. Qabila zodagonlari toyonlar yirik qabilalarni boshqarganlar. Ularni qurollangan guruhlari bo'lgan. Qabilalararo urushlar toyonlarga o'lja, mol-qo'ylarni keltirgan. Qullardan xo'jalik yumushlarini bajarishda foydalanishgan. Toyonlar sero't yaylovlarni kuch bilan egallashga intilganlar, oddiy jamoa a'zolari bunga bardoshlilik bilan qarshi kurashganlar.

Dolganlar. Yoqutistonning shimoliy- g'arbida Taymir bilan chegarada XVIII-XIX asrlarda yangi etnos dolganlar (6,6 ming kishi) shakllangan. Ularning tili yoqut tili, nomlari esa tungus urug'laridan biriniki Dolganlar shimoliy yoqutlar, evenklar va rus kolonistlarining aralash nikohlaridan vujudga kelgan. Ularning madaniyatlarida ham aynan shu xalqlar madaniyatlari belgilari mujassamlangan. Dolganlar-bug'uchilik bilan shug'ullanadilar. Ularning ayrimlarida ko'p sonli podalar bo'lib, bug'ular aksari transport vositasi xisoblangan. Xo'jalikda ov va baliqchilik etakchi o'rin tutgan.

YuKAGIRLAR. Yoqutistonning shimoliy- sharqida Kolima daryosi xavzasida qadimgi xalqlardan biri yukagirlar (1.1ming ki-

shi) avlodlari yashaydilar. Qadimda yukagirlar Eniseydan Chukotgacha erlarda yashaganlar. Yukagirlar ertagida aytilishicha ilgari qarg'alar oq bo'lgan ekan. Ular yukagirlarning ko'plab gulhanlari ustidan uchib o'tganlarida qora rangli bo'lib qolganlar. Shu tariqa xalq xotirasida uzoq o'tmishli voqealari ertak shaklini olgan. Yukagirlar tili paleoosiyo tillariga mansub. Olimlar yukagirlar tilida uning ural tillari bilan qadimiy aloqalarini mavjudligin tasdiqlovchi izlarini topganlar.

Yukagir tillariga mansub aholi piyoda ov qilgani sababli juda siyrak joylashgan. Extimol shu sababdan yukagir qabilalari aholisi soni kamayib tayga va o'rmonli tundrada tungus va chukchalarga o'z o'rnilarini bo'shatib berganlar.

2. Kamchatka va Chukotka aholisi

Kamchatka va Chukotka erlarida Rossiya xukmronligi XVIII asrdan ularga dengiz yo'li ochilganidan so'ng to'liq o'rnatildi. Kamchatka Chukotka va ularga tutash orollarning tub aholisi –chukchalar (15.2 ming), koryaklar(8.9 ming), itelmenlar (2.4 ming), chuvanslar (1.4 ming), eskimos va aleutlar (1.7ming va 0.6ming) dan iborat. Ulardan chukcha, koryak va itelmenlar tilini palleOsiyo tillariga kiritadilar. Esnimos va alsutillari aloxida til oilasini tashkil etadi,lekin ularning asosiy qismi AQShning Alyaska ya.o. da, Aleut orollarida, Grenlandiya (Daniya) va Kanadada yashaydilar. Shimoliy-Sharqiy Sibirda eskimoslar Chukotkaning dengiz sohili poselkalarida aleutlar Komador orollarida yashaydilar.

Osiyoning shimoliy-sharqiy chekkasida yashovchi xalqlarning an'anaviy mashg'ulotlari va xayot tarzlari qisman xaligacha saqlanib kelmoqda. Bu tundra yirik uyurli bug'uchiligi u bilan qisman chukchalar, koryaklar qit'ada mashg'ul bo'lsa, sohilbo'yi chukchalari, koryaklari va eskimoslari dengiz xayvonlarini ovlashdir. Itelmenlarning asosiy mashg'ulotlari qachonlardir Kamchatka va boshqa yaylovdagi daryo voxalarida zich yashab o'troq daryo baliqchiligi bilan shug'ullanganlar.

Kamchatkada XVIII asrdan ruslar paydo bo'lishi bilan itelmenlar ular bilan tez aralasha boshlaydi. Ushbu metis aholi rus tili va madaniyatini qabul qilib, kamchadallar nomini oladi. Hozirda ularning soni 20 ming kishi. O'z tilini saqlab qolgan itelmenlar

ham chukchalar va koryaklarga nisbatan ko'proq ruslar ta'siriga uchraganlar.

Dengiz hayvonlarining ovlash katta xavf ko'p kuch sariflashni chidamlilikni, chaqqonlik , merganlikni, tezkorlikni talab qiladi asosiy ov ob'ektlari kitlar, morjlar, tyulenlar, laxtaklar (dengiz quyonlari) va boshqalar bo'lgan. Ushbu hayvonlar go'shti odamlar, itlar uchun asosiy oziq, yog'i taom va chumlarni isitishda, mo'yna va terisi kiyim poyafzal suyak va tishlari garpun va boshqa zarur narsalar tayyorlashda qo'l kelgan.

Morj va kit ovlash may- oktyabr oylarida jamoaviy tarzda o'tkazilgan. Morj ovlashga chukcha va eskimoslar baydar qayig'ida chiqishadi bu joydagi qayiqlar yog'och asos ustiga morj terilarini qoplab yasaladi. Katta baydar 30 tagacha kishini sig'diradi. Baydarning odatdagi jamoasi 7- 10 kishidan oshmaydi. Qayiqni orqa tomonida uning egasi eshkakchilar 5- 6 kishi, uch tomonida 2 garpunchi bo'ladi. Morjlar ko'rinsa ularni quvib etib garpun bilan urganlar. Yaralangan morj harakatini qiyinlashtirish uchun garpun qayishiga tyulen terisidan qilingan va havo to'ldirilgan narsani ilib qo'yishgan. Bu moslama keyinchalik ovda o'tochar qurollardan foydalanilganda ham yaralangan morj cho'kmasligi uchun qo'llanishida davom etgan.

Kitlarga ov deyarlik shu tarzda o'tgan faqat unda bir nechta baydar ishtirok etgan. Tyulen, nerp, morjlarga yakka ovchilik usuli qo'llanilgan, unda ovchi hayvonlarni poylash, qishda muzda maxsus teshik qilib unga havodan nafas olishga chiqqan yoki bahorda quyoshda toblanayotgan hayvonlarni ovlaganlar.

Dengiz sohillaridan uzoqdagi chukcha va koryaklar uchun asosiy mashg'ulot bugunga qadar bug'uchilik bo'lib kelmoqda. O'tmishda doimiy manzilgohlar bo'lmagan bug'uchilar manzilgohlari mavsumiga qarab bir necha bor ko'chgan. Bug'u hayot uchun barcha zarur narsani: go'sht, teri, transport vositasi va h.klarni bergan. Bug'u go'shtiga sohil aholisidan yog', qayish, tyulen terisi va boshqalarni ayriboshlaganlar. Bug'u asosiy transport vositasi bo'lgan(sohil bo'yi chukcha va koryaklari it qo'shilgan chanalarda harakatlangan).

Chukchalar va koryaklar bug'uchiligi uchun uyurlarning ko'p

sonliligi xususiyatli. Bu xo'jalik XVII-XVIII asrlarda shakllangan. Ilgari tundrada yovvoyi bug'ularga ov keng tarqalgan edi. Uy bug'ulari bilan chukcha va koryaklarni qo'shnilari evenlar tanishtirganlar. Chukcha, koryaklar bug'ularni haydovchi maxsus itlarni ham bilmaganlar. Bug'ular uyurini to'plash, boqish, parvarishlash cho'ponning elkasida bo'lgan. Yaxshi cho'pon chidamli, chopqir bo'lishi lozim edi. Shuning uchun o'g'il bolalarni yoshligidan yugurish, chang'ida yurish mashqlarini bajarishgan (Chukotka va Kamchatkada sirpanadigan chang'ilarni bilishmagan).

Chukchalar, koryaklar va itelmenlar hayotida daryo dengiz sohili baliqchiligi katta o'rin tutgan. Yakka ovchida nerp, tyulen yoki baliqqa kichik kayakda sinchga tortilgan teridan iborat qayiqda chiqishgan. O'tirgan kishi o'rindig'i ham belidan qayish bilan maxkam bog'lanib qayiq ag'darilganda ham ichiga suv kirmagan." Suvdan quruq chiqdi" iborasi ular to'g'risida ilk bor aytilgan bo'lsa ajab emas.

Shimoliy-Sharqiy Osiyo xalqlari turar- joylari –bug'uchilar yarangasi, chumga o'xshash, lekin kattaroq. Uni ham sinchi yog'ochlardan bo'lib, teri bilan qoplangan. Uning asosiy xususiyati- isitilishidir. Yaranga ochiq gulxan emas maxsus yog' quyilgan chiroqda yoritilgan va isitilgan. Ichkaridan 2-3 qavat junli terilardan tikilgan keng yopinchiqsimon moslama tikilib, butun qish oila hayoti shu joyda o'tadi.

Shimoliy-Sharqiy Osiyo xalqlari kiyim va poyafzallari bug'u terisidan, nerp, tyulen terilaridan tikilgan. Kiyimlar oldi yopiq, qishki po'stin ham ichiga ham tashqariga qaratib tikilgan ko'ylak tizzasigacha uzun qilib bichilgan, englari keng qilingan. Mo'ynali, junli teridan ishton va etiklar ham tikishgan. Odatda bolalar kiyimlari mo'ynali kombinezon shaklida bo'lgan.

Shimoliy-Sharqiy paleosiyoliklar ijtimoiy hayotining o'ziga xosligi eskimoslar va itelmenlardan boshqa etnoslarda urug'larning bo'lmasligidir. Ehtimol ularda urug' nomlari Oxota dengizi bo'ylaridan ko'chganlarida va hozirgi hududlarda tarqoq holda yashay boshlaganlarida unutilgandir.

Ushbu xalqlarning dunyo haqidagi tasavvurlarida qadimgi e'tiqod va kultlar talaygina. Ularning barchasida- Qarg'a haqida ri-

voyatlarda uni dunyoni o‘rnatuvchi , ayyor, shum va aldoqchi, ayni paytda odamlarga ko‘plab yaxshiliklar qilgan jonzot sifatida tavsiflashadi. Aynan u daryo, tog‘lar, tundrani, dengiz, itlarni, kitlarni, tyulenlarni, qushlarni , ilk odamlarni yaratgan. Qarg‘a odamlarni so‘zlashishga, hayvon go‘shtini istemol qilishga, kiyim tiqishga , olovni olishga(yog‘ochni yog‘ochga ishqalab) va yana ko‘plab narsalarni o‘rgatgan.

Chukchalar, koryaklar va itelmenlar, eskimoslar diniy tasavvurlarida ko‘plab sehrgarlikka asoslangan udum-marosimlar saqlangan. Afsungarlik va tumorlarga e’tiqod insonlarni yovuz ruhlar xurujidan asrashi kerak edi. Kele - yovuz ruh inson va uy bug‘ularini hamisha ta’qib etadi. Afsungarlik harakati (kasalga qurbonlik qilingan hayvon qonini surtish) shuningdek shomonni o‘tkazgan udumi yovuz kuchlarni haydab kasalni tuzalishiga ko‘mak berishi lozim deb tushinilgan. Dengiz sohili aholisida “boshlar bayrami” bag‘ishlab o‘tkazilgan, kit bayrami “ dengiz xo‘jayiniga bag‘ishlab qilinadigan udumlar qo‘shiqlar va pantomimo ko‘rinishidagi butun bir spektakllar bo‘lgan. Odamlar bu tadbirlar orqali o‘ldirilgan hayvonlarga “ hayot qaytarilishiga” ishonganlar.

Og‘ir mehnatli hayot yorqin bayramlarga ehtiyoj tug‘dirgan. Bu bayram tomoshalari faqat diniy emas balki insonlarni xursand qilishga yo‘naltirilgan. Bayramlar, shuningdek, Kamchatka va Chukotkada o‘tkaziladigan yarmarkalarda o‘yinlar, sport musobaqalari-yugurish, bug‘u qo‘shilgan chanalarda poyga, kamondan o‘q uzish kabi tomoshalar ko‘rsatilgan. G‘oliblarni barcha olqishlagan, ular shuxratga sazovor bo‘lganlar. Chukcha va eskimoslarda qor ustida charm koptokda hozirgi futbolga o‘xshash ikki tomonlama o‘yin ham o‘tkazilgan.

3. Amur daryosi havzasi aholisi.

“Buyuk baliqli daryo” Amur odamlar tomonidan neolit davrida o‘zlashtirilgan. Aynan o‘sha davrda o‘troq baliqchiliar madaniyati shakllanib, uning yaratuvchilari qayiq va to‘rlardan foydalanishgan, baliqni ayniqsa dengizdan daryoga urug‘ tashlagani chiqqan losos baliqlarini zahiraga tayyorlashgan. Amurbo‘yi tub aholisi tilida avgust yoki sentyabr [qayerda yashashiga qarab] “buyuk baliq oyi” deb nomlangan. Aynan ana shu faslda yukola tayyorlanib keyingi

yilga qadar aholini ozuqa bilan ta’minlagan. Chanada qo‘shilgan itlarga ham baliqlar berilgan.

Ussuriya o‘lkasi va Saxalin orolida: nivxlar (47 ming kishi, eski nomi gilyaklar), nanaylar (12 ming), ulchilar (3,2 ming), orochi (900 kishi), oroki(200 kishi), udegeylar(2 ming), negidallar (600 kishi) ko‘p sonli bo‘lmagan ovchilik va baliqchilik aholisi shu hududning tub aholisidir.

Sanab o‘tilgan xalqlar tili (nivxlarnikidan tashqari) oltoy til oilasining tungus-manjur til guruhiga kiradi. Negidallar tili tungus (evenk va even) tillariga yaqin. Qolganlari janubiy tungus tillariga kiradi. Nivxlar tili o‘ziga xos bo‘lib, boshqa tillarga kirmaydi, olimlar uni paleosiyo tillariga mansub deyishadi.

O‘troq baliqchilar hayot tarzining shakllanishi –quruqlikda ov va dengiz hayvonlarini ovlash-ehtimol nivxlar ajdodlaridan boshlangandir. Tungus tilli aholi keyinchalik bu yerda taxminan m. av. II ming yillikda kelgan u davrda Amur bo‘yida boshqa xo‘jalik turlari dehqonchilik va chorvachilik mavjud edi. Tungus qabilalari bu yerda yilqichilik madaniyatini keltiradilar. Milodiy II ming yillikning ikkinchi yarmida bu hududda tungus –manjur etnoslari tomonidan yuksak taraqqiy etgan madaniyat shakllanadi. Aynan shu joyda 636-yilda Boxay davlati vujudga keladi. Uni Xitoy imperiyasi ham tan olgan, Koreya va Yaponiya aloqada bo‘lgan. Kidanlar 926-yilda Boxayni engib o‘zlarining deyarlik ikki asrlik hukmronliklarini o‘rnatadilar. Jurjonlar 1115-yilda kidanlarga, mo‘g‘ullar 1211-1231-yillar Jurjonlar davlatiga barham beradi. Mo‘g‘ullardan faqat o‘rmonlarga qochib yashiringanlar omon qoladi. Ular daydi ovchilik va baliqchilik bilan hayot kechirganlar. Hozirgi Amur Sahalin Primorening tungus tilli aholisi Boxay va Jurjonlar davlatlarining vayronalarida omon qolganlar avlodlari ekanligi extimol.

Xo‘jalik xayotida baliqchilikdan tashqari yovvoyi o‘simliklarni terish, dengiz hayvonlarini ovlash muhimdir. Mehnat taqvimi ushbu xo‘jalik mashg‘ulotlariga qarab: maydan- oktabrgacha ochiq xavzalarda baliq ovlash , aprel-may oylarida qayiqlarda dengizga chiqib nerpa va sivuchlar ovlangan. Bu mashg‘ulotlar bilan sohildan ancha uzoqda joylashgan posyolkalar aholisi ham artel bo‘lib

shug'ullanganlar. Qishda taygadagi qushlarni ovlash, muz ostidan baliq ovlash asosiy faoliyat turiga aylanadi.

Baliq ovlashda eng unumli ayni paytda ko'p mehnat sarflanadigan usuli daryoda uzunligi 100 metr hatto 300 metrgacha yog'och shoxlaridan to'siq qurib daryoni oqimiga qarshi o'rnatilgan sohildan daryoning o'rtasiga qaratib o'rnatilgan to'siqda maxsus to'r qo'yilgan. Ochiq joyga intilgan baliqlar aynan shu to'rga tushganlar. Taygani ichki hududlarida yashagan nanaylar, ugedeylar, orochilar va orokilar hayotida muhim o'rinni ov (yozda piyoda, qishda chang'ida) egallagan. It chanalari transport vositasi sifatida faqat daryo bo'yi dengiz bo'yi aholisida, orokilarda bug'ular transport vositasi bo'lgan.

Tayga aholisini son-sanoqsiz cho'qqi, daryo, botqoq, butazorlar, xayvonlarni bilishlari bu narsalardan foydalana olishlari xotirasi kuzatuvchanlik va uddaburonlik evropaliklarni hayratga qoldirgan. Rus yozuvchisi V.Arsenevning "Dersu Uzala" asari bosh qahramoni oddiy nanay ovchisi siymosi yapon kinorejissyori Akiro Kurosava filmi orqali dunyoga tarqaldi. Asarda ham, filmda ham qahramon va uning qabiladoshlarini faqat insonlarga emas balki jonli tabiatning barcha- barchasiga g'amxo'rlik va mehr –shavqatni namoyish etgan.

Daryobo'yi baliqchilari posyolkalari odatda ko'p xovlili etib qurilgan. Har bir baliqchi uy va xo'jalik binolarini sohilga suvga yaqinroq qurishga intilgan. Ular hatto mehmonga ham qayiqlarda borishgan. Sohilda suvdan 5-10 metr yuqorida qayiqlar turgan. Ulardan so'ng to'rlarni quritish uchun yog'ochdan ustunlar, undan keyin yozgi yog'och po'stloqlaridan uylar, undan narida omborlar, chang'ilar uchun ayvonlar qurilgan. Eng oxirida qishki yog'ochlardan qurilgan uy (fanza)ning orqasida itlar uchun bostirma bo'lgan

Qishki uyni isitish tizimi uziga xos bo'lgan. Devor tagidagi o'choq uy ichidagi supa ostidan o'tgan. Tutun tuynugi orqali isitilgan. Isitish pechlari arxeologlar ma'lumotlariga qaraganda Uzoq Sharqda temir asrida paydo bo'lib Boxay davlati hukmronligi davrida keng tarqaladi. Bu xildagi isitish moslamalari Xitoy va Koreyada ham qo'llaniladi. Kiyim va buyumlarni tayyorlashda o'tmishda mahalliy ashyolar, qichitqi o'ti tolasi yoki yovvoyi kamon to'r to'qish

uchun, baliq terisi, mo'ynalar yovvoyi hayvonlar terilaridan kiyim bosh tayyorlangan. Yog'och tanasidan o'yib qayiq yasashgan. Turli buyumlar Xitoy bilan savdo orqali kirgan. Qo'shni xalqlarni mahalliy aholiga ta'sirini etagi o'ng tomonga yopiladigan xalatlar, ayrim kashta naqshlari orqali ko'rish mumkin.

Ijtimoiy hayotda qarindoshlik munosabatlari muhim o'rin tutgan. Urug' ichida nikoh (endogamiya) ta'qiqlangan. Qarindoshlar bir-birlariga so'zsiz yordam ko'rsatganlar. Qo'shnichilik ko'magi ham eng yaxshi an'analardan bo'lgan.

Uzoq Sharq xalqlari ma'naviy hayotida ko'plab arxaik xususiyatlar saqlangan. Tabiat bilan yaqin bog'liqlikda yashagan aholi uni barcha narsalari jonli ekanligiga ishonganlar, ular insonning ruhi hayvon va o'simliklar ruhi bilan aloqada ekanligiga ishonganlar. Uzoq davom etgan bayramlardan biri ayiqqa bag'ishlangan. Unda kichkinaligida ushlanib bir necha yil xonadon sharoitida boqilgan ayiqni oxir-oqibatda bayramda qurbonlik qilib, go'shtini mehmonlarga ulashganlar.

Bu xildagi udum-bayramlar kamayib, XX asrda aholining turmushiga zamonaviy madaniyat va maorif muntazam joriy etildi.

4. Janubiy Sibir, Tog'li Oltoy-Sayan va Baykalbo'yi xalqlari

Janubiy Sibir tabiati Shimoliy Osiyoning boshqa hududlarinikiga nisbatan ancha farq qiladi. Lekin unda ham iqlim kontinental, ayni paytda nisbatan yumshoq. Jumladan, yanvar oyidagi harorat -16S, iyulda +23C. Tekisliklarda o'rmon-dasht hududlar: o'simlikka boy dasht, yaproqli ignabargli aralash o'rmonlar boshlanadi. Bu hududlar iqlimiga mos daraxtlar bilan qoplangan, ularga Alp o'tloqlariga boy ko'psonli vohalarga ega tog'lar ham ta'sir ko'rsatgan. Sibirning janubida dunyodagi eng chuqur chuchuk suvli ko'l-Boyko'l joylashgan. Bu hududdan okeanga buyuk Sibir daryolari: Ob , Enisey, Lena, Amurlar yo'li boshlanadi.

Janubiy Sibirda Rossiya tarkibiga kiruvchi qator ma'muriy-hududiy birliklar joylashgan. Tog'li Oltoy (oltoyliklar 69 ming kishi), Xakasiya (xakaslar 78 ming kishi), Tuva (tuvaliklar 206 ming), Buryatiya (buryatlar 417 ming). Buryatlar bundan tashqari ikki: Ust-Orda (Irkutsk oblasti), Chita oblastining Agin (avtonom okrug) larida yashaydiganlar. Kemerovo oblastining janubiy rayonlarida

shorlar (15,7 ming), Irkutsk oblastining Tuva bilan chegarasida tofalarlar (700 kishi) istiqomat qiladilar.

Sanab o'tilgan barcha xalqlar tili oltoy til oilasi, aksari qismi turkiy tillar guruhiga mansub. Mo'g'ul til guruhiga faqat buryatlar kiradi.

Janubiy Sibirning qadimiyati unda keyinchalik butun Sibir o'lkasiga tarqalgan ko'plab madaniy kashfiyotlari bilan ahamiyatlidir. Ulardan biri bug'uni xonakilashtirib yangi chorvachilik sohasi uy bug'uchiligini boshlanishidir. Uni samodiy va tungus qabilalarining qadimgi ajdodlari nomi bilan boshlashadi. Uy bug'uchiligi haqidagi ilk ma'lumotlar milodiy asr boshlariga oid bo'lib, O'rta Eniseydan topilgan ashyolar bilan tasdiqlangan.

Protooltoyliklar shakllangan va rivojlana boshlagan hudud Markaziy Osiyo va Janubiy Sibir dashtlari bo'lgan. Jez davridan ushbu hududdagi aholi (III-I ming yilliklar) ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligini shakllantirgan. Ayni paytda aholi etnik tarkibi ham bir necha bor o'zgargan. Janubiy Sibir, Orolbo'yi, Kaspiybo'yi, Qora dengiz sohillaridagi dashtlarda evropeoidlarning eroniy tilli qabilalari yashab ko'chmanchilikka asoslangan madaniyatni tarqalishiga xizmat qiladi. U davrlardan bizga qadar marhumlar qo'yilgan qo'rg'onlar etib kelgan. Oltoy, Xakasiya va Tuvaning qo'rg'onlaridan topilgan metal, yog'och, teridan yasalgan san'at buyumlari ko'plab muzeylar zallarini bezab turibdi.

Ko'plab madaniy yutuqlar: madanlarni eritish, ulardan mehnat qurollari yasash, hayvonlarni qo'lga o'rgatish, ularni xonakilashtirish, dehqonchilik xo'jaligini yuritish Oltoy, Sayan va Boyko'lbo'yidan butun Sibirga tarqalgan. Ushbu jarayonlarda mahalliy Sibir aholisi ijodiy qatnashgan.

Xo'jalikning yangi turlarini tiklanishi aholi sonini oshishiga migratsiya jarayonlarini o'sishiga olib keladi. Ilk temir davridan ko'chmanchi chorvadorlar harakatchanligi yanada yuksaladi. Ushbu davrdan Janubiy Sibir va Markaziy Osiyoga turkiy guruhlar kela boshlaganlar. Hududda chorvador guruhlarning: hindevropa, poleosiyo, ural, tungus tilli aholining turkiylar bilan aralashuvi (toshtik davri m.av. I-m. V asrlar) jarayoni kuchayadi. Ayni paytda evropeoid va mongoloid rasalarining aralashuvi ham ro'y berdi.

Janubiy Sibir etnik xaritasiga Chingizxon tuzgan mo'g'ullar davlatining ta'siri ham kuchli bo'lgan. Ayrim turkiy tilli etnoslar shimolga (xususan yoqutlar avlodlari) surilgan, boshqalari g'arbga qozoq va uralbo'yi dashtlariga ko'chganlar. Ayrim mo'g'ul guruhlari Sibirning janubi Boyko'l atroflarida o'rnashib oldindan yashab kelayotgan turklar va tunguslar bilan aralashganlar. Aynan shu taxlit buryat xalqi shakllangan tili bo'yicha mo'g'ul, etnonimi turkiy qabila urug'i nomidan.

Mo'g'ullar imperiyasi parchalangach Janubiy Sibir xalqlari o'zlarining nisbatan kuchli qo'shnilari: mo'g'ul, manchjur va jung'orlarning bosqinlari maydoniga aylanadi. Rossiyaning hududni egallashi XVI asrdan boshlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, Janubiy Sibirning ko'plab xalqlari konsolidatsiyasi faqat XX asrda ro'y berdi. Ilgari buryatlardan tashqari ulardan birortasi ham umumiy nomga ega bo'lmagan. Xakaslar beshta hududiy-qabilaviy guruhga, oltoyliklar ettita, tuvaliklar bir necha xil nom bilan atalganlar. Hatto buryatlar: sharqiy (boyko'lorti) va g'arbiy (boyko'lbo'yi) guruhlariga ularni har biri o'z navbatida 5 ta qabilalarga bo'linib, sheva, xo'jalik va turmushda o'ziga xosliklarga ega bo'lganlar.

Sharqiy buryatlarda ko'chmanchi chorvachilik turmush tarzi, xo'jaligi vujudga kelgan. Ular yilqichilik, qo'ychilik va tuyachilik bilan shug'ullanganlar. G'arbiy guruhlarda yirik shohli mol boqish keng tarqalgan. Ayni paytda molning bir qismi qishda og'ilxonalarda saqlangan, yozda ularga xashak tayyorlangan. O'ziga xos tomonlaridan biri g'arbiy buryatlarni xashak o'radigan maydonlarni mol go'ngi bilan o'g'itlantirishlari bo'lgan. Ular ruslar kelmasdan oldin dehqonchilik bilan ham shug'ullanganlar.

Boyko'lorti dashtlari aksari ko'chmanchi chorvachilik rayoni bo'lib, unda mo'g'ul tipidagi xo'jalik (yil davomida yaylovlarni almashlab molni boqilishi) yuritilgan. Chorvadorlar uchun kigizli uchi uchli o'tov uy vazifasini o'tab, uning asosi yog'och panjara va o'qlardan iborat bo'lgan. Oilaning barcha yuklari ko'chishlar paytida tuya va otlarda olib yurilgan. Taomlari barcha ko'chmanchilarda bo'lgani kabi sut va undan tayyorlangan mahsulotlar edi. Go'sht kundalik taom bo'lmagan. Ulardan farqliroq g'arbiy buryatlar avvaldan o'troq yashab, yog'ochdan uylar qurganlar, faqat bu uylar

ko‘pburchakli shaklda bo‘lgan. Bu hududda chorvachilik va dehqonchilik etakchi o‘rinda, ov va Boyko‘ldan baliq ovlash yordamchi xo‘jalik vazifasini o‘tagan.

Oltoyliklar, tuvaliklar, xakaslar hayot tarziva xo‘jaligida ham deyarli shu xildagi tafovutlar bo‘lgan. Janubiy oltoyliklar, ko‘pchilik tuvaliklar va xakaslarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvachilik asosiy xo‘jalik hisoblangan. Ular yilqichilik,qoramol, qo‘y boqishgan. Xashak deyarli tayyorlanmagan molni yil davomida yaylovlarda ushlashgan. Sayan va Oltoy tog‘oldi hududlari aholisi chorvani yozda baland tog‘lardagi alp o‘tloqlarida boqqanlar.

Shimoliy-sharqiy tuvaliklar va qo‘shnilari tofalarlarda o‘ziga xos xo‘jalik (ularni tojinliklar ham deyishadi) bug‘uchilik bo‘lsada asosiy mashg‘ulotlari ov, bug‘ulardan esa yuk tashish uchun transport sifatida foydalanganlar. Kelib chiqishi bo‘yicha ular sayan bug‘uchilari samodiylar avlodlari bo‘lib turkiy tilni nisbatan kech qabul qilganlar.

Ayni paytda xakaslar, shimoliy oltoyliklar va shorlar orasida ayrim guruhlar hayotida ovchilik asosiy o‘rin tutgan. Ular yovvoyi bug‘u, maral, kiyiklarni, mo‘ynali hayvonlar (olmaxon, qunduz va boshqalarni) ovlashgan.

Janubiy Sibirning barcha xalqlari ruslar kelmasdanoq temirchilikni bilganlar. O‘z temirchilari bilan Oltoyda yashovchi shorlar shuhrat qozonganlar. Mo‘g‘ul feodallari ulardan asrga XVII qadar mo‘yna bilan emas temir bilan soliq olganlar.

Xo‘jalikdagi o‘ziga xoslikka bog‘liq holda turmush va madaniyatning boshqa jihatlari ham shakllangan. Chorvadorlarda (Tuva, Boyko‘lorti buryatlarida, Janubiy Oltoy, xakaslarni bir qismida) kigiz bilan yopiladigan o‘tov keng tarqalgan. Ovchilar uchi uchqir usti daraxt po‘stloqlari, yoki yog‘ochdan yasalgan ko‘pburchakli o‘tovlarda yashaganlar. XX asrning boshlaridan mahalliy xalqlar ruslar ta’sirida yog‘och uylar qura boshlaydilar.

Kiyimlarda ham turli an’analar ko‘zga tashlangan. Chorvadorlar aksari uzun etagi o‘ngga tomon yopiladigan uzun chopon (xalat) kiyganlar. Mahalliy zodagonlar xitoy yoki rossiya fabrikalarining qimmatbaho chiroyli matolari (movut, shoyi, atlas, barqut)dan tikilgan kiyimlarni afzal ko‘rishgan. Qo‘y terisidan uzun etakli qilib

tikilgan po‘stinlar, yumshoq qo‘y terilaridan (yozda terini o‘zidan) etiklar, kigiz poshnali xitoychasiga tumshug‘i uzun qayrilgan holatdagi etiklarni ham boylar ko‘proq kiyganlar. Zodagonlar po‘stinlari ustidan xitoy shoyisi va qimmatbaho mo‘yna yoqali engil xalat kiyishgan. Boylarning bosh kiyimlari rangi unga tikilgan taqinchoqlariga qarab xo‘jayinining amali, jamiyatdagi mavqeyini aniqlash mumkin bo‘lgan. Janubiy Oltoyning turmushdagi ayollari kiyimida o‘ziga xos element tanasiga yopishib turadigan engsiz – chegedek bo‘lgan. Qishda uni qo‘y terisidan po‘stin ustidan kiyishgan yozda – xalatni ustidan kiyib yurilgan.

Janubiy Sibir aholisi tabiiy ijtimoiy jihatdan bir toifali bo‘lmagan. Har bir kishi o‘z urug‘ini – turkcha syook (suyak), buryatcha yasu (suyak) bilgan va etti otasi ismini yoddan ayta olgan. Har qanday notanish kishi kishidan uning urug‘ini so‘rab, qarindoshlik darajasini osongina aniqlashgan.

Urug‘ ichida nikoh ta’vqiqlangan. Bir urug‘ a’zolari o‘zaro yordam ko‘rsatishlari odatiy hol edi. Lekin ovchilardan tashqari barcha xalqlarda urug‘larda ichki tenglik bo‘lmagan. Hayotda ko‘p narsa boy xonadon egalariga bog‘liq bo‘lib, urug‘doshlik “yordami” ko‘pincha yashirin qaramlik tusida edi. Xususan boy chorvadorlar o‘z mollarini kambag‘allarga boqishga bo‘lib berish odati keng qo‘llanilgan. Shartlar turlicha bo‘lgan kimdir tug‘ilajak hayvonlar hisobiga boqsa, yana kimdir faqat sut va sut mahsulotlari, juni hisobiga chorvani olgan shu tariqa yirik poda egalari o‘z chorvasini deyarli tekin boqtirishga erishgan. Urug‘lardagi ierarxiya ichki ayniqsa butyatlarda kuchli tus olgan. Ularda hatto xitoy- mo‘g‘ulcha feodal lavozim va mavqelari tizimi (tayshi, no‘yonlar, zaysanlar, shulenlar va x.k) shakllanib ularga qaram butun bir urug‘lar yoki guruxlar bo‘lgan. Bunday tengsizlik boshqa xalqlarda ham kuzatilgan O‘rta asrlarda o‘z davlatlariga xakaslar, Enisey qirg‘izlari ega bo‘lishgan Ba’zida ularning atrofida yashagan qabila va elatlar ushbu davlat ma’murlariga bojyasoq to‘laganlar. Hududda ilk o‘rta asrlardan o‘rxon –enisey runn yozuvi bo‘lib turkiy tilda toshlarda bitilgan. Bilga xoqon va boshqalarning o‘gitlari bizga qadar saqlangan Chingizxonning yurishlaridan so‘ng bu yozuv unutilgan

Qadimgi madaniy an'analardan darak beradigan yana bir soha hunarmandchilikdir. Uy hunarmandchiligida ip yigirish, kigiz bosish, teri oshlash, yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanganlar. Ularning ayrimlari bilan kasb shaklida ham mashg'ul bo'lishgan. Xususan buyurtmalarda kumush, oltin, mis, qimmatboxo toshlardan zargarlik buyumlari tayyorlash qadimgi an'analarga ega bo'lib u bilan hozirga qadar shug'ullanib kelishadi. Tuva zargarlari ishlarini noziq did bilan yasalishi ajralib turadi. Mis va quyma buyumlar, toshtarashlik, yog'och o'ymakorligi xakas kandakorligi namunalari va boshqa xalq sa'nati turlari yuksak rivojlangan .

Aholining konfessional holati. Janubiy Sibirga dunyo dinlari va boshqa diniy ta'limotlar va diniy tasavvurlar faol tarqatilgan. Buryatlarning Boyko'l ortida yashaydigan qismi XVII-XVIII asrlarda lamaizmni (XV-asrda paydo bo'lgan) tibetliklardan qabul qilganlar. Xakaslar, oltoyliklar, shorlar, tofalar va g'arbiy buryatlar XVIII-XIX asrlarda xristianlikga o'tqaziladilar. XX- asrning boshida Tog'li Oltoyda yaniy din burxonlik tarqalib unda buddizm, xristianlik va maxalliy etiqodlar chirmashib ketgan .

Buddizimni tarqalishi adabiyotga murojaat qilishga ushbu din bilan bog'liq bo'lish maorifni o'zlashtirishga yo'l ochadi Buryatlar eski mo'g'ul yozuvidan foydalanishgan. Ayrim lamalar tibet tilini bilishganlar. Buryatlar yurtida XX asrning boshlarida 30 dan ortiq (budda monastirlari) faoliyati ko'rsatgan. Tuvada 20 ga yaqin monastirda lamalar soni minglab kishidan iborat bo'lgan. Xristianlikni qabul qilishgan aholiga cherkov maktablari qurib berganlar. Natijada maxalliy xalqlarga diniy bo'lsada ta'limga, fan bilan shug'ullanishga yo'l ochiladi. Olimlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida buryatlardan G.Banzarov, T. Sibikov, M. Xangalov, xakaslardan N . Katanov va h.k.lar yetishib chiqadilar. Ayni paytda maxalliy aholi ongida an'anaviy dinlar ham uzoq davrlar saqlanib qoladi. Xususan shomonlik va boshqa maxalliy dinlarni na xristianlik, na lamaizm surib chiqara olmadi. Nari borsa har ikki din (dunyo dini va mahalliy e'tiqod) odamlar ongida o'z o'rniga ega bo'lib zarur paytda ulardan biridan najot so'rashgan. Og'ir vaziyatlarda kasallik, omadsizlik, shomon - qamga murojat qilishgan. Buryatlar va tuvaliklar arvohlar ruhiga (animizm) ko'proq sig'inishgan. Buning

uchun ular ruhlar ramzi ongonlarga (yog'ochdan, teri, mo'ynadan yoki jundan) ma'lum ko'rinishda yasalgan but va sanamlarga e'tiqod qilganlar. Buyuk shomonlar ongonlari ayniqsa qadrlangan. Ongonlar muqaddas joylarda o'rmonlar, g'orlar, tog'larda saqlanib u joylarga begonalar qo'yilmagan. Oilaviy ongonlar ham bo'lgan. Janubiy Sibir xalqlari diniy e'tiqotlarida (yoqutlardagi singari) qadimgi tassavvur va kultlar unsurlari uchraydi. Oliy osmon ilohlari bunday kultlar xizmatchilari buryatlar va yoqutlarda oq ezgulik shomonlari bo'lganlar. Janubiy Sibir xalqlari xayotida faol yuksak o'rin tutgan. Eng sevimli va ommalashgan soha qahramonlik dostonlari edi. Ular turlicha variantlarda barcha xalqlarda mavjud edi. Buryatlarda uligerlarni maxsus qo'shiqchi uligershinlar ijro etgan. "Alamji mergen", "Geser", xakaslar dostoni "Albinji", oltoy dostonlari "Kogutey", "Malchi-mergen", "Maaday-Kara" va h.k.lar.

Taniqli qo'shiqchilar-doston ijrochilari xalq tomonidan e'zozlangan. Dostonchi-qo'shiqchilik sa'nati ko'pincha otadan - o'g'ilga meros bo'lib o'tgan. Jamoada qo'shiqchi-uligershin (xakaslarda – xayji, oltoyliklarda-qaychi)ning mavqei o'ziga xos, faxrli - shomonnikidan past bo'lmagan.

Bu xildagi qo'shiq seanslari qishning uzun tunlarida bo'lib, odatda bir necha kun davom etgan. Dostonni odatda do'mbira musiqasi akkom-ponementida ijro etilgan.Do'mbirani torlarini otning yolidan qilishgan.

Xalq dostonlari afsonaviy qaxramonlari xalq baxti uchun sonsanoqsiz dushmanlarga qarshi kurashi ko'ylangan. Doston mualliflari va ijrochilari aynan oddiy xalqni tarafida bo'lib uni xushlab tasiflanganlar

Albatta XX asr Sibir xalqlari hayotiga katta o'zgarishlar kiritdi. Insonlar ma'lumotli, turli sohalarda mutaxassis bo'lib, turli millat vakillari sanoatda, ilmiy laboratoriyalarda qo'lni-qo'lga berib ishlamoqdalar. Ularda xalq teatrlari, muzeylar, gazetalar, televidenie va radio, o'zlarining zamonaviy adabiyotlari mavjud.

5. Sibirdagi zamonaviy etnik jarayonlar.

Ural tog'laridan sharqdagi Rossiya xalqlarning zamonaviy taraqqiyoti yangi va murakkab davrga kirdi. Ilgari ko'pchilikka Sibir xalqlarini evropa madaniyatiga jalb etilsa, tozalik, zamonaviy

ta'lim tizimiga tortilsa, barcha muammolar o'z-o'zidan hal bo'ladi deb o'ylansa, bugun bu narsalar etarli emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Bolalarni maktab-internatlarda o'qitilishi ularni o'tmishdagi an'anaviy ish bug'uchilik, baliqchilik, ovchilik va hokazolardan, mehnat ko'nikmalaridan ajratdi. Ularning yangi bilimlari va kasblari mahalliy sharoitlarda yashash hamda xo'jalik yuritishga zarur emasligi ma'lum bo'ldi.

Bu engish zarur bo'lgan yagona qiyinchilik emas. Shimol va Sibirning kam sonli xalqlar yashash muhitlari tundra va tayga kengliklari zamonaviy xo'jalik faoliyatlari (sanoat, mineral resurslarni qazib olish va hokazolarga) juda ta'sirchan va yildan-yilga yaylovlarni kamayishiga, ov qilinadigan o'rmonlar) hayvonlarni qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Shimoliy Osiyoni mislsiz tabiatiga neft, gaz va boshqa foydali qazilmalarni vahshiyona, ekologiyaga katta zarar bilan ishlatayotgan davlat va xususiy kompaniyalarning qazib olishi keltirmoqda. Xantilar, mansilar, nenetslar, nganasanlar va boshqa etnoslarning yashash sharoitiga etkazilgan zararni kompaniyalar to'layotgan moddiy to'lovlar qoplay olmayapti. Bu unga o'xshash muammolar milliy e'tiroz hamda talablarni kuchayishiga olib keladi. Ulardan bir etnik tillarni himoya qilish talabi bo'lib, unda mahalliy tillarga davlat maqomi berishi haqida qonun qabul qilish orqali ularni saqlab qolish masalasi bo'lmoqda. Sibir xalqlari tillaridan mahalliy qonunchilik hokimiyati tomonidan tan olinganlari (rus tili qatorida) oltoy, buryat, tuva, xakas va yoqut tillaridir. Kam sonli xalqlar dunyoga talantli yozuvchilarni: Yu.Rытхеu(chukcha), Yu. Shestalov(mansi), S.Kurilov (yukagir), folklor to'plovchi A.Platonov (evenk) va hakozolarni berdi. Rossiya parlamenti 1999 yili "Rossiya Federatsiyasining tub kam sonli xalqlari huquqlarini muhofaza qilishi" haqida qonun qabul qildi. Shuningdek, "bug'uchilik haqida qonun" qabul qilindi. "An'anaviy tabiatdan foydalanadigan hududlar haqida" qonunlar Sibir xalqlarining qonuniy huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan.

Savol va topshiriqlar.

1. Sibirning tub aholisi: selkuplar, ketlar, nenetslar, evenklar madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Yoqutlar, dolganlar, yukagirlar xo'jaligi haqida so'zlab bering.
3. Ushbu aholi guruhlari, xo'jaligi va moddiy madaniyati bo'yicha ma'umot to'plab hikoya qiling.
4. Chukchalar, koryaklar, itelmenlar haqida nimalarni bilasiz?
5. Oltoyliklar, xakaslar, tuvaliklar, buryatklar tili, xo'jaligi va madaniyati haqida gapirib bering.
6. Moddiy madaniyatdagi transformatsion jarayonlarning borishi.
7. Sibirning chorvador aholisi haqida internet ma'lumotlar to'plang.
8. Shimoliy Osiyoliklar ma'naviy madaniyatlaridan nimalarni eslab qoldingiz?
9. Oltoyning turkiy tilli aholisini O'rta Osiyoga qanday aloqasi bor, qiyoslab so'zlab bering!
10. Shimoliy Osiyoliklarning an'anaviy va hozirgi dinlarini taqqoslab izohlab bering.

13-BOB. SHIMOLIY AMERIKA XALQLARI.

G'arbiy yarim sharda tor Panama bo'yni qit'ani ikki qismi Shimoliy va Janubiy Amerikani ajratib turadi.

Qutb kengliklaridan deyarli ekvatorgacha, tundradan tropik o'rmonlargacha Shimoliy Amerika- Yevroosiyo va Afrikadan keyingi yirikligi bo'yicha uchinchi qit'a 24,2 mln. km². Ushbu qit'aning shimoliy sohilini Shimoliy muz okeani, g'arbini Tinch okeani suvlari yuvib turadi. Qit'a nomidan tashqari Shimoliy Amerikaning nisbatan tor ma'nosi ham unda Meksika bo'g'ozi va Rio- Grande daryosidan qit'aning shimoliy chegaralariga qadar tushuniladi.

Shimoliy Amerikaning tabiati geografik o'ziga xosligi bilan betakrordir. Unda "ichki dengiz"- Buyuk shimoliy amerika ko'llari guruhi, ajoyib g'orlari, ulkan kanonlari, vulqonli geyzerli massivlari eng baland (20 metrgacha). Yangi Shotlandiya oroli sohilidagi to'lqinlari bilan mashhurdir.

Shimoliy Amerikaning g'arbiy qismida ulkan tog' tizimi Kordilera joylashgan. Qolgan hududlarni baland bo'lmagan Apalachi tog'lari, Buyuk va Markaziy pasttekisliklarini birlashtiradi. Asosiy daryolar tizimi ayniqsa Missisipi (Missuri bilan) odamlarni butun qit'a bo'ylab joylashuvini engillashtirgan.

Shimoliy Amerikada qit'aning eng yirik davlatlari- Amerika Qo'shma Shtatlari(270 mln. kishi) va Kanada (30 mln. kishi), unga Daniya qirollining o'z- o'zini boshqaradigan hududi Kalaallit- Nunnaat (Grenlandiya) va fransuz koloniyasi Sen Per va Mikelon ham kiradi.

1. Shimoliy Amerikaning tub aholisi. Tub aholining kelib chiqishi.

G'arbiy yarim sharda hozirga qadar gominidlar kalla suyaklari topilmagan topilganlari esa zamonaviy qiyofadagi kishilarga yaqin. Ko'pchilik olimlarning fikricha Amerikaga mongoloid tipida Shimoliy- Sharqiy Osiyoliklarni o'tishi bundan 30 ming yillar avval hozirgi Bering bo'g'ozi orqali boshlangan. Buyuk muzlik davrida bu joy Osiyoni Amerika bilan quruqlik ko'rinishida bog'lab turgan. Bizon va karibularni ovlovchi kichik guruhlar, hayvonlar ortidan

yurib o'zlari bilmagan holda Yangi Dunyoni birinchi kashfiyotchilari bo'lganlar.

Shimoliy Amerika preriyalari va tog'oldi hududlarining ilk aholisi yirik hayvonlar (mamont, bug'u, ayiklarga) ovni termachilik(qush tuxumlari, ari uyalari) bilan qo'shib olib borganlar. Biz ularning xo'jaligi xaqida aniq ma'lumotlarni Shimoliy Amerikadagi paleolit manzilgohi Luisvildan topilgan ashyolariga tayangan holda keltiramiz.

Yangi Dunyo paleolit ovchilari hayot tarzi doimiy harakatni talab qilgan iqlimning o'zgarishi va ov hayvonlarini janubga siljishi ularni hozirgi AQSh ning janubiy- g'arbiy hududlariga siljishlariga, yangi erlarni o'zlashtirishga majbur etadi.

Antropologik tasnif. O'zlarining antropologik tiplariga ko'ra amerika hindulari, eskimoslar yana ham ko'proq Shimoliy va Sharqiy Osiyo xalqlariga yaqin, hamda katta mongoloid rasasiga kiradi. Bu Amerika tub aholisini Osiyodan chiqqanligini isbotlovchi guvohliklardan biridir. Shimoliy Amerika hindulari mongoloid rasasiga mansub bo'lishi barobarida, bir necha rasa tiplariga eskimos, atlantika, tinch okeani xillariga bo'linadilar. Ayrim tafovutlarga qaramasdan amerika hindularini mongoloidlar ekanligi bahs talab qilmaydigan masaladir.

Hindu odatda o'rta bo'yli, elkador lekin harakatchan, uzun qo'lli bilaklari ingichka, peshanasi keng, burgut burunli, nisbatan katta og'izli, qo'y ko'zli(epikantusli), yapaloq yuzida iyagi biroz oldinga chiqqanligi, och yoki to'q sariq badan rangi, to'g'ri qora sochlari bilan xususiyatlanadi. "Qizil tanlilar" laqabini hindular tantali holatlarda badanlarini, yuzlarini qizil ohra bilan bo'yashlari sababli olganlar. Hindularni aynan shu shaklda ilk evropalik dengizchilar va kolonistlar ko'rganlar va eslab qolganlar.

Shimoliy Amerika hindularining tillari. Hindularda bir afsona bo'lib unda yaratuvchi dunyoni o'rnatish borasida sharqdan g'arbga tomon harakat qilgan. U o'zi bilan ko'plab tillarni olib ko'ringan odamlar guruhiga alohida tilni in'om qilgan. Qit'aning ichki rayonlariga kelganida unga bu joy yoqib qolib, ketmaslikka qaror qiladi. Unda tillar ham ko'p bo'lgan iloh ularni o'z atrofiga sochib yuborgan. Bu tillarni olgan xindular ana shu sababli ko'p tilli bo'lishgan.

Haqiqatdan ham shimoliy amerika hindulari tillari ko'p sonli va xilma- xildir. Ularni o'zaro yaqinligini aniqlash murakkab, tadqiqotchilar yuzga yaqin til oilalari mavjudligini ta'kidlashadi. Shuning uchun Shimoliy Amerika hindularining bir necha to'liq til klassifikatsiyalari mavjud. Shimoliy Amerika til guruhlarini qisqacha quyidagicha tavsiflash mumkin.

I Eskimos – aleut til oilasi, eskimos va aleut aholisini birlashtiradi. Bu xalqlar Shimoliy Amerikaning shimoliy sohillarida – Kadyak orolidan(Tinch okeani) Labradorgacha(Atlantika okeani). Grenlandiya sohillari va Arktika arxipelagi orollarida yashaydilar.

II Na- dene til oilasiga kiruvchi qabilalar shimoliy- g'arbda asosan Kanadada yashaydilar. Atapasklar, Shimoliy muz okeanidan Meksikagacha, Tinch okeanidan Gudzon qo'ltig'igacha hududlarda uchrasa. Tlinkitlar va xaydalar(shimoliy- g'arbiy hududlarda joylashgan) ham ushbu guruhga mansublar.

III Shimoliy amerikand oilasi. Uning ko'p sonli guruhini algonkinlar tashkil qiladi. Ular Atlantika okeanidan Qoyali tog'larga, Kanadaning sharqi va markazini, Buyuk ko'llar atroflarini, Missisipi va Ogayo daryolarini o'rta oqimida yashaganlar.

Bugungi kunda ham Kanadada algonkinlar(kri, delaver, odjibvelar) ning ancha qismi yashaydi. Shimoliy amerikand til oilasiga shuningdek dakota, irokezlar, siular qabilalari ham kiradi. Ular Missuri, Missisipidan Qoyali tog'largacha hududlarda yashaganlar.

IV. Markaziy amerikand til oilasi. Unga Kaliforniya qabilalari penuti, chinuk, yakona va boshqalar, Kolumbiya daryosi havzasida yashovchilar tillari kiradi.

Hozirgi AQSh hududida yashovchi qabilalar turli tillarda so'zlashganlar. Ba'zida qo'shni qabilalar vakillari bir- birini tillarini tushunmaganlar natijada hindular imo-ishora "tilini" yaratganlar. Bu usuldan hindular ingliz tilini o'zlashtirgancha evropaliklar bilan muloqotda ham foydalanganlar.

Etnoslararo muloqotga ehtiyoj qabilalararo jargonlarni vujudga keltirib undan savdo aloqalarida foydalanganlar. Ulardan eng mashxuri Shimoliy Amerikaning Alyaska ya.o. dan Kaliforniyagacha tarqalib, XIX asrda evropaliklar unga chinuk deb nom berganlar, hindular kabi ular ham bu tildan savdo- sotiqda foydalanishgan.

Asta- sekin unga ingliz, fransuz tillaridan yangi so'zlar kiritiladi. AQSh ning janubiy- sharqida muskoglar, algonkinlar, irokezlar, siular muolaqasida shakllangan mobile Floridadan Missisipiga qadar hududlarda savdo tili vazifasini bajargan. Buyuk ko'llar vohasida mo'yna savdosida fransuz savdogarlari va hindular orasida savdo tili odjibve(chippaev) asosidagi jargon bo'lgan. Mamlakat janubida komanchilar tili asosidagi jargon qo'llangan. Ayni paytda hindular tiliga ingliz tilidangina yangi so'zlar kirmagan jarayon ikki tomonlama bo'lib, ingliz tili hali hindular tili hisobidan boyib borgan. Xususan o key mobile tilidan olingan bo'lib, dastlab - "hammasi joyida" ma'nosini bildirgan.

Shimoliy Amerikaning arktika xalqlari madaniyati. Eskimoslar Grenlandiya sohillari , Kanadaning shimoli va Alyaskada yashaydilar. Odjibvelar tilidan "eskimante" – "qaynatilmagan go'shtni eyuvchilar" – ma'nosini bildiradi.

Eskimoslar mahalliy sharoitlarga mos maxsus xo'jalik baliqchilik hamda dengiz hayvonlarini ovlash (yozda qayiqlarda, qishda muzdan ochilgan teshikdan). Termachilik o'simlik oziqlari (mevalar, o'tlar, ildizlar) manbai bo'lgan. Eskimoslar ilgaridan oziqlarni konservatsiya qilish (dudlash, quritish, tuzlash) usullarini qo'llaganlar. Mustamlakachilar davrida un va boshqa evropaliklar oziqlari eskimoslarda ilgari ma'lum bo'lmagan kasalliklar vitaminlar yetishmasligi, raxit va h.k. larni keltirib chiqarib hindular ularni qanday davolashni ham bilmaganlar.

Dengiz hayvonlarini ovlashda uchi ajraladigan garpun (sanchqi) va havo puflagan dengiz xayvonlari terisidan tikilgan meshdan foydalanganlar. Mesh yaralangan hayvonni cho'kib ketishiga yo'l qo'ymagan. Boshqa hayvonlar va qushlarni ovlashda eskimoslar kamon, qopqonlar, sanchqilar, qo'llaganlar. Baliqni ovlashda to'r, nayza, sanchqilardan foydalanganlar.

Ovlangan hayvon va baliqlar xo'jalikning barcha sohalarida qo'llanilgan. Go'shti va yog'i taomga, uyni yoritish va isitishga, terisini kiyim, ko'rpa,suyaklarini- mehnat va ov qurollari yasashga ishlatganlar. Yog'ochni o'rmon qabilalaridan ayirboshlab yoki dengiz oqimlarida sohilga chiqib qolgan yog'ochlardan foydalanganlar.

Yozgi turar- joylar uchi uchqir konussimon daraxt po'stlog'idan qurilgan teri yopilgan chumlar bo'lgan. Qishkisi- erto'la ko'rinishidagi bir yoki ikki xonali yashaydigan va xo'jalik xonalaridan tashkil topgan ov paytida vaqtinchalik turar- joy afsonaviy "iglu" – qor qatlamlaridan kesib doira shaklida joy qilish, ichida hayvon terilaridan tutib sovuqdan asranish uchun kichik xonacha qilish an'anasi vaziyatdan kelib chiqib yasalgan. Agar qo'qqisdan qor bo'roni, izg'irin boshlansa ovchining o'zi itlari bilan qorga ko'milib jon saqlaganlar.

Eskimoslarning yozgi kiyimlari bir qavat teridan, qishkisi- ikki qavat juni ichkari va tashqariga qilib tikilgan. Unda asosan bug'ular terisi ishlatilgan. Mo'ynali ko'ylak kapyushoni bilan, shim, mokasin etikni soqqisi uzun bo'lib uni tasmalarini belga boylashgan. Qo'lqoplar ham engga bog'langan. Ustki kiyimlar turli mo'ynalardan tikilib, munchoqlar bilan bezatilgan.

Eskimoslar itlar qo'shilgan nartlar (chanalarda) yoki suv orqali bir kishilik kayaklarda, ko'p o'rinli umiaklarda harakatlanganlar. Ular hayvon ovlash uchun ulkan hududlarda bir necha kunlab yurishlariga to'g'ri kelgan. Eskimoslar hududlardagi tabiiy nishonlarga qarab yo'l topishga mohir bo'lganlar.

Eskimoslarning suyak va hayvon shoxlariga o'yma naqshlari ham yuksak san'at darajasida bo'lgan. Ularning ov hayvonlari xaykalchalari, itlar qo'shilgan chana tasvirlari turli muzey ko'rgazmalarini bezab turibdi. Eskimoslarda tez-tez qo'shiq bayramlari, musobaqalar o'tkazilib turiladi. Bug'ular qo'shilgan chanalarda, itlar qo'shilgan chanalar yoki chang'idagi musobaqalarda ko'plab turistlar, havaskorlar, jumladan shaharlarda yashovchi kishilar faqat tomoshabin emas, ishtirokchilar sifatida ham qatnashadilar. Bugungi kunda eskimoslar ham zamonaviy sport o'yinlari futbol, xokkey, va h.k. larda qatnashmoqdalar.

Shimoliy o'rmon qabilalari. Bu hududda ko'p sonli algonkin va atapask qabilalari yashaydi. Ular atapask yoki na- dene tillarida so'zlashadilar. Ko'chmanchi ovchi qabilalari bug'u va kiyiklarni ovlaganlar. Aynan ushbu viloyatlar hindulari pemlikan – quritilgan go'sht, miya, yog' aralashmasidan mahsulot tayyorlab qayin po'stlog'idan qilingan idishlarda uch yilgacha saqlangan. Bu uzoq

davom etadigan ovlarda iste'mol qilinadigan oziq evropaliklarni qiziqtirib, go'shtli konservalar tayyorlashga asos bo'lgan.

Atapask qabilalari daraxt po'stlog'laridan qilingan engil chaylalarda yashaganlar. Na denelar kanoelari ham daraxt po'stlog'laridan yasalib, katta daryolarda Buyuk ko'llarda baliq ovlangan. Qishda ular it qo'shilgan chanalar yoki chang'ilardan foydalanib ov qilishgan.

Bugungi kunda Alyaska va Kanada atapasklari bir nechta rezervatsiyalarda yashashadi.

Bu yerda tarqalgan bug'u terisidan muynali kiyimlar hindular kiyimlari ramzi sifatida tavsiflanadi. Qishda muynali, yozda zamsha (oshlangan teridan) dan erkaklarda tizzagacha, ayollarda to'pig'igacha ishton kiyishgan. Yumshoq poyafzal- makasinalar, qo'lpaypoq yozda ham kiyilgan, mo'ynalardan kashtalangan, bug'u yoli, qush patlari, burgutlar tirnoqlari bilan bezatilgan. Qabila boshliqlari oqsoqollar qush patlaridan murakkab bosh kiyimlari kiyishgan.

Shimoliy Amerikaning shimoliy- garbi (Tinch okeani) sohili aholisi. Ushbu iqlimi murakkab, turli baliqlarga(ket, chavich, losos) boy o'lkalarda yilda ikki marta baliqlar daryolarga urug' tashlagani chiqadi. Ayni paytda okeandan ko'tarilgan baliqlarni faqat odamlar emas turli hayvonlar (ayiqlar, bo'rilar, tulkilar ham) ovlaganlar.

Aleut orollari va Alyaskada aleutlardan shimolroqda tlinkitlar, xaydalar va nutkalar, simshianlar, selish va chinuklar yashaydilar. Bu qabilalar turli hil til guruhlariga mansub bo'lishsada ularni asosiy xo'jalik faoliyati- baliqchilik birlashtiradi. To'r va savatlar bilan treska, kambala va losos ovlangan. Shimoliy g'arb hindulari tyulen, kit, morjlarni ushlashgan. Oziq ratsionini termachilik mahsulotlari suv o'tlari, yovvoyi mevalar, erildizlilar to'ldirgan.

Bu hindu qabilalari uzun uylar (jumladan selish qabilasida 160 m. uy bo'lgan), 15- 22 metrli qayiqlari, yog'ochdan marosim niqoblari, udum- marosim buyumlari tayyorlaganlar. O'ymakor totem ustunlari shimoliy amerika hindularining yana bir ramzi, ularni uyni oldida o'rnatib, totem ajdodlari- qarg'alar, burgutlar, kitlar va marhum qabila boshliqlarini tasvirlaganlar. Homiy –totem sharafiga bayramlar, potlach- taklif etilganlarga sovg'alar tarqatish marosim-

lari ham tashkil qilingan. Bu Tinch okeani sohilida Oregondan Alyaskagacha yashovchi hindu qabilalari hayotidagi muhim marosim bo'lgan. Sovg'alarni tarqatish ko'pkunli ziyofatlar, raqslar, qo'shiqlar, musobaqalar, turli o'yinlar, kechalari gulxan yonida turli hikoyalar bilan qo'shib olib borilgan. Shimoli- g'arbi tinch okeani sohilida birinchi potlach haqida rivoyat mavjud. Oltin Burgutning qizlari eng mohir ovchilar qila olmagan ajoyib qushni otib tushirganlarida, bu voqeani bayram bilan nishonlab, unda har bir qushni patidan bittadan pat ulashiladi. Har bir qiz u taqishi kerak bo'lgan rangni tanlagan. Shu tariqa ilk potlach bo'lib unda taklif etilgan, taklif qilganlardan sovg'a olishgan.

Shimoliy- g'arb hududlari o'z matolari bilan shuhrat qozonganlar. Janubda uni itni yungidan qilishgan, shimolda esa movut tog' echkilari junidan tayyorlangan. Tlinkit mato to'quvchi ayollarning eng mashhur buyumi- chilkat nomli yopinchiq hisoblangan.

Shimoliy- g'arbiy hindular hayotida ayirboshlash muhim o'rin tutib, hatto "pul"(misdan plastinkalar) ixtiro qilingan edi. Ularning jamiyatida ibtidoiy qullik elementlari bo'lgan. Qullar muxolif qabilalarga qarshi urushlarda asir olinganlardan edi. Qurollari kamon, uchi misdan yog'och nayoza bo'lsa, boshlari va tanalarini yog'ochdan dubulg'a va sovuti asragan.

Kaliforniya. Turli tillarda so'zlashuvchi hindular: xokalar, penuti, algonkin, shoshon, atapask, yuki. Oregon shtati va Shimoliy Meksikada yashaydi.

Yevropaliklar kelguniga qadar hindularning asosiy mashg'ulotlari turli o'simliklarni terish, ov (asosan kiyiklarga kamon va nayzalar bilan) qilish, baliqchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Kaliforniya hindulari o'rmon yong'oqlari, mevalari, yovvoyi suli donini terganlar. Taomni (bo'tqa va sho'rvalar) suv o'tmaydigan qilib to'qilgan savatlarda, ichiga qizitilgan toshlarni solib tayyorlashgan. Kaliforniya qabilalari noyob sopol yasash usulini bilganlar. Kiyimlari belbog'chalar, turar- joylari yarim erto'la yoki uchi uchqir, daraxt po'stloqlaridan qurilgan chaylalarda yashaganlar. Kaliforniyaning mo'tadil iqlimi bunga imkoniyat bergan.

Kaliforniyaliklar evropa sivilizatsiyasidan qattiq jabrlanganlar. XVIII asrda fransuz missionerlari, XIX asrning birinchi yarimidan

oltin topilgandan so'ng minglab oltin izlovchilardan aziyat chekkanlar. Ular hindularni faqat madaniyatini emas o'zlarini ham qirganlar. Bugungi kunda Kaliforniya hindulari Shimoliy Amerikadagi 116 rezervatsiyalarga bo'lib tashlangan.

Shimoliy Amerikaning sharqidagi o'rmon hududlari hindulari. Buyuk ko'llardan janubda Missisipidan Atlantika sohiliga qadar keng yaproqli daraxtli, yumshoq va nam iqlimli o'rmonlar joylashgan.

Ushbu hududda xilma- xil tillarda so'zlashadigan- delaver, mogikanlar (algonkin til oilasi) appalachi, seminollar (muskog guruhi), irokez qabilalari, ayrim siu qabilalari yashagan. Bu qabilalar amerikalik yozuvchi Fenimor Kuperning romanlaridan o'quvchilarga yaxshi tanish.

Algonkin qabilalari shimoliy amerikaning shimoliy- sharqiy qismi tarixida muhim o'rin tutgan. Ko'plab shaharlar, AQSh shtatlari nomlari va boshqa geografik nomlar (Manxetten, Mayami, Chikago, Missisipi, Missuri va h.k. lar). Ayrim xalqaro tillarga kirgan hindu tilidan olingan so'zlar ham algonkin tillaridan kelib chiqqan- tomogavk (tosh uloqtiruvchi qurol), vampum(munchoqlar bilan bezatilgan bel qayishi yoki axborot uzatish usuli), vigvam – turar joy, skvo (ayol), mokasin (etik), toboggan (yog'ochdan chang'ili chana).

Algonkin qabilalariga irokezlardan janubroqda yashagan delaverlar ham (o'zlarini leni lenape "haqiqiy odamlar" deb atashadi) kiradi. Algonkin delaverlari evropaliklar kelmasdan piktografik(rasmli) yozuv yaratganlar.

Bu hududda Povxatana Konfederatsiyasi tuzilgan XVI- XVII asrlarda Konfederatsiya hozirgi Virginiya algonkin qabilalarini birlashtirgan. Konfederatsiya shunchalik kuchli ediki inglizlar o'z tashabbuslari bilan Povxatanaga Londondan qirollik tojini yuborganlar.

Keyinchalik Povxataning qizi Pokaxontas- britaniyalik dvoryanga turmushga chiqib Londonga ketadi. Lekin bir necha yildan so'ng sil kasaliga chalinib vafot etadi. Shundan so'ng urush boshlanib unda Konfederatsiya mag'lubiyatga uchrab, qabilalar ittifoqi parchalanadi.

Meksika ko'rfazi sohillarida va qit'aning ichida, Missisipi daryosining quyi oqimida hindu qabilalarining muhim janubiy- sharqiy

guruhlari muskog til guruhi (krik, choktav, chikas qabilalari) vakillari joylashgan. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanganlar katta qishloqlarda yashaganlar. Qishloq markazida barcha muhim kengashlar, diniy marosimlar o'tkazilgan.

Bu hududda XVIII asrning o'rtalarida Krik konfederatsiyasi shakllangan. Kriklar Missisipi ortiga surib chiqarganiga qadar ittifoq 50 ta yirik manzilgohlarni birlashtirgan. Aholi oltita tilda so'zlashgan. Amerika Qo'shma Shtatlari tuzilganidan so'ng barcha muskog qabilalari uzoq g'arbga ko'chirilganlar.

Shimoliy Amerikaning Sharqida yashovchi ajoyib qabilalardan biri- irokezlar edi. Kolumbga qadar irokezlar hozirgi AQSh ning qator shtatlarida- Pensilvaniya, Ogayo, Nyu- York, shuningdek Buyuk ko'llar tevaragida- Ontario va Erida- Muqaddas Lavrentiy daryosining sohillarida yashaganlar. Ular o'troq dehqonlar bo'lib makkajo'xori, tamaki, dukkakli ekinlar, kungaboqar yetishtirganlar. Qo'shimcha baliqchilik va ovchilik bilan ham shug'ullanganlar. Makka orasiga loviya va qovoq ekkanlar, sababi hindular rivoyatiga ko'ra (oneyda) bu ekinlar er- xotin bo'lib ularni ajratish mumkin emas.

Zarang daraxti sokidan qaynatib qand olishgan. Irokezlar bug'u, kiyik, suvsar va h.k. larni ovlaganlar. Hayvon terilaridan kiyimlar tikilgan. Misga ishlov berishni o'zlashtirib undan pichoqlar yasalgan. Kulolchilik charxini bilmasalarda kulolchilik san'atini o'zlashtirganlar. Irokezlar o'nlab "uzun uylar" – dan iborat qishloqlarda yashaganlar. Bu uylarni ichidagi har bir bo'linmada alohida oila yashab uning o'z o'chog'i bo'lgan.

Irokezlar eng kichik ijtimoiy birliklari ovachira deb nomlanib, uning a'zolari bir " uzun uyda" istiqomat qilib bir ota- onadan tarqalganlar. Har bir ovachira boshida yoshi keksa ayol turgan. Bir necha ovachira irokez urug'ini tashkil etgan. Qabilaning bir necha urug'i fratriyaga (yunoncha- "birodarlikka") birlashgan. Bir fratriyaning urug'lari birodarlar sanalgan, qabilaning turli fratriyalari urug'lari bir qorin naridagi amakivachchalar hisoblangan.

Har bir urug'ni o'z nomi bo'lib, uni totem hayvon yoki qushdan olingan. Xususan tuskarora qabilasida sakkiz urug': Qo'ng'ir Bo'ri, Ayiq, Katta toshbaqa, Suvsar, Sariq Bo'ri, Kulik, Ugor, Kichik

toshbaqa. Bu sakkiz urug' ichki fratriyani, ular esa qabilani tashkil etganlar. Shu xildagi ijtimoiy tashkilot tuzimi (ovachira) : urug'-fratriya qabila qachonlardir Amerikaning deyarli barcha hindu qabilalariga xos edi. Lekin irokezlar singari konfederatsiyani faqat bir necha qabilalar tuzganlar.

Ijtimoiy tashkilotning eng yuqori formasi ittifoq yoki irokezlar Ligasi beshta qabila: Onondoga, Kayyuga, Mogauk, Oneyda va Senekalar Konfederatsiyasi bo'lgan. Ularni 1570 yili onandogalar etakchisi Gayavatta birlashtirgan. "Besh qabila" ittifoqini tuzgan Gayavatta hindu qabilalariga tinch- totuv yashash yo'lini ochdi. Ittifoqqa barcha hindu qabilalari qo'shilishlari mumkin edi. Shimoliy Karolinada yashovchi irokez tilli tuskarora qabilasi 1722 yili Liga hududiga ko'chib ittifoqqa kirgan. Shu paytdan Liga " olti qabila" ittifoqi nomini oladi. Ligaga kirmagan qabilalar unga boj- yasoq to'laganlar. Ayrim qabilalar xususan jangari guronlar irokezlar zo'ravonligiga qarshi chiqqanlar. Lekin "olti xalqning" qudratli ittifoqi guronlarni bo'ysindiradi.

Gayavataning qabilalar ittifoqi tuzganidan keyingi hayoti no'malum. Ittifoqning hayoti esa evropaliklar tazyiqi va amerika sivilizatsiyasining g'olibona yurishi natijasida yakun topadi.

Preriya. Missisipidan Qoyali tog'larga qadar o'simliklarga boy adirli dashtlar cho'zilgan bo'lib, ularni preriya " katta o'simliklar tekisligi" (frans.) deb nomlashadi. Preriya hindulari orasida eng avvalo siu til oilasiga mansub qabilalar diqqatga molik. Ularni odjibvelar – "ilon", o'zlari – dakota- "ittifoqdoshlar" deb nomlashadi. Siularga: assiniboynlar, ayovalar, omaxalar, dakotalar va boshqalar kirgan. Preriyada siu tillarida gaplashadigan qabilalardan tashqari: algonkinlardan (cheyenlar, arapaxosalar), shoshon tillari guruhidan "qora oyoqlilar" (komanchi) lar ham yashaganlar. Ularning barchasi kovboylar haqidagi kitob va filmlar qahramonlariga aylanganlar.

Ilk evropaliklar Shimoliy Amerikada XVI asrning boshlarida paydo bo'lib, o'sha kezlarda preriyaning o'zida 400 ga yaqin hindu qabilalari bo'lgan. Yevropaliklar kelguniga qadar hindular preriyaning sharqida yirik daryolar oqimi bo'ylab yashaganlar. Ular sodda (primitiv) dehqonchilik (cheyenlar Shimoliy Dakotadagi Red River daryosida) yoki komanchilar ov bilan shug'ullanganlar.

Preriya hindularining butun hayoti ikki hayvon bizonlar va otlar bilan bog'langan. Bizon ularga pemlikan- zahira ozuqa bergan, terilaridan chodirlar- tipi, kiyimlar va poyafzal tikishgan. Bizonlarni jamoa bo'lib ovlaganlar. Kolumbga qadar hindularning asosiy qurollari hayvon shoxlari yoki qattiq daraxt yog'ochlaridan kamon, uchiga uchqirlangan tosh paykon bog'langan uzun dastali nayzalar bo'lgan.

XVI asr o'rtalarida evropaliklar Shimoliy Amerikaga otlarni olib keladilar. Ispanlarni chorvachilik fermalaridan qochgan preriyada yovvoyilashgan otlar Amerikada mustang nomini olishadi. Hindular ularga tezda ko'nikib qo'lga o'rgatganlar, minib yurishni o'zlashtirganlar. Otlarda ular preriyani egallab bir necha yilda butun hududda joylashadilar.

Ot hindular hayoti va xo'jaligida muhim o'rin egallaydi. U bizonlarga ov mahsuldorligini keskin ko'paytiradi. Natijada hindular astasekin o'zlarini avvalgi xo'jaliklaridan voz kechib ko'chmanchilarga aylanadilar.

Erkaklar va ayollarning barcha kiyimlari qayta ishlangan bizon terilaridan qilingan. Erkaklarda odatdagi kiyimlari belbog'cha va boldiriga nogovitsilar. Erkaklar ham ayollar ham oyoqlariga jayra ignalari qadalgan bosh kiyimlarni, oyoqlariga mokasin kiyganlar. Ayollar zamshdan (oshlangan yumshoq teridan) uzun kiyim kiyganlar. Dushman skalplari (bosh terilari bilan) bezatilgan jangovor ko'ylaklarni qabila boshliqlari va mashhur jangchilar kiygan.

Lekin preriya hindularining eng ajoyib ziynatlari peshana bog'lanadigan burgut patlari tikilgan peshanaband bo'lgan. Patlar elliktacha bo'lib, har biri bironta jasorat belgisi hisoblangan. Patlar turlicha bo'lib o'ziga xos etib kesilgan. Peshanabandlarni o'ziga xos orden tasmachalari bo'lgan deyish mumkin. Ularni qabila sardorlari va eng jasur jangchilar kiyishgan. Jangchilar undan tashqari o'zlarini grizli ayiqlari tirnoqlari bilan ham bezagan. Preriya hindularining asosiy qurollari kamon bo'lgan. Jangda o'zlarini kiyik yoki bizon terlaridan yasalgan qalqon bilan himoya qilganlar.

Preriya hindulari o'ta jangovorliklari bilan xususiyatlanmaganlar. O'zlarining birinchi mudoofa urushlarini ular shartnoma bo'lishiga

qaramasdan so'nggi erlaridan mahrum qila boshlaganliklaridan so'ng boshlaydilar.

Preriya hindularining eng kichik ijtimoiy birliklari urug' edi. Hindu yo o'zining onasi urug'iga (jumladan qarg'a hindularida) yoki otasi urug'iga mansub hisoblangan. Yoshi katta erkaklar alohida erkaklar jamiyatlariga birlashganlar.

Afsungarlar, shomonlar hurmat qilinganlar, e'zozlanganlar. Ularning asosiy vazifalari ruhlar bilan muloqot bo'lgan. Shomonlar kasallarni davolaganlar, diniy marosimlarni boshqarganlar, taqdirni oldindan aytib berganlar, shomon nog'oralari va shaldiroqlari bilan ob- havoni o'zgartirganlar.

Hindular shomonni yuksak afsungarlik kuchiga ega ekanliklariga (manito yoki manido) ishonganlar. Ayrim roman mualliflari manitoni preriya hindularining Oliy ilohiga aylantirib "Buyuk ruh" deb nomlashgan. Bu yozuvchilar nazdidagi narsalarni hindular hatto bilishmagan. Preriya hindulari Ona er ilohasi, momaqaldiroq va ayniqsa quyosh ilohlarini e'zozlashgan.

Preriya ovchilarining o'ziga xos madaniyatlari XIX asrning o'rtalarigacha saqlangan. Yevropalik ovchilar 50 yil ichida (1881 yili so'nggi bizon otilgan) terisi uchun barcha bizonlarni qirishgan. Bizonlarni yo'q bo'lishiga preriya va Qoyali tog'lar orqali Tinch okeani tomonga (1869 y.) temir yo'lni qurilishi ham sabablardan biri bo'ladi. U bizonlarni kuzda janubga, bahorda shimolga migratsiya yo'lini to'sadi. Natijada 1870 yili janubda umuman bizon qolmaydi.

Hindu qabilalari ovga va hayvonlarga munosobatlari afsonalardan birida quyidagicha ifodalanadi. Unda yosh jangchi to'g'risida, uning ruh homiysi Buyuk kiyik yigitga "Hech qachon zarur bo'lganidan ortiqcha hayvon ovlama" – deb uqtiradi. Lekin yigit kunlardan birida o'gitni unutadi. U qahraton qishni kutish davomida ko'plab hayvonlarni jumladan o'zini ruh homiysini ham o'ldiradi. Ularni hayoti o'zaro bog'liqlikda bo'lgani sababli ko'p o'tmay o'zi ham halok bo'ladi. Ajoyib hayvonlar bizonlarni o'ylamasdan, vahshiylarcha o'ldirishi hindular dunyosining bir qismi sifatida ularning hayoti va madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Preriya hindulari madaniyatini faqat bizonlarni yo'qotilishi emas, plug ham sababchi bo'lgan.

Rivoyatga qaraganda XIX asrning oxirida Shimoliy Dakotada qandaydir fermer er haydayotganida siu qabilasidan bo'lgan qariya fermerni ko'radi. Qariya ilgari bizon podalariga emish bo'lgan o'tlarni plug yanchib erga kiritayotganini kuzatib turadi. Hindu haydalgan tuproqni qo'lida ezg'ilab: " Yomon er, tepasi unumsiz "/" deydi. Hindu bu gapdan so'ng ketadi. Uzoq yillar bu voqeani anekdot sifatida aytishgan. Bugungi kunda Shimoliy Dakotadagi 10 sonli shosseda fermerning eri bo'lgan joyda, ko'rsatgich qo'yib qariya aytgan so'zlar yozib qo'yilgan. Bu rivoyat oq tanliklarga mamlakatning tub aholisi donishmandligi, bu erlarni o'ylamasdan ekinzorlarga aylantirish qachondir boy preriyani yaroqsiz qilishidan ogohlantirish deb tushunmoq lozim.

Qachonlardir mag'rur va mustaqil qabilalar yo to'liq qirilgan yoki rezervatsiyalarga jo'natilgan.

AQSh ning janubiy- g'arbi va Meksikaning shimoli (Pueblo oblasti). Kaliforniya bilan Amerikaning Arizona. Arizona bilan esa Nyu Meksika shtati qo'shni joylashgan. Har ikkisini aholisi janubiy- g'arb hindularidir. Ushbu yagona geografik hududda yuto- atstek xalqlari (papago, pimi, zuni) va jangari atapasklar (navaxilar, apachilar) ikki madaniy jihatdan bir- birlaridan ancha farq qiladigan hindular guruhidir. Navaxilar qabilasi bugungi AQSh da eng ko'p sonli (200 mingdan ko'p) elat bo'lib eng katta hindular rezervatsiyasida yashaydilar. Navaxolarning yaqin qo'shnilari va qarindoshlari apachilardir.

AQSh ning janubiy- sharqida yana bir hindu qabilalari guruhi- alohida toshdan bir- biriga taqab qurilgan uylar egalari, pueblo (ispanchadan "qishloq", "xalq") lardir. Shimoliy Amerikada Kolumbga qadar madaniyatlar ichida eng yuqori darajasi aynan shudir. Agar irokezlarda qabila aholisi soni 4- 5 mingni ahyon- ahyonda oshib o'tsa, pueblolarda bitta qishloqda ba'zida 4 minggacha kishi yashagan. Markaziy qishloq ba'zida yaxlit shahar- qal'aga aylantirilgan, sababi u atrofdagi aholini xavf bo'lganida jonini asragan.

Pueblo hindulari murakkab sug'orish tizimini yaratgan. Ularning asosiy ekini makkajo'xori bo'lgan. Undan tashqari qovoq, qizil qalampir, salat, loviya, tamaki ekkanlar. Dalalarga so'qa bilan ishlov berilgan. Ov ularga qo'shimcha mahsulot beradigan erkaklar ishi

bo'lgan. Erkaklar paxtadan mato to'qiganlar, qurol- aslahalar tayyorlagan. Ayollar dalaga ishlov berganlar. Uy qurish ham ayollar ishi hisoblangan. Pueblo hindulari ajoyib sopol ustalari bo'lishgan. Lekin ular ham boshqa hindular singari kulolchilik charxini bilmaganlar. Kulolchilikni erkaklar ayollar bilan hamkorlikda olib borishgan.

Har bir pueblo aholisi qator urug' guruhlariga bo'lingan. Ularga qandaydir hayvon yoki qushning nomi berilgan. Ushbu totemni urug'ning har bir vakili o'zining qadimgi ajdodi deb bilgan. Diniy tasavvurlari dehqonchilik mahorati bilan bog'liq bo'lgan. Hayotlarining eng muhim voqealari hayot bag'ishlovchi - makkajo'xori bilan bog'langan. Bosh ilohlar Quyosh va Ona yer hisoblangan. Pueblo hayotida marosim raqslari muhim o'rin tutgan, ulardan eng asosiysi ilonlar raqsi bo'lgan. U ilonlarga e'tiqodning teatrlashtirilgan ko'rinishi, ilonlarga pueblo hindularining qadimgi ajdodlariga ta'zimi edi. Ruhoniylar og'izlarida shaqqildoq ilonni qistirgan holatda raqsga tushishgan, qizig'i raqs paytida kimnidir ilon chaqqanligi ma'lum emas. Marosim so'ngida ayollar ilonlarni ustiga makka doni sepganlar. Bugungi kunda Shimoliy Amerikaning ko'pchilik tub aholisi rezervatsiyalarda yashamoqda AQSh da bunday qo'riqhonalar umumiy maydonning 2% ni tashkil etib, ularda 700 ming hindular istiqomat qiladilar.

Hindular shaharlarda. Umuman olganda Shimoliy Amerika hindulari evropalashgan shahar hayotiga juda qiyinchilik bilan moslashmoqdalar. Ular uchun vaqt tushunchasi, transportdan foydalanish, magazinlardan mahsulot xarid qilish, shahar hayoti qoidalariga moslashish qiyinchilik tug'dirmoqda. Hindularni qul sifatida ishlatilmagani buning uchun afrikadan qullar keltirilgani sabablaridan biri ham shunda. Tarihiy taraqqiyotning o'ziga xosligi tufayli ko'plab hindular oq tanlilarga nisbatan o'zgacha ma'naviy qadriyatlar tizimiga ega. Ular o'z birodarlari bilan hech qanday o'ylanib o'tirmasdan o'zida bor narsani barisi bilan bo'lishadi. Pul to'plashga ahamiyat berishmaydi, ish uchun kurashish, lavozim, mavqe tushunchalarini qiyinchilik bilan qabul qiladilar. Amerikalik folklorshunos olim Polin Jonson hindularning Shak- Shak ismli o'smir yigitining qurimsoqlik kasaliga uchragani haqidagi rivoyatni yozib olgan. Oliy ilohlar yigitni dahshatli ilonga aylantirgan, uni soflik va saxiylik

bilan qurollangan qahramon engadi. Hindular uchun qizg'anchiqlik va mol- dunyo to'plash eng katta nuqson sanaladi. Hindu tillarida bunday nuqsonni "oq tanli kishining bexayrligi" deb atashadi. Hindular mehnat etikasini ham qabul qilmaydilar. Ular uchun mehnat tovar emas, erkinlik berilgan va qabul qilingan faoliyatdir.

Chaqqon va jasur hindular San-Fransiskodagi "Golden geyt bridj" ko'prigi qurilishida eng murakkab balandlikda montaj ishlarida, aniq harakatlar talab qiladigan joylarda namunaviy ishlaganlar. Lekin boshliqlar ularga moslashishiga to'g'ri kelgan hindular baqirganni yoqtirmaydi hamda buysunmaydi ham.Hindular uchun hamma ish ham to'g'ri kelmaydi. Rezervatsiyalardi mavsumiy ishlarga o'rganib, bo'sh vaqtlarida do'stlari huzuriga borish, marosim bayramlarida ishtirok etish ularni shaharda 8 soat ishlashga moslasha olmasligiga sabab bo'ladi. O'z oilasidan va do'stlaridan ajralgan boshqa dunyoga tushib qolgan hindu rezervatsiyalardagidan ham ko'p qiyinchiliklarga duch keladi.

Hindular farzandlarida esa o'z muammolari etarlicha. Ular hindular madaniyatidan ajralib "asfalt" hindulariga aylanadilar. Qariyalar tajribasi shaharlarda kerak bo'lmasdan, ular yoshlarni qanday hindu bo'lishga o'rgatishlariga hojat qolmaydi. Shuning uchun shaharga ketgan hindular ma'lum vaqt o'tib rezervatsiyalarga qaytib o'z madaniyatini saqlash fikri faqat rezervatsiyalarda amalga oshishi mumkinligiga ishonch hosil qiladilar. Bugungi kunda rezervatsiyalarni etnomadaniyatni saqlash qo'riqxonalari deyish mumkin.

3. Shimoliy Amerikadagi etnik jarayonlar. Shimoliy Amerikani mustamlaka qilinishi.

Amerikani qayta kashf qilinishi XV asr oxirida bo'ldi. XVII asrdan boshlab Shimoliy Amerikaga ispanlar, fransuzlar, gollandlar, nemislar kelib joylashadi. Lekin Amerika barchadan ko'ra inglizlarni ko'proq o'ziga tortgan. Gollandlar inglizlarni "yangis" deyishi yanki etnonimini yaratadi. Uni dastlab Amerikadagi inglizlarga nisbatan, keyinchalik barcha Shimoliy shtatlar aholisiga, undan ham keyinroq AQShning barcha oq tanli aholisiga nisbatan qo'llangan.

Yevropaliklar XVIIasrning boshida sharqiy sohilda ilk shaharlarga asos soladi. Gollandlar hozirgi Manxetten orolini 200 kronga sotib olib Nyu Amstyerdam shahriga asos soladilar. Shahar golland

koloniyalari markazi bo'lsada aholisining yarmi inglizlar bo'lgan va ko'p o'tmay Angliya mulkiga aylanadi.

XVII asr boshlarida Shimoliy Amerikaning atlantika sohilida ispanlarning: Florida, Jorjiya, Shimoliy Karolina va Meksika ko'rfazi sohillarida qator manzilgohlari bo'lgan. G'arbda ularga Kaliforniya, hozirgi Texas erlari, Arizona, Nyu Meksikalar qaragan. Lekin XVIIasrdan ispanlarni Fransiya va Angliya surib chiqara boshladi. Natijada ispanlar erlari faqat janubiy- g'arb bilan cheklangan. Shimoliy Amerikada hukmronlik uchun kurashda Angliya, Fransiya, Gollandiyalar etakchi mavqega erishadilar.

AQSh sharqiy shtatlari qishloq aholisining katta qismi aynan Gollandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Irlandiya, Germaniyadan ilk ko'chib kelganlarning avlodlaridir.

Umuman olganda evropaliklarning Shimoliy Amerikaga kelib joylashgani sekin kechgan. Shimoliy Amerikaning neytral oblastlarida XVI asrda, ba'zida XVII va XVIII asrlarda ham hindular bu jarayonni hali unchalik sezishmagan. Gollandiya va Fransiyadan Shimoliy Amerikaga XVII asrda kelgan mo'ynachi savdogarlar hindulardan arzimagan pulga "yumshoq oltin" ni alishtirib amerikaga aholisini qirg'in qilish yoki yashayotgan joylardan ko'chirib yuborishdan manfaatdor bo'lmaganlar.

Shunga qaramasdan evropadan ko'chib kelganlar asta- sekin qit'aning ichiga kirib boradilar. Fenimor Kuper romanlaridagi Natanıel Bampo (Teri paypoq, Burgut ko'z) qabilar ortidan daraxt kesuvchilar kelib o'rmonlardan ekinzorlar uchun er tayyorlab, yog'ochlardan uylar tiklashgan. Cho'l- dasht rayonlarida kolonistlar chorvachilikni joriy etadilar. Kovboy (" sigirchi bola" yoki "cho'pon" ma'nosini beradi) tez orada preriyada, bayramlarda (rodeo), folklorda, so'ng adabiyotda markaziy qahramonga aylana bordi.

Inglizlarning Shimoliy Amerikadagi kolonizatsiyasi keng ko'lamda olib borilgan. Yevropadagi kambag'allar uchun Amerika jannatmakon o'lka, u yerda yirik er egalari tazyiqlaridan, diniy ta'qiblardan, qarzlardan xoli bo'lish orzusida azob va mashaqqatli safarga otlanganlar. Ketma- ket ingliz koloniyalari tashkil etilib, XVIII asr o'rtalarida ularning soni 37 taga etadi. Ushbu koloniyalar aholisi 1,6 mln. kishi bo'lgan.

Janubiy- sharqda inglizlardan tashqari ko'plab fransuz- kolonizatorlar ham bo'lgan. Bu hududga XIX asrning boshlarigacha 1 mln. negrlar keltirilgan, ushbu jarayon XVII asrning birinchi yarimidan boshlangan. 1860 yilda qullar soni 4 mln. ga etadi. Ularni janubiy-sharqiy, janubiy va janubiy- g'arbiy shtatlarda paxta plantatsiyalari tashkil qilingan hududlarda joylashtirganlar. Bugungi kunda ham ushbu shtatlarda negr aholisi nisbatan ko'p, ularning yarmiga yaqini janubiy shtatlarda yashaydilar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan Shimoliy Amerikaga emigratsiyaga kelayotganlar etnik tarkibi o'zgaradi. Ko'chib keluvchilarning yarmidan ko'pi evropaliklar, lekin g'arbiy sohilda Xitoy va Yaponiyadan ham ko'plab ko'chib keluvchilar bo'lgan. Yangi sharoitlarda kelguvchilar uchun asosiy talab ingliz tilini o'zlashtirish bo'lgan. Boshqa etnik guruhlarni bo'ysindirgan ingliz tilli aholining maishiy, psixologik va ijtimoiy standartli hayot tarzi shakllana boshlaydi.

Rus tadqiqotchilarining Amerikaga sayohatini V. Bering 1741-1742 yillari A.Chirikov bilan birga boshlab berishgan. Ular Alsut orollarini kashf qilib Bering bo'g'ozi va Amerikaning shimoliy sohillariga etib boradi. Savdogar G.Shelixov 1783 yili Amerikaga rus kolonistlarini yuborilishiga homiylik qiladi. Ammo Rossiya hukumatini asosan mo'yna olish mumkin bo'lgan uzoq koloniyalar unchalik qiziqtirmaydi. Imperator Aleskandr II 1867 yili Alyaskani AQShga 7 mln. dollarga sotadi. Hududdan 1896 yili oltin topilib bir yilda 10 mln. dollardan ortiq daromad keltiradi.

Shimoliy Amerika millatining shakllanishi. Amerikaning zamonaviy halqlari yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan immigrantlar, afro- amerikaliklar (keltirilgan qul negrlar) va mahalliy hindu qabilalari hamda elatlari aralashuvidan shakllangan. Zamonaviy yirik etnomillatlar AQShdagi etnik jarayonlarning keyingi tarixi migratsion jarayonlar ta'sirida o'tgan.

Ayrim hindu xalqlari va eskimoslardan tashqari Amerikaning barcha zamonaviy jamiyatlari uchun evropa tillari (ingliz, ispan, portugal, fransuz va boshqalar) yoki ular asosida shakllangan shevalar ona tili hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar yuz yildan so'ng inglizlar va amerikaliklar bir- birlari bilan tarjimon orqali gaplashishini aytishmoqda. Sababi inglizchani amerikacha formasi Britaniyanikiga

nisbatan tez rivojlanayotgandir. Amerikaliklar til bilan nisbatan erkin munosobatda bo'lib, uni o'z hohishlariga qarab o'zgartirishlari mumkin. Sababi ko'pchilik amerikaliklar uchun ingliz tili ona tili emas.

Shimoliy Amerika kolonistlari mahalliy hindular bilan nisbatan kam aralashganlar. Shimoliy Amerikani britaniyalik va fratsniyalik kolonistlar tomonidan o'zlashtirilishi oilaviy guruhlar tomonidan yoki evropaliklarni o'z vatanlaridan oila qurish uchun ayollarni keltirishi bilan xususiyatlanadi.

Shimoliy Amerikaning atlantika sohili bo'ylab turli mamlakatlardan kelgan kolonistlar manzilgohlar bunyod etishgan. Gollandiya va Shvetsiya koloniyalari ko'p o'tmay inglizlar tomonidan egallangan. Hozirgi Kanadaning atlantika sohilidagi erlarida XVII asrning boshlarida Fransiya koloniyalari bunyod etiladi. Janubroqda sohil bo'ylab 13 ta britaniya koloniyalari bo'lajak Qo'shma Shtatlar vujudga keladi. Bu hududda aholi dastlabki paytdanoq xilma- xil bo'lgan. Inglizlar bilan birga shotlandlar, va irlandlar, nemislarni kichik guruhlari, shvedlar va boshqa evropaliklar vakillari yashagan.

1776 yili Amerika Qo'shma Shtatlari tashkil topadi. AQSh aholisi tug'ilishning yuqori bo'lishi, immigratsiyaning ko'p sonliligi tufayli ingliz tilli bo'lmagan aholini ham ko'payib borishiga sabab bo'lgan. Birinchi aholi ro'yxati 1790 yili o'tkazilib unda britaniyaliklar (inglizlar, shotlandlar, irlandlar va uelsliklar) aholining 75% ni tashkil qilgan. Yevropaning rivojlangan turli mamlakatlaridan ko'chib keluvchilar XIXasrda ham davom etadi. Qo'shma Shtatlar aholisi asr boshida 5 mln. bo'lgani holda bu paytda unga 20 mln. kishi kelib joylashgan. Immigrantlarni ommaviy oqimi AQSh da asosiy millatlar qatorida, amerika yoki kanadani etnik guruhlari: nemislar, gollandlar, yahudiylar, shvedlar, norvegiyaliklar vujudga keladi Yana ham kuchli immigrantlar oqimi XX asrda bo'lib (1980 yilga AQShga 30 mln. kishi) uning qudratini, salohiyatini yanada oshiradi.

"Yangi" immigratsiya XIX asrning so'nggi choragidan Janubiy, Markaziy va Sharqiy yevropadan italiyaliklar, yahudiylar, polyaklar, vengrlar, ukrainaliklar, keyinchalik portugallar, greklar oqimi bo'ladi. So'ngra xitoyliklar, yaponlar, meksikaliklar, Karib dengizi

havzasidagi orollardan boshqa lotin amerikasi mamlakatlaridan immigrantlar keladi.

Amerika xalqining etnik hududi qo'shma shtatlar davlati chegaralari bilan mos keladi. AQSh- bir millatli mamlakat yaxlit etnotarixiy jamiyat sifatida unga 200 yil to'ldi.

Amerikaliklarning 70% shaharlarda yashaydi. Eng ko'p sonli immigrantlar guruhlari ham shaharlarda yashaydi. Eng yirik megapolislar Nyu- York, Chikago, Filadelfiya, Detroyt, Los-Anjeles. Etnik guruhlarni shaharlarda joylashuvi ham katta qiziqish uyg'otadi. Ko'pgina shaharlarda etnik mavzelar va rayonlar mavjud. AQShda meksikaliklar ayniqsa mujassam joylashganlar. Chikanos - Meksikadan chiqqanlar AQShning Janubiy- G'arbida Meksika bilan tutash hududlarda ko'p. Etnokonfessial guruhlar ham mavjud, jumladan mormonlar jamoalari boshqalardan xoli yashamoqdalar.

AQSh aholisining etnik va rasa tarkibi. AQShda insoniyatning uchta yirik rasalari vakillari yashaydi.

Katta negroid rasasiga eng avvalo AQSh afro-amerikaliklari (30 mln. atrofida) XVII - XIX asrlarda Afrikaning turli hududlaridan qullikka olib kelinganlarning avlodlari - negrlar kiradi. Ularning ichida evropaliklar aralashmasi yuqori. Mulatlar zamonaviy negrlar muhitida ko'pchilikni tashkil etadi. Negroid rasasiga Vest - Indiyadan (yamaykaliklar, barbadosliklar). AQShga ko'chib kelganlar ham mansub. Puertorikoliklar evropeoid - negroid (mulat) hindular qonining aralashuvidan shakllanganlar.

Mongoloid rasasi eng avvalo aborigen xalqlar, so'ng Osiyodan emigratsiya qilgan: xitoyliklar, yaponlar, filippinlar vakillarida aksini topgan. AQSh meksikalik aholisining kelib chiqishi bir tomondan ispan kolonistlari ikkinchi tomondan mahalliy hindular aralashuvidan vujudga kelgan. Ularning ko'pchiligi metislar.

Aksari ko'pchilik aholi evropeoid rasasi vakillaridir. Ulardan nemislar eng ko'p sonli va eski emigrantlik guruhidir. Ular orasida fermerlar ko'p, mulkdor, ma'lumotligi bilan ham xususiyatlanadi. Irlandlar orasida ishchilar ko'pligi bilan ajralib turadi lar. Italiyaliklar etnik birdamligi garovi, ularni oilasi mustahkamligi bilan xususiyatlanadi.

AQShda meskika- amerikaliklar yoki "chikanos" (siyosiy atamaga aylangan laqab, so'ng etnonim) yirik tez o'suvchi etnoguruhni tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi Kaliforniya, Arizona, Kolorado, Nyu Meksika va Texas shtatlarida yashaydi. Bu hududlar XIX asrning o'rtalarigacha Meksika erlari bo'lgan. AQSh meksikaliklari Meksika meksikaliklariga nisbatan mustaqil etnosdir.

Puertorikoliklar – AQShning urushdan keyingi yirik emigrantlar guruhlaridir. Ispan tili ularni Lotin Amerikaliklar ayniqsa chikanos bilan bog'laydi.

Amerikaning osiyolik aholisi- yaponlar, xitoyliklar. Ularning ko'pchiligi g'arbiy tinch okeani sohilidagi hududlarda ayniqsa Kaliforniya shtatida yashaydilar. Xitoyliklar shaharlarda milliy mavzelar- "chaynataunlar" vujudga kelgan. Ulardan eng yiriklari San-Fransisko va Nyu- Yorklarda joylashgan.

AQShning davlat tili ingliz tilining amerika varianti, har bir etnik guruhning hayotiga kirib, ikki tillikni so'ngra etakchilikni egallaydi. Ikkinchi va keyingi emigrantlik avlodlari ingliz tilini to'liq o'zlashtirib ular uchun hayot tarzi, ommaviy kommunikatsiya vositalari- radio, kino, televidenie ushbu jaraynni tezlashtiradi.

Amerika jamiyati moddiy madaniyati bir xil va zamonaviy industrial urbanizatsiyalashgan mamlakat uchun xos.

Diniy vaziyatga kelsak aholining uchdan ikkisi protestantlar, uchdan biridan kamrog'i- katoliklar, taxminan 3% ga yaqin iudaistlar va yana ko'plab dinlar hamda sektalarga e'tiqod qiladiganlar mavjud. Afroamerikaliklar orasida baptistlar va metodistlar cherkovlari mavqei yuqori. O'ziga xos konfessial jamoa mormonlar, ularning ko'pchiligi Yuta shtatida yashaydilar. Mormonlik sof amerika dini, AQShda XIXasrning birinchi yarmida vujudga kelgan. Uning vakillari hududiy, iqtisodi va ijtimoiy jamoalarni yaratganlar.

Kanada xalqlari. Kanada- ulkan va aholisi siyrak joylashgan mamlakatdir. U bir yarim asr Fransiyaning, so'ng yana bir asr 1867 yilga qadar Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan. Kanadaning ichki va tashqi ishlardagi mustaqillik statusi 1931 yildan boshlangan.

Etnik jihatdan bu mamlakat AQShga nisbatan exlitroq. Kanadada ko'psonli bo'lmagan negrlar yashaydi. Qolaversa mamlakat ikki millatli.

Anglo- kanadaliklar. Ontario viloyatida Buyuk ko'llarning shimoliy sohillarida yashaydilar. Etnohudud g'arbga va janubiy-g'arbga tomon tinch okeani sohiliga qadar cho'zilgan. Mamlakatning g'arbiy qismini ham ko'p sonli bo'lmagan anglo- kanadaliklar egallagan. Ularning soni 10 mln. Kanada aholisining 40% ni tashkil etadi. Ular kanadaliklar ichida amerikaliklarga eng o'xshashi o'sha til, "a" harfiga urg'u beradigan sheva, lekin ular o'zlarini amerialik deb hisoblashmaydi.

Ushbu xalqning tarixiy o'zagi XVIII asr oxirida "loyalistlar"dan – AQShdan ko'chib o'tganlar ular AQShdagi mustaqillik uchun urushlarda britaniya qo'shinini qo'llaganlar, uning mag'lubiyatidan so'ng inglizlarda qolgan kanadadagi erkin erlarga qochadi. Keyinchalik ularga yevropadan yangi ko'chib kelganlar qo'shiladi, lekin "loyalistlar"dan meros qolgan AQShdan mustaqillik ruhi saqlanib qolgan. Aynan o'zlarining madaniy avtonomiyasini va mustaqilligini saqlashga intilish, anglokanadaliklarni klassik britaniya madaniyati an'analariga intilishini, o'zlarining ingliz, shotland va irland ajdodlari madaniyati elementlarini asrashga harakatida kuzatiladi. Xususan bayramda shotland katak kiltida (yubkasida) uning rangiga qarab ushbu shaxs qaysi klan a'zosi ekanligini aniqlash mumkin bo'lgan kiyimni bugungi Shotlandiyada topish mushkul.

Franko- kanadaliklar. Hududi Kvebek viloyati, Ontario daryosidan sharqqa tomon cho'zilgan yirik massiv Nyu- Bransuik. Monreal Parijdan keyingi ikkinchi fransuz tilli shahar unda ikki million franko-kanadaliklar bilan birga yuz minglab anglo- kanadaliklar, italiyaliklar, greklar, yahudiylar va yana o'nlab mamlakatlardan kelgan immigrantlar avlodlari yashaydi. Kanadada yashovchi etti million frankokanadaliklarning ilk ajdodlari Fransiyadan XVII-XVIII asrlarda ko'chib kelgan o'nlab ming aholidan boshlanadi. Lekin ularning tomirida ilk kolonistlarning hindu ayollarining, irland va shotland askarlarining (frankokanadalik qizlarga uylangan) qoni bo'lsa ajabmas.

Fransiya Kanadasini Buyuk Britaniya tortib olgandan so'ng franko-kanadaliklar Fransiyadan ajralgan holda yashab faqat tug'ilishning yuqori darajasi orqali o'zining tilini, shevasini saqlashgan, o'z urf-odatlari, musiqa va og'zaki folkloriga ega. Yuksak badiiy adabiyoti bo'lgan alohida xalqligini asrab qoladi. Ular Kvebek viloyati aholisining 80% ni tashkil etadilar. Kvebekda fransuz tili rasmiy til sanaladi. "Saxiy eski Fransiyaning" XVII asrga oid qo'shiqlari, skripka ohangidagi raqslari saqlangan hududni modernizatsiyalashgan yevropadan Fransiyadan emas, aynan Kvebekdan topish osonroq.

Etnoslararo munosobatlar. Kanada tarixi va uning ulkan geografik xilma- xilligi mamlakatda regionlarini bir- biriga qiyoslash: aholisi, tabiati, xo'jaligi, madaniyati, ba'zida yashovchilarning siyosiy harakatlaridagi tafovutlar nazarda tutiladi.

Haqiqatan ham Kanadada tabiat va qishloq xo'jaligi zonalari keng ko'lamli- Freyzer daryosi qo'yi oqimidagi subtropiklar, shaftolizor bog'lari va uzumzorlaridan tortib, Saskachevan sohillaridagi dasht bug'doy dalalaridan tundrada Makkenzi daryosi sohilidagi bug'ular yaylovlarigacha, xo'jalikda urbanizatsiyalashgan industrial Ontarioning janubidan shimoliy hindu va eskimoslarning oddiy ovchilik xo'jaligigacha faoliyat turlari mavjud. Kanadaning ayrim rayonlarida faqat fransuzcha, boshqalarida inglizcha so'zlashsalar, yana shunday rayonlar borki ularda hindu yoki eskimos tillarida gaplashadilar. Xitoyliklar mavzelari, ukrainlar qishloqlari, nemislar shaharchalarini ayni shu mamlakatda uchratasiz.

AQShda shakllangan "ommaviy madaniyat" Kanada madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkaza olmagan. Unda o'zining betakror, amerikanikiga o'xshamaydigan (unda turli madaniyatlar bozor munosobatlari va zavqlantirish industriyasi ta'sirida yaxlit narsaga aylangan bo'lsa) kanadada o'ziga xos rang- barang, ular faxrlanadigan madaniyat shakllanadi.

Kanadaliklar amerikaliklardan farqliroq "bola boshdan" mataliga rioya qiladilar. Amerikalik bolalarning qahramonlari kovboy va gangster qonunlarni mensimaydigan kishi bo'lsa, yosh kanadaliklar qahramoni Shimoliy- G'arbiy otliq politsiya bo'linmasining a'zosi kuchli ayni paytda qonun himoyachisi, yangi o'zlashtirilayotgan hududlarda tartib o'rnatuvchidir.

Kanada ko'pmillatli mamlakat sifatida o'zining o'zligini, o'ziga xosligini saqlab qolmoqchi.

Kanada ijtimoiy hayotida uzoq payt ingliz tili hukmronligini saqlab keldi. Lekin asrlar davomida frankokanadaliklarning tenglik uchun kurashi ingliz va fransuz tillarini rasman tengligini qonunlashtirishiga olib keldi.

Tabiiy Kanadani haqiqiy asoschilari hindular va eskimoslar. Hozir mamlakatda yarim million hindular va 30 ming eskimoslar yashaydi. Kanadada hindularni ommaviy qirg'inlari bo'lmagan. Bugungi kunda ularning o'z madaniyatlarini erkin rivojlantirish uchun kurashi mamlakatdagi progressiv jamoa tomonidan qo'llanilib, hukumat tomonidan tan olinmoqda.

Nihoyat aholining to'rtdan biri o'nlab etnik kam sonli guruhlardan tashkil topgan nemislar bir milliondan ko'proq, italiyaliklar bir millionga yaqin, ukrainlar- yarim milliondan ko'proq.

XX asr davomida Kanadaga Osiyo, Afrika va Lotin Amerikadan yuz minglab emigrantlar kelgan.XX asrning 80- yillarida Kanadada 400 ming golland, 300 ming xitoylik, yana shuncha skandinaviyaliklar, 260 ming yahudiy, yana shuncha polshaliklar, yuz minglab portugal, grek, vengr, hind- pokistonliklar, lotin amerikaliklar, vest-indiyaliklar, okeaniyaliklar, arablar, sobiq sovet respublikalari vakillari yashamoqda. Jamoachilik Kanadada faqat etnik va madaniy xususiyatlarini saqlab qolishini e'lon qilgan.

Savol va topshiriqlar.

1. Shimoliy Amerika tub aholisining irqiy va til klassifikatsiyasiga oid internet ma'lumotlarini to'plab, izohlab bering.
2. Shimoliy Amerika xalqlari xo'jaligi transformatsiya jarayonlarini so'zlab bering!
3. Arktika ovchilari haqida nimalarni bilasiz?
4. Shimoliy-G'arb Tinch okeani sohili hindulari xo'jaligi, madaniyatini gapirib bering.
5. Irokezlar haqida nimalarni bilasiz, ma'lumot to'plab so'zlab bering!
6. Preriya ovchi qabilalari va pueblolar etnologiyasi bo'yicha nimalarni bilasiz?
7. Amerika hindulari etnik jarayonlar ta'sirida.
8. Shimoliy Amerikada milllatlarning shakllanishini tavsiflab bering.
9. AQSh aholisining irqiy va til klassifikatsiyasini izohlab bering.
10. Kanadadagi etnoslar va etnoslararo munsobatlar qanday?

14-BOB. MARKAZIY, JANUBIY AMERIKA VA VEST INDIYA XALQLARI.

1. Mamlakatlar va xalqlar.

Geografik jihatdan Lotin Amerikasi va Vest-Indiya yaxlit birlikni tashkil etmaydi: bu Janubiy Amerika qit'asi va Markaziy Amerika – qit'alar orasidagi "tor ko'prik" va Vest-Indiya – Qarib dengizi hamda Meksika korfazidagi ko'p sonli orollardir. Ayni paytda ularni ko'p jihatlar birlashtiradi: tarixiy birlik, ushbu hududdagi davlatlarni siyosiy va iqtisodiy holati, ulardagi aholini keng tarqalgan tillari qarindoshligi va boshqalar. So'nggi til omili bilan Lotin Amerikasi atamasining kelib chiqishi ham bog'liq. Ko'rilayotgan region aholisining ko'pchiligi ispan, partugal va fransuz tilining mahalliy shevalarida so'zlashadilar. Bu tillar hindevropa til oilasining roman guruhiga mansub, ular esa lotin tilidan shakllangan. Vest-Indiya yoki Karib havzasi mamlakatlarida: ingliz, gollandtillari ham mavjud. Bu tillar Beliz, Gayana va Surinam kabi davlatlarda tarqalgan,

Lotin Amerikasi 20,5 mln km^2 quriqlikka ega. Uning g'arbida shimoldan janubga tomon cho'zilgan dunyodagi eng uzun tog' tizimi Kordilera (And), ekvotorial hududni talay qismini yer yuzidagi eng ulkan Amazoniya pasttekisligi egallagan. Iqlimi xilma - xil shimolda ekvatorial, eng janubida Olovli yerda sovuq va qahraton ob-havo mavsumlari mavjud. Eng yirik daryolari – Rio Grande AQSh va Meksika orasida chegara vazifasini bajaradi, Orinoko, Amazonka, Paranolar suv yo'li sifatida va arzon elektr quvvati olish manbaidir. Pampaning sero't tekisliklari hozirda ekainzorlarga aylantirilmoqda. Janubiy Amerikaning shimolida Amazoniya va boshqa yirik daryolar havzasida dunyodagi nam doimo yashil ekvatorial o'rmonlar – selva joylashgan bo'lib, u "Yer sayyorasi o'pkasi" atmosferani kislorod muvozanatini saqlashdagi asosiy omildir. Qit'aning qarida ko'plab foydali qazilmalar mavjud. Tuprog'i tabiiy muhitining boshqa jihatlari singari turli tuman va aksari unumlidir.

Mamlakatlar va xalqlar. Yangi Dunyoning ushbu qismi aholisi murakkab jarayonlar orqali shakllangan u antropogenez hududga kirmay, olimlarning fikricha Sharqiy Osiyodan so'ngi paleolitda o'tgan odamlar qit'aning eng janubiga qadar tarqalgan. Janubiy Amerikalik

hindularning rasa jihatidan katta mongoloid irqiga yaqinligi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Ibtidoiy odamlar qit'ani quruqlik qismini egallashlari davomida uning xilma-xil tabiiy – iqlim sharoitlariga moslasha boradilar.

Lotin Amerikasida 32 ta davlat mavjud. Ular Argentina (33,8 mln), Boliviya (7,1 mln), Braziliya (151 mln), Venesuela (20,6 mln), Gaiti (6,2 mln), Gvatemala (9,7 mln), Gonduras (5,1 mln), Dominikan Respublikasi (7,6 mln), Meksika (89,9 mln), Nikaragua (4,3 mln), Panama (2,5 mln), Paragvay (4,6 mln), Peru (22,9 mln), Chili (132 mln), Salvador (5,0 mln), Urugvay (3,1 mln), Ekvador (11,0 mln), Yamayka (2,4 mln) va yana qator mayda davlatlar va hududlar mavjud. Umumiy aholisi 450 mln kishi atrofida.

Yuqorida aytilganidek hozirda ko'pchilik mamlakatlarda ispan tilida (Meksika, Kuba, Dominikan Respublikasi, Markaziy va Janubiy Amerikaning ko'pchilik davlatlari aholisi), Braziliyada – portugal tilida, Gaitida – fransuz tilida so'zlashadilar. Qator mamlakatlarda ingliz tili keng tarqalgan (Gayana, Beliz, Yamayka va boshqalar), golland tili Surinam va Niderlandiya Antil orollarida tarqalgan. "Ikki tilli" davlatlar ham bo'lib ularning aholisi evropa va mahalliy tilda so'zlashadilar. Bunday davlatlardan biri Puerto-Riko bo'lib unda ispan tilidan tashqari ingliz tili ham ishlatiladi. Qolaversa regionning talay aholisi mahalliy hindu tillaridan foydalanishda davom etmoqda.

XVI asr boshlaridan ispanlar (konkista) istilosi, so'ng portugallar, ulardan keyin boshqa evropa davlatlari Amerikani istilo qiladi. Ayni paytda qit'adagi hindu xalqlari ibtidoiy urug'chilik jamoasining turli bosqichlarida edilar. Hindular o'zlashtirish xo'jaligi – ovchilik, termachilik – yana primitiv dehqonchilik ishlab chiqarish xo'jaligiga muhim qadam qo'ygan edilar. Faqat ayrim jamiyatlar nisbatan yuqori darajaga o'z davlatlari sivilizatsiyalarini (mayyalar, atsteklar, inklar va muisklar) yaratgan edilar.

Amazoniya selvasida olimlar hali hanuz ovchilik va termachilik bilan shug'ullanadigan unchalik yirik bo'lmagan qabilalarni uchratadilar

Konkistadorlar va mustamlakachilar. X. Kolumb va uning davomchilari Amerikaning birinchi kashfiyotchilari bo'lmagan. Ular-

dan ancha oldin Amerikaga skandinaviyalik vikinglar, ehtimol xitoy va arab dengizchilari va savdogarlar ham kelganlar. Lekin aynan X. Kolumb Yangi Dunyoni – yevropa va qolgan dunyo uchun ochib, ular orasidagi doimiy aloqani o'rnatadi. Yangi kashf etilgan erlarni egallash ancha shafqatsiz usulda olib borilgan. Ushbu voqealar zamondoshi Bartalomeo de Las Kasas (rohib va missioner) hindularni shafqatsiz qirg'in qilingani, ularni maxsus o'rgatilgan itlar bilan qiynatilgani, hindularni qullarga aylantirilganini yozgan asari mavjud. Konkistadorlar, ruhoniylar hech bir asossiz hindularni odam desa bo'ladimi degan masalani muhokama etganlar. Faqat papa Pavel III 1537 yili rasman hindular haqqoniy odamlar deb e'lon qilganidan so'ng ularni "qalbsiz jonzot" deb atash to'xtatildi.

Hindular erlarini tortib olish ularni ayovsiz ishlatishda dunyoviy va diniy hokimiyat o'zaro raqobat qilgan. Bu borada iezuitlar ayniqsa jonbozlik ko'rsatadilar.

Lotin Amerikasi davlatlaridan biri hozirgi Paragvayda iezuitlar o'zlarining teokratik (sof cherkov) davlatlarini tuzganlar. Unda hindularning ishlatishning o'ziga xos usullarini qo'llaganlar. Bu ishlar keng jamoachilikning g'azabini qo'zg'agani uchun 1767 yili ispan qiroli Karlos III iezuitlarni Ispaniyaning barcha mustamlakalaridan haydash haqida dekret chiqaradi.

Shafqatsiz munosabatga qaramasdan Lotin Amerikasidagi hindu elatlari va qabilalari saqlanib qoladi. Buni mazkur hududdagi xalqlarni ishlab chiqarish xo'jaligi dehqonchilikni bilganlari, ma'lum darajada og'ir mehnatga ko'nikmalari bo'lganligi bilan ham izohlash mumkin. Shunga qaramasdan latifundiyalarga afrikalik qullarni keltirib ishlatishga intilganlar. Qolaversa istilochilar fikricha hindular og'ir ishlar: konlarda yoki plattatsiyalarda ishlashga yaroqsiz hisoblaganlar. Shuning uchun evropalik mustamlakachilar issiq iqlimli hindu aholi kam bo'lgan hududlarga afrikalik qullarni keltirib, tropik ekinlar –shakarqamish, o'sha joyni o'zida qantdan rom ishlab chiqaradigan primitiv zavodchalar qurib, ularning barchasida qullarni ishlatganlar.

Shu tariqa asta-sekin Lotin Amerikasining uch rasasi shakllana boradi. Ispan va portugal mustamlakachilarini Amerikada katta hajmdagi oltinni egallash jalb qilgan. Hindularga bu ma'dan yaxshi

tanish bo'lgan, ular oltindan turli zeb-ziynatlar tayyorlaganlar. Afsonalardan birida chibcha qabilasi boshlig'i (hozirgi Kolumbiya) zamonaviy poytaxt Bogota shahridan 50 km naridagi Guata-vita ko'liga, badaniga oltin kukunlarini yopishtirib marosimiy cho'milgan. Marosimda ishtirok etgan hindular ko'lga oltindan taqinchoqlarni, qimmatbaho toshlarni tashaganlar. Ispanlar bu marosimni eldorado (ispancha el ombre dorido – "oltin kishi", "oltin odam") deb atashgan. Natijada afsonaviy boyliklar mamlakati eldorado haqidagi mish-mishlar konkistadorlarni orzusidagi mamlakatga aylanadi.

Tabiiy eldorado topilmagan lekin oltin, kumush va qimmatbaho toshlarni qazib olish yo'lga qo'yilib Ispaniya qiroli xazinasiga katta daromad keltira boshlaydi. Lekin asosiy boyliklar qishloq xo'jalik ekinlari plantatsiyalari (shakarqamish, paxta, kofe, tamaki) dan olingan.

Keyinchalik chorvachilik, g'alla yetishtirish, qayta ishlash va tog'-kon sanoatlari yo'lga qo'yiladi.

2. Markaziy va Janubiy Amerika hindulari. Aborigenlar va ularning tillari. Olimlarning taxminiy hisoblari bo'yicha evropaliklar kelmasidan Amerikadan 12 mlnga yaqin hindular yashagan. Mustamlaka siyosati majburlab ishlatish yangi dinga o'tkazish, turli yuqumli kasalliklarni tarqalishi Amerika tub aholisini kamayishiga olib keldi. XVIII asrdan aholini kamayishi to'htab, ma'lum muddatdan so'ng o'sish boshlanadi. Hozirgi kunda hindular soni 40 mln dan kam emas.

Hindu qabilalarini Yangi Dunyoning ulkan hududdlarida joylashishi ko'p sonli va xilma-xil tillar, madaniyatlar va etnoslarni shakllanishiga olib keladi. Tadqiqotchilarning hisoblashicha Lotin Amerikasida 2 mingga yaqin tillar va shevalar mavjud. Quyida nisbatan yirik til oilalari va tillariga, unda so'zlashadigan xalqlarga to'xtalamiz:

I. Markaziy – amerind til oilasiga yorqin sivilizatsiya yaratgan atsteklar, hamda Janubiy Meksikaning qator qabilalari va elatlari kiradi. Ular qatoriga Yukatan ya.o.da yashovchi mayyalar ham kiradi. Mayyalar yana Janubiy Meksika, Gvatemala, Beliz qisman Gonduras va Salvadorda ham istiqomat qiladilar. Ushbu til oilasiga olimlar tomonidan yaxshi o'rganilgan mishtek, sapotek va otomilar ham kiradi.

II. Chibcha – muiskalar yana bir yuksak hindu sivilizatsiyasini yaratgan xalqlardir.

III. Eng yirik hindu til oilalaridan biri – and. Ushbu til oilasiga mansub tillardan guarani Paragvay davlatidagi rasmiy tillardan biri; kechua tili unda qadimgi inklar so'zlashganlar rasman Peru, Boliviya va Ekvdorda tan olingan.

IV. Ekvatorial – tunaon til oilasi. Undagi yirik tillardan biri aymara Peru va Boliviyada keng tarqalgan. Argentinaning tub xalqlaridan mapuchelar ham shu til oilasiga mansub, bu tilga jasur araukanlar Amerika xalqlaridan o'z mustaqilligi uchun eng uzoq kurashgani kiradi.

V. Yana bir yirik til oilasi je – pano – karib. Bu tillarda Janubiy Amerikaning ko'plab xalqlari so'zlashadi. Yana ko'plab til oilalari va ularda gaplashadigan xalqlar hamda qabilalar mavjud, ularni oddiy sanab o'tish ham ko'p joyni talab qiladi.

Yuksak rivojlangan madaniyatlar va davlatlar. Markaziy Meksikadan to Gvatemala va Nikaraguagacha hududlarda Amerikadagi eng qadimgi sivilizatsiyalar yaratilgan. Meksika ko'rfaziga yaqin hududlarda ko'plab arxelogik madaniyatlar jumladan mil. av. III-I ming yilliklarga oid olmek madaniyati yodgorliklari topib o'rganilgan. Ushbu yuksak rivojlangan jamiyatlar uchun xo'jalik asosi qo'l – so'qa (motiga) dehqonchiligi bo'lgan.

Mayyalar. Qadimgi mayyalar tarixi milodiy I ming yillikning katta qismini va II ming yillikning dastlabki asrlarini o'z ichiga oladi. Mayyalar yuzdan ortiq shahar-davlatlar asoschilari bo'lib eng mashhurlari Palenke, Chichen Itsa hozirgi Meksika, Takal hozirgi Gvatemalada, Kopan – Gondurasda vujudga kelib bizga qadar ularning harobalari saqlangan. Tadqiqotchilarning fikricha bu shaharlar milodiy IX-X asrlarda toltek qabilalari hujumiga uchrab vayron bo'lgan. Yukatan ya.o. da mayya – toltek davlati tuzilib, u XV asr o'rtalarida parchalangan. Bu holat ispan konkistadorlariga o'lkani bosib olishini engillashtiradi.

Arxeologlar mayyalarning qadimgi shaharlari harobalarini: monumental inshootlar, saroylar, ibodatxonalar va h.k. larni topib o'rganishda davom etmoqdalar. Shaharlarni hokimlar va kohinlar boshqarganlar, ular savdogarlar, hunarmandlarni bo'ysundirib ham-

da ko'p sonli qullarga ega bo'lishgan. Mayyalar madaniyatining muhim yutuqlaridan biri o'z davrining eng aniq taqvimlaridan birini (365 kunli) yaratishlari bo'lgan. Mayyalar orginal ieroglif yozuvini kashf etishgan.

Atsteklar. Atsteklar davlati XIV asrdan - XVI asrning boshlariga qadar Markaziy Meksikada hukm surib uning poytaxti Tenochtitlan Teskoko qo'li (hozirgi Mexiko o'rni) da joylashgan. Shahar sohil bilan ko'prik va to'g'onlar bilan bog'langan. Rivoyatga ko'ra atsteklarga shahar bunyod etilgan joyni tumshug'ida ilon ushlab turgan burgut ko'rsatgan. Bu ushbu orolda ezgulik doimo yovuzlikni engishi ramzi sifatida qabul qilinib, unda bo'lajak poytaxtni qurishgan. Hozirgi Meksika bayrog'idagi ilonni tishlab turgan burgut aynan rivoyatdan olingan ramziy tasvirdir.

Atsteklar hukmdori Itskoatl XV asrning 20-yillarida uch shahar ittifoqi yo'lboshchisiga aylanib atsteklarni ko'shni shaharlar hukmidan ozod etadi. Uning vorislari ayniqsa Moktesuma II davrida Atsteklar podsholigi o'z taraqqiyoti cho'qqisiga erishadi. Atsteklar oliy hukmdori tlakotekutli ("Erkaklar sardori") nomini olib eng avval atsteklar harbiy sardori, qolaversa ularga bo'ysunadigan qabilalarning etakchisi ham bo'lgan. Atsteklar butun o'rta Meksikani, unda yashaydigan qabilalarni bo'ysundirganlar.

Atsteklar madaniyati Meksikada yashagan tolteklar, mishteklar boy an'analarini o'zida birlashtirgan xo'jaalik qo'l dehqonchiligi va hunarmandchilikka asoslangan edi. Makkajo'xorining bir necha navini yetishtirganlar, dukkakli ekinlar, qovoq, qizil va yashil qalampir, pomidor, paxta, tamaki, texnik ekinlar yetishtirganlar. Agavaning bir turi magey ekib uning tozalangan tolalaridan mato va qog'oz, sokidan shirinliklar va alkogol ichimlik pulke tayyorlaganlar. Dastlab tamaki chekish, pulke ichishga turli marosimlardagina ruhsat berilgan.

Atsteklar sopoldan turli buyumlar yasashda, sangtaroshlikda, zargarlikda (kumush, oltin va misdan zeb-ziynatlar yasashda) yuksak mahoratlarga erishganlar. Ibodatxonalar va boshqa me'morchilik inshootlarini qurishda adobe – xom g'ishtdan foydalanganlar. Shaharlari to'g'ri burchakli reja bo'yicha qurilgan.

Erkin atsteklarning oilalari kalpuli deb nomlangan yigirmata o'ziga xos jamoalarga birlashib ular o'z ibodatxonalari, zaxira

er maydonlariga va jamoa boshqaruviga ega bo'lishgan. Kalpuli boshlig'i erlarni taqsimlagan, jamoa omborlari, oqsoqollar kengashini boshqargan.

Atsteklar hayoti urushlar bilan bog'liq bo'lgan. G'olibona urushlar ularni kuchli qabilalar ittifoqi tuzishlari imkon bergan. Lekin bu ularni do'stlarini sonini oshirmagan. Ispan konkistadori Ernan Kortes ushbu vaziyatdan foydalanib atsteklarga qarshi qabilalarni ularga qarshi qo'llab Tenochtitlan va mamlakatni bosib olgan.

Atsteklar taqvimi mayyalarnikiga o'xshash. Ularda yaxlit yozuv tizimi shakllanib ulgurmagan. Atsteklar rasmli yozuvdan foydalanganlar – unda iergliflar va qisman fonetik belgilar bo'lgan.

Inklar. Janubiy Amerikaning tog'li g'arbida evropaliklar kelmasidan avval qadimgi Amerikaning yirik davlati – Inklar imperiyasi Tauantinsuyyu (kechua tilida "Dunyoni to'rt tomonini birlashtirgan") tuzilgan. Bu davlat And tog'larining shimoliy va markaziy qismidagi keng hududlarni, shuningdek unga tutash tekisliklarni egallagan. Inklar davlati markazlashgan monarxiya shaklida bo'lgan. Uning hukmdori oliy inka (kechua tilida Sapa inka) edi. Davlat tili kechua hukmdor toifa tili bo'lib mahalliy aholi turli tillardagi qabilalardan iborat edi. Inklar istilo qilgan aholini assimilyasiyalash siyosatini olib borganlar.

Imperiya poytaxti Kusko shahri 1100-yillarda kechua qabilalari markazi, yuqori madaniyat yana ham qadimiy shaharsozlik an'analariga tayangan rayonda bunyod etilgan. Inklar jamiyatining xo'jalik asosini dehqonchilik, uning terrasa usuli va sug'orishga asoslangan turi bo'lgan. Uning o'ziga xos jihati kartofel yetishtirish edi. Inklar butun Amerikada yagona lama va alpakalarni boqish chorvachiligiga asos solganlar.

Inklarda mato to'qish, metallar (oltin, kumush, mis, ruhga) dan zargarlik buyumlari yasash, jezdan mehnat va jang qurollari yasash yo'lga qo'yilgan. Qurilishda yirik toshlardan ularni bog'lovchi vositasiz foydalanganlar. Savdoni davlat qo'llamagan oziqlar va boshqa narsalar zaruratga qarab taqsimlangan, mamlakatdagi ko'plab tosh yo'llar a'lo darajada saqlanilishiga erishilgan.

Mahalliy jamoalar (zodagonlar, amaldorlar va jangchilardan tashqari) davlatga natural soliq to'laganlar, mehnat majburiyati

o'taganlar, ko'priklar, yo'llar, uylarni qurish va ta'mirlashda qatnashganlar. Eng huquqsiz va ishlashga mahkumlar yanakunalar bo'lib, ularning hayoti qullarnikidan deyarlik farq qilmagan.

Inklar haqiqiy yozuvni bilmaganlar. Ulardagi "kipu" – "tugunli xat" dan turli ma'lumotlarni bir joydan ikkinchi joyga etkazishda foydalanganlar. Tugunli xat aksari soliq yig'ishda qo'llanilgan.

Muisklar. Muisklar sivilizatsiyasi yagona davlat shaklida birlashmasdan tarqoq shahar davlatlar ko'rinishida bo'lib, ularga alohida qabila guruhlari bo'ysungan. Hududi Sharqiy Andning vohalari, hozirgi Kolumbiya erlari. Bu hududdagi shaharlardan Bagota nisbatan kuchlisi bo'lib 20 ga yaqin ittifoqchi va bo'ysundirilgan qabilalarni boshqargan. Uning aosiy raqibi Tunxa davlati bo'lgan. Muisklar davlatlarida hokimiyat urug' zodagonlari, harbiy ayonlar va kohinlarga tegishli edi. Ularning har birini oliy hukmdor boshqargan. Muisk davlatlari orasidagi dushmanlik ispanlar istilosini engillashtiradi.

Mustaqillik uchun kurash. Lotin Amerikasini ispan va portugallar egallashlari davomida hindu qabilalari tomonidan qattiq qarshilikka uchraydilar. Shulardan inklar tog'larda qarshilik markazlari yaratib kurashni davom ettirganlar. Peruda Xose Gabriel Kondorkanki – hindu kechua boshchiligida 1780-1781 yillari qo'zg'olon bo'lgan. Uni ink Tupak Amaru deb atashgan. Hozirgi Chili hududida yashagan hindu-araukanlar ispanlarga qarshi 1536-1882 yillari kurashni to'xtatmaganlar. Bu urushlar tarixga Araukan urushlari nomi bilan kirgan.

Vaqt o'tishi bilan kurash usullari o'zgardi. Hindularning ayrim vakillari ma'lumotli bo'lib, jamiyatda yuqori mavqelarga erishadilar. Ulardan biri Benito Xuares – atstek qabilalaridan biriga mansub, 1858-1872 yillari Meksika prezidenti lavozimida bo'lib, qator demokratik islohotlar o'tkazishga erishib mamlakatda hindular ahvolini birmuncha engillashtirishga erishadi.

Mustamlakachilikka qarshi kurashda qochoq negr-qullar ham ishtirok etganlar. Lotin Amerikasining turli mamlakatlarida ularni marunami, simarronami, mambi deb atashgan. Qochoq qullar birlashib, o'tish murakkab bo'lgan joylarda o'z manzilgohlarini qurib mahalliy hindular bilan do'stona munosabatda bo'lishgan. Har bir

manzilgohni (kilombo yoki makambo) saylangan yo'lboshchi, sardor boshqargan. Bu manzilgohlar birgalikda Palmaris respublikasini tashkil etib u 70 yil hukm surgan. Isyonchilar ispanlarning 25 ta hujumini qaytarganlar, lekin 1696 yil qo'zg'olon bostiriladi.

3. Mustaqil davlatlarni tuzilishi.

Rasa va etnik guruhlar. Lotin Amerikasidagi tarixiy jarayon bu hududdagi aholini shakllanishida quyidagi o'ziga xoslikni, aholining barcha uchta tarkibiy qismini – hindular (mongoloid), evropa mamlakatlaridan ko'chib kelganlar (evropeoidlar) va afrikaliklarni (negroid) ni birgalikda yashashga, faoliyatning turli sohalarida hamkorlik qilishga majbur etgan. Bu o'zaro hamkorlik birinchidan biologik aralashuvga (metislar); ikkinchidan tillarni ispan va portugal tillarini hindular va afroamerikaliklar tillari bilan o'zaro ta'sirini; uchinchidan turli xalqlar, qabilalar, etnik guruhlar orasida mustahkam aloqalarni o'rnatilishiga olib keladi.

Oq tanlilar va hindulardan tug'ilganlar metislar deb nomlangan. Metislar aksari qaram dehqonlar, hunarmandlar, mayda savdogarlar, mayda xizmatchilar bo'lganlar. Ular bilan yaqin guruh oq tanlilarni negrlar bilan aralashuvidan tug'ilganlar mulatlar bo'lgan. Mulatlardan qullik asoratidan ozod etilganlar yoki pul evaziga erkinlik olganlar aksari hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish sohasida shug'ullanganlar. Hindular va afroamerikaliklar nikohidan tug'ilganlar sambolar bo'lishgan. Ularning bir qismi xizmatkorlar, qolganlari farroshlik qilganlar.

Mustamlakalarda tug'ilgan oq tanlilarni Lotin Amerikasida kreollar deb atashgan. Ularning ayrimlari tomirida hindu yoki negr qoni bo'lgani ham ehtimol. Mustamlaka tizimidagi muhim lavozimlarga madrid va lissabon hukumatlari metropoliyadan yuborishga harakat qilganlar. Ayni paytda kreollarga past lavozimlarni ravo ko'rganlar xalos. Kreollarga faqat latifundistlar emas ko'p sonli ziyolilar: vrachlar, o'qituvchilar, advokatlar, yuqori bo'lmagan lavozim egalari ham kirganlar. Bu kishilar asta-sekin o'zlarini ispanlar yoki portugallar deb hisoblamay boradilar. Sababi kreollarni ajdodlari qabri, xayotlari o'zlari yashayotgan hudud, mamlakat bilan bog'liq edi.

Etnorasa aralashuvi jarayonlari regiondagi mamlakatlarda yashayotgan aholining bugungi tarkibida namoyon bo'lmoqda. Hozirda

hindular aholining 15% ni tashkil etsa, metislar 55%, afroamerikaliklar 10%, qolgani kreollar va evropadan keyin ko'chib kelganlardir. Xususan mustamlakachilikning so'nggi davrida Meksika va Chilida metislar 80%, Paragvayda 90% bo'lganini ta'kidlash lozim. Oq tanlilar xususan kreollar Argentinada, Urugvayda va Kosta-Rikada ko'pchilikni tashqi l etidai.

Birgalikda yashash, faoliyat jismoniy aralashuv hindu-ispan va hindu-portugal ikki tilligini vujudga keltiradi.Paragvayning ko'pchilik aholisi ikki tilda ispan va guaranida so'zlashadilar. Braziliyaliklarning aksari ko'pchiligi portugal tilining mahalliy shevasida hamda hindu tillaridan birida (aravak, tupi-guarani, karib va boshqalarda) so'zlashadilar.

Yangi davlatlar va millatlar. Lotin Amerikasida birinchi bo'lib fransuzlar mustamlakasi Gaiti 1790-1804 yillardagi ozodlik kurashi orqali mustaqillikka erishdi. Qo'zg'olon rahbari Tussen Luvertyur bo'lib Gaiti respublikasi tuziladi. Sobiq qullar davlatida fransuz tili davlat tiliga aylanadi.

XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi choragida Lotin Amerikasida yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, yangi millatlarni shakllana boshlashi davri bo'ladi. Mustamlakachilikka qarshi kurashda Simon Bolivarning (1783-1830) hissasi katta bo'lib, u qator davlatlardan ispan mustamlakachilarini chiqib ketishga majbur etadi. Mustamlakachilik tugatilishi davomida qulchilik ham bekor qilina boradi. Qulchilik nisbatan uzoq, XIX asrning oxirigacha Braziliya, Kuba va Yamaykada saqlanadi. Qulchilikni bekor qilinishi Lotin Amerikasida ichki birlashuv (konsolidatsiya) jarayonlarini tezlashtiradi.

Etnik jarayonlar va yangi millatlar taraqqiyoti. Yangi millatlar va davlatlarning shakllanishi lotin amerikasi jamiyatlarini murakkab etnoslararo muammolardan xalos eta olmaydi. XX asrning mashhur tadqiqotchilaridan biri Klod Levi Stros Braziliya hindularini o'rgangan olim "hindular jamiyatlari ikki yo'l bilan: assimilyasiya (aralashuv) orqali braziliya jamiyatiga singib ketish yoki ularni qirilib ketishi". Birinchi usulda hindu jamiyatlari yo'qolgan lekin odamlar saqlanib qolgan. Ikkinchisida jamiyatlar ham odamlar ham yo'q bo'lgan. Mana shu ikkinchi usul Braziliyada birinchisiga

nisbatan ancha keng tarqalgan.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida yangi yirik zamonaviy millatlarni shakllanishi ichki yaxlitlikni yaratishni anglatmagan. Bu jarayonga ta'sir etuvchi omillardan biri shaharlarning yuksalishidir. Millatlar taraqqiyoti ularning milliy ongini yuksalishiga umuman olganda ijobiy ta'sir etadigan shaharlar (sanoat, savdo, maorif, milliy professional madaniyat markazlari), ba'zida shahar va qishloqlar orasida keskin tafovutni yaratadi. Bu jihatlar ho'jalik mashg'ulotlarida, professional madaniyatni o'zlashtirishda, maorifda, butun hayot tarzida, qishloq aholisining kambag'alroq va imkoniyatlari cheklanganida kuzatiladi. Qishloq aholi esa aksari hindular va metislar bo'lgan. Bu hildagi vaziyat masalan Gvatemalada yuzaga kelgan. Uni bekorga "hindularning qishloq mamlakati" deyishmaydi. Gaucholar ham aksari qishloqlarda yashab, ular Argentina, Urugvay va Braziliyaning janubidagi o'ziga xos va assimilyasiyalashgan etnik guruhdir. Gaucholar ispanlar, portugallar va hindularning aralashuvidan vujudga kelib asosiy mashg'uloti ko'chma chorvachilik yoki yirik chorva fermalarida cho'ponlik bo'lgan. Gaucholar yorqin etnomadaniy xususiyatlarga ega bo'lib ularni: otda yurishsiz, lasso uchida xalqasi bo'lgan arqonsiz va gitarasiz tasavvur etish qiyin.

Shaharlarni va shahar madaniyatini yuksalishi Lotin Amerikasida bugunga qadar davom etmoqda. Xususan Chilida shahar aholisi 70% dan oshdi. Boshqa mamlakatlar aholisi taraqqiyotida bu jarayon yaqqol kuzatilmoqda.

4. Regionlar, xalqlar, madaniy xususiyatlar xo'jalik madaniy tiplar.

Lotin Amerikasi xalqlari xo'jalik mashg'ulotlari regional xilmaxilligi bilan xususiyatlanadi. U yoki bu joyda iqtisodning arxaik turlari – ov, termachilik, primitiv dehqonchilik, chorvachilikning mahalliy turlari (masalan lama va alpaka boqish) uchrab turadi. Ayrim hindu qabilalari yog'ochni yog'ochga ishqalab olov olish usulidan hanuzgacha foydalanib kelmoqda. Braziliyada va Venesueladagi ayrim o'rmon qabilalari sarbakandan – puflab sanchqi o'qni otadigan miltiqlarni qo'llashadi. Amazoniya havzasida hindulardan o'rganilgan garpun (sanchqi) dan timsox ovlashda foydalanish, unda garpun paykoniga bog'langan arqon yaralangan hayvonni suvga

cho'kishiga yo'l qo'ymaydi. Pampa aholisi – otliq ovchilar bolas – uchiga yumaloq toshdan sharlar mahkamlangan quroldan foydalanadilar. Venesueladagi o'rmon hindulari haligacha daraxtlarni kesib, kundakov qilib yondirib, ochilgan yerda dehqonchilik qilishning qadimgi usulini qo'llashmoqda.

Zamonaviy dehqonlar (hindular, metislar, ba'zida kreollar ham) hozirga qadar qadimgi mehnat qurollaridan foydalanib kelmoqdalar. Jumladan Peruning dehqon kechualari, erni ekinga tayyorlash uchun ensizgina lopatka (belkurakdan), motiga (so'qa), yerdagi kesaklarni maydalash uchun oxiri yo'g'on tayoqdan, don yanchish tayog'i, o'roq va boshqalardan asrlar davomida foydalanib kelmoqdalar. Dehqonlar mehnat qurollaridan biri machete deb nomlangan chopqi Meksika, Kuba boshqa mamlakatlarda shakar- qamishni yig'ishda qo'llaniladi. Makka, kofe va boshqalarni maydalashda kelidan (pilon) foydalanib uni daraxtning qattiq navlaridan tayyorlashadi.

Lotin Amerikasi o'ziga xosligidan biri undagi qishloq xo'jaligini ma'lum ekinlar yakkahokimligiga asoslanganidir.Jumladan Braziliya va Kolumbiyada kofe, Gaiti va Kubada – shakarqamish, Markaziy Amerika mamlakatlari – banan, Argentina va Urugvayda – go'sht, teri, jun va g'alla, ayniqsa bug'doy yetishtirishda etakchilik qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki xo'jalikning bir tomonlama rivojlanishi kundalik turmushga, millatlar, elatlar, etnik guruhlarni hayot tarziga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Sanoatni o'sishi – birinchi navbatda Meksika, Braziliya, Argentina va yana qator mamlakatlarda shahar aholisini shakllanishiga uning o'ziga xos turmushi, joylashishi va madaniyatini vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi. Lekin ko'pchilik mamlakatlarda uzoq davrlar tabiiy boyliklarni qazib olish (Meksika, Venesuela, Boliviyada, Peruda – neft, ayrim mamlakatlarda o'rmon bilan bog'liq yog'ochsozlik) rivojlangan edi.

Manzilgohlar va uy-joylar. Xalq madaniyatining an'anaviy unsurlari shaharlarda emas qishloq joylarida (latifundistlar hovlilari - estansiyalar, dehqonlar qishloqlari - pueblo) ko'rish mumkin. Selva va pampada, tog'larda va dengiz sohillarida daraxtlar ustida chaylalarni uchratish mumkin. Palma yaproqlari qoplangan chaylalar, taxtalardan qoplangan chaylalar, bir xonali xom g'ishtdan uy-

lar, pishiq g'ishtdan bunyod etilgan unchalik katta bo'lmagan uylar. Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi qishloq uylari yog'ochdanmi yoki g'ishtdan bo'lishidan qat'iy nazar Ispaniyadan o'zlashtirilgan narsa ichki hovli (potio) bo'lishi bilan xususiyatlanadi. XX asrning boshiga qadar dehqonlar uylarida krovat bo'lmagan ayrim uylarda hozirga qadar gamaklardan foydalanib kelishmoqda.

Taomlar va ichimliklar. Keng ommaning taomlari asosini o'simliklardan olingan mahsulotlar tashkil etadi. Go'sht kam, odatda bayramlarda iste'mol qilinadi. Jumladan yamayka, yamaylar taomlarida er ildizli batat, manioka, yams, shuningdek gurunch, dukkaklilar, bananlar asosiy o'rinni egallaydi. Makkadan (mais) taomlar deyarlik barcha hududlarda tarqalgan. Makka unidan non (tortilya) yoki engil qovurilgan makka uni qilingan. Lotin Amerikasida ko'plab navlarga ega kartofeldan ham turli taomlar qilishadi. Boliviyadagi aymaralar faqat oq emas, sariq, qizil, siyohrang va xatto qora kartoshka ham etishtiradilar. Lotin Amerikasi mamlakatlari aholisi uchun xususiyatli yana bir mahsulot qirilgan maniokadan (kasabe) nondir. Ichimliklardan kofe, shakarqamish soqi (guarapo) keng tarqalgan. Paragvay, Argentina va boshqa mamlakatlarning ayrim hududlarida hindular (paragvay) choyi yoki mate ichiladi. Uni yerba – mate past bo'yli doimo yashil, barglarida kofein, tanin, limon kislotasi va boshqa moddalar bo'lgan buta barglaridan tayyorlashadi. Mateni tayyorlash butun bir marosim. Mate barglaridan kukunni qaynoq suvga solib, ichimlikni maxsus naychadan ichishgan.

An'anaviy kiyimlari. Bizning kunlarimizda lotin amerikaliklar fabrikalarda tikilgan evropa-amerika tipidagi zamonaviy moda standartlariga javob beradigan kiyimlarni kiyishadi. Lekin bayramlarda, turli marosimlar o'tkazilayotganda region aholisi bichimi, matosi, ranglari, gullari ajdodlari hindu, negrlar yoki kreollar kiygan kiyimlarga o'xshash liboslarni kiyishadi. Xususan Gvatemalaning qishloq ayollari uzun, rang-barang gulli matodan uzun yubka va erkin, kashtalab tikilgan kofta kiyishadi. Erkaklar kiyimi – kurtka, tizzasigacha bir xil rangda tikilgan shim, ishton. Ko'plab Lotin Amerikasi xalqlari milliy kiyimlaridan biri sarape yoki poncho –elkaga tashlab yuriladigan issiq matodan to'rtburchak engsiz, faqat boshni kiritish uchun o'rtasida teshik qoldirilgan kiyim ham mavjud. Keng

enli shlyapa – sambrero, palma yaproqlaridan to'qilgan. Poyafzal – teridan, lekin Venesuelada to'qilgan (ip va ingichka arqonlardan) oyoq kiyimlari ham mavjud.

5. Ma'naviy madaniyatdagi xususiyatlar.

Dinlar va diniy tasavvurlar. Lotin Amerikasining ko'pchilik aholisi katolik diniga mansub. Amalda diniy tasavvurlarning tarixi va zamonaviy holati juda murakkab hamda xilma-xildir. Amerikaning qadimgi sivilizatsiyalashgan aholisi dinlari politeizm (ko'p xudolik) bo'lgan. Xususan atsteklarda asosiy xudolardan biri urush ilohi bo'lgan. Odil sudlov ilohi, taqdir xudosi, yomg'ir, suv va momaqaldiroq va nihoyat "uchar ilon" – shamol va havo ilohi. Kohinlar homiysi ham panteonda muhim o'rin tutgan. Insonlarning oliy ilohi quyosh (Inta), momaqaldiroq (Ilyarpa), oy (Kilya) xudolari bo'lgan. Oliy hukmdorlarni quyosh kultiga bog'lab, ularni "quyoshning o'g'illari" deb atashgan. Qadimgi kultlar marosimlarida qurbonliklar xususan odamlarni qurbon qilish ham bo'lgan.

Xristianlikning tarqalishi qadimgi diniy tasavvurlarni to'liq yo'qota olmagan. Jumladan madonna (Bibi Maryam) siymosi o'tmishdagi atsteklar dehqonchilik ilohi Tanatsin o'rnida e'zozlana boshlanadi. Meksikada milliy avliyo Isoning onasi Mariya Guadalupa sanaladi. Uning kunida (12 dekabr) Mexiko shahri yaqinidagi XVI asrda qurilgan ibodatxonaga o'n minglab ziyoratchilar keladilar. Ibodatxonalarda o'tkaziladigan marosimlarda niqob tutib raqsga tushish ham atsteklar udumlaridan o'tgan. Hindu va xristian marosimlari ba'zida bir-birini to'ldiradi. Braziliyada nikoh har doim cherkovda bitiladi, lekin to'y bayrami va ziyofatga afsungarni ham taklif etishadi. Aytishlaricha u yoshlarni "yovuz ruhlardan", "yomon ko'zlardan" asraydi.

Lotin Amerikasining qator mamlakatlarida turli afrika dinlarini qo'shilishidan, shuningdek xristian dini ta'siri ostida "vodu" – ta'limoti vujudga kelgan. Vodu (ruh, iloh) yovuz ruhlardan asrashi ham mumkin, yoki kishiga yovuz ruhlarni yo'naltirishi ham aytiladi.

Ayrim hindu qabilalarida qabila dinlari, shomonlik va h.k.lar saqlangan.

Bayramlar, udumlar. Xalq hayotining doimiy yo'ldoshi qo'shiqlar va raqslardir. Musiqa asboblari ichida urib chalinadigan

nog'oralarning turli xillari, meksika marimbasi, puflab chalinadiganlari (kechua naylari), torli-gitaralarning turli xillari: kubaliqlarni uchta va ikki qatorli torli, venesuelaniki – to'rtta, boliviyaniki 5ta ikki torlilari mavjud. Meksikada yarim daydi xalq orkestrlari (maryachi) arzimagan pulga oilaviy tantanalar, xalq bayramlari va tantanalarda musiqa chaladilar. Kuba va yana qator Lotin Amerikasi mamlakatlarida qo'shiqchilar musobaqalari ommalashgan, unda qo'shiqchilarning o'zlari o'n qatorli (desima) yoki to'rt (kvartet) she'rlarni to'qib, gitarada musiqa bastalab ijro etadilar.

O'zlarining odatiy, etnik o'ziga xos ba'zida – madaniyatning arxaik ko'rinishlarini hindu, afroamerikalik yoki kreollarning qishloqlarda yashayotgan aholisi saqlab qolgan. Ayni paytda shunday madaniyatning ommaviy turlari borki ular shahar hayoti bilan ko'proq bog'langan. Bu lotinamerikaliklarning karnavallari, ulardan eng mashhuri Braziliya va Kubada o'tkazilgan. Karnaval evropaliklarning qadimgi dehqonchilik bilan bog'liq udum-marosimlaridan shakllangan. U turli raqs studiyalarining yorqin kiyimlarda o'z raqslarini namoyishi, musobaqasidir. Har yili faqat g'olib raqs maktabi emas, karnaval "qirolichasi" ham tanlab e'lon qilinadi.

Ayrim lotin amerikasi mamlakatlarida – Venesuela, Meksika, Kolumbiya, Peru – Ispaniyadan keltirilgan tomosha buqalar bilan jang (korrida) lar o'tkaziladi. Unda tomosha so'ngida matador o'z xanjari bilan buqani bir zarba bilan o'ldirishi lozim. Panamada qon to'kilmaydigan korrida o'tkazilsa, ayrim mamlakatlarda rodeo – yosh buqalar ustida uzoqroq o'tirish musobaqalari o'tkaziladi.

Professional ma'naviy madaniyat asoslari. Lotin Amerikasidagi barcha mamlakatlar, barcha xalqlar tillari, madaniyatlari, kundalik hayot tarzlari o'zida ko'plab ta'sirlar, aralashishlar, o'zaro madaniy aloqalarni unsurlarini namoyon etadi. Bu madaniyatning xalq og'zaki ijodi (folklor) asosida shakllangan professional ma'naviy madaniyat: yozuvchilar, kompozitorlar, artistlar va boshqa milliy badiiy ijodiy intelligensiya vakillari tomonidan yaratiladi. Milliy professional madaniyatni yuksaltirishning muhim omillaridan biri – xalq maorifini yuksaltirishdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki xalq maorifining darajasi turli mamlakatlarda turlicha, faqat Kubada savodxonlik darajasi 100%, Gaiti, Venesuela, Ekvadorda esa aksin-

cha savodsizlar darajasi yuqori. Lotin Amerikasining taraqqiy etgan mamlakatlari Meksika, Argentina, Braziliyada xalq ta'limi darajasi yevropa mamlakatlaridan ancha past.

Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi xalq ta'limi rivojlanishi ulardagi aholining turli xilligidir. Bu mamlakatlar mustaqillikka erishganiga qadar hindular yoki negr-qullarni maktablarda o'qitish haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Keyinchalik sanoatning rivojlanishi kvalifikatsiyasi yuqori ishchilarga bo'lgan talab, maktab ta'limini yo'lga qo'yishni taqozo etdi.

Badiiy adabiyot va boshqa ijodiyot turlari. Ko'plab mamlakatlarda shakllangan milliy ziyolilar, milliy adabiyot, milliy teatr san'ati va madaniyatining boshqa turlarini yaratdilar. Bu jarayon ancha oldin boshlangan. Kechua tilida XVI asrda ilk drama "Apu – Olyantay" yozilgan. Unda sarkarda Olyantayning go'zal Kosi Koylyur Oliy Inkaning qiziga muhabbati tarannum etiladi. Inka quyoshning o'g'li sanalib, uning qizini oddiy kishi bilan nikohini tasavvur ham etib bo'lmasdi. Bunday nikoh o'lim bilan jazolanishi ko'zda tutilgan. Lekin Kosi Koylyur Olyantayni his-tuyg'usiga ijobiy javob beradi. Oliy inkadan qizini qo'lini so'rash natija bermaydi. Sarkarda tog'ga qochib o'z baxti uchun kurash boshlaydi. Ushbu drama hozirga qadar o'z ommabopligini yo'qotmasdan hindular bayramlarida namoyish qilinadi. Adabiyot tiliga aylangan tillar orasida guaranini ko'rsatish mumkin. Ushbu tilda XX asrning 30-yillarida Ortis Gerrero o'z she'rlarini bitgan. Xulio Karrera (1908-1954) guaranilar teatriga asos solgan, uning qalamiga mansub "Baxtsizlar ochligi" dramasi mavjud.

Lotin Amerikasida XIX asrda milliy adabiyotning keng tarqalgan turi kostumbrizm (ispancha - odat) yo'nalish vakillari o'z asarlarida oddiy, o'z mamlakatlari aholisining kundalik hayotlarini tasvirlab shu orqali milliy muammolar, milliy ongni shakllanishi masalalarini ko'tarib chiqqanlar. XX asrda butun dunyoga braziliyalik yozuvchi Jorj Amaduning romanlari, chililik shoir Pablo Neruda poemalari, kolumbiyalik Gabriel Garsia Markesning asarlari tarqalgan.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki lotin amerikasi xalqlari dunyo etnik tarixiga va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Savol va topshiriqlar.

1. Markaziy, Janubiy Amerika va Vest-Indiyadagi aholining rasa va til tavsifi qanday? Xaritadan ko'rsatib hikoya qiling.
2. Atsteklar, mayyalar, kechualar, xo'jaligi va moddiy madaniyatini so'zlab bering.
3. Etnik jarayonlar va yangi millatlarning shakllanishi qanday kechgan, internet ma'lumotlari asosida tayyorlaning!
4. Aholi xo'jalik-madaniytiplaridagi transformatsiyalari qanday kechmoqda?
5. Aholining turar joylaridagi an'anaviylik va zamonaviylik.
6. Aholining taomalari va ichimliklari haqida nimalarni bilasiz?
7. Janubiy Amerikaliklar kiyimlaridagi o'ziga xos xususiyatlar.
8. Konfessial tarkib va ma'naviy-madaniyatdagi o'ziga xosliklarni gapirib bering.

15-BOB. G‘ARBIY, SHIMOLIY, MARKAZIY VA JANUBIY YEVROPA XALQLARI

Ushbu bobda Xorijiy yevropaning hind-evropa til oilasidagi asosiy german, roman guruhlariga mansub, ural til oilasining fin-ugor guruhidagi ayrim etnoslar haqida so‘z yuritiladi. Xorijiy yevropaning ushbu qismiga Finlyandiya (5,2 mln), Shvetsiya (8,8 mln), Norvegiya (4,5 mln), Daniya (5,3 mln), Islandiya (0,2 mln), Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo‘shma qirolligi (59,7 mln), Irlandiya (3,9 mln), Niderlandiya (16,0 mln), Belgiya (10,3 mln), Fransiya (59,7 mln), Ispaniya (39,9 mln), Portugaliya (10,0 mln), Italiya (57,5 mln), Malta (0,4 mln), Gretsiya (10,6 mln), Shveysariya (7,2 mln), Avstriya (8,1 mln), Germaniya (82 mln),Vengriya (9,9 mln), Rumыniya (22,3 mln) va Albaniya (3,2 mln). Ulardan tashqari ushbu regionga bir qator mitti davlatlar Lyuksemburg, Monako, Andorra, San-Marino, Vatikan va Lixtenshteynlar kiradi.

1. Yevropa aholisining shakllanishi. Etnik tarixining asosiy bosqichlari.

Yevropa antropogenez inson paydo bo‘lgan va shakllangan hududga kirmasada, unda ilk odamlar bundan 1 mln yil oldin yashay boshlaganini taxmin qiladilar. Dastlab yevropaning janubiy va markaziy qismlarida odamlar yashay boshlagan. Neandertallar, kromanon kishisining topilishi qit’ada o‘rta va so‘nggi paleolitda odamlarning yashaganligini aniq tasdiqlaydi. So‘nggi paleolitda (40-12 ming yilliklarda) qit’aning deyarlik barcha hududlarida aholi yashagan. Mezolitda yevropaning shimolida ham odamlar yashay boshlagan. Aynan mezolitdan aholi xo‘jalik faoliyatida tafovutlar ham shakllanadi. O‘rta er va Boltiq dengizi bo‘ylarida baliqchilik bilan, Shimoliy dengiz sohilida – dengiz termachiligi, ichki rayonlarda esa ovchilik va termachilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Yevropaning ayrim viloyatlari aholisi nisbatan erta ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘ta boshlaydilar. Aynan o‘sha paytda ayrim baliqchilar guruhlari itni va to‘ng‘izni xonakilashtiradilar. Shimoliy Gretsiyada dehqonchilik-chorvachilik manzilgohlari boshqa joylarga nisbatan erta-hozirdan 9 ming yillar oldin vujudga keladi. m. av. VI-V ming

yilliklarda yevropa aholisi ma’danlarni eritishni bilganlar. M. av. I ming yillikda esa temir asri boshlanadi.

Yevropaning qadimgi aholisi til tavsifi. Qadimgi evropaliklar qanday tillarda so‘zlashganini aniqlash mushkul. Ilk qabilalar keyinchalik m. av. III-II ming yilliklarda hududga kelgan hindevropa tilli xalqlar bilan aralashib ketganlar. Eng qadimgi hind-evropa tillariga mansub bo‘lmagan til faqat basklarda Ispaniyaning Kataloniya viloyatida saqlanib qolgan. Hindevropa tilli aholidan esa yevropaga dastlab kelganlar pelasglar, ellinlar, italiylar va keltlar bo‘lgan. M.av. III-II ming yilliklarda yevropaning janubidagi qadimgi Sharq madaniy markazlari ta’sirida betakror Krit-Miken sivilizatsiyasi vujudga kelgan. Bu sivilizatsiya yutuqlarini ellinlar o‘zlashtirib, yangi pog‘onaga ko‘taradi. Ellinlardan ushbu madaniy yutuqlarni qabul qilgan rimliklar uni yuksaltiribgina qolmasdan butun yevropaga tarqatadi.

M. av. I - milodiy V asrlar davomida qit’aning g‘arbiy qismida ommaviy romanlashtirish (Rim – Roma nomidan) jarayoni bo‘ladi. Rim istilo qilgan hududlarda lotin tili asosidagi roman tillarini shakllanishi va tarqalishi boshlanadi.

Xalqlarning buyuk ko‘chishlari. Milodiy III – IX asrlarda yevropada german, slavyan, turk, eron va boshqa qabilalarning ommaviy ko‘chishlari keyinchalik xalqlarning buyuk ko‘chishlari nomini oladi. Ushbu ko‘chishlar oqimiga turkiy tilli xunnlar kuchli turtki beradi. Osiyodan kelgan xunnlar german tilli ostgotlarni (sharqiy gotlar) tor-mor etib ularga qardosh Dunayning quyi oqimida yashayotgan vestgotlarni (g‘arbiy gotlar) siquvga ola boshlaydilar. Vesgotlar Rim imperatori ruxsati bilan Bolqon ya.o.ga ko‘chib o‘tadilar. Lekin Rim vesgotlarni chegarani himoya qilganlari uchun va’da qilingan to‘lov va oziqlarni bermaganligi sababli 378 yili qo‘zg‘olon boshlab xunnlar va sharqdan kelgan eron tilli alanlar bilan birga Rim qo‘shinlarini mag‘lub etadi. Vesgotlar 410 yili Rimni egallaydilar. Ushbu mag‘lubiyatdan so‘ng G‘arbiy Rim imperatori (395 yil Rim G‘arbiy va Sharqiy Rim imperiyalariga bo‘lingan) vesgotlarga Akvitaniyani (hozirgi Fransiyani janubi-g‘arbi) berib, bu joyda 419 yili ilk german davlati Vesgot qirolligi tashkil topadi. Keyinchalik vesgotlar Pireneya ya.o.ning shimoliy-sharqiy hududlarini ham egal-

laydilar. Uning shimoliy-g'arbiy qismida boshqa german qabilasi svevlar joylashib oladilar. V asrning ikkinchi yarmidan burgundlar va franklar ham o'z qirolliklarini (Burgund va Frank) Galliyada tuzadilar. Taxminan shu paytlarda german qabilalari – angllar, saksлar va yutlar rimliklar tashlab chiqqan, keltlar yashagan Britaniyani egallaydilar.

Xunnlar V asrning o'rtalarida ostgotlar bilan ittifoqda Galliyaga bostirib kirganlar lekin rim va uning ittifoqchilaridan zarbaga uchrab, Dunay pasttekisligiga qaytadilar. Bu vohada VI-VIII asrlarda alanlar etakchi mavqega ega bo'lganlar. Yillar o'tib xunnlar va avarlar mahalliy xalqlar bilan butunlay aralashib ketadilar.

Germanlar zarbalari ostida 476 yili G'arbiy Rim imperiyasi qulab, 493 yili uni qulatishda faol ishtirok etgan osgotlar o'z qirolliklarini tuzganlar. Ostgot qirolligi Markaziy Italiyadan Dunaygacha erlarni egallagan. Italiyaning shimolida VI asrdan yana bir german qabilasi langobardlar joylashganlar.

Shu tariqa german qabilalari G'arbiy yevropaga keng joylashib, o'z davlatlarini tuzganlar. Yevropaning kuchli romanlashgan qismlarida (Galliya, Iberiya, Italiya) lotin tilining turli shevalari saqlanib, ko'p sonli bo'lmagan germanlar davrlar o'tib mahalliy aholi bilan assimilyasiyalashgan. Rimning madaniy ta'siri zaif bo'lgan (masalan Britaniyada) german tillari ustunlikka erishadi.

Vizantiya hududida ommaviy ko'chishlar V-VII asrlarda slavyan qabilalari tomonidan o'tkazilib ular Qora va Egey dengizlaridan Adriatikagacha hududlarda joylashadilar.

Yevropaning janubi-sharqiga VIII asrdan arablar bostirib kiradi. Arablar Pireneya ya.o.ning katta qismini egallaydilar. Pireneya ya.o.aholisiga arab madaniyati, moddiy madaniyat – kiyimlar, maishiy turmushdan – arab she'riyati, ilm-fani, me'morchiligi kuchli ta'sir etadi.

Markaziy yevropaga Dunay havzasiga IX asrdan madyarlar (vengrlar) kelib joylashadilar. Sobiq ko'chmanchi chorvadorlar yangi hududda dehqonchilikka o'tishadi. Vengrlar mahalliy madaniyatdan istefoda olish bilan birga o'z tillarini saqlab, avlodlariga o'tkazganlar. Finn-ugor tillariga mansub venger tili hozirda davlat tilidir.

Skandinaviyalik normannlar IX-X asrlarda Fransiyaning shimoliy qismini, Normandiyani egallaydi. Ular asta-sekin romanlashib, fransuz tiliga o'tadilar, mahalliy aholi madaniyati ham ularga katta ta'sirni o'tkazgan. XI asrda romanlashgan normanlar Angliyani egallaydilar. Normannlar tufayli angliya fransuzlarning kuchli ta'siriga uchraydi. Aynan normann istilosi tufayli ingliz tilida roman leksikasining katta qatlami shakllandi. Shimoliy Fransiya va Angliyadan tashqari normannlar ma'lum muddat Apennin ya.o.ning janubida va Sitsiliya orolida ham ma'lum muddat yashab hukm surganlar.

Yevropaga XIV-XV asrlardan janubdan Usmoniy turklar kira boshlaydilar. Ular Vizantiyani tor-mor etib Bolqonni bir necha asrga bo'ysundiradilar. Feodal jamiyati paytida VIII-XVI asrlarda yevropaning qator shaharlarida yahudiylar jamoalari shakllangan. XV-XVI asrlarda esa yevropaga lo'lilar kela boshlagan. Ular unchalik katta bo'lmagan guruhlar shaklida ko'plab mamlakatlarga joylashganlar.

2. Zamonaviy yevropa aholisi.

Etnik va til tasnifi. Zamonaviy yevropada bir necha o'nlab turli xil xalqlar yashaydilar. Lekin qit'aning etnik tarkibi dunyoning boshqa hududlarinikiga nisbatan ancha sodda tuzilgan. Evorpaning aksari ko'pchilik aholisi hind-evropa tillarida so'zlashadilar. Uning eng yirik guruhlari – roman, german va slavyan tillaridir. Roman tillariga mansub etnoslar qit'aning janubiy-g'arbida va Dunay daryosining quyi oqimida yashaydi.

Roman guruxiga ispanlar, portugallar, galisiyaliklar, katalonlar, andorraliklar, fransiyaliklar, vallonlar (Belgiyaning janubida joylashgan), franko-shveysariyaliklar, monegasklar (Monakoni tub aholisi) kirib bu etnoslar gall-roman guruhchasini tashkil etadi. Italiyaliklar, sardiniyaliklar, italoshveysariyaliklar, korsikaliklar, sanmarinoliklar – ushbu xalqlar italo-roman guruhchasini tashkil qiladi. Romanginlar (Shveysariyani sharqida), ladinlar (Shveysariyani sharqi, Italiyani shimoli), friullar (Italiyaning shimoliy-sharqida) bu uchta kam sonli xalqlarni reto-roman guruhchasiga kiritadilar. Ruminlar va aromunlar (Gretsiyani shimoli va Serbiyada) bu ikki xalq bolqon-roman guruhchasiga mansubdir.

Ayrim roman tillari bir necha xalqlar uchun ona tili sanaladi.

Xususan fransuz tili fransuzlardan tashqari vallonlarga va franko-shveysariyaliklarga; italyan tili – italiyaliklarda juda ko'p shevalar mavjuditalyan tilini shevalarini namoyish qilish uchun bir ma'lumotni keltirish kifoya. Xususan 1875 yili Jovanni Bokachcho tavalludini 500 yilligini nishonlash davomida uning novellalaridan biri 623 italyan shevalarida o'qilgan. Zamonaviy italyan adabiy tili toskan shevasi asosida yaratilgan.

German til guruhiga oid xalqlar yevropaning shimoli, shimoliy-g'arbi va markazida yashaydilar. Hozirgi kunda german tillari ikki guruhga – g'arbiy va shimoliyga bo'linadi. O'tmishda sharqiy guruhcha ham bo'lgan. Lekin uning bironta tili bizgacha etib kelmagan. Jumladan sharqiy german tillarida ostgotlar so'zlashgan. G'arbiy german tillarida: nemislar, avstriyaliklar, lixtenshteynliklar, germanoshveysariyaliklar (shveysariya-ning shimoli va markazida), elzasliklar (fransiyaning sharqida), lyuksemburgliklar, gollandlar, flamandlar (Belgiyani shimoli, Niderlandiyani janubi), frizlar (Niderlandiya va Germaniyani shimolida), inglizlar, shotlandlar, shotlandlar va angloirlandlar (Shimoliy Irlandiyada yashaydilar). Ushbu guruhga (nemis tiliga yaqin) yahudiylarni idish tilini ham kiritishadi. Endilikda yahudiylar qaysi mamlakatda yashasalar o'sha tilda so'zlashadilar. Shimoliy german shahobchasiga: shvedlar, norvegiyaliklar, islandiyaliklar, farerliklar (Daniyaga qarashli Farer orollari aholisi) va daniyaliklar kiradi.

German guruhiga kiruvchi qator xalqlar nemis yoki ingliz tillarida so'zlashishadi. Xususan nemis tilida nemislardan tashqari avstriyaliklar, germanoshveysariyaliklar, elzasliklar (ular fransuz tilida ham gaplashadilar),lixtenshteynliklar,lyuksemburgliklar (uch tilli nemis, lyuksemburg va ingliz). Germaniyaning o'zida ham til bo'yicha vaziyat qiziqarli. Nemislarda adabiy til bitta bo'lsada, gaplashadigan til ikkita. Ular qardosh lekin o'zaro tushunarli emas. Bu Germaniyaning shimolida tarqalgan quyi nemis tili golland tiliga yaqin. Yuqori nemis tili adabiy tilining o'zidir. Ingliz tilida inglizlardan tashqari shotlandlar, irlandlarning katta qismi va yana ayrim xalqlar so'zlashadi. Norvegiyada til bo'yicha vaziyat Germaniyadagiga qarama-qarshi, unda so'zlashadigan til bitta, adabiy til ikkita. Ularni birlashtirishga harakat natija bermasdan uchinchi adabiy tilni

yaratdi, lekin u keng tarqalmadi.

Yevropaning qadimgi tub aholisi keltlar asrlar davomida german tilli va roman tilli xalqlar bilan assimilyasiyalashgan. Oqibatda kelt tilli aholi soni tobora kamaygan. Shunga qaramasdan kelt tili guruhi yevropada haligacha mavjud. U ikki guruhchaga bo'lingan: goydel (yoki gell) va britt tillari. Goydel guruhchasiga irlandlar va gellar kiradi. Britt guruhiga bretonlar (Fransiyaning shimoliy-g'arbidagi Bretan ya.o.) va uelsliklar. So'nggi paytlarda bu guruhga korniylarni ham qo'shmoqdalar. Korniylar, Kornuoll Angliyaning janubiy-g'arbida yashaydilar. Korniy tili uzoq payt o'lik til hisoblangan.hozirda unda 150 kishi gaplashadi. Ammo uni bir necha ming kishi o'rganmoqda.

Yevropada hindevropa til oilasining ikki mustaqil tarmog'i bo'lib, ular grek va alban tillaridir. Hindariy guruhidan – lo'lilar mavjud.

Yevropaning uch etnosi – vengrlar (13 mln), finlar (5mln) va kichik xalq saamlar (laparlar) ural til oilasining fin-ugor tarmog'iga kiradi.

Saamlar yevropaning eng shimolida Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiyaning arktika rayonlari, hamda va Rossiya Federatsiyasining Kolskiy yarim orolida yashaydilar.

Saam xalqlari 3 ta til guruhi (ural, oltoy va paleosiyo)ga va 4 ta til oilasi (finno-ugor, samodiy, tungus-manjur va turkiy)ga mansub.

1. Finno-ugor oilasiga: saamlar, xantlar, mansilar (umumiy soni 80,5 ming kishi).
2. Samodiy oilasiga: nenslar, nganasanlar, selkuplar (umumiy soni 34,5 ming kishi).
3. Tungus-manjur oilasiga – evenklar, evenlar, nanaylar, ulchilar, udegeylar, orochilar, negidallar (umumiy soni 56,4 ming kishi).
4. Turkiy oilasiga: dolganlar, tofalar (umumiy soni 5,9 ming kishi).
5. Paleosiyo til guruhiga: chukchalar, koryaklar, itelmenlar, yukagirlar, eskimoslar, aleutlar, nivxilar, ketlar (umumiy soni 132,1 ming kishi)ni tashkil qiladi.

Saamlar son jihatidan uncha katta bo'lmasada, ular barcha Shimoliy Eroosiyo xalqlaridan yirigi hisoblanishadi. Biroq, ularni o'rab turgan qo'shni xalqlar orasida umumiy aholining sezil-

mas foizini tashkil qiladi. Qanday qilib, shunday sharoitda ya'ni ko'psonli boshqa tilda so'zlashuvchi xalqlar qurshovida saamlar o'z tili va turmush tarzini saqlab qoldi ekan degan savol juda qiziqarlidir.

Ko'pgina olimlar raqamlarga tayangan holda, saamlarning tez orada yo'qolib va singib ketishini bashorat qilishgan. Biroq, bu noilmiy fikrni tarixiy xaqiqat tasdiqlamadi.

Kelib chiqishi. Saam xalqi kelib chiqish ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. Saamlar haqidagi dastlabki manbalar milod boshlariga taalluqlidir. Mashhur rimlik tarixchi Publiy Korneliy Tatsit (m.av.120-55 yy) saamlar haqida fin nomi bilan o'z esdaliklarida yozib qoldirgan.

Nenetslar Shimoliy yevropada milodiy ming yilliklarda paydo bo'lgan. Nenets tilida saamlar "ngano xan" ya'ni "qayiqchang'ichilar" degan ma'noda nomlangan.

Saamlar yevropaning qadimgi xalqlaridan bo'lib, saam tilshunoslaridan G.M.Kertning qayd etishicha ularning kelib chiqish tarixi etarlicha o'rganilmagan ekan. Finn olimi Yu.Toyvonen saamlar ajdodlari fin-ugorlar emas deya hisoblasa, bunga qarma-qarshi boshqa fin olimi E.Itkonen ularning bevosita ajdodi fin-ugorlar deya uqtirmoqdaki, bu saamlarning genezisi borasida chigal masalalar ko'pligini ko'rsatmoqda.

Arxeologik qazishmalar saamlarning kelib chiqishini qadimgi davrlarga borib taqalishini ko'rsatmoqda. Paleolit (qadimgi tosh asri) davriga oid qazilma odamlar qoldiqlari, g'or devorlaridagi bug'u surati aks etgan petrogliflar saamlarning genezisi eng qadimgi davrlarga borishi, ularning turmush tarzi haqida so'zlayotganidan dalolat beradi.

Bug'uchilik saamlarda neolit davridan buyon mavjudligini tadqiqotlar natijalari bugungi kunda tasdiqlamoqda. Saam tilida hayvonlarning qadimgi nomlari saqlanib qolgan bo'lib, masalan, yovvoyi bug'u saam tilida "kont" , qo'lga o'rgatilgani "puadz" deb nomlanadi. Bug'u ovchiligi saamlarda qo'lga o'rgatishga nisbatan oldinroq bo'lgani uchun "o'ldirmoq" fe'li saam tilida "konted" ya'ni yovvoyi bug'u so'zi bilan tabiiy ravishda bog'liqdir.

Rus tadqiqotchisi Alimov V.K. saam tilini o'rganib, undagi ayrim

so'zlar boshqa tillarda ham uchrashligini aniqladi. Masalan, saam tilida qayiqcha ko'rinishidagi bug'u qo'shiladigan chana "keres" deya nomlanadi. Mazkur so'z lotin tilida "karrus", fransuz tilida "karros", rus tilida "karreta" deb nomlanishini misol qilib keltirish mumkin.

Shved qiroli Karl IX ning 1602 yildagi farmoniga muvofiq saamlarni o'troqlashtirishga urinib ko'rishgan va ularni erlari, ko'l va daryolari, botqoqliklar hisobi olingan.

Maltaliklar (Malta oroli) afroosiyo (semit-xamit) til oilasiga mansub. Malta tili arab tilining shevalaridan biri, ayni paytda yozuvi lotin alfavitida. Hozirgi kunda maltaliklarning ko'pchiligi o'z tilidan tashqari ingliz va italyan tillarini bilishadi.

Yevropaning bitta tub etnosi basklar til borasida xoli holatdalar. Ularning tili hozirgi biror tilga yaqin emas. Basklar Ispaniyaning shimoli va G'arbiy Pireneyada, ispan fransuz chegarasining har ikki tomonida yashaydilar.

Undan tashqari bugungi yevropada ko'p sonli immigrantlar (arablar, barbarlar, turklar, qurdlar, hindlar, pokistonliklar va boshqalar) guruhlari shakllangan. Arablar va barbarlar ko'pincha Fransiyaning yirik shaharlarida, turklar va qurdlarning katta qismi Germaniyada, Hindiston va Pokistondan chiqqanlar Buyuk Britaniyada ko'proq yashaydi. Britaniyaning yirik shaharlarida sobiq ingliz mustamlakalari Vest – Indiya va Qora Afrikadan ham immigrantlar paydo bo'lgan.

Dunyoning boshqa qismlaridan yevropaga ko'chishdan tashqari mamlakatlar ichida mamlakatlararo migratsiyalar ham aholi etnik tarkibini xilma - xil bo'lishiga olib kelmoqda. Migrantlarni asosiy oqimi Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Belgiya, Shvetsiyaga bo'lmoqda. Fransiyaga - italiyaliklar, portugallar, ispanlar, polyaklar ketsa, Buyuk Britaniyaga – Irlandiyadan, Germaniyaga – italiyaliklar, greklar, portugallar, serblar, xorvatlar va boshqalar ko'chib bormoqdalar.

3. Aholining antropologik tavsifi.

Yevropaning zamonaviy aholisi (ko'payib borayotgan immigrantlar guruhlarini hisobga olmaganda) rasasi bo'yicha bir xil (saamlardan tashqari) evropoidlardir. Yevropoidlar orasida uchta antropologik tip: shimoliy (blondin), janubiy (bryunet) va markaziy (shaten). Shimoliy tip uchun malla soch, oq tana, ko'k, kulrang yoki

zangor rangli ko‘z xususiyatli. Bu tipga shvedlar, norvegiyaliklar, finlar qisman inglizlar, gollandlar, shimoliy nemislar va yana qator shimoliy yevropa xalqlari kiradi. Janubiy antropolgik tipga qora soch, nisbatan bug‘doy rang badan va qora ko‘zlari bilan ajralib turadilar. Bu xususiyatlar janubiy yevropa aholisi: ispanlar, portugallar, italiyaliklar, albanlar, ruminlar, turklar, greklar va h.k. lar uchun xosdir.

Yevropaning markaziy hududlarida yashaydigan xalqlar uchun har ikki blondin va bryunet orasidagi o‘tkinchi xususiyatlar xosdir. Ularning badan ranglari blondinlarnikidan biroz qoramtirroq, ko‘zlarining rangi xilma-xil: ko‘k, qo‘ng‘ir, zangor va h.k.lar uchraydi. Ushbu rasa tipiga fransuzlar, nemislar, shimoliy italiyaliklar, belgiyaliklar, avstriyaliklar, shveysariyaliklar va vengerlar mansubdir.

Dinlari. yevropaliklarning aksari ko‘pchiligi xristian dinining turli mazxablariga e’tiqod qiladilar. Uchta asosiy oqim katolitsizm, protestantizm va pravoslaviya. Katolik cherkovi Janubiy va G‘arbiy yevropa: Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Avstriya, Vengriya, Irlandiya va boshqalar. Katoliklar yana ko‘p sonli guruhlarni Shveysariya va Niderlandiyada ham tashkil etishadi. Ularning ancha aholidan iborat guruhlari Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiyada ham mavjud. Rim - katolik cherkoviga e’tiqod qiluvchilar Albaniyada ham talaygina.

Yevropada protestantizm oqimlari – lyuteranlik, anglikanlik va kalvinizm. Lyuteranlik aksari Germaniyada, Skandinaviya mamlakatlari aholisida, Finlandiyada e’tiqod qilishadi. Buyuk Britaniyada anglikanlar axolidan yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Anglikan cherkovi davlat dini statusiga ega. Kalvinizm ta’limotiga e’tiqod qiluvchilar Shvetsariya, Niderlandiya va Shotlandiyada axolining talay qismini tashkil etadi. Markaziy va Shimoliy yevropada protestantizm tarqalishiga cherkov xizmatini milliy tilga o‘tkazilishiga, ba’diy adabiyotlarni yuksalishida ushbu mamlakatlarda milliy ongni uyg‘onishiga sabab bo‘ladi.

Pravoslaviya greklar, ruminlar va albanlarning bir qismida tarqalgan.

Yevropada islomni ko‘pchilik qabul qilgan yagona davlat Al-

baniyadir. Immigratsiya tufayli so‘ngi yillarda yevropada islomga e’tiqod qiladigan axoli ko‘pchilik mamlakatlarda yuksalib bormoqda. Yirik yevropa shaxarlarida yaxudiylar jamoalari mavjud.

4. Yevropa xalqlarining xo‘jalik faoliyati va moddiy madaniyatlari.

G‘arbiy, Shimoliy, Markaziy va Janubiy yevropa axolisining an’anaviy xo‘jaliklari.

Xorijiy yevropa yuksak rivojlangan region shu sababli xo‘jalikning an’anaviy formalari deyarli saqlanmagan. O‘tmishda evropaliklarning asosiy mashg‘ulotlari dexqonchilik va chorvachilik bo‘lgan.

Keyinchalik bir necha rayondan tashqari (Islandiya, Al’p, Farer orollaridan) barcha hududlarda dexqonchilikning ustunligi o‘rnatildi.

Yevropada juda erta m.av.II-I ming yillikda plug dexqonchiligi tarqalgan. Dexqonlar ikki xil shudgorlash mehnat qurolini qo‘llagan birida: ralo-g‘ildirak va erni ag‘daradigan jihoz bo‘lmagan ikkinchisi plugda har ikkisi bo‘lgan. Raloga shimol va janubda ot va xo‘kizlar qo‘shilsa, plug markaziy hududlarda tarqalib unga xo‘kiz qo‘shilgan. Donli ekinlarni o‘roq keyinchalik bel o‘roq bilan o‘rib olganlar. Donni zanjirlar yordamida, janubda esa xirmonga to‘plangan donlarni xo‘kizlar tuyoqlari yordamida, ularni aylantirib, haydab yanchganlar. Donni shamol yoki suv tegirmonlarida unga aylantirganlar. Hozirda bu dehqonchilik qurollari hamda qishloq ho‘jalik ekinlarini yetishtirish usullari o‘tmishga aylandi, agrokul’turani eng yangi usulllari texnika va texnologiyalar qo‘llanilmoqda.

Yevropaning shimolida asosiy ekinlar: arpa, suli, javdar yetishtiriladi. Markaziy rayonlarda: bug‘doy, suli, qand lavlagi ekiladi. Qit’aning janubida bug‘doy va javdardan tashqari makkajo‘xori, ayrim rayonlarda sholi yetishtiriladi. yevropada kartoshka ekish ham keng tarqalgan. Bog‘dorchilik, sabzavot yetishtirish barcha hududlarda bo‘lsa, O‘rta yer dengizi atrofida zaytun, sitrus mevalari va uzumchilik keng tarqalgan. Uzumchilikda asosiy hosil vino tayyorlashga ishlatilib, u bilan Luara va Reyn daryolari havzalarigacha erlarda shug‘ullanishadi. Texnik ekinlarda shimolda zig‘irpoya va kanop, janubda paxta va tamaki ekishadi. Ko‘pgina yevropa mamlakatlarida ayniqsa Gollandiya, Daniya, Germaniya, Angliyada

gulchilik yuksak rivojlangan.

Yevropaning ko'plab xalqlari xo'jaligida chorvachilik muhim o'rin tutadi. Asosan qora mol boqiladi. Mollarni yirik og'ilxonalarda, qisman yaylovlarda ushlashadi. Chorvachilik sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishga, go'sht va go'shtdan maxsulotlar tayyorlashga qaratilgan. yevropaning ko'pgina rayonlarida asosan juni uchun qo'y va to'ng'izlarni boqishadi.

Sohilbo'yi rayonlarida baliqchilik yaxshi rivojlangan. Unda dengiz mahsulotlari qisqichbaqa, molyuskalar, dengiz tipratikoni, baliqning ko'plab turlari ushlab qayta ishlanadi yoki yangiligida sotuvga chiqariladi. Baliqchilik norvegiyalik va islandlar uchun katta ahamiyatga ega. O'rta asrlar davrida yevropada ancha taraqqiy etgan hunarmandchilik ishlab chiqarishi bo'lgan. Aynan uning asosida keyinchalik sanoat ishlab chiqarishi shakllanadi. Zavod-fabrikalar ishlab chiqarishi hunarmandchilikni chetga surib qo'yadi. Lekin uning ayrim sohalari ayniqsa badiiy san'at sohalariga aylanganlari: kashtachilik, zargarlik, sopol buyumlar tayyorlash, shishadan buyumlar, musiqa asboblari yasash bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. Arktika rayonlarida yashovchi saamlar xo'jaligi yevropaning boshqa xalqlarinikidan ancha farq qiladi. Ularda tundra bug'uchiligi va baliqchilik rivojlangan.

Qo'rg'onlar va qishloq uylari turlari. Hozirgi kunda yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida shaxar aholisi ko'pchilikni tashkil qiladi. Ko'pchilik mamlakatlarda aholining ¾ qismi shaharlarda yashaydi. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiyada 90% axoli shaxarliklardir. yevropa shaxarlari orasida juda qadimgilari: Afinaga mil. av XVI asrda, Rimga m.av.VIII asrda asos solingan. Rim imperiyasi davrida Parij, London, Kelnga ham asos solingan. O'rta asrlar davrida Bristol, Stokgolm, Berlin, Madrid sanoat rivojlangan davrda Angliyada Birmingem va Bristol, Rur havzasida Germaniyada hamda boshqa sanoat markazlari vujudga kelgan. Eski shaharlarda tarixiy qismda eng qadrli me'morchilik inshootlari, ibodatxonalar joylashgan. Afinada-Parfenon, Rimda-Kolizey, Parijda - Bibi Mariyam ibodatxonasi, Luvr, Londonda-Tauer, Kelnda-mashxur Kyoln ibodatxonasi mavjud.

Yevropa uchun aholini yirik shaharlarda, to'g'rirog'i shaharlar

aglomeratsiyalari-shaxarlar atrofidagi kichik shaharlar va shaharchalar, aholi punktlarida yashashi xususiyatlidir. Bunday shaharchalar aholisi xilma xil. Sababi migrantlarni asosiy qismi aynan shu xildagi yirik shaharlar atrofiga joylashadilar. Yirik shaharlarda turli millat vakillari orasida muloqot hamda o'zaro ta'sir faol kechadi. Bu esa boshqa omillar bilan birgalikda alohida shahar submadaniyatini shakllanishiga olib keladi.

Lekin yevropada shahar hayoti juda erta boshlangan bo'lsada, intensiv sanoatlashtirish boshlangunga qadar qit'ada qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil etgan. Ayrim mamlakatlarda jumladan Portugaliyada, Albaniyada qishloqlarda hozir ham ko'p aholi yashaydi. Qishloq qo'rg'onlarida ko'p hovlilik va yakka hovlilik uy - joylar uchraydi. Yakka hovlilar aholisi siyrak tog'li hududlarda Fransiyada, Ispaniya va Italiyaning shimolida, Germaniyaning shimoliy-g'arbida, Angliyaning g'arbida va Norvegiyada uchraydi. Ko'p hovlilik qishloqlar Markaziy yevropaning , Fransiya, Italiya, Ispaniya, Bolqon ya.o.ning tekisliklarida joylashgan. Ko'p hovlilik qishloqlar ulardagi uy-joylar rejasi, qurilish ashyolari bilan farqlanadi. Yevropaning Markaziy va Janubiy qismidagi qishloqlar hovlilari tartibsiz to'p ko'rinishida qurilgan.Natijada bunday qishloqlarda ko'chalar ham qing'ir-qiyshiq. Germaniyaning sharqida aylana shaklida qurilgan qishloqlar ham mavjud. Bu shakldagi qishloqlarda uylar markazdagi maydonga qaratib qurilgan. G'arbiy yevropada ham ko'chalar bo'ylab qurilgan uylari bo'lgan qishloqlar uchraydi, lekin bunday qishloqlar aksari Sharqiy yevropa uchun xususiyatli.

G'arbiy yevropa qishloqlaridagi uylar ham turli tiplarga mansub. Ko'chalar yuziga uylar qurish dastlab qishloqda o'tiladigan yo'l yoqasidan boshlanib, keyinchalik yangi ko'chalar va uylar qurilgan. Yevropada tarqoq, uylar bir-biridan ancha narida qurilgan manzilgohlarni ham uchratish mumkin.

Yevropaning janubida o'rta er dengizi tipli uylar qurilishi keng tarqalgan. Bu ikki qavatli ba'zida uch qavatli toshdan qurilgan bino, pastki qavatda xo'jalik yuqorida yashash xonalari joylashgan. Tomlari ikki yoqlama bo'lib cherepitsa bilan yopilgan. Bunday uylarda ispanlar, janubiy fransuzlar, janubiy italiyaliklar yashashadi.

Italiyaning shimolida Shveysariya va Avstriyaning tog'li rayon-

larida, Germaniyaning janubida alp uylari keng tarqalgan. Uy ikki qavatli, birinchi qavati toshdan yuqorisi yog'ochdan ayvoni bilan qurilgan. Bu xildagi uylarning tomi ham ikki yoqlama yog'och ustunlarga o'rnatilgan. Yashash xonalari har ikki qavatda joylashgan, xo'jalik xonalari faqat birinchi qavatda Alp uylariga basklar turar joylari o'xshash, farqli tomoni basklarning uylarida ikkinchi qavat sinchli etib qurilgan.

Fransiya, Niderlandiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Markaziy Germaniya, Avstriya va Shveysariyaning tekisliklaridagi qishloq uylari g'arbiy o'rta evropa tipi deyiladi. Uning variantlaridan biri yuqori nemis (frankon) uyi. Bu bir yoki ikki qavatli uy-eshitdan yoki sinchli, yog'ochdan qilingan sinchli oralari loy, tosh, g'isht bilan to'ldiriladi. Yashash va xo'jalik xonalarini uch yoki to'rt tomonidan ochiq hovli joylashgan. Uyning tomi ham yog'ochdan ustunlar, to'sinlarga tayanadi. G'arbiy yevropada tomlarni turli rangdagi sopol cherepitsalar bilan yopish o'rta asrlardan boshlab keng tarqalgan.

Shimoliy fransuz uylari ko'cha yuzida uzun qilib toshdan yoki sinchli turar-joylar shaklida, ularga ichki tomonidan xo'jalik binolari yondoshadi. Uyni atrofi o'ralmagan. Undan farqliroq Janubiy Lyuksemburg uylari Belgiyada ham tarqalgan bo'lib (bir qavatli toshdan yoki sinchli) hovli baland devor bilan o'ralgan. Xo'jalik binolar ba'zida asosiy uyga taqab emas alohida qilib qurilgan. Ba'zida uning ichki qismida joylashgan. Uyga kirish g'ishtdan arka shaklida bino etilgan.

Germaniyaning shimoli, Niderlandiyada shuningdek Daniyada shimoliy evropa tipidagi uylar quriladi. Bu tipdagi uylarning asosiy xususiyatlari quyi nemis (yoki sakson) uylarida namoyon bo'ladi. Bu keng bir qavatli-sinchli yoki g'ishtdan qurilgan uylardir. Uning o'rta qismida ombor qurilib unda un, don mahsulotlari saqlanadi. Hovlini usti yopilib uning ikki tomonida yashash xonalari, otxona, og'ilxonalar joylashgan. Bunday uylarning ulkan tomlari devorlarga emas, devor bo'ylab yoki uyning ichida o'rnatilgan yo'g'on ustunlarga mustahkamlangan.

Pannoniya uyi Vengriya qishloqlarida bunyod etilib bir qavatli loydan qurilgan, tomi somon bilan yopilgan uylar bo'lgan. Uy oldida uzun ustunli ayvon qurilib, u orqali xonalarga kirilgan.

Skandinaviya va Finlandiyada yog'ochlardan yo'nib bir qavatli qilib qurilgan uylar tarqalgan. Shimoliy skandinaviya uylarida isitiladigan xonalar, istilmaydigan xo'jalik xonalari bo'lgani Janubiy skandinaviya uylarida isitiladigan xonalarni ikki tomonidan xo'jalik xonalari taqab qurilgan.

O'tmishda qishloq uylarini qurilgan an'analari shahar me'morchiligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Hozirgi kunda shahar me'morchiligi uchun an'anaviy xususiyatlardan voz kechish va unifikatsiya tobora keng tus olmoqda. Shunga o'xshash jarayonlar qishloqlarda ham kuzatilmoqda.

An'anaviy taomlar. An'anaviy taomlar yevropaning turli qismlarida sezilarli darajada farqlanadi. Janubiy yevropada bug'doy noni eyishsa, shimolda bug'doy bilan bir qatorda javdar unidan non ham tarqalgan. Shimolda taomga mol yog'i ishlatilsa, janubda o'simlik yog'idan foydalaniladi. Ichimliklardan Buyuk Britaniya, Irlandiya, shuningdek Niderlandiyada choyni ma'qul ko'rishsa, boshqa mamlakatlarda – kofe, xususan Markaziy yevropada uni sut yoki suyuq qaymoq bilan ichishsa Janubiy yevropada qora kofeni yoqtirishadi. Janubiy mamlakatlar ertalab nonushtada taomni juda kam iste'mol qilishsa, shimoliy mamlakatlarda aksincha – nonushtani baquvvat bo'lishini yoqtirishadi. Janubda tabiiy ko'proq mevalarni iste'mol qilishadi. Sohil bo'yi hududlarida baliq va dengiz mahsulotlari aholi taomlarida katta o'rin egallaydi.

Regional xususiyatlar bilan birga har bir xalq taomida o'ziga xosliklar ham mavjud. Jumladan fransuzlar boshqa xalqlar bilan qiyoslaganda non mahsulotlari, bulochkalarni ko'p iste'mol qiladilar. Salatlar, birinchi va ikkinchi taomlarni tayyorlashda fransuzlar ko'plab sabzavot, er ildizli kartofelning turli navlarini, piyoz, karam, ko'katlar, loviya, pomidor, baqlajonlardan foydalanishadi. G'arbiy yevropaning boshqa xalqlariga nisbatan, pishloqni hisoblaganda sut va sut mahsulotlarini kam ishlatadilar. Fransuz pishloqlarini yuzlab xillari bo'lib, ular orasida yashil rangli –rokfor va yumshoq ustida oq pangi bo'lgan kamamberlar eng mashhurlaridir. Fransuzlarni sevimli taomlari qatorida bifshteks, qovurilgan fri kartofel bilan, beshamel-oq qayla bilan qovurilgan go'sht. Turli qaylalar fransuzlar tomonidan ikkinchi taomlar, salatlar bilan birga dasturxonga

tortiladi. Birinchi taomlardan piyozli, pishloqli sho‘rva keng tarqalgan. Fransuz oshxonasi delikateslari qatorida ustritsa, ulitka, katta qurbaqalarni qovurilgan orqa oyoqlari mavjud. Fransuzlar vino ichishda dunyoda birinchi o‘rinda. Uni tushlikda va kechki taom bilan ichishadi. Musallas 10-12 gradus alkogoli bo‘lib odamlarni mast qilmasdan kayfiyatlarini ko‘taradi xalos.

Italiyaliklarning sevimli taomlari makaronning turli xillaridan (pasta) qilinadi. Pastani tomat sousida, o‘simlik yog‘ida pishloq yoki go‘shtli qayla bilan yoyishadi. Loviya, no‘xat, rangli karam alohida tortiladi. Italiyaliklar taomnomasida ham pishloqlar ancha o‘rin egallaydi. Uning an’anaviy turlari parmezan (sho‘r quruq qattiq) mazarella (qo‘toslar sutidan pishloq), pekarino (sho‘r quruq qo‘y sutidan)lardir. Italiyaliklar rizotto –vetchinali palov, qirilgan pishloq, piyoz, krevetka (qisqichbaqa) va qo‘ziqorinli, polenta – quyuq makkajo‘xori bo‘tqasi (uni stolga tortishdan oldin pichoq bilan bo‘lakchalarga kesishadi) va h.k.larni eyishadi. Ziravorlardan italiyaliklar kapers (shu nomdagi o‘simlik kurtaklari), sikoriy va muskat yong‘og‘ini ishlatishadi.

Inglizlar nisbatan ko‘p go‘sht (mol, buzoq, qo‘y, semiz bo‘lmagan to‘ng‘izlar) iste’mol qilishadi. Eng mashxur taomlari rostbif va bifshteks. Go‘sht bilan odatda tomat sousi, pikuli (mayda marinada qilangan sabzavotlarni), kartofel va yangi sabzavotlarni tortishadi. Inglizlarning an’anaviy taomlari ichida turli pudinglar, go‘shtli, sabzavotli (ularni ikkinchi taom sifatida qo‘yishadi), shuningdek shirin mevalardan (desert) tortiladi. Inglizlar ertalab parrigi deb nomlangan suli unidan suyuq bo‘tqani yoki bug‘doy yoki makka bo‘lakchalarini sut bilan eyishni xush ko‘rishadi. Birinchi taomlardan turli sho‘rvalar va pyure sho‘rvasini dasturxonga tortadilar. Bayramlarda inglizlar turli an’anaviy taomlarni tayyorlaydilar. Ulardan biri rojdestvoga to‘ng‘iz yog‘i (sala), non ushoqlari, un, mayiz, qand, tuxum va turli ziravorlardan – plam puding tayyorlanadi. Uning ustiga rom quyib yondirib dasturxonga qo‘yishgan. Shotlandlar an’anaviy taomlari inglizlarnikiga o‘xshash, lekin o‘ziga xosliklarga ega. Shotlandlar qora (qonli) puding va suli uni, cho‘chqa yog‘i va piyozdan oq puding tayyorlashadi. Shotlandlar inglizlarga nisbatan turli taomlar tayyorlashda yormalardan ko‘p foydalanishadi.

An’anaviy shotland taomi – qo‘y yoki buzoqning tozalangan qornidan suli uni, piyoz va qalampirdan tayyorlanadi.

Nemislar uchun turli kolbasalar, sosiska va sardelkalar iste’mol qilish xususiyatli. Keng tarqalgan taomlardan biri tuzlangan karamni dimlab sosiska bilan eyishdir. Nemislar to‘ng‘iz go‘shtidan va qushlar go‘shtidan turli taomlar qilishadi. Sabzavotlarni odatda qaynatib tayyorlashadi. Rangli karam, oddiy karam, loviya, sabzi keng iste’mol qilinadigan sabzavotlardir. Nemislar tuxumdan ham ko‘plab taomlar tayyorlashadi. Nonushtaga har xil buterbrodlar qilinadi. An’anaviy ichimliklari – pivo.

Skandinaviya xalqlari taomlarida asos turli baliqlar va dengiz mahsulotlaridir. Daniyaliklar, shvedlar, norvegiyaliklar islandlar dasturxonida baliq kundalik taomdir. Daniyaliklar seld, makrel, ugor, kombala va losos baliqlarini qaynatilgan yoki tuzlangan holda eyishadi. Dudlangan yoki quritilgan baliq kamroq tarqalgan. Norvegiyaliklarni sevimli taomlari – seldni qartoshka bilan eyishdir. Ular qovurilgan treska, kambala, paltusni ham ko‘p iste’mol qiladilar. Ularning eng e’zozli taomlari – klipfiks – qoyalarda quritilgan, boshi kesib olingan treskadir. Skandinaviya xalqlarida ham buterbrodni eyish keng tarqalgan. Daniyada buterbrodni oshxona qiroli deyishadi. Hududda buterbrodlarning 700 xilini tayyorlashadi. Murakkab buterbrodlar bir necha qavat qilinib unda bekon, pomidor, jigardan pashtet, oq redis va h.k.lar bo‘ladi. Skandinaviyaliklar oshxonasida sutning o‘rni katta. Uni yangiligida ichishadi, turli bo‘tqa va sho‘rvalar qilishadi. Kartofeldan tayyorlangan taomlarga qo‘shib ichishadi. Undan turli mahsulotlar: qaymoq, tvorog, qatiq qilishadi.

5. G‘arbiy, Markaziy, Shimoliy va Janubiy yevropa xalqlarining an’anaviy kiyimlari.

Yevropa xalqlarining zamonaviy kiyimlarida milliy o‘ziga xosliklar kam saqlangan. Qit’ada evropa shahar kiyimlari keng tarqalgan bo‘lib uning vatani Buyuk Britaniyadir. Erkaklar uchun bu kostyum uzun engli ko‘ylak, pidjak, ayollar uchun – yubka, bluzka engli va jaketdan iborat. Ushbu kostyum XIX asr oxirida shaharlarda, keyinchalik qishloq aholisida ham tarqalgan. Deyarlik barcha mamlakatlarda milliy kiyimlar majmuini surib chiqadi. Oqibatda bugungi kunda milliy liboslarni fol’klor bayramlari, xalq badiiy ja-

moalarining chiqishlarida ko'rishimiz mumkin.

Shunga qaramasdan an'anaviy kiyimlarning ayrim elementlari faqat qishloqlarda emas shaharlarda ham saqlanmoqda. Jumladan Shotlandiyaning Edinburg va boshqa shaharlarida erkaklarning bir qismi milliy katak yubka (kilt) kiyadilar. Avvallari yubka erkaklarning kiyimlari tipik elementi sifatida irlandlar, greklar va albanlarda ham tarqalgan.

O'tmishda evropalik erkaklarning eng keng tarqalgan elementi tizzadan sal pastga tushib turadigan ishton edi. Uni kalta paypoq yoki getra bilan kiyishgan. Erkaklar engi uzun va keng ko'ylak, uning ustidan jilet yoki kurtka kiyganlar. Fransuzlar, ispanlar va boshqa roman tilli xalqlar erkaklari bo'ynilariga rangli ro'mol bog'lashgan. Bosh kiyimi fetr yoki kigizdan shlyapa bo'lgan. Basklarni an'anaviy bosh kiyimlari movutdan beretni keyinchalik boshqa yevropa xalqlari ham o'zlashtiradilar. Jumladan, u fransuzlarning eng dongdor bosh kiyimiga aylanadi.

Turli xalqlar ayollar kiyimlari ham xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Ko'pchilik roman xalqlari xotin-qizlari ko'ylaklari uzun, keng, jiyakli bo'lishi bilan farqlangan. Nemis ayollari kalta keng yubkalar kiyishgan. Ba'zida turli uzunlikdagi bir necha yubkani kiyishgan. Bir necha kashtalangan (eng yuqorisidagi qoramtir rangda bo'lgan) yubkalarni kiyish boshqa rayonlarda ham, masalan, Gollandiyada, Flandriyada (Belgiyaning shimoliy-g'arbi) an'ana bo'lgan. Gretsiyalik ayollar sarafan kiyishib, uni belida kamari bo'lgan. Ba'zi joylarda, xususan tog'larda ayollar uzun ishton kiyganlar. Yevropada deyarli barcha hududlarda oldida yorqin fartuk taqish ham keng tarqalgan. Ayollar uzun engli oq kofta, boshlarida ro'mol, turli qalpoqchalar, shlyapalar kiyishi ham deyarli barcha hududlar uchun umumiy bo'lgan.

Yevropaning ko'plab rayonlarida charm poyafzal qatorida yog'ochdan yasalgan oyoq kiyimlari ham tarqalgan. Saamlar an'anaviy kiyimlari boshqa yevropa xalqlarinikidan farqlanadi. Erkaklarda uzun, tizzagacha ko'ylak, tor movutdan ishton, ayollarda – oq matodan uzun ko'ylak, uning ustidan issiq mavsumda paxtali, sovuqda movutdan kengroq ko'ylak kiyishgan. Qishda saamlar erkaklari ham ayollari ham bug'u terisidan kiyim va poyafzal

kiyganlar.

6. Xorijiy yevropa xalqlarining oilaviy va jamoaviy turmushi, ma'naviy madaniyatlari.

Oila va oilaviy turmush. Hozirgi kunda yevropadagi barcha xaqlarda kichik oilalar ota-ona va ularning farzandlaridan iborat monogam oilalar ko'pchilikni tashkil qiladi. O'tmishda yirik yoki ko'pavlodli oilalar ko'p bo'lib, birgalikda xo'jalik yuritadigan bu xildagi oilalarni uning keksa avlodi vakillaridan biri boshqargan. Yirik patriarxal oilalar unsurlari XIX asrda ham saqlangan. Ba'zi joylarda (masalan, albanlarda) hozirgacha mavjud. Yevropaliklar uchun hozirda nisbatan kech nikohlar xususiyatli. Bu ma'lum darajada kichik oilalarning aksari ko'pchiligi bilan ham izohlanadi.

Yirik patriarxal oilalarda yosh ota-onalar farzandlarini oyoqqa turg'iza oladilarmi degan muommo bo'lmagan. Zamonaviy yoshlar dastlab nikohni so'ng farzand ko'rishni ortga suradilar. Ular o'qishlarini tugatishlari, mustahkam iqtisodiy o'ringa ega bo'lishlari uchun kurashadi. Shuning uchun bugungi yevropada eng yuqori tug'ilish eng sust rivojlangan islomga mansub aholi Albaniyada. Boshqa yevropa xalqlariga nisbatan yuqoriroq tug'ulish irlandlarda bo'lishi ham katolik dini ustuvorligi bilan izohlash mumkin. Ko'pchilik yevropa davlatlari uchun tug'ilishning pastligi tufayli aholining o'sishi aksari immigrantlar hisobidan bo'ladi. Shuning uchun aksari yevropa davlatlarida oilada bola sonini oshirishga mo'ljallangan tug'ilishni rag'batlantiruvchi ijtimoiy demografik siyosat olib borilmoqda. Bu siyosat haq to'lanadigan dekret ta'tili, bolani boqish uchun ta'til, bolali oilalarga dotatsiya to'lash, turar joy olish uchun kreditlar, subsidiyalar va h.k. lar ko'zda tutilgan.

Nikohga kirish barcha yevropa xalqlarida bayram tantanalari, to'y davomida turli an'analarni namoyish etilishi ko'zda tutiladi. O'tmishda qator udumlar kelinni erli xotinlar safiga o'tganligini ramziy ifodalagan. To'y arafasida yigit do'stlariga, qiz dugonalariga xayrlashuv bazmini o'tkazib berishgan. Qishloqlarda o'tmishda to'y marosimlarida barcha aholi qatnashgan. yevropaning ayrim mamlakatlarida (Ispaniya, Portugaliya, Gretsiyada) faqat cherkovdagi nikoh haqiqiy bo'lsa, Britaniya va Shvetsiyada cherkov nikohi ham grajdanlik qaydi ham tan olinadi. Ayni paytda Fransiya, Shveysari-

yada faqat grajdanlik nikohlari tan olingan. Lekin cherkovdan ham o'tish kelin-kuyov va ularning oilalari ixtiyorida.

Bayramlar va ijtimoiy turmush. Eng ko'p nishonlanadigan bayramlar Isoning tug'ulishi (Rajdestvo 24 dekabrdan 25 dekabrga o'tar kechasi) va Pasxa. Ayni paytda katolik va protestantlarda Rojdestvo, provaslavlarda Pasxa keng nishonlanadi. Ko'rilayotgan regionning provaslav xalqlari – greklar, ruminlar va albanlarning bir qismi – cherkovda grigorian kalendari qabul qilingan (Rossiya cherkovidagi kabi Yulian kalendari emas) va ular ushbu bayramlarni katoliklar va protestantlar bilan bir paytda o'tkazadilar. Rojdestvoga archani bezash an'anaga aylangan. Bu odat XVIII asrning ikkinchi yarmida Elzasda boshlanib, keyinchalik Yevropaning boshqa xalqlariga tarqalgan. Buyuk Britaniya xalqlarida an'anaviy Rojdestvo bezagi paduba (doim yashil, qizil-sariq mayda mevali buta) shoxlari yoki omeli (oq mevali o'simlik)ni bezatish qadimgi keltlardan qolgan odat bo'lgan. Rojdestvoda bir-birlariga sovg'a ulashish ham an'anaga aylangan. Bolalarga sovg'ani oyoq kiyimlari ichiga, krovati ostiga yoki maxsus paypoqqa solishib, uni rojdestvo bobosi (ingliz va nemislar uchun Santa Klaus, fransiyaliklar uchun Per Noelem, italiyaliklar uchun Babbo Natale) keltirgani aytiladi. Rojdestvo odatda oila davrasida o'tkaziladi. Undan farqliroq Yangi yilni aksari kafeda kutib olinib, tunda bayram sayllari o'tkazilgan.

Bahorgi bayram ommaviy sayllar bilan o'tkaziladigan maslenitsa bo'lgan. Italiyaliklar, fransuzlar va yana qator xalqlar maslenitsaga karnavallar uyushtirganlar. Karnovallarda ko'plab aholi qatnashgan: odamlarning zavqli yurishlari maxsus kiyimlar kiyib tarixiy mavzularda saxna tomoshalari ko'rsatilgan.

An'anaviy yozgi bayram – avliyo Ioann kuni. U shimoliy mamlakatlarda Finlandiya, Shvetsiya va boshqalarda ommalashgan. Bu bayramga katta gulxanlar yondirilib, qo'shiqlar aytiladi, daryo va ko'llarda cho'miladilar, fol ochadilar. Avliyo Ioann kuni qanday tarzda qadimgi ma'jusiy diniy bayramni xristianlashtirilganligiga yaqqol misol bo'ladi. Bu bayram qadimda xo'jalik-dehqonchilik taqvimi udumlar boshqa qator avliyolar kunlarini nishonlashda ham kuzatiladi.

Ko'pchilik yevropa mamlakatlarida 1 noyabrda barcha avliyolar kunini nishonlashadi. Shu kuni marhumlarni eslashib, ota-onalar, qarindoshlar qabrlarini ziyorat qilishadi.

An'anaviy udum-marosimlar ayrim mamlakatlarda davlat muassasalari ishida hamroh bo'ladi. Masalan, Angliyada har yili parlament ish boshlaganida o'rta asr kiyimlaridagi guruh erto'lalarni ko'rib chiqib spikerga binoda fitnachilar yo'qligi haqida xabar beradi. Bu o'ziga xos udum 1605 yili Gay Foks boshchiligidagi fitnachilar parlamentni portlatish rejasi fosh etilganidan so'ng paydo bo'lgan.

Hozirda mavjud ijtimoiy tashkilotlar (profsoyuz, klublar, turli jamiyatlar va to'garaklar, studentlar, sportchilar, ovchilar, qo'shiqchilar va boshqa jamoyatlar) o'rta asr yevropa hunarmandari sex ittifoqlari asosida vujudga kelgan.

Ma'naviy madaniyat. Yevropa xalqlarida an'anaviy madaniyatni professional madaniyatdan ajratish mushkul. Sababi professional ijod bu yerda qadim zamonlardan boshlangan. Xususan professional teatr kurtaklari antik davrdan ochiladi. Grek teatri o'z ildizlari bilan dionisiylar – ommaviy vinochilik xudosi Dionis sharafiga o'tkazilgan bayram-marosimlardan boshlangan. M. av. VI-V asrlardan qadimgi Gretsiyada maxsus inshootlar amfiteatrlar qura boshlaganlar. O'rta asrlarda ko'plab evropa shaharlarida ko'chma teatrlar tomoshalar ko'rsatgan.

Yevropaning ko'pgina xalqlarida uzoq o'tmishda qahramonlik dostonlari bo'lib ularni bayramlarda, xalq saillarida xalq qo'shiqchilari kuylagan. Keyinchalik ushbu xalq og'zaki ijodi durdonalari yozib olingan. German qabilalarining "Nibelunglar haqida qo'shiq", fransuzlarning "Roland haqida qo'shiq", ispanlarning "Sid haqida qo'shiq", inglizlarning Beovulf, Artur haqidagi dostonlari asrlar davomida sof muhabbat, jasorat, mardlik, xalqqa sadoqatni tarbiyalab kelmoqda. O'rta asr Fransiyasida qahramonlik qo'shiqlarini shoir-qo'shiqchilar-trubadurlar, Germaniyada – minnezingerlar kuylaganlar. Nemis folklorining alohida janri – shvannlar. Ular satira shaklidagi kichik hikoyalardir. Nemislarda hayvonlar haqidagi ertaklar, masalan, ayyor tulki haqida ertak mashhur bo'lgan. Ertaklar og'zaki shaklda barcha yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan.

Fransiyada XVII asr oxirida ilk bor ertaklarni yozib ola boshlashadi(bu Sh. Perroning mashhur ertaklari bo'lgan). XIX asr boshlaridan nemis ertaklarining aka-uka Ya. va V. Grimmlar yozib olgan to'plamlari nashr etila boshlanadi. Boy milliy adabiyotlarning shakllanishida xalq og'zaki ijodidan keng foydalaniladi. Deyarli barcha evropa mamlakatlarida XVII– XIX asrlarda milliy dramatik, opera va balet teatrlari tashkil etiladi.

Yevropa xalqlarining musiqa san'ati an'analari ham juda qadimgi ildizlarga ega. Birgina Italiyada orginal xalq qo'shiqlari va raqs motivlaridan 20 mingini to'plab nashr qilganlar. Ular orasida uzoq o'lkalarda mashhur – barkarala –Venetsiya qayiqchilari – gondolerlar qo'shiqlari, neopolitan dengizchi va baliqchilarini sevgi haqidagi qo'shiqlari, Italiya zamonaviy nota xati, notalarni chop etish va qator musiqa asboblari vatanidir. Ko'plab italiyalik kompozitorlar xalq musiqasi asosida ijod qilganlar. Ayni paytda Rossini, Verdi, Puchchinilarning ko'plab musiqa asarlari chinakam xalq asarlariga aylanadi.

Yevropa xalqlari ko'plab sport turlarini ixtiro qilganlar va ular hozir butun dunyoda keng tarqalgan. Angliyadan futbol, to'pli xokkey, boks va boshqalar. Ko'plab qishki sport turlari Skandinaviyada vujudga kelgan. Chang'i va konkilar vatani – Norvegiyadir.

7. Yevropa xalqlari va jahon madaniyati.

Tarixiy-madaniy taraqqiyot. Tarixiy (iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy) taraqqiyot G'arbiy yevropadagi mo'tadil iqlim, unumdor erlarning ko'pligi, tabiiy qazilmalarning etarlicha ekanligi, qulay geografik holatdan unumli foydalangani tufayli yuksalib borgan. Qolaversa ko'plab evropa mamlakatlari o'z taraqqiyoti uchun mustamlakalar iqtisodiy resurslaridan ham foydalanganlar. Bularning barchasi uzoq vaqt yevropaga dunyoda etakchi iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeini egallash imkonini berdi. Yevropa xalqlarini milliy madaniyatlari muhim elementi ma'rifatparvarlik, gumanistik dunyoqarash bo'lgan. Milliy adabiyot, dramatik san'at, simfonik va opera musiqasi, umumiy va universitet ta'limi,ijtimoiy va tabiiy fanlar taraqqiyoti – bularning barchasi yevropaning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidir.

Yevropa siyosiy madaniyati. Qator qulay sharoitlar mavjudligiga qaramasdan evropa xalqlari siyosiy va ijtimoiy tajribaga os-

onlikcha erishmaganlar. Iqtisodiy taraqqiyotning notekis rivojlanishi, sanoat to'ntarishlari va ommaviy ishsizlik, yevropa hududidagi ko'plab urushlar, ular orasidagi eng yirigi Napoleon urushlari, XX asrdagi ikki jahon urushi – 1914-1918 va 1939-1945 yillar. Ikkinchi jahon urushida yevropa xalqlari millionlab aholisini yo'qotadi. Hatto XX asr oxirida ham qit'ada irland muommosi, basklar muommosi, flamand-vallon ziddiyatlari, so'nggi yillarda, terrorizm aktlari, yevropaga Yaqin Sharq va Afrikadan yuz minglab qochoqlarning kelishi farovon sanalgan qit'ada yangi-yangi muommolarni yuzaga keltirmoqda. Lekin bu jarayonlar yevropa hamjamiyati doirasidagi qit'aning birlashuviga rahna solishi mumkin emas.

Savol va topshiriqlar.

1. Yevropa aholisining etnik tarixi asosiy bosqichlari qanday bo'lganini so'zlab bering.
2. Zamonaviy yevropa aholisining etnolingvistik tavsifi bo'yicha nimalarini bilasiz?
3. Yevropaliklar rasalari va rasa tiplari haqida nimalarni eslab qoldingiz?
4. Xorijiy evropaliklarning an'anaviy va zamonaviy xo'jaliklari haqida so'zlab bering.
5. Moddiy madaniyat turlari: qo'rg'onlar va qishloq uylari, undagi transformatsiya jarayonlarini gapirib bering.
6. An'anaviy taomlar va ularning dunyoga yoyilishi qanday kechgan?
7. Yevropa aholisi kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik.
8. Oilaviy va jamoaviy turmushdagi xususiyatlar nimalardan iborat?
9. Bayramlar va ma'naviy madaniyatdagi jarayonlar.
10. Yevropa xalqlari va jahon madaniyati. Vesternizatsiya jarayonlarini tavsiflang.

16-BOB. SHARQIY YEVROPA XALQLARI.

1. Umumiy ma'lumotlar: joylashuvi, tillari, dinlari.

Sharqiy yevropada aksari aholi hind-evropa tillarining slavyan guruhiga mansubdir.

G'arbiy slavyanlarga: polyaklar, chexlar, slavyanlar, lujichlar (sharqiy Germaniyada yashaydilar) kiradi.

Janubiy slavyanlarga: bolgarlar, serblar, xorvatlar, slovenlar, makedonlar, chernogorlar, bosniyaliklar va gersogovinaliklar mansub. Lujichlardan boshqa sanab o'tilgan xalqlarni barchasi o'z davlatlariga ega.

Xorijiy yevropaning slavyan davlatlari ko'pchiligida milliy kam sonli etnoslar yashaydi. Jumladan, Polshada ukrainlar, beloruslar, slavyanlar va litvaliklar; Chexiyada: polyak va nemislar; Slovakiyada: lo'lilar va vengerlar; Sloveniyada: xorvatlar va vengerlar; Xorvatiyada: serblar, vengerlar, slovenlar, chexlar, italiyaliklar; Serbiyada: albanlar, vengerlar va boshqalar istiqomat qilganlar. Bosniya va Gersogovina – ko'p millatli bo'lib, unda slavyan musulmonlar, shuningdek serblar va xorvatlar yashaydi.

G'arbiy va janubiy slavyanlarning ayrim guruhlari Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Vengriya, AQSh, Kanada va boshqa davlat hududlarida yashaydilar.

Antropologik jihatdan g'arbiy va janubiy slavyanlar evropeoid rasasiga mansub. Xususan, slavyanlar evropeoid katta irqining alp tipiga kirsa, serblar ulardan bo'yi balandroq, sochlari nisbatan qora, qora ko'zli bo'lib, olimlarning fikricha, ular (xorvatlar singari) da Old Osiyoliklar bilan aralash xususiyatlar mavjud. Chernogorlar yevropa slavyanlari ichida eng baland bo'ylisi hisoblanadi.

Bolgariyaning markaziy va janubiy rayonlari aholisi O'rta yer dengizi rasa tipining sharqiy variantiga mansub. Bolgar – musulmonlar jismoniy jihatdan bolgar xristianlaridan farq qilmaydilar. Chexlar, slavyanlar, lujichlar – alp tipining yorqin vakillaridir. O'rta bo'y, boshining yumaloq ekanligi va mo'tadil – qora pigmentatsiya (sochi va ko'zi) si bilan xususiyatlanadilar. Polsha aholisi antropologik ko'rsatkichlariga ko'ra markaziy evropa tipiga kiritilishi

mumkin. Chunki polyaklarning eng qora sochli va qora ko'zli guruhlari alp tipi vakillaridan oqroqdir.

G'arbiy va janubiy slavyanlar ulkan, Boltiq dengizidan O'rta yer dengizigacha hududlarda yashaydilar. Qadimda markaziy va janubiy-sharqiy yevropada yashagan slavyan qabilalari antik mualliflar tomonidan venedlar deb nomlanganlar. M. I mingyillik o'rtalaridan antik mualliflar asarlarida g'arbiy slavyanlarni slavinlar, sharqiy slavyanlarni esa antlar deb nomlanganlar. Har ikkala nom slavyanlarni o'zlarini atagan nomlarini turli variantlaridir.

G'arbiy va janubiy slavyanlarning aksari ko'pchiligi xristianlikka e'tiqod qiladi. Xristianlikning turli mazhablari: katolitsizm, protestantlik va uniatlik (grek – katolik cherkovi) rim papasiga bo'ysunadi. Lekin provaslav udumlarini saqlagan. Provoslaviyani serblar, bolgarlarning ko'pchiligi, chernogorlar va makedonlar; katolitsizmni polyaklar, xorvatlar, slovenlar, chexlarning va slovaklarning ko'pchiligi; protestantizmni chexlarning bir qismi, slovaklar, lujichlar (boshqalari katoliklar), slovenlar va xorvatlar; uniatlikni Polsha va Slovakiya aholisining ayrim guruhlari saqlaganlar. Asosiy diniy mazhablardan tashqari turli sektalarga kirgan aholi vakillari ham uchraydi. G'arbiy va janubiy slavyanlarda xristianlikka qator qadimgi dinlar va diniy tasavvurlarning unsurlari yondosh bo'lib, ular udum-marosimlarda o'z aksini topgan. Slavyanlarda vampirlarga, suv parilari, xonadon egasi, tabiat ruhlariga ishonch uzoq saqlangan. Ko'pgina slavyan xalqlarida uy o'chog'ini yovuz ruhlardan asrashiga ishonch ham mavjud.

Bolgarlarda ayrim o'simliklar, hayvonlarga nisbatan e'tiqod saqlangan. Xususan, ular keksa eman daraxtlariga xurmat bildirishsa, qizil butasi mevalariga sog'lik va uzoq umr ato etuvchilik xususiyati mavjud deb qaraladi. Bo'ridan qo'rquv alohida noyabr oyining 2-3 haftasida bo'ri bayramlari o'tkazilishiga olib kelgan. Unda bo'rini jahlini chiqarmaslik uchun ma'lum ta'qiqlarga rioya qilishgan. Tulkilar, ilonlar, sichqonlar bilan bog'liq e'tiqodlar ham mavjud bo'lgan. Turklar XIV-XV asrlarda yevropani istilo qilish davomida mahalliy aholiga islomni o'tkazish siyosatini olib borganlar. Slavyan – musulmonlar ichida Bolgariyada – polyaklar, makedoniyalik to'rboshilar, chernogoriyalik poturechenlar, Bosniya va Gersogovinaning bir qismi aholisi mavjud.

2.Etnik tarix. Xorijiy slavyanlar antik mualliflarga milodning dastlabki asrlaridan – buyuk xalqlar ko'chishi davridan ma'lum bo'lgan. Xorijiy slavyanlarning ilk vatanlari yuqori va o'rta Visla xavzasi, shuningdek Pripyat daryosi janubiy qismi bo'lgan. Xunnlar slavyanlarni Sharqiy Rim imperiyasiga kirishiga to'sqinlik qilgan. Attila boshchiligidagi xunnlarning mag'lubiyati va ittifoqning parchalanishi bu to'siqni bartaraf etdi. Natijada VI asrdan slavyanlar Bolqon ya. o. va Kichik Osiyoga kirib joylasha boshlaydi.

G'arbiy slavyanlar VI-VII asrlarda Odra (Oder) va Laba (Elba) daryolari ortida joylashadilar. Morava darvozasi deb nomlangan hududdan slavyanlar janubga va janubiy-g'arbga, Alp tog'lari va Adriatika dengizi: janubiy sharqda Dunayning quyi oqimiga va Qora dengiz sohiliga chiqadilar. Janubiy slavyanlar 580 yilgacha Bolqonning talay hududlarini egallaydilar.

Slavyan davlatlari. G'arbiy va janubiy slavyanlarda mulkiy tabaqalanish va ilk xususiy mulkchilikka asoslangan davlatlarni vujudga kelishiga sharoit VI-VII asrlarda etiladi. Samo davlati (623) unda chexlar, slavyanlar, lujichlar, xorvatlar va slovaklarning bir qismi vaqtinchalik birlashganlar. Birinchi Bolgar podsholigi (681), Buyuk Moraviya (IX asr boshida), Chexiya knyazligi Prjemislovichlar boshchiligida (X asr), Nemanichlarning Serb davlati (1168) ular qatorida bo'lgan. Bu davlatlarda shaharlar vujudga kelib, slavyan yozuvi shakllanadi. G'arbiy va janubiy slavyan elatlari shakllana boshlaydi.

G'arbiy va janubiy slavyanlar boshqa evropa davlatlari tarkibida. O'rta asrlarning so'nggi va yangi davrda ko'pgina xorijiy evropa slavyanlari turli davlatlar tarkibiga kirib, bu hol ularning keying taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi.

Bolqon ya. o. dagi slavyan davlatlarining siyosiy tarqoq bo'lishlari XIV asrdan Usmoniy turklarni bosqinlarini engillashtiradi. Rodopi tog'laridagi aholisini turklar islom diniga majburan o'tkaza boshlaydilar. Turklarni musulmon bo'lmagan aholiga nisbatan kamsitish siyosatini olib boradilar. Avstriya imperatorlari xonadoni Gabsburglar XVI asr o'rtalarida chex, slovak, sloven va xorvatlar erlarining talay qismini egallab, slavyanlarni nemislashtirish siyosatini olib boradi. Gabsburglar siyosatining muhim jihati ular

markazlashgan davlatni kuchaytirish borasida imperiyaga kirgan xalqlarni etnik o'ziga xosligini zaiflashtirishga intilganlar.

Polshada erlari uchta bo'linishdan so'ng XVIII asr oxirida va Napoleon urushlaridan keyin Rossiya, Prussiya va Avstriya tarkibiga kiritiladi.

Xorijiy yevropa slavyan xalqlarining faol milliy yuksalishi davri XVIII asr oxiri – XIX asr boshlari bo'ladi. Bu borada slavyan tillari va madaniyatini saqlash va yuksaltirish uchun kurash barcha slavyanlarni o'z huquqlari uchun harakati tusini oldi. Slavyan uyg'onishi davrida slavyan millatlarini shakllanishiga sharoit yaratiladi. Bu jarayonga ichki bozorning vujudga kelishi, milliy burjuaziyaning yuksalishi, siyosiy tashkilotlar faoliyati, adabiy tillarning shakllanib, adabiyotning yaratilishi, milliy-ozodlik kurashlarining turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi asosiy omillar bo'lgan.

Chet mamlakatlar hukmronligi sharoitida vaziyatning murakkab bo'lishiga qaramay g'arbiy va janubiy slavyanlar o'z milliy tillari hamda madaniyatlarini saqlay oladilar. XIX asrning 70 yillarida Rossiya ko'magida bolgarlar, serblar va chernogorlar mustaqillikka erishadi. Birinchi jahon urushidan so'ng Polsha va Chexoslavakiya mustaqil davlatlarga aylanadi. Serbiya, Chernogoriya, Xorvatiya, Sloveniyaning katta qismi va boshqa janubiy slavyan davlatlari birlashib, Yugoslaviya qirolligini (1929) tuzadilar.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Polshaga uning Sileziya, Pomore va boshqa nemislar egallagan erlar qaytariladi. Yugoslaviya Italiya egallagan slavyan va xorvat erlarini qaytaradi. Qator qonunlar bilan Germaniyada yashayotgan lujichlar milliy-madaniy taraqqiyoti huquqlari mustahkamlanadi.

XX asrning 90 yillarida sobiq sotsiolistik davlatlarda turli mojarolar hokimiyatni muxolif guruhlar tomonidan egallanishi hatto o'zaro urushlar (Yugosloviyada serblarning musulmonlarga nisbatan qirg'in siyosati) ko'plab davlatlarni parchalanishiga olib keldi. Oqibatda sobiq Yugoslaviya o'rnida sakkizta: Serbiya, Xorvatiya, Makedeoniya, Sloveniya, Bosniya va Gersogovina, Chernogoriya va boshqalar vujudga keldi.

Hozirga qadar Serbiyaning Kosovo va Metoxiyadagi etnik kam sonli albanlar, Voevodinoda vengerlar, Sanjak viloyatida (Bosniya

bilan chegaradosh) musulmonlar bilan munosabatlari murakkabligicha qolmoqda.

Bosniyadagi inqiroz ayniqsa fojiali tus oldi. Sababi undagi aholining etnik tarkibi xilma-xilligi, ularning aralash yashashi, konfessiyalar (musulmon, pravoslav, katoliklar) bo'lishi, shuningdek siyosiy va iqtisodiy omillar Bosniyadagi urush harakatlari BMT va NATO harbiy kuchlari aralashuvi bilan to'xtatildi. Bugungi kunda sobiq Yugoslaviya respublikalar i yevropa hamjamiyati va NATOga a'zo, unga kirmaganlari ham yaqin yillarda a'zolikka o'tishlari muqarrar.

3. Xo'jalik mashg'ulotlari.

Dehqonchilik. Slavyanlar qadimdan o'troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Lekin ularga boshqa faoliyat turlari: ovchilik, baliqchilik, asalarichilik, o'rmon bilan bog'liq kasb hunarlar ham tanish. Ular asosiy xo'jalikka ko'mak beruvchi sohalar bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarda slavyanlar erlarida ishlov beriladigan erlarga qatorasiga bir necha yil ekin ekishgan. Ekinzorlar hosildorligi pasaygandan keyin yangi erlarga o'tishgan. Keyinchalik ikki dalali almashlab ekish joriy qilingandan so'ng olinadigan hosil yanada ko'payadi. Uch dalali almashlab ekishga o'tilishi: bahorgi, kuzgi ekinlar va shudgor qoldirish tarzida bo'lgan.

Qishloq xo'jalik texnikasi uzoq payt sodda ko'rinishda bo'lgan. Yerni temir tishli yog'och rala (omoch) bilan haydaganlar. XIX asrning ikkinchi yarmidan takomillashgan erni yorib yumshatishga emas, ag'darishga mo'ljallangan temir plug joriy qilindi. Seyalkalar XIX-XX asr chegarasidan qo'llanila boshlanadi. Yerni yog'ochdan yasalgan baronalar bilan yumshatishgan. Ilgari donni tishli yoki silliq yuzli o'roqlar bilan o'rganlar. XIX asrdan boy dehqon xo'jaliklarida bug'doyni o'rish texnikasi paydo bo'ldi. G'arbiy slavyanlar XIX asr o'rtalarigacha donni zanjirlar yordamida yanchganlar. Janubuy slavyanlarda boshqa usullar ham qo'llanilgan. Jumladan, Serbiya va Makedoniyada xirmonda yig'ilgan don bog'larini hayvonlarni aylantirib haydab yanchishgan. Chexlar dehqonchilik madaniyati XIX asr oxirlarida boshqa slavyan xalqlarinikidan yuqori turgan. Barcha hududlarda erlarni o'g'itlash, ekinlarni almashtirish, qishloq xo'jalik texnikasidan foydalanish qo'llanilgan.

Slavyanlar suli, bug'doy, arpa va boshqa ekinlar ekishgan. Janubiy slavyanlarda aksari bug'doy ekilsa, XVII asrdan makkajo'xori joriy qilinadi. Polsha, Chexiya, Slovakiyada makka yetishtirish XIX asardan boshlangan. Ayni paytdan qora javdar (grechixa) ekish boshlangan. Dukkaklilardan loviya, no'xat yetishtirilgan. Ushbu ekinlar markaziy va janubi-sharqiy yevropada bugungi kunda ham yetishtirilmoqda.

Slavyanlar texnik o'simliklardan zig'ir poya va kanop ekkanlar. Bolgariyaga XVII asrda turklar tamaki keltirib, u keyinchalik asosiy ekinlardan biriga aylanadi. Bolgariyada yetishtiriladigan yana bir o'ziga xos narsa Kichik Osiyodan olib kelingan atirgul undan parfyumeriya sanoati uchun atirgul moyi olinadi.

Bolqonda ipakchilik va tut daraxti ekish keng tarqalgan. Vizantiya imperiyasi davridayoq bu hududlarda ipak qurti boqishgan. Tut daraxtlarini ommaviy ekish esa XVII-XVIII asrlarda bo'lgan.

Slavyanlar ayniqsa Bolqon ya. o. da turli sabzovatlar – karam, lavlagi, sarimsoq yetishtirishda katta mahoratga erishganlar. XIX asr oxiridan slavyan mamlakatlarida janub ekinlari: pomidor, qalampir, baqlajon yetishtirila boshlanadi. Kartoshka XVII asrdan ekila boshlansada faqat XIX asrdan asosiy oziqlardan biriga aylanadi. Slavyan erlarida XVIII asrdan tovar va ixtisoslashgan polizchilik shakllanib tez orada qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining muhim sohasiga aylanadi. Uzumchilik va vinochilik ham Bolqonda ko'p asrlik tarixga ega. Bolgariya, Yugoslaviya vinolari xalqaro bozorda o'z o'rinlariga egadir. Ilk o'rta asrlardan slavyanlarda bog'dorchilik (olma, nok, olxo'ri) va uzumchilik yuksalib borgan. Polsha, Chexiya, Slovakiyaning janubida XIX asrdan o'rik, shaftoli, yong'oq daraxtlari parvarishlashgan. XX asr boshlaridan slavyanlar bog'larida malina va smorodina kabi mevalar ham yetishtirila boshlanadi.

Boshqa qishloq xo'jalik mashg'ulotlari. Janubiy va g'arbiy slavyanlar minglab yillardan buyon yirik shoxli mol, qo'y, to'ng'iz va uy parrandalarini boqqanlar. O'tmishda transport vositasi sifatida ho'kizlar va qo'toslar ishlatilgan. Chorvachilikda XIX asrning oxirida katta o'zgarishlar bo'ldi. Qo'ychilikning ahamiyati pasayib, Bolgariyadan boshqa mamlakatlarda echki va qo'toslarni boqish to'xtatiladi. Ayni paytda to'ng'iz boqish va yilqichilik ancha yuk-

saldi. Asalarichilik ham slavyanlarda uzoq asrlardan buyon mavjud, uning bilan Polshaning o'rmonli hududlarida, Karpat tog'larida va Bolqon ya.o.da shug'ullanilgan. Aksari asalarini novdalardan zich to'qilgan konussimon usti loy bilan suvalgan uyalarda boqishgan. Tik o'rnatilgan daraxtdan yasalgan asalari uyalari ham aholiga tanish bo'lgan. Xorijiy slavyanlarda ov ikkinchi darajali sevimli mashg'ulot bo'lgan.

Janubiy va g'arbiy slavyanlar uchun an'anaviy mashg'ulotlardan biri baliqchilik bo'lgan. Baliqchilar artellari ilgaridan bo'lib, ular boylardan baliq ovlash huquqini sotib olib, ushlangan baliqdan bir qismini ijara haqqiga berishgan. Polsha, Chexiya, Slovakiya, Bolqon ya. o. da baliqchilar artellari, kooperativlari va davlat baliq korxonalari bugunga qadar keng tarqalgan.

Uy hunarmandchiligi. Eng keng tarqalgan xo'jalik turlaridan biri uyda mato to'qish bo'lgan. Unga asosiy ashyo kanop va jun edi. Matolar yuksak badiiy did bilan bezatilgan. Har bir xalqni o'ziga xos dekorativ ornamenti bo'lgan. Polshada kashtachilik, savatlar to'qish qadrlangan. Bolqonda gilam to'qish keng tarqalgan. Slavyan va antik an'analar asosida sopolchilik ishlab chiqarishi yuksalib, uning uchun buyumlarni chiroyli bo'lishi, badiiy bezash xususiyatli edi. Xalq kasb – korlaridan an'anaviy soha yog'ochsozlik bo'lib; mebel, bochkalar, dehqonchilik qurollarining yog'och qismlari, g'ildiraklar, arava, qayiqlar yasash ham qadim tarixga ega.

Bolqon mamlakatlari aholisi ilgaridan madanlarga ishlov berish – mis, kumush va hokazolarga, misdan taqinchoqlar yasashda turli usullar qo'llanilgan. Shaharlarning yuksalishi va hunarmandchilik markazlarini kustar sanoatga aylanishi, keyinchalik ular yirik fabrika-zavod ishlab chiqarishiga asos bo'ladi. Markaziy yevropada yangi sanoat urbanizatsiyalashgan rayonlar xo'jalik-madaniy tipi Chexiya va Slovakiyada vujudga keladi. Polshada ham: Varshava, Lodz, Sileziya sanoat rayonlari erta shakllanadi. Bolqon ya. o. ning slavyan mamlakatlarida Serbiya, Xorvatiya va Sloveniyadan tashqari hududlar Usmoniylar hukmronligi sababli sanoat taraqqiyotida ortda qolishadi.

4. Moddiy madaniyat

Qo'rg'onlar (qishloqlar). Slavyanlarning ilk qo'rg'onlari uyali yoki to'p-to'p shaklida joylashgan. Ko'phovlili qishloqlar ko'pchilik

slavyan mamlakatlarida bir necha tiplarga bo'lingan. Uylari to'p-to'p qilib qurilgan qishloqlar Polshada, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Serbiya, Xorvatiyada to'g'ri burchakli emas, aylana yoki cho'zilgan shaklda bo'lgan. Ayrim qishloqlarning o'rtasida maydon joylashgan. Bu xildagi aholi manzilgohlari aksari tog'oldi hududlarida joylashgan.

Tarqoq manzilgohlar: Bolgariya, Sloveniyaning Alp qismida Makedoniya, Chernogoriyaning ayrim rayonlarida dehqonlar hovlilari yoki uy-joylar guruhlari alohida tartibsiz holda qurilgan. Uylarning ko'chalar bo'ylab qurilishi: Polsha, Sloveniya, Chexiyada daryolar yoqasida keng va ravon yo'llar yoqasida qishloqlar ham uzoq davrlar davomida vujudga kelgan. Qator qilib qurilgan tipga tog'oldi va tog'lardagi zanjirsimon (Slovakiya) rejali qishloqlarni ham kiritishdi. Bu xildagi qishloqlarda asosiy o'zak yo'l bo'lib turar joylar yo'l yoqasida shakllangan.

Urchiqsimon rejadagi qishloqlar (G'arbiy Polsha) uchburchak shaklida chekkadan markazga tomon kengaya boradigan ko'cha atrofida qurilgan. Yirik qishloqlar (Polsha, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya) uy-joylari odatda markaziy maydon atrofida shakllangan. Aholining tabiiy o'sishi tufayli slavyanlar manzilgohlari ham yiriklashib, undagi uy-joylar zichlashib borgan. Bozor munosabatlarini hayotga joriy etilishi davomida yirik oilalar bo'linib qishloqlarda yangi ko'chalar, mavzelar shakllanib eski qishloqlar tarxi tobora takomillashib boradi.

Slavyanlar erlarida ilk shaharlar vujudga kelishi m. VII asrdan boshlangan. Shaharlar markazida maydon joylashgan. Shahardagi aynan markaziy maydonga nisbatan mavzelar to'g'ri burchakli yoki to'rt burchakli , uning atrofida (Varshava, Krakov) qurilib borgan. O'rta asrlarda barcha yirik shaharlar tosh devorlar bilan o'ralgan. Slavyanlarning qadimgi shaharlari (Sofiya) tarixi antik davrlardan boshlangan. O'rta asrlarning rivojlangan davrida ayrim yirik qishloqlar hunarmandchilik asosida kichik shaharlar (Gabrovo) ga aylanadi. Kapitalistik munosabatlar yuksalgan davrda bu shaharchalar sanoat markazlariga aylanadi.

Uy-joylar. An'anaviy qishloq uylari Markaziy yevropa va Bolqondagi slavyan mamlakatlarida turli xilligi bilan xususiyat-

langan. Bolqonda ko‘plab xilma-xillikka ega janubiy slavyan tipi tarqalgan.O‘tmishda bu xildagi uylarda kishti deb nomlangan ichida o‘choq o‘rnatilgan xonasi bo‘lgan.Bunday uyda bir yoki ikkita (soba, staya) deb nomlangan yashaydigan xonalar ham qurilgan.Uyning oldida ustunlarga tayangan terrasa-ayvon ham qoldirilgan.O‘choqli xonaga vodnik degan devorga yaqin joyda chelaklar osilgan idish-tovoq, qoshiqlar saqlangan.Uning yonida un saqlanadigan yog‘ochdan idish va boshqa oziqlar qo‘yilgan. Ovqat past aylana shaklidagi stolga qo‘yilgan. Xonadon egalari past uch oyoqli taburetkalarda o‘tirganlar. Devor bo‘ylab qo‘yilgan taxtadan yasalgan ensiz yotoqlarda yoki polda uxlashgan.

Bolqon yarimorolining tekislik hududlarida XIX asrda asosiy qurilish ashyosi loy va tosh bo‘lgan. Loydan uylarni ikki usulda qurishgan.Birinchi usulda paxsa shaklida somonli loydan devorni asta-sekin o‘stirib borishgan. Ikkinchisida devor ustiga o‘rnatilgan taxtadan qolipni ichiga loyni solib, mustahkamlab qurigandan so‘ng qolipni olib yana yangi qatlamni boshlashgan. Boylar uylarini pishiq g‘ishtlardan tiklashgan.Bunday uylar g‘arbiy slavyanlarda ham tarqalgan.

Uylarning g‘arbiy o‘rta evropa tipi ko‘p jihatdan janubiy evropa tipiga o‘xshash bo‘lib, Lujitsa, Polshaning g‘arbi va Chexiyada uchraydi. Qadimda bu xildagi uylar Markaziy yevropaning kelt aholisida keng tarqalgan edi. Slavyanlarning tog‘li rayonlari alp tipidagi uylar qurilgan. Unda baland ikki-uch qavatli yashash va birinchi qavatdagi xo‘jalik xonalaridan iborat.

Sharqiy O‘rta yevropa tipidagi uylar polyaklar, chexlar, slovaklar, lujichlarda tarqalgan. Bu yog‘ochlarni yo‘nib qurilgan yoki sinchli uylar bo‘lgan. Ularning tomi ikki yoki to‘rt tomonga qaratib qurilib, mayda taxtachalar yoki somon bilan yopilgan.O‘tmishda xorijiy slavyanlarda engil novdalardan to‘qilib loy bilan suvalgan uylar ham bo‘lgan.

Qurilish bilan bog‘liq turli udumlar ham uchraydi. Jumladan, yog‘ochdan yo‘nib devor tiklashda oldingi burchakka tangalar, bir bo‘lak non va bir siqim bug‘doy qo‘yib, “baxtli sihatli bo‘lsin” deb tilak bildirishgan. Bu narsalar xonadon egalariga to‘kin hayot va ishlarida omadni ta’minlaydi deb hisoblashgan.

G‘arbiy va Janubiy slavyanlarning zamonaviy uy-joylari an’anaviysidan ancha farq qiladi. Uylarning tarxi barcha rayonlarda bir xil. Shahar tipidagi mebellar fabrikalarda tayyorlangan. Xonalarni vazifalari ham xalq turmushi taraqqiyoti davomida o‘zgarib bormoqda.

Kiyim-kechaklar. Slavyan xalqlari kiyimlari ham turli xil. Xususan, o‘rta asrlarda kiyimlarda mulkiy tabaqalanishni va regional differensiyasasi yorqin namoyon bo‘lgan. Tabiiy cho‘pon kiyimi dehqonlarnikidan farqlangan.Keksa kishilar yoshlarga nisbatan odmiroq kiyinganlar. Kiyimlar matosi, kiyish usuli va ranglarida farqlangan.

Xorijiy slavyanlarda ayollar va erkaklar kiyimi asosini uyda zig‘irpoyadan yoki kanopdan to‘qilgan matodan tikilgan ko‘ylak tashkil etgan. Ko‘ylaklar fasonida tunika shaklidagi qo‘ltig‘iga uchburchak qo‘shimcha qo‘yiladi. Chernogoriya va Bolgariyada ko‘ylak ko‘kragida kesim qoldirilib, uning xoshiyasiga, englariga jiyak yoki kashtalar tikilgan. Ko‘ylakni erkaklarga kalta, ayollarga uzun qilib tikishgan. Bolgariyada ko‘ylak ustidan ko‘k yoki qora rangli jun matodan sarafan (sukman) kiyishgan. Sarafanni etagi kashta yoki jiyak bilan bezatilib, beli jundan naqshli kamar bilan bog‘langan. Ayollar kiyimining o‘ziga xos qismi fartuk yoki ikki fartuk ham oldidan ham orqadan taqilgan. Orqaga taqiladigan fartuk (pristilka) kaltaroq va kengroq bo‘lgan. Oldiga nisbatan ensizroq, sillik va yorqinroq fartuk taqilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan Markaziy va Janubiy-Sharqiy yevropada shahar fasonidagi beli ixcham qilib tikilgan yubkalar keng tarqaladi.

Janubiy va g‘arbiy slavyanlarda ustki kiyimlarda turi va fasoni bo‘yicha xilma xil bo‘lgan. Po‘stinlar, kaftanlar, yopinchiqlar. Ustki kiyimning qadimgi turi plashsimon tikilgan kiyim bo‘lib, u bizning kunlargacha bolgar va chernogor tog‘li aholisida, polyaklar, lujichlar, xorvatlarning ayrim guruhlarida saqlangan.

Erkak va ayollarning bosh kiyimlarida ham mahalliy turlar ko‘p bo‘lgan. Qizlar yozda bosh kiyimsiz sochlarini bir yoki ikki o‘ramga turmaklab yurganlar. O‘tmishda ayollar bosh kiyimlari murakkab ikki shoxli, bir shoxli, silindr, kesilgan konus shaklida bo‘lgan. Qishda mo‘yna, junli telpaklar, ro‘mollar kiyishgan.

Poyafzal ham xilma xil bo'lgan. An'anaviy oyoq kiyimlari teridan etiklar, yumshoq tuflilar, jundan paypoqlar (o'tmishda), tagi yog'ochdan poyafzallar ham kiyilgan.

Klassik xalq libosi turli bezaklar: kumush tangalardan, marjonlardan bo'yinga taqiladigan zeb-ziynatlar slavyan ayollarida keng tarqalgan. Dalmatsiyaning shimolida ayollar metaldan quyilgan zanjir ko'rinishidagi kamar taqqanlar. Bolgariya, Serbiya, Bosniya, Gersogovina, Chernogoriyaning ayrim rayonlarida kiyimlar bichimida turklar ta'siri seziladi. Bu joylar aholisi turk ayollaridan ishtonni, erkaklar qizil feskalarni (bosh kiyimi), ustidan ro'mol bog'lanadigan movutdan qalpoqlarni o'zlashtirganlar. Ijodiy qayta ishlangan ayrim an'anaviy kiyim elementlari bugungi kunda tekstil va engil sanoat tikuvchilik fabrikalarida ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda. Markaziy va Janubiy-Sharqiy yevropa yirik shaharlari aholisi ichida qishloq kashtachiligi, ular tayyorlagan ko'ylaklar, ro'mollar qadrlangan.

An'anaviy kiyimlar badiiy jamoalar qatnashchilari uchun ham tayyorlanadi. Bayramlarda folklor jamoalari chiqishlarida biz xorijiy slavyanlarning an'anaviy liboslari qanchalik rang barang va chiroyli bo'lganligiga ishonch hosil qilamiz.

6. Oila va jamiyat. Slavyanlarda yirik oilalar uzoq payt saqlangan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ularda ikki xil oila turi: kichik (oddiy) oila er-xotin va ularning turmush qurmagan farzandlaridan va yirik (murakkab) oila, unga bir necha er-xotin va ularning farzandlari birlashib (janubiy slavyanlarda – zadruga, g'arbiy slavyanlarda – nedelni rodina, nedelni bratya yoki velke gazdovstvo) deb nomlangan.

Slavyan xalqlarida katta oila qarindoshlar jamoasida 30 ba'zida 50 tagacha va undan ham ko'p kishini birlashtirgan. Xo'jalikni tashkil qilish, uy sharoitida, udum-marosimlarida qat'iy ierarxiyaga rioya qilingan. U yoshi eng ulug' erkakning boshchiligida kichik ukalarning unga bo'ysunishida namoyon bo'lgan. Eng yoshi katta erkak oila mulki egasi, uyda xo'jayin bo'lgan.Oilada uy bekasiga ham ehtirom ko'rsatilgan. Beka uydagi barcha yumushlarni boshqargan, oiladagi xotin-qizlarga ishlarni taqsimlagan. Eng og'ir vaziyat kichik kelinda bo'lib, unga og'ir yumushlar yuklatilgan. Bolalar

kichik yoshidan mehnatga o'rgatilgan. Ularga kattalarga quloq solish, ularni hurmat qilish uqtirilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, shaharlar va sanoatning yuksalishi yirik patriarxal oilalarning bo'linishi, kichik monogam oilalarni ajralib chiqish jarayoni xorijiy salavyanlarda ham murakkab kechgan. Bu jarayon slavyanlarda ham nikoh yoshining o'sishi, tug'ilishning pasayishiga olib keladi.

Qon-qarindoshlik munosabatlarida xristian diniga xos farzandni cho'qintirganda bolani "krestniylari"- ota-onasi tanlanib ular ushbu oilaga butun umr yaqin bo'lib qoladilar. Bu sun'iy qarindoshlik qon-qarindoshlikka qiyoslanib, hatto kumlar farzandlariga o'zaro nikoh ham ta'qiqlangan. Kum an'analari shaharlarda ham saqlangan. Ma'naviy qardoshlikka Serbiya, Chernogoriya va Makedoniyada tarqalgan xranenchestvo odati ham kiradi. U Kavkazdagi otaliq odatiga yaqin farzandsiz oila qarindoshlaridan birining farzandini kichikligida olib boqqanlar. Janubiy slavyanlarda o'g'il bolalarni "birodarlik", "inilik", qizlarni "opa-singillik" ittifoqlarini tuzish an'anasi bo'lib, bu xildagi kelishuvdan keyin, ya'ni qarindoshlar bir-biriga har qanday yordamni berishiga tayyor bo'lishlarini ta'kidlashgan. Bunday kelishuv, ittifoqlar turklar hukmronligi paytida, odamlar o'zaro qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lganlarida ayniqsa keng tarqalgan.

Janubiy va G'arbiy slavyanlarda o'tmishda nikoh ota-onalar ixtiyori bilan tuzilgan. Bu tadbirda iqtisodiy omil etakchi o'rin tutgan. Nikoh to'ylari kuzda hosil yig'ib olingandan so'ng, va bahorda maslenitsa bayrami paytida o'tkazilgan. Konfessial tafovut nikohni tuzilishiga to'siq bo'lishi mumkin edi. Kuyovning yaqin qarindoshlari qiznikiga borib uning oilasi bilan tanishib, ikki tomonni imkoniyatlarini chamalaganlar. Bir necha kundan keyin kelinni ko'rishga borilgan. Ikki tomon bir-biriga ma'qul tushsa, fotiha qilingan. Shundan so'ng nikoh kelinning sepi masalasi muhokama qilingan. Kelishilsa kelin-kuyovlar uzuk va sochiq almashganlar. Slavyanlarda kuyovga gul berishgan, bu gulni u o'z shlyapasiga taqib olgan. Ba'zi joylarda kelishuv paytida kelin-kuyovlar qo'llarini nonga qo'yib, tantanali birlashtirganlar. Bolgariyada kelishuv ikkita: kichik va katta ko'rinishda o'tkazilgan.

Nikoh to'yi arafasida yigit do'stlariga, kelin dugonalariga bazm qilib erkin hayot bilan xayrlashadilar. Qizlar bazmida kuyovga to'y bosh kiyimi tayyorlashgan.Kuyovnikida marosim nonlari uchun xamir qorilgan. Bu ishlarning barchasi marosim qo'shiqlari bilan hamohang olib borilgan. Yoshlarni to'yga xarajati ko'pincha yoshlarni ota-onalari imkoniyatidan yuqori bo'lgan. Natijada butun qishloq ahli qo'shnichilik yordamini ko'rsatishadi. To'yga butun qishloq aholisi taklif etilgan. Kuyov jo'ralar uylanmagan yigitlardan, kelinni dugonalari turmushga chiqmagan qizlardan tuzilgan to'yda qizning "diniy onasi" (krestnaya) katta o'rin tutgan.

Tantanalarni oqsoqol – barcha hurmat qiladigan, uylangan kishi boshqargan. Cherkovda nikoh tadbiri o'tkazilib, qaytilganda kelin-kuyovni ustiga qaynona don va gullarni sochgan. Bu yoshlarga to'kin va farovon hayot ta'minlashi lozim edi. Yoshlar kuyovnikiga kirishlarida oq sochiq to'shalgan, so'ng o'choq yoniga borishgan. Unga kelinni qo'lini tekkizish yangi joyiga ta'zimni anglatgan. To'y marosimida ma'lum afsungarlik udumlari ham bajarilgan. Bu urf-odatlar yoshlarga sog'liq, forovonlik va farzandlar ato etishi lozim bo'lgan.

Xorijiy slavyanlarda nikohning boshqa turlari ham uchragan. Jumladan, kelinning ota-onasi rozi bo'lmagan holda kuyov kelinni o'z uyiga olib ketishi. Bu holda kuyov tomon ortiqcha tantanalarsiz to'y marosimini o'tkazgan. To'ydan so'ng kelin ota-onasidan uzr so'rab yarashib olgan. Odatda kambag'allar shu xildagi nikohlar o'tkazishga majbur bo'lishgan. Xorijiy slavyanlarda kelinni olib qochish hollari ham bo'lgan. O'tmishda kelin ray bermasa, kuyov o'rtoqlari bilan uni o'g'irlashi mumkin edi. Hozirgi kunda qishloq to'ylariga shahar to'ylari katta ta'sir o'tkazmoqda.

Oilaviy udumlardan biri marhumlarni xotirlash bilan bog'liqdir. Bu borada slavyanlarda ko'plab sehrgarlik udumlari xristianlikdan oldingi dinlar bilan bog'liq elementlarni uchratish mumkin. Umri tugayotgan kishini o'rnini slavyanlar shift to'sinlariga parallel qo'yib krest shaklini bo'lishiga intilganlar. Marhum yuzi bilan oynaga tomon qarab yotishi, o'lim uni darhol ko'rishi lozim degan udumdan shakllangan. Marhum uyda bo'lgan paytida hech qanday xo'jalik yumushini bajarish mumkin bo'lmagan.

Dafnda qishloq, mavze aholisi qatnashgan. Qabristondan qaytib marhumni eslash, xotirlash tadbirini o'tkazishgan. Ishtirokchilar bu tadbirda marhum qatnashishiga ishonib unga bo'sh o'rindiq qoldirishgan. Marhumni xotirlash kunlari xususan, qirqida, yilida qarindoshlari qabristonga qaynatilgan bug'doy (bolg. zadushnitsa) olib borishgan.

Serblar va boshqa janubiy slavyan xalqlari (ham qishloq, ham shahar aholisi) hozirga qadar oilaning muhim shuhrat bayramini nishonlaydilar. Ehtimol bu udum oila-urug' kul'ti bo'lgandir, unda xristianlikka qadar diniy tasavvurlar elementlari saqlangan. Ushbu bayramda sham, maxsus non (kalach) va kolivo (bug'doy donlaridan bo'tqa) tayyorlanadi. "Shuhrat" bayramini nishonlash avliyo – oila homiysiga bag'ishlangan. Bolgariyada ushbu bayram "Svyatets" deb nomlangan.

Jamoa. Xorijiy yevropa slavyan xalqlarida XIX asr o'rtalari – XX asr boshlariga qadar qishloq dehqon jamoalari unsurlari saqlangan. Ayrim holatlarda bu an'analarni hayotda hozir ham uchratamiz. Jamoa asosini erga birgalikda egalik qilish huquqi belgilaydi. Jamoa huquqini yaylovlar, o'rmon, suv manbalari va boshqa narsalarga ham tarqaladi. Haydaladigan va tomorqa erlari odatda katta va kichik oilalarniki bo'lgan. Odat huquqlari bo'yicha er sotishda qishloqdoshlarga yon bosish, majburiy almashlab ekishga rioya qilish, qishloq aholisi chorvasini shudgorlangan yerdagi o't-o'lanlarga qo'yish, hosil yig'ib olingandan so'ng ekinzorlarni ommaviy yaylovga aylantirish va h.k lar bo'lgan. Qadimgi jamoa tartiblari odat huquqlar me'yori shaklida slavyan qishloqlari aholisi hayotini (masalan, jamoachilik sudlarida), ko'plab udum-marosimlarda me'yorida saqlagan. Misol tariqasida mehnatni birgalikda tashkil qilishni (spryagachestvo) – birgalikda hayvonlarni tortish kuchidan foydalanish, ayollar hashari – (popryaduxi) birgalikda oila doirasidagi yumushlarni bajarish, ziyofatlar tashkil etish va boshqalar. Qishloq jamoasi birgalikda tungi qo'riqchilar, yo'llar, ko'priklar qurish va ta'mirlash, chorvani navbat bilan boqish va h.k larni bajargan. Jamoatchilik mablag'lariga tegirmonni, daraxtlardan kesib taxta chiqarish uskunalarini saqlash, ishlatishda foydalanilgan. Qishloq jamoasi yosh oilalarga, qariyalarga, nogironlarga yordam ko'rsatgan.

Slavyanlarda jamoa boshlig'i ramzi palitsa va g'aladon bo'lgan, ularni saylovdan keyin oqsoqolga tantanali topshirishgan va e'zozli joyda saqlangan. Jamoa boshlig'i (rextar) va uning kengashi jazolash huquqiga, shuningdek tan jazosi odat bo'yicha qabul qilingan me'yorlarni buzganlarga nisbatan qo'llanilgan. Slavyan qishloqlari markazida XIX asr oxirida ham maxsus "nomus zanjiri" bo'lib, bu joyda aybdorlarni omma oldida jazolashgan.

Taqvimiy marosimlar. Xorijiy slavyanlarning madaniy birligi va tarixiy jamiyati xalqlarining urf-odatlari, eng avvalo taqvimiy udumlarda kuzatiladi. Qishki marosimlarning ko'pchiligi qadimgi diniy afsungarlik tasavvurlari bo'yicha o'simlik ruhini o'limi va qayta tirilishi bilan bog'liq. yevropaning slavyan jamoalari qishki taqvimiy bayramlari orasida markaziy o'rinni Rojdestvo egallaydi. Yana bir bayram Rojdestvo sochilnigida uyga turli donlar, boshoqlaridan bog'lamlar keltirishib, uyni ichidan burchaklarga qo'yib chiqishgan va u "Uch qirol" (6-yanvar) bayramigacha turgan. Bayram dasturxoni ostidan stolga somon yoki hashak qo'yishgan. Lujichlar Rojdestva dasturxoniga bir bog'lam daladan eng so'ngida o'rib olingan bug'doyni qo'yishgan. Bu bog'lamdagi don keyinchalik urug'likka qo'shilib dalaga sepilgan. Bu udumlarning barchasi yangi yilda hosilni mo'l bo'lishiga yo'naltirilgan.

Rojdestvo bayramida dasturxon doim to'kin bo'lishiga e'tibor qaratilgan . Xalq tushunchasida dasturxonida qancha ko'p taom turi bo'lsa kelayotgan yil shunchalik to'kin bo'ladi degan fikr saqlangan. yevropa slavyan xalqlari Rojdestvoni katolik taqvimi bo'yicha 24-dekabr kunida nishonlaydi va odatda bu bayram oilaviy sanaladi. Butun tun sham yonadi,sababi olov yovuz ruhlarni haydaydi. Bayramdagi markaziy daqiqalardan biri maxsus pishirilgan non – kalachni maydalash hisoblangan. Bu non ajoyib xislatli, hosildorlik ramzi sanalgan. Unga turli hamirdan yasalgan turli shakldagi bezaklar bilan chiroy berishgan. Oilada bayramga bag'ishlangan qo'shiqlar, she'rlar aytilgan. Sochelnik va Rojdestvodagi ko'plab udumlar qishloq xo'jaligi va marhumlar kul'tiga bag'ishlangan.

Janubiy slavyanlarda qadimgi slavyanlarga qadar bo'lgan (frakiyaliklar) niqobda raqslarga tushib, hosildorlik ilohlaridan yordam so'rash, yovuz ruhlar va kasalliklardan xalos qilishni so'rab afsun-

garlik udumlarini bajarishgan. Bolgariya va Serbiyaning qo'shni rayonlarida antik davrlaridan (14-fevralda) Trifon Zarezan kuni nishonlanib, uzum toklarini kesib unga vino quyib bo'lajak mo'l hosilni so'rashgan.

Bahordagi bayramlardan eng muhimi qishni kuzatish va bahorni kutib olish turli nomlarda barcha evropa xalqlariga tanish bo'lgan. G'arbiy slavyanlarda uni myasopust, zakusti, janubiy slavyanlarda - belo sirna nedelya, sharqiy slavyanlarda maslenitsa deyiladi. Ushbu bayram mazmunan xristian diniga bog'liq emas. Bayram karnaval kayfiyati turli ko'rinishlarda (raqslar, o'yinlar, qo'shiqlarda) namoyon bo'ladi. Bu harakatlar afsungarlik udumlari bo'lib, ularning maqsadi – umuman hayot va xo'jalikdagi muvaffaqiyatlarni ta'minlashdir. Bahorgi taqvimiy bayramlardan biri o'tmishda slavyanlarda bo'lgan may daraxti bayramidir. Unda yigitlar yaxshi ko'rgan qizlarini uyining oldida butalari kesilgan oq qayin daraxtini o'tqazib, uni turli lentalar bilan bezagan. Xorijiy slavyanlarning bahordagi tozalanish udumlari ham o'ziga xos Pasxa va Troitsa bayramlarida bir-birlari ustiga suv quyishgan. Ertalab shudringda o'tlar ustiga ag'nab, tomosha ko'rsatganlar. Yozgi bayramlar Ivanov kuni (24 iyun) – hosilni, chorvani tabiiy ofatlardan asrash. O'ziga xos udumlardan biri yomg'ir chaqirish, xususan janubiy slavyanlarda (Bolgariyada Enev kunida) qishloqda eng chiroyli qizni (yoki eng ko'rkam yigitni) tanlab, uning boshiga gulchambar kiygizishgan va ustidan suv quyishgan. Tadbir ishtirokchilari uydan uyga o'tib butun qishloqni aylanishgan.

Kuzgi bayramlardan eng muhimi slavyanlarda hosil bayrami hisoblangan. Janubiy slavyanlarda u dojinki yoki objinki; lujichlarda – xo'rozni so'yish kuni deyilgan. Bu qadimgi dehqonchilik bayrami avgust-sentyabr oylarida o'tkaziladi. Unda hosilni saqlash, kelgusi yildagi mo'l hosilni ta'minlashga yo'naltirilgan turli afsungarlik udumlari o'tkazilgan. Slavyanlarda ham o'lkamizdagi kabi ekin maydonlaridan o'rilgan so'nggi bog'lam donni alohida qadrlashadi. Bu don ekinzorning "ruhi", hosilning ilohi sanaladi. Shuning uchun u chiroyli bo'lishi kerak. Bog'lamni gullar, lentalar bilan bezatib uyning eng e'zozli joyida asrashgan. So'nggi bog'lam don bayrami yevropa slavyanlarida hozirga qadar nishonlanadi. U bilan bog'liq

udumlar asta-sekin yo'qolib yoki afsungarlik mazmunini o'zgartirib bormoqda.

Slavyanlarning ko'plab urf - odatlari mazmuni hozirgi kunda o'zgarib, o'zining dastlabki diniy va sexirgarlik jihatlarini yo'qotib bormoqda. Lekin ular ommaviy va jamoatchilik bayramlari sifatida saqlanib o'zining chiroyli o'yin, xalq sayli, xursandchilik tadbiri sifatidagi ahamiyatini saqlab qolmoqda.

6. Folklor, professional badiiy madaniyat. G'arbiy va janubiy slavyanlar xalq og'zaki ijodi boy va rang-barang bo'lgan. Ularda turli soha asarlari: ertaklar tirik va raqsga tushishga mo'ljallangan qo'shiqlar, raqslar mavjud. Janubiy slavyanlar (ayniqsa bolgarlar) da ommaviy raqslar (xoro) ayniqsa ommaviylashgan. Serblar va chernogorlar milliy she'riy dostoni "Mark Kralevich" haqida qissani ehtiyotkorlik bilan saqlashmoqda. Uning syujetida slavyanlarning turklarga qarshi kurashi aks etgan. Ma'ishiy mavzudagi hikoyalar ichida gabrovoliklar haqidagi satirik latifalar ayniqsa mashhur. Unda Bolgariyaning Gobrovo shahri aholisining kulguli jihatlari aks etgan.

Janubiy va g'arbiy slavyanlar professional milliy madaniyat – fan, oiliy ta'lim (Pragadagi Karlov universiteti 1348 yil asos solingan) teatr va hokazolar shakllangan. Slavyanlar kompozitorlari B. Smetana (Chexiya), P. Vladigerov (Bolgariya), F. List (Polsha) dunyo musiqa san'atida chuqur iz qoldirganlar. Shoir, yozuvchi va dramaturglardan polyak A. Mitskevich, serb B. Nushich, chex Ya. Gashek va boshqalar jahon adabiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar. Barcha slavyan xalqlari har yili 24 mayda slavyan yozuvi va madaniyatini davlat miqyosida keng bayram qilishadi.

Savol va topshiriqlar.

1. Sharqiy yevropa aholisining geografik joylashuvi.
2. Sharqiy evropa xalqlari: rasalari va dinlari tavsiflab bering.
3. Slavyanlar etnik tarixi haqida so'zlab bering.
4. Slavyanlarning xo'jalik mashg'ulotlardagi transformatsion jarayonlar qanday kechgan?
5. Slavyanlar qo'rg'onlar va turar joylardagi etnik jarayonlarni ifodalab bering.
6. Aholining kiyimlaridagi transformatsion jarayonlar qanday kechmoqda.
7. Oila, jamoa, taqvimiy marosimlar haqida nimalarni eslab qoldingiz?
8. Folklorlik va professional badiiy madaniyat haqida nimalarni bilasiz?

17-BOB BELORUSSIYA, UKRAINA, MOLDAVA XALQLARI

Sharqiy yevropaning o'rta qismida uchta slavyan xalqi – ruslar, ukrainlar, beloruslar yashab, butun tarixiy taraqqiyoti davomida o'zaro hamkorlik qilib kelgan. Ularning janubiy – g'arbida moldavaliklar yashaydi.

1. Belorussiya.

Umumiy tasnif. Joylashishi, beloruslar soni. Belorussiya Sharqiy yevropa pasttekisligini g'arbiy qismida: Yuqori Dnepr, Soja, Pripyat, G'arbiy Dvina, Neman daryolari havzasida joylashgan.

Belarus Respublikasida 1999 yilgi ma'lumot bo'yicha 8 mln 159 ming kishi yashab, ularning 4/5 qismini beloruslar tashkil qiladi. Rossiyada 815 ming, Polshada 250 ming, Ukrainada 440 ming, Qozog'iston (182,6 ming). AQSh, Kanada, Litva, Latviya, Angliya, Fransiya va h.k larda ham beloruslar diasporalari bor. Beloruslarning dunyo bo'yicha soni 10,5 mln kishi atrofida.

Til tasnifi. Hind-evropa til oilasining sharqiy slavyan til guruhiga kiradi. Tilning fonetik o'ziga xosliklari XVI asrda shakllangan. Bu o'ziga xos "dzekane", "dzed" (ded), "dzeti" (deti), "sekane" (matsi-mat) , "sekane" "vada"-voda. Qattiq "r" "arol"-"oryol" va yumshoq "l"- "lyampa"- lampa. Bugungi kunda Belorussiyaning barcha aholisi ikki til belorus va rus tillarini erkin ishlatadilar. Axoli ro'yxatida (1999 yil) 73,7 % axoli belorus tilini, 21,9% rus tilini ona tili deb ko'rsatgan.

Antropologik tipi. Boshqa slavyan xalqlari singari evropoid irqi, xususiyatlari badanining sertukligi, yuzining gorizontal profilligi, burnining qang'sharligi, iyagining zaif rivojlanganligidir.

Etnonimi. Belaya Rus toponimi XIV-XVI asrlarda hozirgi respublikaning asosiy hududiga nisbatan ishlatilgan. Ayrim tadqiqotchilar Belaya Rus "erkin" yoki "yorqin" davlatni mo'g'ullarga, litva knyazlariga bo'ysunmagan hududni anglatgan deyishadi. XVIII asrdan beloruslar etnonimi barcha aholi tomonidan o'z nomi sifatida qabul qilinadi. Ayni vaqtda belorus-ukrain aholisi aralash guruxlarni – polешuk, litva, belarus aralash aholiga nisbatan litvin va h.klar mahalliy sharoitlarda ishlatilgan.

Beloruslarning barcha hududlariga nisbatan "Belorussiya" nomi

1922 yili SSSR tarkibida Belorussiya Respublikasi tashkil etilganidan so'ng tarqalgan.

Kelib chiqishi va etnik tarixi. Uning shakllanishida: dregovichlar, krivichlar, radimichlar, severyanlar, volinyanlar kabi sharqiy slavyan qabilalari ishtirok etgan. Ruslar bilan yagona ildizlari moddiy madaniyatda, dinda, tilda, yozuvda, kuzatiladi. Dnepr daryosining yuqori oqimida, bu erga slavyanlar kelguniga qadar Boltiq qabilalari yashagan. Ushbu hududlarda litva va slavyanlashgan litvalik aholining beloruslarga ta'siri hozirga qadar seziladi. Aholi aralash yashaydigan hududlarda litva – belorus ikki tilligi (bilingvizm) tarqalgan.

Beloruslar IX-XI asrlar Kiev Rusiga kirganlar. Feodal tarqoqlik davrida Polotsk, Turovsk, Smolensk knyazliklari tarkibida bo'lganlar. Litva knyazligi kuchayishi davomida XIII – XIV asrlarda beloruslar yashaydigan hududlarni egallay boshlaydi. Shunga qaramasdan beloruslarni etnos sifatida shakllanishi XIII asrning o'rtalaridan boshlandi.

Belorus jamiyatining faol shakllanish davri XIV-XVI asrlarda bo'lib, an'anaviy madaniyat majmui va u bilan bog'liq belorus etnosi tili vujudga keladi. Belorus tili ish yuritish, yilnomalar bitish, badiiy asarlar yozish tiliga aylanib, XVI asrdan Fransisk Skorina boshchiligida kitob bosishga asos solinadi.

O'lkada polyaklashtirish siyosati Litva va Polsha (1386) birlashganidan so'ng boshlanib, Lyublin o'lkasi (1569) tuzilgach yanada kuchayadi. Ayni paytdan katolik cherkovi ham o'z ta'sirini yoyishda faol kirishadi.

Polshani uch marta (1772, 1793, 1795) qayta taqsimlanishi tufayli XVIII asr oxiridan Belorussiya ham Rossiya tarkibiga kiritiladi. Ruslarni beloruslarga ta'siri XIX asrning 30-yillaridan kuchayadi. Lekin g'arbiy rayonlarda beloruslar katolik diniga o'tib uzoq vaqt polyaklar madaniy ta'sirida bo'lganlari sababli bu jarayon keng tus olmaydi. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida adabiy belorus tili shakllanadi. Unga xalq muloqot tili asos bo'ladi.

Rossiya imperiyasi tarkibida belorus tili funksiyalari cheklangan edi. Imperator Nikolay I rasman 1840 yildan Belorus atamasini ishlatishni ta'qiqlab, uni Shimoliy - G'arbiy o'lka deb nomlash haqida

qaror chiqaradi. Shunga qaramasdan xalqning milliy ongi shakllana boshlab, XIX asrning 50-60-yillaridan ziyolilar orasida beloruslar mustaqil xalq degan fikr mustahkam o'rin oladi. Belorus tilida adabiyot shakllanib uning vakillari: F. Bogushevich, M.V Dovnar- Zapolskiy va boshqalar bo'lishgan.

Inqilobdan so'ng Belorussiya sovet respublikasi 1919 yil 1 yanvarda tuzilgan. Sovet ittifoqi parchalangach, Belorus respublikasi 1991 yil 8 dekabrda o'z mustaqilligini e'lon qiladi.

Beloruslar subetnik guruhlari. Beloruslarni xo'jalik faoliyati va madaniy – maishiy sohalarida yuqori darajadagi yaxlitlik ajratib tursada belorus-polешuklar birmuncha ajralib turadilar. Pinsk-Polesesi va Brest oblastining janubiy-g'arbi aholini nisbatan ajralgan holatda yashashi polешuklar moddiy va ma'naviy madaniyatlarida arxaik xususiyatlarini saqlanishiga olib keladi. Ularning tilida ukrain tili ta'siri yaqqol seziladi.

Beloruslarning boshqa etnik guruhlari. So'nggi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra (1999) Belorussiyada 130 ta millat va elat vakillari yashaydilar. Ulardan eng ko'p sonlillari: ruslar, polyaklar , ukrainlar va yahudiylardir. Ruslar (1,1417 kishi), ukrainlar (237 ming kishi), yahudiylar, XX asrning boshida 1 mln aholini 18%ni tashkil etgan, 1989 yili 112 ming, 1999 yili 27, 8 ming kishi.

Boshqa millatlar. Belorussiyaning g'arbida XIV asrdan boshlab tatarlar kelib Novgorudka, Lida, Oshmyan shaharlarida yashay boshlagan. Bugungi kunda ularning soni 10,1 ming kishi. Armanlar 10,2 ming, ulardan tashqari latishlar, litvaliklar, lo'lilar, ozarbayjon, nemislar va boshqa xalqlar vakillari yashaydilar.

Belorussiyaning xo'jalik mashg'ulotlari. O'rta asrlarda yangi davrda bizning kunlarimizda ham beloruslarning asosiy xo'jaliklari dehqonchilik bo'lib qolmoqda. Uch dalali almashilib ekish, XX asrning ikkinchi yarmidan ko'p dalali almashilib ekish dehqonchiligi yirik shoxli uy hayvonlari, to'ng'iz, otlarni, qo'ylarni boqish bilan birga olib boriladi.

Yerga ishlov berish uchun beloruslarda ikki xil omoch (soxa) bo'lib, ularning tishi temirdan qolgan qismlari yog'ochdan yasalgan. XIX asrdan omochni temir plug almashtiradi. Yerni haydagandan so'ng borona bilan yumshatib, o'tlardan tozalab, donni sepganlar. Donni o'roq bilan o'rishgan. Endilikda dalalarga texnika bilan ishlov berilmoqda. Belarus traktorlari O'zbekiston dalalarida o'nlab yillardan buyon ishlatilib kelinmoqda. Asosiy ekinlar bug'doy, arpa, suli bo'lgan. Bug'doy ko'p joyni egallamagan. Qo'noq, grechixa (qora javdar), no'xat, makka ham XX asrga qadar kichik maydonlarda ekilgan.

Belorussiyada eng qadimgi texnik ekin zig'irpoya va kanopdir. Ularning tolasidan kiyim, qoplar, arqonlar qilingan, urug'idan yog' olishgan. Kartofel, kungaboqar, lavlagi ekish XVIII-XIX asrlardan kengayib boradi. Poliz ekinlaridan karam, bodring, piyoz va sabzi qadim zamonlardan yetishtirilgan.

Baliqchilik, ov, terimchilik, asalarichilik, polizchilik, bog'dorchilik, uy hunarmandchiligi xo'jalikda ancha yordam bergan. Temirchilik va kulolchilik, yog'ochdan turli buyumlar yasash, teriga ishlov berish va etikdo'zlik, to'qimachilik, ip yigirish, bochkalar yasash dehqonlarni kiyim, poyafzal, mehnat qurollari bilan ta'minlagan. Ayollar sochiq, dasturxonlar boshqa uy jihozlarini to'qiganlar.

Qishloqlar. Hozirgi kungacha beloruslarda eng keng tarqalgan qishloqlar tipi ko'chalar yoqasida qurilgan uy-joylar ko'rinishida uylarni derazalari ko'cha tomonda yo'l bo'ylab qurilib, uylarning davomida poliz va bog' yaratganlar. Qishloq statusini 100 tagacha hovlisi bor manzilgohlar olib, ularda XIX asr oxirida maktab va cherkov bo'lishi ko'zda tutilgan. Hududlarni aholisi zich yoki siyrak bo'lishiga qarab ulardan xo'jaliklar sonli ham turlicha bo'lgan, ayrim qishloqlar, ovullar statusi past edi.

Dastlabki shaharlar IX-X asrlarda vujudga kelib: Polotsk, Brest, Grodno, Orsha, Vitebsk, Minsklarda turli tarixiy davrlarda shakllangan shahar mavzelari, qismlari bugungi kunda yaxlit uyg'unlik namoyon etadigan loyihalarda namoyon davom ettirilmoqda. Eski shaharlar markazida cherkov (kostel), ratusha va kamenш –pishgan g'ishtdan uylar bo'lsa, chekka joylarda yog'och uylar aksari ko'pchilikni tashkil qilgan.

XX asrda Belorussiyada eski shaharlar kengayib, yangi shaharlar, shahar posyolkalari bunyod etildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin beloruslar qishloqlaridan shaharlarga (ayniqsa yoshlar) ko'chib keta

boshlaydilar. Urushda deyarli barcha shaharlar vayron bo'lgan., ularni tiklash davomida zamonaviy me'morchilik loyihalari, qurilish ashyolarining ishlatilishi, ma'lum darajada unifikatsiyaga ham olib kelmoqda. Bugungi kunda Belorus aholisining ko'pchiligi – shaharliklardir.

Uy-joylar. An'anaviy belorus uylari – xata – yumaloq yog'ochdan qurilib ichini loy bilan suvashgan. Aksari ikki tomonlama qurilgan, tomni somon, qamish yoki chim bilan yopishgan, tashqi tomondan uy boy ornament yog'och o'ymakorligi elementlari bilan bezatilgan. Tuproqdan bo'lgan pol, XIX asr oxirida mamlakat janubida taxta polga almashtiriladi. Janubda ukrainliklarnikiga o'xshash devor g'ishtdan qilinib, suvalib, ohak bilan oqqa bo'yalgan uylar ham uchragan.

Uyni tarxi bir yoki ikki xonali, yonida xo'jalik ehtiyojlari uchun qo'shimcha xona bilan yoki uch xonali (kamora – xo'jalik ombori) qilib qurilgan.

Taomlari. Dehqonchilik o'tmishda chorvachilikka nisbatan ko'proq oziq mahsulotlari bergan. Aholining asosiy ozig'i suli unidan tayyorlangan nordon non bo'lgan. Donlardan bo'tqa, bug'doy yoki arpadan-kisel tayyorlashgan.

Beloruslar taomlari qatoriga XVIII-XIX asrlarda kartofel kiradi. Hozirgi kunda kartofeldan ikki yuzdan ortiq taom tayyorlanadi. Saloniki – tozalangan qaynatib pishirilgan kartoshka, draniki – ham qirg'ichdan o'tkazilgan kartofel, bulen – kartoshkali sho'rva. Kartofel yoki donlilardan tayyorlangan taomlarga odatda biroz sut qo'shishgan. ("zabelevali").

Yoz va kuzda bodring, piyoz, nok, va olma, olcha, olxo'ri, tarvuz eyilgan. Tarvuz va kungaboqar doni beloruslarni sevimli, chaqadigan oziqlari bo'ladi. Kech kuz va qishda ko'pgina taomlarga to'ng'iz yog'idan maydalab piyoz bilan qovurilgan to'ng'iz go'shtidan kolbasa, hil-hil eyilgan.

Beloruslarning sevimli taomlaridan biri tuxumni to'ng'iz yog'i yoki go'shti bilan qovurilganidir. Belorussiyaning shimoliy-g'arbiy va janubi uchun baliqchilik keng rivojlangan hududlarda baliqdan xilma-xil taomlar qilishadi.

Beloruslar uchun an'anaviy ichimlik bereza soki va asal, non hamda lavlagidan tayyorlangan kvasdir.

Go'sht va sabzavotlarni uzoq saqlash uchun ularni tuzlash, quritish, dudlash va h.k lar qo'llanilgan.

Termachilikda qo'ziqorin, yovvoyi nok, shavel terib iste'mol qilingan. Ayni paytda beloruslar – kalina, ryabina, cheremuxa, oblepixa va boshqalarni umuman iste'mol qilmaganlar.

An'anaviy taomlarni belorus xalqi bugungi kunda ham iste'mol qilib kelmoqda.

Kiyimlar. Belorus milliy kiyimlarida yuksak badiiy san'at elementlari matolarda, kashtalarida, naqshlarida kuzatiladi. Beloruslar milliy kiyimlarida ilgaridan oq rang etakchilik qiladi.

An'anaviy erkaklar kiyimi uyda to'qilgan matodan tunikasimon kashtalangan ko'ylak – kashuli, tizzagacha uzunlikda bo'lgan. Belda kashtalangan kamar, ko'ylak ustidan rangli movutdan engsiz kostyum, oq matodan shim qora etik kiyilgan. Slutsk kamarlari hozirgi kunga qadar tilla va kumushdan ziynatlari bilan shuhrat qozongan.

Yozda kiyimi keng soyabonli shlyapa (bril, kapelyush), qishda mo'ynali (kuchma, ablavuxa) telpak kiyilgan.

Ayollar kiyimida xilma-xillik va etnik o'ziga xosliklar ko'proq bo'lgan. Ko'ylaklari tunika shaklida elkasi koketkali yoki to'g'ri elka qiyiqlari bilan turli fasondagi qizil, ko'k, yashil, to'g'ri yoki eniga chiziqli yubkalar (andolak, sayan, letnik), yubkani ustidan kiyiladigan (paneva), movut matolardan tikilgan fartuklar, kashtalar bilan bezatilgan. Rangli kamar va garatka deb nomlangan engsiz rangli kashtalar bo'lgan.

Qizlarni bosh kiyimlari tor kashtalangan tasmalardan (skidochka, shlyapok) va peshonaband gulchambar, an'anaviy qizlar soch turmagi – yoyilgan soch bilan yaxlit tus olgan. Turmushdagi ayollar sochlarini chepets (kapshur) ichiga namitka – sochiqqa o'xshash bosh kiyimi va ro'mol – kustnidan iborat.

Erkak va ayollar ustki kiyimlari bosilgan bo'yalmagan movutdan (syarmaga, burka) va terisi oshlab tikilgan qizg'ish (kozachina) va oq terisi oshlanmagan (kojux) qo'y terisidan po'stinlar bo'lgan.

Beloruslar an'anaviy oyoq kiyimlari o'rmon o'simligi lik va kozadan choriq, teridan (postoli), qishda – valenki bo'lgan. Etik va botinkalar ilgari muhim kunlari kiyilgan.

Milliy liboslarni bugungi kunda Polese, Pinsk va Mozыr oralig'idagi aholida uchratish mumkin. Lekin aksari milliy kashta boshqa bezaklarni zamonaviy kiyimlarga kiritishmoqda. Qo'y terisidan dublenkalar, erkaklarning kashtalab tikilgan ko'ylaklari ham modadan chiqmasdan kelmoqda.

Oila va oilaviy turmush. XIX asr oxirigacha belorus dehqonlari yirik, ota yoki aka-ukalar oilalari birga yashashgan. Aksari yirik oilalar 3-4 avlod vakillaridan tashkil topgan. XX asr boshlariga qadar qishloqlarda jamoa tashkilotlari elementlari saqlangan. Qishloqdoshlar o'zaro yordam (taloka, syabrina) berishgan. Muhim ishlar qishloq oila boshliqlari (gaspadare) yig'ilishlarida hal qilingan. Unda oqsoqol saylangan, homiylar tayinlangan, oilaviy mojarolar muhokama qilingan.

Taqvimiy va oilaviy marosimlar, san'at va folklor. Taqvimiy bayramlar va ular bilan bog'liq udum-marosimlar qadim zamonlardan o'tkazilib, ularga qat'iy rioya qilish eng mustahkam xalq an'analaridandir. Beloruslar taqvimiy sikli o'zida majusiylikni mujassamlagan qadimgi xristianlikdan oldingi marosimlar va diniy bayramlarni ham qamrab olgan.

Jumladan Rojdestvo arafasida yog'sizlantirilgan kechki taom tarkibida albatta arpa yormasidan bo'tqa bo'lishini taqozo etgan. Ayni shu kuni qizlar o'z taqdirlarini aniqlash uchun fol ochishgan. Muqaddas hafta (kalyadi) uydan uyga qo'shiq aytib yurilgan. Ushbu guruh a'zolaridan ayrimlari afsonaviy qahramonlar kiyimi, turli majusiy ilohlar siymosiga kirib, raqslar, qo'shiqlar bilan aholini ko'ngilxush qilishgan. Maslenitsa bayramida otda sayr qilish, quymoq bilan mehmon qilish hozirga qadar saqlangan. Pasxada ham qo'shiqlar aytib xonadon egalariga mo'l hosil, mollarini ko'payishi, sog'lik va baxt tilab hovlima-hovli yurishgan. Yozgi kun eng uzayganda tunda Ivan Kupala bayrami o'tkazilib gulxanlar yondirilib yigit va qizlar ularni ustidan sakrashgan, cho'milishgan, fol ochishgan, xursandchilik qilishgan.

Oilaviy marosimlardan eng muhimlari nikoh, farzand tug'ilishi va dafn bilan bog'liqdir. Ularning ayrimlari hozirgi beloruslarning ham marosimiy hayoti muhim qismi sifatida saqlangan. Kelinni (ba'zida kuyovni ham) dzyaju karam bargi yopilgan tuzlangan karam

ustiga o'tqazish, yoshlarni sochini olish yoki kuydirish, maxsus pishirilgan karavay (katta nonni) bo'lish kabi udumlar saqlangan. Farzand tug'ilganida unga cho'qintirilgan ota-onani tanlash, buvisi tayyorlagan bo'tqani bo'lishtirish kabi marosimlar o'tqaziladi.

Xalq bayramlaridan marhumlarni eslash kuni, donni yig'ib olishni yakuniy kuni, so'nggi boshoqni o'rib olish marosimi o'tqazilib kelmoqda. Beloruslarda "Bulba", "Lenok", "Yanka" kabi xalq qo'shiqlari, "Lyavonixa", "Krыjochok", "Yurachka" kabi polka, kadril raqslari saqlangan. O'tgan asrning 70-80 yillarida belorus qo'shiqlarini ommalashtirishda "Pesnyarы" va "Verasы" vokal-instrumental ansambllarining xizmati katta bo'lgan.

Beloruslar folklori ko'plab afsona, rivoyat, sehrli ertaklar, anekdotlardan iborat. Belorus tilidagi badiiy asarlar XIX asrning o'rtalaridan tarqalib, sohaning yuksalgan davri XX asr hisoblanadi. Yanka Kupala, Yakub Kolas, Maksim Tanka, Svetlana Aleksievich va h.k lar uning mashhur vakillaridir.

2. Ukrainlar.

Ukrain xalqi Dnepr daryosi havzasida shakllana boshlagan. O'zlarining ukrainets deb atashib respublikada 37,4 mln ukrainlar yashaydi.

Ukrainadan tashqarida 4,3 mlni Rossiyada, Qozog'istonda 896,2 ming, Moldovada 600 ming, Belorussiyada 291 ming, O'zbekistonda 153,2 ming, Qirg'izistonda 108 ming, Latviyada 92 ming, Polshada 350 ming, Kanadada 550 ming, AQShda 500 ming, Argentinada 100 ming ukrainlar istiqomat qilishadi.

Antropologik tipi. Ukrainlar evropoid irqining dnepr – karpat guruhiga kirib ular boshqa slavyan xalqlariga nibatan qora pigmentatsiyasi va nisbatan keng yuz tuzilishi bilan farqlanishadi. Ukrainlar ichida ko'pchilikning bo'yi o'rtachadan baland. Ko'zlari yorqinlari, qora ko'zlilarga nisbatan ko'proq uchraydi. Qora sochlilar aholining yarmiga yaqinini tashkil etadi.

Tillari. Hind-evropa til oilasining slavyan tillari guruhidagi, ukrain tilida so'zlashadilar. Uchta: shimoliy, janubiy-g'arbiy va janubiy-sharqiy shevaga bo'linadi. Ukrain tilidagi yozuv XIV asrda kirillitsa asosida vujudga keladi. XX asr davomida ukrainlarda til assimilyasiyasi va rus tilini joriy etish kuchayib borgan.

Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng (1991) ukrain tilining ijtimoiy hayotdagi o'rni kengayib bormoqda. 1996 yilgi Konstitutsiyada ukrain tili yagona davlat tili deb e'lon qilindi. Bu qonun 11 mlnlik rus tillik aholiga ma'qul kelmadi.

Etnonimning kelib chiqishi. Ukrainlar nomi, toponim "Ukraina"dan olingan. Qadimgi rus erlarining janubiy va janubiy-g'arbidagi hududlar XII-XIII asrlarda, Ipatev yilnomasida (1187) "chekka hudud", "chegara hudud" nomlari bilan atalgan. Kraina, ukrainliklar etnonimi XVII-XVIII asrlardan keng tarqaladi. Undan tashqari "kazak", "malorossiyalik" va boshqa atamalar ham uchraydi.

Ukrain etnosining shakllanishi va joylashishi bosqichlari. Ukrain etnosini shakllanishida sharqiy slavyan qabilalari drevlyanlar, volinlar, severyanlar, ulichlar, tiverlar, buksanlar, oq xorvatlar ishtirok etgan. Bu qabilalar IX-XII asrlarda Kiev Rusi davlati hududi bo'lganlar.

Ukrain elatini vujudga kelishi taraqqiyoti chet bosqinchilar hujumlari: XI-XII asrlarda venger feodallari, XIV asr o'rtalari - XV asrning birinchi yarmida polsha va litvaliklar, XVI asrda turk sultonlari bosqinchilari davomida bo'lgan.

XV asrda janubiy-g'arbiy hududlarda zaporoje kazaklari etnik guruhi shakllanib ular o'z davlatlari zaporoje secheni tuzadilar.

Chet bosqinchilar bilan XVI-XVII asrlarda davom etgan kurash ukrain xalqini konsolidatsiyasini kuchaytiradi. Getman B.Xmelnitskiy 1654 yili Pereyaslav radasida Ukrainani Rossiyaga qo'shilishini e'lon qiladi. Asr so'ngiga qadar Ukrainaning chap sohili ham Kiev bilan birgalikda Rossiyaga o'tadi. Pyotr I va Ekaterina II lar davrida getmanlar hokimiyati bekor qilinib, o'rnida Rossiya imperiyasi tarkibidagi viloyatlar (guberniyalar) tuziladi. Ukraina etnik tarixida XVIII-XX asrlar aholining migratsiyasi va dunyoning turli qit'alari va mamlakatlarida ukrainlar diasporasining vujudga kelishi bilan xususiyatlanadi. Hozirgi kunda respublikadan chekkada deyarli 9 mln ukrainlar yashaydi.

XVIII-XIX asrlar chegarasida zamonaviy yangi ukrain adabiy tili shakllanadi. XIX-XX asrlarda T.Shevchenko, I. Franko, L. Ukrainka va boshqalar ukrain adabiyotini butun dunyoga tanitadilar.

Inqilobdan so'ng 1917 yil 20 noyabrda Ukraina Xalq Respublikasi tuziladi, 1922 yili SSSR tarkibiga kiritiladi. Germaniya bilan shartnoma asosida 1939 yil 1 noyabrda G'arbiy Ukraina SSSR tarkibiga qo'shilib, Ukrainaga beriladi. 1945 yil 29 iyunda Chexoslavakiyadan Zakarpate hududlari Ukrainaga olib beriladi. 1954 yili Rossiya tarkibidagi Qrim oblasti Ukrainaga o'tkaziladi.

XX asrning 60-80 yillarida shoirlar P. Tычhina, kinodramaturg A. Dovjenko, olimlardan geoximik V. Vernadskiy, kosmik raketalar kashfiyotchisi S. Korolev va h.klar ijod qilganlar.

1991 yildan Ukraina mustaqil davlat. 2014 yil Ukrainada navbatdagi inqilob hokimiyatga P. Poroshenko boshchiligidagi radikallarni keltirib, ular yevropa hamjamiyatiga va NATOga kirishni asosiy vazifa deb e'lon qildilar. Ushbu vaziyatda Rossiya Qrimga qo'shin kiritib, referendum o'tkazib o'z tarkibiga qo'shib oldi. Rossiya aralashuvida Donetsk va Lugansk viloyatlarida tan olinmagan respublikalar e'lon qilinib, ular va Ukraina qo'shinlari orasida lokal urushlar to'rt yildan buyon davom etmoqda.

Subetnik guruhlar. Bizning kunlarimizgacha saqlangan lokal-maishiy belgilarga tayanib uch asosiy shevaga – shimoliy (polese) janubiy-g'arbiy, janubiy-sharqiylarga bo'linadi. Etnografik guruhlar: karpat etnografik – gutsullar, lemkilar, batkilar. Polese etnografik guruhi – polinuklar ajralib turadi.

Xo'jalik mashg'ulotlari. Ukraina an'anaviy agrar o'lka bo'lgan. Uning aholisi qadimdan don yetishtirish, chorvachilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar.

Shudgor qilinadigan erlarga kuzgi va bahorgi don sepilgan. Kuzda suli va bug'doy etakchi o'rin tutgan. Undan tashqari arpa, grechixa (qora javdar), qo'noq, no'xat, zig'irpoya, kanop ekilgan.

Yerni haydaydigan qurollarga: plug, ralo va omoch kirgan. XIX asrdan pluglar keng tarqalib, uning katta kichikligiga qarab qo'shga 2 tadan 4 tagacha ho'kiz qo'shilgan. Donni qo'lda sepishgan.

Donni o'rishda o'roq ishlatilgan. Donni zanjirlar yordamida yanchib, un chiqarishda uy kelisi, shamol yoki suv tegirmonlaridan foydalanilgan. XIX asr oxiridan tegirmonda bug' mashinalaridan foydalanish boshlangan.

Poliz ekinlaridan lavlagi, sabzi, karam, bodring, piyoz, sarimsoq piyoz, qovun – tarvuz, yetishtirilgan. Bog'dorchilik Ukraina qishloqlarining xususiyatli jihatlaridan hisoblanadi. Chorvachilik ham muhim o'rin tutgan. Sigir, buqa, zotli otlar, qo'y, to'ng'iz, echki, parranda, boqish, asalarichilik bilan ham shug'ullanishgan.

Ukrainaning ko'pgina rayonlarida baliqchilik aksari daryodan baliq ovlash ham keng tarqalgan. Unda to'r, turli jihozlar qo'llanilgan. Ovchilik aholi xo'jaligida katta o'rin tutmagan.

Sharqiy slavyanlarda hunarmandchilik bilan ham shaharliklar, ham qishloq aholisi shug'illanib kelgan. Zig'irpoya, kanop va jundan matolar to'qish dehqonlar oilalarida keng tarqalgan. Undan tashqari gilam to'qish, teri-ko'nchilik, o'rmonli hududlarda, yog'och, taxtadan turli buyumlar yasash uylar qurish, dehqonlar uchun asosiy mashg'ulotlaridan kam daromad keltirmagan. Yog'ochdan arava, chana, qayiq, to'quv dastgohlari, sandiqlar, chelaklar, bochkalar, qoshiqlar, kosalar, tog'oralar yasalgan.

Qishloqlar va uy-joylar. Ukrainaliklar an'anaviy manzilgohlari turli tipdagi katta-kichik qishloqlar bo'lgan. Ular ko'cha bo'ylab, radial yoki tarqoq hovlilardan tashkil topgan. Ukrain qishloqlari obodonligi, tozaligi, dekorativ va mevali daraxtlar, gullar, mevali butalar serob bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Dehqonlar uylari loydan yoki yog'ochdan kesib qurilgan, ichi va tashqari suvalib oqlangan. Odatda uylar 1-3 xonali tuproqli pol va to'rt tomonga yomg'ir oqadigan qilib, usti somon, qamish yoki chim bilan yopilgan. Ko'p xonali murakkab rejali uylar posyolkalar, kazaklar stanitsalari uchun xususiyatli bo'lgan.

Hovli ochiq bo'lib, unda turli xo'jalik binolari- ombor, mehnat qurollari saqlaydigan saroy, yozgi oshxona, erto'la, mollar uchun og'ilxona, bog'-poliz livadasi (o'tlog'i) bilan joylashgan. Hovlilarni bir-biridan novdalardan to'qilgan devor ajratib turgan.

Taomlari. Ukrainlar taomlari asosini o'simlik va un mahsulotlari tashkil qilgan. Baliq ancha ko'p ishlatilgan sababi go'shtli taomlarni dehqonlar va shahar aholisi bayramlardagina iste'mol qilishgan. Mol go'shtiga qaraganda to'ng'iz go'shtini xush ko'rganlar. Go'sht va yog'ni turli taomlarni tayyorlashda ishlatganlar. Bayramlarga kol-

basa, hil-hil, golubsi va boshqalarni tayyorlaganlar. Go'shtni uzoq saqlash uchun tuzlab, muzlatganlar.

Ukrainaliklar xamirdan turli, tvorogli vareniklar, kartoshkali, olchali bo'g'irsoqlarni ajoyib tarzda tayyorlaganlar. Ukraina boruщi: qizil lavlagi, karam va boshqa sabzavotlar, to'ng'iz go'shti, yog'i solib, tayyorlangan. Kundalik taomlar qatorida: sut, sariyog', qatiq, bochkalarda tayyorlangan tuzlangan tvorog (sir), nonni bug'doy va suli unidan ko'ptirilgan xamirdan yumaloq yoki cho'zinchoq shaklda qilib pishirilgan: xamirturushli yoki u solinmagan xamirdan turli piroglar, pampushka, korj, nalisniklar, qo'ymoq tayyorlanganlar. Non mahsulotlari oilaviy va taqvimiy marosimlarda katta o'rin tutgan. U mehmondo'stlikni, to'kinlikni ramzi bo'lib, har bir ushog'ini uvol qilmaslikka intilishgan.

Ukrainlarni sevimli ichimligi kvas bo'lgan. Quritilgan mevalardan kompot (uzvar) ham tayyorlashgan. Ko'pchilik uy sharoitida turli spirtli ichimliklar xususan aroq samogon (gorilka) qilishgan. Ukrainlarda XIX asrdan choy ichish an'anasi shakllanadi. Regional xususiyati choy o'rniga yalpiz, namatak, smorodina va boshqa mahalliy o'simliklardan damlashgan.

So'nggi paytlarda boshqa xalqlardan chuchvara, belyashi, palov, beshbarmoq, shurpa, shashlik kabi taomlar qabul qilindi.

Kiyimlar. An'anaviy ukrain kiyimlari chiroyli va nafis bo'lgan. Ayollar kiyimi tunikasimon ko'ylak XX asrning boshlariga qadar ham uy, ham ko'cha kiyimi bo'lgan. Tikilmagan dergi deb nomlangan kiyimni XIX asrdan tikilgan yubkalarga almashtiradi. Havo sovuq paytda engsiz nimcha: korsetka, kiptari kiyishgan.

Bayram kiyimi barcha viloyatlarda plaxta bo'lib, u ikki uzun, uyda to'qilagn katak jun matodan, kashtalangan kiyim (yopinchiq) bo'lgan.

Qizlar sochlarini uzun qilib o'rib so'ng boshi atrofida o'raganlar. Sochlarini tasmalar, gullar, bilan bezashgan. Ayollar bosh kiyimlari chepchiklarini (ochipki), sochiqsimon bosh kiyimlari: namitki, obrusы, ro'mollarni turli ranglilari, hajmi, bog'lash usullari bo'lgan. Ayollar kiyimlari zeb-ziynatlar: bilaguzuklar, sirg'alar, bo'yin, ko'krak taqinchoqlar, munchoqlar, tangalardan yasalgan – monisto va boshqalar bo'lgan.

Erkaklar kiyimida sorochka (ko'ylak) ingichka tik kashtali, tasmali yoqali etagi, keng yoki tor ishtonga kiritilgan, engsiz nimcha vatasma beldan tepada kiyilagn. Bosh kiyimi yozda somonpoyadan brыl-shlyapa, qolgan paytda kiygizdan yoki qorako'l teridan silindir shaklidagi telpak kiyilgan. Ko'plab ukrain qishloqlarida yaqin paytlargacha an'anaviy baland qo'zi terisidan telpak (kuchma), qishki quloqchin – treux, malaxay kiyilgan. XIX asr oxiridan kartuz, keyinchalik kepka tarqaladi.

Kuz-qish faslida erkaklar ham, ayollar ham, rus kaftaniga o'xshash uzun uyda to'qilgan oq, qo'ng'ir yoki qora movutdan svita va opancha deb nomlangan kiyim kiyishgan. Yomg'irda kopyushonli kobenyak, qishda uzun po'stin kojux kiyishgan.

Eng keng tarqalgan oyoq kiyimi bir bo'lak charmdan tikilgan choreviki – tufli yoki botinkalar bo'lgan. Poleseda lichaki – choriq kiyishgan. O'ziga to'q aholida choboti - etik kiyilgan. Ukrainada fabrikada tikilgan charm poyafzal XIX asr oxiridan boshlab ommalasha borgan.

So'nggi yillarda ukrainlar identifikatsiyasini kuchaytirish uchun milliy kiyimlarni tiklashga, bayramlarda kiyishga harakat qilinmoqda.

Jamoaviy va oilaviy hayot. Qishloqlarda XIX asr oxirilarigacha patriarxal munosabat unsurlari saqlangan. Aholi hayotida gromada – qo'shnichilik jamoasi katta o'rin tutgan. An'anaviy o'zaro yordam, hordiq, uylanmagan yigitlar yig'inlari, yangi yil kolyadki va shedrovkalari saqlangan.

Ukrainada XIX-XX asr boshlarida 2-3 avlod vakillaridan iborat oilalar ko'pchilikni tashkil qilgan. Mol-mulk barcha oila a'zolariga tegishli bo'lgan.

Zamonaviy ukrain oilalarida ichki munosabatlarda demokratlashish bilan birgalikda oila institutini ahamiyatini o'sishi, bolalar tarbiyasiga e'tiborni kuchayishi, ularga etnik qadriyatlarni tanishtirish siyosati yuritilmoqda.

Dinlari. Markaziy va Sharqiy Ukrainada provaslav dini, G'arbiy Ukrainada greko-katolik va uniatlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ayni paytda aholida diniy tasavvurlar – ajinalar, rusalkalar, domovoylarga ishonch uzoq saqlangan. Vujudga kelgan sinkretizm – udum-marosimlar, bayramlarda namoyon bo'ladi.

Taqvimiy bayramlar. Ukrainlar ijtimoiy hayotlarida taqvimiy bayram va marosimlar muhim o'rin tutadi. Ularning ko'pchiligi xristian taqvimiga moslashtirilgan. Xususan, svyatki bayrami kechasida o'tkaziladigan ziyofatlar, non, don, fol ochish, karnavallar, kolyadka va щedrovkalar bilan bog'liq afsungarlik harakatlari kuzatiladi. Pasxada sayllar, birgalashib qo'shiq aytish, raqslarga tushish, marosim taomlari: kulich, bo'yalgan tuxumlar, kolbasa, qovurilgan to'ng'iz bolasi, asal iste'mol qilish va boshqalar qishloqlarda hozirga qadar o'tkaziladi.

Oilaviy marosimlar. Ukrainlarning zamonaviy nikoh to'ylarida qishloqdami yoki shaharda bo'lishidan qat'iy nazar, an'anaviy to'ylardagi ko'pgina urf-odatlar saqlangan. Unga sovchilik, karavay udumi, sovg'alar almashish, kelinni sepini keltirish, "to'y poezdi", "jo'ralar" va "boyar", kelin haq to'lash, kelin-kuyovni tantanali kutib olish, to'y ziyofati qabilar. So'nggi yillarda cherkovda nikoh marosimini o'tkazish tobora keng tus olib bormoqda.

Farzand tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq ko'plab eski an'analar, doya ayollar bilan birgalikda yo'qolib ketdi. Eski odatlardan saqlangani chaqaloqqa sovg'a keltirish, cherkovda chaqalog'ni cho'qintirib qum va kuma tanlashning tiklanishini ko'rsatish mumkin.

Dafn marosimi bilan bog'liq an'analar qisman saqlanib kelmoqda. Tunda marhum oldida o'tirib chiqish, psaltirni o'qish dindorlarga cherkovda janoza o'tkazish ular qatorida. Dafndan qaytib darhol xotirlash ziyofatini, to'qqizini, qirqini, yilini o'tkazishda xotirlash turli cherkov bayramlari jumladan, Pasxaga qo'shib o'tkazilishi ham keng tarqalgan.

Zamonaviy Ukraina aholisi tarkibidagi etnik guruhlar. Ukrainada 130 dan ortiq millat, xalq, elat vakillari yashaydilar. Ular orasida eng ko'p sonlisi ruslardir.

Qrim va Xerson viloyatlarida 270 ming qrim-tatarlari yashamoqda. Ular turkiy tilli (xazar, qipchoq, mo'g'ul va boshqalarning) qabilalarining mahalliy tavrlar, kimmeriylar, alanlar bilan aralashuvidan shakllanganlar.

Siganlar (lo'lilar) XV asrdan yevropada ko'chib yurib Ukrainaga XVII asrda kelib qolgan. Xerson, Zaparoje, Odessa viloyatlarida, Qrimda yashaydilar.

Yahudiylar – yid, ayid. Tillari ivrit. Ukraina yahudiylari bugungi kunda rus va ukrain tillarida so'zlashadilar. Ukrainada 1989 yili aholi ro'yxati bo'yicha 486 ming yahudiy yashagan.

3. Moldaviya.

Umumiy ma'lumotlar. Moldava respublikasi deyarli to'liq Dnestr va Prut daryolari oralig'ida joylashgan. Faqat Pridnestrove rayoni Dnestrning chap sohilida bo'lib, unda moldavanlar-ukrainlar-ruslar aralash yashaydi. Moldaviyaning shimolda ukrainlar Beletsk dashtida, Kodrы o'rmonli adirlarida – moldavanlar va Bujak (turkcha - burchakda) - gagauzlar joylashganlar.

Hozirgi Moldavaning tarixiy nomi Bessarabiya, Moldova toponimi esa Bessarabiyaning g'arbiy Prutdan Karpat tog'larigacha erlari nomlangan. Bessarabiya uzoq asrlar Usmoniy turklar ta'sirida bo'lgan.

Buxarest sharnomasiga ko'ra (1812 y) Bessarabiya Rossiya tarkibiga, Prutorti Moldaviyasi (Moldaviya knyazligi) Valaxiya bilan birga 1859 yili hozirgi Ruminiyani yadrosini tashkil etadi.

XX asr davomida Moldaviya taqdiri bir necha marta keskin o'zgargan. 1918 yili uni Ruminiya egallaydi. SSSR 1940 yil Bessarabiyani qaytarib Moldova Sovet respublikasini tuzadi. Moldova 1991 yil mustaqillikka erishib bugungi kunda yevropa hamjamiyatiga kirish harakatida.

Aholining etnik tarkibi. Moldavanlar etnogenezi. Moldova hududi qadim zamonlardan Qora dengiz bo'yi dashtlaridan Bolqon yarim oroliga migratsiya yo'lida joylashgan.

M. Av. II-I ming yilliklarda bu hududda frakiyaliklarga yaqin dehqonchilik qabilalari yashagan. Gerodot davrida (m.av. V asr) bu hududda skiflar Strabon davrida (m. I asr) o'zaro qarindosh get va dan qabilalari, sarmatlar (eroniylar) joylashgan.

Dastlab rimliklar m. II asr oxirida gotlar, IV asrdan xunnlar, so'ng turkiy qabilalar bijanaklar, qipchoqlar, tatarlar kelib o'rnashgan. Moldaviya orqali turkiy bulg'or qabilalari Bolqonga madyarlar (hozirgi vengerlar ajdodlari) Pannoniyaga o'tganlar.

Vlaxlar etnik jamoasi frakiylar-romanlar aralashuvidan vujudga keladi. Ulardan XIV-XV asrlarda moldavanlar ajralib chiqqanlar.

Antropologik jihatdan moldavanlar –o'rta bo'yli, yumaloq bosh,

qora soch va ko'zi qora. O'zlarini moldoven deyishadi. Eng zich yashaydigan joylari Kodri . moldovanlar soni 3 mlnga yaqin.

Moldova tili roman til guruhining sharqiy shaxobchasiga kirib, xalq lotin tili asosida shakllangan. Adabiy moldova tili XVII asrda vujudga kelgan.

Moldovanlar qo'shnilari. Moldovaning shimoliy rayonlarida yashaydigan ukrainlar o'zlarini rusnaklar deb atashadi. Ularni ajdodlari zaporojeliklar bo'lgan deyishadi.

Moldovadagi ruslar krepostnoy qaramlik, og'ir soliqlar, pomeщiklar tayziqi tufayli XVII asr oxiridan qochib kelganlar avlodlaridir.

Gagauzlar Moldovani janubida yashaydigan turkiy aholi ularning umumiy soni 120 ming, undan 150 mingi Moldovada yashaydi. Olimlarning fikricha, gagauzlarning ajdodlari qipchoqlar va bijanaklar bo'lgan. Tillari turkiy tillar guruhini o'g'uz kichik guruhida, dini bo'yicha provaslavlar.

Siganlar (lo'lilar) Moldova XV asrda kela boshlagan. Temirchilik, taqachilik, musiqa, raqslar bilan shug'ullaganlar. Moldavada yana bolgarlar va yahudiylar ham yashaydi.

Moldovaliklar xo'jalik mashg'ulotlari. Donli ekinlardan Moldovada makkajo'xori etakchi o'rinda. Bu ekinni Dunaybo'yi knyazliklarida joriy etilishini valash gaspodari Kantakuzin nomi bilan (XVII asr) bog'lanadi. Makka moldovanlarda keng tarqalib undan quyuq bo'tqani mamaliga kesib non sifatida eyishadi. Uni odatda brьinza bilan eyishadi.

Uzum yetishtirish bilan antik davrdan shug'illanishadi. Vinoni turli marosimlarda ichishgan. Vino orqali o'tgan ajdodlar bilan ramziy aloqa o'rnatilgan.

Uy-joylar. O'tmishda moldavanlar uylari devorlari somon va mol go'ngi qo'shib tayyorlangan g'ishtdan qurilgan. Uyning tomi somon yoki qamish bilan yopilgan. O'rmonli hududlarda an'anaviy qurilish ashyosi yog'och bo'lgan. Uyning old qismi moldavanlarda kase – mare (katta uy) deyilgan. Uyning ichi va tashqarisi ohak bilan oqlangan. Uyning ichki qismi gilam (devor va polda) lar bilan bezatilgan. Zamonaviy uylar g'ishtdan, toshdan, shlakobetondan va boshqa ashyolardan qurilmoqda.

O‘tmishda qo‘shnichilik jamoasi an’analari kuchli bo‘lgan moldovan qishloqlarda uyni butun qishloq ahli ko‘magida qurilgan. Odamlar hasharga bayramga borgandek borishgan. Klaka – deb nomlangan ommaviy hasharlar boshqa tadbirlar jumladan makka donini tozalashda ham qo‘llanilgan.

Folklor va madaniyat. Moldovanlarning milliy raqslari xora yoki jok (lot. yokus - o‘yin) deb nomlangan. Uni cho‘ponlar nayi fluera musiqasi ostida davra bo‘lib erkak va ayollar qo‘l ushlashib o‘tkazishgan. Moldovada lirik xalq qo‘shiqlarini ham (doyna) yaxshi ko‘rishadi. Dastlab doyna cho‘ponlar qo‘shig‘i bo‘lgan uning birinchi qismi sekin cho‘ponning og‘ir hayotidan nolishi singari, ikkinchi qismi tezlashib raqsga tushishga undaydigan qilib aytilgan.

Moldavada mashhur fan va madaniyat arboblari geograf A. S. Berg, vrach N. V Sklifosovskiy, me’mor A.V Shusev va boshqalar yashab ijod qilganlar.

Savol va topshiriqlar.

1. Beloruslar haqida umumiy tavsif: tillari. Antropologik tiplari va etnik tarixlari haqida gapirib bering.
2. Beloruslar xo‘jaligidagi o‘ziga xos xususiyatlarini so‘zlab bering.
3. Beloruslar uy joylari, kiyimlari va taomlaridagi transformatsiya jarayonlari qanday kechmoqda?
4. Oila, oilaviy turmush, taqvimiy marosimlarni so‘zlab bering.
5. Ukrainlar tili, rasasi va etnik tarixiga oid internet ma’lumotlarini keltiring.
6. Ukrainlar xo‘jaligi va hunarmandchiligi nimalari bilan xususiyatlanadi?
7. Aholining uy joylari, kiyimlari, taomlari haqida gapirib bering.
8. Ukrainlarda oilaviy marosimlar va taqvimiy bayramlarni ifodalab bering.
9. Moldovanlar etnik tarkib, tillari haqida gapiring.
10. Moldoviyaliklar xo‘jaligi, moddiy va ma’naviy madaniyatidan nimalarni eslab qoldingiz?

18-BOB. BOLTIQBO‘YI XALQLARI

Boltiq dengizining janubiy-sharqiy sohilida uchta: Estoniya (45 ming km^2, aholisi 1,4 mln), Latviya (maydoni 45 ming km^2, aholisi 2,4 mln) va Litva (maydoni 65 ming km^2, aholisi 3,7 mln kishi) davlatlar joylashgan.

1. Aholining shakllanishi. Boltiqbo‘yida qadim zamonlardan ikki til oilasiga ural (fin-ugor guruhi) va hind-evropa (letto-litov guruhi) tillariga mansub aholi yashagan. M. av. III ming yillik oxiri –II ming yillik boshlarida Boltiqbo‘yining janubiy-sharqiy hududlarida letto-litov qabilalalari latish va litvaliklar ajdodlari ham janubdan kelib joylashgan. Ular ma’lum muddat qo‘shnichilikda yashagan. Asta-sekin hududning janubiy va markaziy qismida boltiq tillari shimolda finn tili ustunligi o‘rnatiladi.

Litvaliklar, latishlar va estonlarni xalq sifatida shakllanishi IX-XII asrlarda bo‘lgan. Keyingi asrlarda hududga daniyaliklar, nemislar tazyiqi boshlandi. Livoniya ordeni ritsarlari (1237 y) XIII asrda Latviya va Estoniyada mustahkam o‘rnashadi. Nemis feodallari egallangan erlarni undagi dehqonlari bilan bo‘lib olishgan. Shaharlarga ham nemislarning ko‘plab guruhlari kelib joylashadilar. Yillar o‘tib Livoniyaning nufuzli aholisi pomeщik, ruhoniylar, sex hunarmandlari aksari mahalliy (ostdzey) nemislardan bo‘ladi. Tub aholi esa dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Hokimiyatning qo‘llashida latishlar va estonlarda katolik dini tarqala boshlaydi. XVI asrdan yevropadan tarqalgan lyuteranlikni ko‘proq pomeщiklar qabul qilganlar. Ular mahalliy dehqonlarni ham lyuteranlikka o‘tkazganlar. Latish, eston va liv tillaridagi lyuteran tilidagi diniy kitoblar 1525 yilda Lyubek shahrida chop etila boshlanadi.

Boltiqbo‘yi xalqlaridan faqat litvaliklar 1240 yili kuchli davlat Buyuk Litva knyazligini tuzadilar. Litvaliklar nemis ritsarlariga qattiq qarshilik ko‘rsatib faqat g‘arbiy litvaliklar (jemaytlar) XIII asrdan nemislarning Tevton ordeni ritsarlari tomonidan bosib olinadi.

Litva va Polsha nemis ritsarlariga qarshi muvaffaqiyatli kurashish maqsadida 1385 y. Krev uniyasini tuzib Litva knyazi Yagaylo ayni paytda Polsha qiroli ham bo‘lgan. Gryunvald jangida (1410)

Polsha-Litva qo‘shinlari nemis ritsarlari qo‘shinini engadi. Natijada Litva va Polsha o‘z mustaqilligini saqlab qoladi. Litvada 1387 yildan katolitsizm rasman qabul qilina boshlanadi. Polsha va Litva 1569 y Lyublin uniyasini imzolab Rech Pospolito davlatini tuzadi. XVII asrda Boltiqbo‘yi erlari uchun Daniya, Shvetsiya, Rossiya orasida qator urushlar bo‘lib, Estoniya shvetsiyaliklar hukmiga o‘tadi. Shvetsiya dvoryanlari ham egallagan hududlarda yirik erlar egasiga aylanadilar.

Boltiqbo‘yi hududlarida rus aholisi XVII-XVIII asrlardan kela boshlab, ular aksari Rossiyada diniy tayziqqa uchragan staroobryadlar bo‘lgan. Ruslar Litvaning shimoli sharqida, Latviyaning sharqiy qismida Rigada, Chud ko‘lining g‘arbiy sohilida joylashgan. XVIII-XIX asr boshlarida deyarlik barcha Janubiy-Sharqiy Boltiqbo‘yi Rossiya tomonidan egallanadi. Hududda ruslashtirish siyosati 1863-1864 yillardan Litvadagi qo‘zg‘olon bostirilganidan keyin boshlandi. Lotin yozuvi 1865 yili ta’qiqlanib faqat 1904 yil bu ta’qiq bekor qilinadi. Ruslashtirish siyosati Latviya va Estoniyada ham bo‘lgan.

Latviya va Estoniyada XIX asr o‘rtalaridan sanoat taraqqiyoti yuksalib, ularda ishlash uchun ruslar, ukrainlar, beloruslar ko‘chib kela boshlaydilar. Aholining etnik tarkibini o‘zgarishiga I jahon urushi, undan keyingi Grajdanlar urushi (1918-1920) katta ta’sir etadi.

Rossiya 1920 yildan Boltiqbo‘yi davlatlarining mustaqilligini tan oladi. Lekin Germaniya bilan tuzilgan shartnomaga ko‘ra 1940 yilning avgustida Litva, Latviya va Estoniyaga sovet qo‘shinlari kiritilib, ularni Sovet davlatiga qo‘shib olinadi.

Litva, Latviya va Estoniya 1991 yil avgustida mustaqillikka erishib, yevropa hamjamiyati hamda NATO harbiy bloki a’zosiga aylanadilar.

2. Zamonaviy etnik, antropologik va diniy tarkibi.

Mahalliy xalqlar o‘zaro madaniy jihatdan yaqin bo‘lsada, ularni barchasi qardosh tillarda so‘zlashmaydilar. Litvaliklar (3 mln) latishlar (1,4 mln) hind-evropa til oilasining boltiq guruhiga kiradi. Estonlar 1 mln, ularga qardosh kamsonli livlar atigi 100 kishidan ko‘proqni tashkil qiladi, ulardan faqat yarmi liv tilini ona tili deb biladi. Livlar qo‘shni madaniy jihatdan yaqin latishlar bilan aralashib ketgan.

Ruslar Latviyada 33 %, Estoniyada 29 %, Litvada 8% aholini tashkil qiladi. Subetnik guruhlardan setular, latgallar moddiy va ma’naviy madaniyatlari bo‘yicha qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Antropologik belgilari bo‘yicha litvaliklar, latishlar va estonlar katta evropoid irqining shimoliy tipiga kiradi. Badan rangining o‘ta oqligi, malla soch baland bo‘y, ko‘k yoki qo‘ng‘ir ko‘z, kalla va yuzining kattaligi bilan xususiyatlanadi. Ayni paytda aholining ayrim guruhlarida o‘ziga xos xususiyatlar ham uchraydi.

Aholi diniy tasavvurlari bo‘yicha ham bir xil emas. Litvaliklar aksari – katoliklardir. E’tiqodli latishlarning ko‘pchiligi lyuteran, lekin Sharqiy Latviyada qisman katoliklar ham etarlicha bor, estonlar –lyuteran va qisman provaslavlardir. Litvada din hamisha katta o‘rin tutsa, latish va estonlar diniy mutaasiblikda ajralib turganlar. Hozirgi paytda Latviya va Estoniyada yevropada eng katta foiz ateistlar va dinga etiqod qilmaydiganlar yashaydi.

3. Janubiy – Sharqiy Boltiqbo‘yi aholisining an’anaviy va zamonaviy xo‘jaligi.

Estonlar, latishlar va litvaliklar an’anaviy xo‘jaliklar asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. O‘tmishda erni ikki tishli omochning qator xillari bilan haydashgan. Hozirgi paytda erni shudgorlashda zamonaviy texnikadan foydalanishmoqda. Asosiy ekinlar shimoliy rayonlarda suli va arpa, janubroqda – bug‘doy. Texnik ekinlardan shimolda – kartofel, janubiy-g‘arbda – zig‘irpoya ekiladi. Chorvachilikda yirik shoxli qoramol va to‘ng‘iz boqish etakchi o‘rin tutadi.

Latviya va Estoniyaning sohilbo‘yi rayonlarida asosiy xo‘jalik baliqchilik bo‘lgan. Shunga qaramay o‘tmishda baliqchilar aholining eng kambag‘al qatlami bo‘lib, ular doim qandaydir qo‘shimcha xo‘jalik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lganlar.

Litvada bog‘dorchilik va polizchilik ham rivojlangan.

XIX asr boshlarida krepostnoy qaramlik bekor qilinguniga qadar, aholini majburiy ishlatish keng qo‘llanilgan. Qishloqlarda uy hunarmandchiligi bilan shug‘ullanilgan. Shaharlarda hunarmandchilik nemislar, polyaklar va yahudiylar qo‘lida bo‘lgan.

Boltiqbo‘yi xalqlari, ayniqsa litvaliklar yantar qazib olish va unga ishlov berish bilan ham mashg‘ul bo‘lganlar. Manbalarda

yozilishicha m.av 50 yilda rimliklar ulardan yantar sotib olishgan.

Janubiy – Sharqiy Boltiqbo'yi xalqlari moddiy madaniyati.

Shahar va qishloqlari. Hududdagi ko'plab shaharlar ko'p asrlik tarixga ega. Jumladan, Tallin o'rnidagi manzilgoh arab geografi al Idrisiy tomonidan 1154 yili tilga olingan. Keyinchalik manzilgohda qal'a qurilib Toompea deb nomlangan. Daniyaliklar uni 1219 yili egallaganda Revel deb atab, bu nom 1917 yilga qadar saqlangan. Estonlar uni Tallin deb atab bu "daniya shahri" ma'nosini bergan. Lyubek kodeksi bo'yicha shahar maqomini olgan Tallin (1248), Ganza ittifoqiga kirib (1285) uning muhim savdo markaziga aylanadi. Shaharning XIII-XVI asrlarda qurilgan qismi bizning kunlarimizgacha yaxshi saqlangan. Riga yozma manbalarda dastlab 1201 yili eslanadi. Nomi shahar yonidan o'tgan daryochadan olingan. Unga episkop Albert va ganzalik nemis savdogarlari asos solishgan. Vilnyus (Litva poytaxti) knyaz Gedimanas tomonidan 1323 yili asos solinsada, arxeologlarning aytishicha uning o'rnidagi aholi manzilgohi ilgaridan bo'lgan.

Uzoq asrlar davomida shaharlar aholisining katta qismini xorijliklar tashkil qilgan. Qishloq joylarida ko'p hovlili va yakka hovlililari ham bo'lgan. Kam uyli qishloqlar (xutorlar) XIX asr oxiridan hududda asosiy manzilgohlarga aylanib boradi.

Uy joylar. Dehqonlar uylari aksari yog'ochdan yo'nib qurilgan. Litvaliklarda an'anaviy uy ilgari bir xonali o'rtasi ochiq o'choqli (namas) bo'lgan. Litvaning g'arbida bu xildagi uylar XVI asrga qadar ko'p qurilgan. Keyinchalik asosiy uyning atrofida qo'shimcha xonalar qurila boshlanib u ko'p xonali binoga aylangan. O'choqni atrofiga g'isht urib, truba qo'yib (kaminas) kaminga aylantiriladi. Sharqiy rayonlarda ruslarning yog'och uylari namunasidagi (pirkya yoki istaba) inshootlar qurilib unda rus pechi ham bo'lgan. Xo'jalik binolari alohida joylashgan. Ulardan ombor, ayvon, hovlida hammom qurilgan.

Estoniya va Latviyaning shimolida an'anaviy turar joylar – riga – yog'ochdan qurilgan. Uylar somon tomli bo'lgan. Uyning orqa burchagida pech qurilgan. Dastlab unda tutun uchun truba qilinmagan. XIX asr o'rtalaridan pechlarni tutun chiqadigan moslama bi-

lan qurib unda kuzda xashakni quritishsa, qolgan paytda yashaganlar. Dastlab bir xonali rigalar keyinchalik bir yonidan qo'shimcha xonalar ikkinchi tomonidan ombor qurilib, ko'pxonalik turar joyga aylana boradi.

Bugungi kunda ko'pchilik litvaliklar, latishlar, estonlar zamonaviy uylarda yashashmoqdalar. Endilikda bu uylarda an'anaviy me'morchilikni ayrim xususiyatlari saqlangan xolos.

Taomlari. Aholi taomlari asosini o'simlik va sut mahsulotlari tashkil qiladi. Sohilbo'yi rayonlarida baliq asosiy ozuqa bo'lgan.

Estonlar o'tmishda noni (aksari suli unidan) ko'p iste'mol qilishgan. Leyb (non) eston tilida umuman ovqatni anglatadi. Qolgan barcha taomlar (go'sht, baliq, yog' va h.k.lar) ilgari leyvakырvane – nonga qo'shimcha deyilgan. Sutni aksari qatiq tarzida ichishgan. Sutdan tvorog, qaymoq, pishloq, slivki tayyorlangan. An'anaviy eston taomlari – arpa yormasidan bo'tqa, karam sho'rva, kartoshka, no'xat sho'rva va turli baliqlardan iborat. Estoniyaning janubida talqon, setularda nordon arpadan kisel ommalashgan. Taom kvas bilan ichilgan. Go'sht aksari to'ng'izniki, bayramlarda iste'mol qilingan.

Latishlar taomlari asosini un donlar, no'xat, kartofel shuningdek, sut va undan mahsulotlar tashkil qilgan. Go'shtlardan ko'proq to'ng'iz go'shti ishlatilgan. Latishlar turli baliqlar: seld, kilki, salaki eyishadi. Birinchi taomlar: no'xat, kartofel va boshqa donlilardan bo'tqalar edi.

Litvaliklar kartoshkadan taomlarni xush ko'radilar. Uni qaymoq, tvarog, sut bilan tortishgan. Sabzavotlardan lavlagi, karam go'shtli sho'rva qilishadi. Yozda sovuq borщni qaymoq bilan eyishgan. Ikkinchi taom sifatida oladi, quymoq qirilgan kartoshkadan tayyorlangan. Litvaliklar ham to'ng'iz go'shtini ko'proq ishlatadilar.

Janubiy-Sharqiy Boltiqbo'yi xalqlari evropaliklar taomlarini, ko'proq nemislar, polyaklar va ruslar taomlarini ham o'zlashtirganlar.

Kiyimlar. Janubiy sharqiy Boltiqbo'yi xalqlari kiyimlari mahalliy nam sovuq iqlimga mos. An'anaviy ayollar kiyimlari uzun jun gazlamadan yubka, ko'ylak, kofta, elkalariga yopinchiqlardan iborat. Turli mahalliy variantlari bo'lishiga qaramasdan Boltiqbo'yi xalqlari kiyimlarida o'xshashlik jihatlari ko'p. Qiz va ayollar

bayram kiyimlari zig'ir tolasidan matodan ko'ylak, jun matodan yubka, engsiz nimcha yoki kofta, kamarlar, yopinchiq, bosh kiyimlari va h.klar bo'lgan. Bayram poyafzali qattiq poshnada soqqisi yumshoq: choriqlar edi. Qizlar bosh kiyimi tepasi ochiq gulchambar, tasmalar va h.k. ayollar boshlarini to'liq yopishlari sochiqsimon bosh kiyimi, qalpoqchalar, ro'mollar bo'lgan. Qizlar uylarda yalang bosh yurganlar.

Boltiqbo'yida uch xalq kiyimlari o'z xususiyatlariga ega. Eston ayollari kiyimlari tunikasimon ko'ylak, uning ustidan kalta bluzka (kyaysed) va yo'l-yo'lli yubkalardan iborat. Estoniyaning g'arbida yubkaga turli rangdagi iplardan kashtalar tikishgan. Setu ayollari kiyimlarida yopiq sarafan, kiyimlarida oq, oq-malla ranglar ko'proq uchragan. Kiyimlarini yumaloq konussimon ko'krak taqinchog'i – fibullar to'latgan.

Latish ayollari ham tunikasimon ko'ylaklar va yo'l-yo'l matodan yubkalar kiyganlar. Tepaga koftalar, engsiz nimchasimon kiyimlar kiyilgan. Uning ustidan oq jundan yoki zig'irpoyadan (ba'zida kashtasi bilan) elkaga tashlanadigan yopinchiq tashlangan. Latviyaning g'arbida an'anaviy ayollar kiyimlari metaldan kamar va metaldan taqinchoqlari bo'lgan yorqin – ko'k yopinchiq bilan to'latilgan. Latgal ayollari tunikasimon ko'ylak qizil kashtasi bilan, katak yoki oq yubka kiyganlar. Engsiz va engli koftalar Latgaliyada keng tarqalmagan. Elkaga zig'irpoyadan to'qilgan – katak yoki oq yopinchiq tashlangan. Litva ayollar kiyimi ham tunikasimon ko'ylak, engsiz kofta, tepadan pastga tomon yo'l-yo'l yubka va elkaga yopinchiqdan tashkil topgan.

Erkaklar an'anaviy kiyimi nisbatan kam o'ziga xoslikka ega bo'lgan. Erkaklar kiyimi asosini barcha xalqlarda to'qilagan gazlama ko'ylak, kalta yoki uzun ishton, kurtka tashkil qilgan. Ustki kiyimlarini jundan yoki teridan kamar bilan bog'lab yurishgan.

Janubiy – Sharqiy Boltiqbo'yi aholisi orasida XIX asr o'rtalaridan ayollarning shahar (evropacha) kostyumlari yoyila boshlab XX asrning boshlarida barcha hududlarda ayollar kiyimida shahar liboslari etakchi o'rin egallaydi. Erkaklar an'anaviy kiyimlari ham shahar kostyumi tomonida XIX asr o'rtalaridayoq surib chiqarilgan. Bizning kunlarimizda an'anaviy kiyimlarni bayramlar, to'ylarda,

turli badiiy havaskorlar ansambllarida ko'rishimiz mumkin. Ba'zida ichki orollarda an'anaviy kiyimdagi ayollarni uchratish mumkin.

Boltiqbo'yi xalqlarda oilaviy munosabatlar.

Janubiy-Sharqiy Boltiqbo'yi aholisi uchun kichik (monogam) oilalar, asosan ota-onalar hamda farzandlarini yashashi ancha vaqtdan buyon odatiy holdir. O'tmishda oilada yagona xo'jayin ota bo'lgan, lekin bu hol uning belida quvvati, ko'zida nuri qolgan paytiga taalluqli bo'lgan edi. Ota xo'jalik ishlarida etakchilikni uddalay olmasa mavqe katta o'g'ilga o'tgan. U uy va er maydoniga merosxo'r bo'lgan. Kichik o'g'illarga ma'lum qism meros tegsa, qizlarga faqat kelinlik sepi berilgan. Ba'zida kichik ukalar oilada xizmatkorlar darajasida bo'lganlar.

3. Ma'naviy madaniyat.

Estonlar, latishlar va litvaliklar xalq madaniyatlarida ko'plab umumiyliklar mavjud. Bu qo'shiq san'ati, musiqasi, raqslarda va h.k.larda kuzatiladi.

Janubiy-Sharqiy Boltiqbo'yi xalqlarining milliy uyg'onishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu paytda ko'plab yangi maktablar qurilib, ularda ona tilida o'qitish muhimligi masalasi ko'tarilgan. Ko'plab klublar ochilib, turli to'garaklar havaskorlar jamiyatlari tashkil qilingan. Xalq qo'shiqlari, rivoyatlari, maqollarini yig'ish yozib olish faoliyati boshlanadi. Eston shoiri F. Kreysvald (1803-1882) xalq qo'shiqlari va rivoyatlari asosida "Kalevipoet" (Kalevaning o'g'li) qissasini yozadi. Latish shoiri A.Pumpur (1841-1903) halq afsonalari va rivoyatlari asosida "Lachplesis" (Ayiqni enguvchi) dostonini yaratib unda latishlarning nemis ritsarlari bilan urushlarini tavsiflagan. Litvaliklarda xalq jangovar dostonlari kam saqlangan. Ayni paytda ularda asosan qizlar ijro etadigan lirik qo'shiqlar - dastnilar katta o'rin tutadi. Shunga o'xshash xalq qo'shiqlari latishlarda ham tarqalgan. Janubiy-Sharqiy Boltiqbo'yi xalqlarida xor bo'lib ijro etiladigan qo'shiqlar ham ommalashgan. Estonlarda ilk qo'shiqchilik bayrami 1869 yili o'tkazilsa, latishlarda 1873 yilda bo'lgan. Bu bayramlarda ko'plab qo'shiqchilik xorlari, professional kompozitorlar va muzikantlar hamda keng qo'shiq havaskorlari ommasi ishtirok etadi.

Eston, latish, litvaliklar xalq amaliy san'ati ham rang-barang.

Bu badiiy to‘qimachilik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, sopol buyumlar yasash va h.klardir.

Hozirgi kundagi Litva, Latviya va Estoniyadagi etnoslararo munosabatlar.

Boltiqbo‘yi davlatlaridagi zamonaviy etnoslararo munosabatlar, ulardagi hokimiyatni rusiyzabon aholiga nisbatan siyosati bilan belgilanmoqda. Ma’lumki Latviya va Estoniyada rusiyzabon aholi foiz jihatidan ancha ko‘p. Litva hukumati bu borada mahalliy ruslarga nisbatan loyal siyosat olib borib, mustaqillikning dastlabki davridayoq nol variantini e’lon qilib, unga ko‘ra, shu sanadan oldin respublika kelib ro‘yxatdan o‘tib muqim yashayotganlarga millati va tilidan qat’iy nazar grajdanlik beriladigan bo‘ldi. Natijada ko‘pchilik litvalik bo‘lmagan aholi bu qonundan foydalandilar.

Latviya va Estoniya hukumatlari nol variantini qabul qilishdan bosh tortdilar. Ushbu respublikalarda grajdanlik 1940 yilgacha yashaganlar va ularning avlodlariga berildi. Tabiiy bu toifaga ko‘pchilik rusiyzabon aholi kirmaydi. Qolganlar uchun grajdanlik olish qator talablarni bajarish sharti (xususan davlat tilini bilish, mamlakat tarixi va konstitutsiyasidan imtihon topshirish va h.k) sinovlar qo‘yiladi. Oqibatda Latviya va Estoniyada ancha rusiyzabon aholi grajdanlik ololmay qoldi. Bu esa ushbu aholi guruhlarini cheklanishiga olib keldi. Latish va eston tillarini bilish davlat tashkilotlariga qabul qilinishida, maorif va oliy ta’lim tizimida og‘ishmasdan talab qilinmoqda.

Savol va topshiriqlar.

1. Boltiqbo‘yi xalqlarining shakllanish bosqichlari qanday kechgan, so‘zlab bering.
2. Internet ma’lumotlari asosida aholining an’anaviy v zamonaviy xo‘jaliklarini gapirib bering.
3. Aholining etnik tarkibi, tillari va rasalari haqida hikoya qiling.
4. Boltiqbo‘yi aholisining turar joylari, taomlaridagi transformatsiyalar qanday kechmoqda?
5. Kiyimlaridagi etnik jihatlarni ifodalab bering.
6. Aholining ma’naviy-madaniyati xususiyatlari qanday?
7. Boltiqbo‘yi mamlakatlaridagi etnik munosabatlar va ularning istiqbollarini so‘zlab bering.

19-BOB. ROSSIYA XALQLARI.

Biz Osiyo qit’asi doirasida Sibirning tub aholisi haqida so‘z yuritgan edik. Endi Rossiya Federasiyasining boshqa hududlaridagi etnoslari bilan tanishamiz. Bu boradagi tavsifni eng yirik xalq ruslardan boshlashimiz tabiiy.

Ruslar joylashishi, tili va shevalari. Ruslar yoki velikoroslar – dunyodagi eng yirik va ko‘p sonli xalqlardan biridir. 2010 yilgi aholi ro‘yhati bo‘yicha ruslar 115 mln kishi (mamlakat aholisini deyarli 80% ni tashkil etadi. Yana millionlab ruslar dunyoning boshqa mamlakatlarida (30 mln atrofida)) yashaydilar.

Sharqiy yevropa hududidan tashqari ruslar nisbatan zich joylashgan rayonlar: Adigeya, Buryatiya, Boshqirdiston qo‘shni mamlakatlar Ukraina, Belorusiya, Latviya, Estoniya, Litva, Qozog‘iston, Kanada, AQSh va h.k. lardir.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda XIX-XX asrning boshlariga qadar Rossiyadan 3,5 mln kishi, 1917 yildan keyin – 1,5-2 mln kishi xorijga ketgan.

Rossiya va yaqin xorij mamlakatlaridan tashqari yevropada 150 ming, Amerikada 1 mln.dan ortiq, Kanadada 70-80 ming, Fransiyada 40-50 ming ruslar yashaydi.

Rus tili hindevropa til oilasining sharqiy slavyan guruhiga kiradi. Yozuvi kirillitsa IX asrda joriy etilgan. Aholi ikki «o» harfiga urg‘u beruvchi hamda shimoliy rusda «a» harfini ishlatuvchilarga bo‘linadi.

Antropologik tasnif. Ruslar katta evropoid irqi vakillaridir. Shimoliy oblastlarda atlant-boltiq kichik rasasi baland bo‘yi, ko‘zi va sochining movuyligini hamda mallaligi bilan xususiyatlanadi. Shimoliy-sharqiy zonada sharqiy-belomor tipiga mansub bo‘lgan aholi yashaydi. Janubiy ruslarda o‘rta er dengizi va mongoloid irqi unsurlari uchraydi. Bu ruslarni ko‘plab asrlardan buyon mongoloid irqi vakillari bilan o‘zaro yaqinlikda yashagani va aralashgani oqibatidir. Sharqiy rayonlardagi ruslarda (Ural, Volgabo‘yi, Sibir) mongoloidlik belgilari kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Dinlari. Rusda X asr oxiridan provaslavie rasmiy din tusini oladi. Norasmiy jihatdan xristianlikdan oldingi diniy tasavvurlar,

staroobryadlar (XVII asrdagi cherkov islohotini qabul qilmaganlar) va boshqa sektalar doimo bo'lgan. Jumladan xristian payg'ambar va avliyolar: Ilya payg'ambar momoqaldiroq va yashinni boshqarib Perunning vazifalarini; Paresneva-Petnitsa ayollar homiysi, avliyo Vlasiy, qadimgi Velesning – cho'ponlar va chorva homiyligini qabul qilgan. Ruslar maishiy hayotida: domovoy, rusalkalar, jin-ajinalarga ishonch uzoq saqlanib qolgan.

2. Ruslarning etnik tarixi.

Etnogenez. Qadimgi slavyan qabilalari alohida guruhga m.av. I ming yillikning ikkinchi yarmida ajraladi. Keyinchalik antik mualliflar asarlarida ularni antlar va venedlar nomlari bilan atashgan. Slavyanlar nomini ilk bor yozma manbalarda VI asrda uchratamiz. Ularning ilk vatanlari Markaziy va Sharqiy yevropa aniqrog'i Elba va Dnepr daryolari oralig'i bo'lgan. Aynan shu hududdan milodiy I ming yillikning birinchi yarmida slavyanlarning bir qismi sharqqa, Dneprning o'rta va yuqori oqimiga, shimolga – Ilmen ko'li rayoniga (sharqiy slavyanlar) ko'chadi.

Sharqiy slavyan qabilalari (polyanlar, drevlyanlar, vyatichlar, krivichlar, ilmen slovenlari va boshqalar) IX asrda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotlari darajasi bo'yicha davlat tuzish arafasida edilar. Tashqi xavf Osiyo ko'chmanchi qabilalari: bijanaklar, qipchoqlar hujumlari ushbu jarayon omillaridan biri bo'ladi. Kiev Rusi (IX-XII asrlar) doirasida qadimgi rus elati shakillanadi. Rus so'zining kelib chiqishi aniq emas. Rus erlari tushunchasi XII asrda sharqiy slavyanlar yashagan barcha hududlarni anglatgan. Qadimgi Rus elati keyinchalik shakllangan sharqiy slavyan xalqlari – belorusslar, ruslar, ukrainlarga asos bo'ladi. Kiev Rusi davlatiga ko'plab qo'shni xalqlar: merya, meщera, ves, vod, ijora va boshqalar qo'shilgan.

Kiev Rusi XII-XIII asrlar feodal tarqoqlik davriga kirib, bu hol uni chet bosqinchilari (mo'g'ullar, shved va nemis ritsarlari) hujumiga uchratadi. XIV asrdan Rus erlarini yangi markaz Moskva atrofida birlashuvi boshlanadi. Moskva davlatini shakllanishi davomida rus elati, uning o'zini anglashi, etnik, hudud, xo'jalik va davlat haqidagi tasavvurlari shakllanadi. XIV-XVI asrlarda – rus adabiy tilining bosqichma-bosqich shakllanishi davri bo'ladi. XVI asr oxirida Rossiyada ko'plab shaharlar hunarmandchilik va savdo markazlariga aylanadi.

Moskva Rusi XVII asrning ikkinchi yarmidan Rossiya deb atala boshlandi. U yirik ko'pmillatli markazlashgan hokimiyatli davlatga aylanadi.

Rus millati. Rus xalqini XVII-XIX asrlarda asta-sekin zamonaviy millatga aylanishi, ijtimoiy munosabatlarni taraqqiyoti va yangi kapitalistik xo'jalik va turmushni elementlarini shakllanishi bilan bog'liq edi. Mamlakatning markaziy rayonlarda aholining zich joylashuvi dehqonlarni Volgabo'yi, Ural, Sibirga ko'chib u erlarni koloniyaga aylantirib, o'zlashtirishiga yo'l ochadi.

Rossiyada ilgaridan yuqori toifa tarkibiga rus bo'lmagan etnoslar oliy ijtimoiy toifalarini qo'shish an'anasi bo'lgan. So'nggi feodal jamiyati ijtimoiy strukturasi XVIII asrda shakllanib, unda beshta asosiy toifalar bo'lgan. Dvoryanlar va ruhoniylar soliqlardan ozod qilingan, qolganlar – savdogarlar, meshanlar va dehqonlar – imtiyozli toifalar va butun davlat amaldorlarini ta'minlashga majbur edilar. Jamiyatni ijtimoiy toifalarga bo'linishi to 1917 yil fevral inqilobiga qadar saqlandi.

Rossiyada XIX asrda 90% dan ortiq aholi dehqonlar bo'lgan. Faqat krepostnoy qaramlikni bekor qilinishi (1861) sanoatni rivojlana borishiga turtki bo'ladi.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskin o'zgarib, aholining migrasiyaga moyilligi keskin o'sdi. Ruslar ilgarigi milliy chet viloyatlarni tashlab markaziy va janubiy hududlarga ko'cha boshladi. Natijada ko'plab hududlarda ruslar soni qisqarib bormoqda. Qolaversa sobiq sovet respublikalaridan xususan O'zbekistondan Rossiyaga ketgan ruslar ham iqlimi nisbatan yumshoq bo'lgan Rossiya qoratuproq zonasiga, markaziy hududlardagi unchalik yirik bo'lmagan shaharlarga borib joylashganlar. Rossiyadagi so'nggi aholi ro'yhati bo'yicha (2010 yil) unga ko'chib borib fuqarolik olgan o'zbeklar 300 mingga yaqin, tojiklar 200 mingdan ko'proq. Demak Rossiyada o'lkamizdan faqat ruslar emas, o'zga millat vakillari ham ko'chib borib yashamoqdalar.

3. Rossiyaning subetnik guruhlari.

Rus xalqini joylashgan asosiy hududida ikki sheva : shimoliy va janubiy velikorosslar guruhlari bo'lgan. Bu hududlar orasida o'rta rus zonasi Oka va Volga havzasi ham mavjud. Mo'g'ullar hukum-

ronligidan keyingi davrda aynan shu hudud rus davlatchiligi asosi, rus elatini rus xalqiga aylangan joyi bo'ladi. Aynan shu hududda umumrus adabiy tili shakllangan. Ko'plab asrlar davomida Sharqiy yevropa hududlarida tarqalgan rus xalqi guruhlarida xo'jalik, madaniyat va turmushda ma'lum xususiyatlar shakllangan. Ba'zida bu xususiyatlar talaygina. Bu guruhlarga nisbatan subetnik guruhlar atamasi qo'llaniladi.

Smolensk va Pskov oblastlarida madaniyati bo'yicha beloruslarga yaqin subetnik guruh shakllangan uni ikki xalq orasidagi o'tish tipi deb aytish mumkin.

O'rta Volgabo'yida XVI-XIX asrlarda shakllangan rus aholi moddiy madaniyati va xo'jaligida finn-ugor va Ural-Volgabuyi turkiy xalqlariga xos madaniy belgilarni uchratishimiz mumkin.

Janubiy velikoroslar tarkibida ilgari "bir hovliliklar" deb nomlangan guruh ajralib turgan. Ular aksari xizmatdagi aholi avlodlari bo'lib, dasht hududlarini qo'riqlash uchun XVI-XVII asrlarda ko'chirilgan. Ular alohida yashaganliklari tufayli qishloqlari, uy-joylari, ayollari kiyimlarida ko'plab o'ziga xosliklar shakllangan.

Shimoliy velikoroslar Oq dengiz, Arxangelsk, Murmansk guberniyalariga borib joylashib: mahalliy geografik nomlar bilan poozerlar, poshexonlar, pomorlar va h.k. nomlar, mahalliy sharoitlarga mos uy-joylar, madaniy-xo'jalik tipi yaratganlar.

4. Xo'jalik: an'anaviylik va zamonaviylik. Qishloq xo'jalik mashg'ulotlari. Ruslarning asosiy mashg'ulotlari qadimdan dehqonchilik bo'lgan. Rus dehqonlari erning tuzilishiga qarab og'ir plug, engil omoch yoki boshqa tipdagi uskunalari yordamida shudgor qilganlar. Hosilni o'roqlar bilan o'rib, bog'lab ovin deb nomlangan maxsus xonalarda kuritishgan. Donni qo'l tegirmonlari, shamol yoki suv tegirmonlarida un qilganlar.

Dehqonchilikning eng muhum yo'nalishi: donli ekinlar – arpa, suli (shimolda), bug'doy (janubda), qo'noq, grechixa, no'xat va x.k.lar bo'lgan. Texnik ekinlardan zig'irpoya, kanop ekishib ulardan olingan toladan mato to'qishgan. Sabzavotlardan piyoz, karam, turp, dukaklilar va boshqalar yetishtirilgan. Xo'jalikning yordamchi sohalariga baliqchilik, ovchilik, termachilik, asal to'plash (yovvoyi asalarilar asalini olish), qo'ziqorin, o'rmon mevalari terish kirgan.

Chorvachilik ham xo'jalikda o'z o'rniga ega bo'lgan. Yirik shohli mol omochga, plugga qo'shilishidan tashqari go'sht, sut mahsulotlari manbai bo'lgan. To'ng'iz boqish Rossiyaning deyarli barcha hududlarida keng tarqalgan.

XIX asrdan qishloq xo'jaligidagi sezilarli o'zgarishlar boshlangan. Yangi ekinlar joriy qilinib, avvaldan ekilganlari maydonlari kengaygan. Kartofel, qand lavlagi, kungaboqar, mamlakat janubida tamaki, uzum, tarvuz yetishtirish kengayadi. Ingichka junli qo'y boqish faol rivojlana boshlaydi. Shunga qaramasdan Rossiyada ocharchilik tez-tez takrorlanib turgan.

Shaharlar aholisi 70% ga ko'payganiga qaramay mamlakat aholisining atiga 10% shaharlarda yashagan. Faqat XX asrning 50 yillarida Rossiyada shahar aholisi qishloqnikidan yuqori foizni tashkil eta boshladi.

Hunarmandchilik va sanoat. Ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti, qishloq jamoalarida mehnat taqsimoti, asrlar davomida turli hunarmandchilik sohalarini mustaqil yo'nalishlarga: kulolchilik, temirchilik, toshkesarlik va boshqalarga bo'linishiga olib keladi.

Rossiyada krepostnoylik bekor qilinganidan so'ng kapitalistik taraqqiyotga yo'l ochilib yirik industrial rayonlar: Markaziy (Moskva atrofida), Shimoliy-G'arbiy (Peterburg atrofida), Ural va h.k.lar shakllanadi. Temir yo'llar quriladi. Metallurgiya, tekstil va boshqa sanoat turlari rivojlanadi. Burjuaziya va ishchilar sinflari soni o'sadi. Yirik sanoat bilan birgalikda mayda ishlab chiqarish (teriko'nchilik, sopol, temirchilik va boshqalarda) yuz minglab mayda kustarlar faoliyat yuritganlar. Millionlab shahar va qishloq aholisi hunarmandchilikni dehqonchilik bilan qo'shib olib borishgan. Rossiyada dehqonlarni qishloq xo'jalik ishlari tugagach kuz-qish fasllarida shaharlarga ketib ishlashlari ham keng tus olgan.

5. Ruslarning moddiy madaniyati.

Qishloqlar va qishloqchalar. Ruslarda yuztadan ortiq xo'jalik yashaydigan, cherkovi bo'lgan manzilgongohlar qishloq deb atalgan. Shimoliy va Shimoliy-G'arbiy viloyatlarda XIV asrdan ko'p sonli hovlilari bo'lmagan qishloqchalar vujudga kelgan. Stanitsa deb janubiy viloyatlardagi: Don, Terek, Kuban daryolari bo'ylab yashayotgan kazaklarni aholi punktlari nomlangan. Sibirda rus kol-

onistlari barpo etgan aholi manzilgohlari pochinki va zaymishalar bo'lgan.

Shaharlar. Ular Rossiyada paydo bo'lishi va memorchilik-loyiha qiyofalariga ko'ra turli-tuman bo'lgan.

Qishloq joylaridagi qal'a yoki feodal kremli bo'lajak shaharga asos bo'lishi mumkin edi. Shaharlar hunarmandchilik markazlari, pomeshchiklar uylari, monastirlar atrofida ham vujudga kelgan.

Shaharlar murakkab ijtimoiy tizimga ega bo'lgan. Ijtimoiy yaqin (meshanlar, dvoryanlar, savdogarlar) etnik (ruslar, tatarlar, ukrainlar) yoki kasbi-kori bo'yicha (etikdo'zlar, temirchilar, qurolsozlar) yashashga, mavzelar tashkil etishga intilganlar.

XIX asr oxiri - XX asrda ruslar yashaydigan hududlarda shaharlar soni keskin ko'payadi. Shaharlar Rossiya aholisi turmushi va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatib muhim etnomadaniy, integrasiya, ichki va tashqi etnoslararo aloqalarni kuchayishiga omil bo'lib xizmat qilgan.

Uy-joylar. Ruslarning uy-joylari turli xil va tiplarda qurilgan. Uylarni ko'rinishiga etnosiyosiy omillar va ijtimoiy tafovutlar ta'sir etgan. Aholining boy qatlamlari uylari sifati va qulayligi bo'yicha qambag'allarnikidan keskin farq qilgan. Dehqonlar turar-joylarida mahalliy xususiyatlar kuzatilsa, shaharlarda ham bu hildagi keskin farqlar saqlangan.

Shimoliy hududlar turar-joylari keskin tabiiy iqlim sharoitida shakllangan Arxangelsk, Novgorod, Vologda va yana qator Shimoliy viloyatlarda o'rmonlarning ko'pligi uylarni yog'ochdan yo'nib (vyansi) qulfi kalit qilib taxlashadi. Yog'ochlarni bir-biriga mahkamlashning qator usullari mavjud. Shimolga qanchalik uzoqlashsa dehqonlar uylari shunchalik baland qurilgan. Shimolda uylar ikki qavatli bo'lib, tomi ikki tomonlama qilib yopilgan. Shu tariqa bitta binoda pastda mol uchun og'ilxona, pichan va qishloq xo'jalik qurollari bo'lsa tepada yashash xonalari joylashgan Bunday qurilish majmuani uy-hovli deb atash mumkin. Shimoliy rus viloyatlarida uch xonali uy eng keng tarqalgan bo'lib, xo'jalik binolari bilan birga ko'cha yuzida uzun inshoot ko'rinishida bo'ladi. Uyning eshiklari, derazalari va boshqa qismlari o'yma naqshli me'moriy elementlari bilan bezatilgan.

Moskva, Vyatka, Ryazanning shimolida, Kaluga va boshqa guberniyalarda o'rta rus uy-joylar tipi kengroq tarqalgan. Uni mustaqil tipdan ko'ra, o'tish ko'rinishidagi turar-joylar deb atagan ma'qul. Uylar yog'ochdan qurilgan. Lekin bu viloyatlarda uylarni baland, ustma-ust qurishga hojat bo'lmaganidan bir qavatli qurilgan. Tomini ikki yoki to'rt yoqlama qilib, ustini somon (poxol) bilan yopishgan. Uyni odatda uch xonali qilib qurishgan. Xo'jalik binolari asosan uyning yonidan yoki orqasidan tiklangan. Uyning old tomoni derazalari naqshlangan taxtalar bilan bezatilgan.

Rossiyaning yevropa qismi janubiy rayonlarida boshqa tipda uy-joylar bino qilingan. Bu turar-joylarni beloruslar va ukrainlar uylari bilan umumiy elementlari ko'p. Yog'ochdan yo'nib qurilgan uylardan tashqari bu rayonlarda turlukdan (daraxt shohlaridan) mustahkam bo'yra to'qib uning ustidan loy bilan suvalgan. Somonli loydan devor yoki xom g'ishtdan qurilgan uylar bo'lib, yog'och uylardan boshqalari suvalib tashqi va ichki tomondan oqlangan. Bunday uylar aksari bir qavatli bo'lib, taxtadan poli, ko'pincha tuproqli poli va to'rt tomonlama, somonli tomi bilan xususiyatlangan. Uylar ikki yoki uch xonali bo'lgan, ko'chada uyning orqa devori qaragan hovli ochiq bo'lib xo'jalik binolari, erkin joylashtirilgan. Hozirgi kunda bunday tipdagi klassik uylarni uchratish mushkul. Endilikda bu hududlarda nisbatan qulay, g'ishtli uylar qurilmoqda.

XX asrning o'rtalaridan uy-joylar loyihasi va qurilishi soddalashib, standartlashib bordi. Ma'lum tipdagi loyiha bo'yicha qurilishlar keng tus oldi. Uyning ichida mebel, maishiy texnika ham barchada bir xil: oshxona, yotoqxona, bolalar xonalari uchun zarur mebellar yildan-yilga ko'payib bordi. An'anaviy me'morchilik elementlaridan turli bezaklar, dekor, yog'och o'ymakorligi namunalari saqlanib qolgan xolos.

Kiyim-kechaklar. Etnografik materiallar rus xalq kiyimlarini uchta asosiy kompleksga: shimoliy rus, janubiy rus va o'rta rus bo'linishini ko'rsatadi. Ularning areallari shevalaridagi tafovutlar rayonlari bilan deyarlik mos keladi. Ayrim lokal variantlar: g'arbiy rus kiyimlari kompleksi, sibir-staroobryadlari, kazaklar kiyimlari va h.k. lar ham mavjud.

Rus ayoli va erkaklari xalq liboslari asosini zig'ir tolasi yoki kanopdan to'qilgan mato tashkil qiladi. Uning bichimini tunikasimon deb nomlanadi. Bu xildagi ko'ylakning bichimi engil bo'lib, matoning bukilgan joyida boshni kiritish uchun kesib joy qilingan. Ikki yoni tepada eng qo'yiladigan joygacha tikilgan. Qizlar uchun o'tmishda bu ko'ylak ham uyda, ham tashqarida kiyishga mo'ljallangan, ayollar esa ustidan ustki kiyim kiyganlar.

Shimoliy rus ayollari kiyimi kompleksida ko'ylakdan tashqari sarafan kiyilgan. Uni turli matodan, turli rangdagi gazlamalardan tikishgan. Shamolda bosh kiyimlari ham turlicha bo'lgan. Kokoshnik ustidan ro'mol, kashtalangan yopinchiq yoki oddiy ro'mol o'rab yurishgan. Qizlar yalangbosh yoki engil tasma, gulchambar, bog'ich bilan yurishlari mumkin edi. Ayollar kiyimlarini majburiy elementi kamar taqish bo'lib, ular bilan bog'liq ko'plab udum-odatlar bor edi.

Janubiy rus ayollari kiyimi kompleksida ham uzun ko'ylak, ponyova o'rab (to'kilmagan) kiyiladigan ponyova (yupka) bo'lgan. Ponyova turli rangdagi matolardan qilingan. Ayollar oldilarida zapon deb nomlangan fartuk kiyganlar.

Janubiy rus ayollari kiyimlari ichida eng murakkabi bosh kiyimlari edi. Ular biri "hakka" bir necha qismdan iborat bo'lib ba'zida shox ko'rinishini olgan. Uning asosini elimlangan mato (kichka) bo'lib uning ustidan sochiqlarni turli usullarda bog'lashgan, o'rashgan.

O'rta rus ayollari kiyimlari kompleksi shimoliy rus va janubiy rus kostyumlari xususiyatlarini mujassamlagan uning uchun xususiyatli jihat XIX asrda yubka, koftalarini kiyila boshlanishidir. An'anaviy xalq kiyimlarini aholi hayotidan aynan shu jarayon surib chiqardi.

Rus dehqonlari erkaklar kiyimlari turlari ko'p bo'lmagan. To'g'ri kesilgan ko'krak kesimi zig'ir tolasidan to'qilgan matodan yoki movutdan tikilgan ishton juda keng bo'lmagan. Bosh kiyimlari XIX asrda kigizdan shlyapa, baland silindrik qalpoqlar, qishda qo'y terisidan turli fasondagi (malaxay, treux) telpaklar kiyilgan.

Ustki kiyimlar erkaklarda ham ayollarda ham bir xil qo'y terisidan po'stin, zipun va boshqalar bo'lgan. Dehqonlar oyoq kiyimlarida qator regional tafovutlar bo'lgan. Eng ko'p kiyiladigani ko'proq choriq, daraxt po'stlog'i tolasidan, ba'zida arqondan to'qishgan. Ayrim joylarda ishlov berilmagan teridan (porshna) oyoq kiyimi qilingan. Boy kishilar, teridan baland soqqili etiklar kiyganlar. XIX asr boshlaridan baland etiklar, kigizdan valenkilar kiyila boshlanadi. XIX asr oxirida rus qishloqlariga fabrika poyabzali va rezina kalishlar kira boshladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek rus aholisi kiyimlarida jamiyatni ijtimoiy toifaviy bo'linishi ham o'z aksini topgan. Ayniqsa dvoryanlar kiyimlari ajralib turgan. Uni G'arbiy yevropa namunalarida, modaga qat'iy rioya qilgan holda tikishgan. Savdogarlar, meshanlar ham o'z toifalariga monand kiyinishgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida rus kostyumlari sanoat darajasida kiyimlarni tayyorlash va sotish, ko'plab shahar modasi zig'ir tolasidan to'qilgan matodan yoki movutdan tikilgan ishton juda keng bo'lmagan. Bosh kiyimlari XIX asrda kigizdan shlyapa, baland silindrik qalpoqlar, qishda qo'y terisidan turli fasondagi (malaxay, treux) telpaklar kiyilgan.

Hozirgi kunda ruslarni shaxar va qishloq aholisi kiyimlari birbiridan farq qilmaydi. An'anaviy halq kiyimlarini badiiy halq ansambllari ishtirokchilarida fal'qlor jamoalarida, muzeylarda ko'rish mumkin. Bizning davrimizda milliy kiyimlarga qiziqish kuchaymoqda. Kashtachilik milliy naqsh san'ati o'z mavqeini saqlab kelmoqda.

6. Jamoa munosabatlari va oilaviy turmush.

Jamoa. Rossiya qishloqlari hayotini tashkil etishdagi o'ziga xos xususiyati qo'shnichilik jamoasini bo'lishligida edi. Jamoada o'rmon, o'tloq, suv xavzalari, xashak o'rish uchun dalalar singari mulklari bo'lgan. Ekin maydonlari jamoa a'zolariga bo'linib har bir oila tomonidan o'z mehnat qurollari bilan ishlov berilgan. Yig'ilgan hosildan pomeщikka obrok, davlatga soliq to'langanidan so'ng qolgani oila mulkiga aylangan.

Rus qishloq jamoasi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha xilma-xil bo'lib bu faqat mulkchilikda emas ba'zida etnik tarkibda ham kuzatiladi. Jamoa qator ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy vazifalarni bajargan. Jumladan ijtimoiy xayotning barqarorlashtir-

gan o‘z a’zolarini axloqiy me’yorlarni buzmasligini nazorat kilish oilada mulkiy,ajralish muammolarini,meros masalalarini, homiylik va x.k.larni nazorat kilgan. Xasharlar, bayramlar, to‘ylarni tashkil kilish ham jamoa an’analariga kirgan. Jamoani saylangan oqsoqol boshqargan. Uni oila boshliklari yig‘inida saylashgan.

Oila. Ruslarda ham XVIII-XIX asrlarda yirik patriarxal oilalar xususiyatli bo‘lgan. Ruslar hayoti oilaviy tashkil etilishining bu xildagi ko‘rinishi XX asrning birinchi choragigacha davom etgan. Yirik bo‘lmagan oilaning turli variantlari uchragan. Lekin bunday oilalar a’zolari odatda 25-30 kishidan oshmagan. Ayol turmushga chiqar ekan erining oilasiga kirgan. O‘g‘illar uylanganlaridan so‘ng ota-onasi bilin qolib, u bilan birga umumiy xo‘jalik yuritganlar.

Xo‘jalikni ko‘pchilik bo‘lib boshqarish oila a’zolariga ma’lum majburiyatlarni yuklaydi. Xo‘jalikni yuritish, oilaning maishiy turmushida kat’iy ierarxiyaga rioya qilingan. U kichiklarni kattalarga so‘zsiz bo‘ysunishida, erning xotin ustidan boshchiligida kuzatiladi. Oiladagi o‘zaro munosabatlar avtoritar patriarxal xususiyatda bo‘lgan. Uy egasi (bolshak) va uning xotini (bolshuxa) oilaning barcha mablag‘lari, a’zolari taqdirini hal etishda mutassadilik qilganlar.

Kapitalistik munosabatlarning taraqqiyoti rus oilasining ko‘plab tomonlariga ta’sir etdi. Ayrim oila a’zolarini shaharga pul ishlagani ketishi, kichiklarni kattalarga so‘zsiz bo‘ysunishining buzilishi, o‘g‘illarning o‘z huquqlarini namoish etib,oila mulkidan o‘z hissalarini talab qilishlari va boshkalar boshlanadi. Rus oilalaring parchalanishi XIX asr oxirida boshlanadi. Bu jarayon juda uzok davom etib, mahalliy sharoitlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Oilaning parchalanishi o‘zaro munosabatlarga chek qo‘yish bo‘lmagan albatta. Shahardami yoki qishloqda yangi ajralib chiqqan oilalarni imkon darajasida katta oilaga yaqinroq joylashtirishga harakat qilingan.

Kichik oilalar ko‘pincha ikki avlod ota-onalar va farzandlaridan iborat bo‘ladi. Kichik monagam oilani ichki tizimi ancha demokratik. Bu jarayonlarni taraqqiyoti shaharlarda ishchilar oilalarini ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi.

Inqilobdan so‘ng SSSRda oila nikoh masalalarida progresiv qonunlar qabul qilinda. Zamonaviy oilalarda ayniqsa shaharlarda mil-

liy aralash nikohlar ko‘payib bormoqda. Ijtimoiy geterogen tarkibli (eri ishchi, xotini vrach) oilalar soni ko‘payib bormoqda.

Oilaviy marosimlar. Inson hayotidagi muhim bosqichlarni tantanali yoki salobatli bo‘lishini niqoh to‘yi, farzand tug‘ilishi va dafn marosimlari ta’minlaydi.

Nikoh to‘yi eng yorqin va tantanali marosimdir. Nikoh udumlari o‘zida qadimgi afsungarlik, halq an’analarini, qo‘shni halqlar madaniy ta’sirini mujassamlagan, Ruslarda ushbu marosim davrlar o‘tishi bilan murakkab tus olgan. Nikoh to‘yiga uzoq asrlardan buyon faqat oilaviy emas jamoaviy hodisa, voqea sifatida qaralgan. Ayniqsa cherkovda nikoh marosimi tantanali o‘tkazilib uning ishtirokchilarida katta ta’surot, kelin - kuyovga katta ma’suliyat yuklagan.

XX asrda rus xalqiga ham sovet hokimiyatining ateistik mafkurasi katta salbiy ta’sir o‘tkazdi. Rasmiy idoralarda tuzilgan nikoh oilani zaiflashuviga, minglab bolalarni tirik etimga aylantirib, bolalar uylariga topshirilishini oddiy holatga aylantirildi.

Dafn marosimlari ham keskin o‘zgarishlarga uchradi. Cherkovda cho‘qintirilmagan kishining marosimi ham grajdanlik udumiga aylantirilib, asosiy an’ana – bu hotirlash, to‘qqizini, qirqini, yilini o‘tkazish bo‘lib qoldi. Uni ham barcha oilalar ayniqsa shahar sharoitida o‘tkazayotgani yo‘q.

Ota-onalarini qariyalar uyiga topshirish, uy-joylarni turli hiyla-nayranglar bilan o‘z nomlariga o‘tkazib, ota-onalarini ko‘chaga chiqarib yuborish faqat shaharlarda emas qishloqlarda ham ommalashib bormoqda. XX asrning oxiri – XXI asrning boshlaridagi rus oilalaridagi vaziyat tobora murakkablashib bormoqda.

Taqvimiy udumlar ruslarda tabiat bilan bog‘lanib bu aholining asosiy faoliyati va hayotini ta’minlash vosita omillari bilan izoxlangan. Bu udumlar negizida sharqiy slavyanlarning qadimiy odatlari elementlari yotadi. Bu udumlar rojdestvo – cho‘qinish kompleksi, qishni kuzatish, bahorni qarshilash (maslenitsa), verb haftasi, semik va troitsa, hosil bayrami bilan bog‘liq. Birinchi va so‘nggi don bog‘lamlarini e’zozlanishi va h.k. lar.

7. Rus folklori.

Rus folklori an’anaviy janrlari orasida eng qadimgi turi marosim qo‘shiqlaridir. Qo‘shiqlar oiladagi muhim voqealarni (oil-

aviy to'ylar, ulug'lab aytish, hazil qo'shiqlar, dafn marosimlari), taqvimiy bayramlarni (qolyadka va vesnyankalar) ham qo'shiqlar hamrohligida nishonlashgan.

Rus xalq qo'shiqlari ham syujetlari boyligi bilan ajralib turadi. Unga sevgi, oila haqida, yamшiklar, hazil-satiriq va boshqa qo'shiqlar kiradi. Adabiyotni yuksalishi, savodxonlikni tarqalishi bilan Rossiyada rus shoirlari she'rlaridan qo'shiqlar yaratila boshlanadi.

Rus ertaklari ham qiziqarli va turli-tumandir. Ulardagi qahramonlar: Ivan ahmoq, Vasilisa Aqlli, Baba yaga, Koщey o'lmas va boshqalar siymosida xalqning hayot mazmuni topqirligi, donishmandligi ko'plab maqollar, matallar va topishmoqlarda o'z aksini topgan.

Rus xalq musiqasi ham rang-barang unda vokal tomoni instrumentaldan ustun turadi. Rus musiqali asboblariga gusli, doira, nog'ora, nay, balalayka, XIX asrdan gitara, garmon va h.k. lar bo'lgan.

Qadimdan ruslarda raqs va o'yinlar musiqa yoki qo'shiqlar hamrohligida ijro etilgan. XIX-XX asrlardagi urbanizatsiya va murakkab ijtimoiy jarayonlar rus an'anaviy madaniyatini keskin o'zgartirdi.

8. Amaliy san'at.

Kashtachilik xalq tasviriy san'atining qadimdan keng tarqalgan turidir. Kashtalar yuzlab yillar davomida an'anaviy naqshlarini saqlagan. Xalq turmushida bu naqsh va kashtalar bilan kiyim-kechaklar, sochiqlar, yopgichlar, dasturxonlar bezalgan. XVII asrdan boshlab Rossiyaning ko'plab viloyatlari ayniqsa Vologda, Nijegorod va Moskva guberniyalarida nafis to'r (kashtali to'r) to'qish keng tus oldi. Bu nafis san'at markazlarining ayrimlari hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Ruslar zardo'zlik, marjonlardan kiyimlarni bezashda foydalanish, gul bosish va h.k. badiiy san'at usullarini ham bilishgan.

Rossiyaning o'rmonli mintaqalarida ilgaridan yog'ochga badiiy ishlov berib: turli o'yma idishlar, o'yinchoqlar, mebellar, mehnat qurollari va boshqalarni yaratganlar. Uylarni devori ham boy va nafis ko'rinishda bo'lgan. XX arning boshlariga qadar qishloqlarda, viloyatlardagi shaharlarda yog'ochdan uylarni derazalarini, old fasadini (old tomonini) naqshinkor bezash keng yoyilgan. Eng boy

o'ymakorlik san'ati namunalari shimoldagi va Volgabo'yi qishloq uylarida saqlangan bo'lib, ular XIX asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan.

Volgabo'yi, Uraloldi, Angaraoldi va boshqa rayonlarda uylarni o'simliklardan olingan va yog'li bo'yoqlar bilan bo'yash keng tarqalgan. Badiiy san'at turlaridan biri – beresta qayin daraxti po'stlog'idan turli idishlar yasash, ularga naqshlar tushirish, metallga badiiy ishlov berish, sopol tayyorlash (Gjel, Yaroslavl, Lipetsk, Skopin va h.k.) markazlari bo'lgan. Loydan o'yinchoqlar tayyorlash markazlari Vyatka, Tula, Arxangelsk, Penza guberniyalari bo'lgan. Eng mashhurlari Dьmkovoda tayyorlangan o'yinchoqlar edi.

9. Rus yozuvchilari asarlarida etnik mavzu. Rus xalqini etnik tarixi uni yevropa va Osiyo xalqlari bilan keng tarixiy-madaniy aloqalarda bo'lganini tasdiqlaydi.

Rus xalqining ma'naviy madaniyati yuksak rivojlangan adabiyot (A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, L.N.Tolstoy, F.I.Dostoevskiy, A.P.Chexov, A.M.Gorkiy va boshqalar) da o'z aksini topib ularning asarlarida milliy ong o'z aksini topgan. Rus adabiyotining o'ziga xos xususiyati u o'zida xalq vatanparvarligini mafkuraviy g'oya sifatida mujassamlab, tarixga hurmat, boshqa xalqlarni yutuqlari va madaniyatlariga ehtiromni ifoda etadi. Vatanparvarlik va baynalminalchilik mavzusi XIX asrda ijod qilgan ko'plab rus yozuvchilari asarlarida kuzatiladi. Xususan A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, L.N.Tolstoy asarlarida Kavkaz mavzusi alohida o'rin tutadi.

Ural-Volgabo'yi xalqlari.

Aholining shakllanishi tarixi. O'rta Volga havzasidan Ural tog'larigacha hudud kiradi. M.av. I ming yillikda Volga (Itil) havzasiga finn-ugor tilli aholi kelib joylashgan. Ularning avlodlari m.av. I ming yillikning ikkinchi yarmidan uchta xalq – mari, mordva va udmurtlarga asos solgan.

M. I mingyillikning birinchi yarmida O'rta Volga va Azov bo'yi dashtlariga turkiy tilli xalqlar xususan bulg'orlar kela boshladi. Turkiy xalqlar X-XIII asrlarda ilk feodal davlatlari – Volga Bulg'oriyani tuzgan. Bu davlat Sharqiy yevropa iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan.

Volga Bulg'oriyasi aholisi ural – volga bo'yi xalqlarini: tatarlar, chuvashlar, qisman boshqirdlarni shakllanishiga asos bo'ladi.

Mo'g'ullar bosqini tufayli Volga Bulg'oriyasi o'z faoliyatini to'xtadi. Keyinchalik bu hududlar Oltin O'rda xonligiga kiritiladi. XV asrda Oltin O'rdadan Qozon xonligi ajralib chiqadi. Rus podshosi Ivan IV Groznыy 1552 yili Qozonni egallab xonlikni tugatadi.

Ural-Volgabo'yi hududi qadimdan yevropa va Osiyo chegarasidagi turli rasalar aloqalar zonasi bo'lgan. Tarixiy etnografik oblast xalqlari o'z qiyofalarida mongoloidlik va evropoidlik xususiyatlarini mujassamlaganlar.

Ural-Volgabo'yi xalqlari orasida eng shimolda joylashgan udmurtlar va besermanlar Kama – Vyatka daryolari havzasida yashaydilar. Udmurtlardan g'arb tomonida mariylar joylashgan. Regionning g'arbi va janubiy - g'arbida Mordva xalqi yashab ular haqidagi ilk yozma ma'lumotlar VI asrga oid Mordvalar ikki etnik guruhga: erza va mokshaga bo'linadi. Erza va mokshalar tili qardosh bo'lsada turlicha. Volganing o'ng sohilida chuvash-virellar daryo oqimi yuqorisida, chuvash-anatrilar quyiroqda yashaydilar. Hududning o'rtasida Volgabo'yi tatarlari istiqomat qiladilar. Tatar nomi XIX asrdan ushbu xalqda etnonim sifatida mustahkamlangan. Unga qadar ular o'zlarini bulg'orlar deyishgan. Volgabo'yi tatarlari ikki guruhga: qozon tatarlari va mishar tatarlariga bo'linadi.

Tatarlardan sharqda va janubiy sharqda Uraloldi va Uralorti rayonlarida boshqirdlar yashaydi. Bu etnonim X asrdan ma'lum. Boshqirdlar xotirasida qadimgi urug' – qabila bo'linishi izlari saqlanib qolgan. Bunday guruhlar soni qirqqa yaqin (yurmat, burzyan, usergen va h.k) bu borada boshqirdlar O'rta Osiyo xalqlariga o'xshashdir.

Yuqoridagi etnoslar soni olti yuz mingdan (mariyliklar), 3 mln kishigacha (tatarlar) ularning barchasi Rossiya federatsiyasi tarkibidagi milliy respublikalardir. Boshqirdiston, Mariy El, Mordaviya, Tatarston, Udmurtiya va Chuvashiyalar ko'p millatli respublikalardir. Ularda ruslar eng yirik etnik guruh, ayni vaqtda tatarlar, chuvashlarning yarmi, mordavalarning uchdan biri o'zga hududlarda yashashadi.

Tillari Ural va Oltoy til oilalariga kiradi. Ural til oilasining perm guruhiga udmurt va besermanlar tillari kiradi. Volga –finn

til guruhiga mordva va (erzya va moksha) va mariy tillari birlashgan.

Oltoy til oilasi hududda turkiy tillari guruhiga kiruvchi: boshqird, tatar va chuvash tillaridan iborat. Boshqird va tatar tillari qipchoq guruhiga mansub.yozuvlari tatarlarda 1927 yilgacha arab alfaviti 1928-39 yillari lotin grafikasi, so'ng kirillcha alfavit qabul qilinadi. Qolgan etnoslar yozuvi XIX asrda kirillcha alfavit asosida yaratilgan.

Volgabo'yi xalqlari xo'jaliklari dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo'lib, u mahalliy geografik imkoniyatlar doirasida shakllangan. Yerni plug bilan xususan, mahalliy kashfiyot - oldida g'ildiragi bo'lgan saban bilan ag'darishgan. Bu ish quroli olimlarning fikricha bulg'orlar davridan ishlatilgan. Volgabo'yi va Uraloldi hududlarida chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Qo'y otarlari, yilqi uyurlari, qoramol podalari boshqirdlar xo'jaligida ko'chmanchi va yaylov o'troq chorvachiligida katta o'rin tutgan.

Ural-Volga bo'yida yovvoyi asalarilar asalini yig'ish ham ancha yuksalgan. Keyinchalik sohaning rivojlanishi asalarichilikni eng mashhur kasblardan biriga aylantiriladi.

Hozirgi kunda Ural Volgabo'yi xalqlari yangi zamonaviy ishlab chiqarish: yuksak texnika va texnologiyaga asoslangan sanoat va agrar sohalarini yuksaltirmoqda.

Chuvashiya avvaldan xmel etishtirish bo'yicha ixtisoslashgan. U Rossiyaning asosiy xmel ishlab chiqaruvchisidir. Boshqirdiston qimizi va asali bilan shuhrat qozongan. Udmurtiya va Mordoviya yog'och tayyorlash va yog'ochni qayta ishlash sanoati markazlaridir. Tataristonda uzoq o'tmishdan teri ko'nchilik, po'stin, oyoq kiyimlari, kigiz bolish undan valenkilar tayyorlash bilan shug'ullanganlar.

Udmurtlar, mariylar,chuvashlar, mordvalar qishloq uylari o'rta rus o'lkasi aholisinikiga o'xshash yog'ochdan yo'nib, ikki tomonlama qilib yopilgan uylardir. Bu uylarni ko'chaga qaragan tomonida uch yoki to'rtta derazasi bo'lgan. Volgabo'yi va Uraloldi qishloqlarida bu xildagi uylar hozirgi kunda ham keng tarqalgan.

Aholining qadimgi udum marosimlari, ta'ab va odatlari taomlarda saqlanmoqda. Volga - Ural regioni uchun turli piroglar (go'mmalar) – ochiq va yopiq ko'rinishida, go'shtli, sabzavotlardan,

kartoshkadan, donlilardan –mevalardan qo'shib tayyorlash xususiyatlidir. O'ziga xos piroglar cheryomuxa va kalinadan qilinadi.

Turkiy xalqlar uchun turli go'shtli taomlar: uy kolbasalari (tatar va boshqird qazilari), chuvash shirtani (mol qorniga go'sht qiymasini solib pishirish), boshqird beshbarmog'i, tatarlar chak-chaklari uzoq-uzoqlarda ham mashhur.

Volgabo'yi va Uraloldi finn xalqlari taomlarida: quymoq, non, turli bo'tqalar, piroglar, bo'g'irsoqlarning o'rni katta. Chuchvara ham barcha aholi vakillarida milliy taomga aylangan. Uyga kelgan mehmonni yoki yo'l-yo'lakay kirgan yo'lovchini mehmon qilish odati bugungi kungacha saqlangan.

Oila va oilaviy marosimlar. Tatar va boshqirdlarda uy erkaklar va ayollar qismlarga bo'linadi. Uyning isitish vositasi (pechi) joylashgan qismi ayollarini hisoblanadi.

O'tmishda oilaviy turmush ko'psonli urf-odatlar, marosimlar bilan to'la bo'lgan. Nikoh ota-onalar roziligi bilan tuzilgan. Udmurtlar, mariylar va mordavalarda yoshi katta qizlarni yosh bolalar bilan nikohi holatlari uchragan. Unda uyga qo'shimcha xizmatchi olish asosiy maqsad bo'lgan. Bu hol folklorda ham o'z aksini topgan. Tatar va boshqirdlarda qiz tomonga qalin puli to'lash odati bo'lsa, mordvalarda qadimgi udum kelinni eri tomondagi erkaklar bilan gaplashmaslikka harakati saqlangan.

XIX asrda ayrim xalqlarda yirik, bo'linmagan oilalar saqlanib ularda 20-30 tagacha kishi bo'lgan. Bunday oilalardagi munosabatlar haqida biz yuqorida to'xtalgan edik. Endilikda yirik oilalar deyarlik uchramaydi. Kichik ikki avlod vakillaridan bo'lgan oilalarda odatda 3-6 ta kishi mavjud xolos.

Ma'naviy madaniyat.

Folklor. Turkiy finn-ugor xalqlari folklor an'analari bir-biridan katta farq qiladi. Xususan boshqirdlar folklorida qahramonlik dostonlari muhim o'rinni egallaydi. "O'rol botir", "Aqbulat" dostonlarida boshqirdlarning afsonaviy ajdodlari, ularning sehrli qanotli otlari va boshqa syujetlar mavjud. Tatarlar folklorida baytlar ayniqsa mashhur, unda shoirlar turli voqealarni, adabiy she'riy qissalarga aylantirganlar.

Ural-Volgabo'yi xalqlari folklorida qo'shiqlar alohida o'rin egallaydi. Bu qo'shiqlari aksari tarixiy mavzularga bag'ishlangan.

9. **Quyi Volgabo'yi qalmiqlari.**

Qalmiqlar Qalmiqiya respublikasida (poytaxti Elista shahri) mujassam joylashganlar. Ular yashaydigan Volga daryosining quyi oqimi cho'l-dasht zonasidir. Qalmiqiya haqida o'ziga hos tarixiy - etnografik rayon sifatida so'z yuritilishi mumkin. Hudud O'rta Osiyo va Qozog'iston, Ural-Volgabo'yi shuningdek Shimoliy Kavkaz bilan chegaradosh bo'lishi qalmiqlarni xo'jalik madaniy tiplarida o'z aksini topgan.

Jumladan, yaqin o'tmishda qalmiqlar ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganlar, bu ularni O'rta Osiyoliklar bilan yaqinlashtiradi.

Baliqchilik va qovun-tarvuz yetishtirish Quyi Volgabo'yi bilan, dehqonchilik va bog'dorchilik Shimoliy Kavkaz xalqlari bilan aloqalar natijasidadir.

Qalmiqlar – yevropani yagona mo'g'ul tilli aholisidir. Ularning ajdodlari oyratlar – Markaziy Osiyolik qabilalar bo'lib hozirgi hududlariga Jung'oriyadan (Mo'g'ulistonning g'arbidagi tarixiy viloyat) kelganlar. Rossiya chegaralarida XVII asrni boshlarida paydo bo'lib, XVII asrning ikkinchi yarmida yirik qalmiq xonligini tuzganlar.

XX asrning 20-30 yillaridan qalmiqlar o'troq hayotga o'tsalarda chorvachilik eng avvalo qo'ychilik ularning xo'jaligi asosi bo'lib qolmoqda. Yirik shoxli mollarning qalmiq zoti o'zining "marmar" go'shti bilan nom qozongan.

Deyarlik to'rt asrdan buyon bir-biridan keskin farq qiladigan xalqlar qurshovida yashagan qalmiqlar o'z mongoloid rasasini saqlab bu borada mo'g'ullar va buryatlarga yaqin.

Qalmiqlarning o'tmishdagi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xo'jaliklari ta'siri ularning taomlari tizimida yaqqol kuzatiladi. Ozuqada sut va undan mahsulotlar, xamir va go'sht afzal ko'riladi.

Ayniqsa yosh yilqi va qo'y go'shti qadrlanadi. Mevalar, sabzavot hamda ko'katlar kam unda ham qo'shni xalqlar ta'sirida iste'mol qilinadi. Qalmiqlar choyi-jombaga qovurilgan un, tuz, yog', sut, muskut yong'og'i solishadi.

Qalmiqlarning turmush tarzi keskin o'zgarganligi tufayli ularning moddiy madaniyatlardagi qadimgi unsurlar uzil-kesil yo'qotildi.

Jumladan ularning o'tovga o'xshash ko'chma uylari XX asrning birinchi yarmida rus va umum evropa turar-joylari ta'sirida butunlay yo'qotgan.

Dinlari buddizmning lamaizm turidir. Bu ularni faqat qo'shnilaridan emas, balki barcha evropa xalqlaridan farqlaydi.

Qalmiqlarning qahramonlik dostonlari "Jangar" XV asrning o'rtalarida yaratilgan. U avloddan - avlodga doston tarzda jangarchinlar ijrosida o'tib kelgan.

Qalmiqlar 1943 yili fashistlarga yordam ko'rsatilganlikda asossiz ayblanib, Sibirga surgun qilinganlar., bu jazo 13 yil davom etib ular o'z vatanlariga 1957 yili qaytganlar.

Hozirgi Qalmiqiya respublikasi aholisining 50%i qalmiqlar, 40% ruslar. Qalmiqlarning umumiy soni 180 ming kishidir.

Shimoliy Kavkaz xalqlari. Hududi va etnik tarixi

Shimoliy Kavkaz Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kiradi. Geografik jihatidan Shimoliy Kavkaz yevropaga, Kavkazorti esa G'arbiy Osiyoga kiradi. Ular orasidagi tabiiy chegara Katta Kavkaz maydoni jihatidan katta bo'lmasada, turli-tuman xalqlar, tillar va madaniyatlarning bo'lishi bilan xususiyatlanadi. Bu borada Dog'iston alohida o'rin tutadi. O'rta asr arab geograflari Kavkazni "tillar tog'i" – Jebel ul-al-sun deb bejiz atamaganlar.

Til borasida xilma-xillikka mahalliy xalqlarning kelgindi etnoslar bilan o'zaro aloqalari ham o'z hissasini qo'shgan. Natiijada osetinlar (600 migdan ortiq) eron til, qorachoylar (173 ming), balqarlar(75 ming), qumiqlar (286 ming) turkiy tilli xalqlarga aylanganlar. Antropologik tadqiqotlar ushbu xalqlarni kavkaz tillarida so'zlashuvchi tog'lik guruhlar bilan qardoshligini tasdiqlamoqdalar.

Mahalliy aholining qadimgi tillari so'zsiz kavkaz tillari bo'lib, ular uchun xilma-xillik xususiyatlidir. Dog'istonda bir voha aholisi tili, hatto ovul (masalan Kubachi) o'z qo'shnilari tilidan keskin farqlanadi. Ayni paytda yirik til jamoalari ham bo'lib - avarlar (594ming), lazginlar (295ming), osetinlar va hokazolar. Bu holning yana bir izohi - geografik jihatdan bo'linib yashash deyshi mumkin.

Shimoliy Kavkazda turli etnik nomlar mo'ldir. Ekzoetnonimlar - boshqa xalqlar tomonidan berilgan etnonimlar; endoetnonimlar - o'zlariga o'zlari bergan nomlar. Ulardan chechenlar (1 mlndan ortiq) yoki ingushlar - bu ekzoetnonimlar ular o'zlarini naxcho va galgai (vaynaxlar yana bir nomlari) dep xam ataydilar. Osetinlar kabardinlarni kasagi, balkarlarni - aslar, chechenlarni - setsenaga, ingushlarni - madal deyishadi.

Shimoliy Kavkaz xalqlarini etnik tarixi xam murakkab. Paleolit davri ashyolarini topilishi hududda odamlarni qadimdan yashab kelayotganini tasdiqlaydi.

Shimoliy Kavkazda qadimda janubdan bir necha migrasiya to'lqinlari bo'lgan. Neolitda m.av. VII-V ming yilliklarda o'zlashtirish xo'jaligidan ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tila boshlandi.

Hozirgi Checheniston hududida m.av. III-II ming yilliklar g'arbiy tomondan kelgan migrantlar bilan G'arbiy Osiyodan kelayotgan kura-araks madaniyati aholisi harakati to'xtatladi. Ushbu etnik guruhlar assimiliyasiyasidan dog'iston va nax tillari shakllangan. M.av. II ming yillik oxirida Shimoliy Kavkaz aholisi Janubiy-Sharqiy yevropaning dasht qabilalarining kuchli ta'siriga uchraydi. Olimlar bu qabilalarni hind-evropa tilli aholi bo'lganligini faraz qilishadi.

Markaziy Kavkaz aholisi dashtlardan kelganlar bilan aralashib til assimiliyasiyasiga kirishgan. Odatda bunday holatlarda ikki tillik vujudga kelgan. Kavkazning sharqida va Dog'istonda dashtlik qo'shnilarning kelib joylashishi etnik taraqqiyot va mahalliy xalqlar – chechenlar, ingushlar, Dog'iston xalqlarining tillarini o'zgartirmaydi. Ayni paytda arxeologiya, tog'li xalqlar moddiy madaniyatiga sarmat unsurlari kirganligini tasdiqlaydi.

Xunnlarni bostirib kirishi sharqdan boshlanadi. Ular tog'lardagi vohalarga kirmay, dengizoldi yo'lagidan o'tadilar. Xunnlarning bir qismi tog'oldi adirlari, Kaspiybo'yida joylashganlar. Ularning tillari turkiy bo'lib Dog'iston va G'arbiy Kaspiybo'yi aholisini turkiylashishiga turtki beradilar.

Xunnlardan so'ng G'arbiy Kavkazga kelgan bulg'orlar ham Shimoliy Kavkaz xalqlarini turkiylashuviga o'z hissalarini qo'shadilar.

Shimoliy Kavkazning tub etnoslari orasida bir xalq borki,

uning kelib chiqishi Kavkaz bilan bog'langan emas. Lekin uning tarixi hudud bilan uzviy bog'liq. Bu no'g'aylar (58 ming) bo'lib ular hozirda Kavkazoldi dashtlarning bir qismini egallaganlar. No'g'aylarning ajdodlari o'tmishda ko'chmanchi hayot kechirganlar, keyinchalik o'troqlashganlar. No'g'ay xalqi tarixi Oltin O'rda xonligi doirsida XIV asr oxirida boshlangan. Dastlab Edigey boshchiligida Mang'it o'rdasi tashkil topgan. Uning qachon No'g'ay nomini olganligi noma'lum.

Asrlar davomida Shimoliy Kavkaz xalqlari ustidan o'z hukmronligini o'rnatish uchun Turkiya, Eron, Rossiya va boshqa davlatlar kurash olib borgan. Bu kurashlarda Rossiya g'olib chiqib XIX asrning ikkinchi yarmida hududda o'z hukmronligini to'liq o'rnatadi.

Inqilobda so'ng (1917) Shimoliy Kavkazda sovet hokimyati boshchiligida avtonom respublikalar tizimi yaratilib, u hozirga qadar davom etib kelmoqda. Ikkinchi jahon urushi yillari chechen, ingush, kabardin, balkar va boshqa xalqlar deportatsiya qilinib, o'z vatanlariga XX asrning 50 yillari oxirida qayta oladilar xolos. Bu xalqlar murakkab sharoitlarda ham o'z tillari, dini, milliy madaniyatlarini asray bildilar.

10. Xo'jalik.

Dehqonchilik. Kavkaz umuman Shimoliy Kavkaz ayniqsa ko'plab donlilar, poliz va mevalar vatani sifatida tanilgan. Dehqonchilik qadimda boshlanib ko'pchilik aholini asosiy mashg'uloti bo'lib kelmoqda. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari aholining asosiy ozig'ini tashkil etadi. Baland tog'lar ustida agar bir parcha er bo'lsa mahalliy aholi vakillari undan foydalangan, tog'larda sun'iy ekin maydonlari qilishga intilgan. Xalq rivoyatida istehzoli bir narsa ta'kidlangan. Tog'li kishi ustidagi chakmonini (kigizdan qilingan ustki kiyim) erga tashlanganda "o'z erini" topa olmagan ekan, sababi er to'lig'icha chakmon ostida qolgan ekan. Bu kichik er maydonlari tog'dan tushayotganda ayniqsa yaxshi ko'rinadi. Donli ekinlar, sabzavotlardan tashqari bu erlarda uzum, qovun-tarvuz, behi, o'rik mevalari yetishtiriladi.

Chorvachilik. Dehqonchilik chorvachiliksiz deyarli uchramaydi, sababi erni omochda haydash, yuk tashish uchun ish hayvonlarni zarurligi qadimdan ma'lum. Otlar aksari minish uchun bo-

qilgani sababli, asosiy tortish kuchi xo'kizlar bo'lgan. Sigirlar va qo'ylar aholini sut va undan mahsulotlar, go'sht bilan ta'minlagan. Osetin-xristianlar to'ng'iz ham boqishgan. Parranda boqish ham Shimoliy Kavkaz xalqlari qishloq xo'jaligining barqaror qismidir. Xo'jalikning yordamchi sohalari ov, baliqchilik, asalarichilik, ipakchilik bo'lgan.

Hunarmandchilik. Xo'jalik faoliyatida muhim o'rin egallaydi. To'qimachilik, movut to'qish, kulolchilik, gilamdo'zlik, metallga ishlov berish, sangtaroshlik, yog'ochsozlik, suyakka naqsh sokish bilan keng aholi qatlamlari shug'ullangan. Dog'istondagi Kubachi qishlog'i oltin va kumushdan turli buyumlar yashovchi ustalarini uzoq mamlakatlarda ham tanishadi. Arab geograflari IX asrda kubachiliklarni forscha "zirexgeron" (sovutsozlar) deb ataganlar. Ushbu qishloq erkaklarining asosiy ishi ma'danga ishlov berish va qurolsozlik bo'lgan. Jang qurollari sovutlari Kavkazda, Eronda, Turkiyada, XIX asr oxirida Rossiya va G'arbiy yevropada yuqori baholangan. XX asrdan Kubachida zeb-ziynatlar va uy jihozlari (qumg'onlar, qadahlar, choynaklar va hokazolar) yasala boshlanib, bu faoliyat hozirga qadar davom etmoqda.

Xo'jalik va diniy e'tiqodlar, taqvimiy marosimlari.

Xo'jalik mashg'ulotlari – hayot asosidir. Yer sug'orish uchun suv, iqlim va boshqa tabiiy sharoitlar – ularning barchasi Shimoliy Kavkaz xalqlarining alohida kuzatuvi va e'zozlashi sababchisi bo'lgan. Yerni aholi muqaddas bilib unga jaxl bilan tupurish, zaruriyatsiz o'tkir uchli narsalarni unga tiqish ta'qiqlangan. "Yer meni jazolasin" matali yillar o'tib qasam ichish turiga aylangani bejiz emas. Tog'liklar mehnati og'ir bo'lib, asosiy oziq nonga yetish talay qiyinchiliklarni engib o'tishni talab qilgan. Non afsungarlik kuchiga ega hisoblanadi, uni yomon ko'zdan asrash xususiyatiga ega deb bilishgan. Darg'inlar (Dog'iston xalqlaridan biri) tantana va bayramlarda nonni qo'g'irchoq shaklida pishirib, bayramlardan so'ng birgalikda iste'mol qilganlar. Nonni pichoq bilan kesish mumkin bo'lmagan (qo'l bilan sindirilgan), nonni ustidan sakrash ta'qiqlangan.

Yog'ingarchilik bo'lmasa qurbonlik qilish, bizdagi "sust xotin" ga o'xshash qo'g'irchoq ramzini qilib suv ilohidan yomg'ir so'rashgan.

Chorvachilik ta'minlanganlik, boylik ramzi bo'lgan. Shuning uchun molni tuyog'ini, boshini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu jarayonni muvaffaqiyatini ta'minlash uchun turli irim-marosimlar o'tkazilgan. Yomon ko'zlardan asrash uchun otni kalla suyagini molni qo'ralariga o'rnatib qo'yishgan.

Kavkazliklarda butun xo'jalik yili davrlarga bo'linib, turli irim marosimlari bilan nishonlangan. Bu bayramlarning cho'qqisi bahori tun va kunni tenglashgani – 22 martda o'tkazilgan. Avarlar va laklarda: makka uni, loviya, bug'doy, qora murch, molni (qo'yni) kuzda quritib qo'yilgan oyoqlari va iyaklari, sut va tuz ishlatilgan. Xankal qilinadi ot, buqa, xo'roz ko'rinishidagi nonlar tayyorlanadi. Qishloqlarda tunda olov yondirib, qishni ramziy qo'g'irchoq aksini, katta yog'och g'o'lalarni yondirib pastga tashlashgan. Gulxandan sakrab o'tib turli kasalliklardan forig' bo'lishlariga ishonganlar.

4. Moddiy madaniyat.

Shimoliy Kavkaz xalqlari asrlar davomida tabiiy sharoitga mos hayot ta'minotini yaratishgan. Uning muhim qismi an'anaviy maishiy madaniyat (qishloqlar, uy-joylar, kiyim-kechaklar, taomlar, mehnat qurollari, transport vositalari va hokazolar).

Qishloqlar. Baland tog'lardagi qishloqlar o'ziga xos va rang-barang. Tabiiy relefga mos qurilgan uylar ko'rinishidan asalari uyalariga o'xshaydi.

Aholi sonini o'sishi, erning tanqisligi tog'li aholini tog'oldi va daryolar vohalariga ko'chib tushishiga majbur etgan. Ayrim oilalar bir hovlili bir-biridan nisbatan uzoq joylashgan ovullar tashkil etishganlar. Asta-sekin oila a'zolari ko'payib, yangi uylar qurilgan, ovullar kengayib qishloqlarga aylangan. Zamonaviy qishloqlarda ham qarindoshlarga ozgina imkoniyat tug'ildi deguncha yaqin joydan uy qurib joylashishga harakat qilinadi. O'tmishda uy-joylar tartibsiz qurishgan, hozirda ko'cha va mavzelar tartiblashib boroqda.

Shaharlar. Shimoliy Kavkazdagi eng qadimgi shahar Derbent yaqinidagina 2000 yillik yubileyini o'tkazdi. Qolgan shaharlar XVIII-XIX asrlarda bunyod etilgan. Mazdok, Kizlyar shaharlari

1780 yilda tashkil topgan. XIX asrning birinchi yarmida Petrovsk-Port (hozirgi Mahachqal'aga) asos solinadi. Vladikavkaz, Groznыy shaharlariga ham shu davrda tamal toshi qo'yilgan. Ushbu shaharlar XIX asr oxiridan evropalashgan madaniy-maishiy standartlarni tog'li aholiga o'tkazish omiliga aylanadi.

Shaharlarda dastlab rusiyzabon aholi yashagan. Lekin 1920 yillardan boshlab mahalliy xalqlar foizi oshib borgan. Shaharlarda universitetlar ilmiy markazlari, milliy teatrlar, nashriyotlar, kutubxonalar va madaniyatning boshqa professional sohalari vujudga keladi.

Uy-joylar. Shimoliy Kavkaz xalqlarining zamonaviy turar joylari konstruksiyasi, qurilish ashyolari, ichki ko'rinishi va jihozlari bo'yicha juda o'xshash. O'tmishda tafovutlar katta bo'lgan, o'rmoni bo'lmagan tog'li xududlarda: Dog'istonda uylarni toshdan, Qorachoyda – yog'ochdan qurishgan. Tekislik joylarda asosiy qurilish ashyosi somonli loydan qilingan xom g'isht bo'lgan. Ulardan tashqari devori bo'yra ustidan loy suvalgan, shuningdek sinchli uylar bo'lgan. Checheniston va Ingushiyani, Osetiya va qisman Balqariyani ba'zida "minoralar mamlakati" deyishgan. Ko'plab tog'li qishloqlarda hozirga qadar yarim vayron bo'lgan uylar orasida viqorli jangovar minoralar uchrab bu qishloqlarga tengsiz me'moriy ko'rinish beradi. Bu minoralar XVI-XVIII asrlarda bunyod etilgan. Xavf bo'lgan paytlarda ular bir necha oila yashiringan.

An'anaviy Kavkaz uylarining muhim elementi – o'choq, uyni isitish va taom tayyorlashga xizmat qilgan. O'choqni uy va oila bilan qiyoslangan. Qorachoylarda o'choq oldidagi toshni o'rnatish o'z ahamiyatiga ko'ra uyni asosiga birinchi yog'ochni qo'yishga tenglashtirilib maxsus duolar bilan o'tkazilgan. O'choq ustidagi zanjirga, qozonga va hatto o'choqdagi ko'mir va kulni ham muqaddas deb bilishgan. O'choq ustidagi zanjir oila birligini ramzi bo'lgan.

An'anaviy Kavkaz uylarida mehmonlar uchun alohida xona – qo'noq (do'st, birodar) qurishgan. Odatda u alohida bino bo'lgan. Unda hech kim yashamaydi, lekin hozirgi kunda ham qishloq uylarida bu inshoot mavjud.

Kiyimlar. Tabiiy-iqlim sharoitlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va turli shakldagi madaniy aloqalar, Shimoliy Kavkaz xalqlari kiyimlarida umumiy xususiyatlarni vujudga keltirgan, bu ayniqsa

deyarlik barcha xalqlarda bir xil bo'lgan erkaklar kiyimida kuzatiladi. Erkaklar kiyimi cherkeska, beshmat yoki ko'ylak, keng yoki tor ishton, soqqi va yumshoq poshnali poyabzal teri yoki safyandal. Albatta kamar (teridan kumush yoki oddiy metalldan qo'shimcha bezak bilan), xanjar; bosh kiyimi qorako'l teridan yoki boshqa terilardan turli fasondagi telpaklar, kigizdan kundalik bosh kiyimlari bo'lgan. Yo'lga chiqqanda qo'shimcha chakmon va boshliq olingan. Tog'liq kishi qanchalik kambag'al bo'lmasin doim xanjari kamari bo'lgan.

Ayollar va qizlar kiyimlarining o'zgarmas qismida uzun tunikasimon ko'ylak, ham ishton bo'lgan. Boshi va elkasini ro'mol bilan yopishgan. Bayramlarda ko'ylak ustidan kumushdan qistirqichlar bilan kaftancha ko'ylaklari tillo iplardan kashtalar bilan bezatilgan.

Ayollar kiyimi qizlarnikidan faqat ayrim jihatlari bilan farq qilgan. Qorachoy va balkar ayollari boshida ikkita ro'mol birini tasma sifatida ikkinchisi ustidan bog'lab kiyishgan. Chechen ayollarida deb chuxta nomlangan (tikilgan qopchasimon) ichiga sochlarini joylashtirib peshonasigacha tortib ustidan tashlagan yupqa ro'mol kashtalari boshlari atrofiga osilib turgan. Dog'iston ayollari kiyimlari va taqinchoqlari ham xilma-xil bo'lgan.

Taomlari. Shimoliy Kavkaz xalqlarining ko'pchiligida taomlari asosi sutli o'simliklardan iborat. Eng avvalo non ko'ptirilgan yoki xamirturish solinmagan xamirdan qilingan. Abazinlarda bo'tqa (suli unidan), hozir makka yoki bug'doy unidan sovutilib kesib bo'laklarini yoki issiq holatda pishloq, qatiq, zirovorlar, qayla qo'shib eyishgan. Bu xamir taom e'zozli hisoblanib uni aziz mehmonlarga tayyorlashadi.

Odatda Kavkaz xalqlari go'shtli kabobni ko'p iste'mol qilishadi degan fikr ko'p uchraydi. Amalda esa kavkazliklar mollari soni bilan ko'proq faxrlanishib, go'shtni bayramlarda, to'ylarda eyishadi.

Kavkazda eng keng tarqalgan mashhur taomi – kabobni ilgari endi so'yilgan molning, qo'yning jigari, buyragi va h.k.lardan qilishgan. Aynan shu xildagi kabob delikates (tansiq taom) hisoblanadi. Shimoliy kavkazliklar oshxonasida dog'iston xinkalisining – avar, kumiq, lak va boshqa xalqlarniki keng yoyilgan. Unda qiymani xamirda, bizdagi mantiga o'xshatib pishirib sho'rvasi va

unda pishirilgan go'sht bo'laklari bilan qo'shib tortiladi. Tog'liklar dasturxonida albatta pishloq, qatiq, qorachoy va balqarlarda ayron ichimlik sifatida keng tarqalgan. Kavkazliklarning barchasi turli ko'katlar – kinza, ukrop, piyoz, sarimsoq va h.k.larni ko'p iste'mol qilishadi. Shimoliy Kavkazda ham uzumdan turli vinolar ko'p tayyorlanadi.

5. Oila va oilaviy turmush.

Oila – faqat ijtimoiy va xo'jalik birligi emas etnosni yaratuvchi hamda saqlovchi usuldir. Oila qurish masalasiga Kavkazda juda mas'uliyat bilan qarashadi. Oila qurishga monelik qiladigan qator to'siqlar bo'lib ulardan biri qarindoshlikdir. Ko'pgina Kavkaz xalqlarida to'rtinchi avloddan beri qarindoshlar orasida nikoh ta'qiqlangan. Qarindoshlar safini kengaytirib nikohga kiruvchilar sonini cheklaydigan odatlardan biri bolaga doyalik qilgan ayol chaqaloqqa qandaydir sabab bilan ko'krak bergan ayolni oilasi ham kirgan.

Tadqiqotchilar kavkazdagi otaliq sun'iy qarindoshlik odatini keng tadqiq etishgan. Bolani boshqa biron oilada ma'lum muddat bo'lishi, tarbiyalanishi ushbu qarindoshlik turini kengaytirgan. Aksari bola yangi oilada tug'ilganidan 15-16 yoshgacha tarbiyalangan. Otaliqni tanlash, bolani berilishi, uni qaytishi ko'plab udum-marosimlarni bajarilishi bilan amalga oshirilgan. Adiglarda otaliqlik dehqonlar toifasida kengroq tarqalgan. Odat bu xildagi munosabatlarni qon-qarindoshlikka tenglashtirilgan.

Sun'iy qarindoshlik usullari ko'p bo'lgan. Uning ahamiyati katta ekanligi bu orqali qonli xun olinishini to'xtatilishini ko'rsatish mumkin. Mojaroni to'xtatish maqsadida 4-10 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolani o'g'irlab, boqib so'ng sovg'a-salomlar bilan ota-onasiga qaytarishgan. Bizning kunimizda sun'iy qarindoshlikning barcha turlaridan eng qat'iy saqlanayotgani sut qarindoshlikdir.

Yangi oilani yaratilishi oni – murakkab nikoh to'yi udum-marosimlarini o'tkazayotgan ko'p sonli qarindoshlarni bir necha kun davom etadigan bayramidagi eng muhim paytdir. Yangi oilaga farzand tilash to'y dasturxonida tovuq va tuxumlarni qo'yilishida kuzatiladi. Kelin kuyovni uyiga kirishidan oldin uni ustidan konfetlar, don sochishadi.

Shimoliy Kavkazda ham patriarxal oilalar uzoq vaqt hukmronlik qilgan. Ayollar oilada itoatkor holatda bo'lgan.

Ijtimoiy munosabatlar. Shimoliy Kavkaz xalqlarining alohida guruhlari ijtimoiy taraqqiyot darajasini XVIII-XIX asrlarda anchagina farqlangan. Dog'istonlik qator jumladan, adiglarda feodal jamiyatga xos ijtimoiy tabaqalanish kuzatilsa, vaynaxlarda patriarxal jamoalar, urug'-jamoachilik tartiblari hukm surgan. Qabardinlar, cherkeslar, abazin va avarlarda xonlar, knyazlar, zodagonlar bir tomondan, ularga itoat etuvchi qaram dehqonlar va hatto uy qullari bo'lgan. Ayni paytda adiglarni bir qismi Dog'istonni ayrim xalqlarida dehqonlarning erkin jamoalari bo'lib, ular hech kimni "xo'jayin" ligini tan olishmagan.

Qishloq jamiyatlarida ilgaridan qon-qarindoshlik birlashmalari shakllanib, ular bir necha yirik oilalardan tashkil topib qarindoshlik, odat bilan uzviy bog'langanlar. Chechen va ingushlarda ularni tayp yoki gar, avarlarda – tuxum deyilgan. Ushbu xalqlar hayotida ular birdamlik va ozaro aloqalarni ta'minlash muhim o'rin tutgan.

Kavkaz xalqlari turli-tuman bo'lsada ularda ko'plab umumiy odat-udumlar shakllangan. Jumladan Kavkaz mehmondo'stligi XIX asrda tadqiqotchilik ijtimoiy hayotni asosiy negizi, qonuni deb atashgan. O'zaro yordam uy qurish, erga ishlov berish, o'tin tayyorlash va h.k.larda qo'llanilgan. O'zaro yordamni olaviy marosimlar – to'ylar, dafn va xotira tadbirlari ham talab qilgan. Jumladan to'y harakatlari va to'yona berish har bir jamoa a'zosi o'z qarindoshlariga oilasi a'zolariga yordam berganidek qarashishi odat bo'lgan. Kavkazda ham "Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo'shni yaxshi" matali bo'lgan.

Ijtimoiy hayotda odat me'yorlariga qat'iy rioya qilingan. Uni buzish insonni jamoadan quvg'in qilinishiga olib kelishi mumkin edi. Bu odat, udum, marosimlarda diniy e'tiqod bilan uzviy bog'lanmagan, lekin asrlar davomida tog'ning murakkab sharoitida shakllangan "yozilmagan qonuniyatlar" dir.

6. Folklor va badiiy adabiyot.

Shimoliy Kavkaz xalqlari hayotida o'tmish va hozirgi kun ajablanarli holda chirmashib ketgan. Bugungi kunda ularning barchasida yozuv, o'z tillaridagi maorif tizimi, oliy ta'lim, moddiy va ma'naviy madaniyatlari mavjud.

Shimoliy kavkazliklar og'zaki ijodlari ularning turmushi, mehnati va onglarini mujassamlangan. Qo'shiqlar, rivoyatlar, ertaklar, maqollar, matallar, topishmoqlar vatanga, o'z-o'lkasiga muhabbat, jangchining jasurligi, sevganning nazokatli munosabatini tarannum etgan.

Folklorda nart dostonlari Shimoliy Kavkaz xalqlarining ko'pchiligida tarqalsada, ayniqsa osetinlar she'riyatida to'liq namoyon bo'lgan. Dostonlar qahramonlari – pahlavonlar va mehnatkashlar, ovchilar, chorvadorlar, qisman dehqonlarning qahramonlik faoliyatlari, qasos olishlari, ilohlarga qarshi ochiq kurashlari o'z aksini topgan.

Folklorni bugungi kunga qadar yaxshi saqlangan unda mahalliy xalqlarni – faqat keksa avlod emas yoshlarni ham qiziqishlari yuksak darajada ekanligi bilan izohlanadi.

Folklor professional badiiy madaniyat, ayniqsa adabiyotni shakllanishiga asos bo'lgan. Shimoliy Kavkazda adabiyotning she'riyat sohasi ayniqsa yuksalgan. Jumladan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida lezgin shoiri Sulaymon Stalskiy (1869-1937), osetin Kosta Xetagurov (1859-1906), avar Gamzat Sadasi (1877-1935), uning o'g'li Rasul Gamzatov (1923-2003), balqar shoiri Kaysin Kuliev (1917-1985), qabardin Alim Keshokov (1914-2001) lar O'zbekistonda ham ko'p bo'lib yozuvchi, shoirlarimiz bilan do'stona munosabatlarda bo'lishgan.

Savol va topshiriqlar.

1. Rus xalqining joylashishi, til va shevalari haqida so'zlab bering.
2. Ruslarning etnik tarixi, rus millatining shakllanishi bosqichlari qanday kechgan? Internet ma'lumotlaridan foydalaning.
3. Aholining xo'jaligida an'anaviylik va zamonaviylik nimalardan iborat? Tahlil eting?
4. Ruslar moddiy madaniyatidagi transformatsion jarayonlari haqida nimlarni bilasiz? Uy joylar, kiyimlar, taomlar o'tmishda va hozir so'zlab bering.
5. Ruslarda jamoa munosabatlari va oilaviy turmush qanday kechgan?

6. Ma'naviy madaniyatlarini o'ziga xosliklari haqida gapirib bering.

7. Ural-Volgabo'yi xalqlari etnologiyasi haqida nimlarni eslab qoldingiz?

8. Quyi Volgabo'yi Qalmiqlari haqida so'zlab bering.

9. Shimoliy Kavkaz etnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?

10. Shimoliy Kavkazliklarning xo'jaligi, diniy e'tiqodlari, taqvimiy marosimlari qanday?

11. Kavkaz xalqlari moddiy madaniyati o'ziga xosliklari nimalardan iborat?

12. Kavkazda jamoa tartiblari oilaviy munosabatlardagi xususiyatlarni tavsiflab bering.

GLOSSARIY

Aborigenlar – u yoki bu hudud, mamlakatning tub aholisi, ularni ba'zida "avtoxton" deb ham atashadi.

Akkulturatsiya – o'zaro muloqot orqali bir xalqni boshqa xalqni madaniyatidan ma'lum elementlarini o'zlashtirishiga aytiladi.

Animizm – dinning ilk turlaridan biri jon va ruhlarga ishonish, ularga e'tiqod qilish.

Antropologiya – insonni va uning rasalarini kelib chiqishi hamda evolyusiyasini tadqiq etuvchi biologiya fani.

Aparteid - turli etnik rasa guruhlarini alohida yashashalarini targ'ib etuvchi siyosat.

Areal – er yuzida ma'lum voqelikni, hodisani (masalan hayvon turi, madaniyat shakli, foydali qazilma va h.k.larni) tarqalgan hududi.

Assimilyasiya - etnik jarayonlar turi, ikki etnos orasidagi o'zaro ta'sir orqali ulardan birining o'z etnik mansubligini yo'qotishi. Jarayon tabiiy yoki majburiy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Bilingvizm – etnik jamoaning a'zolari faoliyatini yuritish uchun ikki tilning ishlatilishi.

Genezis – kelib chiqish, paydo bo'lishi, ma'lum hodisa, voqya yoki insonlar jamiyatini vujudga kelishi va yuksalishiga nisbatan ham qo'llaniladi.

Demografiya - aholishunoslik fani, aholining shakllanshi, tizimi alohida hududlarga joylashuvini o'rganadi.

Diaspora - xalqning o'zi tug'ilgan yurtdan o'zga hududda yashaydigan qismi. Diasporalar majburiy ko'chirish, genatsid xavfi va boshqa ijtimoiy sabablar tufayli shakllanishi mumkin.

Dolixokefaliya – insonning bosh chanog'ini cho'zinchoq, uzunroq ko'rinishda bo'lishi.

Inkulturatsiya - insonni madaniyatga kirishishi jarayoni, etnomadaniy tajribani o'zlashitirishi.

Kasta - insonlarning biqiq guruhi, ularda alohida an'analar, hayot tarzi, xulq me'yorlari shakllanib boradi.

Konfessiya – din mazhabi, cherkov.

Ksenofobiya – xorijliklarga nisbatan dushmanona munosabat,

u o‘zga tilga, hayot tarziga, tafakkurga va h.k.larga nisbatan kuzatiladi.

Magiya – afsungarlik insonning; tabiatdagi narsa, hayvonlar va boshqa kishilarga ta’sir etishiga ishonchga asoslangan, bevosita afsonlar bilan bog‘langan.

Mentalitet – ma’lum bir insonlar jamoasining fikrlari, diniy e’tiqodlaridagi yaxlitlik u madaniy an’analarni mustahkamlab, dunyo haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

Monogamiya - bir nikohlilik, unda juftlik faqat er-xotinni bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Oykumena – er yuzasining odamlar yashaydigan qismi.

Poligamiya – ko‘p nikohlilik, aksari ko‘p xotinlilikka nisbatan ishlatiladi.

Progmatizm – butun yuzni yoki iyakni oldinga turtib chiqqanligi.

Rasa – jismoniy xususiyatlari bo‘yicha, kelib chiqishi bir bo‘lgan odamlarning tarixiy guruhi.

Totemizm – dinning ilk turalridan. O‘z urug‘i yoki qabilasini kelib chiqishini ma’lum hayvon, qush yoki o‘simlik turi bilan bog‘lashi.

Ekzogamiya – turli etnik guruhlar orasidagi nikoh munosabatlari turi.

Endogamiya – nikhni urug‘, qabila yoki ma’lum jamoachilik guruhi vakillari orasidagina tuzilishi.

Epikantus – ko‘zning yuqori qovog‘i ichidagi teri buklamasi yosh bo‘rtig‘ini yopib turadi. Mo‘g‘ul rasasidagi ko‘z tuzilishi.

Etniklik – ma’lum etnos yoki etnik guruhlarni boshqalaridan ajratadigan madaniy xususiyatlari majmui.

Etnogenez – xalqni kelib chiqishi.

Etnos – ma’lum hududda tarixan shakllangan til, etnik ong, madaniyat, etnonimiga ega insonlar guruhi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. t.1. –Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola –T.., “Ma’naviyat”, 2017.
3. Alan Barnard, Jonathan Spencer. Encyclopedia of social and cultural anthropology. London & New York. 2002.
4. Barbara A. West. Encyclopedia of the Peoples of Asia and Oceania Copyright © 2009. –R. 4-12.
5. Bargatzky Thomas. Ethnologie. – Hamburg. 1997.
6. Burbank V. K. An Ethnography of Stress. The Social Determinants of Health in Aboriginal Australia. New York. 2011.
7. Fischer Hans. Ethnologie.-Berlin; Hamburg, 1998.
8. Harris Marvin. Kulturanthropologie. – Frankfurt; New York, 1989.
9. Hawaiki, Ancestral Polynesia an Essay in Historical Anthropology. Published in the United States of America by Cambridge University Press, New York. 2001.
10. Ingold T. Making: Anthropology, archaeology, art and architecture. London.2013
11. Patrick Vinton Kirch & Roger C. Green. Hawaiki, Ancestral Polynesia An Essay in Historical Anthropology. Cambridge University Press. 2001.
12. Robert L. Winzeler. The Peoples of Southeast Asia Today (Ethnography, Ethnology, and Change in a Complex Region). By Alta-Mira Press. 2011. Printed in the United States of America.
13. Abdullaev U. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. –T.., 2005.
14. Arutyunov S.A. Narodы i kulturы: Razvitie i vzaimodeystvie. –M.., 1989.
15. Ashirov A. Etnologiya. –T.., 2014.

16. Bromley Yu.V. Etnosotsialnыe protsessы: Teoriya, istoriya, sovremennost. –M.., 1987.
17. Gubaeva S.S. Ferganskaya dolina etnicheskie protsessa na rubeje XIX – XX vv. Saarbryuken. 2012.
18. Gumilyov L.N. Konets i vnov nachalo. –M.., 1994.
19. Djabbarov I. Drevniy Xorezm. –M.., 2014.
20. Jabborov I. Jahon etnologiyasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2005.
21. Zdravomыslov A.G. Mejnatsionalnыe konfliktы v postsovetskom prostranstve. –M.., 1997.
22. Koul M, Skribner S. Mыshlenie i kultura. –M.., 1994.
23. Levi - Stros K. Pechalnыe tropiki. –M.., 1984.
24. Levi Bryul L. Svers'estestvennoe v pervobытnom mыshlenie. –M.., 1994.
25. Mid M. Kultura i mir detstva. –M.., 1988.
26. Radlov V.V. Iz Sibiri. –M.., 1989.
27. Salimov T.O'. Avstraliya va Okeaniya xalqlari (O'quv qo'llanma). –T.., 2003.
28. Seriya: Narodы mira.Mnogotomnoe izdanie. – Moskva, A. N. SSSR. 1954- 1966 gg.
29. Stingl M. Tainstvennaya Polineziya. –M.., 1991.
30. Tishkov V.A. Ocherki teorii i politiki etnichnosti v Rossii. –M.., 1997.
31. Xeyerdal T. Puteshestvie na "Kontiki". –T., 1985.
32. Xeyerdel T. Dreniy chelovek i okean. –M.., 1982.
33. Cheboksarov N.N, Cheboksarova I.A. Narodы. Rasы. Kulturы. –M.., 1985.
34. Evans-Pritchard. Nuerы. –M.., 1985.
35. Etnicheskiy atlas Uzbekistana. –T.., 2002.
36. Etnografiya pitaniya narodov zarubejnoy Azii. –M.., 1981.
37. Etnologiya v SShA i Kanade. –M.., 1989.
38. Etnologiya. (Pod red. Miskovoy E.V, Mexedova N.A, Pimenova V.V)-M.., Izd-vo «Kultura» 2005.

Ilmiy jurnallar:

1. Journal of Human Evolution.
2. https://wiki.ucl.ac.uk/display/Mahara/CG03+-+Journals

Internet resurslar:

1. http:// lib.rus.com.
2. http://mirknic.com
3. http://genesis.com.

MUNDARIJA

So‘z boshi 3
Kirish 5
1-bob. Avstraliya xalqlari etnologiyasi. 19
2-bob. Okeaniya orollari: mikroneziya, melaneziya va yangi gvineya etnologiyasi 26
3-bob. Polineziyaliklar 35
4-bob. Shimoliy va shimoliy- g‘arbiy afrika etnologiyasi. 42
5-bob. Tropik va janubiy afrika xalqlari 55
6-bob. Osiyo etnologiyasi. Old osiyo 73
7-bob. Kavkazorti etnologiyasi 87
8-bob.O‘rta osiyo va qozog‘iston xalqlari. 102
9-bob. Janubiy osiyo etnologiyasi 122
10-bob. Markaziy va sharqiy osiyo mamlakatlari 146
11-bob. Janubiy-sharqiy osiyo xalqlari. 162
12-bob shimoliy osiyo (sibir) xalqlari 177
13-bob. Shimoliy amerika xalqlari 202
14-bob. Markaziy, janubiy amerika va vest indiya xalqlari 225
15-bob. G‘arbiy, shimoliy, markaziy va janubiy yevropa xalqlari 242
16-bob. Sharqiy yevropa xalqlari. 264
17-bob belorussiya, ukraina, moldava xalqlari 282
18-bob. Boltiqbo‘yi xalqlari 299
19-bob. Rossiya xalqlari 307
Glossariy 335
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati: 337

Salimov Tursun O‘sarovich

JAHON XALQLARI ETNOLOGIYASI

Muharrir: S. Hoshimov
Musahhih: H. Zakirova
Sahifalovchi: A. Hidoyatov